O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi an’anaviy VII respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2023

Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. –500 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:
G. Jo‘rayeva – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Taqrizchilar:

R. Niyozmetova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

A. Sobirov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

K. Mavlonova	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
M. Tuychiyeva	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
D. To‘xliyeva	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
S. Kuldasheva	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
H. Maqsudov	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi.
J. Nurmuhammadov	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti Kengashining 2023-yil 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

SO‘ZBOSHI

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, pedagog xodimlar nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish kabi juda muhim vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ushbu farmon ijrosi, shuningdek, “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilmoqda.

Bilamizki, umumta’lim fanlari tizimida ona tili va adabiyot ta’limi alohida o‘ringa ega. Boshqa har qanday ta’lim bosqichi ona tili orqali o‘zlashtiriladi. Ona tili fanini o‘qitishdan maqsad – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat bo‘lsa, adabiyot fani o‘quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o‘rgatadi hamda shu orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bilimga asoslangan jamiyatda axborotni izlash, saralash va qabul qilish, tushunish va uni tahlil qilish, tavsiflash, tuzish va qayta ishlash muhim aqliy ko‘nikmalarni egallashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ona tili va adabiyot ta’limi oldida erishilayotgan yutuqlar barobarida dunyo ta’lim tizimidagi eng samarali yondashuv va usullarni ta’lim jarayoniga jadallik bilan olib kirish vazifalari ham turibdi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda xalq ta’limi hamda ijod maktablari uchun ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish konsepsiyasi va milliy o‘quv dasturining Universitetimiz olimlari, amaliyotchi o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi, “Ona tili” va “Adabiyot” darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotgani mazkur sohadagi jiddiy islohotlardan darak beradi.

O‘ylaymizki, keyingi ilmiy-amaliy anjumanlar nafaqat quyi ta’lim, balki oliy ta’limda ham mutaxassislik fanlarini o‘qitish mazmunini takomillashtirish, bu borada muhim vazifalarni amalga oshirishga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuhrat Sirojiddinov
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Boqijon To'xliyev
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
bokijontukliev@inbox.ru

Annotatsiya.

Maqolada Alisher Navoiy asarlarining, jumladan, g'azallarining tahlil qilinishiga oid tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar haqida gap boradi. Unda matnshunoslik va manbashunoslik, shuningdek, adabiyot fanini o'qitish metodikasiga oid mulohazalar ham o'z aksini topgan.

***Kalit so'zlar**: Alisher Navoiy, ta'lim, tarbiya, adabiyot o'qitish, barkamol avlod, badiiy matn tahlili.*

Alisher Navoiy hayoti va ijodi har doim namuna maktabi vazifasini ado etib kelgan. Bu vazifa bugun ham hech bir istisnolarsiz davom etmoqda. Zero, Alisher Navoiy bunday sharaf va ardoqqa to'la munosib mutafakir ijodkordir.

Alisher Navoiy ensiklopedist mutafakkir sifatida e'tirof etilgan. U fanning ko'pdab sohalariga oid tadqiqotlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix sohasidagi kashfiyotlari uni mashhur qilgan. Shunga qaramay, uning olamshumul shuhrati badiiy ijod sohasidagi kashfitlari natijasidir.

Alisher Navoiy "Xazoyin ul-ma'oniy" ("Ma'nolar xazinasi") devonlar turkumi bilanoq "olamni fath etgan", "Devoniy Foniy" nafaqat turkiy olamni, forsiy she'r ishqibozlarining ham e'tiboriga tushgan, besh dostondan iborat "Xamsa" dostonlar turkumi turkiy til egalarining tilini uzun, qadlarini baland, yuzlarini yorug' qilgan. "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostoni esa obrazlar tizimiga ko'ra ham, mana shu majoziy obrazlar tasviri va talqiniga ko'ra ham jahon tasavvuf adabiyotining nodir durdonasiga aylangan. Alisher

Navoiygacha, undan keyin ham hech kim bunchalik katta hajmdagi asarlarni ijod qilgan emas. Alisher Navoiyning ilmiy, tarixiy asarlari, din va tasavvufga oid asarlar turkumi ham shoyoni tahsindir. U lirikaning o‘sha paytdagi deyarli barcha janrlarida ijod qilgan.

Mazkur asarlar haqida anchagina tadqiqotlar yaratilgani qaramay, bu asarlarni tushunish va tushuntirishda hali muammolarimiz ko‘p. Muhtaram Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyevning bir ta’kidiga e’tibor beraylik: “Yoshlarimizga hazrat Navoiy ijodini chuqur o‘rgatishni tizimli yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlarining bugungi yoshlar tushunadigan ixcham namunalarini yaratib, turli mobil ilova va elektron dasturlar ishlab chiqish kerak” [1]. Ushbu ta’kid bejiz emas.

Alisher Navoiy asarlarining turli shakllardagi nashrlari keyingi yillarda ancha barakali bo‘lib borayotganini e’tirof etish lozim. Ayniqsa, nasriy bayon va tabdillar sirasi kishini xursand qiladi. Biroq bu mulohazalarni mutafakkir adibimizning g‘azallariga nisbatan ayta olmaymiz. Boshqa lirik meros namunalarini gapirmaganda ham adibning faqat turkiy tildagi g‘azallarining o‘zi 2600 dan ortiqroq. Bunga forsiy tildagilari qo‘shilsa, yanada katta salmoq yuzaga keladi. Hozirgacha barcha g‘azallarning 700 ga yaqini maxsus tadqiq etildi: ularning nasriy bayonlari yuzaga keldi, ilmiy sharhlari amalga orshirildi. Ularning asosiy qismi uchun lug‘atlar tuzildi. Qolganlari esa hali o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

G‘azal Sharq adabiyotidagi eng mashhur janr. Uning mavzu doirasi, dastlab, sof ishqiy yo‘nalishda bo‘lgan. Keyinchalik unga ijtimoiy ohanglar ham qo‘shila borgan. Satirik va yumoristik g‘azallar ham yuzaga kelgan. Rus olimasi V.V. Borodina aytganiday, “Ularda ma’naviy olam go‘zalliklari, o‘z davrining qiziqishlari bilan yashagan Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarning jur’at va oshuftaligi ochib beriladi. Sharq shoirlarining nazmiy asarlari – xalq ozodligi hamda shaxsiyat ozodligi uchun jo‘shqin chaqiriqdir”[14].

Albatta, Alisher Navoiy g‘azallari sharq she’riyatining nihoyatda go‘zal va serma’no bosqichini tashkil etadi. Undagi asosiy yo‘nalishlardan bo‘lgan irfoniy ma’nolar ifodasi ham o‘ziga xosdir. Ular polifonik tabiati bilan, tuyg‘ular va fikrlar tasvirining yetukligi, tabiiyligi, favqulodda go‘zal va ta’sirchanligi, so‘z ma’nolarining kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Navoiy asarlarini sharhlash masalasida hozirgacha akademiklar A.P.Qayumov, A.Rustamov, adiblar E.Vohidov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Matnazar Abdulhakim, Mirzabek Kenja, professorlar N.Mallaev, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, S.G‘aniyeva, N.Komilov, I.Haqqulov, B.To‘xliyev, N.Jumayev, D.Salohiy, D.Yusupova, H.Eshonqulov, N.Bekova, R.Zohidov, Q.Ergashev, filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar V.Rahmonov, Y.Is’hoqov, E.Ochilov, O.Davlatov, K.Mullaxo‘jaeva, Z.Mamadaliyeva, M.Tojiboyeva, O.Tojiboyeva, S.O‘tanova, A.Qurbonov, A.Dehqonov va boshqalar barakali mehnat qilishgan.

Alohida ta’kidlash lozimki, adib g‘azallari sharhlarining alohida nashrlaridan tashqari, “G‘aroyib us-sig‘ar”ning o‘zigagina bag‘ishlangan o‘n jildli sharhlari ham yuzaga keldi [Qarang: 3 – 12].

Mumtoz matnlarni o‘qish va nashr etish jarayoni murakkab va ko‘pqirraliligi bilan ajralib turadi. Bunda mantnshunos va manbashunoslarning xizmatlari chek-u chegara bilmaydi. Zero, bizning qadimiy madaniy-ma’rifiy merosimizning katta qismi turli yozuvlar bilan aloqador. Tabiiyki, ular orasida arab yozuvidagi obidalar katta mavqeyni egallaydi. Yirik matnshunoslarimizning sa’yi-harakatlari bilan ulkan ishlar amalga oshirilgan. Ularning sharofati bilan bugungi kitobxon mana shunday boy xazinadan bemalol bahramand bo‘lib bormoqda.

Albatta, qilinishi lozim bo‘lgan ishlarimiz esa yanada ko‘proq. Ammo gap faqat qadimiy matnlarni o‘qish bilangina bog‘liq emas. Muammoning yana bir qirrasini uni tushunish, uqish bilan aloqador. Sharqda sharh ilmining paydo bo‘lgani tasodifiy emas. Matnni sharhlab o‘rganish sharq filologiyasidagi o‘ziga xos o‘rganish va o‘rgatish shakllardan biri sifatida maydonga kelgan. U ko‘proq o‘quvchilarning badiiy asarni anglashlariga ko‘maklashish maqsadini ko‘zda tutadi. Bunda matnni o‘qish jarayonida yo‘l-yo‘lakay uning grammatik xususiyatlari, imlosi, tinish belgilari, badiiy o‘ziga xosliklari izohlab boriladi. Bunday ish turlari o‘quvchilarning analitik malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu hodisa badiiy asarlarni tahlil qilish bilan bevosita bog‘liq. Tahlil – asarni bo‘lish, qismlarga ajratish, mana shu asosda uning yaxlit butunlik ekanini oshkor qilishdan iborat jarayon, uni sharhlash esa asar mohiyatini intuitsiyaga tayangan holda anglab yetishdir. Har qanday matn

tushunilishi kerak. Shundagina u o‘quvchi uchun “o‘z mulkiga” aylanadi. Aslida, tushunish matnni anglashdan, uning mohiyatini tasavvur qilishdan boshlanadi, shuning uchun ularni biridan ikkinchisini ajratgan holda tasavvur qilish mumkin emas. “Tushunchaga o‘xshash sharh ham, bir tomondan, asar haqida tushuncha beruvchi analitik hamda umumlashtiruvchi bilim berishi, ikkinchi tomondan esa sharhning butun detallari his qilish va tuyish imkonini berishi kerak”.

Badiiy matnni to‘la tushunish uchun mazkur badiiy asarni tushuntirish, izohlash natijasida hosil bo‘ladigan bilim uchun zarurat mavjud. Sharh, aslida, badiiy asarni izohlashning shaxsiyatli ko‘rinishidir. Shuning uchun ham bitta asarning bir necha talqinlari yuzaga kelishi mumkin. Badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnni o‘qishning o‘zi muloqot ko‘rinishlaridan biri – badiiy-lisoniy muloqotdir. Muloqotning asosiy maqsadi esa shu matn mazmunini anglash, tushunishdan, uni his qilishdan iborat. Matn va uni tushunish matn muallifi va shu matnni o‘qiyotgan kitobxon orasidagi uchrashuv ekan, unda ikki qutb: muallif olami bilan kitobxon olami bir-biriga ro‘para keladi. Hamma gap ikki tomonning ham ayni hodisani qanday tushunishi, his qilishiga bog‘liq. Aslida, matn mazmunini tushunish faqat matnning o‘ziga emas, balki undan tashqaridagi ko‘plab hodisalarga, jumladan, ijtimoiy-psixologik hamda madaniy-lisoniy omillarning majmuiga ham bog‘liqdir.

Navoiyshunoslik mashg‘ulotlari davomida quyidagicha baytlarda uchraydigan ifodalar ustida turlicha mulohazalar paydo bo‘lishi mumkin:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshli xil’at, mening sarvi ravonim ham.

Matndan ma’lum bo‘lishicha, u ma’shuqa go‘zalligini tavsiflashga bag‘ishlangan. Navro‘z yoki bayram munosabati bilan “chaman sarvi” hamda “sarvi ravon” bir xil kiyim kiygan. Bu istilohlarning birinchisi chamanzordagi sarv daraxtining, keyingisi esa lirik qahramon – oshiq tilga olayotgan yorning lisoniy ifodasidir. Demak, ularning har ikkisidagi kiyim ham bayramona bo‘lgan. Bularning barchasi to‘g‘ri va ularga nisbatan hech qanday e’tiroz yo‘q. Shunga qaramay, baytning hozirgi holatida shu ma’noning to‘la yuzaga chiqishi uchun xalaqit beradigan bir so‘z mavjud. U

“yoshli”dir. Hozirgi holatda u yonidagi birorta so‘z bilan mantiqiy jihatdan bog‘lana olmaydi. Vaholanki, “Muvofiq kiydilar” ifodasida matnda umumlashtiruvchi so‘z sifatida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan “ular” so‘zi aks ettirishi lozim bo‘lgan ma’no mujassamlashgan. Shunga ko‘ra, “ular”ning ma’no qamroviga kiruvchi birinchi komponent “chaman sarvi”, ikkinchisi esa “mening sarvi ravonim” ekanligi oydinlashadi. O‘z-o‘zidan mana shu jarayonda ularning har ikkisi uchun tegishli bo‘lgan “kiyim”ning nima ekanligi ham oshkor bo‘ladi: u “xil’at” ekan. U mazkur matnda “libos”, “ustki kiyim” mafhumini beradi. Endi bu xil’atning qanday ekanligini aniqlash qoldi, xolos. “Yoshli” sifati, tabiiyki, bu vazifani ado eta olmaydi. Ammo bu so‘zning rang bidiruvchi so‘z bo‘lishi lozimligini tasavvur qilish qiyin kechmaydi. Shunda “inson umrining darajalari (”yosh”, “qari”)ni emas, balki kiyim rangini (“oq”, “qora”, “qizil”, “yashil”) anglatadigan so‘zga bo‘lgan zaruriyat his etiladi. Asl matnda ham mazkur so‘zning o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llangani ma’lum bo‘ladi:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil’at, mening sarvi ravonim ham.

Ko‘rinadiki, bitta so‘zning asl matndagidan o‘zgacharoq (demak, xato) shaklda ko‘chirib olishning o‘zi ham matn mazmunini tushunishda va talqin qilishda xatolik va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, g‘azallarning tasavvufona yo‘nalishi bilan bog‘liq talqinlarda ko‘plab muammolar yuzaga keladi.

Shaxsiy tajriba va muallif matni orasidagi ayirma talqin va izohlarning ham xilma-xilligini, hatto, ular orasidagi ayrim ziddiyatlarni ham yuzaga keltirib chiqardi. Talqinlardagi o‘ziga xosliklar uning mualliflari haqidagi tasavvur va baholashga ham asos bo‘ladi. Gap shundaki, badiiy matn, jumladan, mumtoz adabiyotimiz namunalari ham muallifning axloqiy, etnik, diniy, siyosiy, ruhiy, ma’naviy, ma’rifiy, dunyoqarashga oid tasavvur va qarashlarining o‘ziga xos tajassumi hamdir. Demak, bir asarni to‘la tushunish va his qilish uchun mana shu birliklarning yaxlitligi nazarda tutilishi shart bo‘ladi. Mavjud talqinlar o‘quvchilarimiz uchun yo‘l ko‘rsatkichi vazifasini ado etsa ajab emas. Ularning yanada yangiroq va yaxshiroq talqinlar uchun turtki berishidan umidvormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи. – Тошкент: 2023. 23-апрель.

2. Абдулманнони Насриддин. Фарҳагши мушкилоти адабиёт (номаи мухтасар) – // Куллиёти Осор (дар ҳафт мужаллад. Жилди чорум. – Хужанд, “Хуросон”, 2013.

3. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 2020, 220 бет.

4. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 2-жилд. – Тошкент, 2020, 252 бет.

5. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 3-жилд. – Тошкент, 2020, 260 бет.

6. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 4-жилд. – Тошкент, 2020, 258 бет.

7. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 5-жилд. – Тошкент, 2020, 242 бет.

8. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 6-жилд. – Тошкент, 2020, 254 бет.

9. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 7-жилд. – Тошкент, 2020, 262 бет.

10. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 8-жилд. – Тошкент, 2020, 250 бет.

11. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 9-жилд. – Тошкент, 2020, 278 бет.

12. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 2020, 290 бет.

13. Бородина В.В. Восаприятие поэзии Востока. – Москва-Санкт-Петерберг, “Диля”, 2001, с.82.

14. Гафиятуллина Ильмира. Рубаи, газель, кисса... Рассказываем о жанрах восточной поэзии. https://islam-today.ru/obsestvo/kultura/rubai-gazel-kissa-rasskazyvaem-o-zanrah-vostocnoj-poezii/ (05.04.2023)

15. Комилов Н. Жон ва жонон можароси. - // Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар.(Тўплаб нашрга тайёрловчилар А.Шаропов, , Б.Эшпўлатов).- Т.; Камалак, 1991.

16. Муҳаммаджаъфари Ёҳаққи. Фарҳанги асотир ва достонвораҳо дар адабиёти форси. Таҳия бо шарҳу тавзеҳот ва таълиқот Рустами Ваҳҳоб. – Душанбе, “Бухоро”, 2014.

MILLIYLIKNING BADIIY ASALARNI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Roza Niyozmetova
ToshDO‘TAU professori,
pedagogika fanlari doktori

“Milliy” degan tushunchaga milliy muhit milliy tarix, din, ruhshunoslik, milliy an’analar, madaniyat hamda adabiyotning taraqqiy etish xususiyatlari, olamni badiiy ifodalashning mavjud tajribasi, milliy madaniyatning shakllangan amallari, badiiy ifodalilik vositalari, milliy adabiyotning timsolli va metaforik qurilishi kiradi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ijodkor tabiat tasviri yaratilgan asarlarda o‘z milliy ruhiyatidan kelib chiqib ramzlar yaratadi. Ma’lum millatga mansub ijodkorlarning o‘ziga xos tafakkur tarzi u yaratgan asarlarda aks etadi. Masalan, Sharq she’riyatidagi qofiyalar, o‘xshatishlar, metaforalarning uzundan-uzun zanjiri va boshqalar. Gruzinlar she’riyatida tog‘lar, daryolar, burgutlar va boshqalarga o‘xshatish orqali an’anaviy obrazlar yaratish usulini ko‘rsatish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash joizki, adabiyot darslarida o‘qish materiallari orqali hayot faktlarini qalashtirib o‘rgatish emas, balki, bir tomondan, o‘zbek xalqining turmush tarzini tushunishga, ikkinchi tomondan, o‘zbekona adabiy tayyorgarligini ta’minlashga qaratiladi. O‘zbek xalqini anglash bilan bog‘liq hayotiy voqealar dasturiy ahamiyat kasb etmog‘i lozim. Asar mazmuni keng, umumlashtiruvchi tavsifga ega bo‘lib, abadiy umuminsoniy muammolar yechiladi, shuning uchun asrlar bo‘yi yashaydi. Maktabda adabiyot o‘qitishning vazifalari bilan o‘zga adabiyotni o‘qitish vazifalari hech vaqt teng kela olmaydi. Xuddi shuningdek, hayot saboqlari masalasida ham, adabiy ta’limning boshqa tarkibiy qismlarida ham tenglik bo‘lishi mumkin emas. Agar bular tenglashtirilsa, ta’limda takroriylik yuz beradi, o‘quv fanlariaro integratsiyaga putur yetadi.

Milliy ozodlik harakati tarixiy romanlarda aks ettirilgan. Shunga ko‘ra ham bunday asarlardan parcha berilishi ayni muddaodir. O‘zbekiston xalqlari tarixi darslarida tanishilgan ayrim voqealar

mavzusida asar tanlash foydalidir. Chunki badiiy asar tarixiy voqeaning ta'sirchan tasviri sanaladi.

Ayrim asarlarda dindorlar tanqid ostiga olinadi. Bugungi kunda dinga munosabat o'zgargan bo'lsa-da, dindorlarning kamchiliklarini ochish dinning o'ziga bo'lgan munosabatni bildirmaydi. "Umuman, ayrim dindorlarni, ular tabiatidagi ba'zi illatlarni fosh etish XX asrga kelib paydo bo'lgani yo'q. Bunday asarlar Navoiy yoxud Mashrab, Muqimiy ijodidan ham topiladi. Adabiyot tarixidagi bu hodisani dahriy /ateistik/ prinsip deb belgilashga oshiqmaslik kerak. Bular din niqobi ostidagi xurofot va bid'at fosh etilgan, dindorlikka da'vogar-u, aslida, qilmishiga ko'ra unga nomunosib va noqobil kishilar tanqid qilingan asarlardir" [Каримов., Мамажонов, Назаров, Норматов, Шарафиддинов, 1999: 35].

Jadidchilik an'analari davom ettirilgan asarlar o'zlikni anglash, yurt istiqloli g'oyalarini kuylash, Vatan taqdiri, millat kelajagi haqida qayg'urish tuyg'ulari bilan sug'orilgan bo'ladi. Shu nuqtani nazardan adabiy ta'lim mazmuniga ana shunday asarlardan namunalar kiritilgani maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

O'zbek adabiyotida obraz yaratish bilan bog'liq ravishda so'zlarning qo'llanilishida har qanday o'zga adabiyotda bo'lgani kabi milliy o'ziga xoslik mavjud. Bunday o'ziga xoslik san'atda ham amal qiladi. Metodist-olim V.G.Belenkiy buni quyidagicha tushuntiradi: "Har bir xalqning milliy siri uning kiyimida va taomida emas, balki uning buyumlarni anglash tarzidadir" [Беленький, 1990: 190].

Darhaqiqat, o'zbek musavviri qo'zichoqni bir xil, rus musavviri uni boshqacha tasvirlashi mumkin. O'zbek xalqi qo'zichoq orqali o'ziga xos munosabatlarini timsollaydi (farzandini qo'zichog'im deb erkalaydi), shu jihati bilan unga boshqacha qarashni ifoda etadi. Shunday qilib, adabiyot va san'atdagi milliylik haqida so'z yuritganda, "..... muayyan millatga mansub san'atkorning olamni ko'rishi orqali namoyon bo'ladigan milliy xususiyatlar haqida gapirish mumkin" [Методика преподования литературы в средных специальных учебных заведениях, 1987: 9].

O'zga xalq adabiyoti asarlari bilan tanishayotgan kishida ikki xil holat yuz beradi:

1. O'zi uchun tanish narsalarni ko'rish niyatida bo'ladi. "Shu tanish narsa bilan uchrashuv yuz berganda, qanoatlanish, estetik zavq

hissi boshlanadi” [Методика преподования литературы в средных специальных учебных заведениях, 1987: 31].

2. Kutilmagan, notanish timsollarga duch keladi. A.N.Tolstoy shunday deb yozgan edi: “Har bir xalq san’atda umumiy idealni ifodalash uchun rang-barang usullarni qo‘llaydi va ayni shu tufayli biz idealimizning yangi kutilmagan timsol orqali ifodalanganini ko‘rib, alohida zavq olamiz” [Методика преподования литературы в средных специальных учебных заведениях, 1987: 31].

Biz o‘quvchilarning adabiy tayyorgarligi deganda ta’lim mazmuniga adabiyotda timsol yaratishdagi milliy o‘ziga xosliklarni ham kiritishni zarur deb hisoblaymizki, bu milliy tafovutlar, milliy o‘ziga xosliklarni anglab yetish o‘quvchilarning estetik tuyg‘ulari bilan badiiy didining o‘sishiga imkoniyat yaratadi, rus maktabidagi o‘zbek adabiyoti darslarining samaradorligini ta’minlaydi.

Umuman, milliylik muammosi milliy obyektiv voqelikni va millatning badiiy ongini, badiiy amaliyoti va estetik tajribasini, ongidagi milliy assotsiativ bog‘lanishlarni o‘z ichiga oladigan murakkab muammodir. Milliy xususiyatlar har bir millatning shakllanishidagi konkret tarixiy shart-sharoitlar: siyosiy, iqtisodiy, tarixiy-geografik, etnik, psixologik va boshqa omillar bilan belgilanadi.

“Milliy” degan tushunchaga milliy muhit (tabiat, maishiy turmush), milliy tarix, din, ruhshunoslik, milliy an’analar, madaniyat hamda adabiyotning taraqqiy etish xususiyatlari, olamni badiiy ifodalashning mavjud tajribasi, milliy madaniyatning shakllangan amallari, badiiy ifodalilik vositalari, milliy adabiyotning timsolli va metaforik qurilishi kiradi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ijodkor tabiat tasviri yaratilgan asarlarda o‘z milliy ruhiyatidan kelib chiqib ramzlar yaratadi. Ma’lum millatga mansub ijodkorlarning o‘ziga xos tafakkur tarzi u yaratgan asarlarda aks etadi. Masalan, Sharq she’riyatidagi qofiyalar, o‘xshatishlar, metaforalarning uzundan uzun zanjiri va boshqalar. Gruzinlar she’riyatida tog‘lar, daryolar, burgutlar va boshqalarga o‘xshatish orqali an’anaviy obrazlar yaratish usulini ko‘rsatish mumkin.

Badiiy asarning o‘zini o‘rganishda ko‘ruv ko‘rsatmalilikning biror vositasini jalb etish san’atning bir turini idrok etishni boshqa turini idrok etish bilan almashtirishga olib keladi. Bunda o‘quvchilar

so‘z bilan tasvirlangan badiiy obrazni idrok etib o‘tirmay, uning tasviriy ekvivalentiga diqqatlarini qaratadilar. Bu gaplarning asar tanlashga dahli yo‘q, albatta. Ammo asarga doir ko‘rsatmalilik tanlashda bu shart ham hisobga olinishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, milliy adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda aniq milliylik orqali namoyon bo‘ladigan umumiy baynalminal mazmun ham mavjud. Tanlanayotgan asarlarning bu jihati ular mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ehtimol, dastlabki kezlarda, aniqsa, quyi sinflarda ko‘proq ana shunday mushtarak asarlar ajratilgani ma’quldir.

Xullas, o‘zbek adabiyoti asarlarini o‘rganishda o‘zbek bo‘lmagan kitobxon o‘z badiiy idroki tajribasiga asoslanadi. O‘z milliy adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydi. Asar mazmunini tushunish ana shunday murakkablashgan vaziyatlarda amalga oshadi. T.V.Romanovich ham bunday holatlarga nisbatan “murakkablashgan atama” tushunchasini ishlatadi.

O‘zbek adabiyoti asarlarini osonroq tushunishni ta’minlash maqsadida rus folkloridan ham foydalangan ma’qul. Ikki adabiyotga tayanish, o‘zbek adabiyotidan tushunilmagan narsalarni rus adabiyotidagiga o‘xshash hodisalar orqali izohlash yo qiyoslash o‘quvchilar dunyoqarashiga ta’sir etadi, ularni o‘zbek adabiyotini estetik jihatdan anglashga yaqinlashtiradi.

O‘quvchilarga o‘zga milliy adabiyot asarini idrok etish sari tegishlicha yo‘l ko‘rsatish uchun o‘zbek va rus yozuvchilarining muloqotlari, adabiy aloqalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беленький Г. И. Приобшение к искусству слова. –М.: Просвещение, 1990. –190 с.

2. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1999. – Б. 35.

3. Методика преподования литературы в средных специальных учебных заведениях. – М.:Высщая школа, 1987.

O‘QUVCHILARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Marg‘uba Mirqosimova
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan.Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan; kitobxonlik madaniyati va mutolaa madaniyati tushunchalarining asl mohiyati izohlangan; uni rivojlantirish vositalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik madaniyati, pedagogik mexanizmlar, psixologik xususiyatlar, mutolaa madaniyati, pedagogik vositalari, mustaqil fikrlash, adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi, ijodkorlik, innovatsion yondashuvlar.*

Jahon ta’lim tizimida kitob targ‘ibotiga yo‘naltirilgan dasturiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli loyihalar, mutolaani hayotiy ehtiyojga aylantirish maqsadidagi istiqbolli strategiyalar amalga oshirilmoqda. “USAID”ning (International quality reading project) xalqaro “Kitob o‘qish” loyihasi doirasida o‘quvchilarning badiiy asar matni ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mutolaa darajasini oshirishga doir innovatsion yondashuvlarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda o‘quvchi-yoshlarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodkorligi omili sifatida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga doir innovatsion ta’lim muhitini yaratish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, metodik tizimini muvofiqlashtirish, mutolaa san’atini egallashga oid ilg‘or texnologiyalarni tatbiq qilish, elektron o‘quv adabiyotlari bilan ishlash kompetensiyasini tarkib toptirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Kitobning jamiyat taraqqiyoti va inson tarbiyasidagi ahamiyati haqida turlicha ta’riflar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida kitob ilmiy kategoriya sifatida axborot, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik kabi turlicha qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida ta’riflanadi. Shuningdek, bilimlarni targ‘ib qilish va tarbiya berish quroli hamda badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyotligi izohlanadi.
Ma’lumki, YUNESKO tashkiloti tomonidan 48 sahifadan kam bo‘lmagan nodavriy nashrni kitob deb nomlash qabul qilingan [YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari., 2004:18]. Kitobxonlik masalasiga dunyo miqyosida ahamiyat berlishi kutubxonachilik, kitob va kitobxonlik bo‘yicha qator bayramlar hamda tadbirlar nishonlanishi orqali ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, 23 aprel – Butun jahon kitob kuni; 2 aprel – Xalqaro bolalar kitobxonligi kuni siftida belgilangani buning yorqin isbotidir.

Xalqimizda kitobga qiziqish va hurmat azaldan shakllangan bo‘lib, u bilim va ma’naviyatning bebaho manbai sifatida qadrlanadi. “Kitobxon” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “kitob o‘quvchi”dir. Kitobxonlik esa faoliyat turi hisoblanadi, ya’ni kitob o‘qishni tashkil etish, kitob o‘qish bilan shug‘ullanishdir. Bugungi kunda kitob va gazeta jurnallarni o‘qishdan tortib, elektron matnlarni o‘qish ham “mutolaa” atamasi bilan ifodalanmoqda.

Bu borada professor E.I.Yo‘ldoshevning o‘qish madaniyati tushunchasiga bergan ta’rifi o‘rinlidir. Olimning ta’kidlashicha, o‘qish madaniyati dastlab bibliografiyalar bilan ishlash, izlagan ma’lumotlarini topa bilish, kitob bilan batafsil tanishish, undan unumli foydalanish, barcha turdagi adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, eng muhimi, estetik zavqlanish hisslarini tarbiyalaydi [Yo‘ldoshev, 1986: 58].

Bolalar mutolaasining taniqli tadqiqotchilaridan biri V.A.Nevskiy bolalar o‘qishini quyidagicha tasniflaydi [Nevskiy, 1929: .21-24].

– oilaviy mutolaa;
– uydagi mutolaa;
– sinfdagi mutolaa;
– sinfdan tashqari mutolaa;

O‘smirlar kitobxonligi muammosini tadqiq qilgan S.Chiniyevaning fikricha, inson kamolotida madaniyat alohida o‘rin tutadi. Zero, kitobxonlik madaniyati insoniyat madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi [Chiniyeva, 2006: 47]. Xususan, kitobxonlik madaniyati o‘quvchining inson va tabiat to‘g‘risidagi tushunchalarini kengaytirish, o‘z-o‘zini tanqidiy rivojlantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi usul va metodlarni samarali qo‘llash asosida takomillashib boradi. Tadqiqotchi B.I.G‘anieva esa, mutolaa madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etib, kitobxonni shakllantirish bir necha bosqichdan iborat ekanligini ta’kidlaydi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish kitob ustida mustaqil ishlash texnikasi, xususan, yoshiga va didiga mos holda ajrata bilish va tanlash, bibliografik vositalar orqali zarur adabiyotlarni izlab topish, adabiy, ifodali, tushunib va ongli o‘qish, mutolaa qilganlari yuzasidan mulohaza yuritish hamda shu asosida xulosa qila olish malakalari kirishini ta’kidlash mumkin. Kitob o‘qish va uni tushunib o‘qish ko‘plab adabiyotlarni o‘qishni talab etadi. O‘quvchi kitoblarni ongli ravishda tushunib o‘qir ekan, shundagina muallif asarda ilgari surgan g‘oyani, uning badiiy xususiyatlarini chuqurroq idrok qila boshlaydi. Bu jarayon birgalikda kechganda, chin ma’noda madaniyatga aylanadi va shaxs kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kitobxonlik madaniyati tushunchasining asl mohiyati o‘qigan kitoblarning mazmuni bilan atroflicha tanishib, kitoblar mazmunini to‘liq o‘zlashtirib olishni anglatadi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi bu faqatgina texnik o‘qish qobiliyati emas, balki tushunish, tafakkur qilish, xulosa qilish kabi aqliy jarayonlarni qamrab oladi. O‘qish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, uning ijtimoiy ahamiyatli yo‘nalishlaridan foydalana olish, bilim va ko‘nikmalar majmui, axborot madaniyatining tarkibiy qismlaridan biridir [Библиотечная энциклопедия, 2007: 1300]. Kitobxonlik madaniyatining asosiy xususiyati – bu o‘qilgan ma’lumotlarning mohiyatini tushunish va undan muhim xulosalarni olishdan iborat. Samarali mutolaaga erishish uchun o‘quvchi kitob bilan ishlashda dastlab texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim: o‘qish rejasini tuzish, eslatmalarni yozish, lug‘at yordamida kerakli so‘zlarning ma’nolarini topish, ma’lumotnoma, ensiklopediya va

lug‘atlardan oqilona foydalanish. Texnik ko‘nikmalar o‘quvchiga kitobni atroflicha o‘rganish, uni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.O‘qish madaniyati – shaxs umumiy madaniyatining ajralmas qismi; bu kitob bilan ishlash ko‘nikmalari, jumladan ongli mavzularni tanlash, tizimli va ketma-ket o‘qish, shuningdek, qobiliyati bibliografik vositalar yordamida kerakli adabiyotlarni topish, foydalanish ma’lumotnoma va bibliografik apparatlar, o‘qilgan matnni o‘zlashtirib, chuqur idrok yetish (tezis,yeslatma olish, izoh qo‘yish, ko‘rib chiqish) kabilarni o‘z ichiga oladi [Гендина, 2002: 19].

Kitobxonlik tarbiyasida mutolaani talab qilish yoki zo‘rma-zo‘rakilik bilan singdirish emas, balki o‘quvchilardan o‘z ehtiyoj va qiziqishlari doirasida masalaga ongli, ixtiyoriy va tizimli yondashish orqali shakllantirish muhim sanaladi. Taniqli metodist olim S.Matjonovning yozishicha, kitobxonlik jo‘n tushuncha emas, u iste’dodni talab etadi. Olim kitob o‘qishni o‘rgangan bolani kitobxon deb atamagan holda o‘qiganlarini eslab qayta hikoya qiladigan o‘quvchini kitobxonlik madaniyatiga erishgan deb hisoblamaydi. Shuningdek, muallif tasvirlagan hayot voqeligidan tashqari undagi muhim va nomuhim jihatlarni farqlab unga munosabat bildirish kitobxonlikning elementlari ekanligi olim tomonidan ta’kidlanadi [Matjon, 2022: 224].

Iste’dodli kitobxonni tarbiyalashda maxsus bilimlar ham taqozo etiladi. Bu tarkibga berilgan mavzu asosida kitobni to‘g‘ri tanlay olishga doir tayyorgarlik ishlarini ham kiritish mumkin. Shu bois mutolaa asta-sekinlik bilan bolaning hayotiy ehtiyojiga aylanadi. O‘quvchining rivojlanishi murakkab tizimli shakllanish xisoblanib, uning ongi, faoliyati, va shaxs muloqotining tartibli to‘plami, aksiologik, ijodiy, kognitiv, affektiv va refleksiv tamoyillar asosida kitobxon dunyosini shakllantirish yo‘llari tarbiyalashdan iborat bo‘lib, u uchta qonuniyat : tasodifiy, maqsadli va o‘zini rivojlantiruvchi qoidalar asosida ishlaydi [Бородина].

Psixologik jihatdan kitob o‘qish va kitobxonlik har bir shaxsning kamolotini ta’minlashga birdek ta’sir ko‘rsatadi. Bizningcha, kitobxonlik madaniyatning sub’ekti sifatida o‘qituvchi va o‘quvchining strategik hamkorligi muhim sanaladi. Bu o‘zaro hamkorlik faoliyatida har ikkala tomonning yagona dastur va reja,

ijodiy munosabatlardagi tizimli harakati zarur jihatdir. Mutolaaga yo‘llashni rivojlantirish – bu mutolaa sohasida shaxsning eng yaqindagi va istiqboldagi rivojlanishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish maydonini yaratish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir [Аванесова, 1997: 97.]. Kitobxonlik madaniyati mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali rivojlantiriladi. Zero, o‘qish madaniyatini egallagan shaxsgagina “kitobxon” atamasi qo‘llaniladi. Kitobxonlik madaniyatining yuqori darajaga ko‘tarilishi kitob o‘qishni muntazam odat tusiga kiritish, kitobni to‘g‘ri tanlay bilish hamda voqelik bilan muloqotga kirishish orqali o‘zligini anglash, ma’naviy kamolot sari yuksalishdir. O‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan, o‘qishga rahbarlik qilish tizimini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аванесова Г.А. Взаимодействие культур // Культурология XX век. Словарь, СПб., 1997. – С. 97.
2. Бородина В.А. кандидат педагогических наук, доцент, Санкт-Петербургский государственный университет культуры и искусства, г. Санкт-Петербург Технологии читательского развития. http://www.emissia.org/offline/2003/911.htm
3. Ганиева Б.И. Кутубхоналарда болалар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг педагогик имкониятлари: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 160 б.
4. Kambarova S.Mutolaa madaniyati va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 7-b.
5. Невский, В.А.Классификация психологической литературы в библиотеке// Предметы и методы современной психологии/ Под редЛ.Выготского.-М. 19290. -С.21-24.
6. Saliyeva Z., Xakimova R. O‘quvchilarning milliy va umummadaniy kompetensiyalari hamda mutolaa madaniyatini rivojlantirish omillari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 110.

7. Shirinov G‘. Kitob – hayotni o‘rgatuvchi murabbiy //http://uza.uz/oz/society/kitob-ayetni-rgatuvchi-murabbiy-01-06-2018.
8. Чиниева С.А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маънавиятини шакллантириш: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. – 47-б.

ONA TILI O‘QITISHDA TASAVVURNING O‘RNI

Shohidaxon Yusupova
Andijon davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Ma’lumki, mavhum tafakkur tasavvur – hissiy bilishni o‘zida aks ettiradi. Talabalar biror g‘oyaga ega bo‘lishlari uchun narsa-hodisalarning umumiy tomonlarini ham (mohiyatini) bilishlari shart. Bunday bilishda mantiqiy tafakkur hosil bo‘ladi. Mantiqiy bilishda inson mantiqiy tafakkur yordamida voqelikning rivojlanish qonuniyatlarini bilib oladi. Obyektning reallikni bilish dialektikasida sezgi va idrokning obrazlari mavhum tafakkurga qarab yo‘naladi. Mavhum tafakkur predmetning rivojlanish, o‘zgarish xususiyatlarini ochib beradi. Ushbu maqolada o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda tasavvurlarning roli alohida ahamiyatga ega ekani misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tasavvur, malaka, ko‘nikma, tasvir, ta’rif, tafakkur, nutq, faoliyat, shaxs, ta’lim.*

Ona tili darslarida o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari hamda ularning obyektiv olamga bo‘lgan munosabatlar tizimini chuqur o‘rganmay turib, ta’lim sifatini ta’minlab bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, individualliligi, ular uchun qiziqarli bo‘lgan narsa, voqea, hodisalarni anglatuvchi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishga yo‘naltirib boruvchi nutq shakllanishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchilarning tasavvur darajalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bilishning ilk bosqichi tasavvur bo‘lganligi uchun ham ona tili o‘qitishda mazkur mavzuni tanladik. Zero, tasavvur bilishning birinchi bosqichi bo‘lib, jonli mushohada shakliga kiradi. Shuning uchun ham o‘qitishda tasavvur hosil qilish ahamiyatli bo‘lib, uning yordamida olamning sir-asrorlari to‘g‘risida bilimlar hosil qilinib, u mavhum tafakkurdan aniq tafakkurga o‘tish bosqichi hisoblanadi.

H.Shamsiddinov ayrimlik, xususiylik va umumiylik dialektikasining funksional-semantik sinonimlardagi ahamiyatiga to‘xtaladi, shuningdek, inson ruhiyatining ajralmas qismi bo‘lgan tasavvurlarning rolini alohida ta’kidlaydi [Shamsiddinov H. 1997, 32].

Insonda tasavvur keng bo‘lishi uchun o‘sha odamda denotat-signifikat munosabati bo‘lishi kerak. Masalan, ariqdagi suv hamda dengiz suvi haqida ta’rif berish topshirilsa, ariqdagi suv haqidagi ta’rif mukammal, aniq, asosli bo‘ladi. Biroq dengiz suvi haqidagi ta’rif to‘g‘ri va aniq bo‘lmaydi. Chunki dengiz suvi haqidagi tasavvur o‘quvchida (o‘zbekistonlik) kam ekanligidan dalolatdir. Misolga e’tibor beraylik:

Ariq*da shildirab oqayotgan* **suv***ga tikilib qaradim.*

Dengiz*dagi* ***suv****ning jilvalanishi kishining havasini keltiradi*

Yuqoridagi gaplarni o‘qiganda tinglovchilarda **suv** haqida qanday tasavvur hosil bo‘lgani so‘raladi, so‘ngra har ikki gapdagi suvga ta’rif beriladi. Tabiiyki, o‘quvchi ariqdagi suvga to‘la ta’rif bera oladi, dengiz suvi haqida esa hammada ham tasavvur bo‘lmaydi. Uni o‘quvchi kitoblarda o‘qigan bo‘lishi mumkin, ammo uni tabiiy ravishda ko‘rmaganligi uchun ta’rif batafsil bo‘lmaydi. Chunki unda dengiz haqida tasavvur bo‘lmaydi.

Tavsif va ta’rif berishda o‘quvchi va talabalarning borliq haqidagi dunyoqarashi kengayadi. Izohli lug‘atda berilishicha, Tavsiflamoq — sifat belgilarini bermoq, bayon etmoq, ta’riflamoq.

Ta’riflamoq esa — a) narsa, voqea — hodisa va shu kabilarni og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilmoq; ta’rif qilmoq, tasvirlamoq, tavsiflamok; b) narsa, voqea-hodisa, tushuncha va shu kabilarning mohiyatini qisqa, aniq ifodalamoq [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1981,104].

Ma’lumki, so‘zlovchi ana shu tushunchani ta’riflash natijasida uning mazmun-mohiyatini bilib boradi. O‘quvchi-talabada tasavvur

va fantaziya hosil qilishga o‘rgatish tafakkur rivoji uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Tasavvur hosil qilishni quyidagicha tashkil qilish mumkin:

Tasavvur qiling, siz ariq, dala bo‘yidasiz.

Ariq va dalalarning ko‘rinishini, tabiatini tasavvur qiling. Ariq bo‘yida, qanday yurib borayotganingizni, u yerdagi o‘t-o‘lanlarni, chuqurlik va kengliklarni, ariq ichidagi va dala qo‘ynidagi jonzotlarni alohida-alohida tasavvur qiling. Endi sizning nigohingiz nimaga tushdi. Uni yaxshilab ko‘zdan kechiring.

Sizga yaqin qolgandagi holatini tasavvur eting. Ularning hujayralari qanday ko‘rinishga ega. Endi o‘ylang: dalaning ko‘rinishi qanday? U kishiga zavq beradimi yoki qo‘rqinchlimi? Nega uning manzarasi shunday? Yer yuzidagi yana qanday kengliklarni bilasiz? Ulardan insoniyat ehtiyoji yo‘lida qanday foydalanish mumkin?

Siz ariq va daraxtlarning tabiiy xususiyatlari haqida o‘ylang, foydaliligi haqida fikrlar bildiring.

Tilshunoslikda bunday obyektlar qanday atama bilan yuritiladi, ularning tasnifi, etimologiyasi haqida ham o‘ylang?

Yuqoridagi kabi tasavvur hosil qilishda aqlning egiluvchanligi bunyod bo‘lib, “aqliy hujum” amalga oshadi, fikrlash jarayonlari harakatga keladi, g‘oyalar paydo bo‘ladi, bir qancha tushunchalar bilan bir vaqtda shug‘ullana olish, real peyzajni tasvirlash, cheksizlik haqida fikrlash uchun imkon yaratilib, ichki resurslar bilan ongli va maqsadli harakat qilinadi va aql mushaklari faoliyat ko‘rsatadi, natijada mustaqil fikrlash salohiyati rivojlanadi. Chunki subyektning bilishi va amaliy o‘zlashtirishi obyektiv harakat qonuniyatlaridan kelib chiqqani uchun ular bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Obyekt va subyekt munosabatlari birga olingandagina kishining tasavvur darajasi keng bo‘ladi, dialektik munosabat o‘z aksini topadi. Dialektik yondashuvda aniqlik, to‘g‘rilik namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining tanlagan metodi va usullarining xilma xilligi hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish imkoniyatlari va tasavvurlari qanchalik boy bo‘lsa, ma’lum mavzu bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun tanlaydigan metod va usullar shunchalik jonli va muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Ma’lumki, tasavvur inson ongining mahsuli bo‘lib, u borliqdagi barcha narsa-hodisalarning holati, mohiyati, sababi, miqdori, hayotga tatbiqi, amaliyotda, ilm-fanda tutgan o‘rnini belgilash qobiliyati hisoblanadi. Tasavvurda narsa va hodisalar idrok etiladi, xolos. Predmet va hodisalarning rivojlanishi, o‘zgarish qonunlarining, ya’ni ularning mohiyatini bilish, uni o‘rgatish ta’lim jarayonida muhimlik kasb etadi. Chunki bunda o‘rganuvchida mantiqiy bilish amalga oshadi. Mantiqiy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning izchil bog‘lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini ma’lum fikr shakllari – hukm, tushuncha va xulosa chiqarish kabilarda ifodalaydi. Bunday hissiy bilish obrazlari tafakkur uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilimning bu fikriy shakllari tilda so‘zlar va gaplarda ifodalanadi.[“Falsafa”, 1999: 412].

O‘quvchi-talabada tafakkur rivojlanishi uchun hodisaning mohiyatini anglashga o‘rgatish zaruriy masaladir. Ana shundagina to‘g‘ri fikrlash amalga oshadi, talaba o‘zida so‘zamollik san’atini mujassam etadi. Aytaylik, nega dalada biz ekkan urug‘lardan oldin yovvoyi o‘tlar chiqadi? Bu hodisaning mohiyatini quyidagi misol orqali ifodalash mumkin:

Sezganmisiz, dunyodagi har bir tirik mavjudot, xoh-u inson bo‘lsin, xoh jonzot, mehr-muhabbatga talpinadi. Buni hatto o‘simlik dunyosida ham kuzatish mumkin. Bog‘bonning harakatisiz daraxt meva bermaganidek, dehqonning mehnatisiz yer gullamaydi. Kuzatuvlar asosidagi quyidagi tahlilga e’tibor beraylik: agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, ekin ekilgan yerda birinchi bo‘lib yovvoyi o‘simliklar unib chiqadi, keyin esa boshqa ekinlar bo‘y cho‘zadi. Dehqonga esa, yovvoyi o‘simliklarni o‘tab, ekinlarning rivojiga ko‘maklashuv qoladi va buni biz dehqonchilik deb ataymiz. Ekkan ekinlarimiz bizning qarovimizsiz rivojlanmaydi, lekin yovvoyi o‘simliklar ko‘kka bo‘y cho‘zishdan bir zum tinmaydi. Nima uchun shunday? Chunki yovvoyi o‘simliklar yerning o‘z zurriyoti. U yerdan mehr, quyoshdan taft oladi. Ekilgan ekinlar esa faqat insonlardangina mehr oladi. Shuning uchun ham dehqonchilik ishi azal-azaldan og‘ir va murakkab sanalib kelgan. Eng muhimi, har ikki holatda ham mehnat, mehr aks etib turganini kuzatish va tasavvur qilish mumkin. Chunki xalqimizning turmush tarzida millatning

o‘zligi, o‘ziga xosligi va mentaliteti asosida bir narsa – mehrga yo‘g‘rilgan tarbiya yotadi.

Ta’kidlaganidek, ta’limda tasavvur etish va anglash ruhiyatini singdirish ahamiyatga molik bo‘lgan ishlardan biri hisoblanadi. Chunki o‘zini anglagan, hodisaning mohiyatini bilgan kishida o‘zi uchun nima foydaliligi va u nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. Tasavvurlari keng bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati ojiz bo‘lgan insonda esa tushuncha bo‘lmaydi.

Misolga e’tibor beraylik: *Bir odam maysalarim yaxshi o‘syapti, deb ularni bir-bir cho‘zg‘ilab chiqadi. Va uyga kelib: "Bugun juda charchadim. Maysalarga o‘sishlari uchun yordamlashdim”,* - deydi. Uning o‘g‘li darhol maysalar tomon chopadi va ularning so‘lib yotganini ko‘radi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qitishda mohiyat va hodisani anglatish ham zarur ishlarimizdan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki mohiyatni hodisadan ajrata bilish jarayonida to‘g‘ri va aniq fikr paydo bo‘ladi. Bunda nazariya va amaliyot birligi amalga oshadi.

Tasavvur va ta’rif asosidagi dars ham zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga qaratilgandir. Bunday dars tashkil qilishning asl muddaosi o‘quvchi-talabalarni faollashtirishdan iboratdir. Faollashtirish yo‘l-yo‘riqlari: bahs-munozara, o‘ylanish, mushohada qilish uchun vaziyat yaratish, darsga detal (biror buyum) olib kirish kabi faoliyat usullaridan iboratdir. “Faoliyat-atrofni o‘rab olgan narsalarga inson munosabatining alohida shaklidir”. [Краткий педагогический словар пропагандиста, 1984: 215].

Faoliyatda 4 ta tarkibiy qism e’tirof etiladi: motiv, maqsad, vosita, natija.

Bizningcha ham, subyektning faolligi mustaqil fikriga ega bo‘lishi, o‘quv motiviga bo‘lgan ehtiyoji, uning emotsiyasi, tasavvuri kabilar inson faoliyatida asosiy rol o‘ynaydi. Lug‘atlarda keltirilishicha, ”Tasavvur ijodiy va reproduktiv turlarga ham bo‘linadi. Ijodiy tasavvurda voqelikda mavjud bo‘lmagan vaziyat va obrazlar ongda tiklanadi va qayta quriladi” [“Tarbiya” ensiklopediyasi, 2010:402].

Birinchi Prezidentimiz “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” kitobida”...O‘zi mustaqil fikrga ega bo‘lish – bu nima degani? Bu, avvalo, ko‘p-ko‘p fikr va misollarni o‘zaro solishtirib, qiyoslab, ularning ichidan yakka-yu yagona to‘g‘ri haqiqatni ajratib

olish, uni o‘z ongiga singdirish, shundan xulosa chiqarib, yashashga qodir bo‘lish demakdir”– deya ta’kidlagan edilar [Karimov, 2009: 9].

Haqiqatan ham zamonaviy pedagogik texnologiya asosida dars o‘tishda o‘qituvchi asosiy e’tiborni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga e’tibor qaratmog‘i lozim. Chunki zamonaviy o‘qituvchi uchun har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkur, uslubiy bilim va malakalar bilan birga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos usul va vositalarini tanlay olishi, ishlab chiqishi, uni darsda qo‘llay olishi, faollik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim va bunday qobiliyatni o‘quvchilarida ham mujassam etish uchun harakat qilmog‘i zarur. Faollik-o‘quvchilarda keng fikrlashni, bilimlarni puxta va chuqur o‘zlashtirishni, zarur malaka, ko‘nikmalarni rivojlantirishni, tafakkur, idrok, zehnlilik, ijodiy tasavvurlarni o‘stirish va tarbiyalashni ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ona tili darslarida fikrlashni rivojlantirish va ifoda etish ko‘nikmalarini hosil qilishda Amerika psixologi D.Ozbel asos solgan ongli verbal ta’lim yo‘nalishi-kognitivizm muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitivlik, verballik, kashfiyotchilik, onglilik hozirgi kunda ijodkor shaxs-ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi. [Ziyodova, 2002: 4].

Pedagogik texnologiya talabiga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ylantirishga, fikrlashga, mantiqiy xulosa chiqarishga,tasavvurlarini kengaytirishga, bir so‘z bilan aytganda, faollashtirishga alohida e’tibor bermog‘i kerak.

Ma’lumki, ona tilini o‘qitish jarayoni amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va amalga oshirishning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Biz tajriba o‘tkazish jarayonida shu narsaga ishonch hosil qildikki, tasvir va tasavvur, ta’rif asosida dars tashkil qilish orqali o‘quvchilarni faollashtirish ona tili mashg‘ulotlarida keng qo‘llash mumkin bo‘lgan usullardandir.Tasavvur hissiy bilishning yuqori bosqichi bo‘lib, inson amaliy faoliyati natijasida maqsadga muvofiq ravishda hosil bo‘ladi. Tasavvurning ilmiy, badiiy, diniy shakllari mavjud bo‘lib ,u orqali fahmlash, ilmiy tajriba, modelning shakllanishi uchun g‘oya vujudga keladi, bu esa bilish uchun yordam beradi. [Tulenov, G‘ofurov, 1997: 238].

Tasavvur esa tasvir bilan uyg‘unlik hosil qilgandagina o‘quvchi nutqining o‘sishiga, tafakkurining rivojlanishiga, dialektik qonuniyatlarni tushunishga turtki beradi.

Darsga *behi guli* (detal yoki uning surati) olib kiriladi hamda shu asosda talabalarda qanday tasavvur hosil bo‘lgani yoki tasvir haqidagi tushunchalari so‘raladi. *Siz ushbu gulning paydo bo‘lishi, rivojlanishini qanday tasavvur etasiz, qanday tasvirlaysiz, ta’riflaysiz?* – degan savollar bilan murojaat qilinadi va talabalarning javoblarida barcha fikrlar “Tasavvur va tasvir” degan jumlalar ishlatilishi kerakligi ta’kidlanadi. Yuqoridagi shartni amalga oshirish uchun shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif kabi dialektik birliklar qaror topmog‘i kerak.

Insonning tafakkuri va uning rivojlanishi falsafa, psixologiya, lingvistika, logika fanlarining o‘rganish obyekti sanalar ekan, nutqiy jarayon ham fikr ifodalash holatlari ham, yuqoridagi fanlar bilan mustahkam aloqada va ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir. Shuning uchun o‘quvchilarda falsafiy mushohada qilish, mantiqiy izchillik asosida fikr ifodalash, ruhiy-hissiy holatlarni namoyon etish til orqali moddiylashadi. O‘quvchi falsafiy qonuniyatlarni yaxshi bilsa, uning fikrlashi, tafakkurining voqelashuvi ham talab darajasida bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘z faoliyatlari davomida ma’lum maqsad, vazifa hamda muammolarni qo‘yadilar. Shu paytda o‘qituvchining vazifasi maqsad va muammoni hal qilishning samarador yo‘lini topishga o‘rgatishdan iborat. Buning uchun dialektik qonuniyatlarga asoslangan holda tafakkur hosil qilishga o‘rgatish muhimdir.

Dars jarayonida ko‘rgazmali qurol sifatida ko‘rsatilgan *behi guli* juda oddiy va jo‘n bo‘lishi mumkin. Ammo bunga dialektik munosabat bilan yondashmoq zarur. Chunki har bir narsa, predmet haqida gapirganda ilmiylik, zaruriylik, funksionallik nuqtayi nazaridan yondashmoq zarur. Behi guliga baho berish uchun o‘sha guldagi juda ko‘p tomonlar: qanday va qachon paydo bo‘lishi, gulning rangi, tinimsiz harakatda ekanligi, o‘zgarishda bo‘lishi, ob-havo bilan bog‘liqligi, o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Har bir predmetni baholashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ana shu jihatlar o‘quvchining ko‘z o‘ngida bo‘lmas ekan, unga (behi guliga) baho berishda xatoga yo‘l qo‘yilaveradi. Buning uchun esa narsa va hodisaga dialektik yondashish zarurdir. Dialektik tafakkur, doimiy

paydo bo‘lish, o‘zgarish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish doimiyligini inson faoliyati orqali isbotlashga harakat qiladi. [Davronov, 2004: 28].

Ana shularga e’tibor qaratgan o‘quvchi- talaba o‘z fikrida, nutqida kashfiyot qila oladi, yangi g‘oya bera oladi, chunki talabalar muammoni hal qilayotganlarida ularda o‘ziga xos fikr paydo bo‘ladi. U bergan fikr o‘zligini anglashga, ijod qilishga yordam beradi. Talabalar dars maqsadi, vazifasini eshitganlaridan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini aytadilar, bahs-munozara yuritadilar.

Aytaylik, o‘qituvchi xulosa sifatida shunday fikr bildirishi mumkin: *Bir dona behi guli turfa nigohlar og‘ushida turfa tasavvur uyg‘otish, turfa ohangda tovlanishi mumkin. Bu bizga arzimas va oddiy bo‘lib ko‘ringan narsa insonlarga lazzat baxsh etadi, shifobaxshlik xususiyatiga ega bo‘lib, dardlilarga darmon bo‘ladi.*

Uning shakli o‘zgarishi bilan mazmuni (mazasi) ham o‘zgaradi (shakl-mazmun), quyosh nurlarini sochishi bilan u gullaydi ,natijada meva tugadi (sabab va oqibat), miqdori o‘zgarishi bilan (kattalashib) sifati ham o‘zgaradi (miqdor va sifat)...

Tasavvur va tasvir, ta’rif asosida dars o‘tish innovatsion ta’limga asoslangan modulli ta’lim texnologiyasi bo‘lib hisoblanadi. Fikrimizcha, innovatsion ta’limning yana bir talabi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrning bir obyektga (maysa atrofiga) to‘planishi, o‘sha obyekt haqida to‘la, mukammal ma’lumotlarni mushohada qilish va ifodalashdan iboratdir. Innovatsion harakatda ijodiylik texnologiyasi, shuningdek, avval olgan bilim, ko‘nikma, malakalarni yangi turda qo‘llash amalga oshiriladi. Bunday ta’limni amalga oshirish uchun fanlararo integratsiya masalasini ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ona tili va adabiyot darslarini qo‘shaloq holda olib borish, adabiyotdagi badiiy asarlarni, she’rlarning esa lisoniy tomonlarini o‘rgatish zarurdir. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Binobarin, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun qilingan har bir ish ularning tafakkurini o‘stirish omili sanaladi. Tafakkurni o‘stirish omillaridan biri fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning o‘rni katta. Abstraksiyalash, tasavvur hosil qilish, xulosalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonning haqiqatni anglash darajasini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvur va tasvir asosidagi bilimlarning yaroqliligi o‘quvchilarning mazkur bilimlarni o‘z so‘zlari bilan ifoda etish darajasiga ko‘ra belgilanadi,ya’ni ta’rif etiladi.Chunki nutq predmetni ko‘proq bilishdan kelib chiqadi va rivojlanadi. Agar so‘zlovchi uni(predmetni) atroflicha o‘rganmagan bo‘lsa, bilimi kuchsiz va ishonchsizdir.Tasavvur etsa, tasvirlay oladi. Tasvirlash esa nutq orqali namoyon bo‘ladi.O‘quvchining tasavvur qilish darajasi nutq hosil qilish davomida real voqelikka aylanadi.

Maqola davomida bildirilgan fikrlar quyidagicha xulosalash imkonini beradi:

1. Zamonaviy ona tili ta’limini rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi nafaqat o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, buning uchun esa ular tasavvurlarini kengaytirish lozim bo‘ladi.

2. Ona tili darslarida o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishning amaliy jihatlariga ustuvorlik berish zarur.

3. Ona tili ta’limiga texnologik yondashuv o‘qituvchidan o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko‘p mehnat qilishni talab qiladi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to‘g‘ri qo‘yish, o‘quv faoliyati natijalarini aniqlashtirish, ta’limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlab olish, ijodiylikni ta’minlovchi faoliyatni aniq tartiblangan algoritmini ishlab chiqishi lozim.

4.Tafakkur o‘stirish omillaridan biri fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning o‘rni katta. Abstraksiyalash, tasavvur hosil qilish, xulosalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonga haqiqatni anglash darajasini belgilaydi.

5. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchi tasavvurlarini kengaytirishning trening mashg‘ulotlari dasturini ishlab chiqish, uni takomillashtirish kutilgan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsiddinov H. *Funksional-semantik sinonimlarni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillar*. O‘zbek tili va adabiyoti, 1997.

2. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. – Moskva: Rus tili, 1981.
3. *Краткий педагогический словар пропагандиста*. – Москва: Политиздат, 1984.
4. *“Tarbiya”* ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Karimov I.A. *Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
6. Ziyodova T.U., Xolmatova U.N., Jumaniyozova X.T. *O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.* – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
7. TulenovJ., G‘ofurov Z. *Falsafa*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
8. Davronov Z. *Dialektika – bilish uslubi.* Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, 2004.

ADABIY TA’LIMDA ILMIY YONDASHUV USULLARI

Marg‘uba Abdullayeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada badiiy asarlarni tahlil qilishda qadimdan hozirgi davrgacha keng qo‘llanilib kelingan “Sharhlash” metodi, uning tarixi, xususiyatalri, ahamiyati va asosiy turlari, shuningdek, adabiy ta’limdagi ilmiy yondashuv usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *sharh, metod, tahlil, lingvistik sharh, tarixiy-milliy sharh, tarixiy-adabiy sharh, interpretatsiya*

Badiiy asarlarni o‘rganish va tahlil qilishda kuzatish, dalillash, umumlashtirish, baholash, akseologiya, shartlilik, komparativistika, qiyoslash, psixologik asoslanganlik, badiiy qimmatni tayin etish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan samarali foydalanib kelinadi. Bu metodlardan tashqari ilmiy bilishga, tafakkur va aqliy zakovatga yo‘naltirilgan “Sharhlash”, “Aql xaritasi”, “Ilmiy faraz” kabi metod va usullardan adabiyot o‘qitishda foydalanish, bugungi kun ta’limi uchun muhimdir. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlarni o‘qitishda

sharqona usullardan biri hisoblangan “Sharhlash” metodining tarixi, metodik xususiyatlari va asar tahlilidagi ahamiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Sharh (arabcha – izohlash, tushuntirish) – kitob sharhi – kitobning matniga izoh berish, unga ilmiy izoh, ma’lumot beruvchi qismi. Asarlarda, tarjima va hujjatli nashrlarda matnning mazmun-mohiyatini tushuntirib berishda qo‘llanadi. Sharh muallif, noshir, mutaxassis, tarjimon tomonidan tayyorlanib, ma’lum bir asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqea-hodisalarga, fanlarga, shaxslarga, zamon va makonga bog‘liqligi xususidagi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh]. Sharhda muallif ishora etgan ba’zi voqea va faktlar, u yoki bu sabab bilan oshkora yozilmagan yoki yozilishi lozim topilmagan narsalar talqin qilinadi, ba’zi so‘z, so‘z birikmasi va iboralarning mohiyati ochib beriladi. Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo‘lib, odatda, matndan keyin alohida maqola yoki ma’lumot tariqasida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga “sharh” alohida kitob shaklida berilishi ham mumkin.

Qadim zamonlardan buyon ilmiy o‘rganishda keng qo‘llanib kelingan usullardan biri sharhlab o‘rganishdir. Navoiy asarlari lug‘atida “sharh” – *izoh, kengroq tushuntirish;* “sharh aylamak” – *izohlamoq, kengroq tushuntirmoq* tarzida bayon etilgan [Navoiy asarlari lug‘ati, 1972: 692]. Ba’zi manbalarda sharh tavsifga o‘xshab ketishi, bu atama garchi sharh bilan ma’nodosh bo‘lsa-da, lekin u kengroq mazmunni anglatishi qayd etiladi. Asarlarni sharhlashning quyidagi turlari mavjud.

1. Lingivistik sharh. Tushunilishi qiyin so‘zlar, ma’nosi notanish va noaniq so‘zlar izohi. Sharhning bu turini quyidagi so‘zlar qamrab oladi: arxaik so‘zlar, tarixiy so‘zlar, dialektizm, arab-fors so‘zlar izohi. So‘zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma’lumot beradi.

2. Tarixiy-milliy sharh. Bu xil sharhda qadimiy milliy urf-odatlar, an’analar, udumlar bilan bog‘liq bo‘lgan an’analar izohlanadi.

3. Tarixiy-adabiy sharh. Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog‘liq an’analar izohlanadi. Bundan tashqari asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so‘zlar izohi bo‘lishi mumkin:

geografik joy nomlari, badiiy asardagi tarixiy shaxslar, ular haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar, xalq maqollari, iboralar va tasviriy vositalar, qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi, kiyim boshi, buyumlari. Son bilan ifodalangan so‘z va iboralar va hakozolar [Tursunova, 1992:23].

Mumtoz adabiy asarlar, ayniqsa, lirik janrga mansub bo‘lgan asarlar matni ustida ishlashda ulardagi tasvir vositalari, til xususiyatlari ham diqqat markazida bo‘lishi kerak. Alisher Navoiyning ko‘pgina g‘azallari adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan sharhlab o‘rganilgan. Jumladan, N. Komilov “Jon va jonon mojarosi”, E.Vohidovning “Junun vodiysida”, Muhammad Ali “El komin ravo ayla”, Jamol Kamol “Qizil, sorig‘,yashil”, Ibrohim Haqqulov “Parim bulsa uchub qochsam” nomli g‘azallariga bag‘ishlangan sharhlari mavjud. Masalan:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzulg‘on ro‘zg‘orimni.

“Bu g‘azal dunyoning g‘am-u anduhidan zardob bo‘lgan shoir qalbining afg‘onidir. Inson yuragi va tafakkuri haddan ziyod sevinchni ham, g‘amni ham qabul qilolmaslik xususiyatiga ega. Tuyg‘ularning ofatli seli kishini telba qiladi. Shoir o‘z jonini junun, ya’ni telbalik vodiysiga moyil ko‘radi, buzulgan hayot-ro‘zg‘ori uni aqldan ozdirgani, endi telbalikni bo‘yinga olib dasht-u sahrolar kezishdan o‘zga iloji qolmaganini va telbalik-buzish, vayron qilish ekan, demak, buzilgan hayotini bir yo‘la vayron qilmoq tilagini faryod bilan ifsho qiladi” [Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar, 63], tarzida baytni sharhlab o‘tadi. Sharhda ilmiy yondashuv asosida badiiy tafakkur mohiyati ochib beriladi. Bunda asar muallifining bilish va anglashga doir qarashlari aks etadi. Xullas, sharhlab o‘qitish tahlildan farqlangan holda badiiy asarga nisbatan, izohni, tahliliy yondashuvni, ilmiy bilimlarni va keng mushohadani talab qiladi. Murakkab, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni ma’no va mohiyati jihatidan tushuntirishga xizmat qiladi. Yashirin, tagma’no qirralarini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tarixiy voqealar, tasviriy vositalar orqali ochadi.

Ilmiy bilishga asoslangan yana bir metodlardan biri “Aql xaritasi”dir. Aql xaritasi – g‘oyalar, vazifalar, tushunchalar va boshqa har qanday ma’lumotlarni tartibga solish usulidir. Aql xaritalari

murakkab narsalarni vizual tarzda tuzish, eslab qolish va tushuntirishga yordam beradi. Masalan, “Boburnoma” asarida berilgan joy nomlari bo‘yicha xarita tuzish. Bunda asardagi ma’lumotlarga tayanib, eng yirik davlatlarni xaritaning asosiga joylashtiramiz va bu davlatlarga tegishli viloyat va tumanlarni aniqlab chiqamiz.



Barcha aqliy xaritalarning markazida asosiy g‘oya mavjud. Asosiy fikrlar undan chiqib ketadi, siz barcha ma’lumotlarni tuzmaguningizcha ularni kichik bandlarga bo‘lish mumkin. Shu orqali xarita shakllanib boradi. Bunda talaba ketma-ket kelgan joy nomlarini bir-biridan ajratib, eslab qoladi. Har bir hududning o‘ziga xos geografik tuzilishi bilan birga, tabiat tasviri, urf-odatlari, madaniyati bilan ham tanishib boradi. “Aql xaritasi”ni tuzish uchun o‘quvchi asar matni bilan tanish bo‘lishi zarur.

“Ilmiy faraz” bu – haqiqat qiymati noaniq bo‘lgan ehtimolli bilim shakli, gipoteza deb ham ataladi. “Ilmiy faraz” ilmiy bilimlarni rivojlantirish usuli sifatida qaraladi, u qisman asoslangan taxminlar yoki taxminlarni taklif qilish va keyinchalik eksperimental tekshirishni o‘z ichiga oladi va tizimli ilmiy nazariyaning elementi hisoblanadi. Oddiy ongda gipoteza (ilmiy faraz) ko‘pincha muammoning faraziy yechimi yoki hodisaning ishonchli tushuntirishi sifatida tushuniladi. Umuman olganda, faraziy bilim mazmunli inson faoliyatining har qanday sohasida keng qo‘llaniladi. Gipotezalar usuli fanda eng katta rivojlanishni ilmiy bilimlarni tashkil etish shakli, yangi bilimlar sari harakatni ta’minlaydi, uni mavjud bilimlar doirasidan tashqariga olib chiqadi va yangi bilimlarni amalga

oshirishga hissa qo‘shadi. Zamonaviy fan metodologiyasi talablari nuqtayi nazaridan faraz, agar u quyidagi talablarga javob bersa, ilmiy gipoteza maqomini olishi mumkin:

1. Taxmin mantiqiy jihatdan izchil bo‘lishi kerak.
2. Taxmin gipoteza ilgari surilayotgan fanning fundamental qoidalariga zid kelmasligi kerak (bu talabning ko‘zda tutilishi mutlaq emas, chunki ba’zi hollarda bu qoidalarning o‘ziga shubha qilish foydalidir; agar fanning fundamental qoidalari taklif qilingan faraz zid bo‘lsa, rad etib bo‘lmaydi, faraz shubha ostiga olinadi).
3. Taxmin tubdan tasdiqlanishi kerak. Agar taxminni printsipial jihatdan tekshirish mumkin bo‘lmasa (asoslangan yoki rad etilgan), u gipoteza sifatida tan olinmaydi.
4. Taxmin ilgari o‘rnatilgan faktlarga zid bo‘lmasligi kerak, uni tushuntirish uchun mo‘ljallanmagan (taklif etilayotgan gipotezaning predmeti bilan bog‘liq emas).
5. Faraz hodisalarning mumkin bo‘lgan eng keng doirasiga taalluqli bo‘lishi kerak. Bu talab bir xil hodisalar doirasini tushuntiruvchi bir nechta farazlardan eng oddiyini tanlash imkonini beradi – shuning uchun u ko‘pincha oddiylik printsipi deb ataladi.
6. Taxmin kognitiv yoki amaliy nuqtayi nazardan samarali bo‘lishi kerak (xususan, keyingi tadqiqotlar uchun dasturni ishlab chiqish yoki belgilash imkonini beradi).

Kognitiv jarayondagi funksiyalariga ko‘ra tavsiflovchi va tushuntirish gipotezalari ajralib turadi:

1. **Tasviriy gipoteza** – o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaga xos xususiyatlar haqidagi taxmin. Bunday farazlar odatda “Bu narsa yoki hodisa nima?”, degan savolga javob beradi. Yoki “ushbu obyekt yoki hodisa qanday xususiyatlarga ega?”. Ta’riflovchi gipotezalar orasida obyekt yoki hodisaning mavjudligi haqidagi farazlar alohida o‘rin tutadi, ular ekzistensial gipotezalar deb ataladi. Jumladan, Farhod – komil inson timsoli. Bu qarash dostondagi Farhod obrazi xususiyatlaridan kelib chiqib, tasviriy gipoteza orqali o‘rganilishi kerak. Buning uchun dastlab, komillikni belgilovchi mezonlar aniqlanadi. Bunda talaba asarga ilmiy yondashishi talab etiladi.

2. **Izohlovchi gipoteza** – tadqiqot obyektining sabablari haqidagi taxmindir. Bunday farazlar odatda, savolga javob beradi: “Nega bu voqea sodir bo‘ldi?” yoki “ushbu obyekt yoki hodisaning

paydo bo‘lishining sabablari nima?” Shu kabi muammoli savollarga badiiy matn orqali o‘quvchining taxminiy javoblari olinadi. Ulardan haqiqatga yaqini saralanadi. Voqea-hodisaning sodir bo‘lish sabablari aniqlanadi. Masalan, Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida Bahrom uchun yetti qasrning barpo etilishi, yetti musofirning hikoyati muammoning yechimiga qay darajada xizmat qilgani talaba tomonidan izohlanishi talab etiladi.

Interpretatsiya – (lotincha interpretatio – vositachilik) talqin qilinadigan obyektning, ya’ni badiiy obrazning tashqi ko‘rinishlarini (uzvlari: yuzi, qoshi, xoli), belgilar, imo-ishoralar, tovushlar va boshqalar) o‘rganish orqali obrazning ichki xarakteri, ruhiyati va mazmunini tushunishga qaratilgan ilmiy bilish usuli. Ayniqsa, badiiy asarlarda tasvirlangan qahramon tashqi ko‘rinishi, obrazning xarakter-xusisiyatlarini aniqlashda vositachi bo‘ladi. Interpretatsiya analitikning asosiy, eng muhim vositasi bo‘lib, tushlarni talqin qilishda ham foydalaniladi. Badiiy asarlardagi tush motivlarini talqin qilishga oid qarashlar tahlilida buni ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta’limda badiiy asarlarni ilmiy yondashuv metodlari orqali o‘rganish – talabalarni ilmiy-ijodiy tafakkurini boyitadi, yangi kashfiyotlar qilishga, ilmiy fantaziyalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar. E.Vohidov. Junun vodiysida. – B. 63.
2. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchi: P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. G‘.G‘ulom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. –B. 692.
3. Tursunova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli// Til va adabiyot ta’limi, 1992. №3, 4. – B. 23.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh

BADIIY ASAR TAHLILI: LOKALDAN GLOBALGA

Zulxumor Mirzayeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asarni turli xil kontekstlarda tahlil qilish orqali o‘quvchilarni keng miqyosda fikrlashga o‘rgatishga doir muammolar haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar**: badiiy asar tahlili, jahoniy tafakkur, kontekst.*

Globallashuv, integratsiyallashuv, “global” so‘ziga berilgan birinchi ta’rif (“butun yer sharini qamrab oluvchi”, “haddan oshmoq”, “chek chegaradan chiqmoq”) kishida salbiy tasavvurlarni uyg‘otadi. Lekin uning ikkinchi – “umumbashariy; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik” [O‘zbek tilining izohli lug’ati, 2020: 507] kabi ma’nolari muayyan voqelikka, jumladan badiiy asar tahliliga universal yondashish, milliy va jahoniy fikrlar, tushunchalar uyg‘unligida yangi talqinlarni kashf qilishni anglatadi. Ya’niki, global tafakkur, global talqin “badiiy asar, xususan badiiy matndan jahonshumul badiiy ma’nolarni izlash, topish va muayyan ilmiy umumlashmalar chiqarish tarzda amalga oshiriladi [Nazarov, Meliyev va boshq., 2019: 18]. “Yangi ilmiy badiiy talqinlarga yo‘l ochadi, badiiy asarni tahlil va talqin qilishda yangi miqyosga chiqish, asardagi tuyg‘u, voqea hodisa va obrazlarni haddi a’losiga yetkazish”ni ifodalaydi [Nazarov, Meliyev va boshq., 2019: 8].

Global tafakkurning mohiyati, darajasi lokal (local so‘zi “milliy”ning aynisi emas – Z.M.) tafakkur qamrovida yanada oydinlashadi. Demakki, global fikr haqidagi tassavvurlarni oydinlashtirish uchun, avval local (mahalliy) fikrning mohiyati xususidagi qarashalarimizni chig‘iriqdan o‘tkazib olishimiz talab etiladi.

Tere Vadenning “Lokal tafakkur nima?” (What is loca thinking?) nomli maqolasida “mahalliy tafakkur universal (jahoniy,

keng miqyosli – ta’kid bizniki Z.M.) bo‘lmagan, ayni paytda fazoviy va muvaqqat (vaqtinchalik) degan fikrni aytadi [Vaden, 2006]. Olim fikrlarini davom ettirib, lokal tafakkur nominalistik xususiyatga ega bo‘lib, unda universal mohiyat bo‘lmaydi va aql hech qanday universal yoki umumiy atamaga mos keladigan yagona tushuncha yoki tasvirni berolmaydi [Vaden, 2006].

Lokal tafakurda universal xususiyat kasb etmasligini ikki jihat bilan bog‘lash mumkin: birinchisi, lokal tafakkur shakllanishida muayyan millatga xos xususiyatlar, madaniyat, til, tutumlar, dunyoqarash ma’lum darajada ta’sir etadi va shu nuqtayi nazardan u universal xususiyatga ega emas; ikkinchisi, uzoq yillar mustamlaka qilingan xalqlarning tafakkur tarzi qandaydir qopilplarga, sxemalarga moslashtirilganligi sabab hayot yoki badiiy voqelikka munosabatda ham ayni qoliplardan chetga chiqolmaydi. Zotan, insonning onggi, tafakkur bir xil shtrixlarda shakllanmaydi. Sho‘rolar mustamlakasi davridagi millatni bir xil fikrlashga “o‘rgatish” siyosatining zahar-zaqqumi, afsuski, juda uzoq yillar millat ongi, dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va ana shu stereotiplardan andoza olgan tafakkur (shu jumladan, mahalliy tafakkurning ham)ning o‘ta sayozlashishiga sabab bo‘ldi. Mavjud qoliplar, xoh u adabiyotda yoki san’atning boshqa sohalarida bo‘lsin “boshqacha bo‘lishi mumkin emas” kabi qarashlarga rag‘bat berdi va erkin fikr zamonida ham mavjud chegaralarni buzib o‘tish imkoni bo‘lmadi.

Malumki, Alisher Navoiyning mashhur “Kamol et kasbkim olam uyidin” qit’asi “bu dunyodan bilim va kasb-hunar o‘rgangan holda o‘tgin. Chunki (bu dunyodan bilim va kasb-hunar egallamasdan) g‘amgin bo‘lib o‘tib ketishing senga lozim bo‘lmagan ishdir. Bu dunyodan bilim va kasb-hunar egallamasdan o‘tib ketish hammom (ga kirib, un) dan yuvinmasdan chiqib ketishga o‘xshaydi” kabi talqin qilingan. “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon” kitobida adabiyotshunos Suvon Meliyev qit’aning ushbu sharhiga e’tiroz bildirib, “ulkan ma’no juda oddiy tushuntirilganligi” ni yozadi, lekin xulosalarini davom ettirib, ”hazrat qit’asining shunday bir quyi, kundalik turmush uchun muhim bo‘lgan ma’nosi bo‘lishi” mumkin”ligini ta’kidlaydi [Nazarov, Meliyev va boshq., 2019: 21], ammo bu talqin qit’aning oliy global ma’nosi emasligini ta’kidlab, uni qiyosiy-struktur tahlil orqali qit’aning juda katta ma’no,

oliy, global ma’no tashiyotganini isbotlaydi[Nazarov, Meliyev va boshq., 2019: 21 – 32].

Yuqoridagi qaydlardan xulosa qilish mumkinki, badiiy asar turli xil ma’no qatlamlaridan iborat bo‘lib, uning ilk, y’anikim, jo‘n xulosalar matn yuzasida qalqib turgan mohiyatga asoslanadi va bunday talqinlar ma’lum ma’noda, lokal tafakkur hosilasi deyish mumkin. Lokal tafakkurga asoslangan talqin, avvalo, universal, jahoniy miqyos kasb et (ol)maydi, ikkinchidan, matnning “yozilmagan qism (lar)i” ni kashf etish imkonini bermaydi. Global tafakkurga asoslangan taqlinlar esa asardagi ramzlar, muhim tushunchalar akslangan badiiy tasvir vositalari, dudmallik kategoriyalari vositasida badiiy asardagi tuyg‘u, voqea-hodisa va obrazlarni Suvon Meliyev ta’biri bilan aytganda haddi a’losiga yetkazib tushuntiradi.

Global tafakkurning shakllanishi asosida, avvalo, tanqidiy fikr yotadi. “Tanqid”ga biror bir asarni qoralash, undan faqat salbiy jihatlarni qidirish, har qanday fikrni inkor etib, o‘z qarashalarini to‘gri ekanligiga urinish emas balki:

– muayyan badiiy asar haqidagi avvalgi fikrlar tasdig‘i va inkorini matni orqali tekshirish, mavjudlari yoki tajribalar asosida yangilarini yaratish;

– ochiq qolgan savollarga javob izlash, badiiy asarni bugungi kun talablari, zamonaviy tahlil usullari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish va eski talqinlar bilan qiyoslash.

– ma’lumotlarni turli xil kontekstlarda tekshirish, sharhlash, asardagi sabab va oqibat zanjirini turfa rakurslarda baholash, mulohaza yuritish orqali mantiqli qarorlar qabul qilish, fikrlarini dalillash va h.k.z.

Badiiy asar anglovida tor mushohadalardan, stereotip qarashlardan, milliy cheklovlar doirasidan olib chiqadigan tahlil usullaridan foydalanish, badiiy matnni turli xil kontekst (masalan, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, iqtisodiy) larda tahlil qilish ma’lum ma’noda dunyoviy fikr tomon siljishning muhim jihatlaridir. Boshqa millat madaniyati, san’atini, g‘arb taffakkuri doirasida yaratilgan asarlardagi o‘ziga xosliklarni tushunish, ularni to‘g‘ri baholash uchun ham dunyoviy bilim, global tafakkurning ahamiyati katta. Ayni paytda “O‘tkan kunlar”ni mutolaa qilgan g‘arblik adabiyotshunoslar

(shu jumladan, retsipent, qabul qiluvchi, kitobxon) “Yusufbek Hoji siyosiy va ijtimoiy mavqega ega bo‘lsa-da, u O‘zbek oyimning qarorlariga qarshi chiqolmaydi, oqibatda Otabek, Kumush va Zaynab fojeasining sababchilaridan biriga aylanib qoladi” kabi biz uchun ajablanarli, milliy qarashlarimizga yot xulosalarni ham g‘arbona tafakkur, g‘arbona madaniyat mahsuli sifatida qabul qilmog‘imiz, bunday fikrlarga qarshi fikrlar, bahslar esa konstruktiv yondashuv asosiga qurilmog‘i darkor, bizningcha. Chunki bu kabi noan’anviy qarashlar, bahsli fikrlar asarni boshqa ranglarda ham ko‘rishga imkon beradi. Yoki O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi Umri xola fojeasining asosiy sabablari (va sababchilari)ni hadeb ham urush, Shoikrom, yoki Umri xola bilan yuzko‘rmas bo‘lib ketgan kelini Xadicha bilan bog‘lab emas, balki farzandlariga to‘g‘ri tarbiya berolmagan onaning o‘zini ham aybdor qilishi bilan bog‘liq qarashlarning yuzaga kelishini tabiiy jarayon va qolipga solingan an’anaviy qarashlarni yaxshi ma’noda buzib, kengroq doiradagi fikrlar sifatida qabul qilmoq lozim.

Badiiy asarni keng, global miqyosda tushunish, uning badiiy xususiyatlari, g‘ovayiy mazmunini chuqur idrok etishda tahlil metdodlari, kontekst ham muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan:

Adabiy kontekst – adabiy kontekst badiiy asarni tushunish uchun zarur bo‘lgan adabiy-tarixiy, adabiy-nazariy va adabiy-tanqidiy bilimlar yig‘indisidir. Misol uchun, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab ijodini tasavuffiy ilmlarsiz anglash mumkin emas. Yoki Cho‘lponning katta muhokamalarga sabab bo‘lgan, ayrimlar nazdida sho‘rolar siyosatiga yon bergandek tasavvur uyg‘otadigan, 1934-yilda yozilgan “Yangi men” she’rining tag ma’nolarini inkishof qilish uchun kitobxon metafora, dramatik kinoya, dudmallik kategoriyalari, konflikt, obrazli nutq haqidagi nazariy bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Aks holatda she’rning yuza qismidagi mazmuniga tayanib, unda sovetlar mafkurasi, yangi zamon ulug‘langan degan xulosalarga kelish hech gap emas.

Ijtimoiy kontekst – har qanday badiiy asarda muallif o‘zi yashagan jamiyatga xos xususiyatlarni muayyan voqealar, obrazlar, qahramonlar orqali aks ettiradi. Badiiy matnni ijtimoiy kontekstda tahlil qilish jarayonida ikki muhim jihatga e’tibor qaratilishi lozim, birinchisi, xarakter yashagan jamiyatga xos xususuiyat va bu

jamiyatning, ijtimoiy munosabatlarning obrazga, xarakterga ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, badiiy matn yaratilgan jamiyatning boshqa jamiyatlardan farqi va prototipning ushbu jamiyatga qarashlaridan iborat.

Anbar Otin o'zining "Qarolar falsafasi" asarida o'zi yashagan ijtimoiy muhit tasvirlanadi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ayollar huquqlari toptalgan, ularga "zaifa" sifatida qarash, istalgancha tahqirlash odat tusiga kirgan. Erk, ozodlik, ayol huquqlari haqida gapirganlar jazolangan. Anbar Otin yashagan jamiyatga xos xususiyatlar uning lirikasida, xususan, "Qarolar falsafasi" asarlarida aks etgan. O'quvchi shoira yashagan jamiyat muhiti, o'ziga xos jihatlari, boshqa jamiyatlardan farqi haqidagi bilimlarga ega bo'lmay asar mazmun mohiyatini, ayollar mubtalo bo'lgan baxtsizliklar va ularning sabablarini to'la-to'kis anglay olmaydi.

Tarixiy kontekst – tarixiy kontekst muayyan zamon va makonda aks etgan voqealar tafsiloti, ijtimoiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarni, ularning asarga ta'siri masalalarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Biz tarixiy asarlardagi voqealar, muallif g'oyalari asosida o'tmish va hatto kelajak haqidagi qarashlarimizni, tasavvurlarimizni boyitamiz, umumlashtiramiz. Demak, tarixiy kontekst harakat va natija sodir bo'ladigan makon va zamonni ko'rsatib beruvchi muhit. Tarixiy asarlarni turli xil rakurslarda tushunish, muallifning badiiy-g'oyaviy maqsadini inkishof etish, tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish, to'qima obrazlarni yaratishdagi muallif mahorati kabi masalalar tarixiy kontekstda oydinlashadi. Bunda esa quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

– asardagi voqealar qachon va qayerda sodir bo'lgan?

– asarda aks etgan voqealarga muallif munosabati va u bu munosabatni asosan qaysi tarixiy va to'qima obrazlar orqali ko'rsatmoqda? Nima uchun?

– asarga asos qilib olingan va muallif yashagan davr (lar) voqeliklari o'rtasidagi umumiy (o'xshash) jihatlar nimada? Muallifning aynan mazkur mavzuga murojaat qilishi sabablari;

– tarixiy voqea aks etgan jamiyatga xos xususiyatlar va ularning asarda aks etishi;

– tarixiy asar orqali muallif aytmoqchi bo'lgan g'oyaviy maqsad.

Abdula Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi tarixiy voqealarga asoslangan. Ularning o‘tmishga murojaatini, avvalo, tarixiy muammolarning zamonaviyligiga urg‘u berishi, tarixiy voqelik, faktlar orqali siyosiy-g‘oyaviy maqsadini yuzaga chiqarishi, mahalliy amaldorlarni tarixda yo‘l qo‘ygan xatolaridan saboq chiqarishiga, millatni fojea sabablari va sababchilaridan ogoh etishi va, albatta, davr senzurasidan omon qolib, mustamlaka siyosatiga qarshi kurashishi bilan izohlash mumkin. Chunonchi, Turkiston xonliklarining sho‘rolar tomonidan parchalanishida, o‘lkani mustamlakaga aylanishida Abulfayzxonga o‘xshagan ruhan zaif, shafqatsiz va ikkiyuzlamachi (Amir Olimxonning jadidlarni qo‘llab-quvvatlashiga doir farmon chiqargani, ammo bir muncha fursatdan keyin uning soxta ekanligi va Fitrat boshliq jadidlarning Registonda o‘qqa tutilishi haqidagi mudhish voqeani eslang) xon va amirlarning “hissa”si kattaligini yaxshi bilardi. Demak, tarixiy voqealar Fitrat yashagan davrdagi dahshatli hodisalarning ayni takrori va bundan to‘g‘ri saboq chiqrishga da’vat etishga bo‘lgan maqsad uning shu mavzuda drama yartishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Yanayam aniqroq qilib aytganda, Fitrat Abulfayzxon fojeasi orqali Turkiston xon va amirlariga, mahalliy amaldorlarga ishora qilmoqda edi. Qolaversa, Fitrat asarlari uning shaxsiyatidagi ijtimoiylik bilan chambarchas bog‘langan va uning merosini millat manfaati bilan bog‘liq psixologik kechinmalardan tashqarida tushunish mumkin emas. Boshqacharoq aytganda, Fitratning siyosiy-ijtimoiy va adabiy faoliyatini bir-biridan ajratib o‘rganish qiyin masala. Jadidchilik harakatining boshqa vakillari asarlarida aks etgan g‘oyalarning tub mohiyatini ham ijtimoiy kontekstsiz anglash mumkin emas. “Abulfayzxon” real tarixiy voqealarga (masalan, Fitratning “Abulfayzxon” dramasidagi Eron va Buxoro munosabatlari, Nodirshohning Buxoroga hujumi, Xiva qo‘shining yordami sabab jangda mag‘lub bo‘lib ortga qaytishi, lekin Hakimbiyga o‘xshagan sotqinlar tufayli eron podshohining yurtni qayta egallashi, xalqning tanazzulga yuz tutishi, Eron va Buxoro o‘rtasidagi sulhning tuzilishi, Abulfayzxon Nodirshohning qo‘g‘irchog‘iga aylanishi kabilar) asoslansa ham u voqealarning aynan takrori emas. Fitrat ularni o‘z tafakkuri, fantaziyasi orqali badiiylashtiradi. Davlat, Ulfat, Qozi

Nizom, Hayol kabi to‘qima obrazlarga ijodiy yondashib, ular vositasida g‘oyaviy maqsadlarini yetkazishga harakat qiladi. Fitratning maqsadi faqat voqealar, makon va zamonni tasvirlash emas balki, tarixiy voqelar orqali o‘z siyosiy, g‘oyaviy maqsadlarini yuzaga chiqrishdan iborat bo‘lgan va asardagi barcha badiiy vositalarni shu maqsad sari yo‘naltirgan. Shuning uchun ham badiiy asardagi voqelik inson tafakkurida qayta sintezlanib, turli xil talqinlarni keltirib chiqaradi.

Madaniy kontekst – ma’lumki, badiiy asar individual, xususan, biror bir millat vakillari tomonidan yoziladi. Yozuvchining badiiy tafakkuri o‘sha millat madaniyati, dini, e’tiqodi, qadriyatlari, urf-odatlari, tutumlari o‘zanida shakllanadi va tabiiyki, bularning hammasi u yaratgan badiiy asarlarda in’ikos etadi. Madaniy kontekstda asardagi obraz (lar) ning e’tiqodlari, dini, irqi, millati, kiyinish odatlari, xulq-atvori kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan ma’lum bir “turmush tarzi” anglanadi. Bundan tashqari badiiy asarni tushunishga yordam beradigan san’at va madaniyat rivojlanishidagi umumiy estetik qonuniyatlar haqidagi bilimlar ham mana shu madaniy konkekst orqali rivojlanadi. Demak, o‘quvchilarda global fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning yana bir muhim jihati madaniyatlararo munosabat, ijodkorlarning dunyoviy tafakkuri, bilimi, boshqa xalq va millatlarga xos e’tiqodlar, umuminsoniy qadriyatlarning o‘z asarlarida aks ettirish mahoratini baholash bilan ham belgilanadi.

O‘zbek madaniyati, e’tiqodi, dini va qadriyatlari haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lmagan kitobxon Kumushning o‘lim to‘shagida yotgan holatida ham qaynotasi Yusufbek hoji kirganida unga peshvoz chiqishga urnishida aks etgan, milliy xarakterga xos go‘zal xususiyatlarni tushunmasligi aniq. Yohud, o‘zbekning bolajonligini, farzandsizlik o‘zbek oilalari uchun baxtsizlik ekanligi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lmagan kitobxon Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi qahramonlar dardini, tuyg‘ularini his qila olishi, umuman asar badiiyatini tushunishi amrimahol (Tog’ay Murodning biz sevim mutolaa qilgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasi ingliz tiliga tarjima qilinib, g‘arb o‘quvchilariga taqdim etilganida asar kutilgan darajada mashhur bo‘lolmagan edi, buning sabablaridan biri sifatida ham g‘arb kitobxonining o‘zbek

madaniyati, uning urf odatlari, umuman, millatning madaniy kontekstini yaxshi bilmasligi bilan izohlash mumkin). Ba'zi asarlarda madaniyatlararo munosabatlar, ikki xil madaniyat egalarining turfa qarashlari ham tahlil etiladi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy vaziyat tahlil qilinadi. Miryoqub va Maryam obrazlari vositasida sho'rolar madaniyating foydali va millat uchun tahdidli o'rinlari ochib beriladi. Yoki musulmon madaniyati, islom dini, Qur'oni Karim oyatlari asosida shakllangan Hadislardan bexabar ingliz o'quvchisi Viliam Shekspirning "Hamlet" tragediyasidagi Qirol (Hamletning otasi) ruhining xo'roz qichqirig'idan keyin g'oyib bo'lishi sabablariga jiddiy e'tibor qaratmasligi yoki xo'rozning qichqirishi tong otishidan darak, tong otganda bu olamga begona barcha maxluqotlarning g'oyib bo'lishi bilan bog'lab tahlil qilishlari mumkin va, tabiiiyki, buni talqinning bir jihati sifatida qabul qilish mumkin. Ammo ushbu lavha mohiyatiga chuqurroq kirilib, u islom dini nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa ushbu sahnada yana boshqa bir mohiyat mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Imom Muslim tomonidan tuzilgan "Ishonarli Hadis" da "odatda xo'rozlar farishtalarni ko'rganida qichqiradilar, ularning qichqirishi bandalarning tavba qilib, Allohdan gunohlari uchun kechirim so'rashlari kerakligiga ishora" ekanligi haqida ma'lumot mavjud. Demak, Qirol ruhining xo'roz qichqirig'idan keyin yo'qolib qolish sahnasi tasodif emas, Shekspir islom madaniyatidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan va qarashlarini o'z asariga ham singdirgan degan xulosa o'zini oqlaydi, bizningcha. Zotan, o'z akasi tomonidan o'ldirilgan, Hamletni qasos olishga undagan qirolning bezovta ruhi gunohlar uchun tavba qilishni so'ragan farishta qarshisida turishi (tura olishi) islom dini mantig'iga to'gri kelmasdi, chunki musulmon dinida qasos olish inkor qilinib, bandani kechirimli bo'lishga, o'z gunohlari uchun tavba qilishga da'vat etiladi.

Iqtisodiy kontekst. Iqtisodiy kontekst tarixiy kontekstning bir qismi bo'lib, badiiy asar yaratilgan davrdagi iqtisodiy, moliyaviy vaziyat tahlili nazarda tutiladi. Chetdan qaraganda iqtisod va adabiyot o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qdek, ular biri ikkinchisidan uzoq sohalardek tasavvur uyg'otadi. Vaholanki, ko'plab asarlarda aks etgan voqealar rivoji, asardagi qahramon va obrazlar fojeasi asar

yozilgan davrdagi iqtisodiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda, adabiyot xalqning iqtisodiy ahvolini ham aks ettiradi va u ma’lum ma’noda iqtisodiy taraqqiyotni ham boshqaradi. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini eslaylik. Nochor Turobjonning umrida bir marotaba asal yegani, u ham bo‘lsa Shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammasining jo‘jasi tushib ketgani, shu jo‘jani yalagani; boshqorong‘u xotiniga bir dona anor topib kelishi uchun o‘g‘irlik qilishga majbur bo‘lgani-yu shu anorni deb er-xotin o‘rtasidagi janjallar, homilador ayolning shafqatsiz kaltaklanishi kabi tasvirlarda ham ma’lum darajadagi iqtisodiy muammolar aks etgan. Moliyaviy muammolar, yetishmovchiliklar muhitida yashamagan, bir dona anorni topish anqoning urug‘i bo‘lganligini tasavvuriga sig‘dirolmaydigan bugunning bolasida Turobjon va homilador ayolining ayanchli kechmishiga nisbatan hech qanday mehr-shafqat tuyg‘usi uyg‘onmasligi va hatto bu voqeaning chindan sodir bo‘lganiga ishonmasligi ham mumkin. Zotan yangi asr o‘quvchilarining tafakkur tarzi, tabiati, voqelikka munosabati avvalgilaridan keskin farq qiladi. Ayni paytda sovetlar mafkurasi ijodkorlardan o‘tmishni qoralovchi asarlarni talab qilishi va Abdulla Qahhor ham bu siyosat talablarini o‘z asarlarida aks ettirishga majbur bo‘lganligi, ma’lum. Ammo Qahhorning tarixiy mavzularda yozilgan hikoyalari realistik tasvirning eng yorqin namunasi ekanligini to‘laqonli isbotlash, asardagi har bir detal muayyan iqtisodiy faktlar, dalillarga asoslanishini korsatish uchun muallif tasvirlagan davrdagi iqtisodiy vaziyatni ham o‘rganish talab etiladi. Xususan, Turobjonning nochor bo‘lib qolishi sabablari, Mullajon qozining bog‘ida ungan anorlarning bir tupginasi nega Turobjonning hovlisida bo‘lishi mumkin emasligi, bir dona anor Turobjonning qo‘shnisi yoki ayolining qarindoshlaridan topa bilmasligi kabi mantiqan to‘g‘ri va asosli savollarga javob ham aynan manashu iqtisodiy vaziyat tahlili xulosalariga borib taqaladi. Demak, badiiy matn tahlilida iqtisodiy kontekstni o‘rganish asarni kenroq miqyosda tahlil qilishga rag‘bat beradi.

Siyosiy kontekst – ma’lumki, muayyan davlatga xos siyosiy jarayonlar, islohotlar u yoki bu darajada o‘sha davr ijodkorlari asarlarida in’ikos etadi. Millat taqdiriga befarq bo‘lmagan har qanday

san’at vakili o‘zi yashagan davr siyosiy voqealarini ba’zida ochiq, ba’zida esa yashirin tarzda aks ettiradi. Mustamlaka o‘lkada yaratilgan asarlarning aksariyatida, (jadid adabiyotini eslaylik) mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik, hurlik, millat erkiga daxldor mavzular ba’zan yashirin, ramziy tasvirlarda in’ikos etgan. Ularning g‘oyaviy kuchi, real siyosiy voqelikni badiiylashtirishdagi muallif mahorati kabi masalalar siyosiy kontekstsiz to‘laqonli anglashilmaydi. Shekspirning dunyoga mashhur, jumladan, “Hamlet”, “Qirol Lir”, “Makbet” kabi tragediyalarida ham turli xil darajadagi siyosiy mavzular akt etadi va Shekspirni tushunish uchun esa o‘sha davr tarixi, ichki va tashqi siyosatini bilish, u haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Xulosa shuki, haqiqiy badiiy asar ma’no qatlamlari bilan boqiydir, ularni jahoniy miqyosda kashf qilish esa badiiy did, idrok va, albatta, tafakkur sarhadlariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov B., Meliyev S. va boshqalar. Globallashuv va badiiy talqin, zamon va qahramon, - Toshkent: O’zRFA, 2019.
2. Navoiy A. Hikmatlari (o‘zbek (kiril), turkiy, forsiy va arab tillarida). – Toshkent: Fan, 2019. – B. 91.
3. Vaden T. What is Local Thinking (Can There Be Finnish Philosophy?) / Re-ethnicizing the Minds? Cultural Revival in Contemporary Thought. Eds.: T. Botz & J. Hengelbrock. Rodopi, Amsterdam, 2006.
4. O‘zbek tilining izohli lug’ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B. 507.

O‘RTA MAXSUS BO‘G‘INDA ONA TILI TA’LIMI

Dilorom Yuldasheva
Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi
Tursunoy Yusupova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada o‘rta maxsus ta’limda o‘quvchilarga ona tili qanday o‘qitilishi kerakligi tahlil qilingan. O‘rta maxsus bo‘g‘inda o‘tiladigan ona tili darslarida o‘quvchilarning asosiy ixtisosliklarini hisobga olgan holda topshiriqlar berilishi muammosi ko‘tarilgan. Shu turdagi topshiriqlarga namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘rta maxsus bo‘g‘in, ona tili ta’limi, ona tili ta’limi maqsadi, kasbiy ijodiy tafakkurni rivojlantirish, topshiriqlar, test.*

O‘quvchilarning bilish faoliyati dinamik tarzda rivojlanishini bilamiz. Buni hisobga olgan holda belgilangan ta’limning umumiy va muayyan o‘quv predmetlariga xos xususiy maqsadlari o‘zaro mushtaraklikda ta’lim mazmunida namoyon bo‘lishi zarur. Ta’lim mazmunining ta’lim maqsadiga muvofiq bo‘lishini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri shundaki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil faoliyat ko‘rsatishga, erkin fikrlashga undovchi o‘quv mashg‘ulotlari tizimi, ta’lim jarayonidagi har bir predmet, har bir turdagi faoliyat, har bir dars va muayyan darsda o‘quvchi bajarishi uchun mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari jamlanmasi, barcha-barchasi, ya’ni butun ta’lim tizimi bosh maqsadni amalga oshirishga, aqliy, mantiqiy faoliyatga kirishish vazifasini qo‘yishga, amalga oshirishga xizmat qilmog‘i kerak.

O‘quvchi kelajakda munosib o‘rin egallashga intilayotgan jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ma’rifiy hayoti, xalq turmush tarzi, ruhiyatini ham ta’lim mazmuni o‘zida aks ettira olgandagina to‘laqonli bo‘ladi. Chunki xuddi mana shu xalqning

turmush tarzi va jamiyat hayotida o‘quvchi munosib o‘rin egallashi uchun unga moslashishi, tayyor bo‘lishi lozim.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limning mohiyatiga ko‘ra, uning bitiruvchisiga tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

O‘rta maxsus ta’lim dargohlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

O‘rta maxsus bo‘g‘inda ta’lim olish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish hamda tanlagan ixtisosliklariga ega bo‘lishni ta’minlaydi va uning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

O‘rta maxsus bo‘g‘inda ona tili ta’limining talab va ehtiyojlari, imkoniyat va vazifalari, avvalo, ta’lim maqsadi va uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta’minlash bilan bog‘lanadi. Ta’lim maqsadi va unga mutanosib tarzda belgilanadigan ta’lim mazmuni uzluksiz rivojlanib, yangilanib boruvchi didaktik hodisa bo‘lib, mazkur jarayon ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq tarzda vujudga keladi. Ta’lim mazmunining uning maqsadiga muvofiqligi tamoyiliga ko‘ra, muayyan o‘quv predmeti, jumladan, ona tili ta’limining mazmuni uning maqsadlariga muvofiq kelishi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan bilim hamda egallaydigan ko‘nikma va malakalarining hajmi, miqyosi, til qurilishi, ta’lim maqsadlari hamda o‘quvchining imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu qonuniyat shu bilan izohlanadiki, har bir bosqichda o‘quvchilar uchun har tomonlama tushunarli bo‘lgan ta’lim mazmuni, taqdim qilinadigan o‘quv materialining hajmi, uning texnologik qurilishi o‘quvchilarga ixtisoslik nuqtayi nazaridan zarur bo‘lgan so‘z va atamalardan iborat bo‘lishi lozim. Lekin, muayyan bosqich uchun tanlangan o‘quv materiallarining hajmi, mazmuni, til qurilishi va bayon etilish

texnologiyasi muntazamlilik xarakteriga ega emas, balki o‘zgaruvchandir. Ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi, jamiyat a’zolari, shu jumladan, o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-pedagogik omillarning ko‘payishi natijasida o‘quvchilarning rivojlanish jarayoni tezlashadi. Ularning dunyoqarashi, tafakkuri, til boyligi bir qator ijtimoiy-pedagogik omillar ta’sirida muntazam rivojlanib boradi. Ayni shunday paytda bir qolipga tushib qolgan me’yorlar asosida belgilangan ta’lim mazmuni ta’lim maqsadlariga mos kelmaydi va o‘quvchining ehtiyoji hamda imkoniyatlaridan uzoqlashadi. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi bosqichda mustaqillik, iqtisodiy, huquqiy erkinlik jamiyat a’zolari ijtimoiy ongining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Darsliklar, o‘quv adabiyotlari mazmunidagi axborot banklarining kengaytirilganligi o‘quvchilar ongining ko‘plab yangi tushunchalar, ma’lumotlar bilan boyishiga imkon beradi. Zero, shunday me’yorlardan biri o‘quvchi shaxsiga ta’-lim jarayonining subyekti sifatida qarashdan iborat [1].

Ta’lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq tarzda tanlangandagina, u ta’lim natijasining samaradorligi, o‘quvchilarning intellektual aqliy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Unutmaslik kerakki, har qanday ta’lim jarayoni emas, balki o‘quvchida ijodiy, mustaqil faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-biluv jarayonigina o‘quvchilarning aqliy intellektual taraqqiyoti, ijodiy mustaqil fikrlashini ta’minlashga xizmat qila oladi. Ta’lim jarayonidagi faollik, shu jumladan, til vositalarini aniq o‘zlashtirish ko‘p jihatdan inson (o‘quvchi)ning shaxsiy ehtiyojlari bilan bog‘liq. Chunonchi, o‘quvchiga o‘rta umumta’lim maktablarida nazariy jihatlari singdirilgan “Leksikologiya”, ya’ni “So‘zshunoslik” sathi o‘rta maxsus ta’limda ham o‘tiladi. (To‘g‘ri, mavzular aynan takrorlanmaydi: ularning (masalan, atamalar uslubiyati, kasb-hunar so‘zlari uslubiyati, eskirgan so‘zlar uslubiyati va h.) qo‘llanilishi o‘qitiladi.)

Shu o‘rinda agar o‘qituvchining o‘zida ijodkorlik yetishmasa, o‘quvchiga o‘rta umumta’limda o‘rganganlarini takrorlatish va darslikda berilgan o‘quv topshiriqlarini bajartirish bilangina chegaralanadi, xolos. Tabiiyki, o‘zi ijodiy tafakkur sohibi bo‘lgan o‘qituvchi esa masalaga boshqacha yondashadi. Aytaylik, tibbiyot

kollejida ona tili mashg‘ulotini o‘tayotgan o‘qituvchi “Atamalar uslubiyati”ni o‘tishda quyidagi kabi o‘quv topshiriqlaridan foydalanadi:

1-topshiriq. Tibbiyot sohasiga tegishli bo‘lgan atamalarga misollar keltiring va ularning ma’nolarini izohlang.

Ikkinchi topshiriqni bajarishda sinf o‘quvchilari 4x4, 5x5 yoki 6x6 kabi (sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab) kichik guruhchalarga bo‘linadi. (Ularning topshiriqni bajarish uchun to‘garak shaklida joylashishlari maqsadga muvofiqdir.) O‘qituvchi tomonidan har bir kichik guruhga alohida, ammo bir-biriga monand o‘quv topshiriqlari beriladi. Masalan,

1-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (tabletka ko‘rinishidagi) dori nomlarini yozing.

2-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (ampula shaklidagi) dori nomlarini yozing.

3-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (surtma; maz ko‘rinishidagi) dori nomlarini yozing.

4-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (etga uriladigan) dori nomlarini yozing.

5-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (tomirdan yuboriladigan) dori nomlarini yozing.

6-kichik guruhga: Og‘riq qoldiruvchi (ham tabletka, ham ampula shaklidagi) dori nomlarini yozing.

Topshiriq shaklini ozgina o‘zgartirgan holatda berish ham mumkin. Bunda o‘quvchilar hukmiga kamida ellik yoki oltmishta dori nomi yozilgan jadvallar (masalan, aspirin, anoperin, demidrol, analgin, trimol, sinepar, baralgin, geparin, dibazol, enam, enap, norsulfazol, sulfazol…) taqdim etilib, jadvaldagi dori nomlari asosida o‘quv topshirig‘ini bajartirish ham foydalidir.

Yoki –

Masalan, “Uyadoshlar va ularning uslubiy xususiyatlari” mavzusi tibbiyot texnikumida o‘qitilayotganda tahsil oluvchiga quyidagicha o‘quv topshirig‘i berilishi mumkin:

1-topshiriq. Berilgan qatorlarni davom ettiring.

“Dori-darmonlar” uyasi

1) tomchi dorilar (dibazol, analgin, demidrol…….)

a) bemorga faqat tomir orqali yuboriladigan tomchi dorilar: (kalsiy glyukanat,…..)

b) bemorga faqat teri orqali yuboriladigan tomchi dorilar: (…..)

d) bemorga ham teri, ham tomir orqali yuborilishi mumkin bo‘lgan tomchi dorilar: (…..)

2) tabletkalar (sitramon, trimol, sulgin, tetrasiklin, ….)

a) og‘riq qoldiruvchi tabletkalar: (sinepar,…)

b) davolovchi tabletkalar: (ampitsilin, …)

3) ham tomchi dori, ham tabletka ko‘rinishidagi dori-darmonlar: (analgin, demidrol, ferrumlik,…)

4) surtma dorilar: (vazilen, gleserin,….)

a) bel og‘rig‘ida surtiladigan dorilar: (…..)

b) oyoq og‘rig‘ida surtiladigan dorilar: (…..)

d) ko‘z og‘rig‘ida surtiladigan dorilar: (…..)

e) bo‘yin og‘rig‘ida surtiladigan dorilar: (…..)

Mazkur qatorlarni bosh og‘rig‘ida ishlatiladigan tabletkalar, qorin og‘rig‘ida ishlatiladigan tabletkalar, yurak og‘rig‘ida ishlatiladigan tabletkalar, quvvatlantiruvchi tabletkalar yoki birinchi yordam sifatida ishlatiladigan ukollar kabilar bilan ham davom ettirish mumkin.

Quyidagi mazmunda test namunalarini ham tavsiya etish o‘rinli:

Test namunalari

1. Surtma dorilar: vazilen, gleserin, sinepar gel, yulduzcha, yod, tetrasiklin, spirt. Berilgan guruhdagi begona so‘zni toping.

A) yulduzcha *B) tetrasiklin C) gleserin D) sinepar gel

2. Tabletkalar: sitramon, trimol, sulgin, tetrasiklin, gleserin, sinepar, analgin, kalsiy glukonat. Berilgan uyadagi begona so‘zni toping.

A) kalsiy glyukanat B) sulgin *C) gleserin D) sinepar

3. Bosh kasalliklari: meningit, o‘sma, insult, otit. Berilgan uyadagi begona so‘zni toping. *A) otit B) insult C) o‘sma D) meningit

4. Davolovchi tabletkalar: ampitsilin, baralgin, trixopol, analgin, kaliy aortat. Berilgan uyadagi begona so‘zni toping. A) trixopol B) ampitsilin C) kaliy aortat *D) analgin

5. Og‘riq qoldiruvchi tabletkalar: tabletkalar: dimedrol, analgin, trimol, tetratsiklin, aspirin, parasetamol, no-shpa, glyukoza.

Berilgan uyadagi begona so‘zni toping.

A) trimol B) tetratsiklin *C) glyukoza D) analgin

6.Terapevt-kardiolog-lor-stomatolog-jarroh-ginekolog-urolog-farmatsevt-ruhshunos-defektolog-psixoterapevt-endokrinolog. Berilgan uyadan yurak shifokori nomini toping.

A) terapevt B) ginekolog C) lor *D) kardiolog

7.Terapevt-kardiolog-lor-stomatolog-jarroh- ginekolog- urolog-farmatsevt-ruhshunos-defektolog-psixoterapevt-endokrinolog. Berilgan uyadan buyrak shifokori nomini toping.

A) terapevt B) ginekolog *C) urolog D) defektolog

8.Terapevt-kardiolog-lor-stomatolog-jarroh- ginekolog- urolog-farmatsevt-ruhshunos-defektolog-psixoterapevt-endokrinolog. Berilgan uyadan ayollar shifokori nomini toping.

A) terapevt *B) ginekolog C) endokrinolog D) defektolog

9.Terapevt-kardiolog-lor-stomatolog-jarroh- ginekolog- urolog-farmatsevt-ruhshunos-defektolog-psixoterapevt-endokrinolog. Berilgan uyadan buqoq kasalligi shifokori nomini toping. A) terapevt B) stomatolog *C) endokrinolog D) defektolog

10.Terapevt-kardiolog-lor-stomatolog-jarroh-ginekolog- urolog-farmatsevt-ruhshunos-defektolog-psixoterapevt-endokrinolog. Berilgan uyadan ichki kasalliklar shifokori nomini toping. *A) terapevt B) stomatolog C) endokrinolog D) defektolog

11. Sil-bod-bronxit-asma-sarg‘ayma- kamqonlik- qandli diabet-stomatit-angina-meningit-bruselloz-buqoq. Berilgan uyadan jigar kasalligi nomini toping.

A) sil B) asma *C) sarg‘ayma D) stomatit

12.Termometr-qisqich-qaychi-tonometr-fonendoskop-endoskop-zond-kateter-elektr so‘rgich- bruselloz. Berilgan uyadan qaysi biri tibbiy anjomlar sirasiga kirmaydi?

A) tonometr B) endoskop *C) bruselloz D) zond

13.Termometr-qisqich-qaychi-tonometr-fonendoskop-endoskop-zond-kateter-elektr so‘rgich- tibbiyot bolg‘achasi. Berilgan uyadan qaysi bir tibbiy anjomni, odatda, asab kasalliklari shifokori ishlatadi?

A) kateter B) fonendoskop *C) tibbiyot bolg‘achasi D) elektr so‘rgich

14. Bint-jgut-tibbiy paxta-shpris-spirt-sistema-zond. Berilgan uyadan qaysi biri shoshilinch tibbiy yordamda ishlatiladigan vositalar sirasiga kirmaydi?

A) jgut B) sistema *C) zond D) bint

15. Kalsiy xlorid-nashatir-insulin-brilliant ko‘ki-analgetiklar-bronxolitik-antibiotik- yod-tibbiyot bolg‘achasi. Berilgan uyadan qaysi biri shoshilinch tibbiy yordamda ishlatiladigan vositalar sirasiga kirmaydi? *A) tibbiyot bolg‘achasi B) brilliant ko‘ki C) yod D) nashatir

16. Ketanol, dibazol, aspirin-P, no-shpa, glyukoza, natriy xlorid, geparin, kofein, lidokain. Berilgan uyadan qaysi biri tuzli eritma hisoblanadi?

A) glyukoza B) lidokain C) geparin *D) natriy xlorid

17. Ketanol, dibazol, aspirin-P, no-shpa, glyukoza, natriy xlorid, geparin, kofein, lidokain. Berilgan uyadan qaysi biri qandli vosita hisoblanadi?

*A) glyukoza B) lidokain C) geparin D) natriy xlorid

18. Ketanol, dibazol, aspirin-P, no-shpa, glyukoza, natriy xlorid, geparin, kofein, lidokain. Berilgan uyadan qaysi biri yallig‘lanishga qarshi vosita hisoblanadi?

*A) ketanol B) lidokain C) geparin D) natriy xlorid

19. Ketanol, dibazol, aspirin-P, no-shpa, glyukoza, natriy xlorid, geparin, kofein, askorbin, novokain, lidokain. Berilgan uyadan qaysi biri vitamin C guruhiga mansub?

*A) askorbin B) lidokain C) geparin D) novokain

20. Korvalol, validol, barboval, lidokain. Berilgan uyadan qaysi biri efir yog‘li vosita hisoblanadi? *A) validol B) lidokain C) korvalol D) barboval

Kasb-hunar o‘rganayotgan o‘quvchiga ona tili mashg‘ulotlarida bu kabi o‘quv topshiriqlarini bajartirish, tahlil qildirish, birinchidan, fanlararo bog‘lanishni vujudga keltirsa, ikkinchidan, o‘quvchida ixtisosiy ijodiy tafakkurni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Ko‘rinib turibdiki, ta’lim maqsadiga o‘qitish vositalarining muvofiqligini ta’minlash uchun dars jarayonida o‘quvchi oldiga uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan o‘quv topshiriqlari qo‘yilishi kerak. Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quv yuklamasining asosini tashkil etishiga erishish o‘ta muhim.

O‘quvchilarning tafakkur doirasi va nutqiy ravonlik darajasini sinchiklab o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsi oldiga u yoki bu muammoni yechish vazifasi qo‘yilar ekan, “Bunday muammoning qo‘yilishi ta’lim maqsadiga muvofiqmi?” degan savolga didaktika nuqtayi nazardan doimo ijobiy javob bo‘lishi ham lozim. O‘quvchi oldiga qo‘yilgan muammoning yechimi uni o‘ylashga, mustaqil fikrlashga va muayyan holatlarda mantiqiy xulosalar chiqarishga unday olishi lozim. Ana shunda biz kasb-hunar kolleji o‘quvchisining kasbiy malakasini oshirishga ko‘maklashgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva D.N. Ta’lim maqsadi ta’lim jarayonining eng asosiy tushunchasi *(ona tili ta’limi asosida).* – “Tilshunoslik va metodika masalalari” ilmiy maqolalar to‘plami. –Toshkent: Fan, 2008. –S.45-50.

2. Mustaqil fikrlashni shakllantirish omillari //Viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2005-yil13-dekabr). – Buxoro, 2005. –116 s.

MATNNI TUSHUNISH TEXNIKASINI O‘RGATISH – O‘QISH TAKTIKASINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI

Saodat Kambarova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada kognitiv yondashuvlardan biri sifatida o‘qishni yaxshilash bo‘yicha samaradorlik sharti – matnni tushunishga qaratilgan o‘qish texnikasini o‘rgatish mazmuni yoritiladi. Shuningdek, savodli kitobxonni tarbiyalashda adabiyot o‘qituvchisining pedagogik jamoa orasida an’anaviy ravishda matn mazmuni bilan ham, shakli bilan ham ish olib boradigan yagona subyektligi; matn mavzusi, g‘oyasi, muammosi va muallif pozitsiyasini aniqlash qobiliyati o‘qishni tushunish darajasini tashxislash imkonini berishi masalasi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *matn, matnni tushunish, o‘qish savodxonligi, o‘qish ko‘nikmalari, o‘qish strategiyalari.*

Globallashuv sharoitidagi raqobatbardoshlik muhitida nafaqat bilimga, balki meta-mavzu ko‘nikmalariga, jumladan, kommunikativ muhit, matn mavzulari va g‘oyalari, asosiy tushunchalar mazmunini yetarli darajada o‘zlashtirish, o‘qish turlarini qo‘llash, turli manbalardan ma’lumot ola bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs intellekti qadrlanadi.

Matn bilan ishlash metodik muammo sifatida asrimizning boshlarida xalqaro baholash dasturi – PISA tadqiqotlari ma’lumotlari e’lon qilinganidan so‘ng tilga olina boshlandi. 15 yoshli o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalari bo‘yicha xalqaro ta’lim yutuqlari dasturi matn mazmuni bo‘ylab harakat qilish, undan ma’no chiqarish, matn bilan ishlash qobiliyati darajasini aniqlash imkonini beradi. Mavjud vaziyatni o‘zgartirish uchun bu yo‘nalishda butun maktab jamoasining puxta o‘ylangan rejalari va faoliyati zarur bo‘lib, har bir o‘qituvchi qaysi fandan dars bermasin, mazmunli o‘qishga, ya’ni umumta’lim bilimlarni va fanlararo ko‘nikmalarni oshirishga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Bu borada metodist N.N.Smetannikovaning fikriga ko‘ra, quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur:

1) o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir maxsus sinflarni o‘quv rejasiga kiritish; 2) o‘qishni nazorat qilish va murakkab o‘qishni talab qiladigan qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish; 3) o‘qituvchilarning o‘qish strategiyalarini amaliy o‘zlashtirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish [Smetannikova, 2010: 24–32].

Shu o‘rinda uchinchi banddagi fikrlarning berilishi shunchaki tasodifiy emasligini ta’kidlash joiz. Zero, bo‘lajak adabiyot o‘qituvchilarning qabul qilingan ma’lumotlarni tushunish darajasi hamda matnni tushunishni o‘rgatish zarurligi haqida dasturga maxsus kurslarni kiritish masalasi muhim sanaladi. O‘quvchilar matn bilan ishlash texnikasini o‘zlashtirishlarida ratsional usullar bo‘yicha maxsus tayyorgarlik zarur.

Ma’lumki, nutq rivojlantirish darslarida material mazmunini tushuntirish yoki mustahkamlash uchun matn bilan ishlashga doir qo‘shimcha vazifalar tizimi orqali ishlanadi. O‘qishni tushunish uchun mashqlar (masalan, matnga uning mavzusi yoki g‘oyasini aks ettiruvchi sarlavha tanlash kabi) “Ona tili” darsliklariga ham

kiritilgan. Biroq, bu ishlarning barchasi har doim ham ijobiy natijalarga olib kelmaydi: tajribalarda aksariyat o‘quvchilarning o‘qiganlari mazmunini tushunmasliklari ma’lum bo‘ladi.

Matnni tushunish muammosi bo‘yicha olib borgan izlanishlarida metodist O.N.Artyomova shunday yozadi: “O‘qishning muvaffaqiyatsizligi bosh sababi, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining, asosan, boshlang‘ich sinflarda o‘qish texnikasi o‘rgatilganligiga, ona tili darslarida qo‘llaniladigan matnlar bilan ishlash jarayonida o‘qishning yaxshilanishi “o‘z-o‘zidan” sodir bo‘lishiga ishonishidadir. Shuningdek, bu borada yetuk o‘qish ko‘nikmalari kamida olti yil davomida shakllantirilishi hisobga olinmaydi” [Artyomova, 2010: 30–21].

Adabiyot o‘qituvchisi matn bilan ishlash jarayonida boshqa fan o‘qituvchilari singari o‘quv dasturi mazmuniga, ma’lum hajmdagi bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishga e’tiborini qaratadi. Shu bois aksariyat hollarda faqat matnni tushunishni nazorat qiluvchi savol va topshiriqlar bilan ishlash orqali cheklanadi. Holbuki, matn mazmuni uning mavzusini shakllantirish va g‘oyasini o‘zlashtirish kabi aqliy mehnat usullariga ahamiyat qilinmasligi oqibatida bu jihatlar nazoratdan chetda qoladi. Ayniqsa, past va o‘rta darajada o‘zlashtiradigan o‘quvchilar ongli ravishda intellektual rivojlanish texnikasini egallashlari uchun matn mazmunini qayta ishlash va o‘qishni o‘rgatish taktikasiga e’tibor qaratish talab etiladi.

Matn mazmunini qayta ishlash o‘z ichiga matnga savollar berish, kutish va qabul qilish, matn sarlavhasini tahlil qilish, ajratib ko‘rsatish, monotematik lug‘at, kalit so‘zlar, matnni fasllarga bo‘lish, semantik qismlar, mavzuviy va konseptual takliflarni ta’kidlash, matnni ixchamlashtirish, lingvistik ifoda vositalarini tahlil qilish kabilarni oladi. O‘qishni o‘rganish taktikasi esa, o‘z navbatida, matn rejasini tuzish, matn bilan dialog, matnning semantik sxemasi ketma-ketligidan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu vazifalarni ona tili va nutqni rivojlantirish darslarida qo‘llaydi, lekin ko‘pincha ularni bajarish zarurligiga e’tiborini qaratmaydi.

Zamonaviy adabiy ta’limda o‘qishning turli strategiyalarini o‘rgatish metodikasini yaratish zarurati mavjud. O‘quvchining maktabdagi o‘qish davrida ham, kelajakdagi kasbiy va shaxsiy

hayotida ham barcha faoliyati asosi bo‘lgan o‘qishni o‘rganish strategiyasida zamonaviy shaxs ega bo‘lishi zarur sanalgan kirish, ko‘rish va qidiruv kabi faoliyat turlarini o‘rgatish masalasi belgilangan. Ko‘rinadiki, o‘quvchilarni o‘qish jarayonida matnni tushunish texnikasidan ongli ravishda foydalanishga o‘rgatish metodikasini taklif qiladigan tadqiqot muammosi dolzarbdir. O‘qishni o‘rgatishga tayyorlash algortimida quyidagilar mavjud:

– matnni tushunish texnikasi va taktikasi tizimini yaratish;

– texnikani ongli ravishda tanlash qobiliyatini rivojlantirishga doir matnni axborot bilan qayta ishlash va ularni o‘qishni o‘rganishning individual taktikasiga kiritish;

– matndagi ma’lumotni ifoda qilish xususiyatiga ko‘ra sujet va uzluksiz sujetni tushuntirish;

– mazmunli o‘qish qobiliyatining ahamiyatini aniqlash;

– har bir o‘quvchiga matn mazmuni ustida ishlashdagi qiyinchiliklarni anglab yetish imkonini beradigan shart-sharoitlarni yaratish;

– o‘quv jarayonini subyektiv yondashuvga asoslash (unga ko‘ra o‘quvchi o‘zining individual qobiliyati va qiziqishlari bilan zamonaviy darsning markazida turadi);

– mulohaza yuritish orqali o‘qilganlarni chuqur tushunishga erishish uchun o‘rganilayotgan usullardan ongli ravishda foydalanishga erishish (bu o‘quvchilarning diqqatini matnni tushunish usullariga qaratishdan iborat);

– zarur nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish va matnni tushunish texnika va taktikasiga o‘rgatish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchini maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish.

Bizningcha, matn integral birlik bo‘lib, uni o‘rganish turli fanlar metodlarining o‘zaro ta’siri va qo‘llanilishi asosida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi tizimga asoslanish maqsadga muvofiq:

a) nazariy (tadqiqot mavzusi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar, metodik, pedagogik, lingvistik, psixologik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; mavjud dasturlar va darsliklarni tahlilga tortish);

b) amaliy (tadqiqot mavzusi bo‘yicha materiallarni tanlash, o‘qituvchilar, o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazish, o‘quv jarayonini nazorat qilish);

d) eksperimental (aniqlash, o‘qitish va nazorat qilish bo‘yicha

tajribalar olib borish);

e) statistik (aniqlash, o‘qitish va nazorat qilish bo‘yicha tajribalar natijalarini qayta ishlash);

f) introspektiv (ushbu muammo bo‘yicha o‘z ish tajribasini tushunish va tadqiqot natijalarini taqdim etish).

Matnni tushunish texnikasi va taktikasini egallashning metodik tizimi bir qator faoliyat turlariga asoslanadi. Jumladan:

– matnni tushunishga integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshiradigan usullar va taktikani o‘rgatishning prinsipial jihatdan yangi, nazariy asoslangan va eksperimental sinovdan o‘tgan usuli;

– o‘qishni tushunish mexanizmlari, axborotni idrok etishga ta’sir qiluvchi omillar turli guruhlari, xususan, matnni chuqur tushunish qobiliyatini shakllantirish imkonini beruvchi vazifalar tizimi;

– matnning semantik tuzilishini aniqlashni taqozo etuvchi o‘qish metodlari va taktikasini o‘rganish ketma-ketligi – mavzusi, g‘oyasi, muammolari va ushbu muammolar bo‘yicha muallif pozitsiyasini belgilashni nazariy jihatdan asoslash;

– matn muammolari va muallif pozitsiyasini tushunish taktikasi: mikromavzulardan matn muammolarigacha; muallif pozitsiyasidan tortib matn muammosiga qadar; g‘oyadan tortib, matnning asosiy muammosigacha ishlab chiqish va tavsiflash;

– taklif etilayotgan metodikaning samaradorligi uchun shartlar belgilash, ular o‘qituvchi tomonidan malakali o‘quvchini shakllantirishga qaratilgan ish tizimida hisobga olinishi kerak (matndagi ma’lum ma’lumotlarni takrorlash va o‘rganish). Asarni tushunishga o‘rgatishda asosiy bo‘lgan nazariy material; o‘quvchilarni o‘rganishga undash; mulohaza yuritish orqali matnni tushunish usullarini ongli ravishda o‘zlashtirishni o‘rganish;

– o‘quvchilarning o‘qiganlari haqida ma’lumotni qayta ishlashda muvaffaqiyatsizliklari sabablari to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olish (bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qishning meta-predmet mahorati sifatida ahamiyati va qiyinligini anglamaydilar, ular o‘zlari matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi).

Matnni tushunishga o‘rgatishning yangi metodikasini yaratishda tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchini tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Bu, o‘z navbatida, o‘qishni o‘rganish texnikasi va taktikasi bilan tanishtirish; matnni tushunish qobiliyatini hamda o‘qishni

o‘rganishning individual taktikasini shakllantirish kabi muhim jihatlarni ko‘zda tutadi. Darhaqiqat, bu borada S.Machonov ta’kidlaganidek, “O‘qish faqat estetik lazzatlanish bilan chegaralanmay balki tushunib o‘qishdir. Tushunib o‘qish ayrim hollarda bir asarni qayta-qayta o‘qishni taqozo etadi. Chunki haqiqiy san’at namunasini har safar ko‘zdan kechirganda, uning zamiridagi oldin payqalmagan bir fikrni uqish mumkin” [Matjon, 1997: 44].

Xulosa qilganda, o‘qish strategiyasi va taktikasi tushunchalariga aniqlik kiritishda: strategiya o‘qish maqsadiga erishish sifatida o‘qish jarayonida tushunishning bir necha usullariga murojaat qilishni talab qiladigan taktikalarni to‘playdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Артемьева О.Н. Обучение приёмам понимания текста как основа формирования тактик изучающего чтения. Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Ульяновск, 2012. – С. 27.
2. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.
3. Сметанникова Н.Н. Что актуально в продвижении и обучении чтению? // Образование. Книга. Чтение: текст и формирование читательской культуры в современной образовательной среде. Сборник трудов по материалам Всероссийской научно-практической конференции. – М.: Русская школа, 2010. – С. 24 – 32.

KONSTRUKTIVISTIK TA’LIM XUSUSIYATLARI

Nilufar Kadirova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Bugun yangi avlodning, fanning rivojlanishi davrga xos bo‘lgan yangi metodologik yondashuvlarlarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Bular esa bilishning imkoniyatlarini kengaytirib, murakkab dunyoning sirlarini o‘rganish asosida o‘rganuvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashlariga, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada konstruktivizm

tanqidiy fikrlashning eng muhim omili sifatida nazariy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy tafakkur, konstruktivizm, bilish jarayoni, shaxsiy tajriba, kognitiv ko‘nikmalar, falsafa, o‘zaro muloqot.*

Pedagogikamiz tarixi va buguniga nazar tashlasak, insonning tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirish, zamon bilan peshqadam bo‘lish dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan. Chunki inson o‘zligini, dunyoni aynan shu tafakkur orqali anglaydi, idrok etadi, o‘zini rivojlantiradi.

Ma’lumki, inson tafakkuri masalasi qadimdan G‘arb va Sharqning ma’lum-u mashhur bo‘lgan buyuk allomalari, ulkan tafakkur egalari, xususan, Aristotel, Platon, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabilar diqqat markazida bo‘lib, ular o‘z asarlarida tafakkurning yangi sahifalarini yaratdilar va inson taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shdilar. Chunonchi, buyuk tabib va olim Ibn Sino ilmga egalik qilish aql bilan bog‘liqligini e’tirof etsa, Beruniy inson tafakkuri qudratini voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali yuzaga chiqishini belgilab beradi.

Tabiiyki, insoning fikrlash darajasi ijtimoiy-madaniy muhit yoki turli xil darajadagi aloqalar ta’sirida muntazam rivojlanib, taraqqiy etib boradi.

Tafakkur tadriji muayyan davrdagi madaniy, ilmiy, ijtimoiy, global taraqqiyot bilan bog‘liq ekan uni to‘g‘ri, yangicha usulda shakllantirish bugunning muhim vazifalari qatoriga kiradi. Holbuki, yangicha taffakkur, ayniqsa, o‘quvchilar, yoshlarning kelajakni to‘g‘ri tasavvur qilishlari, maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilishlari va, eng muhimi, o‘zlarini jamiyatning, olamning eng muhim bo‘lagi sifatida his qilib, o‘zlarini mudom taftish va takomillashtirib borishlari talab etiladi.

Ta’limni isloh qilish va bugungi kun – tezkor taraqqiy davriga moslash Yangi O‘zbekiston maorifining bosh maqsadidir. Bunda nafaqat jarayonni isloh qilish, balki ta’lim olayotgan yosh avlodni ham teran fikrli, quvvayi hofizasi baland, dunyoqarashi va tafakkuri keng, bugungi kun o‘zgarishlariga shaffof nigoh tashlab, baho berishga qodir qilib tarbiyalash muhimdir. So‘nggi yillarda jahon ta’limida bo‘lgani kabi milliy adabiyot ta’limida ham ro‘y berayotgan

innovatsion jarayonlar talabi o‘laroq **o‘quvchi tanqidiy tafakkuri** istilohi maydonga chiqdi. O‘rganuvchilarning (learners) (talabalar, o‘quvchilar) tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish milliy ta’limning muhim maqsadlaridan biri sifatida belgilab berildi. Bunday talabning qo‘yilishi asosida, avvalo, davlat va jamiyatga, sog‘lom tafakkur egalarini yetishtirib berish, milliy va global tafakkurga ega shaxslar rag‘batida davlat va jamiyatni rivojlantirish maqsadi yotadi.

Odatda, har qanday tafakkurdagi o‘zgarishlar, rivojlanish tendensiyalari hayotiy tajribalar, ma’lum bir kuzatuvlar asosida muayyan nazariy xulosalarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bugun milliy va jahon adabiyot ta’limining eng muhim–o‘rganuvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashlariga, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish, mushohadakorlik va rivojlantirishga asoslangan, umuman, tanqidiy fikrlashning eng muhim omili sifatida qayd etilayotgan nazariyalardan biri konstruktivizm nazariyasidir.

Konstruktivizm so‘zi lotinchada [constructivus] qurish, qurilish so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab konstruktivizm tarixiga nazar tashlasak, badiiy tafakkur yondashuvi sifatida tasviriy san’at (rangtasvir, haykaltaroshlik) va me’morchilik, boshqaruv va tashkilot faoliyati sohasida vujudga kelgan. Bu falsafiy tushuncha o‘tgan asrning 1920-1950-yillar oralig‘ida dastlab, Rossiyada paydo bo‘lgan. Konstruktivizm atamasi XX asrning 70-yillari oxirida ta’lim psixologiyasi va falsafasidagi yo‘nalish sifatida ham faol qo‘llanildi hamda gumanitar fanlar uchun muayyan nazariy va metodologik yondashuvlarni belgilab berdi. Konstruktivizm atamasi o‘rganish nazariyasi, gnoseologiya, ta’lim nazariyasi, pedagogik etika, siyosiy nazariya, dunyoqarash, tafakkur nazariyasi, shaxsiy bilimlar nazariyasi, ilmiy bilimlar nazariyasi kabi falsafiy ma’nolarni anglatadi. Bilish nazariyalaridan biri sifatida qayd etilgan konstruktivizm – bu shunday o‘ziga xos yondashuv shakliki, inson o‘zining aqliy tafakkuri va idroki jarayonida o‘zini o‘rab turgan dunyoni aks ettirib qolmay, qayta quradi, faol yaratadi. Har bir tafakkur sohibi bu bilim konstruksiyalarni o‘z idroki doirasida faol tarzda qayta yaratadi. “Ya’ni inson tafakkuri va bilish jarayonida olamni o‘zida aks ettirmaydi, balki faol yaratadi, konstruksiyalaydi” [G‘affarova, 2021: 64].

XX asrning 70-yillari oxirlarida psixologiya va falsafiy ta’lim yo‘nalishi sifatida faol ishlatila boshlandi. Unga ko‘ra barcha bilish faoliyati konstruksiyalanadi (quriladi). Sodda qilib aytganda, bilimlar passiv o‘zlashtirilmay, balkim mustaqil tarzda olamni anglash, tushunish tajribalari orqali ketma-ket qurib boriladi. Konstruktiv ta’lim–bu mavjud va yangi ta’limni bog‘lash va har bir yangi ma’lumotni mavjudlari bilan birlashtirish jarayonidir. Shimshek fikricha, “Konstruktivizmga asoslangan yondashuvlarning umumiy nuqtasi subyektivlik asosida borliqning murakkab voqeligini izlashdir” [Şimşek, 2004: 115].

Bu jarayon egallangan bilim va tajribalar asosida yuzaga kelib, aqliy (kognitiv) salohiyatining darajasi bilan ham belgilanadi. Konstruktiv ta’lim modellari J.Piaje, L.Vigotskiy, D.Bruner, N.Nayser, M.Broadbent, D.Norman kabi nazariyotchilarning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan. Konstruktivizm asoschilaridan biri shvetsariyalik olim, psixolog Jan Piajedir. U bola ruhiyatini o‘rganar ekan, inson psixikasi rivojlanishinig asosiy richagi intellekt ekanligini asoslab berdi. Piaje o‘z tadqiqotida XX asr boshlarida bilimlar bu tashqi, obyektiv voqelikni nofaol aks ettirishdir degan fikrni inkor etib, o‘rganish – bilimlarni to‘plash emas, balki doimiy o‘zgarish jarayoni ekanligini ifodalaydi. J.Piajening nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, odamlar o‘zlarining tajribalari va g‘oyalarining o‘zaro ta’siri vositasida bilim yaratadilar [Brau, 2020: 20]. O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili bilim egallashga nisbatan konstruktivizmning ikkita asosiy yo‘nalishi – kognitiv va ijtimoiy mavjudligini ko‘rsatadi. Konstruktivizmga asoslangan ta’lim targ‘ibotchilari, xususan, L.Vigotskiy, J.Piaje, D.Dyui, H.Gardner va boshqalar konstruktivizmga xos xususiyatlarni quyidagicha belgilagan edilar:

– Har bir shaxsning intellektual imkoniyatlarini ochish uchun muhit yaratib berish;

– O‘quvchini konstruktivistik fikrlash va muammolarni konstruvistik yo‘l bilan hal qilishga o‘rgatish va o‘zini doimiy ravishda takomillashtirib borish [Oleshko, 2017: 58].

Konstruktivizm tayanadigan asosiy tamoyillar esa quyidagilardan iborat:

1. Bilimlar quriladi, tayyor holda qabul qilinmaydi;

2. Yangi bilimlar mavjud bilimlar asosiga quriladi;

3. O‘rganish faol jarayon bo‘lib, motivatsiyani talb etadi;

4. Ta’lim olish bu ijtimoiy faollik bo‘lib, har qanday ta’lim turi egallangan bilimlarni jamoa bo‘lib muhokama qilishni ifodalaydi;

5. Inson tashqi dunyoni aks ettirmaydi, egallangan bilimlar asosida o‘zigagina xos bo‘lgan dunyoning modelini yaratadi.

Konstruktivizm pedagogik yondashuv sifatida ta’lim muhiting o‘quvchi uchun moslashuvchan bo‘lishini, bilimlar o‘quvchiga tayyor holda yetkazilmay, o‘quvchilarning bilimlarini shakllantirish, yaratish uchun shart-sharoit yaratishni, ularda mavjud bilimlariga tayanib yangiliklar yaratishga yordam berishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuvning bosh g‘oyasi o‘quvchining aqliy faoliyati yordamida ilgari egallangan tajriba hamda bilimlar asosida qurilgan o‘z shaxsiy bilimlarini yaratishdir. Bu jarayonda o‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy konstruktivizm asoschilarining tasdiqlashicha, o‘quvchi o‘zining oldingi bilimlariga asoslanib, yangi bilimlarni “kashf etish”da nafaqat o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlarga asoslanadi, balki uni o‘rab turgan muhit, jamoa ham uning bilimlarini qayta shakllantirishga asos bo‘ladi.

Qizig‘i shundaki, konstruktivizmga yaqin qarshlar qadimdan Sharq va G‘arbda ham mavjud bo‘lgan. Masalan, abderalik Protagor (miloddan avvalgi 485-415 yillar) qadimgi Yunoniston sofistlarining eng ulug‘i va G‘arbda subyektivizmni targ‘ib qilgan birinchi faylasuf hisoblanib, “har qanday alohida tajriba yoki biror narsaning talqini shaxsga bog‘liq, deb ta’kidlaydi” [Joshua, 2009]. Protagor o‘zining “Inson hamma narsaning o‘lchovidir” degan fikri bilan ham antik davrda katta bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Platon esa bu fikrni obyektiv haqiqatni rad etish sifatida talqin qilgan [Magirius, 2018: 10].

Sharq falsafasi tarixida qomusiy olimlar Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy shaxsning bilish to‘g‘risidagi nazariyasida insonning tajriba orqali yangi bilimlarni qidirib topish ta’kidlanadi. Jumladan, Forobiy “Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holatini biladi, ongini o‘sha predmet shaklidagi bilimga yo‘naltiradi. Bu o‘zi intilgan

haqiqatni qidirish demakdir” deb shaxsning bilishga bo‘lgan intilishini yoritadi [Atayeva, 2020: 253].

Zulxumor Mirzayeva va Komil Jalilov hamkorligidagi “Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka” nomli o‘quv qo‘llanmasida konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm rivojlangan davlatlar maktab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan nazariyalar sifatida qayd etadi va uning asosiy g‘oyalarini quyidagicha tasniflaydi:

Konstruktivizm:

– o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;

– bilimlar ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan “yaratilishi’, “kashf qilinishi” lozim;

Bunda o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti muhim rol o‘ynaydi [Mirzayeva, 2020: 12].

Demak, olimlarning yuqoridagi fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, konstruktivizmda bilimlar o‘quvchilarga tayyor holatda singdirilmaydi, balki o‘sha bilimlarni o‘zlari, mustaqil yaratishlariga rag‘bat beradi. O‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish lozim. Konstruktivizmda muayyan bilimlar faol jarayon (masalan, mulohaza yuritish, yaratish kabi.) sifatida o‘zlashtiriladi. Konstruktivizm pedagogik yondashuv sifatida ta’lim muhiting o‘quvchi uchun moslashuvchan bo‘lishini, bilimlar o‘quvchiga tayyor holda yetkazilmay, o‘quvchilarning bilimlarini shakllantirish, yaratish uchun shart-sharoit yaratishni, ularda mavjud bilimlariga tayanib yangiliklar yaratishga yordam berishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuvning bosh g‘oyasi o‘quvchining aqliy faoliyati yordamida ilgari egallangan tajriba hamda bilimlar asosida qurilgan o‘z shaxsiy bilimlarini yaratishdir. Konstruktiv ta’limda o‘quvchi shunchaki o‘qish va tinglash ko‘nikmasini faollashtirmay, o‘quv jarayonida o‘rganganini muhokama qilish, savol qo‘yish, gipotezalarni shakllantirish, g‘oyalarini himoya qilish, fikr almashish va xulosalar hosil qilish kabilarni amalga oshiradi.

Bu jarayonda o‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy konstruktivizm asoschilarining tasdiqlashicha, o‘quvchi

o‘zining oldingi bilimlariga asoslanib, yangi bilimlarni “kashf etish”da nafaqat o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlarga asoslanadi, balki uni o‘rab turgan muhit, jamoa ham uning bilimlarini qayta shakllantirishga asos bo‘ladi. Konstruktivizmda olingan har bir bilim keyingi bilimlarni tizimlashtirish uchun zamin hozirlaydi. Chunki yangi ma’lumotlar ilgari tuzilgan ma’lumotlarga asoslanadi. Shunday qilib, konstruktiv ta’lim – bu mavjud va yangi ta’limni bog‘lash va har bir yangi ma’lumotni mavjudlari bilan birlashtirish jarayonidir. Biroq, bu jarayonni shunchaki ma’lumot to‘plash sifatida qabul qilmaslik kerak. Agar shaxs haqiqatan ham bilimni tadqiq qilgan bo‘lsa, u o‘zi talqin qiladi va bilimni boshidan boshlab yangitdan o‘rnatadi. Konstruktivizm bilimlarni to‘plash va yodlash emas, balki fikrlash va tahlil qilishga qaratilgan jarayondir. Konstruktivizm o‘quvchiga bilimni qachon va qayerda ishlatishni o‘rgatadi. Mavjud ma’lumotlarni yangi ma’lumotlar bilan taqqoslash orqali o‘quvchi o‘z bilimlarini yangilaydi, o‘zgartiradi va yangi ma’lumotlarni qo‘shadi.

Demak, konstruktiv ta’lim asoslarini quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1 Axborotni tadqiq qilish, sharhlash va tahlil qilish;

2. Bilim va fikrlash jarayonini rivojlantirish;

3. Oldin egallangan tajribalarni yangi tajribalar bilan birlashtirish.

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, konstruktivistik ta’limda baholash o‘quvchining ma’lumotni qanchalik eslab qolishini o‘lchash bilan emas, balki bu jarayonda o‘quvchi bilimi qanday o‘zgarishlar ko‘rsatishini aniqlash bilan belgilanadi. Konstruktivizmda barcha harakatlar o‘rganishning doimiyligini ta’minlashga va yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgandir. Shuning uchun o‘qituvchi o‘qitishdan ko‘ra ko‘proq o‘quv jarayonini to‘g‘ri loyihalashga, o‘quv tajribalarini tashkil etishga e’tibor qaratmog‘i lozim. “Konstruktiv ta’lim muhitida o‘qituvchi birgalikdagi guruh ishlarini amalga oshirish uchun qat’iy tartibli ketma-ket tizimlardan xalos bo‘lish kerak. Konstruktivizmda o‘quvchilar bir-biri bilan erkin fikr almashish, o‘z g‘oyalarini himoya qilish va birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan hamkorlik ta’lim strategiyalari katta ahamiyatga ega” [Arslan, 2007: 22].

Xulosa qilib aytganda, konstruktivizm o‘z-o‘zidan yaxlit rivojlangan ta’lim texnologiyasi emas, balki zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ta’limda, xususan, adabiy ta’limda badiiy asar tahlilini kutilgan darajada samarali o‘rganishdagi muhim yondashuv (nazariya) hisoblanadi. Konstruktiv ta’lim tanqidiy tafakkur rivojida, ta’limga oid istiqbolli g‘oyalar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arslan, M. Eğitimde Yapılandırmacı Yaklaşımlar.– Ankara Üniversitesi Eğitim Bilimler Fakültesi Dergisi, 2007. – S. 40.
2. Atayeva N, Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S.Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). – T., 2020. – B. 757.
3. Brau, B. Constructivism. In R. Kimmons & S. Caskurlu (Eds.), The Students’ Guide to Learning Design and Research. – EdTech Books, 2020. –P.117.
4. G‘affarova G. Konstriktivizm paradigmasi: falsafiy tahlil. Academic research in educational sciences. Volume 2, issue 4, 2021. – B. 64-66.
5. Joshua J. Mark Protagoras.World history encyclopedia. – 02 september 2009. //www.worldhistory.org/protagoras/.
6. Marco Magirius Constructivism in literature education: Introduction to the thematic binder. Article desember 2018. – P.12.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. (An’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo‘llanma. – T., 2020. – B. 165.
8. Oleshko T.V. Sayamova V.I. Конструктивизм в педагогическом процессе обучения иностранных учащихся на предвузовском этапе. Международный журнал экспрементального образования, 2017.– №5 – С. 57–61.
9. Şimşek, N. Yapılandırmacı Öğrenme Ve Öğretime Eleştirel Bir Bakış. Eğitim Bilimleri ve Uygulama, 3(5),2004. –S.115–139.

ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR

DILSHOD RAJAB SHE’RIYATIDA RUHIYAT TALQINI

Safo Matchonov
Chirichiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada istiqlol davri bolalar she’riyatining yorqin vakillaridan bo‘lgan Dilshod Rajab ijodidagi shakliy izlanishlar va she’riyatidagi psixologizm masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, shakliy izlanishlar, badiiy psixologizm, voqelik, bolalar nigohi, estetik idrok, hissiy ta’sirchanlik.*

Istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar she’riyati uchun chinakamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A’zam va Anvar Obidjonning shakl va mazmun uyg‘unligiga asoslangan quvnoq she’rlari, Safar Barnoyev va Tursunboy Adashboyevning atrof-muhitni badiiy idrok etishda hayratlarga cho‘mgan bolakayning beg‘ubor tuyg‘ulari aks etgan ertak-dostonlari, Hamza Imonberdiyevning o‘z xayolotida dunyoni qanday bo‘lsa shundayligicha kashf etishga qaratilgan yumorga boy “lof”lari, Qambar Ota va Abusaid Ko‘chimovning jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy fuqarolik tarbiyasi bilan bog‘liq yangilanishlarga munosabati jo‘shqin falsafiy-publitsistik ruhda aks etgan she’riyati namunalari, Rustam Nazar va Abdurahmon Akbarning beg‘ubor boilalik kechinmalarini odatdagidan o‘zgacha shakl va ranglarda ko‘rishga, ko‘rsatishga intilgan izlanishlari, Kavsar Turdiyevaning bolalik dunyosini onalik tuyg‘usi bilan tavsif markaziga qo‘ygan o‘ynoqi she’r va tarjima asarlari, istiqlol davri bolalar she’riyatining bo‘y-bastini ko‘rsatadigan ijod mahsullaridir. Ularning ichida badiiy ijodga doir o‘tish davri mashaqqatlardan istiqbolga dadil qadam qo‘ygan Dilshod Rajab asarlari o‘ziga xos o‘rin tutadi.

D. Rajab bolalar she’riyatiga bevosita beg‘ubor bolalik dunyosidan kirib kelgan ijodkorlardan deyish mumkin. Qadim Buxoroning Shofirkon tumanidagi Denov qishlog‘ida tavallud topgan shoir o‘z bolaligi, ijod dunyosiga daxldor kechinmalari to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “6-sinfni bitirib, oromgohda yurganimda “Gulxan” jurnali bo‘lgan. Unda mening ilk she’rim chiqqan ekan (1978-yil 7-son). Oromgohda shov-shuv bo‘lib ketgan. Ilgari ha, havaskor-da, u-bu qoralab yursa kerak, deb uncha e’tibor qilmagan ustoz-tarbiyachilar ham qoyil qolib hayratlangan, meni qutlab alqagan edi. Kechasi bilan “Gulxan”ni quchoqlab yotdim, chin ma’noda u qalbimga o‘t-harorat berdi. O‘zimni boshqacha, yuksalganday sezib atrofdagi bolalar ham havas va bir qadar hurmat bilan qaray boshlaganligini his etardim. Bu hol menga zo‘r qanot baxsh etgan. O‘shanda ilhom, ijod bulog‘i jo‘sha boshlab, endi ijodga jiddiy qarash va kurashish kerakligini anglaganday bo‘ldim”.

Shunisi e’tiborliki, ko‘pchilikning nazariga tushish, har qanday odamda bo‘lgani kabi o‘ziga nisbatan talabchanlikning ortishi, kengroq mushohada yuritishga undashi, hayotda yanada faolroq bo‘lishga rag‘batlantirishi, bo‘lajak shoir uchun ham begona emas edi. Shu bois aynan o‘sha paytdagi ko‘rgan-kechirganlari havaskor ijodkorning izlanishlariga turtki va to‘g‘ri yo‘nalish beradi. Hali bola nigohi orqali bo‘lsa-da, oz kuzatishlari yuzasidan mushohadakorlik, ibratli xulosa chiqarish tuyg‘usi unga ilhom bag‘ishlaydi.

“Bir bola doim “Jo‘jalarim” degan qo‘shiqni aytardi, – deb yozadi shoir o‘z “tarjimayi hol”ida. – Repertuarida boshqa qo‘shiq yo‘q, balki endi o‘rganuvchi bo‘lgan-da. Men unga atab bu she’rni yozdim:

Qistasangiz Karimni.
Qachon qo‘shiq ayt deya,
Rubobin olib qo‘lga,
Aytar “Jo‘jalarim”ni.
Bir kuni hazillashib,
Der unga do‘sti Sodiq:
“Axir u jo‘jalaring,
Bo‘lmasmi sira tovuq?”

Boshlovchi shoir shundan so‘ng childirma chaladigan o‘rtog‘ining iltimosiga ko‘ra “Childirma” degan to‘rtlik yaratadi.

Qichqirib aytar gapi,
Shu faqat “baka-bum, bang”,
Shuni ham aytmas, uni
Tarsakilab turmasang.

Shoirning yuqoridagi ilk tizmalarini keltirishdan maqsad shuki, boshlovchi ijodkor sifatida o‘zi kuzatgan voqea-holatni shunchaki qofiyalashtirmasdan, balki o‘sha voqea-holat haqida mantiqiy fikrlashga undashi, ijodiyotda dastlabki mashqlaridan boshlab to‘g‘ri yo‘nalish olganini qayd etishdir.

Adabiyot tarixida hech bir ijodkor o‘qimasdan, boshqalardan o‘rganmasdan, so‘z san’atining sehrli olamiga mehr qo‘ymasdan qo‘liga qalam tutmagan. Alisher Navoiy Fariduddin Attorning “Mantiq-ut tayr” asaridan qay darajada ta’sirlangan bo‘lsa, A.S.Pushkin enagasi aytgan ertaklardan shu darajada bahra olgan, Quddus Muhammadiy ijodida yoshligida Islom shoirga adabiy kotiblik qilgani bois xalq og‘zaki ijodi an’analari qay darajada o‘rin tutgan bo‘lsa, ustoz shoirlarning voqelikka estetik munosabati atrof-olamdagi narsa-hodisalar tufayli ko‘ngilda tug‘iladigan ishtibohlarni ichki hissiyat va hayrat tuyg‘usi bilan quvnoq yumor vositasida tasvirlash uslubi Dilshod Rajab ijodiga muayyan turtki bergani shubhasizdir.

Qolaversa, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutidagi talabalik yillari D.Rajab uchun ijodiy izlanish davri bo‘ldi. Professor P.Shermuhamedov rahbarligida bolalar she’riyati yuzasidan yaratgan ilmiy tadqiqot ishi uni badiiy ijodning sehrli olamiga, xususan, kichik yoshdagi bolalar ruhiyatiga, xayoloti dunyosiga chuqurroq olib kirdi. Shuning uchun ham ilmiy-ijodiy izlanish bilan birga, voqelikni bolalar nigohi orqali estetik idrok etish shoir asarlarining hissiy ta’sirchanligini ta’minlagan omillardan deb baholash mumkin. “Kuz”, “Poyezdning bolasi”, “Qishki safar”, “Navro‘zi olam keldi”, “Dumlar”, “Tungi militsionerlar” kabi talay she’rlarida lirik qahramonning ko‘rgan-kechirganlari mohiyatini anglash yo‘lidagi intilishlari kichik kitobxonlarni befarq qoldirmasligining sababini shundan izlash o‘rinlidir.

Istiqlol davri bolalar she’riyatida beg‘ubor bolalik olamini badiiy kashf etishga doir izlanishlarni shakliy yangilanishlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, albatta. Anvar Obidjon va Tursunboy

Adashboyevlar ijodidan boshlangan “ikkilik”, “uchlik”, “uch chanoqlar” qisqa misralarga teran falsafiy ma’no yuklash “xat”, “shikoyat” arznomalari Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Kavsar Turdiyevalar kabi Dilshod Rajab she’riyatini ham yangicha ohang va mazmun bilan boyitdi. Ammo ularning har biri, bu borada boshqasini takrorlamagan holda o‘z “so‘z”ini aytishga muvaffaq bo‘lgani e’tiborga loyiqdir. Jumladan, D.Rajabning shakliy izlanishlarga doir yangilanishlar alohida-alohida turkum tarzida tartiblangani bilan ajralib turadi.

“So‘z o‘yini – zo‘r o‘yin” turkum she’rlarida “Qo‘y-yo‘q”, “Zog‘-g‘oz”, “Kit-tik” so‘zlarini teskari o‘qiganda yangi ma’no kelib chiqishi, “kiyik-kuchuk”, “quduq-qiziq” so‘zlarini teskari o‘qiganda mazmun o‘zgarmasligi, “she’r” so‘zida bosh harf tushirib qoldirilsa “yer”, “toy” esa “oy” bo‘lishi , “q” o‘rniga “f “ yozilsa, “qil”dan “fil” paydo bo‘lishi, “Uchqunbekning savollari”da jonivorlarning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlari, kurkaning doimo g‘azablanib, hurpayib yurishi, zebraning ustidagi chiziqlar, tipratikan badanining tikan bilan qoplanishi, shamolning qanday paydo bo‘lishi, qayerdan kelib, qayerga ketishi, jirafaning bo‘yni uzunligi bilan bog‘liq turfa savollarga kichkintoylar tushunchasi doirasida javoblar izlanadi.

“Shikoyat daftari” turkum she’rlari garchi jonivorlar, narsa-predmetlarning shikoyati tarzida yaratilgan bo‘lsa-da, aslida ular kichkintoylarni atrofimizdagi olam bilan tanishtirish g‘oyasiga bo‘ysundirilgandir.

“Shumtakaning she’rlari” turkumi, asosan, ikkiliklardan tashkil topgan bo‘lib, buzoqcha, chigirtka, choynak, o‘chirg‘ich, supurgi, changyutgich, zinapoya, boychechaklarga xos xislat, yetakchi xususiyatlar g‘oyatda ixcham tarzda tasvirga olingan:

Sigirga ko‘p yoquvchi,
Chelaksiz sut sog‘uvchi. (“Buzoqcha”)

Kiyvolgan bu yigitcha,
Prujinali etikcha. (“Chigirtka”)

Ulardan farqli o‘laroq, “Baxshi bola – yaxshi bola” turkum she’rlarida xalq terma, dostonlari ohangi aniq-ravshan sezilib turadi. Turkum quyidagicha baxshiyona dil izhori bilan boshlanadi: “Alqissa, baxshi bola, odob-xulqi yaxshi bola, so‘zlari dil naqshi

bola, qo‘lga olib sozini, yangratib ovozini, shunday bayon etibdi, zavqi-yu dil rozini”.

Ko‘rinadiki, asrlar mobaynida kuylab kelingan xalq dostonlaridagi sujet voqealarining tasvir ohangiga monand baxshilar tomonidan tinglovchilarning diqqatini jalb etish uchun, do‘mbirasini bag‘riga bosgan holda bir zum tin olib aytiladigan kirish so‘zi shoir she’rlariga jozibakor, da’vatkor ruh baxsh etadi. ”Navro‘zi olam keldi” she’ridagi fasllar kelishi bilan borliqning iforga to‘lishi, doshqozonlarda sumalakning “qiqir-qiqir kulishi”, yer-u ko‘kni bir-biriga bog‘lagan kamalakning “nurli ko‘prik” yanglig‘ jilolanishi bolalarga tanish manzara-holatlarning badiiy ifodasi sifatida ezgin tuyg‘ularni jonlantiradi.

Xalq baxshilarining dostonni tinglashga da’vat qiluvchi an’anaviy kirish so‘zlariga xos bayon uslubi “Yaxshi va yomon” she’riga ham o‘zgacha shukuh bag‘ishlagan: “Baxshi boladan yaxshi va yomon haqida aytib berishini so‘raganida, u bir oz jim qolib, uzoqlarga nazar solib, ota-bobosi aytganlarini yodga olib, shunday debdi”. Yaxshi va yomon haqidagi so‘rovga baxshi bolaning “Bir oz jim qolishi” “Uzoqlarga nazar solishi” uning o‘zining taraddudlanishinigina anglatmaydi, balki kitobxonni she’rni tinglash va o‘qishga chog‘lash ham nazarda tutilganini bildiradi.

Har bir ijodkor tabiatdan, uning go‘zalligi-yu, mo‘jizakor hodisalaridan, yil fasllariga xos xislatlardan, cheksiz ilhom oladi. Aslida yil fasllari haqida she’r yozmagan bolalar shoiri bo‘lmasa kerak. Ularning ko‘pchiligida asosiy e’tibor iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiat manzaralarining turfa ko‘rinishlari, kishilar mehnati yuzasidan umumiy tasavvur berishga qaratilganini kuzatish mumkin. Dilshod Rajab tabiatni shunchaki kuzatmaydi, aksincha, o‘zi tasvirga olgan manzara-holatga shoirona ko‘z bilan qaraydi. “Oppoq bo‘lib gullagan daraxt”da o‘z otasi siymosini ko‘radi. Chigirtkalarning tundagi chirillashini, militsioner amakining hushtagiga, bahor oqshomida bodrab chiqqan yulduzlarni, qoqigullarga o‘xshatadi. Shoir o‘zi qalamga olayotgan yil fasllariga oid manzara-holat tasvirida kichkintoylarning dunyoni anglashga daxldor ruhiyati ichiga chuqurroq kirib borishga harakat qiladi. “Kuz” she’rida o‘qiymiz:

Kuzak yurish boshladi,
Ya’ni urush boshladi.
Sarg‘ayib so‘ldi ko‘plab,
Yam-yashil barg-u o‘tlar.

Kuz faslida yaproqlar sarg‘ayib, qish kelayotganidan darak berishi bolalar uchun tanish manzara. Ayni holatga, kichkintoylar nigohi orqali nazar tashlagan shoir dov-daraxtlar bargi-yu o‘tlarning “sarg‘ayib so‘lishi”ni tasvir markaziga olish orqali “kuzakning yurish boshlashi”, ya’ni yaxshilikka “urush e’lon qilish”ni bildirishi bilan muammoning ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Kuzning bu “yurishi”dan dastlab kitobxonda tushkunlik kayfiyati yuzaga kelishi mumkin. Lekin, urush haqida so‘z ochildimi, “asirlik” tushunchasi ham unga begona emasligini his etgan o‘quvchining she’r yakunida birdaniga dili ravshan tortadi:

Tiqildi ko‘p asirlar –
Sholg‘om, piyoz, sabzilar.
Bu g‘alaba kuzniki,
Endi maza bizniki.

Kichkintoylar xayoloti ufqining cheksizligini nazarda tutgan D.Rajabning talay she’rlarida yerga ursa ko‘kka sapchiydigan, tinib tinchimagan, har bir narsa-hodisaning mohiyatini ilg‘ab olishga qiziquvchan bolakay ruhiyati qatlamlarida inson va tabiat munosabatlarining turfa ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Ayni shu holatlar shoir ijodining bolalar adabiyotida tutgan o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баракаев Р., Очилов Э. Бадиий тасвир маҳорати. – Тошкент: Муҳаррир, 2019.

2. Dilshod Rajab. Baxshi bola – yaxshi bola. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

3. Дилшод Ражаб, Гулноза Жўраева. Маҳорат қирралари. – Тошкент: Paradigma, 2018.

4. Dilshod Rajab. Xayrli tong. – Toshkent: Muharrir, 2019.

5. Matchonov S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 312 b.

BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA HAJVIY SHE’RIYATNING AHAMIYATI
(Muazzam Ibrohimova ijodi misolida)

Gulnoza Jurayeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professor v.b.,
filologiya fanlari doktori
Zeki Gurel
Gazi Universiteti professori

Annotatsiya

Bolalar adabiyotidagi axloqiylik prinsiplari nihoyatda turli-tuman va o‘ziga xos turfa xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, hayratlanarli jihati shundaki, ularning barchasi shoirni hajviyot yo‘liga olib chiqadi. Bolalar tabiatida uchraydigan sho‘xlik, o‘yinqaroqlik, maqtanchoqlik, dangasalik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, ochofatlik kabi holatlar hajviy asarlar uchun asosiy tasvir unsurlari sanalishi bois o‘zbek bolalar she’riyatining kattagina qismini hajviy asarlar tashkil qiladi. Mazkur maqolada Muazzam Ibrohimova ijodi misolida o‘zbek bolalar she’riyatida hajviyotning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bolalar adabiyotini o‘qitishda hajviy she’riyatning ahamiyatini ochib berish, hajviy obrazlar yaratishda kulgi hosil qiluvchi badiiy unsurlarni aniqlash va uning usullarini o‘quvchilarga o‘rgatish, hajviy obrazlar talqinidagi mushtaraklik va o‘ziga xosliklarni tadqiq etish kabi savollarga javob topishga harakat qilingan.

***Kalit so‘zlar**: hajviy she’riyat, axloqiylik prinsipi, adabiyot o‘qitish metodikasi, ta’limda poetik tafakkur, satirik va yumoristiuk ruh.*

Hajviy she’riyat deyilganda faqat kulgi uyg‘otadigan yoki tabassum ulashadigan yengil she’riyatni tushunmaslik kerak, albatta. Ayniqsa, u bolalar uchun yozilgan bo‘lsa, hajv zimmasiga ma’lum vazifalar qo‘yilishi kerak bo‘ladi. Keyingi yillarda bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi tushunchalariga nisbatan qo‘yilgan “sayoz”lik tamg‘asi aynan shu vazifalar bajarilmagani sababli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Hajviy she’riyatning vazifalari hajvdan kelib

chiqadi. Hajv aslida fojia, u shunday bir tanqidki, o‘sha fojiani davolashga qaratilgan achchiq malham. “Hajviy asar tanqidiy va kulgi uyg‘otadigan badiiy asar hisoblanib, mazmuni va shakliga ko‘ra satirik va yumoristik ruhda bo‘ladi” [Ahmedov, Qo‘chqorov, Rizayev, 2017:105]. Bolalar uchun yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini ham mazmun va shakliga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

a) satirik ruhda yaratilgan bolalar she’riyati namunalari;

b) yumoristik ruhda yaratilgan bolalar she’riyati namunalari.

Satirada ayovsiz tanqid bo‘lgani uchun ham bu bolalar adabiyotida kam uchraydi. Shoir bolalar tarbiyasi, xulqidagi ayrim nuqsonlarni boshqa jismlar, hayvonlarga ko‘chirish orqali yengil kulgi vositasida ularni tanqid qiladi. Aslida, dramatik turga mansub komediya janrining asosida ham tanqid-fojialar ustidan kulish, ularni keskin qoralash yotadi. Lekin buni jamiyat har zamonda ham tushunavermagan, shu sababli ham kulgi vositasi adabiyotdagi eng nozik, shuningdek, eng o‘tkir va elita qurol hisoblanadi. Bu vositaning mohiyatini katta adabiyotda ham tushunish mushkul, aksriyat hollarda asl mazmun anglanmaydi. Bolalarga uning asliyatini yetkazib berish ikki karra murakkab, chunki bola psixikasi, ruhiyati hali yosh. U ko‘rgan va eshitgan narsasiga ishonadi. Kesatiq, piching kabi so‘zlashuv vositasidagi tanqidlarni ham yaxshi anglamaydi, iboralar, tasviriy ifodalarning ham bosh mazmunini so‘zma-so‘z qabul qiladi. Asardagi hajvning bosh mohiyatida kimningdir ustidan kulish emas, balki unga o‘xshab qolmaslik, o‘sha holatni yoki odatni tark etish kerakligi kabi da’vatlar yotganini to‘la yetkazib bera olish, asar yakunida xulosa tarzida to‘g‘ri hukm berish shoirning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Aniqki, bu mazmunni ifoda etishda muallif bir qancha tasvir vositalaridan foydalanadi, so‘z o‘yinlari qiladi. Satira va yumorda qo‘llanilgan tasvir vositalari haqida maktab darsliklarida ham ma’lumotlar uchraydi. Ammo bolalar adabiyoti, xususan, hozirgi bolalar she’riyatida milliy-madaniy va ijtimoiy-ma’rifiy tajribalar qay darajada degan savollar, tajribalardagi kamchiliklar, shakliy izlanishlar, mazmun yangilanishlari – barcha-barchasi bugungi kunda tadqiq etilishi talab etilayotgan alohida mavzu.

So‘nggi paytlarda bolalar uchun barakali ijod qilib kelayotgan Muazzam Ibrohimova ijodida hajv unsurlari, uni ifodalashda

qo‘llanilgan tasvir vositalarida birmuncha shakliy va mazmuniy izlanishlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoira ijodida mavzu yangilanishlari ham bor. Masalan, “Quloqsiz quloqcha” nomli she’rga profilaktik she’r maqomining berilishi undagi mazmunni aniqroq tushunishga yordam beradi va mazmunan yangiligini isbotlaydi. Qolaversa, shoira ijodida jonlantirish, intoq, sifatlash, mubolag‘a singari tasvir vositalaridan o‘rinli foydalaniladiki, ularning barchasi mazmunni ochib berishga xizmat qiladi.

Qirchillama qish buva
Dovdiratdi barchani.
Cho‘zma quloq – chap quloq
Shoshirdi chap qo‘lchani

(“Quloqsiz quloqcha”, 45-b.).

Misralarida qish faslini tasvirlashda jonlantirishdan foydalangan bo‘lsa, keyingi misralarda intoq san’atidan foydalanib, quloqni “gapirishi” tasvir bo‘yog’ini quyuqlashtiradi.

– Hoy, yechsang-chi qalpoqni
Pishib ketdim ostida.
Bo‘ldi, yetar!
Yurmayman
Endi qalin po‘stinda.

(“Quloqsiz quloqcha”, 45-b.)

Shu o‘rinda, ijodkorning badiiy maqsadi tasviriy vositalarning soniga ahamiyat berib, maqsadni unutib qo‘ymasligini alohida ta’kidlash zarur. Vositalar doim asosga xizmat qilishi kerak, ular birinchi darajali bo‘lmaydi. Har bir tasviriy vosita muayyan ma’no-mazmunni ifodalashga yordam beradi. She’rdagi “quloqsiz” so‘zi aslida ko‘chma ma’nodagi so‘z ekanligiga ishorani sarlavha orqali ko‘riladigan bo‘lsa, quloqsiz quloqchaning kichik sarguzashti, uning qo‘lga buyrug‘i va yakuniy xulosa didaktik xarakterga ega. She’rning tarbiyaviy ahamiyati bir qancha tasviriy vositalar ko‘magida amalga oshgan. Quloqni jonlantirish orqali unga “quloqsiz” deya sifat berilishi bilan asarning estetik qimmati oshgan bo‘lsa, nutq berilib, bolalarning tasavvurini kengaytirish, voqealarni ko‘z oldida yaqqol gavdalantirish mumkin.

Vizualizatsiya eng tezkor, tafakkur va tasavvurga bevosita ta’sir qiluvchi tushuncha hisoblanadi. Ijodkor o‘zi qo‘llagan tasvir

vositalari orqali bolalardagi mazkur jarayonga ta’sir o‘tkazgan. “Vizualizatsiya juda bolalarbop sanaladi, chunki u bolalarning shusiz ham o‘ta faol tasavvuridan foydalanadi va uni ijobiy o‘zanga yo‘naltiradi. Gap imtihon topshirish haqida ketadimi yoki yangi do‘st orttirish haqidami – farqi yo‘q, bu texnika hayratlanarli natijalar beradi. Bolalarda tasavvur juda kuchli, shu sababli vizualizatsiya g‘oyasini ular yengil qabul qiladilar” [Kexo, Fisher, 2017:38–39].

Bolalar tashqi axborotlarning katta qismini ko‘zlari orqali qabul qiladilar. She’rda jonlantirish tasviriy vositasidan aynan shu maqsadda foydalanilganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, bolaning tengqurlaridan tashqari, ko‘chma obrazlar, majoz va ramzlar misolida o‘zidagi kamchiliklarni ko‘rishi, anglashi didaktik maqsadlarga xizmat qiladi. Hajviy asarlarda qo‘llanilgan sifatlash tasviriy vositasi ham qator maqsadlar ijrosiga qaratiladi. Sifatlash bolaning nutqini o‘stiradi, so‘z boyligini oshiradi, yozma va og‘zaki savodxonlikni shakllantiradi. Ayniqsa, yuqoridagi she’rda qo‘llanilgan “qirchillama qish” singari o‘ynoqi sifatlashlar bolalar uchun yanada qiziqarlidir. Shu o‘rinda, shoir qirchillama qish bobo deya “qirchillama”, “qish” va “bobo” so‘zlarini birgalikda qo‘llash orqali qirchillama so‘zining turli ma’nolarni bildirishiga ham ishora qilib ketadi. Bu o‘rinda “qirchillama” va “bobo” so‘zlari yonma-yon kelganda, uslubiy g‘alizlikdek tuyulishi mumkin. Bunda qirchillama so‘zining bosh ma’nosi (“Qirchillama 1. Kuch-quvvatga to‘lgan, yetilgan. Qirchillama yigit. Hu, ana oldinroqda yoshi ellikdan oshganiga qaramay, haliyam qirchillama yigitday daroz bo‘yini tik tutib, To‘lamat mo‘ylov ketyapti. S.Anorboev, Oqsoy. …qirchillama yoshning besh-o‘n yili shunga sarf bo‘ldi. M.Qo‘shjonov, Diydor” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006: 301–302])dan biroz siljish bo‘lib, bolaga so‘zning ikkinchi ma’nosini ham o‘rgatadi. Ikki so‘zning orasiga tushgan qish so‘zi esa “masala”ning boshqa tomonini ochib beradi, ya’ni bolani so‘zning navbatdagi ma’nosi bilan tanishtiradi:

“2 ko‘chma avjiga chiqqan, kuchaygan, qahriga olgan, qattiq (sovuq yoki qish haqida). Shunday qirchillama sovuqda cho‘lga kelish zarurmidi? Y.Muqimov, Matonatli kishilar. Qirchillama qish pallasi uni qishloqqa olib borish ham qiyin edi. O.Husanov, cho‘lda… qish bo‘lganda ham qirchillama kunida… tug‘ilgan.

Sh.Xolmirzaev, Saylanma” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006: 301–302].

Shu kabi xususiyatlar she’riyatning ma’rifiy-didaktik va badiiy-estetik qimmatini oshiradi. She’rda jonlantirish, o‘xshatish va intoq kabi tasviriy vositalar imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan:

– Izg‘irinda toblangan
Koptok tushdi esimga.
Mana, uni bermovdim
Ronaldoga, Messiga.

(“Quloqsiz quloqcha”, 46-b.)

Muazzam Ibrohimova ijodida ko‘zga tashlanadigan yana bir narsa – ijodkorning so‘zga botirligi. U hajviy mavzuda yozadimi yoki didaktik xarakterli she’r bo‘lsin, neologizmlar, qisman she’rga yot bo‘lgan so‘zlardan foydalanishga qo‘rqmaydi, cho‘chimaydi. Shoira so‘z mas’uliyatini his qiladi, albatta. Qo‘rqmasdan zamonaviy so‘zlar, kompyuter sohasiga oid atamalar yoki yuqoridagi she’rda keltirilganidek, Ronaldo, Messi kabi she’r mazmuniga oid so‘zlarni qo‘llaydi. Bular bolalarni qiziqtiradi, o‘ziga tortadi.

Ijodkorda bayonchilik bor. Ijodida bayon uslubidan foydalangani sabab ham she’rlar biroz cho‘zilib ketadi. Bolalar psixologiyasiga ko‘ra, ular tez zerikib qoladilar. Bolalar uchun asar yozayotgan qalam sohibi zimmasida ulkan mas’uliyat bo‘ladi. Bolani tabiiylik bilan kuldirish juda qiyin, u soxtalikni darrov sezadi. Lekin undagi hayratni so‘zlarda ifodalash uchun she’r ming chig‘iriqdan o‘tishi kerak bo‘ladi.

Muallifning boshqa she’rlarini tahlilga tortsak:

Yong‘oqpolvon arzanda,
tishchalarda chaqilsa,
Hayron bo‘lmang, tishchalar
“voy, dod” deya baqirsa…

(“Tishchalar”, 23-b.)

Yengilgina kulgi uyg‘otadigan she’rning shu misralarini o‘qigan bolakaylarda tishchalarga nisbatan rahm-shafqat hissi uyg‘onishi aniq. Zero, bu rahm-shafqat, avvalo, ularning o‘ziga, o‘z salomatligiga qaratilgan bo‘ladi. Buni bolalar oppoq, kichik a’zolariga nisbatan mehribonchilik deb tushunishlari yordamida endi

tishlarida yong‘oq chaqmaydigan bo‘ladilar. Ularga rahm qiladilar, “voy, dod” deb baqirishlarini istamay qoladilar.

Bolalar adabiyoti zimmasiga yuklatilgan didaktik vazifaga aynan kulgi so‘qmoqlaridan borish yaxshi samara beradi. Mazkur she’r ham bolalar she’riyatidagi ijtimoiy-ma’rifiy tajribalar ifodasi o‘laroq maydonga kelgan. Ijodkorning shakl ustida ham ko‘proq izlanib, takrorlardan kamroq foydalanishi, puxta asar dunyoga kelishini ta’minlagan. Masalan:

Mayli, mening do‘stlarim
Qolib ketdi tepada.
Qidirsangiz topasiz,
Yuvilmagan mevadan.

(“Ichburug‘”, 18-b.)

Ushbu she’rda ham yuqorida ta’kidlanganidek, jonlantirish, intoq, sifatlash kabi tasviriy san’atlar qo‘llanilgan va yakunda hukm berilgan. Bu hukm pandona sifatida jaranglaydi. Ijodkor to‘g‘ridan-to‘g‘ri “mevalarni yuvib ye” deb aytmaydi. Yuvilmagan mevadan kasallik mikroblarini topish mumkinligini eslatib, uqtiradiki, mevalarni yuvib yeyish kerak. Unchalik katta bo‘lmagan didaktik xarakterli mazkur she’rdan bolalar o‘zlariga zarur xulosalarni chiqarib oladilar.

“Didaktika” – yunoncha “didaktikos”, ya’ni “ibratli” degan so‘zdan olingan. Demak, “didaktik adabiyot” deganda nasihat, o‘git, ibrat ruhidagi asarlar tushuniladi. Bu Sharqda ham, G‘arbda ham bo‘lgan. Sharq so‘z san’atida pand-nasihat ruhi ustunroq, ochig‘i, u shunisi bilan G‘arb adabiyotidan farq qiladi ham. X asrdayoq buyuk Abu Ali ibn Sino Sharq ko‘proq pand-nasihat yo‘li bilan, G‘arb esa hayotni real ko‘rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o‘tgan edi [Olim, Ahmedov, Qo‘chqorov, 2014: 71–72].

Ko‘rinadiki, bolalar tarbiyasida adabiyotning kuchidan – didaktik qimmatidan foydalanish samarali. Asarning didaktik, ma’rifiy g‘oyalar tashishi esa unga ijodkorning qanchalar teran mazmun yuklay olishiga, mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Insonda adabiyotga muhabbatni shakllantirishdagi ilk vosita sifatida bolalar adabiyotiga e’tibor berish, uning ahamiyatini chuqur anglab yetishga munosabatdan, uni tadqiq qilishdan boshlanadi.

Muazzam Ibrohimovaning asl kasbi shifokor bo‘lganligi uchun ham bolalar sog‘ligi haqida qayg‘uradi. Bolalarning tishchalarini asrash, quloqlarini ehtiyot qilish yoki yuvilmagan mevalarni yeb, kasal bo‘lib qolmasligini xohlaydi. O‘z xayrixohligini she’rlari orqali yetkazib berishga harakat qiladi. Ijodkorning nasriy asarlari ham bugungi kun bolalar adabiyotida o‘qishli bo‘lib turganligini shu orqali e’tirof etish mumkin.

Muallif she’rlarida jonlantirish asosida bolalarga pand-nasihatlar qiladi, tarbiyalaydi. Intoq san’ati bilan go‘zal estetik she’rlar yaratadi. Sifatlash orqali ma’rifiy g‘oyalarni singdiradi va bilim berish maqsadini ko‘zlaydi. Yuqorida qayd etilganidek, kasbi nuqtayi nazaridan muallifni bolalarning salomatligi masalasi qiziqtiradi. Shu bois she’rlaridagi obrazlar – tishlar, inson tanasining a’zolari va hokazo. U obrazlardan so‘z mas’uliyatini his qilgan holda foydalanadi. Yangilikka intiladi, bu yo‘lda tajribalar qilishdan tap tortmaydi. Shoira bolalar oldidagi asl vazifalarini teran anglaydi. Ularga nima tortiq qilmoqchi ekanligini anglagan holda ishga kirishadi. Zamonaviy pedagogikada satira va yumor orqali bolalar axloqidagi ma’lum bir nuqsonlar yoki xususiyatlar ko‘rsatilishi, birinchidan, o‘quvchi poetik tafakkurining o‘sishiga yordam bersa, ikkinchidan, o‘zini taftish qilish xususiyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qo‘chqorov B., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – B.105.
2. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 268.
3. Jahongirov F. O‘zbek bolalar folklori. –Toshkent: 1975. – B. 218.
4. Mamajonov Z. Mumtoz she’riy san’atlarning nazariy tasnifi (o‘xshatish asosidagi san’atlar). – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 274.
5. Qahramonov Q. Bolalar tanqidchiligida ijobiy qahramon masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 1984. – №1. – B. 7 – 10.
6. Qo‘chqor R. Kitobni o‘qib mazza qilsang... // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2012. 1-iyun.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 301–302.
8. Kexo J., Fisher N. Ong qudrati – bolalar xizmatida. – Toshkent: Davr Press, 2017. – B. 38–39.

YUSUF XOS HOJIBNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

Barno Abdurahmonova
Qo'qon DPI dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari o'rganilib, adibning so'z qo'llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan qay darajada foydalanganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, axloq, bilim, badiiy san'atlar, tahlil.*

Madaniy-ma'rifiy merosi boy xalq tarixning ardog'idagi xalqdir. Bunday xalqning kelajagi ham porloq bo'ladi. Shukrki, o'zbek xalqi ana shunday ulkan tarixga ega bo'lgan, tarixida minglab osori atiqalarni saqlashning uddasidan chiqib kelayotgan xalqdir. Xalqning bunday ulkan madaniy-ma'rifiy merosi farzandlarni butun kishilik jamiyatiga, ona-Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda nihoyatda muhim, bebaho manba vazifasini o'tab keldi va shunday bo'lib qoladi ham.

Shubhasiz, bunday asarlar adabiyotimizda, ayniqsa, mumtoz adabiyotimizda behad ko'p. Ular orasida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ham mavjud. Asar o'zining yuksak badiiyati, oldinga surilgan umuminsoniy va milliy g'oya hamda qadriyatlariga ko'ra benazirdir. XI asrda yaratilgan bo'lsa-da, uning ma'rifiy-adabiy qimmati mutlaqo pasaygan emas, aksincha, adibning shoirona talqinlari natijasida ko'plab axloqiy-ma'naviy hodisalarning mutlaqo yangicha talqinlari bizgacha etib kelgan. She'riyat paydo bo'libdiki, u ezgulikka oshno, yovuzlikka raqib, adolatga tashna, zulmga qasoskor bo'lib yashaydi. Shu ma'noda qadimgi turkiy adabiyotimizning tamal toshini qo'ygan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidagi sermazmun o'gitlarda, purma'no misralarda barcha turkiy xalqlar ma'naviyatiga daxldor bo'lgan ko'plab fikrlar mavjud-ki, ularni yaxshilik va yomonlik deb atalgan ikki qutb ajratib turadi. Ma'lumki, shoir yoki yozuvchi ijodining o'ziga xosligini, uning so'z qo'llash mahoratini, badiiy tasvir

vositalaridan qay darajada foydalanganligini tahlil etish orqali ham yoritish imkoniyati keng.

Yusuf Xos Hojib ijodini ilmiy o‘rganishga asos solgan adabiyotshunos olim Boqijon To‘xliyev “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari borasida shunday deydi: “Har qanday badiiy tasvir vositalarning mohiyati, uning badiiy funksiyasi ma’lum bir asarning g‘oyaviy mazmuni, uning ichki dunyosini ochishga nechog‘lik yo‘nalganligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, Yusuf Xos Hojibdek adib ham o‘z asarida tazoddan shunchaki vosita sifatida foydalanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Qutadg‘u bilig” dostonidagi to‘rtliklarda ifodalangan tazodlar ijodkor tomonidan muayyan maqsadda qo‘llanilgan [Тўхлиев, 2004:28-29]. E’tiborimizni quyidagi to‘rtlikka qarataylik:

Biligsizga davlat yarashsa kelib,
Biliglikka artuq yarashur tegib.
Biligsiz bila tursa davlat qali,
Biliglik bila turg‘a teng tush ko‘rib [Абдураҳмонова, 2007: 160].

Mazmuni: Agar nodonga kelgan davlat unga yarashsa,
Donoga kelgan davlat unga nihoyatda yarashadi.
Agar davlat nodonga kelib qaror topsa,
U dono uchun mos va muvofiq bo‘lib qaror topadi.

Mazkur to‘rtlik orqali adib bilimli va bilimsiz kishilarning davlatga ega bo‘lganligidagi munosabatlari borasida so‘z yuritadi. Davlat nodon bilan birga bo‘ladi, xolos, biroq dono qo‘lidagi davlat uni mukammallik sari etaklaydi, deb biladi. Shoir bilimsizlikni qoralab, donolikni ya’ni bilimdonlikni ulug‘laydi. O‘z fikrini nodon va dono so‘zlarini zid keltirish orqali asoslashga harakat qiladi.

Inson umri davomida yaxshilardan ibrat olishi mumkin, yomondan saboq olishi-chi? Nima uchun yomondan saboq olishi kerak, buni farqlay olish yana insonning o‘ziga havola qilinadi. Muammoni hal qilish insonning hukmida, aslida hayotning qonuni shunday: donodan yaxshilikni, nodondan yomonlikni kutish mumkin degan falsafiy xulosalar chiqarish mumkin.

Kishi aslingga, ko‘r, qilinchi tanuq,
Qilinchi ne ersa ko‘r, asli ul-o‘q.

Kimning asli ezgu, qilinchi o‘ngay,
Esiz aslingga kendu qilqi tanuq [Тўхлиев, 2007].

Mazmuni: Kishining asliga ya’ni qandayligiga uning qiliqlari belgi bo‘ladi. Qiliqlari qanday bo‘lsa asli ham shunday bo‘ladi. Kimning asli ya’ni kelib chiqishi toza va yaxshi bo‘lsa, uning xulqi ham, qilgan ishlari ham ham yaxshi bo‘ladi. Yomonning asliga uning fe’li sabab bo‘ladi. Adib bu misralarda yaxshi va yomon so‘zlarini o‘zaro zidlash orqali tazodni hosil qilar ekan, inson o‘zini qanchalik sirli tutishga harakat qilmasin, u o‘z ichki dunyosini parda bilan bo‘lsa-da to‘sa olmaydi. Uning hatti-harakatlari, qiliqlari, yurish-turishi, gap-u so‘zlari shu kishi haqida ma’lumot beradi, uning kimligini oshkor qiladi. Boshqalarga na’fi tegmaydigan odam, o‘zgalar g‘am-tashvishiga sherik bo‘la olmaydigan kishi yovuzdur, deb baholaydi shoir. Yorug‘ dunyoda kimning nomi yomon bo‘lib tanilsa, uning tirik yurmagani ma’quldir. Ezgulik bilan yashagan odamgagina tiriklik tatiydi, unga tiriklik yarashadi. Yusuf Xos Hojib to‘rtlikning uchinchi va to‘rtinchi misralarida ezgu-yaxshi, esiz-yomon so‘zlarini keltirish orqali tazodni hosil qilar ekan, insonni doimo yaxshiliklar qilishga undaydi.

Yusuf Xos Hojib dunyoda odamning yaxshi nom qoldirishining bir necha shakllari borasida kishilarga saboq beradi. Yorug‘ dunyoga kelgandan so‘ng ezguliklar qilib yashab o‘tish lozimligini eslatadi:

Esizka – so‘kush, ezgu- o‘g‘du bilar,
O‘zungga baqa ko‘r, qayusun qilur,
O‘zung ezgu bo‘lsa, ating o‘g‘dilig‘,
Qali bo‘lsa esiz, so‘kush, ey silig.

Mazmuni: Yomon so‘kiladi (tanbeh beriladi), yaxshi maqtovga loyiq bo‘ladi. O‘zingga qara qay birisini tanlaysan? O‘zing yaxshi bo‘lsang, maqtovga loyiqsan, Agar yomon bo‘lsang tahqirga mahkumsan, ey latif xulqli. Va kishilarga o‘git tarzida Zahhokning dunyoda yomon nom qoldirishida uning yomon xulqi sabab bo‘lgan bo‘lsa, Faridunni baxtga erishuvida esa uning yaxshi xulqi sabab bo‘lganligini misol qilib keltiradi:

Sukushlug nelug buldi Zahhokdak utun,
Nelug o‘gdi buldi Faridun qutun.

Kishining fe’l-atvori, xulqi uning kimligini namoyon etuvchi ko‘zgudir.Shuning uchun kishi yomonlikdan tiyilib, yaxshi fazilatli

bo‘lishga intilib yashashi lozim deb bilgan shoir yaxshilik va yomonlik so‘zlaridan o‘rinli foydalanadi. Yusuf Xos Hojib odamlarga ziyon etkazuvchi kimsalarni qattiq qoralaydi. Shoirning bu boradagi fikrlari quyidagicha:

Yusuf Xos Hojib xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotimizdagi an’anaviy obrazlar – yaxshi va yomon, dono va nodon, do‘st va dushman, diyonat va qabohatga murojaat qilish orqali tazodning go‘zal namunalarini yaratganlar.

Yusuf Xos Hojib do‘st va dushmanni qarshilantirish orqali xalq og‘zaki ijodidagi purma’no so‘zlarni “Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘pdir” maqolini qo‘llaydi:

Dushman birgina bo‘lsa ham zarari ming-mingdir,
Minglab do‘sting bo‘lsa ham ozligi birga tengdir.
Kishi dushmanidan foyda qilmagin,
Agar qilgan bo‘lsa, o‘zining ko‘rguligidur.

Shoir insonlarni irqi, millatidan qat’iy nazar bir-birlari bilan ahil, do‘st bo‘lib yashashlarining tarafdori bo‘ladi:

Shoir ijodida insonning qadr-qimmati yuksaklarga ko‘tariladi. Ular inson xoh yosh bo‘lsin, xoh keksa uning qadri bilimi, aql va oqilligi bilan belgilanadi, deydi va bunda she’r ta’sirchanligini oshirish maqsadida yana tazod san’atiga murojaat qilar ekan, kishi tili ya’ni so‘zi tufayli e’zoz topishi yoki qadrsizlanishini ko‘rsatish uchun to‘g‘ri so‘zlagan kishini – dono, rost so‘zlamaganni esa nodon jumlalarini keltirish bilan izohlaydi:

Bilib so‘zlasa so‘z bilingka sanur
Biligsiz so‘zi o‘z bashini yeyur.
O‘gush so‘zda artiq asig‘ ko‘rmadim,
Yana so‘zlamishda asig‘ bulmadim.

Shoir haqiqiy inson to‘g‘ri so‘zlashi va to‘g‘ri bo‘lishi kerak deydi:

Kishi chinda so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa avlo durur.

Yusuf Xos Hojibning lirik qahramoni oqil va dono kishi. Oqillik va donolik uchun yoshning ahamiyati yo‘q. Chunki oqil va dono bo‘lish uchun bilim, to‘g‘riso‘z bo‘lish zarur. Har ikki ijodkorning falsafiy umumlashmalarida insonning aql-idrok kuchiga ishonch uning bilimi, aqli va zakovati bilan belgilanishi ochiq o‘z ifodasini

topgan. Yusuf Xos Hojibning ta’lim-tarbiya borasidagi fikrlari turkiy xalqlarning ma’naviyati, ma’rifati uchun mushtaraklik namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонова Б.М. Таьлим босқичларида “Қутадгу билиг” асарини ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари. Пед.ф.н..дисс.2007. – Б.160.
2. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадгу билиг”и ва айрим жанрлар такомили. – Т.: Аср-Матбуот, 2004. – Б.28-29 .

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINI O‘QITISH MASALALARI

Ilyos Ismoilov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
dotsent v.b., filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi uzluksiz ta’lim tizmida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining o‘rganilishi fanning mustaqillikdan keyin erishgan natijalari hamda yangilanayotgan pedagogik jarayon nuqtayi nazaridan tahlil etilgan.

***Kalit so‘zlar**: ta’lim, tarbiya, uzluksiz ta’lim, Alisher Navoiy ijodi, Navoiyni o‘qitish, komil inson, adabiy material, mavzu.*

Bugungi ta’lim tizmida qo‘llanayotgan darsliklarda Alisher Navoiy hayoti va ijodi ancha batafsil yoritilgan, biroq “Saddi Iskandariy” dostoni to‘g‘risida bunday deyish qiyin. Ta’limning turli bosqichlarida dostonga turli nuqtayi nazardan yondashishlar kuzatiladi. Xususan, bu borada o‘qitish uchun dostondan olingan adabiy parchalar, ularning mavzusi hamda talqini masalalari ayniqsa xarakterlidir.

Uzluksiz ta’lim bosqichlarida “Saddi Iskandariy” dostonining turli o‘rinlaridan olingan (“Iskandar bila ul gadolig‘ ixtiyor etgan podsho…” hikoyati, “Muxolifat mazammatida”, “Iskandarning Mag‘rib safari” kabi) parchalar o‘qish uchun tavsiya etilgan. Faqat oliy ta’lim bundan mustasno bo‘lib, bu bosqichda dostonni to‘liq

o‘qitish ko‘zda tutilgan. Mazkur bosqichda “Saddi Iskandariy” dostonini o‘rganishda Iskandar timsolining tarixiy ildizlari, uning yozma adabiyotga kirib kelishi va bu boradagi bahslar haqida, Navoiyning izlanishlari to‘g‘risida ma’lumot berish, Iskandar haqidagi Navoiy dostonining yaratilish tarixi, dostonning kompozitsion qurilishidagi o‘ziga xosliklarni asoslab berish, shoirning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari mukammal namunasi bo‘lgan “Saddi Iskandariy” dostonining kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlarini tushuntirish, Iskandar – Navoiy idealidagi adolatli hukmdor timsoli hamda Navoiyning hikoyanavislik mahorati masalalarini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagi qisqa umumiy tavsifdan joriy ta’lim tizmida bu dostonni uzviylik va uzluksizlik asosida o‘rganishga jiddiy e’tibor berish lozimligi kelib chiqadi. Mumtoz adabiyot namunalarini dastur va darsliklarga kiritishda nafaqat ularning mazmuni, balki til xususiyatlari, badiiy-g‘oyaviy jihatlari ham o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishiga diqqat qaratish zarur [Қодиров 2019: 59]. Xususan, maktab darsligi va litsey majmualarida bir xil adabiy parcha yoki hikoyat o‘rganilishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Qolaversa, “Saddi Iskandariy” o‘ziga xos va murakab kompozitsiyaga ega asar. Dostondan har qanday adabiy parcha darsliklarga kiritish asarning ana shu xususiyatini e’tiborga olishni taqozo etadi. Maktab, litsey hamda kollej darsliklariga kiritilgan adabiy parchalarda dostonning bu xususiyatiga e’tibor qaratilmagan, deyish mumkin.

“Saddi Iskandariy” dostonining asosiy boblari to‘rt tarkibli tuzilishga ega. Ular quyidagicha kompozitsiyada shakllangan:

1) “Sarguzasht”;
2) “Nazariy mulohaza”;
3) “Hikoyat”;
4) “Hikmat”.

Ushbu mukammal tarkibiy tuzilish murakkab mazmuniy yaxlitlik tufayli kelib chiqqan. Ularning har birida muayyan mavzu to‘rt yo‘nalishda tadqiqi etiladi va uzviy aloqadorlikda biri birini mazmunan boyitib, rivojlantirib boradi. Shu bois darsliklarga “Saddi Iskandariy” dostonidan adabiy parchalarni kiritishda mana shu kompozitsiyani nazardan soqit qilmaslik shart. Chunki darsliklarda keltirilgan hikoyat toki fasllar qaysidir asosiy bobninig tarkibiy

qismi, bir uzvidir. Uning mazmuni to‘la ochilishi uchun bobning qolgan qismlariga ham mazmunan ehtiyoj mavjud. Aytaylik, “Saddi Iskandariy” dostonida adolat masalasiga bag‘ishlangan bob to‘rt qism: sarguzasht, mulohaza, hikoyat va hikmatdan tashkil topgan. Holbuki, darslik yoki majmuaga shu bobning *hikmat* va *sarguzasht* kabi qismlarigina kiritiladi. Alisher Navoiyning adolat borasidagi fikrlarini to‘la anglash va o‘quvchiga yetkazish uchun bobni yaxlit holda darslikka kiritish lozim. Ana shunda mazmun yaxlitlashadi, ifoda teranlik kasb etadi va muallif ko‘zlagan ijodiy niyat yuzaga chiqadi. Misol uchun, oxirigi namunadagi darslikda dostonning ayni xususiyati to‘g‘ri ta’kidlangani holda, ushbu kompozitsiyaning xususiyatlari deyarli inobatga olinmagan [Adabiyot 2022: 90 – 114].

Mavzu borasida ham tanlangan adabiy parchalarni qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji mavjud. Hozirda darslik va majmualarda aks etgan doston parchalarida mazmun va o‘quvchi ruhiyati mutanosibligi buzilgandek tuyuladi. Bu masalaning muhimligini avvalgi darsliklarda berilgan “Iskandar bila ul gadolig‘ ixtiyor etgan podsho…” hikoyati misolida tushuntirish qulay. Bu hikoyat tasavvufning eng oliy maqomlaridan biri – faqr-u fano falsafasi maxsus tasvirlangan doston qismidir. Unda dunyoning mohiyatini anglashga chorlov, o‘tkinchi ho-yu havas, mol-mulkdan qo‘l tortishga targ‘ib qilish ruhi ustuvor. Ammo uni o‘rganayotgan maktab yoki litsey o‘quvchisi yosh bola (taxminan 16 yoki 18 yosh). Tabiiyki, bu pedagogik jarayonda bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, o‘qituvchining mavjud materialni tushuntirib berishi mushkul kechadi, chunki uning hali bunday chuqur mazmundagi adabiy materialni o‘qitishga tayyor bo‘lmaslik ehtimoli ko‘p. Ikkinchidan, o‘quvchining asar mazmuniga yetib borishi qiyin, balki imkonsiz. Uchinchidan, bu yoshda, hayotga havasi ortib, katta-katta maqsadlarni ko‘zlayotgan bir pallada dunyodan qo‘l tortish lozimligi haqidagi pand, garchi to‘g‘ri bo‘lsa ham, kor qilmasligi ayon. Natijada, parcha ertakdek o‘qiladi va adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi – bolada **barkamollik sifatlarini shakillantirish**ga erishilmaydi. Dostondan keltirilgan bunday adabiy parcha sujeti har qanday o‘quvchini jalb qilishi aniq. Unda ko‘tarilgan masala bugungi hayotimiz uchun nihoyatda dolzarb. Ammo hikoya mazmunini u taqdim qilinayotgan auditoriyada ilmiy-nazariy asosda, bugungi kun

sharoitida bugungi kun o‘quvchisiga tushuntirib bo‘lmaydi. Buning uchun boshqa auditoriya va boshqa hajmdagi soatlar lozim. Lekin o‘qituvchi majburiy talab sifatida imkon qadar tushuntirishga harakat qiladi, oqibatda yana **fikriy boqimandalik** kelib chiqadi. Shu bois shu va shunga o‘xshash adabiy parchalarni tanlashda juda jiddiy o‘ylash zarur. Afsuski, so‘nggi namunadagi darsliklarda ham bub oradagi ahvol qoniqarli emas. Unda “Muxolifat mazammatida” faslining olingani yaxshi bo‘lgan, lekin “Iskandarning Mag‘rib safari” tasviriga bag‘ishlangan boblardan olingan parchalar haqida bunday deb bo‘lmaydi. Qayd etish kerakki, bu kabi parchalarni tanlashda, odatda, darslik mualliflarining qiziqishi yoki imkoniyatlari ko‘proq ahamiyat kasb etganga o‘xshaydi.

“Tajalli nazariyasiga asoslanadigan maktab adabiy ta’limi uchun badiiy adabiyot ijtimoiy munosabatlar in’kosigina emas, balki, avvalo, Alloh jamolining badiiyatda aks etishidir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta’lim o‘quvchilarda ma’naviy sifatlarining shakllanishiga, bolalarda Yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo‘rqish, go‘zalligidan zavqlanish singari xislatlarni shakillantirishga ahamiyat beradi. O‘quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg‘ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Bunday tamoyillarga tayanib ish ko‘radigan maktab talabalari o‘zgalarning dardiga sherik bo‘lishga, adolatsizlikka qarshi befarq bo‘lmaslikka, go‘zallikdan lazzatlanishga qodir kishilar bo‘lib tarbiyalanadilar. Tajalli asosida ish ko‘radigan adabiy ta’lim **komil shaxs tarbiyalashni** (ta’kid bizniki – I.I.) maqsad deb biladi. Komil shaxs o‘zining insoniy fazilatlari bilan Allohga qo‘shilib ketishga loyiq kishidir. Tarbiyadan maqsad odam ruhiyati va vujudini turli yomonliklardan, illatlardan forig‘ qilish va unga Yaratganning marhamatiga sazovor etiladigan eng ezgu sifatlarni singdirishdan iborat” [Йўлдошев 1996: 98].

“Saddi Iskandariy” dostonidan darslik va majmualarga kiritilgan adabiy parchalar orqali yuqoridagi maqsadlar ko‘zlangan bo‘lsa-da, hanuz bunday tamoyillarga tayanib ish ko‘rilgan darslik va auditoriya to‘la shakillangan emas. Biroq so‘nggi yillar adabiyot darslik va o‘quv qo‘llanmalarida bu nazariyaga tayanish tendensyasi bir qadar ilgari siljidi. Tavsiya o‘rnida aytish mumkinki, dostonda mazkur yoshdagi o‘smirlarga har jihatdan mos va foydali boblar,

mavzular juda ko‘p. Masalan, adolat, yoshlikning g‘animatligi, safar masalasiga bag‘ishlangan boblarni olish har jihatdan foydali bo‘lib, ularda mutafakkir ko‘targan masalalar bugungi kun uchun ham, bugungi yoshlar uchun ham nihoyatda qiziqarli va dolzarbdir.

Qolaversa, dostondan keltirilgan adabiy parchalarning talqini masalasi ham muhim. “Hatto ayni bir janrdagi epik asarlar tahlilida ham o‘ziga xos yondoshuvlar talab etiladi. Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibida besh doston bor. Ularning barchasi bir xil janrda. Shunga qaramay, ularning har biri o‘z oldiga mutlaqo boshqa-boshqa badiiy-estetik maqsadlarni qo‘ygan. Demak, ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo‘ladi” [Тўхлиев 2010: 70 – 71]. Bu masalani ham jiddiy hal etish, asarlar talqini masalasini qayta ko‘rib chiqish kerak. Afsuski, yangi darslikda bu masala ham yetarlicha ijobiy hal etilmagan. Unda “Iskandar kim” degan masalaning qo‘yilishi va bu qahramonga oid qo‘shimcha ma’lumotlar, savollardagi xatoliklar tabni xira qiladi, o‘quvchini chalg‘itadi.

Bugungi o‘zbek ta’lim tizmida adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan bosh maqsad – o‘quvchilarda komillik sifatlarini shakillantirish ekan bu uchun, avvalo, asarlardan parchalar tanlashda jiddiy yondashish, ularning har jihatdan maqsadaga muvofiqligini e’tiborga olish lozim. Mumtoz adabiyot namunalari mazkur maqsadlarni amalga oshirishda katta imkoniyatlarga ega, faqat bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Tuzuvchilar: Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

2. Қодириов В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. ф. док. дисс... . – Наманган: 2019.

3. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашрёти, 2010.

4. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактмбларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. ф. док. дисс... . – Тошкент: 1996.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI

Nargiza To‘xtayeva
Nizomiy nomidagi TDPU
dotsent v.b. (PhD)

Anotatsiya

Mustaqillik sharofati bilan ma’naviy qadriyatlar, madaniyat, boshqa narsalar qatorida nutq san’atiga munosabat tubdan o‘zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g‘oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo etdi. Bugungi kun bolalar she’riyatida harbiy vatanparvarlik mavzusi ham ancha mukammal ishlangan. Maqolada mustaqillik davri uzbek bolalar she’riyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Mustaqillik davri, bolalar adabiyoti, she'riyat, nutq san'ati, zamonaviy she'riyat, publisistik asarlar.*

Mustaqillik sharofati bilan ma’naviy qadriyatlar, madaniyat, boshqa narsalar qatorida nutq san’atiga munosabat tubdan o‘zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g‘oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo etdi. Bolalar adabiyoti — bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o‘yin qo‘shiklari, rivoyat, afsona, ertak, makal, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo‘ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo‘ljallanmagan bo‘lsada, keyinchalik Bolalar adabiyotigao‘tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.So‘z san‘ati sifatida e‘tirof etiladigan badiiy adabiyotni o‘rganish bolalar adabiyotidan boshlanadi. Bolalar adabiyotining asosiy vazifasi ta‘lim bilan birga tarbiya bermoqlikdir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrda e‘lon qilingan «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish

uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash haqidagi, 2017-yil 13-sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi [Xalq so‘zi, 2017].

O‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida 90- yildar yangilanish davri bo‘ldi. Istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi Bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta’sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o‘zbek qiyofasi tasviri yetakchi o‘rin egallay boshladi.

Bolalar adabiyoti ning o‘ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Masalan, 20-asr boshlari Bolalar adabiyoti namunalari ko‘proq ijodkorning faolligi, qahramon tasviri emas, targ‘ibiytashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib tursa, 30- yillar Bolalar adabiyotida ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilingan, bu davrda yaratilgan asarlarda ham hali faol qahramon obrazi deyarli yo‘q edi. 50—60- yillar Bolalar adabiyoti namunalari bevosita yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o‘rin tutish bilan chinakam Bolalar adabiyoti ga aylandi. 70—80- yillar Bolalar adabiyoti namunalaridan esa tobora hayotga o‘z nuqtai nazari bilan qaraydigan, balandparvoz, ritorik ta’riflardan ko‘ra tanqidiy nigohi o‘tkirroq yosh qahramon qiyofasi gavdalana boshladi, shu davrda o‘zbek Bolalar adabiyoti ga ilk bora bolalarning o‘ziga xos, endigina uyg‘onib kelayotgan pok muhabbati kirib keldi. 90- yillar adabiyotida bu borada yangi qadam tashlandi, o‘zbek bolasi o‘zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug‘ ajdodlarga munosib bo‘lish ruhidagi, tom ma’nodagi vatanparvarlik g‘oyasi ustuvor asarlarni o‘qish baxtiga musharraf bo‘ldi [Suyumov A., Kichkintoylar adabiyoti, T., 1962; Jahongirov F., O‘zbek bolalar folklori, T., 1975; Bolalar adabiyoti va zamonaviylik, T., 1981;Safarov O., O‘zbek bolalar poetik folklori, T., 1985; O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon, T., 1989; Barakayev R., Jonajonim, she’riyat, T., 1997].

Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyati — o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar

adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko‘rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko‘rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo‘lsa, o‘smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan Bolalar adabiyotida syujetga bo‘lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.Shu ma’noda hozirgi o‘zbek adabiyotida lirika alohida o‘rin tutadi. Unda she’riyat zamondoshlarimiz tuyg‘ularini aks ettirish bilan birga jamiyatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalik, yorug‘ kelajakka ishonch tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi she’riyatning mohiyati va zamiridagi falsafiy g‘oyani ochib berish, o‘zbek she’riyatining yetakchi g‘oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash va kelajak rivojlanishini oldindan aniqlash imkonini beradi.Ma’lumki, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar birinchi navbag‘adagi lirikada aks-sado beradi. Bu uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi she’riyatni to‘rt tamoyil yo‘naltiradi. Birinchi navbatda O‘zbekiston milliy uyg‘onish g‘oyalari mustaqil davlat maqomi bilan taraqqiy etgan she’rlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu holatni barcha shoirlar ijodida kuzatish mumkin.Bu mavzudan keyin ham ko‘p va xo‘p yozildi aniqki, bu mavzuning ufqi keng. Shoir o‘z ishqiy tuyg‘ini yaratganga, vatanga, yurtga, xalqiga, ota-onasiga, bog‘lanishga ruxsat berishi mumkin. Shunday sizga berilmoqda. Lekin bularning ichda muhimbubga, sevganiga yaqin joylariga bag‘ishlangan she'rlarning, bizningcha, umri uzoq va samaralidir. Chunki unda odamg butun vujudini pokiza va sirli bir his chulgaydi, toza qo‘n tomirlarda ko‘playdi, qalbga oppoq nur kirib keladi. Bu nur tananing butun puchmoqlariga tarqalib, nafsoniy tuygularni quvadi, fikr tiniqlashadi. Butun olam ko‘ziga benihoya guzal tuyuladi’ Ma'lumki, guzallik ezgulikdir. Vujud esa ardoqli armonlarga to‘la. Shoir tuygusi, dardlari o‘z dardingizga aylantirdi. Haqiqiy tuygu bilan yo‘g‘rilgan chinakam she'riyatning samarasi ummonga teng bo‘ladi. Bugungi mavzu haqida she'rlar shu kabidir. Bularning ko‘p va ayol shoirlarga yoshlarga mansubligi she'riyatdagi evrilishdan dalolatdir.Bugungi kun bolalar she’riyatida harbiy

vatanparvarlik mavzusi ham ancha mukammal ishlangan. Urush davri she'riyati tasvir markazida tuigan jangovarlik, fashist bosqinchilariga kuchli nafrat, Vatan himoyasiga chaqiriq, baynalmilal do'stlik g'oyalari so'nggi davr she'riyatida ham asosiy mavzulardan biriga aylandi. Ammo endi davr bilan bog'liq ravishda tasvir uslubining birmuncha o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, urush davri she'riyatida lirik qahramonning bevosita jang maydonlaridagi kechinmalari ifodalansa, keyinchalik jang qahramonlarining esdaliklari yoki u haqda boshqalaming taasurotlari, tinchlik uchun kurash g'oyasi, urushning faqat halokatli oqibatlarini ifoda etishi birinchi o'ringa chiqarildi. Bu she'riyatda harbiy vatanparvarlik tuyg'usining, tushunchasining tobora kengayib, yangi-yangi qirralari namoyon bo'layotganligini, davr talabi asosida ijodiy an'ananing davom etayotganini, boyitilayotganini ko'rsatadi. Urushdan keyingi harbiy vatanparvarlik she'riyati uchun xarakterli xususiyatlar urush qahramonlari jasoratining ko'proq ikkinchi shaxs tomonidan hikoya qilinishida ham ko'zga tashlanadi. Urushga munosabatning bu shaklini Uyg'un («Mening akam»), Asqad Muxtor («Tinchlik soldati») kabi keksa avlod vakillaridan tortib, Tursunboy Adashboyev («O'g'limga»), Safar Barnoyev («Dadamning qoilari») singari keyingi avlod qalamkashlari ijodida ham uchratish mumkin.

O'zbek bolalar she'riyatining urushdan keyingi davrda yaratilgan namunalari ko'zdan kechirilganda, harbiy vatanparvarlik mavzusiga turlicha yondashilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Mavlon Ikrom «Yosh partizan» poemasida qrimlik yosh partizan Viktor Korobkovning jasoratiga oid hujjatlardan foydalansa, Quddus Muhammadiy, Tolib Yo'ldoshlar urush sababchisi bo'lgan fashistlami folklordagi an'anaviy obrazlar tasviri orqali urushni la'natlaydilar. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Ilyos Muslim va Shuhratlar fashistlaming kirdikorlarini o'sha voqealaming bevosita shohidlari sifatida hayotiy, ta'sirchan gavdalantirsalar, Tursunboy Adashboyev, Qambar Ota, Aziz Abdurazzoq, Shamsi Odil, Rauf Tolib, Qutbi Nosirova va boshqalar ko'proq otalar va bolalarning achchiq xotiralari tarzida qalamga oladilar.

Xulosa qilib aytagnda, bolalar adabiyoti da badiiylik bilan bir qatorda ma'rifiylik ham yetakchi o'rin tutadi. Chunki bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga

ham xizmat qiladi. Barcha davrlar bolalar adabiyoti ning taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma’rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is’hakov Y. So‘z lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 320 b.
2. Karimov H. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent, 2007. 407 b.
3. Sayyid S. Ishlar. 11-jild she’rlar. Doston. Toshkent: Sharq, 2018.
4. Sharafiddinov O. She’riyatning og‘ir yuki / Sirojiddin Sayyid. Ishlar. 1-jild she’rlar. She’rlar. Toshkent: Sharq, 2018. – B. 470.
5. “Boburnoma”da Vahob Rahmon / Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 53.
6. Karimov H. Mustaqillik adabiyoti. Toshkent, 2007. – B. 407.
7. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. –B. 160.

MATN ORQALI O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Maxfuza Tuychiyeva

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni o‘quv materialiga qiziqtirish, badiiy asar mazmunini tushunib yetish, mustaqil xulosa chiqarish, mutolaaga rag‘batni oshirish hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, o‘quv materiali, tanlash, mutolaa, savol, topshiriq.*

Barkamol avlodda ma’naviy sifatlarni shakllantirishda adabiyotning o‘rni juda muhim sanaladi. O‘quv fani sifatida adabiyotning asosiy ashyosi darslik bo‘lib, matn esa uning asosiy tarkibiy qismidir. Badiiy matn bilan ishlash badiiy so‘z qudratini his qilish, estetik didni o‘stirishga olib keladi. Asosiy vazifani bajarish badiiy matnni tahlil qilish, matn orqali nutq o‘stirish orqali erishiladi. Tahlil bolada mustaqil fikrlashni tarbiyalasa, aynan nutq o‘stirish

orqali lingvistik maqsad amalga oshiriladi. Matn bilan ishlash orqali nutq o‘stirishning quydagi turlarini farq qilish mumkin:
1. Matnga oid savol va topshiriqlar ustida ishlash asosida nutq o‘stirish.
2. Matnni ifodali o‘qish asosida nutq o‘stirish.
3. Test topshiriqlaridan foydalanish asosida nutq o‘stirish.
4. Matnga tayanib mustaqil ishlar asosida nutq o‘stirish.
5. Matn mazmunini qayta hikoyalash asosida nutq o‘stirish.

Matnga oid savol va topshiriqlar ustida ishlash asosida nutq o‘stirish eng samarali va salmoqli ijobiy natijalarga olib keladigan, o‘quvchining yosh xususiyatlariga muvofiq, qiziqishi va faolligini ta’minlaydigan faoliyat sifatida ko‘riladi. Matnni ifodali o‘qish esa adabiyot o‘quv predmetida asosiy nazorat shakllaridan biridir. Test topshiriqlari orqali nutq o‘stirishda “inkor qilish”dan foydalanish mumkin bo‘ladi. Unda o‘quvchi har bir test variantining noto‘g‘ri javobini nima uchun to‘g‘ri javob bo‘la olmasligin izohlab berishi lozim bo‘ladi. Matnga tayanib mustaqil ishlar asosida nutq o‘stirish kichik guruhlarda “Birgalikda o‘qish” texnikasidan foydalangan holda tashkil etish mumkin bo‘ladi:
1. 5-6 o‘quvchidan iborat guruhlar tuziladi
2. Guruh ichidan ekspert tayyorlanadi va u o‘quvchilarning ishini nazorat qilib turadi.
3. Har bir guruhga umumiy mavzuning bir qismi bittadan topshiriq qilib beriladi.
4. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
5. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.
Matn asosida mustaqil ishlash uchun insert, FSMU, tushunchalar izohi kabi texnologiyalardan ham foydalanish mumkin bo‘ladi.

Professor S.Matjonov bilimlarning to‘la o‘zlashtirilishi uchun o‘quvchilar matn mazmunini mustaqil ravishda o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishlarini talab qiladi, ya’ni iloji boricha o‘quvchining o‘z so‘zlari bilan qayta hikoyalashga e’tibor qaratilmog‘i lozim deb hisoblaydi. Matn mazmunini qayta hikoyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh psixologiyasiga monand ish. Ularning yoshida o‘qigan yoki eshitganlarining mazmunini eslab qolish imkoniyati kuchli bo‘ladi. O‘qish darslarida mazkur yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan bunday tabiiy psixologik xususiyatni yanada rivojlantirish

maqsadida o‘rganilgan badiiy matnlarni qayta hikoyalashga urg‘u beriladi. O‘zbek adabiyoti kursining ilk bosqichini, asosan, xalk og‘zaki ijodi namunalari tashkil etadi, albatta. 5-sinflarda xalq ogzaki ijodi namunalaridan ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, matal-maqol, topishmoqlar, tez aytishlar o‘rganish uchun ko‘proq havola etilgani o‘rinlidir. Chunki xalq yaratgan ertak va afsonalarning tili sodda, ravon va bu yoshdagi o‘quvchi ruhiyati va qiziqishlariga mos bo‘ladi. Kichik o‘smir yoshidagi o‘quvchining psixologiyasi sarguzashtlarga boy asarlarni o‘rganishga moyil bo‘ladi. Xalq maqollari va matallari ham bolalarning axloqiy jihatlarini to‘g‘ri shakllantnrishga hissasini qo‘shadi, ham o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari o‘rganish misolida buni ko‘rib chiqamiz. Mashg‘ulotda quyidagilar amalga oshirildi: asar haqidagi nazariy ma’lumotlar kamaytirilib, matndan faqat masallar, naqllargina emas, asar qahramonlarining qiyofasini ochadigan lavhalar berilib, ulardagi maqollarga alohida e’tibor berildi. O‘quvchilarda “Zarbulmasal” haqida yaxlit tasavvur matn orqali hosil qilinishiga harakat qilinib, Yapaloqqushning Ko‘rqushni sovchilikka yuborishi, Ko‘rqushning yo‘lga tushishi, Hudxud bilan uchrashib, bir-biriga “Maymun bilan najjor”, “Tuya bilan bo‘taloq” masallarini aytib bergan o‘rinlari o‘qish uchun tavsiya qilindi. Masallardan kelib chiqadigan xulosalar, “qissadan hissa chiqarish”, obrazlar tabiatiga xos jihatlar savol va topshiriqlar orqali ochib berilgandan so‘ng, o‘quvchilarga Yapaloqqush, Hudxud tilidan chiqqan maqollarni o‘zgartirib, ma’nodoshlarini topish topshirig‘i berildi. Yapaloqqush tilidan chiqqan “Karnay misdin, balg‘am isdin” maqolining bugungi kundagi sinonimlarini topishda o‘quvchilar orasida ikkilanishlar sezilgan bo‘lsa, Ko‘rqush tilidan aytilgan “Yolg‘on masal turmas”, “Chumchuq semirsa, botmon bo‘lurmi?” “Uyat o‘limdan qattiq”, “Ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini qo‘ymas” , “Bo‘l! Og‘iz bo‘lma, oyoq bo‘l”, “Oyoq yugurigi oshga, og‘iz yugurigi boshga” kabi maqollarini sharhlash bahs-munozaraga aylanib ketdi.

Yolg‘on so‘z qoralangan maqol o‘rniga ma’nodoshini qo‘llashda o‘quvchilar maqoldagi so‘zlar eskirganligiga e’tibor qaratdilar. Gulxaniy yashagan davr ruhiyatini saqlash, asar

ko‘rinishiga ta’sir etmaslik uchun ma’nosi bilan birga, matn shakli ham uyg‘un bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan o‘quvchilar “Yirtiq uyni el topar, yolg‘on so‘zni chin topar”, “Yolg‘on so‘z yoqadan chiqadi”, “Yolg‘onchi to‘rga bir o‘tar, ikki o‘tmas”, “Yolg‘onchining uyi kuysa ham, hech kim ishonmaydi”, “Yolg‘onchi chin deya olmas, chin desa ham el ishonmas”, “Chinni yolg‘onga chulg‘ama, durni loyga bulg‘ama”, “Rost bilan yolg‘onning orasi – to‘rt enlik” kabi maqolalari orasidan “Rost bilan yolg‘onning orasi – to‘rt enlik” maqolini matn uchun mos deb bilishdi. Ham “enlik” so‘zining hozirgi kunda keng muomalada emasligi, ham maqolda yolg‘on gapirishdan qaytarish ma’nosi borligi uchun eng mos deb hisoblashdi. “Uyat o‘limdan qattiq” maqoli o‘rniga “Eman daraxtning egilgani – singani er yigitning uyalgani – o‘lgani”, “Yigitni or o‘ldirar, tuyani – sarvar” maqollari yigit so‘zi tufayli to‘g‘ri kelmaydi, garchi asarda odamlar hayoti bayon qilingan bo‘lasa-da, qushlar tilidan hikoya qilinyapti, ular esa o‘zlarini odamlarning obrazi ekanligini “bilishmaydi” degan qiziqarli javoblar berildi. “Yuz qizili ketar, yuz xijili ketmas”, “Yuz yuzga tushar, uyat – ichga” maqollarini qo‘llash mumkin deb topishdi.

“Og‘zingni ochguncha, ko‘zingni och”, “Og‘iz – bir, quloq – ikki, bir so‘zlab, tingla tingla qirq ikki”, “Og‘zi bilan o‘roq o‘rgan” “So‘z bilmagan – el boshiga yov keltirar ”, “Bir so‘zla, qirq tingla” kabi maqollarni ma’nodoshlari sifatida keltirib, “So‘z bilmagan – el boshiga yov keltirar” maqoli “Oyoq yugurigi oshga, og‘iz yugurigi boshga” maqolining eng maqbul ma’nodoshi deb topishdi.

“Ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini qo‘ymas” maqoli o‘rniga “Ko‘rning qo‘liga tushma, karning oyog‘iga” maqoli eng mos ekanligini, “Ko‘rga ko‘rsatma, karga gapirma” maqoli deyarli bir ekanligini, uni qo‘yishsa, o‘zlari uchun ijodiy, yangilik bo‘lmasligini bildirishgani tajriba sinflarida topshiriq o‘quvchilar uchun ijodkorlikni uyg‘otganligidan darak beradi.

Demak, metodikaga oid darsliklarda berilganidek [Husanboyeva Q., Niyozmetova R., 2022: 209], adabiyot darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini samarali tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarining turli xil mustaqil faoliyat turlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;

• o‘quvchilarning mustaqil faoliyatining adabiy ta’lim jarayonini tashkil etishning boshqa shakllari (dars, sinfdan tashqari tadbirlar) bilan bog‘liq holda tashkil etish;
• adabiyot darslarida badiiy asarni o‘rganishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish. Bunga quyidagilarni hisobga olgan holda individual yondashuv talab etiladi:
a) o‘quvchining shaxsiy sifatlari;
b) o‘quvchilar adabiy rivojlanishining turli darajalari;
v) o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari;
g) turli madaniyatlarni tashuvchilarni birlashtirgan polietnik sinflarning mavjudligi va hk.

Matn orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish adabiy ta’limdan kutilayotgan natijaning samarali bo‘lishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt.... diss. – T., 1998. – 306 b.
2. Ahmedov C., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. I qism –T.: Ma’naviyat, 2017. – 240 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 503.

AVAZ O‘TAR G‘AZALINING YANGICHA O‘QUV TAHLILI

Dilfuza Tuxliyeva
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Avaz O‘tarning ta’lim bosqichlarida o‘rganish belgilab qo‘yilgan “Har tilni biluv…” deb boshlanuvchi g‘azalining yangicha o‘quv tahlili va uni amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari xususida so‘z boradi. Muallif o‘quv tahlilini amalga oshirishda mutlaqo yangi yo‘ldan boradi, bunda, asosan, ontologik tahlil metodiga tayanadi.

***Kalit so‘zlar**: Avaz O‘tar, g‘azal, maktab, ontologik tahlil, tizimli tahlil, o‘quv tahlili.*

Bugungi kunda dunyo filologiyasida g‘azal tahliliga ontologik tahlil metodini tatbiq etish ishlari keng tus olib ulgurdi. Garchi mazkur metod g‘azallarning filologik tahlili uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan o‘quv tahlilida ham keng foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. Biz shu maqsadda ontologik tahlil metodiga tayanib maktab ta’limida g‘azal janri namunalari tahlili uchun mo‘ljallangan “Tizimli tahlil” metodini ishlab chiqdik (Qarang: Tuxliyeva D. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–11-sinflarida g‘azal o‘qitish metodikasini takomillashtirish. PhD diss... – Toshkent, 2022). Va ushbu metod amalda samarali ekaniga ishonch hosil qildik. Bu metod – qisqa vaqtda konkret adabiy materialni aniq qoidalar asosida tahlil etish va kafolatlangan amaliy natijalarga olib borishi bilan ahamiyatli.

Mazkur metod asosida maktab ta’limidagi barcha g‘azallarni tahlilga tortish mumkin. Masalan, Avaz O‘tarning *“Har tilni biluv emdi…”* g‘azalining o‘quv tahlili bunga munosib isbot bo‘la oladi:

“Har tilni biluv emdi…” g‘azali

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.
G‘ayri tilini sa’y qiling bilgani, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur.
Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni,
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.
Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.

1-bayt. Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

I. Shakliy tarkib.

G‘azal besh baytdan iborat. Baytda i (10ta), a (7) va o (6) unlilari faol. Bayt a-a tarzida qofiyalangan. Qofiyadosh so‘zlar: jondur,

olamiyondur. Ushbu g‘azalda radif ishtirok etmagan. G‘azal vazni: Hazaji musammani ahrabi makfufu mahzuf

- V V	V- - V	V - - V	V - -
mafulu	mafoiylu	mafoiylu	fauvlun

II. Mazmuniy tarkib.

2.1. Ma’no qatlami

Lug‘at

1. Biluv – bilish.
2. Emdi – endi.
3. Bani odama – Odam bolalariga, insoniyatga.
4. Robitayi olamiyon – olamlarni bog‘lovchi aloqa vositasi.

Nasriy bayon:

Har tilni bilish endi insoniyatga jon, til esa olamlarni bog‘lovchi vositadir.

2.2. Tayanch so‘zlar qatlami

Ushbu baytdagi tayanch so‘z – til. Baytda tilning, ayniqsa, chet tillarining inson hayotidagi o‘rni haqida so‘z boradi. Turli tillarni o‘rganish – jonga o‘xshatilgan. Uni shoir olamlarni bog‘lovchi vosita sifatida ta’riflaydi. Buni chizmada quyidagicha ifodalash mumkin.

tashbeh sifatlash

jon ← **til** → **vositayi robitayi olamiyondur**

2.3. Lirik qahramon tasviri qatlami.

Avaz O‘tar tilning, ayniqsa, xorijiy tillarning inson hayotida qanchalik muhim o‘rin tutishini tasvirlar ekan, chet tillardan birini o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yerda shoir ayni bir tilni maxsus ko‘rsatmaydi. “Har til”ni, ya’ni dunyoda keng muloqot tillaridan birini bilish butun insoniyatga jon kabi zarur deydi. Odamga uning tirikligini ta’minlovchi jon qay darajada kerak bo‘lsa, xorijiy tillarni bilish ham insonga ana shu jon singari kerakdir. Chunki bu insonga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. O‘zga tillarni bilish orqali butun dunyo bilan qiyinchiliksiz aloqa o‘rnata oladi.

2.4. Yakuniy qatlam.

Baytda shoir o‘zga tillarni o‘rganishga dav’at qiladi va uni asoslab beradi.

2-bayt: G‘ayri tilini sa’y qiling bilgani, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

II. Mazmuniy qatlam.

2.1. Ma’no qatlami

Lug‘at:

1. G‘ayri til – o‘zga til, chet til.
2. Sa’y qiling – harakat qiling, intiling.
3. Bilon – bilgan.
4. Ondin – undan.

Nasriy bayon:

Yoshlar, chet tilni o‘rganish uchun intiling, zero, kim ilm-u hunar bilgan bo‘lsa, un(til)dan ayon bo‘lgan.

2.2. Tayanch so‘zlar qatlami

Mazkur baytda “g‘ayri til” tayanch so‘z vazifasini bajargan. Qolgan barcha so‘zlar uning atrofida birlashadi.

2.3. Lirik qahramon tasviri qatlami.

Baytda da’vat yoshlarga qaratilgan. Yoshlikda o‘rganilgan ilm – toshga o‘yilgan naqsh kabidir, deydi dono xalqimiz. Shu sababli, shoir ham turli tillarni o‘rganish uchun yoshlik eng munosib va mos davr ekanligini, uni behuda o‘tkazmasdan, foydali mashg‘ulotlarga sarflash lozimligini eslatadi. Bunga namuna qilib katta natijalarga erishgan insonlarni ko‘rsatadi, ular muvaffaqqiyatga aynan turli tillarni o‘rganish natijasida erishganini aytadi.

2.4. Yakuniy qatlam.

Yoshlik davri g‘animat, undan unumli foydalanish kerak. Ilm olish umrni sermazmun qiladi, tafakkurini o‘stiradi, dunyoqarashini kengaytradi. Buyuk ajdodlarimiz ham o‘z bilimlari tufayli jamiyatda ma’lum mavqega ega bo‘lishgan. Shu sababli o‘zga tilni bilish faqat muloqot qilish vazifasini bajarmaydi, balki dunyoning eng ilg‘or, yangi bilimlarini o‘zlashtirish imkoniyatini ham taqdim etadi.

3-bayt: Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur.

II. Mazmuniy qatlam.

2.1. Ma’no qatlami.

Lug‘at:

Biluv – bilish.

Nasriy bayon: Sizga har tilni ona tilidek bilish lozim, xorijiy tilni bilishga g‘ayrat qiling, foydasi kondek behisobdir.

2.2. Tayanch so‘zlar qatlami.

Bu baytda tayanch so‘z vazifasini *tilni biluv* birikmasi bajargan. O‘zga tilni ona tilidek bilish va uning foydasini konga o‘xshatish orqali tashbeh san’ati yuzaga kelgan. Uni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:

tashbeh tashbeh

ona tilidek ← **tilni biluv** → **kon**

2.3. Lirik qahramon tasviri qatlami.

Baytda Avaz O‘tar yoshlarga pand-nasihatlarini davom ettiradi. Shoir chet tillarni o‘rganishning foydasini konga o‘xshatadi. Bu orqali xuddi kondagi dur-u javohirlarning hisobi bo‘lmaganidek, xorijiy tillarni bilish ham behisob manfaat olib kelishini ta’kidlaydi. Ammo o‘quvchi xorijiy tillarni yuzaki emas, balki o‘z ona tilidek mukammal o‘zlashtirishi lozim.

2.4. Yakuniy qatlam.

Demak, tillarni mukammal bilishning foydasi ko‘p.

4-bayt: Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni,
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.

II. Mazmuniy qatlam.

2.1. Ma’no qatlami.

Lug‘at:

1. Onda – u yerda. **2. Bori** – bari. **3. Yaktoyi zamon** – zamon yagonasi, ziyolisi.

Nasriy bayon: Bolangizni ilm-u fan uyiga [ya’ni maktabga] yuboring, u yerda o‘qiganlarning bari zamon ziyolisidir.

2.2. Tayanch so‘zlar qatlami.

Bu yerdagi asosiy so‘zlar “ilm-u fan uyi” birikmasi hisoblanadi. Qolgan so‘zlar uning ta’rifiga xizmat qilgan.

istiora

Ilm-u fan uyi ---------- maktab

2.3. Lirik qahramon tasviri qatlami.

Shoir barcha bilimlar ulashiladigan maskan deb maktabni bilgani sababli murojaat ota-onalarga qaratiladi. Avaz O‘tar yashab o‘tgan davr XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi, bu paytda o‘z davrining ilg‘or ziyolilari tomonidan jamiyat hayotida ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan yillar edi. Ma’rifatparvarlar tomonidan mamlakatning turli burchaklarida yangi usuldagi maktablar ochilayotgan, ta’lim butunlay yangi usulda tashkil etilib, diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy fanlarni ham o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan edi. Avaz O‘tar kabi ziyolilar millatni yuksaltirish, davlatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishning yagona yo‘li sifatida xalqni ilmli qilish, yoshlarni zamonaviy maktablarda o‘qitish, ularning turli xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganishi va o‘zlashtirishida deb bilganlar. Shu ma’noda, shoir ota-onalarga maktabning ahamiyatini tushuntirishga urinadi.

4.4. Yakuniy qatlam.

Demak, insonni jaholatdan qutqaradigan yagona yo‘l – ilm. Maktab esa ana shu ilmni tarqatuvchi ziyo maskani.

5-bayt: Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.

II. Mazmuniy qatlam.

2.1. Ma’no qatlami:

Lug‘at:

1. **Zor o‘lmasun** – zor (muhtoj) bo‘lmasin.
2. **Dog‘i** – tag‘in, yana.

Nasriy bayon: Ular ham til bilmay yana Avazdek zor bo‘lmasin, til bilmagani tufayli uning bag‘ri to‘la qondir.

2.2. Tayanch so‘zlar qatlami.

Baytdagi tayanch so‘z Avaz. Dastlabki misrada til bilmaganlar zor bo‘lgan Avazga o‘xshatilgan bo‘lsa, ikkinchi misrada Avazning til bilmagandagi ahvoli “bag‘ri to‘la qon” birikmasi orqali ifodalanib, mubolag‘a san’ati yuzaga keltirilgan.

Onlar —tashbeh→ **Avazdek** —mubolag‘a→ **bag‘ri to‘la qon**

2.3. Lirik qahramon tasviri qatlami.

Baytda o‘zga tillardan xabarsiz insonni tasavvur qilish uchun Avaz o‘zini yaqqol misol qilib ko‘rsatadi. O‘zining hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda tilning inson hayotida muhim o‘rin tutishiga yana bir bor e’tiborni tortadi. Shoir bu hayotda doimo qiyinchiliklarga uchrashi, qiynalishi, azoblanishining bir sababi sifatida dunyo tillaridan xabarsizligini ko‘rsatadi.

2.4. Yakuniy qatlam.

Demak, insonning jamiyatda ma’lum mavqega ega bo‘lishi va uni rivojlantirishga hissa qo‘shishi uchun til o‘rganish nihoyatda muhim. Buni vaqtida anglamagan insonlar keyinchalik umrini afsus-nadomatda o‘tkazadi.

Xulosa. Avaz O‘tarning “Har tilni biluv emdi….” deb boshlanuvchi g‘azali 5 baytdan iborat bo‘lib, uning qofiyasini *jondur, olamiyondur, ayondur, kondur, zamondur, qondur* so‘zlari tashkil qiladi. G‘azal axloqiy-ta’limiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, birinchi misradan so‘nggi misragacha pand-nasihat ruhi ustuvor. Unda shoir bevosita yoshlarga murojaat qilib, til o‘rganishning insonga berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari haqida fikr yuritadi. Til bilgan insonning jamiyatda mavqeyi baland bo‘lishi, aksincha, til bilmaganlarning butun umr dunyo va jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘sha olmay aziyat chekishi mumkinligi tashbeh, mubolog‘a kabi turli badiiy san’atlar yordamida esda qolarli tarzda tasvirlangan.

Umumiy o‘rta ta’limda mumtoz adabiyot namunalari, xususan, g‘azal janrini o‘qitishga mana shu kabi aniq tizim va talablarga ega metodlar orqali yondashilsa, juda murakkab ko‘rinuvchi adabiy materiallarni ham qiziqarli va samarali tarzda o‘qitish mumkin. Eng muhimi, bunday yondashuvda tahlil jarayoni tizimlashadi, o‘quv materialining barcha sathlari qamrab olinadi, bular o‘z navbatida adabiy ta’limning natijadorligini kafolatlashga xizmat qiladi.

ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING TA'LIMDAGI O'RNI

Iroda Ishonxanova
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslarida Alisher Navoiy hikmatli so'zlarini o'rganilishi masalasi ko'tarilgan. O'quvchilarni g'azal mulkining sultoni hisoblangan shoirimizning hayotiy xulosalari bilan tanishtirish muhimligi haqida fikr bildirilgan. Alisher Navoiy hikmatli so'zlaridan namunalar keltirilib, ayrimlari izohlab ham berilgan. Bunda, asosan, umumta'lim maktablarining 5–9-sinflari borasida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar**: darslik, hikmatlar, izoh, bahs-munozara, ta'lim va tarbiya, hayot tajribasi, xulosa, maslahat, nasihat*

Alisher Navoiy hayot yo'li o'rta umumta'lim maktablari yuqori sinflarida har tomonlama o'rganiladi. Alisher Navoiyning yoshlik davrlari, tahsil yillari, bunyodkorlik ishlari, yaratgan asarlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati darsliklarda yoritilgan. O'quvchilar uchun Alisher Navoiy hayoti va ijodi ibrat timsoli hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablarining 4–5-sinflarida Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi Oybekning "Alisherning yoshligi" va Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" asarlaridan parchalar keltirilgan. Asardagi bola Alisher darslikni o'qiyotgan bolalarning yoshiga mos bo'lgani uchun ularga voqealar ijobiy ta'sir qiladi. Navoiyning bolaligi aks etgan ushbu asarlar o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinadi.

Agar 5–9-sinflarning "Adabiyot" darsliklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Alisher Navoiyning turli janrlardagi asarlari kiritilganini ko'ramiz. Har bir asarning Alisher Navoiy shaxsiyatini ochib berishda o'z salmog'i bor. Bizning o'rta umumta'lim maktabi tizimida ta'lim va tarbiya tushunchasi yonma-yon turishini nazarda tutgan holda, Alisher Navoiyning hikmatli so'zlaridan ham unumli

foydalanish fikrini o‘rtaga tashlamoqchimiz. 5–6-sinflarda so‘zlari nisbatan sodda, tushunarli bo‘lgan aforizmlar, yuqori sinflarda esa murakkabroq, mazmuni chuqurroq hikmatli so‘zlar tanlangani ma’qul deb hisoblaymiz. Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlarini adabiyot fanidan o‘quv mashg‘ulotlari uchun shior sifatida ham tanlash mumkin. Ularning ba’zilarini tushuntirib, izohlab, hayotiy misollar keltirish o‘quvchilar tarbiyasiga va fikrlashiga samarali ta’sir ko‘rsatsa, ba’zilarini tahlil qilishni sinf miqyosida o‘rtaga tashlash to‘g‘ri tadbir hisoblanadi. Quyida biz hikmatli so‘zlarga namunalar keltiramiz, zarur deb topganlarimizni izohlab o‘tamiz. Masalan:

5–6-sinflar uchun tavsiya etiladigan hikmatli so‘zlar

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
So‘zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.

(Maxzan bu xazina demakdir. Yigitlik, ya’ni yoshlik chog‘ida ilm xazinasini to‘plagan ma’qul. Demak, yoshlikda ko‘proq o‘qish zarur. Keksaygan paytda o‘sha bilimlar hayotda asqotadi, kerak bo‘ladi. Keksalik – donolik deb bekor aytishmagan. Hayot davomida orttirilgan bilim, tajriba kelajakda farzand va nabiralarga nasihat qilishda, maslahat berishda kerak bo‘ladi).

Naf yeturmakka shior aylading
O‘zungga ul nafni yor aylading.
Nafing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf o‘zungga ko‘prakdurur.

(Hayotda birovga naf(foyda) keltirishni maqsad qilgan bo‘lsang, bilginki, o‘zingga ham foydani hamroh qilgansan. Agar

xalqqa, ya'ni odamlarga doim foydang tegsa, o'zingga undan ham ko'proq yaxshilik qaytadi).

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt.

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

Ko'ngul durji ichra guhar so'zdurur,
Bashar gulshanida samar so'zdurur.

Qarilar xotiri nozukdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustox:
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox.

(Keksa odamlarning ko'ngli juda nozik bo'ladi, ey bola(tifl), ularning ko'nglini og'ritmagin. Yosh bola o'ynagan paytda qurigan shox sinib ketishi mumkin. Kichkina bolalar aqlsizlik qilib, bobo-buvilarining dilini og'ritib qo'yishlari mumkin. Yuqoridagi hikmatli so'z bolalarni keksalarga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishga chaqiradi, ularni avaylash kerakligini eslatadi).

7–9-sinflar uchun tavsiya etiladigan hikmatli so'zlar

Bu gulshan ichraki, yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq birla ot.

Qaysi johilg'a nadomat bo'lg'ay ul olimchakim,
Har ne bildi, qilmadi, har neki qildi, bilmadi.

(O'zi o'rgangan bilimni qo'llamaydigan va yomonlik qilganini bilmaydigan olimga shunchalik ko'p afsus-nadomatlar bo'ladiki, johil va zulm qiluvchi odamga ham bunchalik bo'lmaydi. Bu hikmatda ilmiga amal qilmaydigan olimlar johil kishilardan ham yomonligi aytilgan).

Yor uldurkim, tili-yu ko'ngli aning bo'lsa bir –
Kim, tili o'zga-yu ko'ngli o'zga, ul yor emas.

Falakdin gar menga har lahza yuz qayg‘u kelur o‘tru,
Agar har qayg‘udin so‘ng bir sevinmak bor, emas qayg‘u.

Qolding korvondin, gar tinarg‘a bir nafas turdung.

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.

(Birovdan bir gap eshitsang, gapiruvchi kim ekanligiga e’tibor berma, qanday gap aytayotganiga diqqat qilgin. So‘zlovchiga qarab baho berma, so‘zga baho bergin).

Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari.

Kimki ulug‘roq – anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq – anga shafqat kerak.

Shabnam ermas, nargis ashkidur, nedin qon yig‘lamas,
Ko‘z yumub-ochquncha gulshan umri poyonin ko‘rub.

(Ushbu baytda juda chiroyli o‘xshatish bor: barglardagi shabnam nargis gulining ko‘zyoshiga o‘xshatilyapti. Nargis guli qon yig‘layapti, chunki ko‘z yumib ochguncha bu gulzorning umri tugaydi, xazon bo‘ladi. Bu hikmatda umrning qisqaligiga, o‘zimizdan yaxshi nom qoldirishga shoshilishimiz kerakligiga ishora qilinyapti).

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil.

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

(Odamzod nima qilsa ham, o‘z tafakkuriga tayangan holda bajaradi. Tafakkur qanchalik keng bo‘lsa, bajaradigan ishimiz shunchalik ulug‘ bo‘ladi. Shu sababli bilim va tafakkurimizni boyitishimiz lozim).

Birovkim, aning himmati yo‘qturur,
G‘aniy bo‘lsa ham hurmati yo‘qturur.

Onalarning oyog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog‘i.

Ravza bog‘in visolin istar ersang,
Bo‘l onaning oyog‘i tuprog‘i.

Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma.

Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishona anga iymon erur.

(Bu dunyoga kelgan, tug‘ilgan odamlardan kimning iymoni bo‘lsagina, u haqiqiy inson hisoblanadi)

Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari ulkan hayot tajribasiga ega bo‘lgan ma’naviyatli va bilimdon insonning hayotiy xulosalari hisoblanadi. Bu so‘zlardan biz umrimiz davomida foydalanishimiz mumkin. O‘rta umumta’lim maktablarining nafaqat adabiyot fani o‘quv mashg‘ulotlarida, balki ona tili, tarix va boshqa fanlarda ham bemalol foydalanishimiz mumkin. Yana “Adabiyot” darsligining ma’lum bo‘limlaridan yoki mavzularidan so‘ng ham sahifa bezagi shaklida Alisher Navoiy hikmatlari kiritilsa, o‘quvchilarning ko‘zlari o‘rganadi. O‘qib tushunishga va tahlil qilishga harakat qilishadi. Kelajak hayotida esa bunday hikmatlar o‘z muammolarini hal qilishda, o‘zidan kichiklarga maslahat berishda kerak bo‘lishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлетшин М.ва бошқалар. Ёш ва педагогик психология. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007.
2. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.: Фан, 1987– 2000.
3. Навоий А. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 256 б.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Metodik qo‘llanma. Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun. – T.: Bilim, 2003. – 144b.

O‘ZBEK VA QOZOQ YOR-YOR QO‘SHIQLARINING JANR TABIATI

Hulkar Aliqulova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi o‘rganilganda, albatta, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlariga ahamiyat qaratiladi. O‘zbek va qozoq to‘y marosimlarida o‘ziga xos ijro o‘rni hamda ijro usuliga ega bo‘lgan yor-yor qo‘shiqlari qiyosiy tipologik tahlil etilganda, yuqorida ta’kidlanganidek, umumiy va o‘ziga xos janriy xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Kalit so‘zlar: *jar-jar, yor-yor, qo‘shiq, an’ana, to‘y, marosim, qiyosiy tipologiya, tahlil, qiz ko‘chirish.*

“Yor-yor” eng qadimiy, qolaversa, kengroq ommalashgan qo‘shiqlardan biri bo‘lib, ijro jarayonining o‘zida millat ruhi, milliy dunyoqarashi, hayot tarzi namoyon bo‘ladi. Turkiy xalqlarning og‘zaki adabiyotida poetik jihatdan bir-biriga yaqin qo‘shiqlardan bo‘lgan yor-yorlardan namunalar tahlil etilganda, ularning ota ildizi bir ekanligi seziladi. O‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman yor-yorlaridagi xalqona ohang, badiiy izchillik, ritm hamda poetik ifodada o‘xshashliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbeklarda “yor-yor”, qozoqlarda “jar-jar” deb nomlanuvchi ushbu janr kelinni ota uyidan kuzatishda yoki kelinni kuyov uyiga olib kelingandan ijro etiladigan, har bayti “yor-yor” radifi bilan tugallanadigan, xalqning qalb qo‘rida yaralib, tildan tilga, dildan dilga ko‘chib ajdodlardan avlodlargacha yetib keladigan xalq qo‘shig‘i bo‘lib, o‘zining ta’sirchanligi hamda bir vaqtning o‘zida ham mungli, ham bayramona usulda, shodiyona kayfiyatdagi ijroning mujassam etilganligi bilan ilmiy ahamiyatga egadir.

O‘zbek to‘y marosimlarida “yor-yor”, asosan, kelinning yangalari va dugonalari tomonidan aytilgan. Ijro o‘rni esa, kelin qo‘shni uydan ota uyiga olib kelinayotgan vaqtda kuylangan (kelinni ota uyidan biror qo‘shni yoki qarindoshning uyiga ko‘chirib qo‘yib, so‘ngra “qizsoq (qizni vaqtincha saqlash)”, “qiz bazmi”, “qizlandi”

marosimi bo‘lgan). ”Keyinchalik, qo‘shiqning ijro o‘rni va mohiyati o‘zgarib borgan. Bu borada N. Qosimovning “Davrlar o‘tishi bilan nafaqat marosim folklori janrlar tizimida, balki undagi ayrim janrlar tabiatida o‘zgarishlar yasaydi. Ayrim janrlar mazmunida, ijro o‘rni va ijro tarzida muayyan kengayishlar vujudga keltiradi, ayrimlarida esa torayish chegaralari yuzaga keladi [Qosimov, 1998:129]”– degan fikriga ko‘ra, yor-yor qo‘shiqlari bugungi kunda nafaqat ijro o‘rni, ijro usuli hamda ijrochilari nuqtai nazaridan ham o‘zgarishga yuz tutgan.

Qozoq xalqining to‘y marosimlarida kuylanadigan “jar-jar” qo‘shig‘i, asosan, kelinning uyiga kelgan kuyov jo‘ralar va kelin yangalar tomonidan aytishuv shaklidagi javob qo‘shig‘i tarzida kuylangan. Bugungi kunda qozoqlarning to‘y marosimlarida ham “jar-jar” qo‘shig‘ining ijro o‘rni va ijrochilari o‘zgargan. V.V. Radlovning ta’kidiga ko‘ra, qozoq o‘lanlaridan biri bo‘lgan “jar-jar” qizning ota uyidan ko‘chirish vaqtida aytilgan bo‘lsa, kuzatishlarimiz natijasida, bugun ba’zi bir hududlarda kelinning uyida kuyov va kelin yangalar tomonidan ijro etilsa, ba’zi joylarda kelinni kuyovning xonadoniga keltirgan yangalar va kuyov yangalar aytishuvi tarzida kuylangan, zamonaviy holatda esa, kelin va kuyovni to‘yxonaga kutib olish hamda kuzatib qo‘yish uchun “jar-jar”lar aytilmoqda. Bu holatni o‘zbek to‘ylarida ham uchratamiz.

Afg‘oniston o‘zbeklari orasida nishonlanadigan nikoh to‘yida bu janr “Noy-noy” deb nomlanadi [Xudoyqulova, 2021:123]. Afg‘onistonda an’anaga ko‘ra, “noy-noy”lar asosan ayollar tomonidan ijro etiladigan marosim qo‘shig‘i sifatida ommalashgan.

Ko‘rinib turibdiki, “yor-yor” qo‘shiqlari turkiy xalqlarning o‘ziga xos urf-odatlarini, ijtimoiy turmush tarzini, an’analari bilan bog‘liq o‘y-fikrlarini, his-tuyg‘ularini real aks ettirishda yetakchi janr hisoblanadi.

Ayniqsa, nikoh to‘ylaridagi kelinni kuyov uyiga olib ketish marosimi yurtimizning har bir maskanida turlicha bo‘lsa, turkiy xalqlar: qoraqalpoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qozoq to‘ylarida umuman, o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Qolaversa, bu marosimda aytiladigan “laparlar”, “yor-yor”, “o‘lanlar” ham ma’no-mazmun jihatdan bir-birini to‘ldirsa-da, aytilish o‘rni, usuli, ijrochilarning kimligiga qarab farqlanadi.

Masalan, Buxoro viloyatida, asosan, “yor-yor, yoroni” qo‘shiqlari mavjud bo‘lib, uni ayollar ijro etishadi. Buxoro “yoron”larida kelin nomidan dard-alam, qayg‘u yoki quvonch, yangi hayot tashvishlari kuylansa, ba’zan kuyovning ko‘nglidagi o‘y-fikrlar ham aks etadi.

Qashqadaryo viloyatidagi “yor-yor”lar o‘zining xalqona sho‘xligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, ushbu vohadagi qiz uzatar kechasi o‘zgacha bo‘lib, kelin ota uyidan qo‘shni uyga ko‘chiriladi. Kuyov navkarlar kelganda, qiz-dugonalar, yangalar kelinni yor-yor aytib ota uyiga keltirishadi. Yor-yor aytuvchilar, asosan, kelin tomondan bo‘ladi.

Yor-yorlar nikoh marosimlari folklorida mustaqil janr sifatida o‘zining ijro o‘rni, ijro uslubi, kompozitsion belgilari bilan ajralib turadi. V.Y.Gusev yozganidek, “Folklor – avvalo yaratuvchilar va ijro etuvchilar uchun, keyin esa tomoshabin va tinglovchilar uchun mavjud bo‘lgan san’atdir. Folklorni borliqqa estetik munosabatini o‘rganishning ikkita asosiy yo‘li mavjud. Birinchisi, san’at asarlarini obyektiv analizi bo‘lsa, ikkinchisi esa shu san’at asarini ijrosi vaqtida ijro etuvchilar va xalq auditoriyasining reaksiyasini kuzatishdir” [Gusev, 1967: 80]. Nikoh marosimi aytimlari orasida yor-yorlar tinglovchilarning reaksiyasini yaqqol ko‘zga tashlanishini ta’minlashi bilan ham ajralib turadi. Bu janr namunalarini ijro etadigan ijrochilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi talab etilmaydi, balki uni to‘y marosimida o‘rni bilan (kuyovni kelinning uyiga olib borishda kuyov jo‘ralar, kelinni kuyov yoniga olib kelib chimildiqqa kiritishda kelin yangalar) istalgan ishtirokchi tomonidan ijro etiladi. Biroq bu ijrochilar maxsus professional tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi ham mumkin. Ijro uslubiga ko‘ra “yor-yor”lar doira jo‘rligida, ba’zan kuy-musiqa ishtirokisiz ham ohangdorlikda ijro etilaveradi. Yuqorida qayd etganimizdek, R.Nosirov tomonidan aytib o‘tilgan uslub, musiqiy ijroga xos uslub bo‘lib, bu Farg‘ona va Samarqand ijro yo‘li sanaladi.

Noxsho kuylashni sevgan qardosh uyg‘urlarning “yar-yar”, “yar sanam” deb nomlanuvchi qo‘shiqlarida ham qiz yoki yigitga madhiyalar o‘qilib, ularning yaxshi fazilatlari, odob-axloqi, bir-biriga munosibligi tilga olinadi.

N.N.Pantusov va S.F.Katanovlarning tashabbusi bilan to‘plangan uyg‘ur qo‘shiqlari yaru-yar qo‘shiqlari kelin ko‘chirishda ijro etilishi aytiladi. Uyg‘ur va o‘zbek yor-yorlari mantiqan mushtaraklik kasb etadi:

***Uyg‘urlarda*:**

Tog‘da toychoq kishnaydu,
Ot bo‘ldum dap yaru yar,
Uyda qizchaq jig‘laydu,
Yot bo‘ldum dap yaru yar [Boqiev, 1978:108].

***O‘zbeklarda*:**

Tog‘da toychoq kishnaydi,
Ot bo‘ldim deb, yor-yor.
Uyda kelin yig‘laydi,
Yot bo‘ldim deb yor-yor [Gulyor, 1967:150].

1980-yillarda uyg‘ur to‘y marosimlarida “yar-yar” qo‘shiqlarining ijro usuli “yar sanam”ga o‘zgarib, to‘y kuni yigit va qizlar tomonidan kuylangan, bu jarayonda qiz va yigitlarning bir-birlari bilan tanishib olish imkoniyati vujudga kelgan.

Atoqli turkolog P.A.Falyov qozoqlarning aynan “jar-jar” qo‘shiqlari haqidagi to‘xtalarkan: “Qozoqlarning og‘zaki ijodi bilan tanishish uchun Radlov «Образсы…” asarining III jildi yetarli ma’lumot beradi. Biz bu kitobda, asosan, to‘ylarda ijro etiladigan marosim qo‘shiqlarini uchratamiz. Kelinni tug‘ilib o‘sgan ovulidan kuyovning ovuliga qo‘shiq kuylab kuzatadilar. Kelinga, garchi sen ota-onangni, og‘a-ini va opa-singillaringni, boshqa qarindoshlaringni tashlab ketayotgan bo‘lsang-da, kuyovning ovulida senga yangi ota, yangi ona va qarindoshlar topiladi, deb tasalli beradilar. Bunga javoban kelin yangi ota-ona va qarindoshlar qanchalik yaxshi bo‘lsalar ham, ular o‘z ota-onam va tug‘ishganlarim o‘rnini bosa olmaydi, deb javob aytadi. “Jar-jar” degan naqorat bilan tugaydigan qo‘shiq misralarining vazni cho‘ziqroq bo‘ladi va aytilayotgan mazmunga muvofiq keladi:

Bir tolarsaq, bir tobuq sanda bolor, jar-jar!
Qырq qisining aqыlы qanda bolor, jar-jar!
Ekemey dep jilama, baygus qыzdar, jar-jar!
Ekeng ushun qayын ata onda bolor, jar-jar!

(Bitta boldir, bir to‘piq sonda bo‘lar, yor-yor!
Qirq kishining aqli xonda bo‘lar, yor-yor!
Otajon, deb yig‘lama, sho‘rlik qizlar, yor-yor!
Otang o‘rnida qaynota unda bo‘lar, yor-yor!)”

Yuqoridagi qiyosiy tahlilda turkiy xalqlar “Yor-yor” qo‘shiqlarida quyidagicha mushtaraklik ko‘zga tashlanadi:

1) yor-yorlarning kelin to‘yi marosimida ijro etilishi;
2) yor-yorlar yangalar tomonidan kelinni kuyovga topshirishda ijro etilishi;
3) qo‘shiq so‘ngida yor-yor radifining ishtirok etishi;

Yor-yor qo‘shiqlarining janr tabiati, ijro etilishi va ijro o‘rni yaxlit tizim ostida nazariy jihatdan hozirga qadar aniqlanmaganligi alohida aytib o‘tmoqchimiz. Yor-yor qo‘shiqlarida yorga murojaat, ijrochilarning tangriga murojaatlarini ifodalab keladi. Demak, qadimda нor-yorlar muqaddas nikoh marosimidagi magik aytim bo‘lgan va keyinchalik o‘z mifik vazifasi arsenalini kengaytirib, maishiy marosim aytimi sifatida mifopoetik, badiiy-estetik vazifa bajaradigan poetik matnga aylana borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqiev O. Uyg‘ur xalq lirik she’riyati. – Toshkent: Fan, 1978. – B.108.
2. Gusev V. Estetika folklora. – Leningrad. 1967. – B. 270.
3. Gulyor. Farg‘ona xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. – B. 248.
4. Qosimov N. O‘zbek xalq laparlari (genezisi va poetik tabiati). F.f.n. diss... –T, 1998. – B. 129.
5. Xudayqulova Z. Afg‘on o‘zbeklari to‘y marosimlarida “Noy-noy” janri. O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multimedia mahsulotini yaratish» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. – Namangan, 2021. – B. 123-127.

GRAFIK ORGANAYZER – INFOGRAFIKALAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Yusufjon Nabijanov
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada grafik organayzer tushunchasi va u bilan bog‘liq tahliliy ma’lumotlar, infografikalar va ulardan foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *grafik organayzer, interfaol ta’lim, infografikalar.*

Bugungi kunda hayotimizni yangi innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Yurtimiz ijtimoiy-ma’naviy, madaniy hayotining hamma sohalarida, shuningdek, ta’lim sohasida ham yangi-yangi innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalari kirib kelmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr, shu zamon bilan hamnafas bo‘lmagan o‘qituvchi-pedagog garchi o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lsa-da, pedagogik jarayonlar davomida ortda qolishi turgan gap.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng rivojlantirish maqsadida S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatovalarning 2020-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasi haqida ma’lumot berib o‘tiladi [Muhamedova, Abdullayeva va boshq, 2020].

Ushbu qo‘llanmaning faqat 49-sahifasidagina grafik organayzerlar haqida ma’lumot berib o‘tilib, quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Dars jarayonida o‘qituvchi grafik organayzerlarning tahliliy ma’lumotlarini ko‘rgazmali taqdim etish usul va vositalaridan foydalanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yib, so‘ngra ulardan samarali va unumli foydalanishni rejalashtirsa, har bir dars mazmunli, sifatli, xotiraga muhrlanib qoladigan darajada mavzularni oson

o‘zlashtirishga xizmat qilishi mumkin” [Muhamedova, Abdullayeva va boshq, 2020: 49]. Shuningdek, “T” sxemalari, “Toifalash”, “Konseptual xarita”, “Insert” jadvallar kabi grafik organayzerlar nomlari sanab o‘tilgan [Muhamedova, Abdullayeva va boshq, 2020: 49]. Ammo yuqorida keltirilgan ma’lumotlar grafik organayzerlarning xarakterini to‘la ochib bermaydi.

R.Sayfullayeva, M.Abuzalova hamda G.Toirovalar tomonidan hammualliflikda yozilgan “Sodda gap sintaksisini o‘qitishda innovatsiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmasida “…sodda gap qolipi va uning ichki turlari xususida nazariy fikr yuritilgan holda uni o‘qitishda ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, talabalar ongiga bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishda yangicha yondashish usullari, grafik organayzerlardan foydalanish xususida mulohaza yuritilgan” [Sayfullayeva va boshq, 2018: 3]. Shuningdek, ushbu qo‘llanmada “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqa chizmalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, joriy nazorat davomida qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim noodatiy ko‘rinishga ega bo‘lgan testlardan foydalanish mumkinligini yuqoridagi grafik organayzer orqali ko‘rsatib berilgan [Sayfullayeva va boshq, 2018: 54].

Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N.larning hammualliflikda yozilgan “Pedagogika nazariyasi va tarixi” nomli darslikda ta’limning interfaol metodlari, ana shu metodlarda o‘qitishning afzal tomonlari, interfaol ta’lim tushunchasi hamda uning “rolli o‘yinlar, “loyihali ta’lim” hamda “muammoli ta’lim” kabi turlarining mavjudligi haqida so‘z boradi [Mavlonova va boshq., 2010: 272], ammo hech qaysi sahifasida grafik organayzer atamasi ishlatilmaydi. Grafik organayzerning vizual tasviriy vosita ekanligini inobatga olib, aynan yuqorida nomi eslatib o‘tilgan darslikdagi o‘qitishning asosiy va muhim prinsiplaridan biri bo‘lgan ko‘rsatmalilik xususiyati va mezonlariga to‘la mos kelishini hisobga olsak, demak, ta’limning zamonaviy turlaridan biri hisoblangan grafik organayzerlarga o‘ziga xos ishora ketganligini fahmlash qiyin emas. Chunki aynan grafik organayzerlar ham aynan ko‘rsatmalilik xususiyatiga ega bo‘lishi bilan boshqa interfaol ta’lim tur va vositalaridan keskin ajralib turadi.

Ko‘pchilik interfaol metodlar safiga grafik organayzerlarni ham kiritishadi. Ammo shuni ajratib olish kerakki, interfaol ta’lim metodi, interfaol ta’lim strategiyasi hamda interfaol grafik organayzer – bular bir-biridan farqli tushunchalardir [Meliboyeva, 2020: 69]. Uni quyidagi chizma orqali ko‘rsatib beramiz:

1-chizma

Grafik organayzerlarning ko‘plab turlari bor. Hatto ayrimlari milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf ona tili darsligiga ham kiritildi.

Grafik organayzer turlaridan biri hisoblangan infografika haqidagi 6-sinf ona tili darsligining 70-sahifasida quyidagicha ta’rif berilganini ko‘rishimiz mumkin: “Infografika axborot va ma’lumotlarni uzatishning grafik usuli sanaladi” [Mavlonova va boshq., 2022: 70]. Shuningdek, infografika nimalardan tashkil topishini quyidagi chizma orqali ko‘rsatishimiz mumkin:

2-chizma

Infografika so‘zi ingliz tilidagi “graphics” hamda “information” so‘laridan olingan qo‘shma ot bo‘lib, “wikipedia”ga qidiruvga bersangiz, uning “ma’lumotni tez va aniq taqdim etishga mo‘ljallangan ma’lumotlar yoki bilimlarning grafik vizual tasviri” [https://en.wikipedia.org/wiki/Infographic] degan ma’nosi sharhlanadi.

Ushbu grafik organayzer turidan “matbuotda, jurnallarda, o‘quv adabiyotlarida, veb sahifalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa o‘rinlarda foydalanish” [Mavlonova va boshq., 2022: 70] mumkinligi haqida 6-sinf ona tili darsligining 70-sahifasidan o‘qiysiz.

Infografikada rasmlardan foydalanish natijasida o‘quvchiga kerakli ma’lumotlarni tez va oson, tushunarli holatda o‘quvchilarga yetkazish mumkin. Matnlarni infografikada ko‘rsatish orqali yorqin ifodalash natijasida ko‘rgazmalilikning ajoyib bir namunasini yaratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Infografikaning “ma’lumot beruvchi grafik dizayn” [https://giu.uz/e-resurs/malaka-oshirish/e-didaktika/infografika/] ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Bu esa ko‘ruvchilarni o‘ziga jalb etadi. Ularning e’tiborini tortadi. Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf ona tili darsligiga yana bir bor murojaat qilamiz. Ushbu darslikda quyidagi infografika berilgan [Mavlonova va boshq., 2022: 97]:

3-chizma

O‘quvchi yuqoridagi infografika orqali tasvirlangan “surat”ni kuzata turib iqtisodiyotga oid bo‘lgan tushunchalar – eksport va import so‘zlarining nima maqsadda qo‘llanayotganini ortiqcha izohlarsiz ham tushunib yeta oladi. O‘quvchi ushbu infografikada tasvirlangan holatni matnlar tarzida daftariga yozib olishi ham mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida ushbu “surat”dan kelib chiqib savollar ham berish mumkin bo‘ladi.

Ushbu grafik organayzer turi o‘quvchilardagi “obrazli tafakkur”ni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi, ularda kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, fanlararo integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’limda integratsiyani

amalga oshirish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi [https://interonconf.net/index.php/iat/article/download/211/171].

Dastlab infografikadan statistik ma’lumotlarni o‘zaro tahlil qilish maqsadida foydalanilgan. Masalan, Xalq ta’limi vazirligining uzedu.uz veb sahifasidagi “Statistika” bo‘limiga kirsangiz, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sonini quyidagi ustunli diagrammalar bilan ifodalanganini ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi:



3-chizma

Hatto maxsus dasturiy ta’minotlar ham infografikalarni hosil qila oladi. Masalan, Wondershare EdrawMax dasturi orqali infografikalarni yaratish mumkin. Buning uchun **“Design” (“Dizayn”) bo‘limidagi “Infographic” (“Infografika”) buyrug‘ini tanlanadi:**



4-chizma

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni sanab o‘tishimiz mumkin:

1. Grafik organayzerlar va ular tarkibiga kiruvchi infografikalar ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etishga asoslangan vizual tasviriy vositadir.
2. Rasmlardan keng va o‘rinli foydalanilgani uchun ko‘rgazmalilikning yorqin namunasini shakllantiradi.
3. Matnlar ko‘rinishida ifodalangan ma’lumotlarga qaraganda yana ham tezroq tahliliy ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratib beradi.
4. Nafaqat ta’lim sohasida, balki boshqa sohalarda ham bemalol foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamedova S. X., Abdullayeva M. D. va boshq. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Excellent poligraphy, 2020. – 264 b.
2. Sayfullayeva R., Abuzalova M. va boshq. Sodda gap sintaksisini o‘qitishda innovatsiyalar: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018. – 79 b.
3. Mavlonova K. M. va boshq. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 464 b.
5. Meliboyeva G. S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 200 b.

MATN USTIDA ISHLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Malika Jazilova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkillashtirish, o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish va lug‘at zaxirasi boy o‘quvchining tafakkur doirasi keng, nutqi ravon, o‘zaro munosabatlarda kirishuvchan bo‘lishiga undash alohida e’tiborga olingan. O‘quvchilarning

nutqini o‘stiradigan vositalardan biri bu – matn ustida ishlashdir. O‘quvchilarni matn ustida ishlashga qiziqtira olish fanni va o‘qilayotgan badiiy asarni yaxshiroq anglash va o‘zlashtirish, aqliy qobiliyati o‘sishi, bilim doirasining kengaytirish, o‘z fikrlarini mustaqil bayon etish va estetik zavq olish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *matn, badiiy matn, nutq o‘stirish, hamkorlik prinsipi, izchillik prinsipi, ilmiylik prinsipi, sarlavha, og‘zaki bayon.*

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stiradigan vositalardan biri bu – matn ustida ishlash hisoblanadi. Matn ustida ishlash yo‘llarini belgilashdan avval bu tushunchaning mazmun-mohiyati, tuzilishi, uning tarkibiy qismlari haqidagi nazariy jihatlarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Xususan, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da matn atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Matn – 1) yozilgan yoki bosilgan asar, nutq (shuningdek, ularning biror parchasi); 2) kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarda rasm, jadval. Bezaklardan tashqari qismi: rasmiy hujjat va shu kabilarning ulardagi turli ko‘rsatkich (sharh, izoh)lardan ajralib turgan qismi; 3) musiqa asarlari (opera, romans va b.)ga yozilgan so‘zlar [O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006: 301].

Matn ustida ishlash, avvalo, matnning o‘ziga xos xususiyatlari, uning nutq vositasi ekanligini bilish va shu orqali uning tuzilishi va mazmuni haqidagi bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Hozirgi vaqtda ta’lim oluvchilarning o‘z qarashlarini aniq, lo‘nda va ta’sirchan ifodalay olishlarida ularga shu bilimlar doirasida muayyan nazariy bilimlarni singdirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini ularning shaxsiy ishtirokiga ko‘ra mustaqillik, faollik va onglilik prinsiplari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash, fikrlarini erkin bayon etish, shaxsiy qarashlarini ifodalashlarida mustaqillik prinsipiga asoslanish ijobiy samara beradi. Tayyor bilimlarni o‘zlashtirish orqali emas, kuzatish orqali adabiy hodisalarni tadqiq etish va munosabat bildirish, tahlil qilish asosida mustaqil xulosalash va sintez qilishga yo‘naltirish o‘quvchilarda mustaqil fikrni shakllantiradi.

Adabiyot darslarida o‘quvchini ta’lim subyektiga aylantirish zaruratining dolzarbligi **hamkorlik prinsipi** talabalariga uyg‘unlikni taqozo etadi. Bunda o‘quvchilarning guruhlarda sujet chizig‘idagi tarkibiy qismlariga yuklangan vazifani o‘qituvchi bilan birgalikda hal etish, topshiriqlarni bajarishda jamoaning o‘zaro ijodiy munosabatlariga tayaniladi. Matn ustida hamkorlikda ishlash har bir o‘quvchidagi imkoniyatlarni ko‘rsatishga tegishlicha shart-sharoit yaratiladi. Zero, erishilgan har bir yutuq ta’lim oluvchilarni yangi marralar sari ruhlantirishi tajribalardan yaxshi ayon.

5–7-sinf o‘quvchilarini matn ustida ishlashga o‘rgatishda e’tibor qilinadigan asosiy prinsiplardan biri bu matnning **o‘quvchi yoshiga mosligi** hisoblanadi. Mazkur prinsipga ko‘ra matn ustida ishlashda soddadan murakkabga tomon tamoyili asosida nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirilganlarni aqliy imkoniyatlari darajasida amalga tatbiq etishdir. Albatta, matn ustida ishlashda ta’limning izchillik, ilmiylik, konsentrik prinsiplariga amal qilinadi.

Izchillik prinsipi matnga va uning qismlari orasidagi sarlavha topish, sarlavhalarni tavsiflashdagi murakkablashish holatlarini e’tiborga olish orqali rivojlantirilishi, matn qismlariga sarlavha qo‘yishdan matn rejasini tuzishga qadar nazarda tutilishi zarur. Matn qismlari asosida reja tuzish har bir qismdagi fikrni umumlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matndagi har bir unsur o‘zaro bog‘liqlikda izchil o‘rganilmog‘i muhim. Bunda matn tarkibiy elementlari bir-birini to‘ldirishiga, keyingi ma’lumotlar avvalgilarini taqozo etishida, shuningdek, muayyan darajadagi murakkablashuvida ham ifodalanadi. Masalan, matn qismlariga sarlavha topish yoki tanlash ko‘nikmasiga asoslanib reja tuzishga o‘rgatishda uzviylik ta’minlangan bo‘ladi. Bu jarayonni bir tushuncha ikkinchisidan kelib chiqishini, ya’ni uning davomiga aylanishini ko‘rish mumkin.

O‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish tashkiliy va mazmun jihatdan o‘ziga xos ravishda amalga oshiriladi. Dastlab matn ustidagi ishlarni samarali tashkillashtirish muhim sanaladi. Bunda **ilmiylik prinsipi** talabiga ko‘ra terminlar, izohlarni adabiyotshunoslik ilmiga xos yo‘sinda o‘rganish zarur bo‘ladi. Matn bilan ishlashda oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, xususiydan umumiyga kabi didaktik prinsiplar ko‘zda tutiladi.

Adabiy ta’lim mazmunida nutqiy ko‘nikma-malakalarni, tahlil kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirsh nazarda tutilar ekan, o‘quv dasturiga ko‘ra matn qismlari bo‘yicha o‘quvchilar quyidagilarni o‘zlashtirishlari maqsadga muvofiq:

1) matnnni mavzusiga ko‘ra farqlay bilish;

2) matnning mazmunan tugallangan qismlarga ajratish;

3) matn qismlariga sarlavha tanlash, undagi asosiy fikr, oxirgi xulosani belgilash;

4) matnning sujeti va kompozitsion qismlarini ajrata bilish, ularni matndan aniqlash usullarini o‘zlashtirish;

5) muallif maqsadi va asarda ilgari surilgan g‘oyani topish;

6) matnda qo‘llanilgan tasviriy-ifodaviy vositalarni aniqlash va h.k.

Matn ustida ishlashga oid adabiy ta’lim dasturida til sathlari qatori o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish hamda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq **o‘zaro bog‘liqlik** prinsipi turadi. O‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasi qanday rivojlanadi degan savolga ta’sirchan yaratilgan, estetik zavq uyg‘otadigan badiiy matnni o‘qishdan boshlashni qayd etish mumkin.

Matn asosida unga tegishli bo‘lgan tushunchalar ustidagi ishlar ancha vaqt talab qiladi. Bunda, asosan, matnning yangi mavzu ekanligi, yangi bo‘lmagan holda topshiriqlar muayyan shartlarda ifodalanishiga ko‘ra ta’lim metodlari va usullari tanlanadi. Xususan, 5-sinflarda adabiyot nazariyasiga doir tushunchalar o‘rganilar ekan, badiiy asarning qonuniyatlari kashf qilinishiga erishiladi. Matnning belgilari, asosan, yozma nutq bilan daxldorligi uchun ham uni o‘qish turlari, tahlil qilish usullari uning bir qancha xususiyatlari va qonuniyatlarining ochilishiga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida matnni o‘qish va topshiriqlarni bajarish jarayoni aksariyat hollarda o‘quvchilarda mavjud bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida matnning xususiyatlari, undagi asosiy fikr, muallif niyati kabilarni mustaqil holda chala yoki to‘liq o‘zlashtiradilar. Ularda to‘g‘ri xulosa shakllanishi uchun matnning tuzilish xususiyatiga ham o‘quvchilar diqqati yo‘naltirilishi zarur. Chunki, matnning qaysi jihati o‘quvchini qiziqtirib qolsa, unga ma’qul bo‘lsa u shu jihatga kuchliroq e’tibor

qiladi. Bu esa matn ustida ishlash o‘quvchilarning qiziqish va motivlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishi bilan o‘zining mo‘ljalini moslashtirishi muhim sanaladi.

Matn ustida ishlashning muhim jihatlari sifatida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, badiiy asarga qiziqtira olish va unga ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritib, yangi pedogogik texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Bunda dastlab, matn ustida ishlashdan oldin matnni turli xil usullarda o‘qitishga e’tibor qaratish lozimligi, o‘qish turlari va ularning xususiyatlari, o‘qishning adabiy ta’limdagi ahamiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Professor S.Matchonov to‘g‘ri qayd qilganidek, “O‘qish yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o‘zlashtirishga qaratilgan nutqi faoliyatning bir turi bo‘lib shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O‘qish jarayonida o‘qiganlarini tushunish o‘qish texnikasi bilan bog‘liq holda maqsad va manbaani anglatadi. Badiiy asarni o‘qish o‘zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi nimani o‘qish va o‘qiganini qanday tushunishdir. Demak kitobxonlik o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir” [Matchonov, 2020: 7–12].

Har bir insonning ma’naviy va moddiy to‘kislik sari intilishi, o‘zining shaxsiy fikriga ega bo‘lishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi uchun zarur va muhim xulosalarni chiqarish bilan ahamiyatlidir. Shu orqali inson ma’naviyatining yuksalishiga uning ezgu sifatlar bilan to‘yintirishda badiiy asarlarning o‘qitilishi muhim ahamiyatga ega.

Maktab o‘quvchilarini dars jarayoning haqiqiy ma’nodagi ijrochisiga aylantirish zarur. Bizningcha, bu kabi faoliyat ma’naviy barkamollikga yo‘l ochadi. Bu imkoniyatni adabiyot o‘qituvchisi bevosita badiiy asarlar orqali amalga oshira oladi. Chunki badiiy asar insonning tafakkuri, asar mazmunini ongli idrok etishi va uni tahlil qila olishi va ta’sir ko‘rsata olishi bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, har qanday badiiy asarda qisman yoki to‘liq tarzda ijtimoiy munosabatlar, turmush muammolari, inson tabiati va uning jamiyatga munosabatlari aks etadi. Badiiy asarda borliq, abadiyat, obrazlar vositasida tasvirlash, obektiv mazmun subektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Adabiy ta’limda badiiy asar ustida

ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

5–7-sinf o‘quvchilari badiiy matni tahlil qilishda axloqiy sifatlari ichki dunyosi, xarakteridan kelib chiqib turli xil fikr va xulosalarni berish mumkin, ya’ni qahramonning biror bir fazilatiga tayanib shaxsni baholaydi. Bu yoshdagi maktab o‘quvchilari orasida ko‘proq fikrini bayon etishida birozgina chalkashliklar bo‘lishi mumkin. Bu davrda ular darsda qo‘llaniladigan savol va topshiriqlarni bajarishdan qochadilar. Chunki darslikdagi ko‘plab badiiy matnlar savol va topshiriqlardan iborat. Bu bosqichda o‘quvchilar bilimlarini o‘ta maydalangan tayyor holda qabul qilib bajarishni xohlamaydilar. Ko‘proq mustaqil fikr aytish istagi seziladi. Shu orqali asta-sekin mustaqil fikrlash, qarashlarini dalillar orqali isbotlashga harakat qiladilar.

6–7-sinflarga o‘tib o‘quvchilarda mustaqillikning shakllanishi tobora ortib boradi. Bu yoshdagi bolalarda vaqtini tartib-intizomdan ko‘ra ko‘proq o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan narsalarga sarflashni yaxshi ko‘radi. Ya’ni har bir topshiriqni mustaqil bajarishga moyillik kuchli bo‘ladi. Bu davrda o‘quvchini avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantiradi. Shuning uchun darslarni matn ustida ishlashning turli usullaridan foydalanib tashkil qilish, ehtiyoj, moyillik va qiziqishlarini inobatga olib topshiriqlar tuzilsa o‘quvchilarda o‘z fikrini tushunarli bayon qilish malakasi tobora ortib boradi. Buni o‘qituvchi hayotiy misollar orqali tushuntirsa yoki darsliklarda bolalarning tabiat va yosh xususiyatlariga mos keladigan mantiqiy materiallar berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilayotgan savol va topshiriqlar biri ikkinchisiga o‘xshamaydigan tarzda bo‘lishi matn ustida ishlashga bo‘lgan xatti-harakatlarini faollashtiradi.

Adabiy ta’limda badiiy asar matni ustida ishlashning bir necha bosqichlari ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasi umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlikni shakllashtirishdan iborat. Bu davrda aynan o‘qish darslarida o‘quvchilarning yoshiga mos kichik-kichik matnlar berib boriladi. Boshlang‘ich sinfdan aynan matnlarda tushunarsiz so‘zlar alohida lug‘at tarzida umumlashtirib tushuntiriladi. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish vositalaridan biri

bu qayta hikoyalash va badiiy matnlar mazmunini tahlil qilish, tez, ongli va ifodali o‘qish malakasini shakllantirishdir.

Har qanday badiiy matn g‘oyaviy-tematik asoslari uning obrazlari, sujet chizig‘i, qurilishi va tasviriy vositalarini tushuntirish orqali o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishi va nutqining o‘sishini taminlaydi. O‘quvchi matn bilan tanishish va matn ustida ishlash orqali hayotiy tajribasiga tayanib asar mazmunini ongli idrok etishi va tahlil qilishi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Badiiy matn sinfda o‘quvchilar bilan birga o‘quv-biluv faoliyatini jadallashtiradi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Badiiy matnni tahlil qilishda uning hissiy ta’sirini ham inobatga olish zarur. Bunda dastlab o‘quvchilar nimaga e’tibor berishlari kerak? O‘qituvchi asarni o‘qiyayotganda o‘qib va eshitibgina qolmay, balki muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlana olishi, estetik didni shakllantira olish darajasiga yetkazib hikoya qilib berishi zarur. Badiiy matn ustida ishlashda muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o‘qituvchining diqqat markazida turadi. Bu esa o‘qituvchidan kasbiy sifatlari shakllangan bo‘lishini va o‘quvchilarining individual xususiyatlarini e’tiborga olib turli yondashuvlarni qo‘llashini talab qiladi.

Yana bir jihati, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. O‘qituvchi o‘sha voqealarga tarixiy yondasha olsagina asarga haqqoniy baho bera olishi mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va ijodiy qarashlari haqida o‘quvchilar yoshiga mos tarzda tushuntirib o‘tish maqsadga muvofiq. Keyinchalik yuqori sinflarga o‘tish jarayonida asarning g‘oyaviy tomonlarini tushuntirishga yo‘naltirish mumkin. Keyingi bosqich umumiy o‘rta ta’lim bosqichi 5–9-sinflarini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim doirasida bolalarning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirish maqsadida muayyan yo‘nalishlarda sport, tasviriy san’at, shuningdek ijtimoiy gumanitar va tarbiyaviy fan yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berila boshlaydi. Aynan adabiyot darslariga nazar tashlaydigan bo‘lsak bu yoshda hajmi kattaroq va mustaqil fikrlashga ko‘proq yondashilgan va ko‘nikmalarini rivojlantira oladigan tarbiyaviy ahamiyatiga ko‘proq e’tibor qaratilgan matnlar berila boshlaydi.

Matn ustida ishlash estetik tabiyaga ham yo‘naltirilgan bo‘lib, shu orqali “go‘zallikni his qilish, o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ishtimoiy mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, badiiy didini o‘stirish, go‘zallikga muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobilyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgani pedagogik jarayon” [Akramova, 2005: 13]. Bunga esa, albatta, badiiy asar matni ustidagi tizimli yondashuvlar orqali erishish mumkin. Badiiy asar matni ustida ishlash uni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Jarayonda asar ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Matn tahlilining muvaffaqiyati bevosita o‘quvchilarning diqqati, his-tuyg‘ulari, qiziqish va irodasiga aloqador bo‘ladi.

Matni ustida ishlashda, avvalo, o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatiga to‘xtalish maqsadga muvofiq. Bu munosabat o‘quvchilarning diqqati, his-tuyg‘u, qiziqish va materiallarni idrok etishga tayyorliklari va kuzatishlari bilan bog‘liqdir. Darsda o‘quvchilar diqqati tez-tez o‘zgarib turishi nazarda tutilsa, o‘qitish jarayonida bu qonuniyatlarni alohida etiborga olish, diqqatini materialning asosiy jihatiga jalb etish va takrorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolog E.G‘oziyevning ta’kidlashicha, “O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim o‘quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga harakat qiladi. O‘qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olishga ehtiyojni tug‘diradi va o‘qish motivlarini tarkib toptiradi” [G‘oziyev, 1994: 113].

Matn ustida ishlash emotsional jarayon. Agar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmasa, uni o‘quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik holatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida bormoqda. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o‘zlashtirib oladilar. Psixolog D.B.Elkoninning fikricha, “Bu bolani bir paytning o‘zida ham “yozuvchi”, ham muallif nuqtayi nazarini tushunish, matn vositasida ifodalangan boshqaning nuqtayi nazarini qabul qilishga qodir “kitobxon” sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi [Elkonin, 1999: 17–18].

Olib borilgan kuzatishlarda o‘quvchilar hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko‘rsatadi. O‘qituvchi bu jihatiga alohida e’tibor qaratishi kerak. O‘qituvchi o‘quv jarayonining emotsional tomoni haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozim. Ta’lim mazmuni kengayib murakkablashib borgan sari o‘zlashtirishga erishish uchun o‘quvchilarning o‘quv faoliyati kuchaytirilishi lozim. Bu esa o‘quvchilarning badiiy asar mutolaasiga nisbatan munosabatlari o‘zgarishiga, bilishga intilishlari kuchayishiga xizmat qiladi. Binobarin, qiziqish o‘quvchilarning emotsional bezagi, biror narsa-buyum, faoliyatni tanlashi va unga nisbatan munosabatining aks etishidir.

Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga faol munosabat namoyon bo‘ladi. Psixologiyada qiziqish – bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar – motivlardir [Akramova, 2005: 45].

O‘quvchilarni matn ustida ishlashga qiziqtira olish fanni va o‘qilayotgan badiiy asarni yaxshiroq anglash va o‘zlashtirish, aqliy qobiliyati o‘sishi, bilim doirasining kengaytirish, o‘z fikrlarini mustaqil bayon etish, estetik zavq olish va o‘qishdan chalg‘itadigan narsalar bilan shug‘ullanishidan saqlovchi vositadir. Berilgan badiiy asarning yoki materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga ham bog‘liqdir. Irodaviy faollik esa adabiy ta’limning zarur shartlaridan biridir. Adabiy ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilarda irodaviy o‘sish va bu orqali o‘quvchilarning kundalik rejimi o‘qish va vaqtini oqilona sarflashga o‘rgatadi.

Ayonki, 5-sinf o‘quvchilarida jismoniy, psixologik va ijtimoiy faollik ustun bo‘ladi. Qiziqishlarining yuqoriligi uning atrof-muhitdagi narsalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini bildirishga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchilar bevosita o‘qituvchiga

suyanadi. O‘quvchilar uchun esa o‘qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy shaxs hisoblanib bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga, hatto oila munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, adabiy ta’lim tizimida matn ustida ishlashga juda kam e’tibor beriladi. Matndan keyin berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlashga unchalik e’tibor qaratilmaydi. Lekin har qanday asarni san’at hodisasi sifatida qabul qilish zamirida matn ustida ishlashdek mashaqqatli ijodiy vazifa turadi. Yuqoridagi fikr va mulohazalar tavsiyalar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, badiiy asar matni ustida ishlash juda muhim bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Chunki har qanday asarning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish uning matni bilan tanishishdan, ya’ni o‘qishdan boshlanadi.

Badiiy asar ustida ishlashning asosiy bosqichi bu o‘quvchilarning matnni tushunib, ongli va ifodali o‘qishga, idrok etish va munosabat bildirishga tayyorlashdan iborat. Bu kabi tayyorgarlikning xarakteri dars maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni va u haqda o‘quvchilarning qay darajada tushunchaga egaligini aniqlashdan iborat. Asar matnini o‘qishga tayyorlashda dastlab ularni matn mavzusi, g‘oyaviy mazmuni va badiiyati bilan tanishtirish, shuningdek, matn mazmunidan zarur xulosa chiqarishga ahamiyat qaratiladi.

Xulosa qilganda, o‘quvchining matnni idrok qilish, mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan tanlangan yondashuvlar ularni mushohada yuritishga undashi, muallif qo‘llagan ibora, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini baholay olishi, nutqida badiiy bo‘yoqdor so‘zlarni samarali qo‘llashni o‘rgatishga yo‘naltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамова Ф.А., Лутфуллаева Н.Х., Хайдарова Х.Р. Педагогик психология. – Тошкент: ТДИУ, 2005. – 134 b.
2. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. – Москва: Педагогика, 1999. – 218 с.
3. Matchonov S. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg‘unligi // Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent, 2020. – № 7. – B. 7–12.

4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. М ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 301-b.
5. Ғозиев Э. Психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 352 б.
6. www.ziyouz.com

XOJA HIKOYATLARIDA ADOLATPARVARLIK G‘OYALARI TALQINI

Dilafruz Nazarova
ToshDO‘TAU o‘qituvchi
ndilafruz476@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sayid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” asarlarida adolatparvarlik g‘oyalari yo‘g‘rilgan hikoyatlari tahlil etildi. Adib hikoyatlarida adolatparvarlik mavzusi o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘lib, bu insonlarga axloqiy va ma’naviy oziq beradi. Har ikkala asar o‘zbek adabiyoti va Sharq adabiyotida an’ana tusiga kirgan pand-nasihat ruhida yozilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: hikoyat, insonparvarlik, adolatparvarlik, didaktika, o‘ziga xoslik, an’ana, badiiy mahorat.

Hikoyatga musulmon Sharqi adabiyotidagi o‘ziga xos bir adabiy hodisa sifatida qaraladi, – deydi R. Jumayev o‘z tadqiqotida. U voqeabandlikka asoslanishini, muayyan asar tarkibida kelishini ta’kidlab, “hikoyat” istilohini hozirgi ma’nodagi “hikoya” atamasi bilan bir xil tushuncha deb hisoblamaslik kerakligini aytadi [Jumayev, 2018: 11-12]. Hikoya mustaqil adabiy janr, ya’ni: “badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar”ni anglatadi [O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005: 330]. Biroq uning yuzaga kelishida hikoyatlarning sezilarli o‘rni va ta’siri bor. Boshqacha aytganda, hikoya – hikoyatning ravnaqi natijasida yuzaga kelgan janr. Chunki hikoyatda ham, xuddi hikoyadagi kabi, nisbatan kichik bir voqelik tasvir va bayon obyekti

qilib olinadi. Adabiyotshunoslikda hikoya janri keng o‘rganilgan. Biroq forsiy va turkiy adabiyotdagi hikoyat xususiyatlari o‘rganilgan tadqiqotlar u qadar ko‘p emas [G‘anixo‘jayeva, 1967: 20–23]. Shu nuqtayi nazardan hikoyat janrining adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir.

XV asrning oxiri va XVI asrlarda yashab ijod etgan Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja o‘zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy masalalarni o‘ziga xos tarzda aks ettirgan kichik hikoyatlar muallifi sifatida mashhurdir. Podshoxoja Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ so‘z ustalarining an’analarini davom ettirib, kichik hajmli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy ruhdagi hikoyatlarini “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida keltirib o‘tadi.

Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari XI asrdan o‘ziga xos an’ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir, – deya e’tirof etadi, – R.Vohidov [Vohidov, 2006: 514].

Adibning “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida adolat bilan ish ko‘rganlar faoliyati madh etiladi. Aksincha ish yuritganlar xatti-harakatlari qoralanadi. Ayniqsa, adib Iskandar va No‘shiravon kabi an’anaviy obrazlarni adolat timsoli sifatida ulug‘lashga harakat qilgan. Bu obrazlar ishtirokidagi hikoyatlarida yurt boshqaruvchilarining adolat, odillik, to‘g‘rilik bilan ish ko‘rishi oddiy xalq osoyishtaligi, farovon yashashining garovi ekanligini ko‘rsatib, hokimiyat tepasida turgan u xoh shoh bo‘lsin, xoh vazir adolat bilan ish tutishi lozimligini uqtiradi. Adib hikoyalarida adolat masalasi birinchi o‘rinda turadi. Muallif adolat tushunchasini turli jihatlardan yoritishga harakat qiladi. “Podshoh va zohid”, “Mahmud G‘aznaviy va boyqush”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy, vazir va Ayoz”, “Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid”, “Sulaymon, pashsha va el” kabi hikoyatlarida bosh g‘oya sifatida adolat masalasi qo‘yilgan. “Podshoh va zohid” hikoyatida Zohid bir soatlik adolatga 20 martalik haj savobini almashtirishga tayyorligini aytadi. Podshohxoja hikoyalari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir. Ularning zamiriga chuqur insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolatparvarlik g‘oyalari singdirilganligi bilan hozirgi kunda eskirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq sujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o‘zining axloqiy-

didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo‘qotmagan. Ular bugun va kelajak uchun birday xizmat qiladi.

Podshohxoja asarlaridagi hikoyatlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy mazmun kasb etgan. Birgina Iskandar Zulqarnayn obrazi ishtirok etgan hikoyatlarida Iskandarning shaxsiy fazilatlari, odilligi, axloqiy sifatlari ochib beriladi. Xojaning Iskandar obrazi ishtirok etgan “Ajoyib shahar” hikoyatida berilishishicha, bir viloyat hokimining odilligi va yurtining ma’murligi Iskandani hayratlantiradi. Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga boradi. Borgan erida suruv-suruv qo‘ylar bo‘lib, cho‘poni yo‘q ekan, suruv-suruv tuyalari yuribdi, sarboni yo‘q ekan, suruv-suruv yilqilari yuribdi, otboqari (yilqiboni) yo‘q ekan. Barcha qo‘ylar, tuyalar, otlar soni bir xil ekan, ortiq yo kami yo‘q ekan. Yana mevalari pishib yotgan bog‘lari bor ekan-u, bog‘boni yo‘q ekan. Iskandarning lashkarlaridan qaysiki moli yoki mevasini esa xasta bo‘libdi. Iskandar bu holni ko‘rgach, hech kim bu mollar va mevalardan olmasin deb hukm qilibdi. Keyin bir kishini bu viloyatning shahariga yuborib, qanday ekanligini bilib kel debdi. U kishi shaharga bordi, shahar bozori orasta, har narsasi mo‘l, do‘konlari faravon, ammo egasi yo‘q ekan. Hayron bo‘lib yurgan edi, nogoh oldidan bir kishi chiqdi. U kishidan so‘rab bildi. Iskandarning kelganini ularga bildirdi. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan juda ajablandi. Iskandar ulardan so‘radi: bu ne ajoyib holki, sizlarning mollaringizning qarovchisi yo‘qdir va yana barcha mollaringiz bir-biridan kam emas, kimki molingizdan, mevangizdan olsa, darhol xasta bo‘lmoqda. Buni menga ma’lum qiling dedi. Shunda u viloyatning podshohi: “Bizning oramizda biror kishi muflis (qashshoq) bo‘lsa, barimiz yig‘ilib ul kishiga mol jam qilib, ul kishini mol va amvol va jamiyatda o‘zlarimiz birlan barobar qilurmiz. Ul jihatdin bizning oramizda o‘g‘ri va avbosh bo‘lmas”, – debdi [Podshoxoja, 1962: 43-45]. Iskandar bu tartibli viloyatdan bag‘oyat shod va mamnun bo‘libdi. Iskandar Zulqanayn adolati bilan dong taratgan podshoh bo‘lsa-da, bu viloyatning boshlig‘i bu borada undan-da tajribaliroq bo‘lib chiqibdi.

Adib mulkning ma’murligi, xalqning saodati hukmdorga bog‘liqligini keltirilgan ixcham hikoyatda badiiy tasvir etgan. Podshoh, yurt boshqaruvchisi bilan xalqning bir-birini yaxshi

tushunishi, bir-biridan xabardor bo‘lib, ularning o‘zaro bahamjihatliligi porloq kelajakning poydevori bo‘lsa, noahilligi esa mamlakatni vayron etib, xalq boshiga turli musibatlar keltirishi haqiqatdir.

Iskandar Zulqarnayn obrazi Podshohxojadan oldin yashb ijod etgan bir qator ijodkorlar ijodida ham uchraydi. Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar ijodida Iskandar Zulqarnayn adolatli shoh timsoli sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hikoyatda esa Iskandar Zulqarnayndan ham odil yurt boshqaruvchisi bor ekanligini ko‘rsatgan. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarida Iskandar Zulqarnayn haqidagi bir hikoyatida: Iskandardan so‘radilar: “G‘arbu Sharqdagi mamalakatlarni nima bilan zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasi, yoshi, lashkari senikidan ortiq bo‘lsa-da, bunday fotihlik ularga nasib bo‘lmagandi”. Iskandar dedi: “Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarining nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim” [Sa’diy, 2021: 55.]. Sa’diy ham Iskandarning adolat bilan ish yuritganligini e’tirof etmoqda. V.Zohidov, M.Mirzaahmedovalar ta’kidlaganlaridek, Xojaning “Gulzor” asari Sa’diyning “Guliston” asari yo‘nalishida yozilgan. “Guliston” asaridagi hikoyatlar singari Podshohxoja asarlarida ham ixcham hikoyat keltiriladi, xulosa qismini esa she’riy parcha bilan yakunlaydi.

Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g‘oyalarini to‘liq yoritish maqsadida odil, insofli shohlar bilan birgalikda ularga qarama-qarshi obraz sifatida o‘g‘ri, xalq mulkini o‘maradigan, shoh xazinasini talon-taroj qiladigan bek, vazir, amaldorlarni qo‘yadi. Mazkur hikoyatlarda adibning adolatparvarlik g‘oyalari, ularga bo‘lgan munosabati, zulm qiluvchilarga nisbatan qahr-u g‘azabi o‘z ifodasini topgan. Shunday hikoyatlaridan biri “Mihtohul-adl” asaridan o‘rin olgan “Bahromgo‘r va cho‘pon” haqidagi hikoyatdir.

Mazkur asarni o‘n besh bobga ajratgan M.Mirzaahmedova “Xoja” nomli monografiyasida ikkinchi bobi (“Odil sultonlarning bayonin qilur”)da adolatli shohlarga xos xususiyatlar haqida Xoja o‘z tushunchalarini berib o‘tganligini qayd etadi [Mirzaahmedova, 1975: 56]. Fikrimizcha, shoh o‘ta odil bo‘lishi bilan birga juda hushyor turmog‘i, atrofidagilarini nazorat qilishi lozim bo‘ladi.

Hikoyatda aytilishicha, bir Bahromgo‘r degan podshoh bo‘lib, u ov qilishga, may ichishga, maishatga berilib ketib, davlat ishlarini vaziri Rostravshanga topshirib qo‘yadi. Bundan foydalangan vaziri o‘z manfaati yo‘lida xalqni ko‘p azoblaydi. Natijada shaharlar xarobaga aylanib, xalq mamlakatni tashlab keta boshlaydi. Kunlardan bir kuni podshoh qo‘l ostidagi beklaridan biri isyon qilayotgani haqida xabar topadi. Uni bostirish uchun urushga hozirlik ko‘rmoqchi bo‘ladi. Ammo askarlari tarqab ketganini, xazinasi bo‘shab qolganini ko‘radi. Hayron bo‘lib, bor askarlar-u, qurol-aslahalarini yig‘ib, dashtga chiqib ketadi. Yo‘l yurib suvsagan shoh uzoqdan bir chodirni ko‘radi va chodirga boradi. U chodir eshigida bir itning osilib turganini ko‘radi. Shoh chodirdan chiqqan kishidan kimligini so‘raydi. U kishi cho‘ponligini aytadi. Suv ichib bo‘lgach, shoh bu itni nima uchun osib qo‘yganini so‘raydi. Cho‘pon shohga sababini tushuntiradi: “Bu it maning itim erdi, qo‘ylarimni boqar erdi, erta birla o‘tga olib borur erdi, kechalari qo‘noqqa olib kelur erdi. Bir kun qo‘ylarimni sanadim, ersa kam keldi, taqi ikkilamchi kuni ham sanadim, yana eksuk keldi...” Tush vaqtida qo‘ylaridan xabar olgani kelgan cho‘pon bo‘ri qo‘ylarini bo‘g‘izlayotganini ko‘radi. Itini chaqirisa ham qaramaganidan, o‘rnidan turmagandan jahli chiqib, qo‘ylarini uyiga olib keladi va xiyonat qilgani uchun itini osib o‘ldirganini va uni ko‘rib o‘zga itlar xiyonat qilmasliklari uchun dorga osib qo‘yganini aytadi. Mumtoz adabiyotimizda it obrazi vafo, sadoqat timsoli sifatida keltirilgan bo‘lib, bu hikoyatda hiyonatkor obraz sifatida keltiriladi. Adib bu hikoyati orqali hiyonatning jazosi o‘lim ekanligini ko‘rsatgan. Bunda ijodkorning an’anaviy obrazdan chekingan holda noan’anaviy ijodiy yangiligini ko‘rishimiz mumkin.

Hikoyatdan bilsa bo‘ladiki, yurtda adolat o‘rnatishning yaxshi yo‘li odil shoh orqali amalga oshiriladi, ya’ni adolatli shoh o‘z faoliyati bilan fuqarolariga o‘rnak bo‘lsa, uning atrofidagi kishilar ham adolatli bo‘lishga harakat qiladi, aksi bo‘lsa, yomon oqibatlarga olib keladi. Hikoyat mazmunidan bilsa bo‘ladiki, adolat qaror topishi uchun bir qancha sabab va oqibatlar to‘g‘ri hal etilishi lozim. Chunki mamlakatda zulmning kuchayishiga, xalq hayotining izdan chiqishiga asosiy sabab shohning o‘z yurtiga bee’tiborligida ko‘rinadi. Shuning uchun ham Xoja shoh mamlakat va xalqi haqida qayg‘ursa, uning gullab-yashnashi uchun harakat qilsa, xalq orasida

obro‘si oshishini, mamlakati gullab yashnashini, shohlik mas’uliyatini unutib, el dardi bilan yashamasa, ular uchun qayg‘urmasa, yomon oqibatlarga olib kelishini bir hikoyat misolida isbotlab beradi. Shoh odil va adolatli bo‘lishi bilan birga, xalqining osoyishtaligi uchun hushyor bo‘lishi hamda qo‘l ostidagi vazur-u beklarni nazorat qilib turishi ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. Buni yuqoridagi hikoyatdan olingan quyidagi satrlarda ko‘rishimiz mumkin: “Emdi sulton yo bek bo‘lg‘on kishi vazirig‘a ishonib g‘ofil bo‘lmoq kerakmas. Va yana podshoh yo bek bo‘lg‘on kishi bir navkarin bir shaharga beklikni yuborsa, yashirin va yana bir g‘arazsiz kishini ortincha yubormak kerak, adl qilurmi yo zulm qilurmi...” [Mirzaahmedova, 1975: 18.].

“No‘shiravoni odil va Hakim” deb shartli nomlangan quyidagi hikoyat ham benihoyat ibratlidir. No‘shiravoni odil adolat masalasida barcha beklari va hakimlarini yig‘ib, raiyat, ya’ni xalq bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida yig‘ilganida, beklari aytadilar: Agar ulug‘ podshoh bo‘laman desang, xalqdan olinadigan soliqni ko‘paytirib, qo‘shinni mustahkamlash kerak. Donishmand Abuzarjumhur esa, beklar, sizlar xato yo‘ldasizlar, bu yo‘l bilan yurtni ham, davlatni ham xonavayron qilasizlar. Bu yo‘l bilan xalqqa zulm qilib, bir-ikki yil soliq yig‘ib, navkarlarga berarsizlar, keyinchi? Kimdan nimani olasizlar? ...

Xoja hikoyatlarida insoniylik, halollik, adolat, saxovat, ogohlik, soflik kabi go‘zal fazilatlarni tasvirlaydi. Ammo uning zamirida teran hayotiy ibrat, saboq mujassamlantiriladi [Jumaxo‘ja, Adizova, 2020: 126.]. Darhaqiqat, Xojaning adolat haqidagi qarashlarini uning “Sulton Mahmud G‘aznaviy va darvesh”, “No‘shiravon, kampir, Ozarbayjon begi”, “Sulton Malik va kampir”, “Iskandar va Chin haqoni”, “Sulton Mahmud va tolibi ilm” va boshqa hikoyatlarida o‘z aksini topgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g‘oyalari o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘lib, bu g‘oya insonlarga axloqiy va ma’naviy oziq beradi. Xoja xalqning yaxshi hayotga erishishini istadi, buning uchun esa xalq orasida adolatparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari yuksak o‘rinda turishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi. Shoh va uning amaldorlarini adolatli bo‘lishga, xalqqa zulm o‘tkazmaslikka chaqirdi, fuqarolar holidan

xabardor bo‘lib turishga undadi. Xoja hikoyatlari har jihatdan kitobxonni ezgulikka, adolatparvar bo‘lishga chorlaydi, kitobxonga ma’naviy ozuqa beradi. Adib asarlarida ifodalangan adolatparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bugungi kun uchun ham ibratli, ham dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жумаев Р. “Маснавийи маънавий” ва “Лисон ут-тайр” даги ҳикоятларнинг қиёсий таҳлили. Ф.ф.д. (Phd) дисс.автореферати. –Самарқанд. 2018. – Б. 45.
2. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi). Darslik. Ikkinchi nashr. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – B. 518.
3. Мирзааҳмедова М. Хожа. – Т.: Фан. 1975. – Б. 134.
4. Подшохожа. “Мифтоҳул-адл” ва “Гулзор” дан. – Т.: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти. 1962. – Б. 55.
5. Саъдий Шерозий. Гулистон. Бўстон: тўплам. – Т. : Ғафур Ғулом. 2021. – Б. 264 .
6. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (энг қадимги даврлардан XVI аср охиригача) Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2006. – Б. 528.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 608.
8. Ғанихўжаева Н. Навоий ҳикоятларининг асосий манбалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – № 4. – Б. 20–23.

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA FANTASTIK ASARLAR O‘RGANILISHINING AHAMIYATI

Surayyo Inomjonova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotida fantastik asarlarni o‘rganilishining ahamiyati, o‘zbek bolalar adabiyotida yaratilgan fantastik asarlar va ularda ilgari surilgan g‘oyalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *sarguzasht fantastika, ilmiy fantastika, gumanizm, milliy ruh, fantastik element, ilm-fan, kashfiyot, mezon, mumtoz adabiyot, jadid davri adabiyoti, bolalar adabiyoti.*

Bolalar uchun tavsiya etiladigan asarlar o‘zining mavzu ko‘lamining kengligi va bolalar tasavvurini yorita olishi kerak. Ana shunday asarlar sarasiga fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlarni kiritishimiz mumkin. Fantastika yo‘nalishida yaratilgan asarlar bolada keng tasavvurlar qoldirishi, uni yaratuvchanlik ruhida tarbiyalashga, o‘qish va izlanishga harakat qilishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Fantastikaning kelib chiqishini eng qadimgi afsonalarda uchratamiz. Oy va Quyoshning paydo bo‘lishi, qadimgi jonzotlar, o‘simliklarning paydo bo‘lishi kabi. Eng qadimiy kosmogonik afsonalar xayoliy yaratilgan. Insonlarning yer va tabiat haqidagi dastlabki xayoliy tasavvurlaridan kelib chiqqan. Undan keyingi o‘rinda folklorda sehrli ertaklar va xalq dostonlarida fantastikaning dastlabki elementlarini uchratamiz.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining rivojlanishi, ularda fantastik elementlarning ta’siri orqali o‘zbek mumtoz adabiyotida ham fantastik tasvir yuzaga keldi. Bunday tasvir vositalarini ko‘plab mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlarida uchratishimiz mumkin. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Xorazmiy “Muhabbatnoma”sida, A.Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarini keltirishimiz mumkin.

Jadid davri adabiyoti va milliy uyg‘onish davrida ham fantastik elementlarga murojaat qilinadi. 1921-yilda yaratilgan Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasi fantastik elementlarga yo‘g‘rilgani bilan ahamiyatlidir. Bu hikoya milliy uyg‘onish davrida birinchi bo‘lib fantastik epizodlarga yo‘g‘rilgani bilan ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan e’tirof etib kelinadi. Hikoya yosh Abdulla tomonidan bayon qilinadi. Unda yozuvchi otasi O‘sar akaning juda jiddiy va qattiqqo‘l odam ekanini hikoya boshida aytib o‘tadi. Otasining bo‘g‘dan kech qaytayotganda yo‘lda bo‘lib o‘tgan voqeani gapirib berishi Abdullada kuchli hayajon uyg‘otadi.

Jadid davri adabiyotida fantastik tasvirlarni Fitratning “Qiyomat”, “Zayid va Zaynab”, “Shaytonning tangriga isyoni”, G‘ayratiyning “Dovdirash”, M.Shermuhammedovning “Befarzand Ochildiboy” kabi asarlarida uchratishimiz mumkin.

Jahon adabiyotida yaratilgan ilmiy fantastik asarlar boshqa xalqlar milliy adabiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ularga taqlid sifatida ko‘plab ilmiy fantastik asarlar yaratila boshladi. 1977-yilda “Fan va turmush” jurnali qoshida o‘zbek fantast yozuvchilarining kengashi tuzildi. Bu davrda o‘zbek fantastik adabiyoti qiyoslab o‘rganish bosqichida edi. Tohir Malikning “Qora farishta” asari Aleksandr Belyayevning “Odam -amfibiya” , “Professor Douelning boshi” asarlariga o‘xshab ketishi ro‘kach qilinib, tanqid ostiga olindi. Bu esa endigina yuzaga kelayotgan o‘zbek fantastikasining ildiziga bolta urishdek holat bo‘lgan edi. Shunga qaramay ko‘plab fantast yozuvchilarimiz bu yo‘nalishda ijod qildilar. T.Malik “Falak”, “Somon yo‘li elchilari” qissalarini yaratdi. M.Mahmudovning “Men-men emas” hikoyasi fantastika yo‘nalishida yozildi. H.Shayxov fantastikaning rivojiga munosib hissa qo‘sha oldi. “Olmos jilosi” deb nomlangan qissalar to‘plamiga fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlarini to‘plab kiritdi. 1980-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida fantastika seksiyasi ish olib bordi.

Mustaqillik davrida ham fantastika yo‘nalishi e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Sh.Xolmirzayevning “Dinozavr”, Abbos Saidning “Besh kunlik dunyo”, Shoyim Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy”, Omon Muxtorning “Ffu”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, Erkin Samandarning “Tangri qudug‘i” asarlari ko‘plab jurnallarda e’lon

qilindi va keng kitobxonlar ommasi, adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilindi.

H.Shayxov, Tohir Malik, Mahkam Mahmudov, Murod Xidir, Abror Qosimov kabi ijodkorlar o‘zbek fantastikasiga hissa qo‘shgan bo‘lsalar, ular bilan bir qatorda Rustam Obidov, Ozod Mo‘minov, Abduhakim Fozilov, Qudrat Do‘stmuhamedov, Abdurahmon Karimov, Muxtor Xonxo‘jayev, Hasan va Husan Tursunovlar, Obid Yusupov, Sohiba Abdullayeva, Mavluda Ibrohimova, Fazilat Hojiqulova, Muhabbat Yo‘ldosheva, Go‘zal Maqsudova kabi fantast yozuvchilar o‘zbek fantastikasini yangi bosqichga olib chiqdilar.

O‘zbek bolalar fantastikasi deganda birinchi navbatda kitobxon ko‘z oldida Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon siymolari gavdalanadi. Sevimli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastika yo‘nalishini boshlab berdi. Uning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Qasoskorning oltin boshi” asarlari boshdan oyoq fantastik motivlardan iborat.

“Sariq devni minib” sarguzasht-fantastik asarda kattalar tomonidan to‘qilgan yolg‘onga bolalarcha ishonish va ertaklardagi devlar haqida bolalarcha tasavvurlar paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Hoshimjonning tilidan aytilgan Sora xola bilan bo‘lib o‘tgan suhbatni eslash kifoya. Devlar goh qanot chiqarib qushdek uchishi, goh shamoldek guvullashi, goh suv bo‘lib shildirashi, goh odamga o‘xshab ko‘rinib qolishi yosh Hoshimjonda qo‘rquv uyg‘otadi. Shunday bo‘lsa-da, u sariq dev bilan olishishga qaror qiladi. Sariq dev bilan olishishda ham, Uzunquloq ota qabri yonidan chiqqan ilonni yengishda ham Hoshimjonga sehrli qalpoqchasi yordam beradi. Sehrli qalpoqcha yordamida u qahramonliklar ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi. Yong‘oq qorining ovga chiqqanda bexosdan kasal bo‘lishi va sehrli qalpoqchaning maslahati bilan Hoshimjon uni davolagani, Uzunquloq pirimning hokini ko‘chirish uchun Danak qorini ko‘ndirishda ham sehrli qalpoqchasidan foydalanadi. Uzunquloq pirim qabrini ochayotganda yana bir voqea – bir yuz qirq yoshli Qobil boboning tashrifi ham asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Bu yerda yozuvchi fantastik usullardan ishonarli tarzda foydalanadi.

“Shirin qovunlar mamlakati”da esa yozuvchi qahramonni o‘zgartiradi. Asar qahramoni Akbarjon xayolida eshagi vertolyotga

aylanib qolsa-yu, o‘ng qulog‘ini burasa osmonlarga ko‘tarilib olis-olis ellarga sayohat qilishni orzu qiladi. Jar tubidagi ulkan chinorlarga oqurug‘ qovunlardan payvand qilib tandirdek keladigan qovunlar yetishtirishni orzu qiladi. Aksiga olganday yoz kunlarida eshakning ustini qora dog‘ bosib ketadi. Doktorga olib borsa, eshak yag‘ir bo‘lgan ekan. Doktor yag‘irga yong‘oqni chaynab bossa yara tez tuzalishini aytadi. Akbarjon doktor aytganday yaraga yong‘oq chaynab bosadi. Hammasi mana shundan keyin boshlanadi. Ertalab uyg‘onganda eshakning ustidan yong‘oq o‘sib chiqadi. Shig‘il meva tukkan yong‘oqqa tosh otsa hamki mevalar yerga tushmaydi. Ustiga chiqib ko‘rsa-ki, pastda ikki paykal yer paydo bo‘lib, suvlar oqib yotganini ko‘radi. Hayajondan terlab ketib terlarini artmoqchi bo‘lib ro‘molchasini olmoqchi bo‘lganida yerga ikki dona qovun urug‘i tushib ketadi. Palaklar yetti metrga yetganda qovunchalar tuga boshlardi. Qovunlar pishgach, eng kichkinasi yuz litr suv sig‘adigan bochkaday keladi. Yozuvchi bolalarning o‘y-xayollarini shunday fantastik yo‘l bilan tasvirlaydiki, asardagi har bir voqea bolalarni xayolan ertaklar mamlakatiga tushib qolganday his etishga xizmat qiladi. Akbarjon Tarvuz shahriga borib qolganda o‘quvchining ko‘z oldiga Gulliverning mitti odamchalar yurtiga tushib qolgandagi holati namoyon bo‘lishi tabiiy.

Akbarjonning sehrli qovun ichiga tushib parvoz qilishi bilan bog‘liq voqeada esa insonlarning ibtidoiy davrdan to bugungi kungacha insonlarning qushlar kabi ucha olishlari haqidagi tasavvurlari biroz boshqacha tarzda ifodalanadi. “Odam bolasining qo‘llari zarur bo‘lgnda qanotga aylanar, oyoqlari esa birlashib, yaxlit bir dum holiga kelarkan”.

Handalak shahriga ketayotgandagi asfalt yo‘l tasviri ham asarni fantastik elementlar bilan yana boyitadi. Asfalt xuddi oynaga o‘xshaydi, engashib sochingizni ham tarab olishingiz mumkinligi aytiladi. Asfalt tiniqligidan, qarasa aksi ko‘rinishi kitobxonda ajib tasavvur uyg‘otadi. Bu yerda yozuvchi biroz ilmiy fantastikaga ham yo‘l ochganini ko‘ramiz.

Akbar Akbariyning “Inson” institutiga borib, u yerda qon tahlili bilan shug‘ullanuvchi laboratoriyada shishachalardagi qonlarni u xonadan bu xonaga tashiyotganda qonlarni hidiga qarab ajrata boshlaydi. “Laboratoriya xodimlari qoq ikki guruhga bo‘linishgan.

Bir guruhi, hali aytganimday, illat tashuvchi qonlarni tekshiradi. Boshqasi yaxshilik tashuvchi qonlarni o‘rganadi” [To‘xtaboyev, 2019:100]. Akbar esa bu qonlarni hidiga qarab ajratadi. Yaxshi odamlarning qonidan tabiatdagi mayin, odamga rohat beruvchi gullarning, o‘simliklarning ifori taraladi.

Yomon illatli kishilarni tabiatdagi mana shu qonlardan kelayotgan yoqimli hidlar bilan davolash mumkinligi haqidagi g‘oya Akbariyni xayolini qurshab oladi. Bundan ham zo‘r kashfiyot keyin sodir bo‘ladi. O‘n yetti xil illatli qonlarni katta shisha idishga solib, ustidan yarim litr spirt quyilishi oqibatida esa sehrgar iblis dunyoga keladi. Bu voqealar qaysidir ma’noda chet el fantastik kinolarida uchraydigan voqealarga o‘xshab ketadi. Har qanday kashfiyotlar tag zamirida, albatta, bilim va tajriba borligini ushbu voqealar misolida ham ko‘rish mumkin. Asarda boshdan oxirigacha Akbarning boshidan kechirganlari fantastik ruhda kechganini ko‘ramiz.

Fantastika real hayotning aksi. Asardagi kashfiyotning g‘oyaviy mazmunidan kelib chiqib, yaxshi insonlar qonidan taralayotgan is tabiatda mavjud bo‘lgan shirin iforli o‘simliklarga qiyoslansa, yomon illatli kishilar esa o‘zlaridan badbo‘y hid taratuvchi aynigan, palag‘da narsalarga o‘xshatiladi. Bu orqali yozuvchi asar davomida jamiyatdagi ig‘vogar, hasadgo‘y, chaqimchi, ikkiyuzlamachi, firibgar, poraxo‘rlik kabi illatlarni qattiq qoralaydi. Aksincha, xushmuomala, kamtar, oqko‘ngil, adolatli, halol va pok yashayotgan, mehnatkash odamlarni biologik tomondan ham ajrata olish mumkin ekanligini ilgari suradi.

Ushbu asar davomida yozuvchi ko‘p bora ilmiy fantastikadan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘zbek bolalar adabiyotida ilmiy fantastikaning yetarli darajada takomillashayotganidan dalolat beradi.

O‘zbek bolalar adabiyotida ham jahon badiiy fantastlarining asarlari singari bolalarni xayolot olamiga sayr qildiruvchi mukammal asarlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi fantastika yo‘nalishida ham milliy ruh aks eta boshladi. Ko‘plab fantast yozuvchilar o‘zlarining yozgan asarlarida milliylikka e’tibor qarata boshladilar. Adabiyotshunos olimlarimiz ilmiy fantastik asarlardan ko‘ra ko‘proq sarguzasht asarlarda milliylikni ko‘rish mumkin, deb

hisoblashadi. Ilmiy fantastik asarlarda tasvirlangan voqealar real makonda tasvirlansagina milliylik o‘zini namoyon qilishi mumkin. Yozuvchi Tohir Malikning fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlarini ko‘radigan bo‘lsak, milliylik masalasi birinchilar qatorida ekanini ko‘ramiz. Yozuvchining “Falak” qissasi aynan, milliy ruh bilan sug‘orilgan ilmiy-fantastik asar hisoblanadi. Unda yosh olimning qabrdan kovlab olingan murdani o‘rganishi va uning ustida tadqiqot olib borishi natijasida o‘tmishda yashab o‘tgan insonlar haqida tasavvurlar uyg‘onadi. Ko‘plab fantast yozuvchilar kelajakni bashorat qilishsa, Tohir Malik o‘tmishni qayta jilolantirishga harakat qiladi. Bu esa asar qimmatining oshishida bosh omil bo‘la oladi. Umuman olganda, barcha sohalarda bo‘lgani kabi fantastik adabiyotda ham milliylik masalasi bosh mezon sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida yaratilgan sarguzasht-fantastik asarlar davr ijtimoiy muhitini o‘zida aks ettiradi. Xususan, Xudoyberdi To‘xtaboyevning sarguzast fantastika yo‘nalishida yozilgan “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” qissalari davr ijtimoiy muhitini o‘zida ko‘rsatib bera olgan. Qissa qahramoni Hoshimjon maktabda yaxshi o‘qimaydi, lekin bilim olmasdan turib ham ko‘p ishlar qila olish mumkin ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ladi. Yozuvchi ushbu asar orqali jamiyatda chalasavod, dangasa, osonlik bilan katta shon-shuhratga erishmoqchi bo‘lgan insonlarni Hoshimjon obrazi orqali ifodalaydi. Uning har bir ishda omadsizlikka uchrashi, bilimi bo‘lmasa ham hamma sohaga bosh suqib ko‘rish holatlarini bugungi kunda ham har bir sohada uchratamiz. Alaloqibat, bilimsiz, hunarsiz hech nimaga erishib bo‘lmasligini ko‘ramiz. “Sariq devni minib” qissasi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasiga g‘oya jihatdan juda yaqin turadi. G‘afur G‘ulom ham ushbu qissa orqali jamiyatdagi chirkin, yaramas odatlar ustidan kuladi. Xalqning omiligi yosh avlodning erta so‘nishiga, ularning hayotlarini qiyinlashtirayotganini hazil orqali qattiq qoralaydi. “Sariq devni minib” qissasidagi Yong‘oq qori, Danak qori, Bodom qori obrazlari orqali esa dinni niqob qilib olgan, tili boshqa, dili boshqa insonlar harakterini ochib beradi. Jamiyatdagi bunday odatlarga qarshi esa Hoshimjon bola boshi bilan kurasha olmaydi. Bu yo‘lda unga “sehrli qalpoqcha” yordamga keladi.

X.To‘xtaboyevning yana bir fantastik qissasi “Shirin qovunlar mamlakati” voqealari Akbarning avval Tarvuz shahriga tushib qolishidan boshlanadi. Ushbu qissa ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” sarguzasht qissasi qahramoni Gulliverni ko‘z oldimizga keltiradi. Undagi asar qahramoni ham g‘ayrioddiy mamlakatlarga borib qoladi. Ularning g‘alati hayot tarzlari, urf-odatlari haqida hikoya qiladi. J.Svift ham o‘z navbatida ushbu asari orqali jamiyatdagi chirkin odatlarni qoralaydi, ular ustidan kuladi. “Shirin qovunlar mamlakati” da ham Akbar jamiyatdagi yaxshi odamlarni ulug‘laydi, ularni gul-u rayhonlarga qiyoslaydi. Yomon odatli kishilarni esa badbo‘y hidlar misolida ta’riflaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu qissada ilmli inson har doim ulug‘lanadi. Ushbu qissa bolalarda yaxshi o‘qish, birovga yomonlik qilmaslik, yomon illatlardan xuddi badbo‘y narsalardan jirkanish kerakligi haqidagi axloqiy tarbiyalarni singdirishga xizmat qiladi.

Bolalar she’riyati so‘zining sodda tuzilishi, undagi voqealarning bolalar nigohi bilan aks ettirilishi tufayli ham e’tiborlidir. O‘zbek bolalar she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan shoir Anvar Obidjondir. U ko‘plab mavzularda bolalarga mos, ularning qiziqishlari, o‘y-xayollari, ichki kechinmalarini ko‘rsatuvchi she’rlar yozgan. Anvar Obidjon she’riyatida ham she’riyat uchun yangi yo‘nalish sanalgan fantastika yo‘nalishida barakali ijod qilgan shoir sifatida eslaymiz. Uning “O‘g‘irlangan pahlavon haqida ertak” she’riy dostonida “topqir oyna” misolida dastlabki fantastik elementlarni uchratamiz.

Azim tog‘lar ortida
Davron surar Sharmonshoh.
Atrofdagi ishlarni
Kuzatar u misli zog‘.
Boqib “topqir oyna”ga
Kekbu degan jodugar,
Olamda ne yuz bersa,
Xoqonga qilar xabar. [Obidjon , 2016:77]

Jodugarlarning bir yumalab har xil insonlar, hayvonlar va qushlar tusiga kirib yovuzliklar qilishini juda ko‘p ertaklarda kuzatganmiz. Ushbu ertak dostonda ham Kekbu Sharmonshoh

saroyidan burgut holida uchib ketadi. Durbekshoh saroyiga borganda esa muloyim to‘ti holida kelib qo‘nadi. Shohning marhamatiga erishgan to‘tini qafasga solib qo‘yadilar. Hurbekni o‘g‘irlash vazifasini olgan Kekbu qafasdan pashshaga aylanib uchib chiqadi va Hurbekni o‘g‘irlaydi. Ertakdagi “topqir oyna” shoir tomonidan qo‘llangan vosita bo‘lib, u orqali dunyodagi barcha o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu “topqir oyna” A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan “oyinayi jahonnamo”ni eslatadi. “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan “oynayi jahonnamo” ezguliklar uchun xizmat qilgan bo‘lsa, A.Obidjon keltirgan “topqir oyna” yovuzliklar keltiradi. Aynan, keltirilgan mana shu fantastik g‘oya voqealar rivojiga hissa qo‘shadi.

Anvar Obidjon yana bir fantastik asar “Oltin yurakli Avtobola” qissasini yaratdi. Qissa sarguzashtlarga boyligi va ilmiy fantastika bilan uyg‘unlashgani jihatdan ham ahamiyatli. Yozuvchi bu qissasi orqali kichik kitobxonlarni ilmiy fantastika bilan yaqinroq tanishtirishga harakat qiladi. Qissadagi voqealar bolalarga tushunarli ravishda bayon qilinadi. Ilmiy fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlar kattalarda ham, bolalarda ham keng tasavvurlar uyg‘otishi tabiiy. Biroq ilmiy fantastika yo‘nalishini tushunish uchun bolalar yosh jihatdan farqlanadilar. 5-6-sinf o‘quvchilari ko‘proq sarguzasht-fantastik asarlarni o‘qishga qiziqsalar, 7-8-sinfdan boshlab ularda ilmiy fantastikaga qiziqish va xohish shakllana boshlaydi. Anvar Obidjonning ushbu qissasi esa har qanday yoshdagi bolalar uchun asar g‘oyasini tushunishda qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Yuqoridagi qissalar tahlilida ko‘rganimizdek, jamiyatdagi ba’zi illatlar qoralanadi. Oson boylik orttirish, birovlarning mehnatini qadrlamaslik, o‘g‘irlik qilish kabi chirkin holatlar tanqid qilinadi. Professor yasagan Avtobola odamlardek gapira oladi, odamlardek fikrlaydi, odamlardek charchashni biladi. U Supersur bilan birga yuradi. Yaxshi niyatlar bilan yasalgan Avtobola qabih niyatli kishilar qo‘liga tushib qing‘ir yo‘lga kiradi. Kattalar manfaati uchun o‘g‘irlik qiladi. Har qanday asar g‘oyasida ijtimoiy muhit yetakchilik qiladi. Asar qahramoni Avtobolani yaratgan Kamol Kamtariy “Avtobolaning barcha qismlari bekam-u ko‘st ishlayotganiga ishonch hosil qilayotgan professor kuchsizlantirilgan elektr tokini uzarkan, Avtobolaning qaytadan shalvirab qolganini ko‘rib, negadir ko‘ngli

buzildi – hayotga ilk marta nazar tashlash baxtiga muyassar bo‘lgan begunoh go‘dakni shu soniyadayoq bo‘g‘ib o‘ldirgandek his etdi o‘zini” [Obidjon, 2018:42] – deya temirdan yasalgan odamchaga rahmi keladi.

Aslida ham bolalar hech qachon o‘z ayblari yoki ixtiyorlari bilan jinoyat ko‘chasiga kirib qolmasliklarini Anvar Obidjon katta mahorat bilan isbotlab beradi. Qissa fantastika yo‘nalishida yozilgani bilan ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan undagi ilgari surilgan gumanizm g‘oyalari bilan bolalarga chin ma’noda ma’naviy ozuqa bera oladi. Qissadagi temir bolaga nisbatan ularda rahm-shafqat tuyg‘ulari hosil bo‘lishi bilan birga, har qanday temirdan yasalgan mexanizmlarni ishlatishda vaqt me’yoriga amal qilish kerakligi haqida ham tushunchalar paydo bo‘ladi. Avtobolaning boshi tinimsiz g‘uvullashi, undagi qaysidir qism bosim ostida ishlayotganidan darak beradi. Shuning uchun ham bolalarda mexanik qurilmalarni ishlatishda ehtiyotkorlik qilish va me’yoridan tashqari ishlatish mumkin emasligi, aks holda mexanizm tez ishdan chiqib yaroqsiz holga kelishi haqidagi fikrlar uyg‘onadi. “Boshidagi g‘uvulloq endi azobli sanchiqqa aylandi. Ko‘krak qismidagi mikrosxemadan esa o‘sha sanchiqqa monand ravishda “chirs-chirs etgan tovush kela boshladi” [Obidjon, 2018:76].

Bolalar adabiyotida istiqlolga erishgunimizga qadar ilmiy-fantastik asarlar deyarli yo‘q edi. Istiqlolga erishishimiz ortidan ilm-fan rivoji va taraqqiyotiga e’tibor kuchaydi. Ilmiy-fantastika yo‘nalishining rivojlanishi ham bevosita ilm-fan sohasidagi qilinayotgan kashfiyotlarga bog‘liq. Bu ilmiy fantastik adabiyot uchun mavzu va g‘oya bera oladi. Sun’iy odamlar, har qanday kashfiyotlar qila oluvchi olimlar obrazi fantastik asarlarda ko‘rina boshladi” [Obidjon, 2018:56]. Avtobolaning o‘ta universal qilib yaratilganini, jumladan tanasi sof po‘latdanligiga qaramay, ichki qismi g‘ovakligi bois qo‘l-oyoqlarning yengil harakati bilan ham suv sathida o‘zini bemalol ushlab tura olishi” kabi o‘quvchini ilm-fan mo‘jizalari orqali hayratlantira oladigan ilmiy fantastika yo‘nalishi yuzaga keldi. Bolalar uchun yozilgan ilmiy-fantastik asarlar qaysi jihatlari bilandir jahon adabiyotida bolalar uchun maxsus yozilgan fantastik asarlarga o‘xshab ketadi. “Oltin yurakli Avtobola” qaysidir

xususiyatlari bilan Astrid Lindgrenning “Mittivoy va Karlson” qissasiga o‘xshaydi.

Bolalar uchun yozilgan ushbu ilmiy-fantastik qissa orqali o‘quvchilarda fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, kibernetika sohasiga qiziquvchi yoshlar ommasini yuzaga keltirishda foydalanish mumkin. Bolalar uchun yozilgan har bir fantastik asar bolalarda ma’lum bir fanlarni o‘zlashtirish kerakligini tushunib yetishlariga xizmat qiladi. Bolalar kitobxonligini oshirish, ulardan yangi kashfiyotchilar chiqarish, yangidan yangi g‘oyalar kashf etishda fantastik asarlar o‘qitishning ahamiyati katta. Bolalar adabiyotida fantastik asarlarni o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsad bilimli, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlay oladigan, o‘z shaxsiy qarashlariga ega yosh avlodni tarbiyalashdan iborat.

Bugungi zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyotida fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlarga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Bola uchqur xayol sohibi. Uning qiziqishlarini, o‘y-kechinmalarini jilovlab bo‘lmaydi. Ular tabiatan mo‘jizalarga ishonuvchandirlar. Bolalarning fantastika yo‘nalishida yozilgan asarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ularga manzur bo‘ladigan asarlarni taqdim etib borish orqali haqiqiy kitobxon, kitobsevar, ma’rifatli avlodni yuzaga chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obidjon A. Qizg‘anchiq futbolchilar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – B. 77.
2. Obidjon A. Oltin yurakli Avtobola. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 42.
3. Obidjon A. Oltin yurakli Avtobola. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.76.
4. Obidjon A. Oltin yurakli Avtobola. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 56.
5. To‘xtaboyev X. Shirin qovunlar mamlakati. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019. – B. 100.

ADABIY LABORATORIYA: PODKAST YARATISH MASHG‘ULOT TURI SIFATIDA

Jamoliddin Nurmuhammadov
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Adabiy ta’limda o‘quv mashg‘uloti sifatida adabiy laboratoriyalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Laboratoriya mashg‘uloti sifatida podkastlar tashkil etish o‘quvchilarning bahsga kirishish madaniyatini shakllantiradi. Bir asar doirasida suhbatdoshlari bilan erkin muloqot olib boradi. Podkastlarni yaratishda yoki o‘tkazishda vaqt va makon chegaralari xalaqit qilmasligi ham mashg‘ulot turi sifatidagi afzalligini ko‘rsatadi. Maqolada podkastlar yaratish va tashkil etishning bosqichlari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Adabiy ta’lim, adabiy laboratoriya, podcast, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, munozara, moderator.*

Adabiyot fanida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini shakllantirishda aniq tavsifli mashg‘ulotlar – adabiy laboratoriyani tashkil etish sifatli samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir darsga turli usullar asosida shakllantirilgan amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishi o‘quvchilarda faqat og‘zaki nutqining emas, balki yozma hamda mantiqiy tafakkurining ham rivojlanishiga, shuningdek, badiiy matnni o‘zi bilan turdosh hayotga ko‘chirishga turtki beradi. Adabiy laboratoriya tizimini joriy etishga erishish orqali o‘quvchilarning ijodiy izlanishlari mazmunli yo‘lga qo‘yish orqali ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashiga turtki beriladi, shuningdek, ijtimoiy tarmoq, media tarmoqlar orqali zamonaviy kitobxonlik targ‘ib qilib boriladi.

Ta’lim mazmuni va metodlarining xilma-xilligi, boyligi shaxs tafakkurining chinakam mustaqilligini ta’minlaydi, rivojlantiradi. Erkin mavzulardagi mustaqil ishlar o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi. Ular bolada biror shaxslik sifatlarining shakllanishiga, albatta, ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mustaqil ish turlari va ularning xususiyatlari borasida prof. S. Matjonovning alohida tadqiqoti [Matchanov, 1998] mavjud.

“Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020] o‘quvchilarning mustaqil ishlari sifatida “uy inshosi, bayon, referat va taqrizlar, adabiy qahramonlarga tavsifnoma va annotatsiyalar yozish, maktublar bitish, kundaliklar yuritish, ma’ruza matnini tayyorlash, tezislar tuzish, konspekt olish, uy vazifalarini bajarish, adabiy kechalar tashkil etish, ekskursiyalar uyushtirish, mustaqil va sinfdan tashqari o‘qish, ayni zamonda ijodiy ishlar (badiiy asarlar yaratish)” [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020] qayd etilgan. Masalan, mustaqil o‘qish darslari uchun dasturda ma’lum soat ajratilgan bo‘lib, bunda o‘rganish uchun tavsiya etilgan asar bilan o‘quvchilaming o‘zlari mustaqil ravishda tanishadilar. Undagi muhim va nomuhimni, ikkinchi, uchinchi darajali jihatlarini o‘zlari ajratadilar. Asarning muhokamasi esa 0‘qituvchi bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘quvchilar mustaqil o‘qish asnosida o‘zlari kashf etgan haqiqatlarini o‘qituvchilari balan hamkorlikda tahlilga tortadilar. Bunda o‘qituvchining roli faqat tashkilotchilikdan iborat bo‘ladi [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020].

O‘quv qo‘llanmalarda o‘quvchilarning mustaqil amaliy ishlarini tashkil etishda hozirgi kunga qadar eng sinalgan usullar sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

a) evristik suhbat;
b) seminar darslar;
c) mantiqiy topshiriqlar;
d) yangi mavzuni o‘rganishda muammoli vaziyatlar;
e) bilimlarni tekshirish [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020].

Ta’limda adabiy laboratoriya tushunchasi yangi tushuncha bo‘lib, uning o‘zi ushbu tadqiqotimizning asosiy obyekti bo‘lsa, uning mazmun-mohiyatini ochib berish va amaliyotga joriy etish choralarini kengaytirish asosiy maqsad sanaladi.

Adabiy laboratoriya mashg‘uloti sifatida podkastlar tashkil etishning ahamiyatini izohlash va tushuntirish yuqoridagi maqsadlarning biri hisoblanadi.

Bugungi kunda publisistik va jurnalistik sohada keng qo‘llanilayotgan podcast tushunchasi inglizcha “iPod” va “broadcasting” so‘zlaridan olingan bo‘lib, hamma joyda eshitish yoki ko‘rish imkonini beruvchi ovozli yoki video fayllarni anglatadi.

Podkast – bu yangiliklar, ma`lumotlar, suhbat yoki munozaralarning onlayn tinglash uchun **hostlar** tomonidan tarqatiladigan (yoki translyatsiya qilinadigan) raqamli audio (yoki video) yozuv shakli hisoblanadi. Ushbu xizmat turini 2003-2004-yillarda amerikalik TV va radio boshlovchisi Adam Karri (Adam Curry) ilk bor foydalanishga kiritgan va ommalashtirgan edi.

Qisqa muddat ichida shuhrat qozonishiga esa podkastingning makon, zamon, tinglovchi va kuzatuvchi tanlamasligini sabab qilib keltirish mumkin. Negaki dunyoning istalgan qismidagi inson internet tarmoqlari orqali hech qanday cheklovlarsiz podkaster yoki oddiy foydalanuvchi sifatida ushbu xizmat turidan foydalanishi mumkin.

Podkast, odatda, suhbat va munozara shaklida bo‘ladi. Podkastning davomiyligi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Bu suhbat yoki munozara uchun tanlanadigan mavzu ko‘lamiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda podkastingning tez rivojlanishi turli janrdagi katalogga ega bo‘lgan podkast ko‘rsatuv va platformalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirda eng katta va mashhur podkast katalogiga ega bo‘lgan platforma bu ***iTunes*** hisoblanadi. Ushbu platforma podkastlarni muayyan toifalarga ajratgan holda taqdim qilib kelmoqda: *yangiliklar, hajviya, sport, tarix, jamiyat va madaniyat, san`at, badiiy adabiyot, oila va bolalar, ilm-fan* va boshq.

Podkastlarni adabiy ta’limda keng qo‘llash uchun uning ayrim so‘zlarini o‘quvchilarga izohlab berish kerak bo‘ladi:

- *Host* (inglizcha: *host* – “mehmonlarni qabul qiluvchi, mezbon” - har qanday interfeyslarda “mijoz-server” formatida xizmatlar ko‘rsatadigan qurilma. Kengroq ma`noda host deganda mahalliy yoki global tarmoqqa ulangan har qanday kompyuter tushunilishi mumkin. Hozirda podkast markazidagi asosiy shaxs ham host deb ataladi.
- *Podkaster* – bu havaskor yoki professional asosda podkasting bilan shug‘ullanadigan shaxs.
- *Podkast terminali* – bu media fayllarni joylashtiradigan va ma`lum darajada yangilanishlarni joylashtirish va obuna bo‘lishni avtomatlashtiradigan sayt yoki platforma. Bu ijtimoiy media turi bo‘lib, video bloglar va internet radiosiga o‘xshaydi. Audio va

videoyozuvga qo‘shimcha ravishda u matn ko‘rinishidagi nutq yozuvini o‘z ichiga olishi mumkin.

• *Meta-ma’lumot* – podcast nomi, munozara davomiyligi, tartibi haqidagi qisqacha tavsif yoki kalit so‘zlardir.

Adabiy ta’limda podkast yaratish va e’lon qilish jarayonini quyidagi bosqichlariga bo‘lish mumkin:

I. Podkast uchun g‘oyani topish, uning mavzusini aniqlash.

Davriy podkastlarni tayyorlashdan oldin uning rejasi tuziladi, bu esa yozib olish jarayonini osonlashtiradi.

II. Jihozlarni tayyorlash.

Mikrofon va kompyuter ovoz yozishga tayyorlanadi. Yozuv sifatini yaxshilash uchun turli filtr vositalar tayyorlab qo‘yiladi.

III. Podkastni yozib olish.

Barcha podkastlar ovoz yozish bilan boshlanadi. Biroq podkastlarning hammasi ham qimmat mikrofonlar, mikserlar va tovush panellari bo‘lgan studiyada yaratilmaydi. Mikrafoni mavjud har qanday smartfonda ham yaxshi podkast tayyorlash mumkin. Ovozli signalni yozib olish dasturiy ta`minot yoki apparat tomonidan amalga oshiriladi. Dasturiy ta`minot vositalaridan (ya`ni, audio muharrirlar) foydalanganda, har bir odamning ovozi (signali) alohida audio trekka yozib olinadi. Masofaviy suhbatdoshlar o‘rtasidagi aloqa esa internet-telefoniya/ internet-qo'ng'iroqlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

IV. Sayqallash (aranjirovka).

Audio yozuvdagi shovqin olib tashlanadi va mavzuga mos keladigan turli musiqiy fonlar tanlanadi.

V. Podkastni joylashtirish .

Tayyor podkastni turli podkast terminallarida, ijtimoiy tarmoq sahifalarida, ushbu podkastga bag‘ishlangan blog va saytlarda nashr etish mumkin.

O‘quvchilarning yoshi va sinfiga qarab, podkastlarni bir necha xil formatda tashkil qilish mumkin:

1. **Jonli efir.** YouTube, Twitch yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlar xizmatlari podkastlaringizni millionlab tomoshabinlarga real vaqtda yetkazish imkoniyatini beradi.

2. **Vlogging.** Bu usul orqali jonli tomoshabinlarsiz, ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish (translyatsiya () qilish bilan podkast uyushtirishingiz mumkin. Jonli efirga chiqishdan oldin videolarni oldindan yozib olish ularni yozish, tartibga solish, suratga olish, tahrirlash va sayqallash imkonini beradi.

3. **Blogging.** So‘nggi yillarda video kontent boshqa kontent turlaridan ustun bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, yozma so‘z hali ham kuchli quroldir. Agar yuzingiz yoki ovozingizni yozib olish siz uchun o‘zingizni ifoda etishning eng qulay usuli bo‘lmasa, an`anaviy blog siz uchun eng muqobil tanlov hisoblanadi. Yaxshi tayyorlangan blogpost, fikr-mulohaza, tadqiq qilingan taqdimot yoki fikr tinglovchilarning / kuzatuvchilarning diqqat-e'tiborini jalb qilishi mumkin.

O‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan podkastlarni tashkil etishga doir quyidagicha topshiriq berish mumkin:

Topshiriq

O‘qilgan badiiy asar muhokamasiga bag‘ishlangan podkast qilishga urinib ko‘ring. Buning uchun avvalo ijtimoiy tarmoq orqali sinfdoshlaringiz yoki boshqa toifadagi insonlardan iborat bo‘lgan auditoriyani shakllantirib oling. Podkast yaratish uchun quyidagilarni aniqlashtirib oling:

- *Tinglovchi yoki ishtirokchilarga podkast qaysi davomiyligi mos keladi (uzun yoki qisqa)?*
- *Tinglovchilar yoki ishtirokchilar qayerda tinglashni va qanday ishtirok etishni afzal ko‘radilar?*
- *Tinglovchi va ishtirokchilarning host bilan aloqada bo‘lishi qaysi yo‘l bilan qulayroq (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, YouTube yoki boshq.) kechadi?*
- *Ma`lumotni taqdim etishning qaysi formati foydalanuvchilarni ko‘proq jalb qiladi?*
- *Maqsadli auditoriyaga yig‘ilganlar Sizning podkastingizdan nimalarni xohlashadi va kutishadi?*

Yuqoridagi savollarga to‘g‘ri javob topsangiz, tinglovchilar orasida muhim va mashhur bo‘ladigan podkastlarni yaratishingiz mumkin. Shundan so‘ng esa quyidagi qadamlarni tashlang:

1-qadam. Ijtimoiy tarmoq yoki video platformalar (masalan, Zoom) orqali podkast kuni va muhokama mavzusi va formatini e'lon qiling.

2-qadam. Podkast munozarasi uchun ayrim ishtirokchilarga muayyan rollar bering: *boshlovchi* ***moderator****, asar bo'yicha savolni muhokamaga qo'yuvchi* ***jurnalist****, yangi savol yoki topshiriqni belgilovchi* ***podkaster****, muhokamani ayni mavzudan chetlashmasligini ta'minlovchi* ***navigator****,* ***ekspert*** kabi.

3-qadam. Belgilangan kun kelgach, suhbat yoki munozarani o'tkazing va jonli efirni yozib oling.

4-qadam. Yozib olingan materialni qayta eshitib, kerakli o'rinlarni sayqallang: kesing, shovqindan tozalang, fon uchun musiqalar tanlang.

5-qadam. Tayyor bo'lgan podkast faylni maktab sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalaringizga joylashtiring. Eshitib, munosabat (komment qoldirgan) bildirganlarning fikrlarini o'rganib, navbatdagi podkastlarda hisobga oling.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, podkastlar – adabiy ta'lim rivojiga, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarning fikriy o'sishiga katta rol o'ynaydi. Makon, vaqt va yosh chegaralamaydigan ushbu mashg'ulot turi o'quvchilarda erkin va keng muloqot yaratibgina qolmay, balki ijodiy-tanqidiy fikrlarini omma oldida namoyish etishga, o'z qarashlari bilan o'zgalarning fikrlarini qiyoslashga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. Xalq so'zi. 2019-yil 30-aprel.
2. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi (1-2-qism). – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 1998.
4. Yo'ldoshev, J.G'., Usmonov, S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: Fan va texnologiya, 2008.
5. Kambarova, S. 2022. Loyihalashtirish – tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish omili sifatida. Til va adabiyot ta'limi 9. –B. 8 – 10.

XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI
(5-sinf darsligi misolida)

Mastona Norqulova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktab darsliklarida berilgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan. O‘rganilgan muammolar asosida xalq og‘zaki ijodini o‘qitishning samarali usullari orqali muammoning qisman yechimi berilgan. Maqoladan ko‘zlangan maqsad maktab o‘qituvchilariga yengillik yaratish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini mustahkamlashga, xalq og‘zaki ijodi namunalarini qiziqish bilan o‘rganishga undash. Maqola materiallaridan maktab o‘quvchilarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *texnologiya, tez aytish, maqol, topishmoq, “Tezkor xotira” metodi, “Maqollar olamida” texnologiyasi, “Davom ettiring” metodi, “Mosini toping” usuli.*

Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda o‘quvchilarni adabiyot faniga qiziqtirish dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda. Bu borada hozirgi kunda metodikamiz rivoji uchun Q.Husanboya, R.Niyozmetova, S.Qambarova kabi metodist olimalar ish olib bormoqdalar. Lekin hali hanuzgacha aynan xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarini maktab darsliklarida aks ettira olmayabmiz. Shu sababli ham maktab darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Avvalambor, maktab darsliklaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalarining berilishi qanchalik to‘g‘riligi masalasiga aniqlik kiritib olsak. 5-sinf “Adabiyot” darsligida maqollar, topishmoqlar va “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi berilgan. 5-sinf o‘quvchilarining ayni qiziquvchan va izlanuvchan vaqti bo‘ladi. Bizning nazarimizda, 5-sinf darsligiga xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan tez aytishlarni ham kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, tez aytishlar o‘quvchilarning fikrlash

qobilyatini, so‘z boyligini oshirishga, nutqining ravon bo‘lishiga va tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodida qiziqarli tez aytishlar ko‘p. Masalan:

Chirq-chirq-chirq, chug‘urladi chug‘urchuq.
***
Dorivor daraxt do‘lana
Mevasi dona-dona.
***
Muzxonada muzlagan muzdekkina muzqaymoq.
***
O‘roq o‘xshar so‘roqqa,
So‘roq o‘xshar o‘roqqa.

Har bir o‘quvchi bu tez aytishlarni qiziqish bilan tezda yodlab oladi. Agarda tez aytishlarni o‘yin texnologiyasi orqali o‘rgatsak yanada samarali natijalarga erishishimiz mumkin. Tez aytishlar mavzusini o‘qitishda quyidagi metodni tavsiya etamiz:

“Tezkor xotira” metodi. Metodni amalda qo‘llashda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi. Uchta guruhdagi o‘quvchilarga alohida tez aytishlar beriladi.

1-guruh “Chaqqonlar”	O‘roq o‘xshar so‘roqqa, So‘roq o‘xshar o‘roqqa
2-guruh “Ilg‘orlar”	Dorivor daraxt do‘lana, Mevasi dona-dona
3-guruh “Tezkorlar”	Muzxonada muzlagan muzdekkina Muzqaymoq

Har bir guruhdan eng ko‘p tez aytish aytgan o‘quvchi aniqlanadi va o‘yinimizning ikkinchi bosqichida ishtirok etishadi. Ikkinchi bosqichda uchta o‘quvchiga ham bir xil tez aytish matni beriladi. Masalan:

Oq choynakka, ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka, oq qopqoq.

G‘olib chiqqan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning zehni, tafakkuri, tezkorligi, nutqining ravonligi sinovdan o‘tkaziladi.

Shuningdek, 5-sinf adabiyot darsligida xalq maqollaridan namunalar keltirilgan. Maqol ibratli so‘zdir. O‘quvchilarga do‘stlik,

vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat kabi tushunchalarni o‘rgatishda, albatta, o‘zbek xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Darslikda faqat maqollardan namunalar keltirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni o‘qitishga oid qiziqarli texnologiyalarni ham qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki hozirgi vaqtdagi o‘quvchilarning diqqatini faqat matn orqali darslikka qarata olmaymiz. Shuning uchun ham zamonaviy texnologiyalarga murojaat qilishimiz lozim. Maqollarni o‘qitishda quyidagi texnologiya va metodlarni tavsiya qilamiz:

“Maqollar olamida” texnologiyasi. Ushbu texnologiyada o‘quvchilarga turli mavzuga oid maqollardan namunalar va maqollarning mavzusi yozilgan jadval beriladi. O‘quvchilar esa maqollarni mavzusidan kelib chiqib, jadvalni to‘ldirishadi. Bu texnologiya orqali o‘quvchilarning zehni sinovdan o‘tkaziladi.

Har gulning o‘z isi bor, har elning o‘z tusi bor.

***

Yo‘q narsa bor bo‘lar, kamtar bo‘lsang,
Bor narsa yo‘q bo‘lar, manman bo‘lsang.

***

Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas,
Yurt qo‘riganning yurti buzilmas.

***

Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko‘rasan.

***

Do‘st ziyonkor bo‘lmas, ziyonkor do‘st bo‘lmas.

***

Buloqning suvi tiniq, dononing – suhbati.

Vatan haqidagi maqollar	**Manmanlik haqidagi maqollar**	**Mehnat haqidagi maqollar**	**Do‘stlik haqidagi maqollar**	**Yaxshi so‘z haqidagi maqollar**
Har gulning o‘z isi bor, har elning	*Yo‘q narsa bor bo‘lar, kamtar bo‘lsang,*	*Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko‘rasan.*	*Do‘st ziyonkor bo‘lmas, ziyonkor*	*Buloqning suvi tiniq, dononing – suhbati.*

o‘z tusi bor.	*Bor narsa yo‘q bo‘lar, manman bo‘lsang.*		*do‘st bo‘lmas.*	

“Davom ettiring” metodi. Ushbu metodda o‘quvchilarga maqollarning faqatgina bir jumlasi aytiladi, qolgan qismini o‘quvchilar aytadi.

Oltovlon ola bo‘lsa,
Og‘zidagini oldirar.
…
***
El qo‘risang, o‘zarsan …
***
Olqish olgan omondir,
…
***
Do‘sting ming bo‘lsa ham oz,
…

Bu metod orqali sinfdagi barcha o‘quvchilarni xalq maqollarini yod olishlariga va so‘z boyligini oshirishiga erishamiz.

Xalq og‘zaki ijodining eng sevimli va qiziqarli turi topishmoqlardir. Topishmoqlarda yashirin ma’no ustunlik qiladi. Shu sababli ham o‘quvchilar topishmoqlarni qiziqish bilan o‘rganishadi. Agarda topishmoqlarni o‘qitishda yangi yondashuvlar asosida o‘qitsak, darsning samaradorligi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. Topishmoqlarni o‘qitishda quyidagi texnologiyani tavsiya etamiz:

“Mosini toping” usuli. Ushbu usulda topishmoqlar va topishmoqlarning javobi aralash holda beriladi. O‘quvchilar topishmoqlarning javobini mosini topishadi.

1. Boshi taroq, dumi o‘roq. **A**. Quyosh
2. Bir qop un, ichida ustun. **B**. Xarita
3. Bir parcha patir, olamga tatir. **D**. Xo‘roz
4. Shahari bor, odami yo‘q, **E**. Jiyda
Daryosi bor, suvi yo‘q.

5. Kunduz kuni o‘chirib, **F**. Oy
Tunda yoqa olmaysan.
Yoniga bo‘lmas borib,
Usiz yashay olmaysan.

Javoblari:

1. **D** 2. **E** 3. **F** 4. **B** 5. **A**

Yuqoridagi usul o‘quvchilarning topqirlik va tezkorlik qobilyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, adabiyot darslarini samarali tashkil etish yosh avlod ma’naviyatini shakllantirish, intellektual salohiyatini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim vosita sanaladi. O‘qituvchi o‘z ishida pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullardan foydalanishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Zamonaviy usullardan dars davomida o‘rinli foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. 5-sinf .adabiyot darsligi. – T., 2020.

2. Djamaldinova Sh. Maktab adabiy ta’limida xalq og‘zaki ijodi namunalarini muammoli metod asosida o‘rganish//Phd ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtorefarat. – Toshkent, 2022.

3. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,2022.

4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol fayz media, 2018.

5. Muhamedova S, X., Abdullayeva M, D., Yuldasheva Sh, Sh., Eshmatova Y, B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T., 2018.

6. To‘xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. – T., 2011.

UZLUKSIZ ADABIY TA'LIM DASTUR VA DARSLIKLARIDA BOLALAR ADABIYOTINI O'RGANISH MASALASI

Mahliyo Elboyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz adabiy ta'lim dastur va darsliklarda bolalar adabiyotini o'rganish masalasiga e'tibor qaratilgan. Amaldagi dastur va darsliklarda bolalar adabiyoti namunalarining aks etishi, ularning o'qitishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan asosiy jihatlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, standart, raqobatbardosh, texnikaviy yondashuv, tarixiy-funksional yondashuv, qiyosiy-tipologik yondashuv.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganlaridek "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" [Mirziyoyev, 2017: 76] bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Shu o'rinda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlarni eslash mumkin. Ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari mana shu Qonun talablarini amalga oshirish uchun astoydil harakat qilinayotganligi barchaga ma'lum. O'zbekistonda maktab dasturlarining ko'pgina turlariga amal qilindi, zero izlanish yangi, mukammal tizimni ifodalaydigan darajaga yetish uchun harakat uzluksiz davom etmoqda. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari badiiy asarlarning tanlash tamoyillarini ham belgilab beradi. Taniqli metodist M.B.Cherkezova ko'rsatganiday, "Milliy maktablarda asarlarni o'rganish metodikasini tanlash uchun ilmiy adabiyotshunoslik mezonlari, adabiy hodisalarga nisbatan tarixiy-genetik, tarixiy-funksional va qiyosiy-tipologik yondashuvlar borligi asos bo'lib xizmat qiladi" [Prosvesheniye, 1985:89].

Umuman, dasturda adabiyot kursi to‘laligicha tavsiflab borildi. Har bir sinfdan adabiyot kursining mazmuni va ish tartibi, har bir mavzuning mohiyati muayyanlashtiriladi. Davlat dasturini bajarish asosida o‘qituvchi o‘quvchilardagi adabiyot va san’atga bo‘lgan muhabbat, ijodkorlik, ijodiy faollik, yuksak axloqiy an’analarni takomillashtirish va o‘stirishga e’tibor bermog‘i lozim.

Ma’lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang‘ich ta’lim tugaganidan so‘ng o‘tila boshlaydi. Bu davrda o‘quvchi adabiyot va ifodali o‘qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so‘z san’ati haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo‘lgan bo‘ladi.

Xususan, bolalar adabiyoti bolaning yosh xususiyatlariga ko‘ra o‘rganiladi. Shunga asoslanib bolalar kitobxonligini quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).

2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).

3. O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Shulardan maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi mavzusida to‘xtalamiz. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar adabiyotining o‘rganilishi yaxshigina adabiy did bilan qurollangan o‘qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qiladi. Chunki, bolaning adabiy didi strukturasi katta yoshdagilarnikiga qaraganda o‘zgacha, bolalarda san’at asarini emotsional idrok etish aqliy jihatdan kamroq nazorat qilinadi, ularning hayotiy va kitobxonlik darajasi ham unchalik katta bo‘lmaydi. Maktab darsliklarida bolaning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolalar adabiyotiga oid asarlar qo‘yiladi, ular ulg‘aygan sari darsliklardagi asarlaning mohiyati ham o‘sib boradi. Maktab darsliklarida berilgan bolalar adabiyotiga oid asarlar bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

Xususan, beshinchi sinf o‘quvchisi hali badiiy asarni, uning xususiyatlarini to‘la o‘zlashtirishga tayyor bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra M.G.Kachurin ta’kidlaganidek: “Bu davrda asarda “nima haqida” yozilgani nuqtayi nazaridan yondashishlarni hisobga olish kerak” [Zunnunov, Hotamov, Esanov, Ibrohimov, 1992:78].

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko‘ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagi olam, inson ma’naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar yoritilgan. Demak, boshlang‘ich sinflardayoq bolalarning badiiy-estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi uchun imkon qidirilgan. 5-sinf adabiyot darsligida bolalar uchun “Hikmat durdonalari” rukni ostida maqollar, topishmoqlar hamda Ezop va uning masallari keltirilgan. Ezop masallari o‘quvchida hayotga bo‘lgan muhabbatni, insonparvarlikni, mehr-oqibat va do‘stlik tushunchalarini qadrlash tug‘usi kabi insoniy fazilatlarning shakllanishiga qaratiladi. Darslikning “Ertaklar olamida” rukni ostida “Uch og‘a-ini botirlar”, “Botir tikuvchi”, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertaklari berilgan. Bu davrda bolalarga ko‘proq ig‘vo, g‘iybat, munofiqliklardan yiroq bo‘lgan ertaklar yoqadi. Negaki, yaxshi, mukammal tarbiyalangan bola boshqalarga hech bir ozor yetkazmasligini, takabburlik qilmasligini, hech kimga haqorat ko‘zi bilan qaramasligini, rostgo‘y bo‘lishni yuqorida nomlari keltirilgan ertaklar orqali yosh kitobxon ongiga sindiriladi. O‘qituvchi darsni o‘quvchilarga yanada qiziqarli, tushunarli qilib o‘tishni ko‘zlagan ekan, u dars davomida audio-vizual vositalardan foydalangan holda “Media-dars” tarzida yoki, turli xil tezkor savol-javoblar tarzida yosh kitobxonlarga tushuntirsa yana ham mazmunli dars tashkil qilingan bo‘ladi.

Darslikning “Bolalikning beg‘ubor olami” rukni ostida ham bolaning yoshiga uning ruhiyatiga mos tarzda asarlar keltirilgan, ular: Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi hamda Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasi va “Bolaning ko‘ngli poshsho” qissasi keltirilgan [5-sinf adabiyot, 2020:75]. Bu asarlar o‘sib kelayotgan yosh kitobxonni badiiy adabiyot olamiga olib kiradi. Ularni hayot bilan yuzlashtiradi, fikrlash doirasini o‘stiradi, binobarin, ularga ma’naviy ozuqa sifatida hikoya va qissalarni bugungi kun hayot tarzimiz bilan bog‘lagan holda tushuntirsa bolaning ongida shu tarzda saqlanadi. Darslikda berilgan asarlar yordamida bola adabiyotni muntazam suratda o‘rganishga kirishish bilan yosh kitobxon adabiy janrlarning xilma-xilligi, mavzusi, asarda ifodalangan masalalar bilan amaliy tanishadilar, o‘zlarini o‘rab olgan borliq va o‘z-o‘zini

anglashda kitobning ahamiyatini bilib boradilar. Bu davrdagi bolada hayotni tushuna bilish undagi voqea-hodisalarni anglash qiyin bo‘ladi, chunki unda haliyam o‘yinqaroqlik kuchli bo‘ladi, shuning uchun ham adabiyot o‘qituvchisi asarni hayot bilan bog‘lagan holda tushuntirsa ko‘zlagan maqsadga erisha oladi.

6-sinfda bola adabiyotda inson va uning ichki olami, xatti-harakatining badiiy aks ettirilishi ustida olib borgan kuzatishlari nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Bu sinfda badiiy asarda tasvirlangan qahramonlar xarakterining shakllanishiga, qahramon va muhitning o‘zaro ta’siriga e’tibor beriladi.

Darslikda bolalar adabiyotiga oid bir qancha asarlar berilgan. Unda G‘ofur G‘ulomning “Shum bola”, Odil Yoqubovning “Yaxshilik”, Hojiakbar Shayxovning “Bir kunlik sinov” va jahon adabiyotining durdonalaridan Oskar Uayld “Baxtli shahzoda”, Lengston Hyuz “Rahmat sizga, xonim”, Rey Bredberi “Bir kunlik yoz” kabi asarlar o‘rin olgan. [6-sinf adabiyot, 2022:214] Bu asarlar yosh kitobxonga taqdim etilar ekan, ularga yumor va satirani o‘rgatish yuqoridagi asarlarda qay darajada qo‘llanilganligini, bolalarga ularning yosh jihatiga mos tarzda tushuntirish adabiyot o‘qituvchisidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qiladi. Ushbu asarlarda bolaga hayvonlarning hayotimizda tutgan o‘rni, ularga bo‘lgan munosabat, sadoqat, do‘stlik tushunchalarini ular ongiga singdirishga xizmat qiladi.Yuqori sinflarda bola adabiyotning obrazlilik xususiyatini anglab oladilar, o‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqi tarixi uning ozodlik harakati bog‘liqligini quyida nomlari keltirilgan xalq og‘zaki ijodi dostonlari turkumidan “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlari orqali bilib oladilar. Ushbu dostonlar orqali bolaga vatanparlik, mardlik qahramonlik tuyg‘ulari singdiriladi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlodga qadriyatlarimizni, bilimlarimizni o‘rgatar ekanmiz, ular, yuqori darajadagi vatanparvarlik, insoniylik, kuchli bilim egasi bo‘lib yetishishida muhim omil sanaladi.

Pedagog va psixolog olimlarning fikricha o‘rta va katta yoshdagi bolalarda adabiyot haqidag tushuncha maktab yoshidagi kitobxon bolalarning tushunchasiga nisbatan rivojlangan bo‘ladi. O‘rta yoshdagi bolalar adabiyotni san’at, go‘zallik namunasi sifatida munosabatda bo‘la boshlaydilar, kitobni badiiy boylik manbayi deb

biladilar. Shunga ko‘ra, ular ko‘proq o‘zlarini qiziqtirgan kitoblarni o‘qiydilar. Asar qahramonlarining kechinmalari, murakkab hissiyotlari o‘smirning o‘z-o‘zini idealarini shakllantirishiga va ro‘yobga chiqarishga yordam beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘rta yoshdagi bola o‘z ichki olami haqida fikr yurita boshlaydi, asarlardan o‘ziga ma’qul bo‘lgan voqea va obrazlarni axtaradi. 8-9 sinfda ayrim bolalarda o‘z qarashlarini, fikr-mulohazalarini bayon etishga ishtiyoq kuchayadi, asarni tahlil qilishda ko‘pincha shaxsiy mulohazalarni yoki qiziqarli mavzuni tahlil qilish bilan almashadi. Bu davrdagi bolada bo‘ladigan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ularning asarga beradigan baholari, bildiradigan mustaqil fikrlarining xolis bo‘lishiga ahamiyat beriladi. Shu yo‘l bilan ularda kitobxonlik qobiliyati nazariy-adabiy tushunchalar yordamida rivoj toptiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, uzluksiz ta’lim tizimida bolalar adabiyotini o‘rganishda texnologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bola ruhiyatini o‘rganish unga badiiy asar orqali ma’naviy ozuqa berish, bolada adabiyotga, badiiy asarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishimiz uchun adabiyot darslarida texnologik yondashuvdan foydalanishimiz ko‘zlagan natijaga erishishimizda muhim o‘rin egallaydi. Adabiyotning boshlanmasi va umumkitobxonlikning ostonasi bo‘lgan bolalar adabiyotini rivojlantirish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritib berish bugungi kundagi fanning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh. Fanlarni oqitishda interaktiv modellashtirish metodlaridan foydalanish. –Toshkent, 2014. – B.139.
2. Ahmedov S, B.Qosimov, R.Qochqarov, Sh.Rizayev. 5-sinf adabiyot darslik. –T.: Sharq, 2020. – B. 268.
3. Mirzayeva Z, Jalilov K. 6-sinf adabiyot darslik. – Toshkent, 2022. – B. 220.
4. Nishonova Z, Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2006. – B. 218.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va faravonligining garovi// Xalq so‘zi, 2016-yil 8-dekabr.

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA IJODIY INDIVIDUALLIK

Maxmuda Yuldasheva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada individuallik, ijodiy individuallik, o‘qitishning evristik usullari, evristik yondashuvlar hamda adabiyot darslarida o‘quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayonlari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijodkorlik, individuallik, ijodiy individuallik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta’lim, ijodiy topshiriq, o‘yinlar.*

Keng jamoatchilikka ma’lumki, individ, individuallik tushunchasi ilm-fanda turli ma’nolarda ishlatiladi. Ularning asosiylarini ko‘rib chiqsak, masalan, biologiya fanida bu tushuncha biror organizmga xos irsiy yoki keyinchalik paydo bo‘lgan xususiyatlarning o‘ziga xosligini ifodalaydi; psixologiyada esa muayyan bir shaxsning fikrlashi, sezgisi, irodasi, istak va intilishi, ehtiyoji, qiziqishi, kayfiyati, hissiyoti, ahvoli, xatti-harakati, odati, mayli, qobiliyati va boshqa sifatlarini, shuningdek, mijozi va tabiatining o‘ziga xosligini anglatadi. Ijtimoiy fanlar yo‘nalishida bu tushuncha individuallik olomonga, guruhga zid tushuncha sifatida o‘rganiladi.

Insonning tug‘ilishidan tortib so‘nggi nafasi qolgunigacha bo‘lgan davrda ya’ni bosib o‘tgan umr yo‘lida pog‘onama-pog‘ona o‘zligini topib boradi. Shunday ekan, hayotimizda bo‘ladigan har bir hodisa, uchraydigan har bir odam biz uchun tajriba bo‘lib, bizni individdan individuallikkacha o‘zgartirib, yuksaltirib boradi.

Adabiyotshunoslikda individuallik tushunchasi asardagi badiiy obrazning o‘ziga xos xususiyatlari asar sujetida qay darajada hayotiy, haqqoniy aks ettirilganini ko‘rsatadigan mezon bo‘lib xizmat qiladi. Va shu bilan birga, badiiy asar qahramonining o‘ziga xosligi, uning milliyligi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilashda

muhim ahamiyatga ega. Har bir yozuvchining o‘ziga xos tili va uslubiga oid belgilar ham individuallikni tashkil etadi.

Har bir o‘quvchi kitob mutolaa qilishi jarayonida, asar qahramonlari ichki ruhiyatini uqishi jarayonida va, aniqroq qilib aytganda, insonning mohiyatini tushunishga harakat qilishi jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki-yashirin xususiyatlarga ham ega ekanligini, asarda har bir qahramon ma’lum bir vazifani bajarishini, ularning harakati, fikrlashi va so‘zlashida ma’lum bir xarakter xususiyatini ochib berishga xizmat qilishini, umumiy qilib olganda, mana shu xususiyatlar birlashgan holda individ, shaxs, individuallik tushunchalarida aks etuvchi muayyan obrazni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini his qiladi.

Umumta’lim maktablarida olib boriladigan adabiyot darslarida asar voqealari orqali berilgan biror-bir hayotiy haqiqatni ijodiy yondashgan holda mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq ta’lim metodlaridan biri – evristik metodidir. Bu metod orqali har bir o‘quvchining o‘zigagina xos bo‘lgan individual ijodkorligi, topqirligi namoyon bo‘ladi.

Adabiyot fani o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali tashkil etish bir qancha afzalliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bular quyidagilar:

– o‘quvchilarni faollashtiradi;
– ijodiy yondashtiradi;
– vaqtni tejaydi;
– qiziqishini orttiradi;
– mustaqil fikrlashga undaydi;
– idrok qilish ko‘lamini kengaytiradi [Mirzayev, 2014: 6].

Haqiqatdan ham, darsni zerikib tinglayotgan o‘quvchi o‘tilayotgan mavzuni yaxshi anglamaydi, fanga oid berilgan ma’lumotlarni yaxshi eslab qolmaydi, shu sababli darsni jonli o‘tish uchun turli xil ko‘rgazmalardan, topshiriqlardan va didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot fani o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri barcha o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, ijodiy qobiliyati va ijodiy individualliklarini har tomonlama rivojlantirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlashdan iborat bo‘lib qolmay, shu bilan birga, muayyan sohalardagi qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatlarini

aniqlash va bundan keyingi rivojlanishlari uchun imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat. Buning uchun o‘quvchilarning ijodiy individualliklari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, metod va vositalarning ahamiyati, ta’sir darajasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu jarayonda esa o‘qituvchining sa’y-harakatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga oid kreativ fikrlashga o‘rgatishi, dars jarayonida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirishi, bilishga doir eng maqbul innovatsion texnologiyalardan, natijaviy zamonaviy metodlardan, va asosiysi, eng ilg‘or sinalgan shakl va vositalardan foydalanishi o‘quvchilarning individual ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng samarali amaliy ish hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarimning tasdig‘i sifatida ayrim tajribalarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Men o‘z darslarimni o‘tish qulay va jonli bo‘lishi hamda o‘quvchilar xotirasida mustahkam saqlanib qolishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar bilan birga mavzuga doir topshiriqli kartochkalar, grafikli mantiqiy topshiriqlar ishlab chiqaman. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilaman.

Masalan, Abdulla Qahhor ijodini o‘tayotganimda quyidagi topshiriqni beraman:

Siz o‘qigan asarlaringizda epigraflar voqealarni ochishda nechog‘lik xizmat qilgan? Agar siz bu epigraflarni ma’qul deb bilmasangiz, uning o‘rniga qanday epigraf tavsiya qilgan bo‘lar edingiz?

Asar nomi va muallifi	Muallif tanlagan epigraf	Asardagi ahamiyati	Mening tavsiyam

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar uch yoki undan ortiq asarlar va ulardagi epigraflarni yozadilar va kerakli o‘rinlarda o‘z tavsiyalarini beradilar.

Keyingi topshiriqda esa, 8-sinfda o‘rganilgan Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” asari asosida quyidagi ***jadvalni “asar ichida” va “asar tashqarisida” turib to‘ldirish*** topshirig‘ini beraman:

O‘zingiz	Vaziyatlar	Javobingiz
Asar ichidasiz: Inod sifatida	Ushbu mushkul vaziyatdan qanday chiqqan bo‘lar edingiz?	
Asar ichidasiz: Egamberdi sifatida	Inodni qutqara olarmidingiz? Qanday qilib?	
Asar tashqarisidasiz: Kitobxon sifatida	Asar qahramoniga qanday maslahat berar edingiz?	

Ushbu topshiriqdagi uchinchi ustunni har bir o‘quvchi individual yondashgan holda mustaqil ravishda to‘ldiradi.

Murakkab, o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan oson va tez o‘zlashtirilishi uchun turli xil usullar va didaktik o‘yinlardan foydalanaman. Darslarda mavzuni chuqurroq o‘rganish maqsadida darslikdan tashqari berilgan manbalar, masalan, o‘rganilayotgan asar (she’r, hikoya, qissa va h.k.)larning yozilish tarixi, asar qahramonlari va voqealari tadqiq va tahlil etilgan maqolalar, asar sujeti asosida yaratilgan multfilm, badiiy film, spektakl, videofilm yoki hujjatli filmlarni ko‘rib, taassurot yozib kelish, yoki badiiy asardagi asar qahramonlari, joylar va ifoda etilgan tabiat tasvirlarini asarning boshqa talqin (multfilm, badiiy film, spektakl)lar bilan qiyoslab, jadvalga solishtirma usulida yozib kelishlarini topshiriq sifatida beraman. Masalan, bu topshiriqni bajarishda quyidagi jadval o‘quvchilarga havola etiladi.

Aleksandr Grinning “Alvon yelkanlar” asari va asar sujeti asosida suratga olingan badiiy filmning solishtirma jadvali	
Mushtarak tomonlari	Farqli tomonlari

Topshiriqni bajarishda o‘quvchilar 8-sinf adabiyot darsligida berilgan Aleksandr Grinning “Alvon yelkanlar” asarining ikki xil talqinini mustaqil tarzda solishtirib tahlil qiladilar.

Mavzuni mustahkamlash darslarida esa o‘quvchilarimga uyga vazifa sifatida asarning g‘oyasi, mohiyati ochib berilgan o‘rinlardan yoki qahramonlar ishtirokidagi diologlar, monologlarni ifodali o‘qib, audiomatn ko‘rinishida tayyorlab kelishni loyiha ishi sifatida

beraman. Yuqoridagi topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan qiziqish bilan bajariladi.

Bu usullar orqali o‘quvchilar asar matni bilan yaqindan tanishadilar, qahramonlar holatini, ruhiyatini ich-ichidan his etib, asar mohiyatini yaxshiroq anglaydilar, mustaqil izlanishlar olib borishlari natijasida mavzuga ijodiy yondasha boshlaydilar.

Ma’lumki, ta’lim har doim yangilanishga, izlanishga va kreativ yondashuvga mushtoq. Shuning uchun iloji boricha ta’limning yangi usullarini ishlab chiqishga, o‘quvchilarni adabiyotga, umuman, barcha fanlarga qiziqishlarini o‘stirish ustida izlanishimiz zarur. Bu hozirgi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev M. Adabiyot fanida grafik organayzerlar// Til va adabiyot ta’limi. 2014, 6-son. – B.6.
2. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 204 b.
3. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 248 b.
4. 9-sinf adabiyot darsligi (I qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 224 b.

KOMPETENTLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOT DARSLARINING O‘RNI

Ozoda Shukurboyeva,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada adabiyot ta’limini yanada rivojlantirish yo‘llari, mustaqil fikrlaydigan hamda tarbiyalangan shaxsni shakllantirishda adabiyot o‘qitish metodikasining o‘rni ko‘rsatib berilgan. Adabiyot

o‘qituvchisi e’tibor qaratishi kerak bo‘lgan vazifa va masalalar bosqichlarda sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot o‘qitish, kompetentlilik, mustaqil fikrlash, ta’lim, tarbiya, savol va topshiriqlar, uyga vazifa.*

Inson bolasi tug‘ilibdiki, adabiyotga oshno bo‘ladi. Ona allasi orqali adabiyot uning quloqlari va qalbiga singa boshlaydi. Asta-sekin bu jarayon ertaklar-u she’rlarga, tez aytish-u topishmoqlarga ko‘cha boshlaydi. Mana shu o‘rinda adabiyot – ko‘hna qo‘shiq, hayot ta’limi, insonni yaxshilikka chorlovchi bir kuch ekanligi namoyon bo‘ladi. Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to‘lqunlarni yaratmoqdir” [Fitrat, 1995: 21]. Shunday ekan u bilan oshufta bo‘lgan boladan kelajakda yaxshiliklar kutish, uning yordamida o‘quvchini ezgu fikrli, ezgu so‘zli, ezgu amalli inson qilib tarbiyalash mumkin. Bugungi kunda uzluksiz ta’limda bo‘lajak shaxning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, narsa-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ilg‘ay oladigan, hayot qiyinchiliklari oldida dovdirab qolmaydigan, duch kelgan muammolarga munosib yechim topa oladigan, barcha insoniylik xususiyatlariga ega tarbiyalangan shaxsni shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun bir qancha e’tibordan chetda qolayotgan muammolarning hal qilish yo‘llarini sanab o‘tish lozim.

Birinchidan, ta’limdan tarbiyani ajratmaslik. Kerak bo‘lsa, tarbiyani ta’limdan ustun qo‘ymoq darkor. Agar mumtoz asarlarimiz va tarixiy adabiyot o‘qitilishiga e’tibor qaratsak, bizda tarbiya birinchi o‘ringa qo‘yilganini guvohi bo‘lamiz. Buni birgina jadid bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” kabi hikmatli so‘zlaridan ham anglashimiz mumkin. Shu o‘rinda hozirgi maktab ta’lim tizimida tarbiya ancha ortga surilib qolayotganligini, o‘zga davlatlar ta’limiga ergashib tarbiya qolib ketayotganligini aytib o‘tish darkor. Buning natijasida hozirgi maktab tizimida ta’lim berishda hatto bilimli hamda o‘z fani bo‘yicha yuqori metodikaga ega o‘qituvchi ham ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, ayniqsa, bu yuqori sinf o‘qituvchilarida kuzatilmoqda. Bunday jarayonning

davom etishi o‘qituvchining o‘z kasbidan bezishiga, o‘quvchilarni esa ham tarbiyasiz, ham ta’limsiz qolishiga olib keladi. Shuni yodda tutish kerakki, hech qaysi yurt ta’limida biznikidek ta’lim va tarbiya teng olib borilmagan. To‘g‘ri, hozirgi kunda taraqqiyotga erishgan davlatlar ta’limiga ergashish mumkin, ammo bir narsani, ya’ni azaliy tarbiyani ham unutmaslik lozim. Chunki tarbiyasi yo‘q bolaga ta’lim berib bo‘lmaydi, tarbiyasiz va ta’limsiz kishi esa yurt taraqqiyotiga hissa qo‘sha olmaydi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimidagi har qanday o‘qituvchi o‘z ishini har bir o‘quvchining maktab davridayoq kasbiy kompetentlik, mustaqil bilish faoliyati kompetentligi, ijtimoiy-fuqarolik kompetentligi, ijtimoiy-mehnat kompetentligi, maishiy kompetentlik, madaniy va dam olish kabi kompetentlik xususiyatlariga ega bo‘lishini ko‘zda tutgan holda bilim va tarbiya berishi lozim. Aks holda, kelajakda bilimli shaxs bo‘lib yetishgan bola ijtimoiy va kasbiy hayotni ham o‘z o‘rnida olib keta olmasligi mumkin.

Uchinchidan, adabiyot darslarida o‘quvchiga “yomon” baho qo‘ymaslik kerak. Adabiyot darslari o‘quvchi ko‘nglini tarbiyalaydi, ma’naviyatini shakllantiradi. Ko‘ngilga esa “yomon” baho qo‘yish, ma’naviyatini salbiy baholash o‘quvchi ruhiyatini tushishiga, adabiyot darsidan bezishiga, fikr bildirishga uyalishiga olib keladi. Bu holatga professor R. Niyozmetova shunday fikr bildiradi: “Asarlar ustida ishlash jarayonida uning mohiyatiga kirib borayotgan, o‘z fikri va munosabatlarini asardan misollar keltirib asoslayotgan, mustaqil fikr bildirayotgan yoki bunga intilayotgan o‘quvchiga yomon baho qo‘yilmaydi. Umuman, adabiyot ta’lim jarayonida salbiy baholardan imkon qadar tiyilish, o‘quvchilarni bilimlari uchungina emas, ma’naviy qiyofalari uchun ham baholash lozimligi yodda tutilishi joiz”[Niyozmetova, 2020: 65].

To‘rtinchidan, uy vazifalarini berishda o‘quvchida mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatini shakllantirishga e’tibor qaratish. Bunda mavzuni qayta gapirib berishga yoki nazariy ma’lumotlarni oddiy konspekt qilib kelishga asoslangan emas, balki mustaqil fikrlashga undaydigan uyga vazifalar berish. Ana shu o‘rinda o‘qituvchining o‘z metodi, o‘qituvchilik mahorati namoyon bo‘ladi. Uy vazifalarining sinfdagi faoliyatdan farqi ham topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zi tomonidan mustaqil bajarilishi hisoblanadi.

Ko‘pgina o‘qituvchining ta’limdagi xatosi uy vazifalarini o‘quvchilarga qanday bajarish kerakligini to‘g‘ri yoki kengroq tushuntirmasligidir. Buning natijasida o‘quvchi ham o‘qituvchiga moslashadi. Uning nimani so‘rashiga qarab uyga vazifani bajarib keladi. “Uy vazifalarini bajarilishdagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmasligi kerakligidir” [Niyozmetova, 2020: 264]. Agar o‘qituvchi o‘quvchidan uyga vazifani og‘zaki gapirib berishini so‘rasa, qirq besh minutlik qisqa darsning ancha qismi uch yo to‘rt nafar o‘quvchini eshitish bilan o‘tib ketishi yoki voqealar, nazariy ma’lumotlar qayta hikoyalanishi, natijada esa dars qolgan o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lishiga, kam o‘quvchini baholanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Beshinchidan, mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savol va topshiriqlarni nazariy ma’lumotlarni takrorlash uchun emas, balki muammoli tarzda yoki o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan tarzda tuzish kerakligi. Shuningdek, savol-topshiriqlarning o‘quvchilarda badiiy-estetik didni, tafakkurni hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradigan darajada tuzilishini ta’minlash zarur. Bunda o‘quvchining mantiqiy, tanqidiy hamda mustaqil fikrlashi shakllanadi. “Dars davomida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar ishtirokini talab qiladigan savollar o‘rtaga tashlanmasa, ularning mavzuga ijodiy yondashishlariga erishib bo‘lmaydi. Agar o‘qituvchi ritorik savollar bilan birga o‘quvchilardan javob talab qiladigan savollarni qo‘llasa, ritorik savol, o‘quvchilarning aqlini zo‘riqtirib, e’tiborini kuchaytira borib, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Javob talab qilinadigan savollar esa o‘quvchilarni zaruriy faktlarni aniqlab, isbotlab berish bilan birga o‘z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko‘nikmasini ham tarbiyalab boradi” [Niyozmetova, 2020: 257]. Agar o‘qituvchi metodikasi yaxshi shakllangan bo‘lsa, o‘quvchilar oldiga mustaqil ravishda mulohaza yuritadigan, baholash talab qilinadigan savollarni qo‘yish orqali sinfdagi dars muhitini yanada qiziqarli qiladi, o‘sha savol va topshiriqlar orqali o‘quvchining aqli va his-tuyg‘ulariga keskin ta’sir qiladi, ularni ishlashga undaydi.

Oltinchidan, metod va texnologiyani to‘g‘ri tanlash. Adabiy ta’limda ta’lim metodlari va texnologiyalarnining samarali

qo‘llanishi an’anaviy darsning samarasidan ko‘ra ancha sezilarli natija kasb etadi. Chunki, o‘quvchida turli xil psixologik jarayonlar kechadigan davrda uning yoshiga, fikr doirasiga mos keladigan metod va texnologiyani to‘g‘ri tanlagan holda dars jarayonini tashkillashtirsak, bu bolada fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi hamda darsdan ko‘zlangan natijaga erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompetentli va mustaqil fikrga ega shaxsni tarbiyalashda hamda ularda umumiy o‘rta ta’limning malaka talablarini, adabiyotga oid kompetensiyalarni shakllantirishda, o‘quvchilarning adabiy- estetik didini, ma’naviy-axloqiy dunyosini rivojlantirishda adabiyotni samarali o‘qitishning ahamiyati cheksizdir. Shuningdek, bu jarayonning yaxshi yo‘lga qo‘yilgani o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtiradi, ularda mustaqil hamda obrazli fikrlashga doir bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantiradi. Shuningdek, darslarni yanada qiziqarli va jonli o‘tkazishda darsning har bir bosqichiga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ana shundagina doska yoniga kelishga qo‘rmaydigan, har bir masala yo muammoga yechim topa oladigan, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma holda ham dadil ayta oladigan shaxslar shakllanadi. O‘quvchilarini badiiy so‘zning mohiyatiga kirishga, so‘zni his qilib, undan ta’sirlanishga va tuyganlarini so‘z bilan ifodalab berishga o‘rgata olgan bunday o‘qituvchining o‘zi ham, u tarbiyalayotgan o‘quvchilari ham kompetentli shaxslar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari . – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 112.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsion-Ziyo, 2020. – B. 352.
3. Niyozmetova R. Ona tili va adabiyot fanidan o‘quv qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2014. – B. 298.
4. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007. – B. 20.

POETIK TAFAKKUR MASALASINING O‘RGANILISHI

Yulduz Karimova
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda poetik tafakkur masalasining o‘rganilishi, shuningdek, adabiyotshunoslikda tafakkurning bir necha turlari: badiiy, ilmiy, ijodiy, mantiqiy, milliy, intelektual, mifologik, obrazli, epik va falsafiy turlaridan foydalanilishda ijodkorning individual poetik tafakkurining shakllanish omillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *poetika, tafakkur, obraz, adabiy tur, oqim, uslub, metod, ob’ektiv voqelik, badiiy tafakkur, ilmiy tafakkur, davr tendensiyasi.*

Zamonaviy antropologik psixologiyada muallif tafakkurning poetik tushunchalariga murojaat qilib, inson tafakkurining ko‘p o‘lchovlilik, ikki tomonlama konstruktivlik, proektivlik, nochiziqlilik, metaforalik kabi jihatlari ochib beriladi. Adabiyotshunos N.I.Nelyubin tafakkur haqida: “...g‘oya she’riy tafakkurning semantik arxitektonikasida inson tafakkurining “intensiv imkoniyatlari”ning butun spektri – tafakkurda namoyon bo‘ladi, unda ongning turli darajalarida paydo bo‘ladigan, lekin bir-birini to‘ldiruvchi munosabatlarda bo‘lgan semantik shakllanishlar birlashadi. Poetik tafakkurning ajralmas birligiga aylantirilib, unga “dinamik samaradorlik” beradi”, –deydi. Bunda asosiy e’tibor tafakkurda g‘oyaning yaratilish jarayoniga qaratilgan bo‘lib, asar koloritini oshirishda ong ostida shakllangan g‘oyaning yuzaga chiqish funksiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va bu shakllanish individual poetik tafakkurning yangilanishiga asos bo‘lishi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, Aristotelning “Poetika” asarida shoirning boshqalardan o‘zlashtira olmaydigan yagona xususiyati va o‘zligini belgilovchi asosiy vosita sifatida metaforalarni qo‘llash qobiliyati ekanligi ta’kidlanadi. Adabiyotshunos X.Ortega-i Gasset esa “...metaforani poeziyada ham faqat nutq bezagi emas, balki badiiy tafakkur asosi sifatida tushunilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki

metafora shoirga o‘zining ichki olamini tashqi olamga qiyosan va o‘zidan tashqaridagi olamni (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo‘q vosita”, [Gasset, 1990: 72] – deydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur tushunchasiga yaxlit holda ta’rif berilmagan. Poetik tafakkur masalasini batafsil yoritish uchun ushbu so‘zlarning izohiga e’tibor berishni va shu asosida ularni yaxlit tushuncha sifatida shakllantirishni maqsad qilib oldik.

“Poetika (yunoncha poietike techne – ijod san’ati) – keng ma’noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanilayotgan ma’noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta’limot. Poetikani, umuman, adabiyot, so‘z san’ati haqidagi fan – adabiyot nazariyasi ma’nosida tushunish antik davrlardan an’anaga aylangan” [Quronov, 2013: 233]. Adabiyotshunos Sirojiddinov tasnifga ko‘ra, “poetika fani quyidagi yirik sohalarni o‘z ichiga oladi:

1) umumiy poetika (yoki nazariy poetika – makro poetika) – fonika, ritmika, metrika, strofika (band), stilistika, sujet va obrazlar tizimi;

2) xususiy poetika (yoki mikropoetika) – ma’lum bir ijodkorning asarlarini (yoki bir asarini) badiiy jihatdan tadqiq qilish;

3) tarixiy poetika alohida olingan poetik usullar va ularning tizimini qiyosiy- tarixiy adabiyotshunoslik vositasida o‘rganish.

Poetika zamonaviy adabiyotshunoslikda ma’no ko‘lami va qamrov jihatdan yanada kengroq tarmoqlarni o‘zida birlashtirib qo‘llanila boshlandi. Demak, poetika fani muayyan adabiy asarning badiiy ta’sirchanlik qudratini tadqiq qiladi. Poeziya san’at bo‘lsa, poetika shu san’atni ilmiy tahlil qiluvchi fandir. Aslida “Poetika” istilohi ilmiy muomalaga, dastavval, Arastu tomonidan kiritilgan bo‘lib, uning shu nomli asarida bu so‘z quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

a) badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo‘lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiyalar tashuvchi vositalar yig‘indisidir;

b) adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo‘lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o‘rganuvchi ilmiy predmetdir (Y.Borev). Y.B.Borevning ta’rifiga ko‘ra, tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi hisoblanadi. Shundan

kelib chiqqan holda, mumtoz poetikani nazariy va tarixiy poetikaning muayyan tarzdagi umumlashmasi, deb qarash mumkin [Sirojiddinov, 2018: 278]. Mumtoz adabiyotda poetika masalalari keng qamrovli bo‘lib, unga faqat badiiy san’atlar nuqtayi nazaridan baho berish bir yoqlama fikrlashga olib keladi.

“Poetika – badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan, eng qadimgi adabiyotshunoslik fani. Keng ma’noda poetika adabiyot nazariyasi tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot nazariyasi sifatida poetika adabiy tur va janrlar xususiyatini, oqim va yo‘nalishlar, uslub va metodlarni o‘rganadi hamda badiiylik darajasi o‘rtasidagi ichki bog‘lanish va o‘zaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etadi” [Ensiklopediya, 2019]. Tabiat, jamiyat, inson o‘rtasidagi aloqalarni badiiy tadqiq etish poetikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Aristotel esa o‘zining “Poetika” asarida poetika san’atining kelib chiqishiga 2 ta sabab bor deydi:

1) gavdalantirish, o‘xshatish;

2) bilim olish.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslikda “Poetika” so‘zi ishlatila boshlandi. Badiiy adabiyot va fan, adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik bo‘limlaridan tashqari, yozuvchining badiiy uslubi, shuningdek, badiiy tasvir vositalari ham poetika deyiladi. Demak, poetika yozuvchining mahorati ekan, shu mahoratning asosi, ya’ni ildizi tafakkurdir. Ijodkorning poetik tafakkuri nechog‘lik keng va sermahsulligini u yaratgan badiiy asar belgilaydi. Ammo adabiyotshunoslikka oid manbalarda “poetik tafakkur” tushunchasi haqida alohida, yaxlit ta’rif berilmagan. “Tafakkur” so‘ziga ham ta’rif falsafa va psixologiya fanlari doirasida umumiy berilgan bo‘lib, uni quyidagicha keltirish mumkin:

“Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish bosqichidir. Inson miyasining alohida funksiyasi. Fikrlash jarayonida insonda kashfiyot, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq

ravishda namoyon bo‘ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida yuzaga keladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayibgina qolmay, balki orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi”[G‘oziev, 1990: 3]. Tafakkurning o‘zagi fikrdir. Inson o‘zining nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatini o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Tabiiyki, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu xususiyat tabiiy intuitsiya orqali amalga oshiriladi.

Demak, poetikaning tor ma’noda ifodalanishi bilan tafakkur tushunchasiga asoslanib, “poetik tafakkur”ga quyidagicha nazariy ta’rif beramiz. Poetik tafakkur – ijodkorning umri davomida to‘plagan tajribalari asosida shakllanib, uning ong ostida yuzaga keladigan, dunyoning mavjud qiyofasini hissiy va aqliy idrok etilgan tomonini sinxronlashtirishga harakat qiladigan, subyektiv olamida fikrni mantiqiy izchillik asosida yuzaga chiqaradigan, bilish va o‘z ijodiy qobiliyatini namoyon qilishdir. Poetik tafakkur natijasida ijodkor dunyo qiyofasini o‘zgartirib, boyitib, shu orqali o‘zining hayotiy olamini va uning realistik qiyofasini kamaytirib, romantik xususiyatini bo‘rttirib ko‘rsatishga qodir bo‘ladi. Haq va haqiqatga yetishning vositalaridan biri tuyg‘u va tafakkurning birlashuvi, sintezi hisoblanadi. Falsafada tafakkurning bir necha turlari mavjudligi qayd etilgan. Ammo adabiyotshunoslikda badiiy tafakkur, poetik tafakkur, estetik tafakkur, falsafiy tafakkur va intellektual tafakkur kabi turlari ko‘pincha, sinonimik holatda qo‘llaniladi. Biroq har qanday tafakkurning obyekti bitta – real borliq, bizdan tashqaridagi olam. Bu tafakkur turlari shu obyektiv dunyoni idrok qilish, o‘zlashtirishning turli shakllaridir. U shakllarning har biri o‘z vazifasiga ega hisoblanadi. Falsafiy va estetik tafakkurda ijodkor didi, olam va odam haqidagi mushohadasi, dunyoqarashi aks etadi.

Intelektual tafakkurda esa ijodkor aqliy jihatdan o‘z davridan ancha ilgarilab ketadi. Badiiy va poetik tafakkurda adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolarini ko‘tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-ma’rifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda ko‘rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda poetik tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. O‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur masalasini ikki yo‘nalishda o‘rganish mumkin:

A) umumiy – (bir ijodkorning umri davomida yozgan asarlarini makro maydon doirasida o‘rganish);

B) xususiy – (bir ijodkorning bitta yoki ikkita asari doirasida o‘rganish. Bitta obyekt misolida tahlil qilish).

O‘zbek adabiyotida poetik tafakkur masalasini o‘rganish bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Dastlab, 2011-yilda A.N.Xamdamovning “Abdulla Oripov she’riyatida xalqona poetik tafakkur muammosi,” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida xalqona poetik tafakkurning asosiy tamoyillari, shoir tafakkuri bilan xalq rivoyatining sinteziga oid masalalar nazariy va amaliy aspektda o‘rganilgan.

I.I.Adizovaning “Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi,” nomli tadqiqotida esa o‘zbek mumtoz adabiyotida diniy va tasavvufiy g‘oyalar, poetik an’ana sintezi, poetik janrlar takomili, poetik shakl yangilanishi va badiiy san’atlar takomili shoira lirikasi misolida tadqiq qilingan.

2021-yilda R.T.Mullaxo‘jaevaning “80-yillar o‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon ijodi” mavzusidagi tadqiqotida esa badiiy tafakkurning belgi va xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi va she’riyatdagi shakl va mazmun uyg‘unligi, obrazlar semantikasi hamda she’riyatdagi poetik tafakkurda an’ana va yangilanish kabi masalalar o‘rganiladi.

Sh.X.Xojiyevaning “Cho‘lpon she’riyatida poetik tafakkurning yangilanish tamoyillari” deb nomlangan tadqiqotida badiiy obraz yaratishda mumtoz poetik an’analarning o‘rni, Cho‘lpon ijodida poetik folklorizmlarning turlari va vazifalari, shoir she’riyatida poetik janrlar va vazn yangilanishi kabi masalasi yoritilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda, asosan, ijodkorning uslubiga, badiiy tasvir vositalariga e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda g'oyat nozik bir jihat bor. Ijodkor poetik tafakkurining yangilanishi, asosan, nutq orqali yuzaga chiqadi. Biz tadqiqot ishimizda ijodkor poetik tafakkuridagi o'ziga xoslikni aniqlash uchun 4 ta omilni zarur deb hisobladik. Bular:

1) badiiy nutq
2) poetik tasvir
3) intelektual tafakkur
4) davr g'oyalariga ob'ektiv yondashuv.

Adabiyotshunoslikda tafakkurning bir necha turlaridan badiiy, ilmiy, ijodiy, mantiqiy, milliy, intelektual, mifologik, obrazli, epik va falsafiy turlaridan keng foydalaniladi. O'zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur va badiiy tafakkur atamalari barobar qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova I.I.Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.dok.diss... – Toshkent, 2020.
2. Mullaxo'jaeva R.T. 80-yillar o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon ijodi. PhD diss... – Toshkent, 2020.
3. Нелюбин Н.И. Поэтические концепты мышления (опыт расширения предметного поля антропологической психологии) Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение». https://Cyberleninka.ru ВАК69.
3. QuronovD., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 233.
4. Sirojiddinov Sh. Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 278.
5. Х. Ортега-и Гассет. Два великие метафоры. //Теория метафоры. – М.,1990. – С.72.
6. Xamdamov A.N. Abdulla Oripov she'riyatida xalqona poetik tafakkur muammosi. Fil.fan.nom.diss... – Toshkent: 2011.
7. Xojiyeva Sh.X. Cho'lpon she'riyatida poetik tafakkurning yangilanish tamoyillari. PhD diss... – Qarshi, 2019.
8. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B.3.
9. https://www qomus.info. onlayn ensiklopediya. 1-oktabr, 2019.

TEMURIYLAR DAVRI SHE'RIYATIDA LAYLI TIMSOLI (ATOYI VA SAKKOKIY IJODI MISOLIDA)

Kamola Ulug'murodova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola temuriylar davri adabiyotida adabiy-ijodiy muhitga bo'lgan e'tibor hamda shu davrda yashagan shoirlar, jumladan, Atoyi va Sakkokiylarning she'riyatida qo'llangan Layli timsolining badiiy talqinini yoritib berishga qaratilgan. Shuningdek, shoirlarning Layli timsolini ijodida necha bor qo'llagani va ularda mazkur timsol qanday mazmun- mohiyat kasb etishi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: *timsol, obraz, ishq, tasavvuf, Layli, Majnun, oshiq, yor*

XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda temuriylar davlatining yuzaga kelishi, shu hududda yashovchi barcha xalqlarning bir davlat atrofida birlashishiga, ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'p hollarda barqarorlashuviga, madaniy hayotning qayta tiklanishi va rivojlanishiga olib keldi [Hayitmetov, 1996: 3].

Bu davrda nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda balki, ilm-fanda ham rivojlanish jadallashdi. "Amir Temurdan so'ng uning davlati ikkiga bo'linib, Xurosonda Shohruh Mirzo, Movaraunnahrda Ulug'bek Mirzo hukmronlik qilgan bo'lsalar-da, bu ikki mamlakat hududidagi ilmiy-madaniy aloqalarga putur yetmadi. Ya'ni bu davrda ijodkorlar qaysi hududni o'zlariga qulay deb bilsa, o'sha yerda yashab, erkin ijod qildi" [Hayitmetov, 1996: 6].

Shohruh Mirzo va Ulug'bek Mirzo hukmronlik yillarida, jumladan, XV asrning birinchi yarmida adabiy hayot keng taraqqiy etdi. Bu davrda Xurosonda, Navoiy qayd etishicha, o'zbek tilida asar yozuvchi (turkiygo'y) shoirlardan Haydar Xorazmiy (XIV asrning oxiri, XV asrning I yarmi), Mavlono Atoyi (XV asr), Sakkokiy (XV asr), Mavlono Lutfiy (1366-1465), Hofiz Xorazmiy (XIV asrning II yarmi, XV asrning 30- 40-yillari), Gadoyi (1403/1404- XV asrning

oxiri)larning ijodi alohida ahamiyat kasb etadi [Hayitmetov, 1996: 3]. Qolaversa, ilmiy manbalarda temuriy hukmdorlar orasida ham badiiy ijod bilan shug‘ullangan, mumtoz adabiyotimiz rivojiga o‘z hissalarini qo‘shgan, ilm-fanga yaqin shahzodalar borligi qayd etilgan. Jumladan, “Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ulardan 22 ta temuriy ijodkorlarning ism-shariflarini zikr etib, qisqa-qisqa to‘xtalib o‘tgan. Sulton Husayn Boyqaro (1438) ijodi va devoni tahliliga u maxsus sakkizinchi bobni bag‘ishlagan”. [Hayitmetov, 1996:5]. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur (1483) ijodi ham o‘sha davr adabiy muhitida munosib baholanib, bugungi kungacha badiiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Mavlono Atoyi XV asrning birinchi yarmida yashab faoliyat yuritgan. Uning ismi Otoyi [O‘zbek adabiyoti, 1959:251], Atoiy [Mallayev, 1976: 296], Atoyi [Hayitmetov, 1996:7] kabi shakllarda atalganligi qator manbalarda o‘z asosini topgan. Atoyi she’riyati sermazmunligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z zamonasida mashhur bo‘lgan shoir turkiy xalqlar she’riyatiga, xususan, o‘zbek g‘azalchiligining tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarlarida Atoyi haqida aytilgan qimmatli ma’lumotlar bugun shoir ijodini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’lumki, har bir shoir o‘zining ichki kechinmalarini jamiyatda yuz beradigan voqea hodisalarga qiyoslab, turli obrazlar vositasida ba’zan yashirin, ba’zan oshkora ifoda etib, bor mahoratini ishga soladi. Xususan, Atoyi shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. Shoirning ijodiy sinchikovligi, tashbehlarining tengsizligi, she’riyatida har bir obrazni mohirlik bilan qo‘llay olishi uning yetuk shoir bo‘lganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, sharq xalqlari badiiy ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan Atoyi o‘z g‘azallarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayho, Masih, Ya’qub, Xizr kabi obrazlarni unumli qo‘llab, she’riyati mazmuniga singdira olganligi fikrimizga asos bo‘la oladi. Mazkur timsollar Atoyi ijodida ham tasavvufiy ruh, ham dunyoviy mohiyat kasb etgan. Buni biz “Layli” timsoli misolida ko‘rib o‘tamiz.

Atoyining 2008 - yil “Fan” nashriyotida nashr qilingan devonida “Layli” timsoli 4 o‘rinda faqat “Layli” shaklida qo‘llangan bo‘lsa, 2011-yil “Sharq” nashriyotida nashr etilgan “Jondan aziz jonona” g‘azallar to‘plamida Layli timsoli qo‘llangan baytlarning soni yana bittaga ko‘paygan. Ularda mazkur timsolning, asosan, Majnunning suyukli yori, badiiy asar qahramoni hamda asar nomiga ishora qilgan ma’nolari aks etgan.

Ey soching zanjirining aql-u xirad devonasi,
Qissayi “Layli-yu Majnun” kamtarin afsonasi. (Atoyi)

Shoirning ushbu matla bilan boshlanuvchi g‘azali g‘oyaviy jihatdan tasavvufiy ruhda yozilgan. Shoir ijodi yuzasidan izlanishlar olib borgan tasavvuf ilmining bilimdoni Sayfiddin Sayfulloh shunday deydi: “Atoyi she’rlariga Qur’on va hadislar mazmunini singdiradi. Muqaddas manbalardan ixtiboslar keltirib tasavvufdagi may, qadah, soch, zulf, qosh, ko‘z, bel, sanam, butxona, zunnor kabi istilohlar vositasida murakkab ma’no mazmunlarni ifodalaydi. Navoiy ta’biri bilan aytganda: majoz tariqi bila haqiqat asrorini kuylagan shoir. Uning har bir satridan darvishligi, din-u imonda sobitligi sezilib turadi”[Atoyi, 2011:22].

Darhaqiqat, yuqoridagi bayt Atoyining darvishvash shoirligidan dalolat beradi. Ya’ni g‘azalning dastlabki misrasida shoir yorning qop-qora uzun sochlari oshiqning aql-u hushini zanjirband qilib, devona ahvoliga solganini ta’kidlasa, uning ikkinchi misrasida oshiqning taqdiri “Layli va Majnun” haqidagi qissa va dostonlarning timsollari holiga tushganligini izohlab o‘tgan. Chunki bir qancha ijodkorlar tomonidan yozilgan shu nomdagi asarlardan ma’lumki, ularning barchasida Layli va Majnunning taqdiri murakkab tasvirlangan. Atoyi mazkur bayt orqali shu qiyinchilikni nazarda tutib, oshiq va ma’shuqaning dard-u ahvolini “Layli va Majnun”dek kamtarin bir afsona darajasida ekanligini ta’kidlamoqda. Demak, bu o‘rinda “Layli” timsoli badiiy asar qahramoni ma’nosini ifodalab, butun bir doston nomiga ishora qilgan.

Majnun so‘zini Layli qabilasida so‘zla,
Ya’qub ko‘zin Yusufi Kan’ondan ayirma. (Atoyi)

Bevosita “Yo Rab” deya Ollohga murojaat bilan boshlangan g‘azalning mazkur baytida ham “Layli” timsoli badiiy asar qahramoni ma’nosida qo‘llangan. Chunki ”Layli va Majnun” nomli

doston va qissalardan ma’lumki, Majnun Laylini uchratgach, faqat u tomon oshiqadi. O‘zligidan kechib, Layli xayoli bilan yashaydi. Majnunning ko‘ngil uyida faqat Layli ishqi mujassam bo‘lib, bularning barchasini uning qabilasida so‘zlash mumkinligi ko‘rsatilgan. Majnun o‘z qabilasini tark etganda, doim Layli qabilasi yon-atrofidan topilganligining sababi shunda. Shuningdek, shoir baytning ikkinchi misrasida ulug‘ payg‘ambarlar nomini tilga olib, *talmeh* san’atini mahorat bilan qo‘llagan.

Ma’lumki, muqaddas kitob sanalmish “Qur’oni Karim”da Ya’qub va uning o‘g‘li Yusuf alayhissalom haqida alohida oyat va suralar nozil qilingan. Xususan, 32- oyatda “Yusufning husn-u jamoli ta’rifida mubolag‘ali naqllar ko‘p. U Misr ko‘chalarida yurganida uning yuzidan barq urib chiqayotgan nurning aksi ko‘cha devorlarida namoyon bo‘lar edi. Boshqa insonlarga nisbatan uning husni bamisoli o‘n to‘rt kunlik to‘lin oyning yulduzlarga nisbatan ortiqligidek edi, deb baho berilgan” [Quroni Karim, 2021:239]. “Olloh taolo husnni yuz hissa qilgan. To‘qson to‘qqiz qismini Momo Havoga berib bir qismini butun dunyo ahliga ravo ko‘rgan. Shu bir ulushni yana o‘nga bo‘lib, to‘qqiz qismini Yusuf alayhissalomga, bir qismini bani basharga bergan” [Ochilov, 2012:289]. Shu bois Yusuf alayhissalomga berilgan ta’rifi-u tavsifning haddi a’losi ko‘rinmaydi. Uning nafaqat go‘zaligi, balki diyonati, ilm-u ma’rifati, iymoni butligi otasi Ya’qub alayhissalomda boshqa farzandlariga nisbatan Yusuf alayhissalomga kuchliroq mehr qo‘yishiga sabab bo‘ladi. Bu holat Yusuf alayhissalomning o‘n akasi va bir ukasida norozilik, kuyunchaklik illatlarini paydo qilib, Yusuf alayhissalomga nisbatan adovat uyg‘otadi. Natijada aka-ukalar Yusuf alayhissalomga nisbatan nohaqlik qilib, otalariga uning bevaqt o‘limi haqida yolg‘on xabar yetkazadi. Ya’qub alayhissalom uchun kutilmagan bu judolik tinimsiz yig‘i orqali ko‘zlarining ko‘r bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Atoyi she’riyatida mazkur holatni mahorat bilan talqin etilganini hamda uni g‘azalining birgina misrasi orqali

Ey musavvir, sizsang ul Layli sifatliq shaklini
Sizg‘asen onlinda men Majnuni hayron suratin.

E.Ochilov mazkur baytni shunday izohlaydi: “Shoirning o‘tkir va nozik badiiy mushohadalariga ko‘ra, musavvir Layli suratlik suratini chizsa, yonida Majnun kabi hayron bu oshiq rasmini ham

chizishi kerak, aks holda, surat mukammal bo‘lmaydi” [Atoyi, 2011:13]. Chindan, shoirning lirik qahramoni musavvirga murojaat qilib, oshiqning Layli misoli tengsiz ma’shuqasini suratini chizayotganda, albatta, yoniga oshiq – ya’ni Majnuni hayronni chizishni ta’kidlaydi. Bu bilan shoir oshiq va ma’shuqaning ishqi Layli va Majnun munosabatiga tenglasha olishini aks ettirgan va Layli timsolini suyukli yor ma’nosida qo‘llagan.

Adabiyotshunos E.Ochilov talqinicha: “Shoir o‘z she’rlarining darajasini ham, turkiy adabiyotdagi mavqe-maqomini ham yaxshi anglagan va bundan haqli ravishda faxrlangan” [Ochilov, 2012:280]. Shuningdek, “Shoirona nazarning o‘tkirligi, mushohadaning nozikligi, tafakkurning teranligi, didning balandligi, qalbning hassosligi, iste’dodning yetukligi, mahoratning yuksakligi va shunga muvofiq ravishda tilning sodda, ifodaning lo‘nda, uslubning ravon, ohangning ta’sirchan, badiiylikning mukammalligi, Atoyini o‘zbek mumtoz she’riyatining zabardast namoyondalaridan biriga aylantirgan va uning Sharq so‘z san’ati tarixidagi o‘ziga xos mavqeyini belgilagan asosiy omillar hisoblanadi” [Atoyi, 2011:14]. Darhaqiqat, Atoyi she’riyati nafaqat mazmun-mohiyati, balki timsollarning badiiyati bilan ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada birgina Layli timsoli fikrimizga asos bo‘la oladi.

XV asr o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan yana biri shoir Sakkokiy sanaladi. Asosan, qasidalari bilan shuhrat topgan shoirdan bizgacha kam miqdorda ijod namunalari saqlanib qolgan. “Taniqli turk olimi Kamol Eraslon tomonidan nashr etilgan shoir devonida 70 ta she’r mavjud” [Ochilov, 2012:284].

“Sakkokiyning bizgacha yetib kelgan barcha g‘azallari ishq-muhabbat haqida. Shuningdek, ular ohorli tashbeh-u timsollarga boy, she’riy san’atlar mahorat bilan qo‘llangan, uslubi ravon, tili soda”[Ochilov, 2012:284]. Qolaversa, badiiy obrazlarning g‘azal misralariga mahorat bilan singdirganligi, Sakkokiyning teran mushohadali ijodkorligidan dalolat beradi. Shoirning “Tanlangan asarlar” nomi ostida 1960- yilda nashr qilingan to‘plamida an’anaviy obrazlardan biri Layli timsolining besh o‘rinda qo‘llanganligiga guvoh bo‘ldik. Shu o‘rinda mazkur timsolning turli mazmun-mohiyat kasb etganligini qayd etish lozim. Xususan, quyidagi baytda Layli obrazi badiiy asar nomiga ishora qilgan.

Bizdan eshitsun emdi jahon toza qissalar,
Chun ko‘hna bo‘ldi Layli-yu Majnun hikoyati.

Mumtoz she’riyat vakillari ishq-muhabbat xususida to‘xtalganda, albatta, Layli, Majnun, Farhod, Shirin kabi obrazlarga murojaat etadi. Mazkur obrazlarning pok muhabbati shoirlar uchun ilhom manbai sanalgan. Shoir Sakkokiy ham lirik qahramonni ishq bobida yuqori darajaga yetganiga ishora qilgan. Ya’ni, shoir talqinicha, oshiq va ma’shuqaning ishqi misoli bir qissaki, ularning muhabbati oldida Layli-yu Majnun ko‘hna bir hikoyat hisoblanadi. Endi butun jahon yangi oshiq- ma’shuqning hikoyatini tinglaydi.

Ma’lumki, “Sharq mumtoz adabiyotida Layli va Majnun qissasi avj pardalarda kuylangan. Shu bilan birga, shoirlar orasida o‘zini Majnun, ma’shuqasini Layliga nisbat berish, hatto o‘zlarini bu ikki obrazdan ustun qo‘yish, har bir davrning oshiq-ma’shuqlari bo‘ladi, biz yangi zamon Layli Majnunlarimiz qabilida ijod qilish ham an’ana tusini oldi” [Ochilov, 2012: 280]. Darhaqiqat, mazkur holat Sakkokiy ijodida yuqoridagi bayt misolida o‘z asosini topdi.

“Sakkokiy o‘z she’rlarida kishilik muhabbatini, orzu-tilaklarini, dard-alamlarini ko‘rsata olgan usta lirik shoirdir” [Sakkokiy, 1960:7]. Jumladan:

Sabo zulfin taroyurda saharda solsa sunbulni,
Bo‘lub Majnun bikin shaydo parishon hol bo‘lur Layli.

Erta tongda mayin esgan yoqimli shamol yorning sochlarini silab taraganda, bu manzarani ko‘rgan Layli unga Majnuni shaydo bo‘lib, parishon ahvolga tushib qolishi mahorat bilan tasvirlangan. Chunki mashuqaning qora zulfi shu qadar taralganki, uning qarshisida Laylining parishon tortishiga sabab uyg‘otmoqda. Bu o‘rinda Layli timsoli go‘zal yor ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa-da, uning qarshisida lirik qahramon ta’riflagan yor go‘zalligi ustunligini anglash mumkin. Shu mazmunga yaqin holatni quyidagi baytda ham ko‘rishimiz mumkin.

Ne tong bo‘lsa agar Layli zulfunga Majnun,
Pari yuzungga bo‘lur xoli ko‘rsa devona.

Mazkur baytda, shoir talqinicha, yor ma’shuqasining go‘zalligi shu qadarki, uning qop-qora sochlariga Layli Majnun bo‘lsa, parimisol yuzini ko‘rganida, bu go‘zallikdan devona bo‘lib qolishi tasvirlangan. Chunki yorning ta’rifi tengsiz, go‘zalligi Laylidan ham

cheksizdir. Bu o‘rinda ham Layli timsoli go‘zal yor ma’nosida qo‘llangan.

Darhaqiqat, Sakkokiy she’riyati an’anaviy obrazlarning badiiyati bilan yana ham ta’sirli, mazmunli ruh kasb etgan. Shu bilan birga, shoir g‘azallarining teran mazmun ifodalashi uning temuriylar davrida yetuk shoir bo‘lganligidan dalolat beradi. Buni biz shoir she’riyatining asl bahosini bergan Alisher Navoiyning ta’rifidan ham bilishimiz mumkin: “Uyg‘ur iborati fusaxosindin va turkiy alfozining bulag‘osindin Mavlono Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin abyotining ishtihori Turkustonda bag‘oyat va birining latif g‘azaliyotining ishtihori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur va devonlari mavjud bo‘lgay”. [Munirov, 2011:211].

Xulosa qilib aytish mumkinki, temuriylar davri adabiy jarayoni mumtoz she’riyatimizning rivojlanishiga ko‘prik vazifasini bajargan. Bu davrda ijod qilgan Atoyi, Sakkokiy kabi shoirlarning she’riyati o‘ziga xosligi bilan katta ahamiyat kasb etgan. Qolaversa, ularning she’riyatida qo‘llangan Layli timsolining mazmun- mohiyati shoirlar ijodi badiiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoyi. Jondan aziz jonona. G‘azallar. Ochilov E. So‘zboshi.–Toshkent: Sharq, 2011. –B.13.
2. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. –Toshkent: Fan, 1996. – B.7.
3. Munirov Q. Sakkokiy. Maqola // Ma’naviyat yulduzlari. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B. 211.
4. Mallayev. N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1976. – B. 296.
5. Ochilov E. Barhayot siymolar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B. 280.
6. Qur’oni Karim. – Toshkent: Sano-standart, 2021. –B. 239.
7. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Q. Munirov. So‘zboshi. –Toshkent: O‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. –B. 7.
8. O‘zbek adabiyoti. IV tomlik, I tom. –Toshkent: O‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. –B. 251.

IJOD MAKTABLARIDA MUMTOZ NAMUNALARNING O‘QITILISHI

Intizor Jumaniyozova
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida, xususan, adabiy ta’lim jarayonida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ijod maktablarida mumtoz adabiyotning o‘qitilishi, o‘quvchilarning adabiy ta’lim jarayonida mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini yuksaltirish masalasini tadqiq etish kabi masalalarga darsliklar misolida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ijodiy, kreativ, mumtoz matn, innovatsion, maxsus adabiyot, mumtoz siymolar, milliy ta’lim*

Dunyo xalqlari tamaddunida jiddiy o‘zgarishlar yuz berayotgan bir davrda yurt ravnaqi, madaniyati va ma’rifati rivojida sa’y-harakat qilish har bir insonning oliy burchidir. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida, xususan, adabiy ta’lim jarayonida tadrijiy rivojlanishlarda yuksaklik kuzatilmoqda. Shu bois, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, uning istiqboli bilan bog‘liq har bir masala butun jamiyatni qiziqtiradigan mavzu sanaladi. Zero, farzandi kelajagi, oilasi farovonligini o‘ylagan ota-ona borki, o‘g‘il-qizini barkamol voyaga yetkazish tashvishida yashaydi. Bu Vatanning hurligi va taraqqiyoti, xalqining farovonligi hamda istiqbolini ko‘zlagan har bir davlat va jamiyatning oliy maqsadi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Milliy mustaqillik – Yangi O‘zbekistonning mustahkam asosidir” mavzusidagi nutqida 2026-yilgacha “Taraqqiyot” strategiyasi doirasida keyingi bajariladigan 5 ta asosiy vazifaning eng birinchisi ta‘lim tizimi bo‘lishini ta‘kidlaganlar.

Adabiyot insoniyat ma’naviyati kamoloti uchun dastur vazifasini o‘taydi. O‘tmish adiblar, olim-u shoirlar ijodiy merosini o‘rganish, o‘rgatish, o‘qitish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Qadim manbalar, tarixiy, nasriy asarlar mazmun-mohiyatini chuqur tushunish, ayni paytda mumtoz matn nafosatini his qilish o‘quvchi va o‘qituvchi oldiga qator muammolarni qo‘yadi. Yosh nuqtayi nazaridan mukammal tajribaga ega bo‘lmagan o‘quvchilar mustaqil ravishda mumtoz matn bilan ishlash ko‘nikmasini o‘zida shakllantirmagan bo‘ladi. Bu o‘rinda o‘qituvchi mumtoz asarlarni tushuntirishda yetakchi sanaladi.

Mamlakatimizda olib borilgan islohatlar natijasida ijod maktablari tashkil etildi. Ijtimoiy-gumanitar fan sohalarini o‘zida qamrab olgan Abdulla Qodiriy, Halima Xudoyberdiyeva, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ogahiy, Muhammad Yusuf nomli ijod maktablari iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini o‘stirish, rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Mazkur ijod maktablarida adabiyot fanining o‘qitilishi va o‘quvchilarning adabiy ta’lim jarayonida mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini yuksaltirish masalasini tadqiq etish bugungi kunning asosiy vazifasi sanaladi.

Mumtoz adabiyotni o‘qigan, mumtoz matn badiiyatini his qilgan o‘quvchida, avvalo, hayotiy haqiqatlarni anglay olish, tasavvur va tafakkur doirasi keng bo‘lish, mustaqil fikrlay olish qobiliyati shakllanadi. Shunisi e’tiborliki, adabiyotning boshqa fanlardan farqi inson qalbiga ta’sir qilib, uni butunlay o‘zgartira olishida namoyon bo‘ladi. Bunda adabiyot muallimining o‘rni va ijodiy mahorati juda katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi dars jarayonida badiiy matnning mazmuni bilangina cheklanib qolmay, unda ijodkor poetik niyatini anglay olmaydigan o‘quvchida ham mumtozona estetik didni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bunda adabiyot muallimining bilim va zakovati, badiiy tafakkurlashi va kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim jarayonini tashkil etishda asosiy rol o‘qituvchiga tegishli, shuning uchun kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirish har bir o‘qituvchi uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ta’limning istiqbolli rivojlanishi ta’lim mazmuni va texnologiyalariga innovatsion yondashuvlarni kiritish bilan emas,

balki o‘qituvchi, kasbiy kompetensiyaning darajasi oshishi bilan bog‘liq.

Metodist olim Safo Matjonov ta’kidlaganlaridek,“Adabiyot haqida muayyan darajada bilim olmasdan, asar g‘oyasi bilan hayot haqiqati o‘ratasidagi aloqani farqlamasdan, tasvirlangan voqelikka yozuvchi munosabatini anglamasdan, o‘qiganlarini umumlashtirish ko‘nikma va malakasini egallamasdan turib, badiiy asar mohiyatini to‘la ma’noda tushunib bo‘lmaydi”. [Matchanov, 1998 : 28]. Milliy ta’limda tarbiya ta’limdan oldin turishi isbotlangan. Tarbiyasi yaxshi bo‘lgan insongina ta’limni mukammal egallay oladi. Bilimga bo‘lgan intilish esa insonni ma’naviy kamolot sari yetaklaydi. Ma’naviyati yetuk insonlar ko‘paysa, jamiyat taraqqiy etaveradi.

O‘tmish ajdodlarimiz asrlar mobaynida intilib kelgan ma’naviy-axloqiy barkamollik, avvalo, insonning o‘z-o‘zini anglashi bo‘lib, ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. O‘z-o‘zini anglash esa boshqalarni anglashga, demakki, dunyoni anglashga, uning sir-asrorlarini tushunishga yo‘l ochadi. Shaxs ma’naviy kamolotida, o‘z-o‘zini anglashida so‘z san‘ati bo‘lgan badiiy adabiyotning roli beqiyos. Shuning uchun ham u yetti mo‘jizaning biri tarzida tilga olinadi.

Badiiy adabiyot insonning o‘zi kabi ko‘hna va ayni chog‘da hamisha navqirondir. Har bir davr unga o‘z muhrini bosadi. Lekin mazmun mohiyati bitta: inson va uning murakkab ruhiy olami.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Pahlavon Mahmudning ruboiylari, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari yuz yilliklar davomida insonlar qalbida ezgulik, olijanob his-tuyg‘ularni shakllantirishda, ularning ma’naviy komil inson bo‘lib yetishishida muhim vosita bo‘lib kelmoqda.

Adabiyot o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda o‘quvchilarga darslarda shoir va yozuvchilarning tarjimayi holi haqida ma’lumot berishdan oldin, avvalo, ular yaratgan noyob durdonalar bilan tanishtirish zarurligi ta’kidlangan, isbotlangan, tajribadan o‘tkazilgan va o‘zini oqlagan. Chunki bu jarayondagi fikrlar ijodkorga hurmat tuyg‘usini oshirish bilan birga o‘quvchi individual qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. O‘quvchilar badiiy adabiyotga mehr qo‘yib,

muntazam mutolaa bilan shug‘ullanar ekan, ularda ijodiy fikrlash, kreativ yondashuv shakllanadi. Yoshlarni ta’sirlantirgan, hayotga teran nazar bilan qarashga undagan, fikrlarining o‘zgarishiga turtki bo‘lgan mumtoz durdonalar yoshlar ma’naviy tafakkurini tubdan o‘zgartirish xususiyatiga ega.

Shu o‘rinda, oxirgi uch yillikda “Adabiyot” darsliklarida mumtoz namunalarning berilishiga e’tibor qaratsak. Hayratlanarlisi shundaki, nafaqat umumta’lim maktablari, hatto ijod maktablari darsliklarida mumtoz namunalarga ajratilgan sahifalar borgan sari qisqarib bormoqda. Bu kabi holatlar adabiy ta’limda o‘quvchi estetik didining pasayib borishini ta’minlashi mumkin. Mumtoz adabiyot namunalarini shunchaki, yuzaki o‘rganish ko‘zda tutilgan natijani bermasdan, balki milliy g‘ururni singdirish bilan bir qatorda, qadimiy va boy madaniyatimizni zaiflashtirib ko‘rsatishga xizmat qiladi, ham bir muncha qiyinchiliklar olib keladi.

2020-yilda ijod maktablari uchun chop etilgan adabiyot darsligida mumtoz namunalarning berilishi xususida fikr yuritar ekanmiz, mumtoz sahifalar uchun 7-sinf “Maxsus adabiyot” darsligida 20 soat ajratilgan.

Prezident ta’lim muassasalari tomonidan ijod va ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari uchun 2020-yilga mo‘ljallangan 10-sinf “Maxsus adabiyot” darsligida mumtoz namunalarga 15 soat ajratilgan, 2022-yilda J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjonov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova muallifligida nashr etilgan 8-sinf adabiyot darsligida mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishga 13 soat ajratilgan, 2022-yilda J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjonov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova muallifligida chiqarilgan 9-sinf adabiyot darsligida mumtoz adabiyot namunalari berilmagan. Darslikdan XX asrning ikkinchi yarmi adabiyoti va zamonaviy jahon adabiyoti durdonalari o‘rin olgan.

Prezident ta’lim muassasalari tomonidan ijod va ixtisoslashgan maktab o‘quvchilar uchun 2022-yilda J.Nurmuhammadov, Z.Mirzayeva, K.Jalilov muallifligida chiqarilgan 11-sinf adabiyot darsligida ham XX asr o‘zbek adabiyoti (1910-1990-yillar) va XX asr jahon adabiyoti (1910-1990-yillar) ning nodir namunalari berilgan. Darslikda mumtoz adabiyot namunalari esa mavjud emas.

Bugungi kunda ona tili va adabiyot darsliklarining yangidan chop etilishi biz uchun juda katta yangilik bo‘ldi. Necha yillardan beri yurtimizda jahon standartlariga mos keladigan, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga undaydigan darsliklarga ehtiyoj katta edi. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan, Yangi O‘zbekistonni bunyod qilayotgan bir davrda yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, barkamol qilib tarbiyalashda yangi darsliklarimizning o‘rni beqiyosdir. Mazkur darsliklarda adabiyot fani doirasida o‘quvchilarda rivojlantiriladigan tayanch kompetensiyalar to‘g‘ri shakllantirilgan.

Mulohaza uchun mavzu bo‘lgan masala mohiyatini tushunish, ilmiy jihatdan mulohaza bildirish shu o‘rinda asosli, deb o‘ylaymiz. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2022 – 2023-yilda 7-,8-,10-sinf ijod maktablari uchun chiqarilgan darsliklarda mumtoz adabiyot namunalari keltirilgan, ammo 2022-2023-yilda chop etilgan 9-, 11-sinf adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot namunalari o‘rin olmagan. Jahon adabiyotiga juda ko‘p urg‘u berilgan.

Nazarimda, o‘tmish adabiyot namunalarini, mumtoz siymolar ijodini o‘rganmasdan bugungi kun o‘quvchisida estetik did, milliy g‘urur, badiiy nafosatini shakllantirib bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyat bu qalbning eng oliy faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuhammadov J., Qambarova S., Olimov O., Yuldasheva M., Inomjonova S. Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod maktablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent, 2022.

2. Nurmuhammadov J., Qambarova S., Olimov O., Yuldasheva M., Inomjonova S. Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod maktablarining 9-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent, 2022.

3. Matchanov S. Umumta‘lim maktablarida mustaqil ishlarni tashkil etish. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – B.28.

4. Maxsus adabiyot. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2020.

5. Mirzayeva Z., Jalilov K., Nurmuhammedov J. Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod maktablarining 11-sinf “Adabiyot” darsligi. – Toshkent, 2021.

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODKORLIKKA CHORLASH

Ozodaxon Musaeva
Qozog‘iston Respublikasi Shimkent shahri
A.P.Chexov nomli №21
o‘rta bilim maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘zbek tili va adabiyoti darslarida o‘quvchilarda fanga qiziqishni orttirish, og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish – o‘stirish yuzasidan amaliy mashqlar bilan o‘rtoqlashish haqida yozilgan. Maqolada o‘quvchida kitob mutolaasiga muhabbat uyg‘otish, manba bilan ishlash, izlanish, saralash, dalil keltirish, xulosa yasash yuzasidan olib borilgan ishlar haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, erkin fikr, matn yaratish, izlanuvchanlik, manba bilan ishlash, saralash, xulosa, dalil keltirish.*

Til va adabiyot fanini maktablarda o‘qitishning eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarni savodxonligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, voqelikka baho berish, tahil qilish, xulosa yasash va dalil keltirish ko‘nikmasini tarbiyalashdir. Shu bilan birga so‘z boyligini oshirish, og‘zaki va nutq malakasini takomillashtirish.

Albatta, bunday ko‘nikma va malakalarini tarbiyalash o‘qituvchidan tinmay izlanishni va ijodkorlikni talab etadi. Jamiyatning hozirda internet bilan bevosita bog‘liqligi yoshlarning kitob mutolaasiga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunning talabi – jamiyatimizda o‘z fikr-mulohazasini erkin bayon qiladigan, voqelikka munosabat bildira oladigan, bilimlarini amalda qo‘llay oladigan shaxslarni tarbiyalashdir. Biz shogirdlarimiz orasidan yetuk shoir yoki yozuvchi tarbiyalay olmasmiz, ammo vazifamiz, ularni inson shaxsiyatini anglaydigan, ko‘ngil ko‘zi uyg‘oq, hayotda o‘z huquqlarini himoya qila oladigan, tariximiz, madaniyatimiz va ma’naviyatimizni, milliy

qadriyatlarimizni e’zozlaydigan insonlarni tarbiyalashdir. Buning uchun til va adabiyot darsi bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshirilishi lozim.Tildan olingan nazariy bilimlar adabiyot darslari orqali mustahkamlanib to‘ldirilib borilishi zarur. Yuqoridagi talab va maqsadlarni amalga oshirish o‘qituvchidan ancha izlanishni talab etadi.Shu sohadagi ijobiy natijalarga yetaklagan ayrim ish tajribam bilan o‘rtoqlashishni lozim topdim.

Birinchidan, o‘zbek tili darsliklarida turli mavzular yuzasidan nazariy ma’lumotlar – qoidalar beriladi. Shu mavzuga mos mashqlar bajariladi. Men o‘quv yil boshidan o‘quvchilar bilan kartochkali sistemani yo‘lga qo‘yganman. Buning uchun har bir o‘quvchi yil boshida o‘zi uchun bir badiiy asarni tanlaydi. Berilgan mavzu yuzasidan kitobdan mashq bajarishdan tashqari, tanlagan badiiy asaridan shu qoidaga mos misollarni topib kartochkalariga ko‘chiradi, misol tagiga asar muallifi, asar nomi va olingan beti yozib qo‘yiladi va bunday topshiriqlar maxsus nomlangan konvertlarga yig‘iladi. Bunday mashqlar bizga nima beradi? Masalan “So‘z yasovchi qo‘shimchalar” mavzusini o‘rganar ekanmiz, tarkibida yasovchi qo‘shimcha olgan so‘zlar ishtirok etgan gaplarni badiiy asarlardan topib kelish vazifasi topshirilganda o‘quvchilar tomonidan topib kelgan misollardan:

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda.
Bu qanday yuz qarolig‘ deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim.
(Muhammad Yusuf “Vatanim” she’ri)

Yoki uyushiq bo‘laklar mavzusiga esa:

“Mulozimlar va qo‘rchilar kutilmagan falokatdan vahimaga tushib orqaga qochdilar. Otlar hurkib, no‘xatlarini uzgudek siltanishlar va kishnashardi.”

Yoki: “Mirzoning o‘zi esa tom yog‘ochlariga, somon suvoqlariga, jar tuproqlariga aralashib, uch terak bo‘yi pastga qulab ketdi” (P.Qodirov “Yulduzli tunlar”)

O‘quvchi :

1. O‘zi yodlagan qoidaga mos misollarni qidirar ekan olgan nazariy bilimini mustahkamlaydi.
2. Bunday topshiriqlar o‘quvchida izlanuvchanlikni shakllantiradi, o‘zini kichik tadqiqotchi – olim sifatida his etadi.
3. Savodxonligi oshadi, notanish so‘zlar ma’nosini kontekstda anglaydi.
4. Kitob o‘qishga havas paydo bo‘ladi, badiiy asarga qiziqishi uyg‘onadi.
5. So‘z boyligi o‘sadi, eng asosiysi, bunday topshiriqlar kelajakda o‘quvchining ilmiy izlanishlariga turtki bo‘ladi.

Ko‘p yillik ish faoliyatimda men o‘quvchilarda ijodga moyillikni tarbiyalashga alohida e’tibor berib keldim. Ijodga moyillikni tarbiyalash, rivojlantirish borasida turli amaliy mashqlarni qo‘lladim. Bugungi kunda esa, ayniqsa, esse yozishga talab kuchaygan vaqtda, ish tajribam bilan o‘rtoqlashishni lozim deb topdim.

Yana biri samarali uslublardan biri adabiyot darslarida matn bilan ishlashga e’tiborni kuchaytirish. Odatda quyi sinflarda o‘quvchilar adabiyot darslarida matnni o‘qish, so‘zlab kelish bilan kifoyalanadi. 5-sinfdan boshlab o‘quvchilar matn bilan ishlashda yangi topshiriqlarni bajarishi lozim. Buning uchun matn mazmuni bilan tanishayotgan o‘quvchi qo‘lida qalam bilan ishlaydi. Tabiat, joy, portret tasviri berilgan o‘rinlarni belgilab, notanish so‘zlarning tagiga chizib qo‘yadi. O‘zi uchun notanish so‘zni daftariga ko‘chirib yozib, uning sinonimlarini topadi. Bunda, albatta o‘qituvchi yordamga keladi. Shunday so‘zlardan bir-ikkitasini doskaga yozib uning sinonimik qatorini tuzadi. Masalan: ayyor – mug‘ombir, quv, hiylagar; faqir – qashshoq, qambag‘al, bechorahol, yo‘qsil, kamharj. Albatta, bu so‘zlarga izoh berib ma’no ottenkasi haqida tushuncha beriladi va qolgan so‘zlar yuzasidan mustaqil ishlash uyga topshiriladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda so‘zlarning sinonimik qatori, dominanta so‘z va ularning qo‘llanish doirasi haqida tushunchani shakllanishiga yordam beradi.

Tabiat va portret tasviriga e’tiborni qaratish, daftarga ko‘chirib yozish kelajakda rasm asosida tasviriy matn yaratishda o‘quvchilarga juda qo‘l keladi.

Sujetli rasmlar asosida tasviriy matn yaratish jarayonida o‘quvchilarni tasvirga kengroq va chuqurroq yondashishga o‘rganadi. Masalan, berilgan rasmda qish va yaxmalak uchayotgan bolalar tasviri. O‘quvchi ishni orqa plandan, ya’ni qish fasli – peyzaj tasviridan boshlaydi. Rasmdagi bolalarning portretini tasvirlash jarayonida qachonlardir adabiyot daftariga ko‘chirib olgan va xotirasida saqlanib qolgan tabiat tasviriga oid jumlalar, so‘z birikmalaridan foydalanilishi mumkin. Bu esa matnning jonli, ta’sirli, jozibali bo‘lishini ta’minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi.

Adabiyot darslarida she’rlarda uchragan qosh, ko‘z, tish, lab, bo‘y tasviriga aloqador so‘z birikmalarini daftarlariga qayd etib qo‘yish ham qahramonlarning portret tasvirini yaratishda qo‘l keladi.

Masalan: ***qosh ko‘z tish***

qalam qosh charos ko‘z durdek tish
qora qosh shaxlo ko‘z tishlari sadaf
payvasta qosh bo‘ta ko‘z injudek tish
qo‘shma qosh ohu ko‘z
qoshi hilol jodu ko‘z
egma qosh ola ko‘z
qayrilma qosh

lab bo‘y

la’li lab alifdek
g‘uncha lab sarvdek
dudog‘ing sarv-u sanobar
labi ol bo‘ylari shamshod

O‘quvchilar yuqorida berilgan so‘z birikmalarining salbiy yoki ijobiy uslub bo‘yoqlariga qarab o‘z matnlarida foydalanadilar.

Matn yaratishda yana bir keng qo‘llanadigan va samarali natija beradigan usullardan biri “Assotsiatsiya “ usulidir. Aytaylik siz o‘quvchiga “Navro‘zi olam muborak!” mavzusida matn yaratishni vazifa qilib topshirdingiz. Sinf taxtasiga “Navro‘z” so‘ziga “Klaster” tayyorlash vazifa qilib topshiriladi.

Navro‘z – bahor, sumalak, doshqozon, qaldirg‘och, boychechak, chuchmomo, ko‘k somsa, kurtaklar, o‘rik guli kabi so‘zlar va ular bilan bog‘liq so‘z birikmalar tuzadi. Yozgan so‘z birikmalari ishtirokida fikrni tartibga keltirib yuqoridagi mavzuda matn yaratish

imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘quvchilarning yaratgan matni badiiy jihatdan yetuk bo‘lishi uchun Navro‘z va bahor haqida 2 yoki 3 ta she’r o‘qish ham chiroyli natija beradi. O‘qituvchi she’rni ifodali o‘qiydi, o‘quvchilar diqqat bilan tinglab, she’rda uchragan va o‘zlariga yoqqan turli tashbehlar, o‘xshatish va jonlantirishlarni daftarlariga yozib oladilar. Masalan “qor ostida maysa”, “yayraydi nurdan”, “kezadi bahor”, “mo‘ralaydi boychechak , “yalpiz”, “qaldirg‘ochlarni tinglab”, “bulbullar navosi”, “jonlanar hayot”, “gulga o‘raydi” kabi.

Bunday so‘z birikmalar o‘quvchilarning badiiy qiymatga ega chiroyli matn yaratishlariga turtki bo‘ladi.

Stilistika bo‘limi o‘rganilayotganda o‘quvchilarga bir so‘zga ham ilmiy, ham badiiy tasvir yozib kelishni topshirish ham bolani izlanuvchanlikka yetaklaydi, bilimini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan; til, yomg‘ir, quyosh, tuproq, suv kabi so‘zlarga ilmiy ta’rifni yozish uchun geografiya, kimyo, astronomiya darsliklariga murojaat qilib ta’rifini yozsalar, badiiy ta’rif berish uchun badiiy asarlarga murojat qiladilar. Masalan suvga ilmiy va badiiy ta’rif:

Suv

“Inson tanasining 65-66 foizini, bosh miyaning 80-82 foizini suv tashkil qiladi. Suv qattiq(muz), suyuq(suv) va gaz (bug‘) holatida bo‘ladi. Har qanday suv tirik, yo o‘lik holda bo‘ladi...” (ilmiy uslub)

“Shildir-shildir etadi suv,
Kuylab yerni o‘padi suv.
Go‘yo oltin rubobini
Tinim bilmay chertadi suv” (badiiy uslub).

O‘quvchilarni ijodkorligini oshirishda yaxshi kuyning ham o‘z o‘rni bor. O‘quvchilarga nazm va navoning uyg‘unligi haqida ma’lumot berib, turli bastakorlarning kuylaridan eshittiriladi. Kuylarda otlarning dupuri, bo‘ronlar dahshati, to‘lqinlar haybati eshtilishi mumkin. 10-11-sinflarda mumtoz adabiyot bilan tanishar ekanmiz, o‘quvchilarga “Cho‘li iroq” kuyini eshittiramiz. Darslarda Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira va Uvaysiylar hayoti bilan tanish bo‘lgan bolalarga “Bir kuy ta’sirida” deb nomlangan ijodiy ish yozish topshiriladi. Kuy hammada har hil matnning yaratilishiga turtki bo‘ladi. Kimdir farzand dog‘ida kuygan ona iztiroblari haqida yozsa,

kimdir Vatan sog‘inchida o‘rtangan Bobur haqida, kimdir Amir Nasrullo tomonidan o‘g‘illari va nabirasi bilan fojiali o‘ldirilgan Nodira haqida qalam tebratadi.

Umuman, o‘quvchilarga keng va tor mavzu haqida tushuncha berish lozim. Masalan “Qish” keng mavzu,” Qishki o‘yinlar” tor mavzu. O‘qituvchi “Qish” mavzusini tanlagan o‘quvchi o‘z ishida qish tasviri, qish bilan bog‘liq bayramlar, qish o‘yinlari haqida yozishi, “Qish o‘yinlari” mavzusini tanlagan o‘quvchi tabiat tasviriga ozroq to‘xtalib, asosiy urg‘uni qishki o‘yinlarga qaratishi kerakligini tushuntiradi. O‘quvchiga har qanday ijodiy matn: insho, esse, maqola, ma’ruza yaratish uchun, eng avvalo, shu mavzuga aloqador manbalarni ko‘rib chiqish lozimligi, so‘ngra to‘plagan materiallaridan olingan bilimlarni saralash, ketma - ketligini aniqlash, reja tuzish va shu reja asosida o‘z shaxsiy xulosalarini olingan manbalarga ijodiy yondashgan holda yoritish yo‘llari o‘rgatiladi. Masalan “Mening Qozog‘istonim” mavzusida ijodiy matn yaratish lozim. O‘quvchilar tarix, geografiya darslari orqali Vatani va uning tarixi haqida tushunchaga ega. Ishni nimadan boshlash kerak? Vatan so‘ziga ta’rif berish topshiriladi. Har kim Vatan so‘ziga 4 yoki 5 jumladan iborat ta’rif yozadi. So‘ngra bu mavzuni yoritish uchun o‘z olgan ma’lumotlarini tartibga solib, ishining taxminiy maketini “Klaster” usulida rejalashtirish topshiriladi. Kimdir Vatanining tarixi, boshidan o‘tgan suronli yillar, botirlari haqida to‘xtalsa, kimdir Vatanga ta’rifdan so‘ng uning buguni va ertasi, cheksiz dalalari, ziyoratgohlari, turli sohalardagi yutuqlarini yoritishni mo‘ljallaydi. Matn qiziqarli bo‘lishi uchun, albatta, shoirlar ijodiga murojaat etish, dalillar keltirish yaxshi natija berishi eslatib o‘tiladi.

Manbalar bilan ishlashga, mavzuga mos ma’lumotni topish, saralash, dalil sifatida kerak o‘rinda qo‘llash, fikrda izchillikni saqlash kabi ko‘nikmalarni tarbiyalash kelajakda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘linib debatlar o‘tkazishida, o‘z shaxsiy pozitsiyalarini himoya qilish uchun argumentlardan foydalanishga o‘rgatadi. Og‘zaki va yozma nutqni tarbiyalaydi. Esse, maqola, she’rlar yozishga mashqlanadi. Olingan natijalar, erishilgan yutuqlarni ko‘rish uchun men uchinchi chorakda “Yosh redaktorlar” ko‘rigini e’lon qilaman. Bunda sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linib o‘z sardorlari ya’ni redaktorlarini saylaydilar. Iqtidorlariga ko‘ra kimdir

jurnalist, kimdir rassom, kimdir korrektor, harf teruvchi vazifalarini taqsimlab oladi. Chiqaradigan jurnalini yo‘nalishini belgilaydilar. Madaniy- ma’rifiymi, sport sohasi yoki salomatlik bilan bog‘liqmi. Shunga ko‘ra o‘z jurnallariga sarlvha topadilar. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarini olgan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash, iqtidorlarini namoyish etish uchun yaxshi imkoniyat. Bu ishning natijasi uchinchi chorak yakunida ko‘riladi. Har bir ijodiy guruh a’zolari o‘zlari yaratgan jurnallarini afzalliklarini, foydali tomonlarini targ‘ib etib taqdimot o‘tkazadilar. O‘qituvchilar va o‘quvchilar oldida so‘zga chiqib o‘z jurnaliga obuna bo‘lishga chorlaydilar. Bunday ishlar guruh sardorining qizg‘in nutqi, chiqarilgan jurnalning shakl va mazmun jihatiga ko‘ra baholanadi. Odatda bu topshiriq bolalarni guruh bo‘lib ishlashga, oralaridagi do‘stona munosabatni mustahkamlashga, o‘zlarining yashirin talantlarini ochishga, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga, eng asosiysi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini o‘sishiga turtki bo‘ladi. Jurnalni tayyorlash jarayonida sarlavha tanlash, rubrika haqida tushunchasini mustahkamlash, jurnal chiqayotgan davr (oy, yil, sana) bilan bog‘liq yubilarlarga e’tibor berish, adabiyot, sprort yangiliklari, maktab hayotidagi ochiq dars, KVN, turli tadbirlar, o‘z sevgan ustozlari yoki ota-onalari, urush veteranlaridan olgan intervyu, pazanda maslahati, ijodkor do‘stlari she’ridan namuna, krosvordlarni joylashtirishni o‘rganadilar. Shubhasiz, “Yosh redaktor” ko‘rigi o‘quvchini ijodkorlik qirralarini ochib, izlanuvchanlik sifatlarini tarbiyalaydi.

Ish tajribamda yana bir yaxshi natija berayotgan mashqlardan biri ona tili darslarida o‘tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini namoyish qilishga yordam beradigan “To‘plashtir” o‘yini. Aytaylik siz ot so‘z turkumi va uning grammatik xususiyatlari haqida mavzularni to‘liq o‘tib bo‘ldingiz. O‘quvchi “Otning grammatik xusiyatlari haqida nima bilasiz?, degan savolga sinf taxtasi oldida shu mavzuga mos bo‘lgan ma’lumotlarini ixtiyoriy sistemada chizib namoyish etadi. O‘quvchilar ot, uning savoli, atoqli va turdosh ot, aniq va mavhum ot, otning egalik va kelishik qo‘shimchalarini olishi haqida olgan bilimlarini turli jadvallarga solib ko‘rsatadi. Bu topshiriqlar gap bo‘laklari, so‘z turkumlari, leksika, morfologiya, sintaksis b o‘limlarini o‘tib bo‘lganingizda qo‘llashingiz mumkin. O‘quvchilarning fantaziyalari boy. Kimdir leksikologiya bo‘limi

yuzasidan olgan bilimini katta bir daraxt shaklida tasvirlab, bir ma'noli, ko'p ma'noli, eskigan, yangi paydo bo'lgan, arxaik so'z, sinonim, antonim, omonim, paronim, shevaga xos so'z, atamalarni daraxtning shoxlari sifatida chizib berdi. Bunday topshiriq darsni qiziqarli o'tishiga samarali ta'sir ko'rsatadi hamda o'quvchining olgan bilimini aniqlashga, fantaziyasini tarbiyalashga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yuqorida ish jarayonida qo'llab kelgan bu usullar o'zini samarali natijalarini berdi. O'quvchilarim shahar, viloyat miqyosida o'tkazilgan esse tanlovlari, olimpiadalar g'olibi bo'ldi. O'quvchilar orasida o'zbek tili va adabiyoti masalalariga bag'ishlangan ilmiy ish yozgan shogirdlarimning mehnati viloyat gazetalarida e'lon qilinib ko'pchilikni e'tiborini jalb etdi. Bularga Isametov Davronning "Ismlar etimologiyasi tarixi va ularning qardosh millat ismlari bilan o'xshash va farqli tomonlari", Ismoilov Eldorning "Shum bola asarida xalqchillik va milliylik", Makkamova Rozaning "Shum bola" asarida bolalar hayoti va turmush tarzi", Mirsadikova Shaxnozaning "Dostonlarda uyushiq bo'laklarning qo'llanish" kabi ishlarni keltirib o'tishim mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarim orasida ijod bilan shug'ullanib, she'rlari, maqolalari turli to'plamlarda nashr etilayotganlarni ham faxrlanib aytish mumkin. Jumladan, Ilxom Xakimov, Ro'zmat Norimboev, Rustam Axmedovlar shular jumlasidandir.

O'zimning ish tajribalarim bilan o'rtoqlashish maqsadida "Yosh jurnalist" va "Notiqlik san'ati" nomli avtorlik dastur muallifi bo'ldim. Shu avtorlik dasturim asosida yuqori sinf o'quvchilari bilan fakultativ mashg'ulotlarda shug'ullanib yuqoridagi natijalarni qo'lga kiritdim. Yozgan esselarim turli to'plamlardan joy oldi. She'riy mashqlar, maqolalar, esselar to'plami bo'lgan "Yaxshilar izidan" nomli kitobim 2020-yili nashrdan chiqdi. Jamoatchi muxbir, ijodkor sifatida yozilgan turli maqolalarim "Janubiy Qozog'iston", "Janub jarchilari "Saodat sari" kabi gazeta va jurnallar sahifasida yoritilib bordi. Qozog'iston Respublikasi "Do'stlik" hamjamiyat qoshidagi o'zbek etnomadaniy jamoat birlashmasi "Ijodkor" adabiy birlashmasi tomondan, hamda O'zbekiston va Qirg'iziston bilan hamkorlikda o'tkazilgan turli xalqaro tanlovlarda maqolalar, ilmiy ma'ruzalar, esselar bilan ishtirok etib sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilg‘or tajriba-ijodiy izlanish samarasi. Janubiy Qozog‘iston viloyati ta’lim boshqarmasi. – Chimkent, 2009.
2. Musaeva O.Yaxshilar izidan. – Chimkent, 2002.
3. Saidova M. O‘zbek tili darslarining samaradoroigini oshirishda lingvistik o‘yinlardan foydalanish, 2008.
4. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi Respublika Ta’lim Ilmiy-Metodika Markazi . – Toshkent, 1996.
5. Umarova X. Qiziqarli grammatika. – Toshkent, 2002.

ADIB ESTETIKASINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY OMILLARNING O‘RNI

Shahnoza Qayimova
Nizomiy nomidagi TDPU
akademik litsey o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada adib estetik didining shakllanishida ijtimoiy omillarning o‘rni misolllar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *estetik ideal, estetik qarash, turmush tarzi, estetik madaniyat.*

Har bir yozuvchi asarida ijtimoiy turmush tarzi, ijtimoiy omillar, davr va zamon o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Adibning ham estetik qarashlari uning asarlarida o‘z aksini topdi, uning estetik didi, estetik madaniyati, tafakkuri yashab ijod qilgan davrda sayqal topib, yuksalib bordi. U og‘ir davrda yashagan bo‘lsa ham, uning estetik qarashlari va ijodi aslo so‘nmadi. U doim xalq dardi, bilan yashadi va ijod qildi. Oybek 1922-yildan boshlab she’riyat olamiga kirib kela boshlagan paytda Cho‘lpon va yangi turk she’riyati namoyandalarining asarlari yoshlar o‘rtasida mashhur edi. U 20-yillarda, boshqa tengdoshlari qatori, ana shu she’riyat jilg‘alaridan bahramand bo‘ldi. Oybek 1927-1929-yillarda Leningraddagi Plexanov nomli Xalq xo‘jaligi institutida o‘qib yurgan kezlarida A.Blok, V.Bryusov, V.Mayakovskiy singari rus va E.Verxari singari

G‘arb shoirlari ijodi bilan tanishdi. “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini tarjima qilish orqali A.S.Pushkinning sehrli she’riyatini kashf etdi. 1938-yilda esa adib “Rim adabiyoti” xrestomatiyasini tarjima etishi unga jahon adabiyotining oltin sahifalari bilan yaqindan tanishishi, adabiy bilim doirasining kengayishiga, estetik qarashlarini yuksalishiga va she’riyatining sayqallanib, yangi shakl, rang va ohanglar bilan boyib borishiga turtki bo‘ldi.

Inson umri ham tabiatning yil fasllariga o‘xshaydi. “Agar bolalik va yoshlik yillarini bahorga mengzasak, yoz uning shakllanish, ijodiy to‘lishish va dastlabki tansiq mevalarini berish pallasidir. Kuzda inson zoti ham kamolot bosqichiga erishadi, ham dastlabki talofat alamlarini totadi…” [Karimov, 2008: 298]

Oybekning mashaqqatli hayot yo‘li ham ana shu zayilda kechgan. U Cho‘lpon va Fitratlar otilgan nomlariga qora bo‘yoq surkalgan davrda yashagani sababli hayotlik paytida ham keyin ham o‘zining munosib bahosini topmadi. Naim Karimov aytganidek “Oybek hayotlik paytida maftunkor ijodiy faoliyati uchun turli unvon va mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Bu unvon va mukofotlar boshqa har qanday ijodkor uchun turli hujumlarga qarshi qalqon bo‘lishi mumkin edi. Ammo Oybekka qarshi kurash, uni qatag‘on etish istagi yuqoridan idora etib turilgani uchun jangarilar bu qalqonni parcha-parcha qilib, ulug‘ o‘zbek adibini 46 yoshida, ijod bulog‘i avji qaynagan chog‘ida, bir umrga to shakband etdilar. Oybek tili va qo‘li qattiq shikastlanganiga qaramay, marhum ustozlari uchun ham so‘nggi nafasiga qadar tinmay ijod qildi” [Karimov, 2008: 298].

Matonatli adib 17 yil davomida og‘ir xastalik ila mardona kurashdi. O‘sha davrning ijtimoiy omillari yozuvchiga o‘z ta’sirini o‘tkaza oldi. Adib jismonan xastalangan bo‘lsada, lekin ruhan tetik, hayotni teran anglagan holda, ijod qilishdan to‘xtamadi. Zarifa Saidnosirova shunday deydi: “Oybek xastalik davrida mening ishdan kelishimni oshiqib kutardi. “Ovqatlan, choy ich, yozamiz. Miyamda hammasi tayyor, taxtlangan, tezroq aytib bersam”, – der edi u shoshib. Men ikki-uch soat davomida yozaman. Keyin: “Bas Oybek charchadingiz!” – deyman. “Yo‘q, charchamadim, yana jinday sabr qil”, – deydi u. “Sizga ko‘p ishlamoq mumkin emas”, – desam quloq solmaydi” [Saidnosirova, 1994: 226].

Vujudi dardan azoblansa ham shu holatida xalq dardini, o‘z asarlarida ifoda etadi. Uning ruhiy olami, ijodga bo‘lgan muhabbati umrining oxirigacha uni tark etmadi. Oybekning xastalik yillarida yozgan asarlarining o‘zi bir talay. Oybek sog‘ yozuvchilardan ko‘ra samarali ijod qildi.

Adib estetikasi tobora rivojlanib bordi. Uning asarlari yuksak did va mahorat bilan yozilgan. Zarifaxonim unga doim tayanch bo‘ldi xastaligida dalda bo‘ldi, farzandlari doim otalarini ardog‘lashdi. Uning oilasi har doim uni qo‘llab-quvvatlab turishdi.

“ A.Fadeev, N.Tixonov, V.Lugovskoy, M.Avezov, Samad Vurg‘un, V.Yan, B.Kerboboyev, M.Rilskiy Oybekning eng yaqin samimiy do‘stlari bo‘lishgan. “Oybek bu yozuvchilarning bir qismi bilan 1937-yil fevralida Yozuvchilar uyushmasining Pushkin vafotining 100 yilligiga bag‘ishlangan plenumida tanishgan. V.Lugovskoy Oybekning “O‘ch” dostonini rus tiliga tarjima qiladi. Shu davrda Y.E.Bertels, V.M.Jirmunskiy, A.I.Deych, L.G.Bat, M.Treshchenko singari Toshkentdan panoh topgan olim va yozuvchilar Oybekning eng yaqin do‘stlariga aylandilar. Oybek, ayniqsa, Bertels va Deych bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘ldi” [Saidnosirova, 1994: 222].

Shunday olim-u yozuvchilar qurshovida bo‘lgan Oybekning estetik tafakkuri, didi tobora yuksalib borgan. Uning estetik qarashlari, estetik madaniyati shu davralarda yuksalib bordi. Adib urushning so‘ngi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rais etib tayinlangandan keyin uning qardosh yozuvchilar bilan aloqasi kuchayadi. Dissertatsiyalarga taqrizlar yozib beradi. Oybek singari ulug‘lar ortidan tosh otishni, obro‘ qozonishning oson yo‘li deb hisoblagan kimsalar adib vafotidan keyin ham u haqda turli-tuman fisq-fujurlarni bichib to‘qidilar. Lekin adibning o‘lmas ijodiga dahl qila olmadilar. Oybek shunday davrda ham ruhi sinmadi, ijodi so‘nmadi. Uning asarlari davrlar osha barhayot. Adib estetikasining shakllanishida ijtimoiy omillar uning asarlarida o‘z aksini topgan. Oybek bugungi va kelgusi avlodlarga badiiy va ilmiy tafakkur yog‘dularini hamon saxiylik bilan sochib turibdi.

“20-30- yillarda yangi o‘zbek faniga tamal toshi qo‘yildi. Zamonaviy fanlar va ularning keyinchalik keng qanot yoygan tarmoqlari vujudga keldi, Oybek ana shu jarayonda oddiy shoir emas,

balki kishilik jamiyatining iqtisodiy taraqqiyot qonunlarini puxta o‘rgangan shoir sifatida shakllandi. U yangi tarixiy davr taqozosi bilan maydonga kelgan shu davrning iqtisodiy asoslarini yaxshi bilgan va o‘z bilimidan adabiy ijodida mahorat bilan foydalangan shoir va yozuvchi edi”. [Karimov, 2008: 300].

“Oybek 1936-yili yozgan “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” risolasida jadid adabiyoti uchun xarakterli alomat, yani san‘atkorning o‘rnini voiz egallashi, nasihatgo‘ylik, “Baxtsiz kuyov”da yaqqol ko‘rinishni ta’kidlasa, “Uloq”da esa, voizning o‘rnini san’atkor egallashini” qayd etadi” [To‘laganova, 2016: 59] Bu o‘zbek adabiyotida estetik hodisa sanalib, yozuvchining usluban yangi bosqichga ko‘tarilishidir. Adib boshqa yozuvchilar ijodini teran anglagan va o‘z fikrini bayon qilgan.

Oybekning oltmish yoshga kirishi munosabati bilan bosib o‘tilgan va ortda qolgan dovonlarga nazar tashlab yozgan ruboiylarining biridan ma’lum bo‘lishicha, u tagiga yetmagan muammolar ham oz bo‘lmagan. Xususan, “Qutlug‘ qon”, “Navoiy” singari romanlarida o‘zini ham, qahramonlarini ham hayajonlantirgan masala haqida Oybek bunday yozgan:

Sirli yo‘llar bosib, kezamen osmon,
O‘ylaymen, o‘ylaymen, sira bilmaymen…
Osmonga sepilgan oltindan somon.
Haqiqat nimadir, o‘ylaymen hamon… [To‘laganova, 2016:311].

Oybekshunos olim Naim Karimov aytganidek: “Oybek faqat ilhombaxsh asarlari, ijodi bilan, ya’ni yozuvchi sifatidagina emas, balki inson sifatida ham xalqning quvonch va qiyinchiliklariga hamdard bo‘lishga, uning davr murakkabliklaridan dol bo‘lgan qaddini ko‘tarishga, unga tirgak bo‘lishga intildi. Shu ma’noda XX asr o‘zbek adabiyotida unga teng keladigan boshqa bir adibni topish qiyin”. Haqiqatdan ham bunday yozuvchilar yuz yilda bir tug‘ilsa ajab emas. Uning asarlaridagi qahramonlari Yo‘lchi, Gulnor, O‘ktam va Komila, Navoiy singari Vatan va xalq ishiga kamarbasta, insonparvar, adolatparvar, mehribon, kamtar, odobli, go‘zal axloqli, qahramonlar yoshlarni axloq-odob bobida mazkur qahramonlardan ibrat olishlarini aytmoqchi bo‘ladi. Oybek 1965-yili yozgan hayyomona ruboiylarining birida bunday purhikmat so‘zlarni she’riyatning tilla ipiga tizgan:

Go‘zal xulq gavhardir, also bo‘lmas xor,
Hayot ildizida undan bir nur bor.
Haqiqat va axloq yaqin, tug‘ishgan,
O‘g‘lim, o‘yla, umr o‘tmasin bekor.

Oybek kishilik jamiyatini teran anglagan holda, ijodga sho‘ng‘iy oldi. U bir nafas ham ijod qilishdan to‘xtamadi. 63 yosh – inson umrining aql va zakovatga to‘lgan, ijod bulog‘i qaynab-toshgan, dunyo sirlarining tagiga yetgan go‘zal bir pallasi. Oybekni xalqqa, Vatanga, adabiyotga baxshida etilgan umrini bazavol ketmagani, uning ijodi abadiy ekanligi hozirgi kunda ham asarlari, kitobxonlar tomonidan o‘rganilib, izlanishlar olib borilayotgani buning yaqqol dalilidir. Oybek XX asr o‘zbek adabiyotini o‘ziga xos uslub va mahorat ila yaratilgan badiiy olami bilan boyitdi. Shoir yaratgan poetik durdonalar sharq mumtoz she’riyatidan oziqlangan muallifning tiniq tuyg‘ulari orqali ta’sirchanlik kasb etdi. U XX asr o‘zbek she’riyatining Cho‘lpon kabi yorug‘ yulduzlari ijodidan ta’sirlandi. Turk she’riyatiga xos lirik soddalik, rus ijodkorlari asarlariga xos ramziylik, yorqin tasviriylik, jahon adabiyotiga xos an’analar Oybek she’riyatiga ko‘chdi, sintezlashdi, muhim ta’sir manbaiga aylandi. Ayniqsa, uning antik Rim va rus adabiyoti namunalarini tarjima qilish asnosida o‘zlashtirgan adabiy-ijodiy tajribasi mahoratining shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ijodi misradan-misraga takomillashib, sayqal topib bordi. Yangi-yangi poetik ifodalar, tasvirlar, so‘z va tovush tovlamalari orqali yanada kuchli joziba hamda ta’sir kuchiga ega bo‘lib bordi. Lirikaga bag‘ishlangan maqolasida Oybek yuksak g‘oyaviylikni zamon bilan hamnafaslikda ko‘rib, birmuncha cheklanishga yo‘l qo‘yadi, lekin uning jonli xalq hayoti bilan mustahkam bog‘lanishi zarurligini to‘g‘ri belgilaydi. Lirika nainki shaxs, xalqning ham fikr-tuyg‘ulari, kechinmalarini emotsional ravishda ifodalash kerak deb bildi. Hamid Olimjon, Uyg‘un, H.Po‘lat she‘rlarini tahlil qilganda, tabiiyki, u “sotsialistik lirika”ning muhim xususiyatlarini yangi davr bilan bog‘liq holda ochishga intiladiki, bu o‘sha davr taqozasi edi [Nazarov, Rasulov, Qahramonov, Axmedova, 2012:170].

“So‘ngi yillar o‘zbek poeziyasi” maqolasida muallif shoirlarni poetik mahoratini mukammalroq egallashga chaqiradi. Shoir mahorati shakllanib sayqal

“Tabiat tilsimin tubi yo‘q behad,
O‘g‘lim ilm o‘rgan, yemirilur har sad.
O, umr kaltadur, naq qush uyqusi,
Haqiqat dasturin top, qilsin zar xat.”

Yoki:

Haqiqat soqovdir, zaifdir inson,
Toshlar ham yig‘laydi, sir to‘la osmon.
Haqiqiy olam ne? Javob yo‘q mudom,
Faylasuf to‘qiydi hisobsiz yolg‘on” (Barcha misol tariqasida keltirilgan she’riy parchalar Oybek “Mukammal asarlar to‘plami” 20 tomlik – 1979-yildagi nashrdan olingan) kabi misralarda XX asr 30-yillardagi davr tasviri o‘z aksini topgan.

Oybek ilmiy me’rosida Mahmud Qoshg‘ariydan tortib, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy asarlarigacha tadqiq etilgan. Boburdan tortib Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Muhammad Solih ijodlari haqida fikr yuritilgan. Gulxaniydan tortib, Maxmur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy she’riyatigacha baho berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008. – B. 298.
2. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.:Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B.170.
3. Saidnosirova Z. Oybegim mening. – T.:Sharq, 1994. – B. 226.
4. To‘laganova S. Badiiy asar morfologiyasi. – T.: Turon zamin ziyo, 2016.

BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI

Moxidilxon Abdullayeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslari pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ularning ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi o‘ziga xosliklari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘qituvchi va murabbiylar yangi metodlar, usullar yaratishining qonuniyligi, tizimliligi va samaradorlikni ta’minlashdagi tutgan o‘rni borasida fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalari, pedagogic yordamchi, psixologik omillar, Konstitutsiya, bolalar adabiyoti, ilmiy-texnikaviy rivojlanish.*

O‘zbekiston Respublikasida milliy metodika yaratish va takomillashtirish masalasi ta’lim jarayoni uchun hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarilayozdi. Barcha yo‘nalishlarda kuzatilayotgan islohotchilik jarayoni metodika, pedagogika sohalarida yangilanish yasash uchun poydevor bo‘ldi. Endi metodikaning mohiyat teranlashuvi va tarbiya jarayoniga ham daxldorlik kasb etishi har jihatdan muhim tushunchaga aylandi. Yangi metodlar halqasida ham ta’lim jarayonining tub mazmunini ochib berishda, ham tarbiya jarayonida o‘quvchi tafakkuriga, xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi metodlar kamligi va ularga bo‘lgan talabning yuqoridagi ko‘rsatkichga teskari proporsional holatda ortib borayotgani hech kimga sir emas. An’ana, izlanish va yangilikni o‘zida jamlangan zamonaviy axborot texnologiyalarining barcha turlari bugun o‘qituvchi va o‘quvchi uchun yordamchi vosita bo‘lishga yaroqlimi, degan savol har kungidan ham dolzarbroq. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon

sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur va samarali o‘rgatish muammolariga hali sifatli va to‘liq holda yechim topilgani yo‘q.

Ushbu muhitni yaratishdagi texnikaviy ijod erkinligi esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasi bilan ham qonunan tasdiqlab qo‘yilgan:

“Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. [O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992: 34]

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jarayonidagi bolalar adabiyotining o‘qitilishi tarixiga nazar tashlasak, ma’rifatparvarlik davri o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodiga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi. Negaki, aynan shu davrdan boshlab bolalar adabiyoti tushunchasiga alohida adabiyot sifatida qarala boshlandi. Jadid adabiyoti namoyandalari bolalar uchun bir qancha kitoblar, darsliklar, o‘quv kitoblari, chunonchi, badiiy adabiyotlar ham yaratdilar. Bulardan ko‘zlangan maqsad bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ularni savodxon, jamiyatdagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri baholay biladigan, erkin shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat edi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining maxsus turiga kiruvchi maqol, matal, topishmoq kabilar ham aslan bolalardagi topqirlikni oshiruvchi, ularning badiiy adabiyotga qiziqishini shakllantiruvchi kichik asarlar hisoblangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, xalqimiz bola tarbiyasi, uning maorifiga hech qachon bee’tibor bo‘lmagan. Shu jihatdan, bolalar adabiyotining tarixini xalq og‘zaki ijodi kelib chiqqan davrdan boshlasak ham xato bo‘lmaydi.

Maktab ta’lim tizimida 1-6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darslik-majmualarda, xususan, “O‘qish” va “Adabiyot” kitoblarida bolalar adabiyotining yetuk namoyandalari va ularning asarlari berib boriladi. Kelgusida bola ilmiy layoqatli shaxs bo‘lib ulg‘ayishida ushbu darsliklar, yuqorida ta’kidlanganidek, poydevor vazifasini o‘taydi. “Adabiyot solnomasida bolalar adabiyoti tushunchasining paydo bo‘lishi o‘rinlimi?”, “Alisher Navoiy “Mantiq ut-tayr”ni yod olgan payt bola yoshida emasmidi?” – kabi savollar tug‘ilishi tabiiy. Lekin zamonaviy texnologiyalar

davrida adabiyotning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan ko‘ngil va bola qalbi masalasini chetlab o‘tuvchi omillar shusiz ham yetarli. Shunday ekan, bolalarga bolalarcha fikrlash va bu fikrlar asnosida kelajak uchun mustahkam zamin hozirlash kabi qator vazifalar bugun pedagoglar zimmasida turibdi. Axir, “bolalar adabiyoti namunalari yosh kitobxonni nimagadir o‘rgatadi, nimagadir da’vat etadi”. [Jumaboye, 2006: 43] Va bularning barchasi ezgulikka da’vat va chaqiriqdir. Shu sabab ham bolalar adabiyoti ta’limi bugungi kun uchun dolzarb hisoblanadi.

Bolalar adabiyoti kichik asar namunalari shaklida maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari va maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darslik va kitoblarda uchrabgina qolmay, balki ma’nan va ruhan ulg‘aygan, kamol topgan nigohlar tomonidan o‘rganilishi uchun yuqori sinf, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning o‘quvchilari uchun nashr qilingan darslik-majmualarga ham kiritilgan. Xususan, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” hamda “Ikkinchi muallim” nomli kitoblaridan o‘rin olgan “To‘g‘rilik”, “Yolg‘on do‘st”, “Xurus ila bo‘ri”, “Janjalchilik zarari” kabi hikoyalari bolalar uchun atalgan asarlardir. Yuqorida nomi keltirilgan ikki asar muallif tomonidan aynan bolalar uchun o‘quv kitobi shaklida yozilgani barchaga ma’lum. Bundan tashqari, ushbu darslik-majmuadan joy olgan Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklar muallifining asarlari ham bolalarga atalgan edi. Ushbu darslikda Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim-tarbiyaga oid “Kitob ul-atfol” (Bolalar uchun yozuv kitobi, 1908) hamda Abdurauf Fitratning “O‘quv” hamda “Ona tili” darsliklari [To‘xliyev, Shermurodov, Isayeva, 2015, 69] mavjudligi haqidagi ma’lumotlar akademik litsey darsliklarida uchrardi. Ushbu darslikda mustaqil mutolaa qilish uchun o‘zbek she’riyatidan namunalar safida ham bolalar adabiyotiga oid bo‘lgan Halima Ahmedovaning “O‘g‘limga darsliklar” turkumidan bir necha she’rlar berilgan. Ham moziy, ham zamonaviy adabiyotda bolalarga atalgan asarlar mavjudligini birgina ushbu darslikning o‘zi ham tasdiqlab turibdi.

Oliy o‘quv yurtlarida ham bugungi kunda filologiya, o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Bolalar adabiyoti” fanidan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilgan.

Bularning barchasi bugungi kunda jahonning ko‘plab mamlakatlarida adabiy fojiaga aylanib borayotgan bolalar adabiyotining rivoji, ushbu fan yuzasidan ilmiy izlanishlarning ko‘payishiga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Shu o‘rinda adabiyot ta’limi maktablarda darslarda kechishini unutmaslik kerak. “Ta’lim o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli. Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon”. [Toxtaxodjayeva, Nishonova S, Hasanboyev, Usmonboyeva, Madiyarova, Qoldibekova, Nishonova, Sayidahmedov, 2010 : 78]

Bolalar adabiyotini o‘qitish jarayoni ham ta’lim jarayoni, dars va pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekan, ularga xos bo‘lgan xususiyatlar va vazifalar muayyan o‘xshashlikka ega bo‘lishi tabiiy. Bolalar adabiyotini o‘qitishda ham bolalarga qiziqarli tarzda nazariy bilim berish barobarida ularni hayotga tatbiq etishga o‘rgatish, ularda tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda ana shunday kadrlarga talab yuqori. Zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi pedagogik texnologiyalardan dars mobaynida unumli foydalanish dars samarali bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ular qatoriga kompyuter, skaner, videokamera, proyektor, interaktiv elektron doska, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarining dars jihozlari sifatida dars ishlanmalari safidan joy olishi ham ularning darsni tashkil etishda va jarayonning borishida qanchalar muhim ekanligini isbotlaydi.

Nazariy ma’lumotlarni jamlagan holda shuni aytish mumkinki, bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ta’lim jarayonlariga joriy etilishi ikki jihatdan muhim sanaladi:

I. Pedagogik:

1) o‘qish, tushunish, tushuntirish, tahlil kabi o‘quvchi xususiy kompetensiyalarini shakllantiradi;
2) ular dars mobaynida o‘qituvchi uchun “pedagogik yordamchi” vazifasini bajaradi;
3) past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning tafakkuridagi bo‘shliqlarni ko‘rgazmalilik va ko‘rsatmalilik tamoyillariga asosan to‘ldirib boradi;
4) ular yordamida tayyorlangan turli elektron lug‘atlar o‘quvchiga istalgan vaqtda yordam beradi;
5) ulardan turli imtixonlarga tayyorlanish jarayonida tayyorgarlik maqsadida foydalanish mumkin.

II. Psixologik:

1) tayyorlangan zamonaviy axborot texnologiyalari safiga kiruvchi multimedia vositalarini qo‘llash bolalarning yosh xususiyatlariga to‘g‘ri keladi;
2) dars mobaynida ularning diqqatlarini jalb qilishda ahamiyatli;
3) bolalarning xarakter xususiyatiga ko‘ra o‘yin texnologiyalarini qo‘llash o‘rinli.

Zamonaviy axborotlarga boy materiallar, vositalar bilan darsni boshqarish o‘qituvchi mehnatini samarali qiladi. Bugungi kunda har bir o‘qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatini tashkil etishi va u bilan bog‘liq barcha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu – davr talabi. Zamonaviy ta’limning tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet tarmog‘i bilan ishlash malakasi ham pedagoglar uchun ahamiyatli. Zero, “minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, ya’ni axborot olish hayotiy zaruratga aylandi. Mazkur axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda”. [Rahimov, 2011: 124] Ana shu ma’lumotlarni topuvchi, saqlovchi, qayta ishlovchi va boshqalarga yetkazuvchi vazifasini bugungi kunda axborot texnologiyalari bajarmoqda. Xususan, internet tarmoqlarining maqsadi ham shulardan iborat. O‘quvchilarga dars mobaynida ularning diqqatini bir joyga jamlashlari, mavzu mohiyatini to‘liq anglab yetishlarida ko‘makchi bo‘ladigan bir qancha vositalar mavjud. Lekin ular faqatgina vosita ekanligini unutmaslik kerak. Ayrim jarayonlarda shu ko‘zga

tashlanmoqdaki, vositalarga asos sifatida qarab mohiyatdan uzoqlashish yuzaga kelmoqda. Vositalardan asosni ifodalashda to‘g‘ri foydalanish malakasi pedagoglarimizga har doimgidan-da ko‘proq kerak. Dars jarayonida dars sifatini oshiruvchi jihozlar sifatida ko‘p ko‘zga tashlanayotgan kompyuter tizimlari, yangi metodlar, taqdimotlarni sanash barobarida multimedia vositalari ham shu tarkibda ekanligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 34.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 43.
3. To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh., Adabiyot (majmua) akademik litseylarning III bosqich o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Bayoz, 69.
4. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 78.
5. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011, 124.

TA’SIR VA TIPOLOGIYA

Shoxista Abdurashidova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2- bosqich magistranti

Annotatsiya

Jahon hamjamiyati, turli xalqlarning bir-biri bilan adabiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy aloqalari rivojlanib borayotgan bir davrda ularning adabiy yo‘nalish, oqim va ijodkorlar hayotini qiyoslab o‘rganish ijobiy samara beradi.. Bu o‘rinda ta’sir va tipologiyani o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Genetik qardoshlik, adabiy ta’sir, tipologiya, qiyoslab o‘rganish, tipologik yondashuv, tipologik tahlil.*

So‘z ijodkorlarining o‘ziga xosligi ular o‘rtasida ichki bog‘lanishlar yo‘qligini, asarlarida umumiy tamoyillar, yo‘nalishlar uchramasligini anglatmaydi. Bu umumiy tamoyil va tendensiyalar nafaqat mavjud, balki ular adabiy jarayonda muhim rol o‘ynaydi, turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Adabiy jarayonni o‘rganishda umumiy va alohida, umumiy va xususiy o‘rtasidagi munosabat masalasi doimo bo‘ladi. Har qanday xalqning adabiyotini u yoki bu bog‘liqlik bilan ham, alohida adabiyotlarning rivojlanish jarayonlari bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ularning tarixiy harakatini bir butun sifatida tushunish uchun ularga xos bo‘lgan umumiy tendensiyalarni aniqlash kerak. Bular adabiy hodisalarga tipologik yondashish muhimligini ta’kidlaydi.

Bu o‘rinda V.Jirmunskiyning adabiyotni qiyosiy planda o‘rganishning to‘rt xil shakli haqida aytgan fikrlarini keltiramiz:

1. Har qanday muakmmal qiyosiy-tarixiy tahlilning asosini tashkil etuvchi hodisalarni oddiy qiyoslash shakli (V.Jirmunskiy ushbu masalani tilshunoslikdagi sinxron tahlilga qiyos qiladi).
2. Genetik jihatdan aloqada bo‘lmagan o‘xshashliklarni jamiyat taraqqiyotining o‘xshash sharoitlari orqali izohlashga xizmat qiluvchi tarixiy – tipologik qiyoslash shakli.
3. O‘xshash jihatlarning genetik qardoshlik mahsuli deb qarashga asoslangan tarixiy-genetik qiyoslash shakli.
4. Xalqlarning tarixiy jihatdan yaqinligi va ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlaridan kelib chiqib, genetik aloqalarni adabiy hodisalar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, ta’sir hamda o‘zlashtirmalar asosida belgilovchi qiyoslash shakli Жирмунский , 1958: 6- 7].

Bir qancha olimlar V.Jirmunskiy aytib o‘tgan uchinchi va to‘rtinchi aloqa shakllari deyarli bir-birini takrorlashi va ularni bitta qilish ekanligini ta’kidlaydilar.

Turli adiblar ijodi va adabiyotlararo o‘zaro bir-biridan bexabar holdagi aloqalarni o‘rganish tizimida tipologik yaqinlik alohida ahamiyatga egadir.

XIX asrga kelib bu yo‘nalishdan deyarli foydalanilmay qoldi. Faqat XX asr o‘rtalariga kelib, ilm ahli doirasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar haqida va uni rivojlantirishga bo‘lgan fikrlar aytila boshladi. Bu esa unutilayotgan bu uslubning yana qayta jonlanishiga turtki bo‘ldi.

Jahon hamjamiyati, turli xalqlarning bir-biri bilan adabiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy aloqalari rivojlanib borayotgan bir davrda ularning adabiy yo‘nalish, oqim va ijodkorlar hayotini qiyoslab o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bizga qiyoslash chog‘ida o‘z adabiyotimizni ham chuqurroq anglashga, tahlil qilishga yordam beradi. Chunki ikki narsaning qiyosi ikki tomonga ham juda e’tiborli bo‘lishga undaydi. Buni adabiyot darslarida qo‘llash esa bizga o‘quvchilarning adabiyot darslariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, badiiy asarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatadi, tafakkurni rivojlantiradi.

Zamonaviy adabiy ta’limning maqsadi xalq ma’naviy hayotining eng yaxshi namunalari asosida barkamol, erkin fikrlaydigan, axloqiy kamolotga intiluvchi shaxsni shakllantirishdan iborat. Adabiyot darslari o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, nafaqat adabiy hodisalarga, balki voqelikning alohida faktlariga ham baho berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Aytish joizki, zamonaviy dunyoda adabiy ta’limning vaziyati, afsuski, havas qilar emas. Kitobxonlik yoshlarimizning sevimli mashg‘ulotlari qatoridan chiqib ketyapti. Adabiyot jadal sur’atlarda kompyuter texnologiyalari bilan almashtirilyapti. Ammo bu haqiqatni tushunib, kompyuter axloqni o‘rgatmasligini, his-tuyg‘u va tasavvurlarni rivojlantirmasligini, shaxsning shakllanishiga yordam bermasligini tushunib bo‘lmaydi. Adabiyot darslarida axborot oqimi, faktik materiallar taqdim etiladigan qismida, shuningdek, o‘quvchilar bilimini tekshirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zarur. Lekin shaxsning haqiqiy rivojlanishi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi jonli muloqot orqaligina mumkin bo‘ladi va shunday tashkil qilinadiki, u o‘quvchilarni fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarishga yordam beradi. Aftidan, so‘nggi yillarda ancha ommalashib borayotgan adabiyot o‘qitishning tipologik yondashuvi bu maqsadga xizmat qilishi mumkin. Bu usul faqat 60-yillarning oxiri - XX asrning 70-yillari boshlarida mashhur adabiyotshunos olimlar M.B.Xrapchenko, U.R.Foxt, G.N.Pospelov, Y.M.Lotman, N.L.Stepanova, Y.V.Mann va boshqalarning asarlarida o‘zining nazariy asosini oldi. Aynan shu davrda adabiyotning tarixiy

taraqqiyoti, adabiy asarlarni zamonaviy mutolaa qilish qonuniyatlarini o‘rnatish zarurati paydo bo‘ldi.

Har bir iste’dodli yozuvchi o‘ziga xos ijodiy individuallik bo‘lib, uning ijodini hech qanday sxema bilan ifodalab bo‘lmaydi. Lekin bu so‘z ijodkorlari o‘rtasida ichki bog‘lanishlar yo‘q, ularning ijodida umumiy tamoyillar, tendensiyalar ko‘rinmaydi, degani emas. Umumiy xususiyatlar nafaqat alohida yozuvchilar ijodiga, balki alohida asarlarga ham xosdir, ularni u yoki bu milliy adabiyotni boshqalar bilan solishtirganda ham uchratish mumkin.

Adabiyotni tipologik o‘rganish shundan iboratki, u adabiy hodisalarni ilmiy tahlil qilishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida taqqoslashni o‘z ichiga oladi.

Tipologiya – bu biror narsaning turlarini o‘rganish yoki ularning umumiy xususiyatlariga ko‘ra turlarini tizimli ravishda tasniflash.

Tipologiya til va tarixiy taqdiri yaqin xalqlar adabiyotida ham, tili va tarixiy taqdiri bir-biridan uzoq bo‘lgan xalqlar adabiyotida ham umumiy yoki o‘xshash rivojlanish tendensiyalarini ochib berishni nazarda tutadi [O‘zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida:ta’sir va tipologiya, 2013: 6].

M.B.Xrapchenko shunday yozadi: “Adabiyotni tipologik o‘rganish adabiy hodisalarning individual o‘ziga xosligini va ularning o‘xshash xususiyatlari va o‘zaro bog‘likligini emas, balki taniqli adabiy-estetik hamjamiyat haqida, ma’lum bir hodisaning ma’lum bir turga, jinsga tegishliligi haqida gapirishga imkon beradigan prinsip va tamoyillarni ochib berishdir” [O‘zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida:ta’sir va tipologiya, 2013: 6].

Hozirgi kunda odat bo‘lganidek, tipologik tadqiqotlarning turli darajalari mavjud. Adabiy oqimlar tipologiyasi bilan bir qatorda janrlar tipologiyasi ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy tanqidda uslub tipologiyasi jadal rivojlanmoqda. Maktab adabiyotida ma’lum bir adabiy oqim yoki janrga xos bo‘lgan tilning obrazlari, majoziy va ifodali vositalarining tipologiyasi eng qiziqarli hisoblanadi. Ushbu darajadagi tadqiqot talabalar uchun mavjud bo‘lib, ularga turli adabiy hodisalarni taqqoslash orqali o‘z xulosalarini chiqarish imkonini beradi.

Tipologik yondashuv nafaqat turli adabiy asarlar va ularning mualliflari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi, balki

umumlashtirishga ham imkon beradi. Bunday yondashuv nafaqat alohida yozuvchining ijodini tushunish, balki uni o‘sha davrning adabiy kontekstida ko‘rsatish, uni boshqa rus va xorijiy yozuvchilar bilan bir qatorga qo‘yish, yozuvchining umumiyligini ochib berishga imkon beradi.

Tipologik yondashuvdan foydalanish o‘rganishni muammoli qiladi, rivojlantiradi, o‘quvchilarga o‘z vazifalarini hal qilishda yordam beradi. Shu bilan birga adabiyot darslarida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida izlanish, ijodkorlik, hamkorlik muhiti vujudga keladi. Bunda o‘qituvchining roli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, maslahat berish va, eng muhimi, vazifani qo‘yishdan iborat. Yaxshi tuzilgan muammo talabalarga nima qilishlari kerakligi, uni hal qilish uchun qanday yo‘llardan foydalanishlari haqida aniq tasavvur beradi.

Sinfdagi bunday ish, albatta, taqqoslash uchun mo‘ljallangan yozuvchilarning ishlarini o‘rganish tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Tahlil uchun muayyan asarlarni taklif qilish orqali bir vaqtning o‘zida ilgari o‘rganilgan narsalarni takrorlash, o‘quvchilarga adabiy jarayonning rivojlanishini ko‘rish, bu rivojlanishning uzluksizligi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarda adabiyotni yaxlit idrok etish imkonini beradi.

Mualliflarning ijodiy pozitsiyalaridagi, xarakterlaridagi, obrazlarni yaratish usullaridagi, kompozitsion vositalardan foydalanishdagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, asarlarning janr o‘ziga xosligini aniqlash, tipologik o‘rganish uchun qanday asarlar taklif qilinishi mumkin?

Ehtimol, ko‘plab o‘qituvchilar Mirkarim Osimdan Oybekgacha (“Zulmat ichra nur” qissasi va “Navoiy” romani) doimiy ravishda chuqurlashtirilgan va yangi mazmun bilan to‘ldirilgan “qo‘shimcha shaxs” tushunchasini kiritganda ushbu uslubdan foydalanadilar. Muayyan bosqichda (aytaylik, Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi o‘rgangandan so‘ng) o‘quvchilarga Alisher Navoiy shaxsining o‘zbek adabiyotida rivojlanishini mustaqil ravishda kuzatish vazifasi berilishi mumkin. Har bir tasvirni o‘ziga xosligini belgilaydigan davr kontekstida ko‘rib chiqish kerak. Va bu ishning yakunida Oybekning “Navoiy” romanini o‘qish kerak. Natijada, biz takrorlash uchun ajoyib imkoniyat va o‘quvchilarning aqliy

faoliyatini faollashtirishning yaxshi usuliga ega bo‘lamiz. Xuddi shu narsani urush tasvirining evolyutsiyasi haqida ham aytish mumkin. Bu muammo maktab o‘quv dasturida o‘z aksini topgan, ammo u juda qiziqki, unga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Taqqoslash uchun Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” ,”Bemor”, O‘tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurboni”, Odil Yoqubov “Muzqaymoq” hikoyalari olinadi. O‘quvchilar urush qiyofasi qanday evolyutsiyadan o‘tishini, uning har bir asardagi manzaralarini, asarlarda davrning o‘ziga xos izi borligini aniqlashga urinib ko‘radilar.

Bu misollar adabiy tanqidda eng sodda va rivojlangan misollardir. Va bu yerda yanada murakkab muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish o‘quvchilarning kuchiga to‘g‘ri keladi. Rus adabiyotida ham bu borada bir qancha ishlar qilingan. Ulardan ba’zilarini ko‘rib o‘tamiz. A.S.Pushkin va F.I.Tyutchevning falsafiy lirikasi (dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari); L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” va M.A.Sholoxovning “Donda sokin oqadi” romanlarining janr o‘ziga xosligi; “Igorning yurishi haqidagi ertak” va “Roland qo‘shig‘i”ning sujeti va g‘oyasi; N.A.Nekrasovning “Uchlik” va A.A.Blokning “Temir yo‘lda” she’rlarining qiyosiy tahlili; Klassizm poetikasi muammolari (Molierning “Dvoryandagi savdogar” va Fonvizinning “O‘simlik” komediyalari misolida”; Adabiyotdagi utopiya va distopiya janrlari (N.G.Chernishevskiy asarlari asosida, G.Uells, E.Zamyatin, O. Xaksli, J. Oruell); Ziyolilar va inqilob A.N.Tolstoyning “Azoblar orqali yurish” va B.Pasternakning “Doktor Jivago” romanlari asosida);” ziyolilar va inqilob kabi masalalarni ko‘rib chiqish mumkin. Mavzuni tanlash o‘qituvchining qiziqish doirasi va sinfning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Har holda, asarlarni tahlil qilishda bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘rganilayotgan asarlarga qiziqish uyg‘otadi. Adabiyot darslari bundan foyda ko‘radi, ular kashfiyot xarakteriga ega bo‘ladi. Bundan tashqari tipologik tadqiqot metodikasidan foydalanish o‘quvchilarning adabiyot darslariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, badiiy asarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatadi, nostandart tafakkurni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Journal of Literature and Arts 2016; 4(1-1): 5-12 Published online November 2, 2015 (http://www.sciencepublishinggroup.com/j/ijla) doi: 10.11648/j.ijla.s.2016040101.12 ISSN: 2331-0553 (Print); ISSN: 2331-057X (Online) On Comparative Literature Elmas Sahin Department of Turkish Language and Literature, Faculty of Arts and Science, Çağ University, Mersin, Turkey Email address: elmassahin@cag.edu.tr To cite this article: Elmas Sahin. On Comparative Literature. International Journal of Literature and Arts. Special Issue: World Literature, Comparative Literature and (Comparative) Cultural Studies. Vol. 4, No. 1-1, 2016, pp. 5-12. doi: 10.11648/j.ijla.s.2016040101.12.B.90
2. Жирмунский В. М. Эпическое творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса. – М.: Изд- во АН СССР, 1958. – В.149
3. Robert L.Rankin-The Importance of Comparative Study POLS 3620 R50: Dr. Goodman. Comparative European Government. B.7
4. Xalliyeva G.Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.B.81
5. O‘zbek adabiyoti. Ta’sir va tipologiya. I Kitob. – Toshkent: Muharrir, 2013. – B. 375.

ADABIYOTNI O‘RGATISH YO‘LLARINI O‘RGANISH (DRAMATIK ASARLAR MISOLIDA)

Dinoraxon To‘g‘onova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyotining o‘qitilishi bo‘yicha qiyosiy tahlillar olib boriladi. Maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan jahon adabiyoti bo‘limida darslarni yangi metodlar orqali o‘tish ko‘rib chiqiladi. Darslikda ingliz adabiyoti uchun ajratilgan sahifalar, ularda keltirilgan namunalarning o‘quvchilar ongiga ta’sir qilishi haqida mulohazalar yuritiladi.

***Kalit so‘zlar**: Yangi dastur, metod, jahon adabiyoti, Davlat ta’lim standarti, darslik kontenti, drama.*

O‘rta ta’lim maktab darsliklarida jahon adabiyoti durdonalarini tanlash va ularni darslikka joriy qilish muhim vazifa bo‘lib kelmoqda. Sababi, muayyan mamlakatning mentalitetiga mos kelmaydigan g‘arb yoki sharq adabiyoti namunalarida ilgari surilgan g‘oyalarning o‘quvchilar ongiga ta’sir qilishni hisobga olgan holda darslik kontentini tuzish talab qilinadi. Bundan tashqari, jahon adabiyoti namunalarini mahalliy va global miqyosda uyg‘unlashtirilgan metodologiyadan foydalanish va o‘quvchilar uchun maqbul yondashuvni taqdim etish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelinayotgani tabiiy. Agar mavzu o‘quvchi yoshiga mos, milliy mentalitetga xos tarzda tanlansa, madaniyatlar aro yaqinlikka, o‘quvchilar tasavvur doirasining kengayishi va xayolan dunyoning qaysidir chekkasida yashash imkoniyati beriladi.

Tsvestan Todorov “Adabiyot nima uchun?“ nomli asarida maktab yoshiga to‘lmasdan oldinroq kitoblar olamiga oshno bo‘lgani haqida yozadi: “ Ilk xotiralarim kitoblar qurshovida bo‘lgan paytim bilan bog‘liq. Uyimizda kitoblar juda ko‘p bo‘lar edi. Bolalar adabiyotining klassik durdonalaridan “Arab oqshomlari”, Aka- uka Grim va Anderson ertaklari, Tom Soyer asarlarini takror-takror o‘qirdim [Botirova, 2020:539-541]. Todorov adabiyotga bo‘lgan muhabbatini kitob sahifalari va ulardagi satrlarga asir bo‘lgani bilan izohlaydi. U muayyan mintaqaviy matnni o‘qish yoki sahnada ko‘rish orqali hudud bilan yaqinlik, umumiy muhit bilan tanishish imkoniyatini berishini isbotlab beradi.

Bugungi tez sur’atda o‘sayotgan, ijtimoiy mediaga yo‘naltirilgan dunyoda adabiyotni o‘rgatish o‘qituvchilardan bir muncha mehnat talab qiladi. Xo‘sh, qanday qilib adabiyot o‘qituvchisi himoya chizig‘i bo‘la oladi? Talabalarni qiziqtirish, ularni foydali o‘qish strategiyalari bilan jihozlash va o‘qishga bo‘lgan muhabbatni kuchaytirish uchun adabiyot o‘qitishning ba’zi yangi usullarni ishlab chiqish vaqti keldi.

Asarlarni filmlar va sahna asarlari bilan to‘ldirish. Adabiyotni o‘qitishning eng mashhur usullaridan biri boshqa ommaviy axborot vositalari bilan bog‘lashdir. O‘qigan matnlarini filmda ham ko‘rish

o‘quvchilarning matnlar bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Dramatik tur she’riyat va epik turdan his-tuyg‘ularga boyligi, real sahna ko‘rinishi bilan farq qiladi. Ma’ruza usuli – o‘lik usul. O‘qituvchilarning ko‘p qismi dramatik asarlarni o‘qitishda ma’ruza usulidan foydalanadi. Biroq bu usul barcha talabalarni jalb qila olmaganligi uchun o‘lik usul deb e’lon qilingan[Brain Ninjan, 2021:57]. Agarda o‘qituvchi ma’ruza bilan cheklanib qolgan taqdirda ham u o‘z ovozidan unumli foydalanishi kerak. Energiya va ritmni ushlab turish kerak. Barcha o‘quvchilar bilan aloqani yaxshiroq o‘rnatish uchun xona bo‘ylab harakatlanish lozim.

Teatrga olib borish. Aslida dramatik asarlar tahlili ham xuddi epik va lirik turdagi asarlarni tahlil qilishga juda ham o‘xshab ketadi. Ammo dramatik turdagi asarlar faqat o‘qish uchun emas, balki asosan ko‘rsatish, namoyish qilish uchun ham yozilganligi sababli teatrga xos xususiyatlar hisobga olinishi kerak. Dramatik asarlarni o‘qitishda yana bir samarali usullardan biri o‘quvchilarni teatrga olib borishdir. “Dramatik asarlar taqdiri” maqolasi muallifi Valknshteyn quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Dramani o‘qish mumkin emas, drama teatrda chinakam dramaga aylanadi” [Baxtin, 1990:21].

Xorijda dramatik asarlarlar qahramonlarini ijro etgan aktyor, ularni sahnalashtirgan rejissyorlarni darsga taklif qilishadi. Xorij tajribasida talabalarni asarga to‘laqonli olib kirish maqsadida teatrda ma’ruzalar qilishadi[Katelyn Johnston, 2018:89]. To‘g‘ri, bizda ham dramatik asarlarni o‘qitish metodlari bor. Ya’ni debat usuli, kontekst bilan ishlash, asarlarni rollarga bo‘lib ijro etish. O‘qituvchi darsda bolalarga asarni his-tuyg‘u bilan o‘qishga va teatr janrini tushunishiga yordam berishi kerak. Sinfda qisqa spektakllar tayyorlashi, maktab va ota- onalar uchun sahna asarlari qo‘yishni tashkillashtirishi kerak. “O‘quvchining shaxslik sifatlarini shakllantirishda adabiyot fani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yozuvchining ijod dunyosiga kirishi va shu orqali bola ongi va didini o‘stirish asosiy maqsad hisoblanadi. Darslik va majmualardan o‘rin olgan o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarining o‘quvchi fikrini boyitish va hissiyotlarni tarbiyalashda ahamiyatlidir” [Shahlo B, 2020:110-113].

Asosiy masala faqat milliy adabiyotning o‘qitilishida emas. Muammo boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi”, yuqori

sinflardagi “Adabiyot” darsliklarida jahon adabiyoti uchun ajratilgan bo‘limlar kontenti bilan bog‘liq. Xorijiy maktab darsliklariga e’tibor qaratilsa, 5-6 sinfda rus o‘quvchisi J.Vern, M. Tven, E.Seton Tompson, A. Gofman kabi jahon adabiyoti yozuvchi va dramaturglari bilan tanishadi. 6-sinf o‘zbek o‘quvchisining adabiyot darsligi ikki qismdan iborat bo‘lib, unda jahon adabiyoti turkumidan faqatgina Janni Rodari hayoti va ijodiga murojaat qilingan. Bolalarni dramatik asarlar bilan tanishtirish va teatr muhitini yaratish bo‘yicha hech qanday yangilik kiritilmagan. Malayziya maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Ta’lim sohasidagi adabiyot” fanida nasrni o‘qitishda roman, hikoya, she’r, shuningdek dramaturgiya o‘rgatish kiradi[Ramesh Choungulu, 2015:11]. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan adabiy ta’lim asosida hech kimga o‘xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, xulosa chiqaradigan, qahramon holatini his etadigan, o‘zgalar dardiga sherik bo‘ladigan, ularni tushunadigan va shu asnoda o‘zini ham “kashf “ eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi” [Shokarimova, 2020:19-23].

Darslik tuzish murakkab va katta kuch talab qiladigan jarayon bo‘lish bilan birgalikda, yetishib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga ta’sir qiluvchi mas’uliyatli ish hamdir. Darslik bilan bir qatorda o‘qituvchilar ham o‘z bilimlarini, dars o‘tish mahoratlarini yangilab borishlari maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchidan talab qilinadigan shartlar o‘z sohasini puxta bilishi, xorijiy til va texnologiyani darsga olib kirishi dars samaradorligini oshiradi. XXI asr shuni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirova S. Problematic aspects related to the use of educational technologies and interactive methods in the classroom, 2020 – B. 539–541.
2. Brain Ninjan. Ways to teach drama in the classroom, 2021 – B. 57.
3. Baxtin M. Estetika slovestnogo tvorchestva. – Moskva: 1990. – B. 89.
4. Kateyln Johnston. 11 tips for teaching high school drama. 2018. – B. 21.

5. Shahlo B. Inson va hayot voqeligini metafrik uyg‘unlashtirishda badiiy psixologizmning o‘rni. –T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 110–113.
6. Ramesh Choungulu . Method of teaching drama, 2015. – B. 11.
7. Shokarimova K. Pedagogik qobiliyat va mahoratning ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati. –T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 23.

DRAMATIK ASARLARNI SAHNALASHTIRIB O‘QITISH USULLARI

Maftuna Narziyeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab o‘quvchisini o‘qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitob, gazeta va jurnallarni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan ma’lum mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan faol kitobxonga aylantirish maqsad qilindi. Adabiyotni o‘rganishda drama, teatr, muzeylarga tashrif buyurgan holda zamonaviy o‘quv muhiti va milliy o‘quv dasturi bilan uyg‘unlikda motivatsion dars tashkil qilish haqida fikrlar berildi.

Kalit so‘zlar: *drama, teatr, motivatsiya, til ko‘nikmalari, badiiy asar.*

Abdulla Qahhor “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf qilish kerak emas” degan fikrni ilgari surgan. Haqiqatan ham, adabiyot atomdan kuchli, faqatgina uni anglash va anglatishda keng ma’no bor. Atrofimizdagi dunyo o‘zgardi. Buni oddiy voqealar rivoji deb hisoblash mumkin bo‘lsa-da, biz atrofimizdagi odamlarga, ayniqsa, umumiy ta’lim maktablari yosh o‘quvchilarining bilim olishiga e’tibor bermog‘imiz darkor. Butun hayotini video o‘yinlar, kompyuter va mobil telefonlar bilan o‘tkazayotgan yosh o‘quvchilarni rag‘batlantirishsiz kitob o‘qishga jalb qilish juda qiyin. Aksariyat aqliy foaliyat o‘qish bilan bog‘liq. Ko‘p kitob o‘qimaslik insonni ma’naviy qoloqlikka duchor qiladi. Mustaqil mamlakatning o‘z fikriga ega bo‘lgan fuqarolarini

shakllantirish uchun butun ta’lim tizimini bugun jamiyat talab qilayotgan avlodni tarbiyalashga qaratish, har bir darsni xususan, maktab adabiy ta’limini erkin tarbiya texnologiyasiga tayangan holda tashkil etish davr talabidir [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020: 205].

Taniqli fransuz pedagogi-gumanist S.Frene “Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokratlashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo‘lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi”, – degan ekan [Френе , 1990: 153]. Shuning uchun har qanday islohotni, avvalo, maktabdan boshlamog‘imiz kerak.

Adabiyotni o‘qitishda dramatik asarni o‘quvchiga his qildirish uchun biz maktablarda adabiy asarlarning bir parchasini o‘quvchilarning o‘zlariga sahnada ijro qildirish kerak. Maktablarda adabiy muzeylar, teatrxonalar tashkil qilmog‘imiz yoshlarimizda aktyorlik va ijodkorlikni rivojlantirishga ko‘mak bo‘ladi. Bugungi kunga qadar adabiyot darslarida drama kurslari hech qachon o‘quv rejasiga kiritilmagan. Adabiyot darslarida amaliy mashg‘ulot, ya’ni sahna asarlarini tashkil qilish o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi. Jahonga nazar soladigan bo‘lsak, adabiyot va amaliy darslarni bir-biriga chambarchas bog‘liqligiga duch kelamiz. Adabiyotni sahnada dramatik rol o‘ynash metodini ilk Angliya va Amerika davlati fanga olib kirgan. Metodning maqsadi talabalarga adabiyot tarixi bo‘yicha asosiy bilimlarni olishga, adabiyotning asosiy turlarini o‘zlashtirishga hamda ayrim adabiyot tarixi bo‘yicha qo‘shimcha bilimlarni olishga, shuningdek, jamoada ishlash ko‘nikmasini ham oshirishga xizmat qilgan [Hoa Mai Phuong Nguyen, 2021]. Demak, bu adabiyotni o‘qitishda samarali yo‘llardan biri, chunki adabiyotni inson his qilishi uchun o‘qishning o‘zi kamlik qiladi, ya’ni obrazga kirib asardan xulosa qilmog‘i, hayotida buni qo‘llay olmog‘i darkor.

Maktablik chog‘larimda O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asarini o‘qib adabiyot ustozimiz bilan sahnalashtirganmiz. Bu asarda Gulchehra rolini ijro etgan qahramon quyidagilarni his qilishi mumkin.

Gulchehraning o‘limi… buning ortida Abdullaning vijdon azobi… U bu o‘limda o‘zini va o‘tkinchi orzu-havaslarini ayblaydi. “Odam bo‘lish qiyin” romanini o‘qib yana bir bor amin bo‘ldimki, nahotki, inson haqiqiy muhabbati o‘z atrofida ekanligini bilmay uni

olislardan izlasa. Gulchehrani pinhona nigohlari ostida erkalab, sevib, asrab kelayotgan Samadda nima gunoh ediki, sevgisi yetim bo‘lib qoldi. Gulchehra-chi? Gulchehra shunchalar zaif edimiki, otasi va qavm-u qarindoshlari g‘ururini, hattoki, yaqinda qabrga qo‘yilgan, hali tuprog‘i sovib ulgurmagan onasining xotirasini toptashga yo‘l qo‘yib berdi. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Ijodkor bu sevgini nega Mingbuloqda voqealashtirdi? Nazdimda, asarda ko‘p, juda ham ko‘p majoziy tasvir yotibdi. Mingbuloqda tug‘ilgan bu sevgi Gulchehraning ko‘p qavatli mehmonxonadan tushib ketishi bilan ming bo‘lakka bo‘lingan edi [Hayitmurodova, G‘aniyeva, 2021: 25].

Abu Nasr Forobiyning: “…badiiy asarni ifodali o‘qish, o‘qiganini hikoya qilib ko‘rsatish zo‘r san’at ekani” haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Sahna orqali adabiyotni o‘rgatar ekanmiz, tomoshabinni ham o‘ylovlarga tortamiz. Har bir asardagi obrazlarda inson o‘zining hayotida uchraydigan insonni gavdalantiradi. O‘quvchiga adabiyotni o‘qitar ekanmiz, kashf etish lazzatini tuydirishimiz muhim omillardan biridir. Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilari tomonidan ilg‘angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o‘quvchi o‘zi uchun kashf etishi kerak. [Matjon, 1993: 11]. Adabiyotni o‘qitishda yana bir ilmxona bu – teatr. Mahmudxo‘ja Behbudiy teatrni ibratxona deb atagan bo‘lsa, bugun yurtboshimiz teatrni ma’naviyat o‘chog‘i, ijod ahlini esa inson qalbining muhandislari deya yuksak ta’riflaydilar. Haqiqatan ham, hech bir san’at teatr o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun nega har maktabda teatrlar tashkil qilmaymiz? Har oy ijodkor yoshlarni to‘plab teatrda hordiq chiqarib adabiyotni o‘qitmaymiz. Teatr san’ati hayotni, voqea-hodisalarni turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarini dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Darsda dramadan foydalanishning maqsadi nozik spektakl yaratish emas, balki tajribaga asoslangan hissiy, gavdalangan va kognitiv bilimlarni rivojlantirishdir. Bu mahorat – aktyorlarning voqea sujetini yoki ma’lum bir xabarni yetkazish maqsadida sahnadagi harakatlari orqali namoyon bo‘ladi. Har bir aktyorning hayotiy tajribasi aktyorlik mahoratiga yordam beradi va bu mahoratini namoyon etadi. Shu bilan birga, sinfda o‘quvchilar aktyor bo‘lish uchun malakaga ega bo‘lishi shart emas va ular qahramon bilan bir xil hayotiy tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin.

Ma’lumki, motivatsiya (lotincha movere) faoliyatga undash ma’nosini anglatadi. Adabiyot darslarida o‘qituvchining ilm olishga yo‘naltiruvchi motivatsiyalardan bittasi – o‘qituvchining ishonchi. Adabiyotni o‘qitishda motiv, motivatsion dars metodini qo‘llashimiz juda ham qo‘l keladi [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020: 131].

Jahon adabiyotshunoslari Maolida va Savitri o‘quv motivatsiyasini oshirish uchun uchta usuldan foydalanganlar: mukofotlar berish, hamkorlikda o‘rganish, plakatlar yordamida. Bu usullar butun sinfning diqqatini aktyorlikka qaratishga va yaxshi natijalar uchun raqobatlashishga yordam beradi [Dilys Karen Rees, 2019].

Tallin universiteti, Estoniya davlati adabiyot o‘qituvchisi darsda “Chol va dengiz” asarini o‘quvchilar bilan sahnalashtirib darsda qo‘llab ko‘rdi. Asar bilan tanish bo‘lgan bolalar aktyorlik mahoratlarini sinashdi. Butun jarayon bir soat davom etdi, shundan so‘ng sinf o‘quvchilari rollar haqida sharhlar berishdi. Talabalar suhbatlari shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik talabalar adabiy asar mavzusini rolli o‘yinlar orqali yaxshiroq tushunishdi. Spektakl o‘quvchilarga adabiy asar mazmunini tushunishlariga yordam berdi. Xususan, ko‘rsatilayotgan filmdan parcha o‘quvchilar e’tiborini spektaklga qaratuvchi omil bo‘lib, spektakl orqali yetkazilgan mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shundan so‘ng butun sinf guruhlarining chiqishlarini tomosha qilgan o‘quvchilarda o‘qish va sahnada rol ijro etishda taqqoslash hissi paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, aktyorlik faoliyati talabalarga asarni eslab qolishga yordam beradi. Talabalar tinglash, gapirish va talaffuz qobiliyatlarini til ko‘nikmalari va bilimlari jihatidan rivojlantirdilar. Suhbatda qatnashgan talabalarning aksariyati spektakldan oldin dialoglar va qahramonlarning nutqlarini o‘qib, tomosha qilgan va mashq qilganliklari so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga va ravon gapirishga yordam berganliklarini aytishdi. Rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘rganish va so‘z boyligini kengaytirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ldilar [Katrin Kalamees-Ruubela, 2018]. Darsda maqsadga erishildi.

Biz Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Sharof Boshbekovning “Temir xotin”, Tohir Malikning “Shaytanat” asarlarini tengi yo‘q durdonalar sirasiga

kiritamiz va bu asarni 7 yoshdan 70 yoshgacha hamma sevib o‘qiydi, sahnada, kinoda tomosha qiladi. Nazarimda, teatr va kinolarda yuz ko‘rmagan yana boshqa bebaho asarlar bor. Masalan, Said Ahmadning “Ufq” asari. Hozirgi kunda Tursunboylar jamiyatimizda kammi? Abdulla Qahhorning ”Bemor” asaridagi Sotiboldi kabi dard kelsa, tabib, baxshilarga chopuvchilar bizning jamiyatda yo‘q deysizmi? Xullas, adabiyotni sahnada o‘qitish va o‘rgatish kitobxonda ham ma’naviy, ham ruhiy tetiklikni yuzaga keltiradi. Shu bilan bir qatorda, tinglash, gapirish, talaffuz qobiliyatlarini, til ko‘nikmalari va bilimlarni rivojlantiradi.

Italyalik mutaxassis J.Rodarining: “Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatmoqchi bo‘lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to‘qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo‘ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani”, degan qarashlariga asoslanib yosh kitobxonga asarni faqatgina o‘qitish bilan singdirish juda murakkabdir. [ziyouz.com] Shuning uchun adabiyot muhitini his qildiradigan xonalarni tashkil qilishimiz adabiyotni oson o‘rgatishda bizga qo‘l keladi. Dostonlarni o‘qitar ekanmiz o‘quvchi o‘sha davrning muhitini his qilishi uchun qadimiy to‘nlar, kamonlar tashkil qilishimiz, Otabek hamda Kumushlarning suratlarini, Farhod va Shirining siyratini his qildirishimiz adabiyot xazinasining eshiklarini ochishda yordam beradi. Chunki adabiyot ruhning taskin topishida bir yo‘ldir. Faqatgina bu yo‘lda sizga ustoz darkor. B. To‘xliyev: “Aslida adabiyot o‘qituvchining bosh yo‘nalishi ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchini amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilgan”, deydi [To‘xliyev, 2010: 37]. So‘z o‘quvchining ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatgandagina unda zavq uyg‘otadi, bu bilan insonni tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh avlod ma’naviy takomilini ta’minlashda kitobdan oqilona foydalanish, bunda teatrga, muzeylarga tashrif buyurgan holda adabiyotni sahnada o‘rgatish oilada ota-onaning, ta’lim muassasalarida esa tarbiyachi va o‘qituvchining burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva, Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 352.
2. Hayitmurodova, G'aniyeva. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asaridagi Gulchehra va Abdullaning taqdiri. Maqola. "Science and education", 2021. – B. 25.
3. Matjon S. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: O'qituvchi, 1993. – B. 253.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona. 2010. – B. 78.
5. Френе С. Избранные педагогические сочинения. – Москва, 1990. – С. 243.
6. Hoa Mai Phuong Nguyen. The Use of Drama Role-Playing in Teaching English Literature for English Majored Students: An Action Research at Van Lang University, 2021.
7. Dilys Karen Rees. The importance of studying literature for the future. – Universidade Federal de Goiás, 2019.
8. Katrin Kalamees-Ruubela. Teaching literature in and outside of the classroom, Tallinn University, Estonia, 2018

MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNI ADABIY-ESTETIK TAHLILGA O'RGATISH

Zilola Anvarova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU magistri

Annotatsiya

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish ularda adabiy-estetik tahlil malakalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarning tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning bir qator shakl va metodlaridan foydalanishni talab etadi. Natijada o'quvhilarda matn tagzaminidagi bosh g'oya, yetakchi mazmunni aniqlash, idrok etish va undagi nafosatni his qilish sifatlari rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: *O'quvchilar, mustaqil ish, adabiy-estetik, tahlil, badiiy asar, matn, maqola, referat, tezis, metod.*

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish ularda adabiy-estetik tahlil malakalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

Badiiy asar tahlili muallifning o‘sha asarni yaratishi bilan bog‘liq jarayonni o‘rganishga shart-sharoit yaratadi. Bu esa o‘qituvchidan o‘quvchilarni uyushtirish, ijodiy yo‘naltirish, bilimlarini kengaytirishga doir mustaqil ishlarni tashkil etishini taqozo qiladi.

Tahlil va uni tashkil etishga nisbatan professor Q.Yo‘ldoshev quyidagilarni e’tiborga olishni belgilab qo‘yadi: “Badiiy asarni nafosat talablariga muvofiq tarzda tahlil etish kechimida rioya etilishi shart bo‘lgan muayyan talablar tizimi mavjudki, ularga amal qilmaslik uning keragiday tahlil etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Tilda tamoyil tushunchasi biror faoliyatning yuzaga kelishi uchun bajarilishi shart bo‘lgan talablar yig‘masini anglatadi. Badiiy asarning hayotiy, badiiy mantig‘i hamda estetik jozibasi muayyan tamoyillarga suyangan holda amalga oshirilgan faoliyat natijasida ochiladi. Badiiy asarning butun sehr-u jozibasi to‘liq namoyon bo‘lishi, o‘rganilayotgan asarning mazmunigina emas, balki unda aks ettirilgan inson ruhiyati manzaralari ham to‘la anglashilishi uchun badiiy tahlil amalga oshirilganda, muayyan ilmiy tamoyillarga tayanilishi kerak”.

O‘quvchilarning tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning bir qator shakl va metodlaridan foydalanishni talab etadi. Jumladan, matn mazmuni asosida savollar tuzishni, to‘liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, insholar vositasida ta’limning boshlang‘ich va o‘rta sinflarda tahlil ko‘nikmalari shakllantiriladi. Natijada o‘quvchilarda matn tagzaminidagi bosh g‘oya, yetakchi mazmunni aniqlash, idrok etish va undagi nafosatni his qilish sifatlari rivojlanib boradi.

Yuqori sinflarda matn ustida ishlash referat, taqriz, annotatsiya, tezis, maqola, taqdimot, albomlar tayyorlash, ma’ruza matnlari yozish, loyihalarni tadqim etish singari mustaqil ish usullari keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini rivoji mustaqil ishlarning mazmunan va shaklan takomillashuviga ta’sir qilmoqda. Turli dasturiy vositalar yordamida portfoliolar tayyorlash, audio va video shaklidagi multimedia mahsulotlari yaratish vazifalari qo‘yilmoqda.

Muayyan mavzular asosida tashkil etiladigan bunday mustaqil ishlar adabiy ta’limning faol usullari sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ular o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, dunyoqarashini

boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mustaqil ishlar jarayonida ham badiiy asarni o‘qish-o‘rganish orqali bir qator masalalar ko‘zda tutiladi. Jumladan, o‘quvchilarni asar poetikasi tahliliga o‘rgatish:

1) asar mavzusi va g‘oyasini aniqlash;

2) asar qahramonlarini tavsiflash;

3) ijodkor badiiy mahoratini baholash kabilardan iborat.

Asarning estetik va axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini aniqilashga o‘rgatish ishlari o‘z ichiga:

1) asarning o‘quvchilar didi, badiiy tafakkuri rivojiga ta’siri doirasini belgilash;

2) o‘quvchilarda ifodali o‘qish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirishga ta’sirini aniqlash va boshqalar.

Ko‘rinadiki, o‘quv (didaktik) tahlili asarning badiiyati, axloqiy-estetik ahamiyati doimo o‘qituvchi e’tiborida bo‘lishi zarur. Busiz har qanday asarning tarbiyaviy mohiyati yo‘qqa chiqishi mumkin.

Asar tahlili yuzasidan o‘quvchilarga berish mumkin mustaqil ishlar namunasi sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq:

1. Asar voqealari qaysi davr va qayerlarda bo‘lib o‘tishini aniqlang. Ularning boshlanishiga sabab bo‘lgan omillarni izohlang.

2. Asarning har bir bobi (qism, bo‘limi)ni o‘qib yakunlaganingizdan so‘ng, o‘zingizga ma’qul bo‘lgan, o‘ylantirgan lavhalarni belgilang.

3. Mutolaadan olgan taassurotlaringizni kundalik hayot haqidagi tasavvurlaringiz bilan qiyoslang. Mushtarak va farqli jihatlari xususida so‘z yuriting.

4. Asar sujeti va tasviriy ifoda vositalaridagi noaniqlarni aniqlang. Sababini izohlang.

5. Asarni o‘qish asosida o‘zingiz uchun yangilik bo‘lgan voqea-hodisalarni daftaringizga yozing.

Tahlil jarayonida matnning o‘quvchiga tushunarliligi muhim o‘rin tutadi. Tushunarlilik bu muallif yaratgan badiiy olamning o‘ziga xosligi, obrazli ifodalarning o‘quvchi hayotiy tajribasi va bilim darajasiga mosligidir. Zero, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni mazmunini 5-sinf o‘quvchisi o‘zlashtira olmaganligi kabi topishmoqlar topish yoki tez aytishlarni aytish 11-sinf o‘quvchilariga zavq bermasligi mumkin. Mustaqil ishlarni tashkil etish orqali

adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish nafaqat bilimlarni o‘zlashitirish, balki adabiy ta’lim oldidagi ta’lim-tarbiya uyg‘unligiga qaratilgan dolzarb vazifadir.

O‘quvchilarning tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish masalasi bo‘yicha o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi sohasida S.Dolimov, Q.Ahmedov, A.Tojiyev, O.Madayev, A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, K.Abdullayev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Adabiy tahlilning maqsadi, vazifasi, mazmun va usullari bo‘yicha turlicha munosabatlar mavjud. Lekin har qanday asar tahlili, albatta, matn asosiga qurilishi ularning hammasida o‘rinli keltirilgan. Biz bu o‘rinda tadqiqotimiz xarakteridan kelib chiqib, masalaning mustaqil ishlar bilan bog‘liq jihatlariga to‘xtalamiz.

O‘quvchilarning axborotlar maydonidan muhimlarini topa olish, muammoning mavjudligi va uning yechimi topishda mujassamlashgan bilim va ilmiy izlanishlar samarasi loyiha sanalib, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga mo‘ljallangan yondashuvdir.

Loyiha – so‘nggi paytlarda o‘quvchilarning ta’limiy mahsulot yaratish maqsadiga qaratilgan texnologiya bo‘lib, bilimlarini mustaqil ravishda tartibga keltirish, turli fanlarga oid bilimlarini integratsiyalash, loyiha tartibini tuzish, har bir bosqich natijasini ko‘rsatish maqsadiga xizmat qiladi. Loyiha mavzulari tadqiqot metodlaridan foydalanish, muammoni belgilash, tadqiqot vazifalari va farazni aniqlash kabilarga yordam beradi.

Pedagog olima Sh.Abdullayeva ko‘rsatganidek, loyiha texnologiyasi asosida “pedagogning roli keskin o‘zgaradi: o‘qituvchi yangi bilimlarni tayyor holda bermay, balki o‘quvchining bilish faoliyatini yo‘naltiradi, bilim olishiga yaqindan yordam beradi”.

Bizningcha, loyiha mustaqil ishlarning zamonaviy shakli sifatida o‘quvchilarni badiiy asarda ko‘tarilgan muammoni aniqlash, hal etish yo‘llarini ko‘rib chiqish, takliflar berish, qahramonlarning taqdiri, hayot tarzi, o‘zaro munosabatlari, ular o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni belgilash va shasiy pozitsiyalarini himoya qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi mustaqil izlanish natijasida amalga oshiriladi.

Porfolio – kuzatishlarimiz o‘quvchilarga ta’lim maqsadlarini belgilash va o‘quv faoliyati natijalarini tanqidiy baholash ko‘nikmalari yaxshi rivojlanmaganini ko‘rsatdi. Fikrimizcha, ta’lim jarayonida mustaqil ish sifatida – baholashning noan’anaviy portfolio texnologiyasini qo‘llash samaralidir.

Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlarda o‘quv portfoliosi ta’lim maqsadlarini belgilashning muqobil shakllaridan biri sifatida qaraladi. Ta’lim maqsadlarini bunday usulda belgilash zamonaviy talablarga to‘la javob beradi.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quv portfoliosini yuritishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini, o‘quv-biluv faoliyati natijalari bo‘yicha erishgan yutuqlarini va rivojlanish darajasini ko‘rsatishdan iborat. O‘quvchining o‘z yutuqlarini qayd etib borishi, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini, u yoki bu faoliyat turiga o‘zining munosabatini tahlil etishi qatori hayotdagi o‘rnini tushunishga, kelgusidagi kasbiy faoliyati yo‘nalishlarini belgilashga, o‘qituvchilari, ota-onalarining qo‘llab-quvvatlashlari natijasida har qanday o‘quv faoliyatining maqsadini mustaqil qo‘yish zaruratini anglashga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida portfolio, uning mazmuni va tuzilishi xususida C.Musayevaning kuzatishlari ma’lum. Uning fikricha, portfolioning maqsadi “Sen o‘zingning nimalarga qodir ekanligingni ko‘rsat” shiori ostida faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatishdir”.

Metodist S.Kambarovaning 9-sinfda Ch.Aytmatov ijodi yuzasidan mustaqil o‘qishni tashkil etish masalasiga doir izlanishlarida muammo “Tog‘lar qulayotgan zamon” (“Abadiy qalliq) asari misolida tahlil qilingan. Tadqiqotchining qayd etishicha, “O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda porfolio metodiga murojaat qilish, asosan, mustaqil o‘qish, ijodiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, mutolaa qilingan badiiy asarlar yuzasidan xulosalarini ifodalash imkonini beradi. Hujjatlar portfelida o‘quvchining tafakkur tarzi, ijodiy faolligi hamda vazifaga munosabati aks etadi. O‘quvchining o‘zi haqidagi ma’lumotlardan tashqari olib borilgan tadqiqotchilik ishlari mazmuni va xulosalari hujjatlar yig‘ma jildining asosini tashkil etadi.

O‘quvchilarni adabiy tahlil malakasini shakllantiruvchi mustaqil ishlarning ilmiy ijodga yo‘naltiruvchi turlaridan biri **referat**dir. Lotin

tilidan olingan bu so‘z o‘zbek tiliga tarjima qilinganida “va’z aytaman”, “ma’lum qilaman” kabi ma’nolarni anglatadi. U bir yoki bir necha asar yuzasidan yozilishi hamda xarakteriga ko‘ra ma’ruza matniga yaqin turadi. Referat muayyan bir mavzu yuzasidan yozilgani sababli jiddiy hozirlikni talab etadi.

Professor M.Mirqosimovaning yozuvchi hayoti va ijodiga doir referatlar tayyorlash yuzasidan tavsiyalarida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. Ijodkor hayotiga oid ma’lumotlar bilan tanishishda tarixiy sharoit va o‘sha davrdagi adabiy muhitga e’tibor berish.

2. Yozuvchi yaratgan asarda zamonasining qanday dolzarb masalalari aks etgan va ularga nisbatan ijodkor munosabatini aniqlash.

3. Yozuvchi badiiy mahoratiga badiiylik va haqqoniylik talablari asosida baho berishda xilma-xil asarlarni qiyosiy o‘rganish.

4. Ijodkor uslubining shakllanishiga ta’sir etgan adabiy an’analar, ijodiy ta’sir va shaxsiy izlanishlar ahamiyatiga e’tibor berish.

5. Yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiyotlardan (o‘qituvchining tavsiyasiga ko‘ra) foydalanish.

Referatni yozishdan avval mavzu aniqlanib, reja tuziladi. So‘ngra muhim adabiyotlar tanlanadi. Ishning kirish qismida mavzuning ahamiyati bayon etiladi. Bayonda takrorlarga va g‘alizlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘chirma va misollar manbasi matnosti izohida aniq ko‘rsatiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘quvchining darslik yoki boshqa adabiyotlar bilan ishlash madaniyati uning ma’naviy darajasini bildiradi. Ma’naviyat esa o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U ta’lim-tarbiya uyg‘unligidagi izlanishlar natijasi hisoblanadi. Kitobxonlik madaniyati mashaqqatli, ayni vaqtda zavqli va izchil mutolaa orqali erishiladigan jarayondir. Natijada malakali kitobxon uchun kitob o‘qish ehtiyojga aylanadi. O‘quvchilar o‘qigan asarlari bo‘yicha fikr-mulohazalarini ma’lum reja asosida og‘zaki (ma’ruza, suhbat, bahs-munozara) va yozma (referat, bayon, insho, taqriz, maqola) tarzida bayon qilish bilan o‘zlari ham madaniy-ma’rifiy jihatdan yuksala boradi.

O‘qiganlarini qayd etish, his qilish va tushunishdan tahlilga,

undan estetik qabul qilishiga o‘tish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qobiliyati rivojidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш. Лойиҳалар усули // Kasbiy fanlar metodikasi. – Toshkent, 2013. – № 2. – Б. 10.
2. Йўлдош Қ , Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – Б. 49.
3. Kambarova S.I. Mutolaa madabiyati va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 128.
4. Мусаева С. Ўқув портфолиосининг тузилиши ва мазмуни // Kasb-hunar ta’limi. 2013. – № 1. – Б. 4.
5. Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. – Т.: РЎММ, 1993. – Б. 27.

O‘QUVCHILARNING KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Nozima Ergasheva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlardan foydalanish usullari haqida ma’lumot beriladi. Ta’lim jarayoni mukammallikni va dars o‘tishning innovatsion texnologiyalar yordamida olib borilishini talab qilayotgan bir davrda grafik orgayzerlardan unumli foydalanish dars mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiradi. Ulardan foydalanish o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham juda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *grafik organayzer, multimedia, interfaol metodlar, tafakkur, ko‘nikma.*

Ta’lim sohasidagi barcha islohotl’/arning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Prezidentimiz Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritib, “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”[Sh. Mirziyoyev, 2021] – degan edi. Ushbu islohotlardan o‘z o‘rnida hamda unumli foydalanilgan holda o‘quvchilarning o‘qish, kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish uchun rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim muassasalarining o‘qitish tizimida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalari, bu boradagi tadqiqot ishlari bilan tanishish, samarali usul va metodlarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish juda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Agar o‘tmishimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk olim Abu Nasr Forobiy aql orqali tafakkur yordamida bilishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilganiga amin bo‘lamiz. Ajdodimiz tafakkur mavhumlikka, umumiylik, bilvositalilikka, ya’ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega deb tushuntiradi. Avvalo, har qanday insonning mohiyati uning aqlida ekanligiga alloma diqqatni qaratib, quyidagi fikrni keltirib o‘tgan: “Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati harakatda namoyon bo‘ladi”[Karimova V. M., Sunnatova R.I, 2000: 6.] Forobiy ta’limotiga ko‘ra, tafakkur orqali inson materiyaning sezgilarga noma’lum bo‘lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini anglab yetadi va san’at, ilm-fan to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ladi.

O‘qish madaniyati, ya’ni kitob mutolaasida eng muhim omil – qiziqish sanaladi. Asar syujetining qiziqarliligi, bayon etish usulining sodda, ravonligi bolalarni kitobga bo‘lgan e’tiborini tortadi. Shu sababli o‘quvchilarni kitob o‘qishga majburlash emas, balki ularda

kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirib borish zarur.

Suxomlinskiy “yuqori darajada rivojlanmagan o‘qish madaniyatisiz maktab yoki haqiqiy aqliy ish rivojlanmaydi. O‘qish barcha fanlarni o‘zlashtirish, inson aqlini rivojlantirish uchun asosdir”[Жесткова, 2014: 70-74.] – deb ta’kidlagan. Hozirgi kunda yosh avlod hayotida kitoblarning o‘rni o‘zgarib bormoqda. Boisi, ulardan foydalanishga ham axborot texnologiyalari, ham televizor ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘pincha o‘quvchilar ma’lumot manbayi sifatida kitob o‘rniga kompyuterlardan foydalanishmoqda. “Axborot olish madaniyati” – bilim, ko‘nikma va qoidalar, axborot faoliyati sohasida yaratilgan umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lib, foydalanuvchiga axborot olamiga erkin egalik qilish, joylashishidan qat’iy nazar kerakli ma’lumotlarni (hujjatlarni) topish va ulardan foydalanish imkonini beradi” [Библиотечная энциклопедия, 2007.] Ammo bilim, tasavvur, fikrlash hamda mulohaza yuritish mantig‘i, ona tiliga muhabbat, mantiqiy, obrazli fikrlash qobiliyati faqat o‘qish orqali tarbiyalanishini anglatish esa juda muhim vazifa hisoblanadi. O‘qish uchun, kitobxon bo‘lish uchun ko‘p o‘qish kerak. Bolalar uchun badiiy kitob – bu o‘quvchi aql va qalb bilan anglaydigan alohida dunyo hisoblanadi. Kitob bola hayotiga iloji boricha erta kirib borishi juda muhimdir. Chunki u diqqatni rivojlantirishda, aqliy, axloqiy tarbiyalashda ajralmas hisoblanadi.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Ma’lumki, ta'limda ilg‘or pedagogik, yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish, o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Davletshin o‘quvchilarda mustaqil tafakkur rivojlanishiga katta e’tibor beradi. Olimning ta’kidlashicha, “Hozirgi maktablarning asosiy vazifasi ta’lim metodlarini takomillashtirishdir. Maktabning vazifalari haqida gap borganida kishining hozir o‘qitilayotgan fanni, hozirgi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tushunib olishga ancha mos tushadigan

tafakkur saviyalari haqida to‘xtalib o‘tish mumkin. Bu talablarga tafakkurning ilmiy-nazariy (dialektik) saviyasi javob beradi” [M.G.Davletshin va boshqalar, 1995: 20.]

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik hamda yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Hozirgi kunda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish muntazam ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha, an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish hamda fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi hamda tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

“Psixologiyada qiziqish – bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar motivlardir. Qiziqishlar maktab o‘quvchisiga fan asoslarini durustroq o‘zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o‘sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shug‘ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug‘ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. O‘quvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg‘itadigan narsalar bilan shug‘ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda, ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta’lim jarayonida o‘quv materialiga

bo‘lgan diqqatning barqaror bo‘lishida irodaviy zo‘r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir” [Davletshin va boshqalar, 2007].

Demak, shu o‘rinda aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular uchun kitobni mutolaa qilish vaqti hamda asar hajmining to‘g‘ri tanlanishi ham ularda badiiy adabiyotlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi. Kitob mazmunining oson tushunilishi ham o‘quvchilarda uni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularni qo‘llashda o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish zarur.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish hamda mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Endi shuni ham qayd etish joizki, grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli hisoblanadi. Ular ham interfaol ta’lim metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanmoqda. Grafik organayzer (inglizcha “graphic organizer” so‘zidan olingan) bu ma’lumot va g‘oyalarni osonlik bilan tartibga solish uchun ishlatiladigan o‘qitish vositasidir. Soddaroq qilib aytganda, grafik organayzerlar turli hajmdagi matnlarni chizmalar yordamida tushuntirish demakdir.

Grafik organayzerlarni fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi sifatida e’tirof etishimiz lozim. Grafik organayzer quyidagi turlarga bo‘linadi:

– ma’lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: klaster, toifalash jadvali, insert, B/B/B jadvali;

– ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usuli va vositalari.T jadvali, venn diagrammasi;

– muammolarni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” ierarxik

diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy – mantiqiy sxema. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi.

Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday darslar jarayonida har bir o‘quvchi chetda qolmasdan, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Buning natijasida bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi hamda o‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. E.G‘oziyev tafakkurning bu muhim sifatini quyidagicha belgilaydi: “Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, ya’ni vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz(gipoteza)lar qilish, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy jarayonni tushunish kerak” [E.G‘oziyev, 1990: 59].

Interfaol metodlardan biri grafik organayzerlar bo‘lib, bu o‘qitish va o‘rganishning samarali usuli ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Ta’lim jarayoni mukammallikni, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatni, dars o‘tishning innovatsion texnologiyalar yordamida olib borilishini talab qilayotgan bir davrda grafik orgayzerlardan unumli foydalanish dars mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiradi. Ulardan foydalanish o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham juda foydali bo‘lishi mumkin. Chunki ular darslarni yanada qiziqarli, oson va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Grafik organayzerlarni dars jarayonida qo‘llash orqali:

– keng ko‘lamdagi yoki murakkab tushunchalarni, shuningdek, g‘oyalarni kichikroq va sodda qismlarga ajratish orqali ma’lumotni oson tasavvur qilish yoki taqdim etishga yordam beradi;

– o‘quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish va mavzuni mukammal tushunish imkoniyatini yaratadi;

– aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tarkibni tasniflash va birinchi o‘ringa qo‘yish, mulohaza yuritish kabi bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;

– mavzuga oid avvalgi bilimlarni eslab qolishga va uni tezda yangi ma’lumotlar bilan boyitish hamda bilimlar zanjirini davom ettirishga ko‘maklashadi;
– o‘z ustida ishlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi tuyg‘ularni shakllantirish imkoniyatini oshiradi.

Bugungi kunda eng ko‘p qo‘llanilayotgan “BBB” grafik organayzeri orqali o‘quvchilarni asar o‘qishga qanday qiziqtirish mumkin degan savolga javob topishga urinib ko‘ramiz. “BBB” organayzeri asarni uch bosqichda tahlil qilishga undaydi. Bugungi kun zamonaviy adabiyot darsliklarida bu uchta bosqich ustida ishlash “BBB” organayzerini yodga soladi. Bilar edim bosqichida o‘quvchilar asarni o‘qishgacha bo‘lgan o‘z bilimlari bilan o‘rtoqlashishadi. Bilib oldim bosqichida esa o‘quvchilar asarni o‘qish jarayonida o‘rgangan yangi bilimlarini bayon qilishadi.

Hazrati inson		
Bilar edim: Ikkinchi jahon urushi yillarida Shoahmad aka va Bahri ayalar turli millat bolalaridan 14 tasini boqib olishgan. ularga atab Toshkent shahrida “Xalqlar d‘'stligi” san'at saroyi oldida haykal o'rnatilgan.	**Bilib oldim:** “Sen yetim emassan” she’rining muallifi G‘afur G‘ulom. Bu she'r ikkinchi jahon urushi yillarida ota-onasiz qolgan go‘daklarga bag‘ishlab yozilgan. Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” asari asosida 1962-yilda “Sen yetim emassan” nomli film suratga olingan. asar bosh qahramoni bo'lgan Mahkam aka rolini Obid Jalilov ijro	**Bilmoqchiman:** “Hazrati inson” romanining to‘liq qismi bilan tanishmoqchiman. Suratga olingan film va asarni solishtirib ko‘rmoqchiman.

	etgan. Asarni o'qish jarayonida insoniylik, millat ajratmaslik, huquqiy tenglik tushunchalarini anglab yetdim. bugungi kunga shukronalik hissini tuydim.	

Yuqoridagi jadval uchta darsga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda o‘quvchilar bilar edim bosqichini birinchi soatda to‘ldirishdi. O‘quvchilar darslikda berilgan rasmlar orqali o‘zlari avvaldan bilgan ma’lumotlarini yozishdi. Sinfdagi 90 % o‘quvchi “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyi oldiga o‘rnatilgan haykalni ko‘rganligi va bu haykal urush davridagi Shoahmad Shomahmudov oilasining haykali ekanligini bilishlari haqida yozishdi.

Ikkinchi soatda “Bilib oldim” bosqichi darsga tatbiq qilindi. O‘quvchilar uyga vazifa sifatida berilgan asarning parchasini o‘qish jarayonida bilib olgan yangi bilimlarini dars davomida jadvalga solishdi. Uchinchi bosqichda o‘quvchilar o‘zlari bilishni xohlagan ma’lumotlarini jadvalga joylashtirishdi. Bunda o‘quvchilarning deyarli hammasi asarning to‘liq matni bilan tanishishga qiziqayotganligini yozishdi. O‘tgan uch soatlik dars davomida o‘quvchilardan kutilgan natijaga erishildi. Dars jarayonini smarali tashkil qilishga yordam beradigan grafik organayzerlardan yana biri “Mening uyim” organayzeri hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar biror bir asarni o‘qish jarayonida o‘z uylarini tasavvurlarida shakllantirib olishadi. Asardagi har bir qismni uylaridagi har bir xonalarga joylashtirib olishadi. 6-sinf adabiyot darsligida berilgan “O‘n besh yoshli kapitan” asarini ushbu organayzerga solib o‘rgatish mumkin. Darslikda avval berilgan Dik Dend bobini o‘qish jarayonida o‘quvchi o‘zining uyidagi mehmonxonasini tasavvur qilishi va o‘sha bobdagi ma’lumotlarni mehmonxonasiga joylashtirib olishi mumkin. Keyingi Kpitan Send. Nima qilish kerak? nomli qismlarni o‘qiganda ham huddi shunday ma’lumotlarni o‘z uyidagi birorta xonaga, misol uchun, oshxonaga yoki yotoqxonaga joylashtirib olishi mumkin.

Natijada o‘quvchi o‘zi bilmagan holda asarni qiziqish bilan o‘qib tugatib qo‘yadi. Shuningdek, uyda yurganda ham har bir xonaga kirganda asar bilan bog‘liq xotiralar esiga tushaveradi. Bu esa o‘quvchiga asarni shunchaki mutolaa qilishdan ko‘ra qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, grafik organayzerlar bu butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘z oldiga ta’lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir. Har qanday interfaol metod to‘g‘ri hamda maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq – T.: O‘qituvchi, 1992. – B.47.
2. E.G‘oziyev. Tafakkur psixologiyasi – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 167.
3. Karimova V. M, Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash – T.: Sharq, 2000. – B. 112.
4. M.G.Davletshin va boshqalar. Ta’limning psixologik asoslari. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘qituvchi,1995. –B. 187.
5. Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Xalqaro kongress markazida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdi saylovoldi dasturi – Yangi O‘zbekiston strategiyasining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ma’ruza 9.09.2021
6. Библиотечная энциклопедия/ Рос. Гос. б-ка. - Изд-во РГБ «Пашков дом», 2007.
7. Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. –М., 2014.

YUSUF SARYOMIY DEVONI MANBALARI TADQIQI

Maqsud Maxsumov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mavlaviy Saryomiy devoni haqida ilmiy tadqiqot davomida olingan xulosalar bayon qilingan. Devonning tuzilishi, boshqa shoirlar ijodidagi o‘xshash va farqli jihatlar yoritilgan. Shoirning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan devoni asosida tahlil-xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *Mavlaviy Saryomiy ijodi, devon, mulohazalar, tazkira, tatabbu, ta’rix.*

Istiqlol sharofati bilan yuzaga kelgan talab va imkoniyatlar adabiyotshunoslik fanimiz zimmasiga insonning tafakkur qudrati, qalb va idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho merosimizni keng ko‘lamda chuqur o‘rganish hamda asrlar osha bezavol yashab kelgan ma’naviy qadriyatlarimizni kengroq kashf etish mas’uliyatini yukladi. Biz tanlagan va yoritishga uringan mavzu ham ana shu mas’uliyatli yo‘ldagi harakatlardandir.

Bugungi kunda keng kitobxonlar ommasiga hayoti va ijodi to‘liq o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan, hali badiiy salohiyati to‘liq ochib berilmagan ijodkorlarni tanishtirish asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Shular qatorida biz devonini tadqiq etayotgan Yusuf Saryomiy ijodi ham bor. 90-yillarga kelib Yusuf Saryomiy hayoti va ijodini o‘rganish o‘ziga xos yangicha tus oldi, ancha rivoj topdi. Bu o‘rinda professor B.Qosimovning ma’lum xizmatlarini qayd etmoq lozim. Uning shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq ayrim masalalarni o‘rtaga qo‘yishi va adib biografiyasiga aniqliklar kiritishga urinishi, Saryomiy asarlarini ommalashtirish sohasidagi xizmatlari Yusuf Saryomiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda, targ‘ib etishda qo‘lga kiritilgan yutuqlardan bo‘ldi deyish mumkin.

Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalari markazida saqlanmoqda. Ular quyidagilar:

№117 inventar raqam bilan saqlanuvchi دیوان مولوی یوسف سریامی asari. Devonga o‘zbek tilidagi g‘azal, muxammas, tarjiband, qasida va forsiy g‘azallar kiritilgan. Asar Toshkentda “Tipografiya, A.O. Porseva” tipografiyasida 1332/1913 yili nashr etilgan. 159 betdan iborat. O‘lchami: 26x16 sm. Noshiri: Mulla To‘lagon To‘la. Kotibi: Mulla O‘tab ibn Rasul Mahmud Shoshiy.

Xuddi shu asarning Sharq qo‘lyozmalari markazida yana №118, №119, №120, №6028, №9072, №11354 inventar raqam bilan saqlanuvchi nusxalari mavjud. [Ўзбек тилидаги тошбосма китоблар каталоги. 1-жилд, 2014: 42-43]

Markazning H.Sulaymonov fondida esa №3641, №3768, №3931, №4172 inventar raqam bilan saqlanuvchi toshbosma nusxalari mavjud. Bundan tashqari Andijon shahar Adabiyot va san’at muzeyida ham №1720, №2185, №2720, №728, №799 raqamli Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari mavjud. Devonning muqovasi qalin, yashil rangda, titul varag‘ining atroflari naqshinkor qilib bezatilgan, undagi yozuvlar zar yugurtirilgan siyohda yozilgan.

Yusuf Saryomiyning asarlari XX asr boshlarida tuzilgan va chop etilgan quyidagi qo‘lyozma va bosma bayozlardan ham o‘rin olgan.

1. “Gulshani ash’or” bayozi. [Гулшани ашъор. Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №170 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма]

Mazkur bayozda O‘rta Osiyo hududida yashab o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod etgan Firdavsiy, Atoiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Kamiy, Saryomiy, Xislat, Oxundiy, Xiloliy kabi 50 dan ortiq shoir haqida ma’lumot beriladi. Majmua matnini Mulla Shoh Islom ismli kishi tayyorlagan.

Bayozga shoirning 7 g‘azali, 1 ruboiy, 4 muxammas va 1 ta’rixi kiritilgan. G‘azallar matnlarining maqtalari quyidagilar:

جان دیماغیغه کیلور هر دم کل روخسار ایسی
بلبل شوریغه ییتکان کبی کلزار ایسی

1. *Jan dïmağïga kelür, har dam gulruxsār isi,*
Bulbulï šorïğa yetgän käbi, gulzār isi;

من نیکا موح رعناسی بولماین

مستی خراب نرکیس شهلاسی
بولماین

2. *Men negä mahvi ārazi ra'nāsï bolmayïn,*
Masti xarāb, nargisi šahlāsï bolmayïn;

کیچه تیبراندی صبادین ای سومنبر
کاکولینک
کل یوزینک اترافیدا چون سونبول تر
کاکولینک

3. *Kečä tebrändi sabādïn, ey sumanbar kākulïŋ,*
Gul yüziŋ atrāfïda čun sunbulï tar kākulïŋ;

رشک رونق جنت کر بولسا یار منظر
از بس که رشک رونق جنت کر بولسا یار
منظر

4. *Raškï ravāqï jannat, gar bolsa yār manzar,*
Az bas-ki, raški ravāqï jannat, gar bolsa yār manzar;

ناوکان دین قزای نکاه تیر ورار
سایید فتنه و ابرالاری شمشیر
ورار

5. *Nāvakāndïn qazāya nigāhï tir verar,*
Sāiid fitnaya abrolarï šamšir verar;

زولف سودا سین تیلارسین کیم اوزینک
دیوانه قیل

سونما ایلکینک ساچینه دست و دوعادین
شانه قیل

6. *Zulfï savdāsïn tilärsenkim, özïŋ devāna qïl,*
Sonma ilkiŋ sačïna, dast-u duā'dïn šāna qïl.

قرا کوزینک نی اثیری مودام سورمه
ناز
زمانه کورمادی بیر سن کبی بوتی
تناز

7. *Qara köziŋni asiri mudām surmaï nāz,*
Zamāna körmädi, bir san kabi butï tannāz.

Muxammasning 3 tasi Fuzuliy g'azallariga bog'langan, 1 tasi mustaqil muxammasdir. Ularning hammasi devonga kiritilgan. Chunonchi, bayozdagi "Yorab bejoh kursi arshi a'lo haqi", "Yurding mastu g'ofil bo'lmayin hushyor, yetmazmi",

“Sandin mudom jud ayla mehr-u vafo banga”
misralari bilan boshlanuvchi muxammaslarning nusxasi bilan devondagi nusxasida matnlarida o‘zgarish yo‘q [Тожибоева М.А, 2004: 48) Faqat bayozda keltirilgan “Muxammasi Mavlaviy Yusuf Saryomiy” sarlavhali muxammasning birinchi misrasida:

منی غم مونچه هم اواره دشتی الم قیلمه

Manï ğam munča ham āvāra-ï daštï alam qïlma.

Devonda esa:

منی کوب مونچه هم اواره دشتی الم قیلمه

Manï kop munča ham āvāra-ï daštï alam qïlma

tarzida uchraydi. Bayozdagi muxotab “g‘am” shaklida aniq ko‘rsatilmoqda. Devonda esa bu boshqacharoq hal qilingan.

Bundan tashqari ushbu bayozda shoirning “Hazrati Sulton Xo‘ja Ahmad Yassaviy marqada”ga yozgan musaddasi ham berilgan.

Lutf ilä šabï ummidïmï roz äylä,
Iqbālïmï tavfiq ilä feruz äylä,
Layli käbi lafzïmï dilafrāz äylä,
Majnun kabi nazmïmï jigarsöz äylä.

“Gulshani ash’or”da “Tarixi mehmonxona az Mavlaviy Yusuf” deb nomlangan ta’rix ham o‘rin olgan. Sharqona mehmonnavozlikni ko‘tarinki bir ruhda tasvir etuvchi ushbu she’r shunday satrlar bilan boshlanadi:

Äylä, mehmān qudumï gardïdïn,
Dilğa, yā rab, surur-u diydağa nur.

2. Yana bir bayozda Mutrib, Jomiy, Fazliy, Muhyi, Ado, Huvaydo, Mahzuna, Saryomiy, Kamiy singari 60 dan ziyod shoirning o‘zbek va fors tilidagi g‘azallaridan namunalar o‘rin olgan.

Bayozda shoirning yangi she’rlari kiritilmagan. Majmuaning 36-37- sahifalarida devonning 85-betidan o‘rin olgan “Zulfi savdosin tilarsenkim, o‘zing devona qil” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali berilgan. “Muxammasi Yusufiy” sarlavhasi bilan “Aylarda azmi gulshan, ey sho‘x sarvi qomat” deb boshlanuvchi lirikasi bilan Kamiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi ham kiritilgan (160-162-betlar). Ushbu asar devonda “Muxammasi bar g‘azali Mavlono Kamiy” sarlavhasi bilan 146-betdan joy olgan.

3. “Bayoz-i Haziniy”. [Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов

фондида №319 инвентар рақам билан сақланувчи “Баёз-и Ҳазиний” тошбосмаси]

Bayozga Haziniy, Xislat, Komil Xorazmiy, Kamiy, Fuzuliy, Amiriy, Muqimiylar asarlari, Saryomiyning ham she’rlari kiritilgan.

Bayozning noshiri Mirzo Ahmad bin Maxdum Karim, kotibi Sirojiddin Maxdum mulla Mirzo Oxund Sidqiy Xondayliqiy. Toshkentdagi H.Orifjonov matbaasida chop etilgan. Muqovasi ko‘k, qizil hoshiyali kartondan ishlangan. [Тожибоева, 2004: 50].

Yusuf Saryomiyning Fuzuliy g‘azaliga bog‘lagan “Yorab, bejoh kursiu arshi a’lo haqi” matla’li muxammasi va bitta g‘azali uchraydi. Bu

یتوشسه نامه لارینکیز نه هیرز جان ایتامز
اوقوب چو کوزکا سوریب جان ارا نهان ایتامز

Yetüšsä nāmalariŋiz, ne hirzi jān etämiz,
Oqub ču közgä surib, jān ara nihān etämiz.

matla’li g‘azal bo‘lib, devonda uchramaydi. Bundan tashqari ushbu bayozda shoirning “Ko‘rdum yuzini davrida oliyjanob xat” va “Rashki ravoqi jannat gar bo‘lsa yor manzar” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari takror uchraydi. Bayozning 220-betida Saryomiyning quyidagi fardi bor:

بولتور ایدینک سومنبر وه سیمین بدن نیکار
بو ییل کوزومغه بیر ودونک ایسکی مردکار

Bultur ediŋ sumanbar vah siymin badan nigār,
Bu yil közümğa bir vadavaŋ eski mardikār.

Mazkur bayoz mavjud bayozlar ichida to‘laligi, kotibi, noshiri aniq bo‘lganligi sababli ishonchli majmua sifatida ahamiyatlidir.

4. №3829 inventar raqamli bayozda Yusuf Saryomiy g‘azallari keltirilgan. Bayozning kotibi, noshiri, matbaa va yili noma’lum. Titul varag‘i 1, 2, 3, 4 hamda 21, 26, 33, 40 sahifalari yo‘q [Тожибоева M.A., 2004: 45].

Mazkur bayozda Jomiy, Ado, Kamiy, Saryomiy, Gulshan kabi 20 dan ortiq shoirning she’rlaridan namunalar bor. Saryomiy asarlariga ajratilgan sahifalar, g‘azallarning joylanish tartibi yuqorida sharhlab o‘tilgan №170 inventar raqamli “Gulshani ash’or”ga ko‘p jihatdan yaqin, deyarli bir xil. Shu sababli ularni takrorlab o‘tirishga hojat sezmadik.

5. Ma’lum va mashhur “Armug‘oni Xislat” bayozida (Армуғони Ҳислат. Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №3722-1 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма.) Xislat, Miskin Toshkandiy, Akmalxon, Zokiriy, Pirimqori Andijoniy, Saryomiy kabi 30 ga yaqin shoirning asarlari berilgan. Bayoz mashhur xonanda Mulla To‘ychi Hofiz iltimosiga binoan Mulla Sayyid Haybatulloh Xo‘ja Xislat tuzib savti va maqom nomini yozib, tartib bilan nashrga tayyorlagan. Kitobga Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondayliqiy kotiblik qilgan. Majmua Toshkentdagi G‘.Orifjonov matbaasida hijriy 1329- (melodiy 1911) yilda tuzilgan.

“Armug‘oni Xislat”ning 205-210-varaqlarida Saryomiyning “Dar marsiyai echku Yusuf Saryomiy” sarlavhali hajviyasi joy olgan. 20 band (100 misra)ni tashkil etuvchi ushbu hajviy asar devonga kiritilmagan.

Ushbu bayoz kotibi, noshiri, bitilgan yili aniq bo‘lganligi hamda shoirning bizga ma’lum bo‘lmagan katta hajmdagi asar matni to‘liq berilganligi bilan diqqatga sazovordir.

6. Saryomiy ijodidan namuna kiritilgan yana bir bayoz (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №3662 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма) hijriy 1332- yil, melodiy 1914- yilda O.A. Porsev matbaasida chop etilgan.

Bayozda Saryomiyning “Sho‘ring qursun!” radifli hajviy asari berilgan. Bu hajviya devonda yo‘q. 125 misrani tashkil qiluvchi ushbu hajviya mazkur bayoz bosmadan chiqqach, so‘nggi 4 varaqqa qo‘lda yozib kiritilgan. Sanasi yo‘q. U shunday boshlanadi:

فغان بو حال نیچوک اشنا شورینک قورسون
که حاصل المادی بو موداع شورینک قورسون
اولوس کوزیکا بولوب پارسا شورینک قورسون
امامه باشده بویندا ردا شورینک قورسون
فراق ایلینی قیلورغه دوع شورینک قورسون

Fiğān bu hāl, nečük āšnā šorïŋ qursun!
Ki hāsil olmadï bu muddaā šorïŋ qursun!
Ulus közigä bolub pārsā šorïŋ qursun!
Ammāma bašda, boyunda ridā šorïŋ qursun!
Firāq elini qïlurğa duā šorïŋ qursun!

Bayozda shoirning ushbu hajviyasini uchratdik, xolos. Uning kattagina hajmga egaligi boshqa bayozlarda hamda shoirning devonida uchramasligi ushbu majmuaning qimmatini oshiradi.

Yuqorida Saryomiy ijod namunalarining Sharq qo‘lyozmalari markazi H. Sulaymonov fondida saqlanatgan bayozlarga kiritilgan namunalari bilan tanishdik. Quyida esa Sharq qo‘lyozmalari markazi nodir kitoblar fondida saqlanayotgan bayozlar tavsifi bilan tanishamiz.

7. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari fondida №5736 inventar raqam bilan saqlanuvchi bayoz muqovasi qalin, yashil rangda. Titul varag‘ida tadqiqotchilar tomonidan qalamda bitilgan shunday yozuv bor: Almaiy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Sipandiy, Kamiy, Kotib Toshkandiy.

Abdulkarim Karim qalami ila yozilgan. Kitob hajmi 472 bet. Sahifalari har xil rangda. Matnlar qora siyohda, sarlavhalar esa asosan qizilda yozilgan. Kitobning 471-betida ushbu bayoz hijriy 1311 (1893) yilda Abdulkarim Kamiy tomonidan kitobat etilgani haqida ma’lumot beriladi. Bayoz ikkinchi betdagi Jomiy g‘azallari bilan boshlangan. Shuningdek, Xoja Ismat, Mushfiqiy, Sayyido, Amiriy, Ado, Husayniy, Tajalliy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Saryomiy kabi 50 dan ziyod zamondosh va o‘tmishdosh shoirlarning she’rlaridan namunalar berilgan.

Bayozning 314-317-varaqlarida Yusuf Saryomiyning “Qora ko‘zingni asiri mudom surmai noz” deb boshlanuvchi g‘azali hamda “Sani ey husn shohi el ko‘ra hayron saf-saf” misrasi bilan boshlangan muxammas – taxmisi joy olgan. Mazkur taxmis boshqa manbalarda ham uchraydi.

8. Saryomiy g‘azallaridan namunalar kiritilgan yana bir kitobning muqovasi qalin, qizil rangdagi karton qog‘ozdan yasalgan. Hajmi 337 bet. (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари фондида №7710 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма.)

Nuqsoni: dastlabki 24 varag‘ida hech narsa yozilmagan. Kitobning ko‘chirilgan yili, kotibi ko‘rsatilmagan. Ammo kitob muqovasi va yozuviga qarab XIX asr mahsuli deb taxmin qilish mumkin.

Bayozga Jomiy, Fuzuliy, Hofiz, Munis, Bedil, Kamiy, Amiriy, Saryomiy singari 60 dan ziyod shoirning forsiy va turkiyda yozgan she'rlari jamlangan.

Bayozda Saryomiyning "Zulfi savdosin tilarsenkim, o'zing devona qil" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali hamda devonda va boshqa bayozlarda uchramagan quyidagi fors-tojik tilida bitgan fardi berilgan:

دورود بی جان موشت تورا تیب درد نیست
رنج تورا موامل بارنک زرد نیست

Durud bejān mušt turā tib dard nest,
Raŋï torā muāmil bāraŋ zard nest.

9. Bayoz muqovasi qalin sariq rangli karton qog'ozdan ishlangan. Hajmi 288 bet. Noshiri Muhammad Nosih Ali Muhammad domla o'g'li (1868-1918) bo'lib, ushbu bayozning oxirida noshirning surati ham berilgan.

Bayoz G. Yakovlev matbaasida chop etilgan. Bosilgan yili ko'rsatilmagan.

Titul varag'ida noshir haqida uning o'g'li Abdulla Nosirov tomonidan qisqacha ma'lumot bor. Bayozda Saryomiy, Muhyi, Tajalliy, Muqimiy, Kamiy, Akmal, Fazliy kabi bir necha shoirlarning asarlari berilgan.

Mazkur bayozda Saryomiyning "Rashki ravoq jannat", "Novak andoz qazoe", "Zulfi savdosin tilarsenkim", "Man necha mahvi oraz" deb boshlanuvchi 4 ta g'azali hamda Amiriy, Fuzuliy g'azallariga bog'lagan "Umrlardurkim biyoboni alam po'yoniman", "Yorab, bejoh kursiyu arshi a'lo haqi", "Mani ko'b muncha ham ovorau dashti alam qilma" misralari bilan boshlangan taxmislari berilgan.

Bulardan tashqari "Dar marqad hazrat Sulton al Orifin nurulloh marqad" deb nomlangan A.Yassaviyga bag'ishlangan marsiyasi, "Tarixi mehmonxona az Mavlaviy Yusuf" sarlavhali ta'rixi takror uchraydi. Bayozdan shoirning devonga kirmagan bitta murabba' va bitta muvashshahi o'rin olgan.

Yuqorida biz ko'rib o'tgan 170 saqlanish raqamli bayozda uchragan "Lutf ila shab umidimi ro'z ayla" matla'li mazkur bayozdan ham o'rin olgan.

Bayozning 16-sahifasida devonga va boshqa bayozlarga kiritilmagan quyidagi ruboiy bor:

قیلما پنهان مردوم دیدم جانا بیر دمه
روزکاردور قرا خالینک بیله همخانه قیل
عمرلار انینک تیلارمن تاکه اول ای دیرموکن
یوصوفی سن هم ایتیم یاندا کیل کاشانه قیل

Qïlma pinhān mardumï diydami jānā bir dame,
Rozgārïdur qara, xāliŋ bilä hamxāna qïl.
Umrlar aniŋ tilärman tāki ul āy dermukin:
Yusufiy, sen ham itim yānida kel, kāšāna qïl.

Ko‘rinadiki, ushbu bayozda Saryomiy ijodiga keng o‘rin berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Saryomiy g‘azallarining ko‘plab toshbosma bayozlarga kiritilishi, shoirning badiiy salohiyati yuqoriligidan, ijodining keng kitobxonlar ommasi tomonidan iliq kutib olinganligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raboyev O. Navoiy devonlarining Qo‘qon nusxalari va ularning ba’zi xususiyatlariga doir. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy me’rosining olamshumul ahamiyati. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B. 134.
2. Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. Т.,2004.
3. Қосимов Б. Муҳаббат аҳлининг гулшани. Т.,1992.
4. Мирхолдоров М. Юсуф Сарёмий. – Чимкент-Сайрам, 1990.
5. Девони Мавлувий Юсуф Сарёмий. Тошбосма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 119. – В. 84.

MUHAMMAD NAMANGONIY – FOYIQ SHE’RIYATI TAHLILI

Muxlisa Vohidova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich
magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Muhammad Mahdumiy Namangoniy – Foyiq devoni haqida ilmiy tadqiqot davomida olingan xulosalar bayon qilingan. Adib Qo‘qon adabiy hayotida ko‘zga ko‘ringan ijodkorlardan bo‘lib, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida

yashab o‘tgan. Shoirning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan devoni asosida tahlil-xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *Muhammad Mahdumiy Namangoniy – Foyiq ijodi, devoni bo‘yicha mulohazalar.*

Sharq xalqlari qadim zamonlardan buyon jahon madaniyatining ulkan xazinasiga o‘zining mumtoz asarlari bilan hissa qo‘shgan ko‘pgina buyuk ijodkorlarni yetishtirib berdi. Ularning merosini keng xalq ommasiga yetkazib berish madaniyatimizning to‘kisligi uchun nihoyatda zarurdir. Bu ishlarni o‘tmish qo‘lyozmalarni yig‘ish, ilmiy-tanqidiy o‘rganish va nashr qilish bilan shug‘ullanuvchi manbashunoslik va matnshunoslik bilimlarisiz, arabiy imlo malakasisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Matnshunos oldida turgan bosh vazifa – matn tarixini tiklash, tadqiq doirasiga tortilgan manbaning turli nusxalarini qiyosan o‘rganish, tadqiq etish, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish va ilmiy muomalaga kiritishdir. Muayyan matnning paydo bo‘lishidan to oxirgi holatigacha davom etgan o‘zgarishlar silsilasi matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma’lum vaqt mobaynida subyektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi muharrir) va obyektiv (ijtimoiy) omillar ta’sirida o‘zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu o‘zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo‘l bilan asl matnni tiklashdir.

Bizning tadqiqot obyektimiz hisoblangan Foyiq devonini ilmiy monografik tavsif qildik, lirikasini tahlil qildik, yozuvchi haqida ma’lumot hech bir tazkirada uchramaganligi uchun devonning til nuqtayi nazaridan tahlilga tortdik. Shoir lirikasida g‘oyaviylik uning badiiy ko‘lami shoirning ijtimoiy muhit ta’sirida yozilgan. Foyiq devoni hamd, na’t, muxammas, musaddas, taxmis, mulamma’, ruboiy kabi janrlarga boy bo‘lib, XX asr turkiy she’riyatida munosib o‘rinni egallagan. U, avvalo, zabardast lirik shoirdir. Yuzlab mazmundor g‘azallar yozgan, devon tuzgan, turkiy she’rning buyuk Alisher Navoiydan keyin qadr-u e’tiborini yuksak sharaf va mas’uliyat bilan himoya eta olgan shoirdir. O‘z navbatida forsiyda ham ijod qilib, o‘zgacha mahoratini namoyon qilgan.

23-A sahifada uchraydigan mulamma’

Mulamma’ o‘zi qanday janr? G‘azalning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi? degan savolga javob topish uchun adabiyotshunoslarimiz tomonidan **mulamma’**ga berilgan ta’riflar bilan tanishib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Mulamma’ so‘zi arabchada – “rang-barang qilingan”, – degan ma‘noni anglatadi. Bu sifatdosh shakli bo‘lib, uning harakat nomi shakli “talmi’” hisoblanadi. Shu bois ba‘zi manbalarda mulamma’ talmi’ nomi bilan ham atalgan. Mumtoz poetikada esa bu san‘at, asosan, *shir-u shakar* istilohi bilan keladi. Biroq Taroziy talqinida ***talmi’*** ham, ***shir-u shakar*** ham ishlatilmaydi. Balki, forscha nomlanish (shir-u shakar) XV asrdan keyin paydo bo‘lgandir. Muallif izohi: “Bu san‘at aningtek bo‘lurkim, she’re ayturlarkim, bir misrayi bir til birla bo‘lur, bir misrayi yana bir til birla:

Ba xudoki xastalarga yuzungiz g‘amidin o‘lmak,
Du hazor bora xushtar zi hayoti jovidoni.
Misoli digar. Muhammad Ganjaviy aytur:
Bu husn-u malohatki, sanga jam‘ bo‘lubtur,
Gar noz kuni va nakuni, dil ba…

[Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy,1996:56]

Yuqoridagi ma’lumotlarga qaraganda mulamma’ janri hamma ijodkor uchun sermahsul bo‘lmagan. Faqatgina sohibso‘z egalarigina bu janrda ijod qila olishgan. Bizning tadqiqot obyektimiz hisoblanmish Foyiq ijodida ushbu janrning mavjudligi uning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlash bilan bir qatorda, nafaqat turkiy til balki arab tilini ham mukammal bilishidan dalolat beradi. Arab tilini bilgan har qanday ijodkor ham ushbu tilda nazmda g‘azal yoza olmaydi. Foyiq esa ushbu tilda g‘azal yozganlardandir. Shuning uchun uning ijodini o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish, hatto, darsliklarda ham uning nomini kiritib keng targ‘ib qilish kerak degan xulosaga keldik va tadqiqot ishimizning kichik qismini boshladik. Pastdagi parchada aynan Foyiqning mulamma’si berilgan. Bir misrasi o‘zbek tilida keyingi misrasi arab tilida. Bu holat g‘azalning oxirigacha davom etgan. Yozuviga e’tibor beradigan bo‘lsak juda chiroyli yozilganiga guvoh bo‘lamiz. Bemalol qiynalmasdan o‘qish mumkin. Tabdili esa quyudagicha:

La’li jon baxsh so‘zidur afsah,
Kullu fe’lin limuslihin aslah.
Mehridin orazi ravshanroq erur,
Bihazihil qovlil ushshoqi avsah.
Yordan bizni judo qildi raqib,
Kullu fe’lin liqobihin aqbah.
Shukr hajringga vasl o‘lsa nasib,
Ba’dahu soro mudiyhu amdahu amdah.
Masnad uzra yuzi ravshan ko‘rinur,
Koinot ush-shamsi sathoi astoh.
G‘am yema Foyiq agar orifsan,
Falahum nassun farovhun afroh.

Ushbu mulamma’ni tarjima qilganimizda u boshdan oyoq Allohga hamd tarzida bitilganligiga guvoh bo‘ldik. Bunga misol tariqasida oxirgi misrada, ya’ni maqtada kelgan voqe’a surasining 89-oyatiga ishoratni tahlil qilamiz**. Ey, Foyiq g‘am yema (bilasan-ku Alloh taoloni shunaqa so‘zi, oyati borligini. Nima uchun g‘am chekasan.)** Falahum nassun farovhun afroh- ya’ni, tepada zikr qilingan odamlarga Qur’oni Karimda dalil borku. **فَأَمَّا إِنْ كَانَ مِنَ الْمُقَرَّبِينَ** 88. *Агар, у муқаррабларданўлса..* **فَرَوْحٌ وَرَيْحَانٌ وَجَنَّتُ نَعِيمٍ** 89. *Роҳатда, фароғатда ва сернеъмат жаннатдадир.* [https://islom.ziyouz.com/kitoblar/qur-oni-karim-ma-nolari-tarjimasi-alouddin-mansur]



[Foyiq devoni 23-A sahida]

Foyiq devonida g‘azaldan keyin asosiy o‘rinni muxammas egallaydi.

Muxammas XIX-XX asr she’riyatida ham an’ana sifatida davom etgan. Bu ayniqsa, Rojiy, Tabibiy, Haqiyriy, Jaliliy kabi ijodkorlar ijodida ham yorqin namoyon bo‘ldi. Ilmiy ishmizda shoir Foyiqning Alishyer Navoiy, Fuzuliy, g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarini ko‘rishimiz mumkin.



Bo‘lg‘usi ul moh guliston ichra mavo aylagach,
Ziynati ortuq chaman la’lini go‘yo aylagach.
Gar o‘luka jon berur Iso dami lekin agar,
Necha Iso jon topar la’lin Masiho aylagach.

Ushbu g‘azal Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan 98- raqamda o‘rin olgan “aylagach” radifli g‘azaliga bog‘langan. Shoir g‘azal mazmunini deyarli o‘zgartirmaydi ya’ni, Navoiyda ushbu g‘azal quyidagicha:

“G‘aroyib us-sig‘ar” 98-g‘azal

Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham` ravshanroq bo`lur torin parishon aylagach.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?

Tiyg` ila paykonlaring yetti ko`ngul bo`lg`och xarob,
Suv quyub tuxm ekting, ul kishvarni vayron aylagach.

Qon emaskim yopti gulgun hulla jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzin ko`zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko`ngul ko`zumni hayron aylagach.

Jong`a qo`yg`ach naqdi ishqing qildi ko`nglumni halok,
O`lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko`nglungni majruh etmadi,
Bas nedurkim, qon kelur og`zingdin afg`on aylagach?!

Yuqoridagi g‘azaldan bizga Foyiqning g‘azali Alisher Navoiyning g‘azaliga taxmis ekanligi ma’lum bo‘ladi. Foyiqning “aylagach” radifli g‘azalini aruziy jihatidan tahlilga tortadigan bo‘lsak:

Bo‘lg‘usi ul moh guliston ichra ma’vo aylagach,

— V — — — V — — V — — — — V —

Ziynati ortuq chaman la’lini go‘yo aylagach.

— V — — — V — — — V — — — V —

Yuqoridagi chizmaga ko‘ra g‘azal 15 hijoli ekanligi aniqlandi. Vazni esa **Ramali musammani mafzuf**. Mazkur vazn dastlabki uch ruknning *foilotun*, so‘nggi to‘rtinchi ruknning *foilun* tarzida kelishidan yaraladi. Ya’ni vaznning taqtiyi:

foilotun foilotun foilotun foilun

— V — / — V — / — V — / — V —

Foyiq lirikasiga hajman qararkanmiz, uning devonidan bizgacha 6 ta ruboiy o‘rin olganligi aniqlandi. Bu esa devonning ko‘p qismini g‘azal tashkil qiladi deganidir.

Shoirlar ruboiyda ishq haqida ham, falsafa haqida ham, axloq haqida ham – xullas she’riyatda foydalanish mumkin bo‘lgan deyarli barcha mavzularda qalam yuritganlar. Biroq ruboiy mundarijasining yetakchi yo‘nalishlariga qarab, shartli bo‘lsa-da mavzuviy tomondan uch guruhga ajratish mumkin.

1. Falsafiy ruboiylar.
2. Ishqiy ruboiylar.
3. Ta’limiy –axloqiy ruboiylar [Yunusov.M. Barhayot an’analar. 1969-y 77-b].

31-A ruboiy



[Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 31/А bet]

So‘rdim chaman ichra g‘unchadin k-ey noshod.
Avval nega tangdil san-u so‘ngra kushod,
Dedi bu chaman ahli baqosi bir dam,
Holimg‘a boqib, kuldim-u bo‘ldim baryod.

Ushbu ruboiyni o‘qir ekanmiz misralar ma’nosining o‘ynoqiligi, so‘zlarning chiroyli ifodasi hamda vazni bizni o‘ziga mahliyo qiladi. Bu esa shoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Aruziy jihatidan ruboiyning vazni tahlil qilishga harakat qildik:

1-misra **- - v / v - v - / v - - v / v -**

2-3-4-misra **- - v / v - - v / v – v - / -**

Taqte'dan ko'rinib turibdiki, ruboiy ana'anaviy hazaj bahrida yozilgan. 12 hijodan iborat. 1-misrasi hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solimi ajabb, 2-3-4-misralari esa Hazaji musaddasi axrabi makfufi maqbuzi abtar, ya'ni 1-misra vaznning 1-rukni ***maf'uvlu (--V)*** bo'lib, ***mafoiylun*** asl ruknining o'zgarishidan hosil qilinib, **axrab** deya nomlanadi. 2-rukn ***mafoilun (V- V-)*** bo'lib, uni **maqbuz** deb ataymiz. 3-rukn ***(V-V-) maoiylun*** (V---) asl rukn ***solim*** shaklida kelgan, 4-rukn esa ***faal (V -) bo'lib, uni ajabb deb nomlagan holda,*** rukni quyidagichadir:

maf'uvlu mafoilun mafoiylun faal

Ruboiy qofiyalanishga qarab ikki xil bo'ladi. Agar u a-a-b-a tarzida qofiyalansa xosiy ruboiy, a-a-a-a tarzida qofiyalansa taronayi ruboiy deb yuritiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, yuqoridagi birinchi ruboiy xosiy ruboiy, ya'ni qofiyalanishi a-a-b-a tarzida. Ikkinchi ruboiy (pastda berdik) esa taronayi ruboiy. Qofiyalanishi a-a-a-a tarzida. Mavzuviy jihatdan esa **ishqiy ruboiylar** sirasiga kiradi.

Mumtoz adabiyotdagi manbalarni matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish orqali adabiyotning hajm jihatidan ham mavzularni turi jihatidan ham nihoyatda ko'p ekanligi ma'lum bo'ladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhiti ko'plab zabardast shoirlarni yetishtirib chiqardi. Bu muhitdan Foyiq ham benasiba qolmadi. Foyiqning devon tuza olish mahoratiga, albatta, xonlikning adabiyotga yaratib bergan imkoni to'laqonli sabab bo'lgan. Qo'qon adabiy muhiti va Muhammad Maxdumi Namangoniy Foyiq haqidagi fikrlarimizni muxtasar tarzda yakunlar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlamog'imiz lozimki, u shoir sifatida o'z davrida muayyan bir mavqega erishdi. Davr adabiy muhitida uning o'z o'rni, ovozi va nufuzi bor edi. Qo'qon adabiy muhitining iste'dodli vakili, biroq bugungi kun o'quvchisiga noma'lum bo'lgan Foyiqning ijodiy merosini tadqiq etish, bu ijodiy merosni hajm va mazmun jihatidan baholab, targ'ib qilish xayrli vazifalardan biridir.

Devoni Foyiqni lirik janrlarga ajratish davomida g'azal, ruboiy, muxammas, musaddas kabi yirik turlardan tashqari munojot, qasidalar ham uchrashiga guvoh bo'ldik. Bu bilan aytish mumkinki, Foyiq lirik turda keng salmoqli ijod qilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Jo‘raboyev O. Navoiy devonlarining Qo‘qon nusxalari va ularning ba’zi xususiyatlariga doir. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy me’rosining olamshumul ahamiyati. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B. 132.
2. Қаюмов А. Махмур. Шеърлар. – Т.: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1956. – В. 56.
3. Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 84 bet.
4. R. Zohidov. (2020). Ilmiy-ma’rifiy asar tahqiqi. – T.: Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – B. 12.
5. Yunusov M. Barhayot an’analar. – T.,1969.
6. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. – T.: Xazina, 1996.

ALISHER NAVOIYNING “AHBOB, YIGITLIKNI G‘ANIMAT TUTUNGIZ” RUBOIYSI VAZNI METODIKASI

Nasiba Meyliyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magsitranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ruboiy janridagi hazaj bahrining axrab shajarasi vaznini o‘qitish texnologiyasi tahlil qilingan. Ruboiydagi mavjud fikrlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *8-sinf “Adabiyot” darsligi, aruz, vazn, ruboiy.*

Ta’lim tizimida ruboiy janri vaznlarini o‘qitishni to‘g‘ri va samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Bugungi kunda innovatsiya va axborot-texnologiyalarsiz tasavvur qilish ancha mushkul. Ta’lim tizimida innovatsion pedogogik texnologiyalarning ustun jihati shundan iboratki, bunda ta’lim jarayonini rejalashtirish, muhokama qilish, kuzatish va tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. So‘nra, ta’limda ko‘zlangan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi.

8-sinf “Adabiyot” darsligidagi 2-ruboiy *“Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz”* deb boshlanuvchi bu ruboiy, shoirning har qanday asari kabi, makon va zamon tushunchalari qobiqlarini yorib o‘tadi, bu jihatdan u chegara bilmaydi. Hayot bor ekan, insoniyat mavjud ekan, yoshlik va qarilik tushunchalari bo‘ladi [Olim, Ahmedov, Qo‘chqorov, 2019: 70]. Ushbu ruboiy Hazrat Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari 105-tanbeh “Shabob ayyomi zikrida” tarkibida kelgan. Ushbu ruboiy ham ruboiy musarra’ (ruboiya) hisoblanadi. “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” deb boshlanuvchi ruboiy ham ikki vaznli bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra darslikda keltirilgan ruboiylardan farq qiladi.

Ahbob(i),/yigitlikni/ g‘animat tu/tunguz,

O‘zini qa/rilik mehna/tidin qo‘rqu/tunguz.

Oyini/ adovat-u/ hasaddin o‘tunguz,

Har **nav’** i/la o‘zini ne/cha kun ovu/tunguz.

Biz bu o‘rinda keltirilgan ruboiyning vaznini aniqlashda “Zinama-zina” metodidan foydalanib tushuntiramiz:

O‘qituvchi “Zinama-zina” metodini o‘quvchilar bilan foydalanishda, sinfdan xohlagan to‘rtta o‘quvchini doskaga chiqaradi. Har bitta zina pog‘onasiga bittadan o‘quvchini joylashtiradi va unga qog‘ozda yozilgan, ruboiy tarmoq ruknlarini berib, o‘rnini almashtirib qo‘yadi. Shunda sinftan yana bir o‘quvchini doskaga chaqirib, ularning zinalar ketma-ketligida birinchi pog‘onada, ikkinchi, uchunchi, to‘rtinchi pog‘onada, qaysi rukn turishini beradi.

Mazkur ruboiyning 1-, 2-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi makfufi ajab*da yozilgan. Quyida vaznning taqtisini “Zinama-zina” metodidan foydalanib tushuntiramiz:



3-misra esa *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb* vaznida bitilgan.



Mazkur vazn *mafoiylun* asliy ruknining axrab tarmog‘i *maf’uvlu* (– – V), ikkinchi ruknda maqbuz tarmog‘i *mafoilun* (V – V –), uchunchi ruknlarda makfuf tarmog‘i *mafoiylu* (V – – V) hamda so‘nggi ruknda ajabb tarmog‘i *faal* (V –)dan tashkil topadi. Demak, har ikkala vazn ikkinchi ruknda sezilar-sezilmas bir-biridan farqlanadi.

Bu bir xil o‘qilganda birinchi misradagi **“Ahbob”** so‘zida ikkinchi hijoning o‘ta cho‘ziq ekanligi uning tarkibidagi “o” unlisiini cho‘zib talaffuz qilishni taqozo etadi. Shuningdek, 4-misradagi **“nav’”** so‘zi esa **“nav”** singari bir cho‘ziq hijo sifatida talaffuz qilinadi.

Ba’zan, ta’lim tizimida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ham hech qanday samara bermasligi mumkin. O‘rtaga olib chiqilgan fikrlarning eng ahamiyatli jihati – innovatsion texnologiyalarni ta’lim tizimida to‘g‘ri qo‘llay olish va

ularni kim qo‘llashida. Zero, eng yaxshi innovatsion texnologiya bu o‘qituvchining o‘zidir. Innovatsion texnollogiyalarning qanchalik mohirona joriy etilishi o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq.

Mavzuni innovatsion texnologiyalar yordamida o‘rganish va qaysi innovatsion texnologiyani qo‘llash mumkinligini aniqlash talabalarga keyinchalik uni o‘z o‘quvchilariga o‘rgatishda ham qo‘l keladi. Ya’ni ular mavzuni o‘qitishda ushbu texnologiya va metodlardan foydalanadilar.

Zamonaviy innovatsiya davrida hamma narsa inson faoliyatini osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Xususan, ta’limda ham ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar faoliyatini innovatsion texnologiya va turli metodlarsiz tasavvur etish qiyin. Mustaqil ta’limda ham darsda ham mavzu yuzasidan konsultatsiya jarayonida talabalarga ma’lumotlar turli innovatsion texnologiyalar va grafik organayzerlar yordamida yetkazilishi mumkin. Bunda ishning samaradorligi ortadi, talabalarning mavzuni tushunishi osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – Б. 80
2. Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 330-b.
3. Rahmonova Sh. Umumta’lim maktablarida aruz tizimini o‘qitishning muammolari. – T.: Mahalla va oila, 2021. – 114-b.

JAMSHID OBRAZINING “AVESTO” VA MUMTOZ ADABIYOTDAGI TALQINI

Dildora Rayimqulova
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
dildorasholboyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Jamshid obrazining “Avesto” va mumtoz adabiyotda qay tarzda talqin qilinganligini yoritishga qaratilgan bo‘lib, Jamshidning obrazining O‘rta Osiyo xalqlarining

qadimimy kitobi sanalmish "Avesto" kitobida va Abdulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarida qay tarzda yoritilgani haqidadir. Jamshid obrazining dastlab qay tarzda va qaysi namunalarda o'rganilgani maqolada ko'rsatib o'tilgan. Jamshid so'zining tub ma'nosi hamda Avestoda va Shohnomada qay tarzda keltirilgani yoritilgan. Shuningdek maqolada Jamshid obrazi va Farhod obrazi ham bir-biriga qiyosan o'rganilgan

Kalit so'zlar: *Jamshid, obraz, "Avesto", "Yasna", "Yasht", "Visparat", "Vendidod", Farhod.*

Jamshid obrazi eng qadimiy va afsonaviy obrazlardan biri bo'lib qadimiy yodgorliklar hisoblangan "Avesto" hamda "Shohnomada" ham keltiriladi. Avestoda Yima (ba'zan "Yiyma" tarzida beriladi) ya'ni Jamshid obrazi keltiriladi. "Avesto" kitobi to'rt qismdan tashkil topgan: "Yasna", "Yasht", "Visparad" hamda "Vendidod". "Vendidod" qismining ikkinchi fargardi "Jam(shid) dostoni" deb ham yuritiladi va bu qism Ahura Mazda va Jam(shid)ning dialogi, shuningdek Jamshidning Ahura Mazda buyruqlarini bajarishi natijasida insoniyat, nabodot va tabobat dunyosini asrab qolgani bayon etilgan.

"Avesto"da Jamshid bir qancha sifatlarga ega yarim xudo obrazida keladi. Uning sifatlari "Xshaita"- "shohona" yoki "daraxshon". Bu sifat forsiy tilda "shayd" deyilgan. Keyingisi "Xvaridarisa" – "quyosh yuzli"; "Srayr"- "go'zal" yohud "issiq diydor"; "Hvasva" – "yaxshi suruvlar sohibi" bu sifat pahlaviyda "Hvaparak", fors tilida "Xo'brama" degan so'zlar bilan ifodalangan. "Avesto" matniga ko'ra Jam Ahura Mazda buyrug'i bilan yerni tovoni bilan ezib undan bino barpo etadi. Ahura Mazda tomonidan ogoh etilgan qahratondan insoniyat, hayvonot va o'simlik dunyosini asrab qolishda foydalanadi.

"Avesto"da bayon etilishicha, u adolatli hukmron bo'lib, uning davrida qahraton sovuq va jazirama issiq ham, qarish va o'lish ham bo'lmagan ekan. Jamshid yer yuzini 3 baravar kengaytiradi, chorvani va turli xil qushlarni nihoyatda ko'paytiradi... Biroq qahraton qish boshlanib, kishilarga ofat keltiradi. Qish o'tib, qor-muzlar erib, yaylovlarni suv bosadi. Shunda Jamshid yana najotkor bo'ladi. U katta g'ovlar qurib,

kishilarni va ularning mol-mulkini suv toshqinidan saqlab qoladi, uy-joylar quradi, ariqlar ochadi. Jamshid mifologik obrazlari Axriman va uning devlariga qarshi kurashda xalq najotkori sifatida tasvirlanadi, kishilarning ma'naviy g'alabasi va o'z kelajagiga ishonchini ifodalaydi. Jamshid obrazining ayrim qadimgi izlari o'zbek xalqining "Kitobi Jamshid" asarida ham saqlangan. Jamshid badiiy obraz sifatida ilk marotaba Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida o'z ifodasini topadi.

Jamshid – (qadimiy fors tilida *"Yama",* "Avesto"da *"Yima Xshayta"* (qiroldor", E. Benvenist, M. Drezden tomonidan "*Yima yaraqlovchi", "Yima porlovchi"* deb tarjima qilingan; Edvard Fitsgerald esa "Yima" so'zini "*jamshid*" deb tarjima qilgan; boshqa manbalarda *"Jemshid", "Jam", "Yim").* Jamshidni ba'zilar Sulaymon payg'ambarning aynan o'zi deb ta'kidlashadi. Jamshid sharobni ixtiro etganligi uchun, shoirlar o'rtasida *"Qadahiy"* (Jomi jam) nomi bilan ham mashhurdir. Keyinchalik topilgan qadimgi hind braxmanlari afsonalariga ko'ra, bu hikoyaning hind afsonalaridan naql etilgani ma'lum bo'ladi. Qadimgi hind afsonalarida *"Jamshid*" yoki *"Jomo Shaydo"* quyoshni anglatuvchi bir ma'bud ismi bo'lib, bu ismni tashkil qiluvchi so'zlarning birinchisi (jomo) – *"hukmdor"* va ikkinchisi (shaydo) – *"quyosh"* degani bo'lib, *"quyosh hukumdori"* degan ma'noni anglatadi. Shu bilan bir qatorda Jamshid obrazi Navoiyning ko'plab g'azal va ruboiylarida mazmun salmog'ini oshirishda qo'llanilgan. Jumladan, *"Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sanga*, …" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida ham bu obraz ishtirok etgan:

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo to tarki joh aylab gado bo'ldim sanga.

Ilohiy ishqga mubtalo bo'lgan oshiq soqiyga murojaat qilib, Jamshid jomi bilan Xizr suvi doimiy nasibim, mansabimdan kechib senga gado bo'ldim deydi. Soqiy tasavvufiy timsol bo'lib, u ilohiy ishqni ulashadi. Jamshid – Eronning qadimgi podshohlaridan biri. Jamshid jomi – Jamshid yasattirgan tilsimli jom. Jamshid hakimlarga buyurib, ikkita jom yasattirgan, birining oti Jomi ishratfizoy – bu jomdagi may ichgan bilan tugamas, to'liq turaverar va qiyshaytirilsa ham to'kilmas ekan. Ikkinchisining oti

Jomi getiynamo - bu jomda dunyoda yuz bergan hodisalar ko‘rinib turar ekan. Bu jomni – Jomi jahonbin ham deydilar. Bu baytda jomi ishratfizoy nazarda tutilgan bo‘lib, u tuganmas ishqni bildiradi. Jamshid qilgan “g‘arib ixtirolardan”lardan biri uning jomidir. “Xamsa”ning ikkinchi dostini “Farhod va Shirin”da Jamshid jomi tilsim sifatida tasvirlanib, ushbu timsol orqali Farhodning ruhiy olami ochib beriladi. Alisher Navoiy bu timsolni o‘tmish adabiyotida birinchi bo‘lib *“jomi Qayoniy”* deb ataydi. Navoiy *jomi Jam* xususiyatlarini epik asarida batafsil tasvirlaydi. Bu lavha dostonning nasriy bayonida shunday berilgan. “ *Farhod eshikni ochib, ichkariga qadam qo‘ydi. U uyning toqida porlab turgan bir jom ko‘rindi. Porloqlikda u quyosh kabi, quyosh ham emas, podshoh Jamshidning jomi singari edi. U jahonning markazida quyoshday porlab, dunyoni ko‘rsatuvchi oyna singari edi. Bu oynada ham yuz berib turgan ishlar, dunyoning ahvoli yaqqol ko‘rinib turardi. Jomning tashqi tomonida yer yuzining markazi, ichki tomonida esa to‘qqiz osmon aylanasi jilva etardi. Uning tashqi tomoni yetuk kishining qalbiga, ichi esa qalbi pok kishining yuragiga o‘xshab ko‘rinar edi*.”

Voqealar davomida Farhod ana shu jomni qo‘lga kiritadi va uning siridan voqif bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, jomning bu o‘rinda tasvirlangan siri unda olamda yuz berayotgan ishlarning kishi ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgandek yaqqol aks etib turishidir. Shoir o‘z qahramonini ta’rif-u tavsif etishda ham Jamshid timsolidan mohirona foydalanadi. Farhodni nasabda Faridun va Jamshid singari ulug‘ shohlarga tenglashtiradi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o‘zining salmog‘i va teran mazmuni bilan muhim o‘rin tutadi. Uning *“Ogahiy, ko‘z tutma”* degan g‘azalini quyidagi baytida ham Jamshid obrazining yana bir namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Jamu Doroki mulku joh birla tuttilar shuhrat,
Emaslar bir gadoiy zoru benomu nishoningcha.

Mumtoz adabiyotda Jamshid hukmdorga nisbatan ko‘plab sifatlar beriladi. Shulardan *“Jamshid qadahi*” va *“Jamshidi joh”* bo‘lib yuqoridagi baytda ham bu sifatni ko‘rishimiz mumkin. “Jamshidi joh” birikmasi yuqori martabali podshoh degan ma’noni anglatadi. Baytda Jamshidning davlati, kuchi birla

olamga shuhrati yoyilgani aytilyapti. Lekin shoir ikkinchi baytda uning bu shuhrati bir gado, ya'ni mo'min, mahzun insonning oh-u zoriga teng emasligi ta'kidlagan. Bundan tashqari Ogahiyning *"Bog'i jahonki xushturur"* g'azalida ham Jamish nomini zikr etilgan.

Jomi jam ichra sharbati jon kabi xushguvor erur,
Sog'ari zar nigor aro sof mayi mug'onasi.

Shoir bu baytda Jamshid haqida yuqorida ta'kidlab o'tgan sifatlarimiznning birinchisiga, ya'ni "Jamshidi jom" (Jamshid qadahi) sifatini qo'llagan. Tasavvufda qadah timsoli alohida o'rin tutadi va qalb ramzi sifatida qo'llaniladi. Jamshid qadahiga esa boshqa bir ramz, ya'ni abadiy hayotga erishish ramzi sifatida qaraladi. Baytning birinchi misrasida ham uning abadiy jon baxshlashi aytiladi. Yorning qadahidan ichilgan har qanday narsa oshiqqa jon beruvchi sharbatdek yoki maydek bo'lishi ta'kidlangan. Jamshid obrazi ishtirok etgan asarlarni ko'plab mumtoz adabiyotimiz shoirlarining ijodida ko'rishimiz mumkin. Nodira lirikasida Jamshid jomi bilan bog'liq poetik talqin ko'p uchraydi. Ularda jom lirik qahramon psixologiyasini yoritishdagi muhim timsol. Shu bilan birga, Shoira Jamshid voqeasi, uning taqdiri bilan bog'liq xodisalarni kishilarga ibrat tariqasida ko'rsatishga harakat qiladi. Shoira quyidagi misralarda shamni Jamshidga qiyoslab, sham ustida yonayotgan olovni toj deb ataydi. Garchi Jamshidning boshida toji bo'lsa-da, sham singari bir kun kelib yonib tugashi aniq edi. U esa buni his qilmadi. Nodira shu holatni badiiy umumlashma darajasiga ko'taradi va shamni ko'rganda Jamshid taqdiri yodga kelishini aytadi:

Sham'ro didam, ki dorad bari sar xud toji zar,
Afsari Jamshed az kayfiyatash omad ba yod.
Himmati piri mug'on az qaydi g'am ozod qadr,
Dar giriftoriy panohi ismatash omad ba yod…
Komila royat zi mehrash bar falak afroshtam,
Oftobi dastgohi himmatash omad ba yod.

Nodira Jamshid qiyofasida xalq turmush tarziga ko'p madaniyat unsurlari olib kirgan adolatli shoh obrazini tasvirlagan. Shuning bilan birga, Jamshid taqdirini g'azallarida ifoda qilib, barcha zamonlardagi hukumdorlarni kibr-havoga berilmaslikka,

odil va xolis bo‘lishga chaqiradi. Badiiy adabiyotda Jamshid obrazining buyuk qudrati tarannum etilgan asarlarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Mumtoz adabiyotimizning ko‘plab namoyondalari Jamshid obrazini badiiy timsol sifatida qo‘llagan hamda ulardan poetik san’atlarni vujudga keltirishda samarali foydalanganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.,1976.
2. Abulqosim Firdavsiy. “Shohnoma”. Forsiydan Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, Nazarmat, H.G‘ulom tarjimasi. – T., 2011.
3. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. –T., 2011.
4. Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar IV jildlik, II jild.–T., 1972.
5. Alisher Navoiy “Xamsa”. -T.: Yangi asr avlodi, 202.1

ADABIY LUG‘ATLAR HAQIDA

Sadoqat Qoryog‘diyeva

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligining ilk shakllanish bosqichlari, xususan, XI asrda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarining o‘zbek lug‘atchiligiga oid ilk manba ekanligi, bu asar o‘z davrida Sharq va G‘arb xalqlariga turkiy xalqlar tili, madaniyati, urf-odatlari, tarixi to‘g‘risida ma’lumot berishi va keying davr ligatchi taraqqiyoti haqidagi fikr-mulohazalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek lug‘atchiligi, ilk bosqich, Mahmud Qoshgariy, Sharq va G‘arb,“Devonu lug‘otit-turk” polisemiya, omonim, antonim, arxaik so‘zlar fe’l, ism va bog‘lovchi.*

O‘zbek lug‘atchiligining ilk shakllanish bosqichlari XI asrga borib taqaladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari o‘zbek lug‘atchiligiga oid ilk asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar o‘z davrida arablarga va Sharq va G‘arb xalqlariga turkiy xalqlar tili, madaniyati, urf-odatlari, tarixi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manba sifatida xizmat qilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari ikki qismdan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sababi, o‘sha davrda turklar ishlatgan yozuv , ot yasalishi, otlar va fe'llardagi orttirmalar, lug‘atning tuzilish usullari, turkiy xalqlarning bayoni, joylashuv o‘rni, turkiy tilning xususiyatlari, laxchalardagi farqlar to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Asarda har bir so‘zning ma'nolari (polisemiya, omonim, antonim, arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasi beriladi. Tovushlar tahlili ancha mukammal. Unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar farqlanadi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar ochib beriladi. Asarning muqaddima qismida shunday fikrni keltiradi. Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sajlar, maqollar , qo‘shiqlar rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish, kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni joyida ko‘zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim.(2;15-b)

Asarning lug‘at qismi sakkiz bo‘limdan iborat bo‘lib, bo‘limlarning har biri kitab deb atalgan. Morfologiya qismida so‘zlar arab tilshunosligi an'analariga ko‘ra uchga ajratiladi: fe'l, ism va bog‘lovchi. So‘zlarning yasalish va bog‘lanish xususiyatlari haqida ham aytib o‘tiladi. “Devonu lug‘ati-t-turk”ning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkiz bo‘limda izohlanadi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi. A.Navoiy asarlariga tuzilib bizgacha yetib kelgan lug‘atlarning eng qadimiysi “Badoyi al-lug‘at”idir. Bu lug‘at muallifi Tole al- Imoniy al-Haraviy haqida deyarli ma'lumotlar yo‘q.Ushbu lug‘at qo‘lyozmasi bilan tanishgan kishi Tole Haraviyning o‘qimishli kishi bo‘lganiga ishonch hosil qiladi. Uning fors, turk va arab tillarini bilgani adab ilmlarini egallagani lug‘at kirishining qofiyali saj bilan yozilganidan ko‘rinib

turibdi. Haraviy lug‘atni Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan 1500-yillarda tuzgan. Bu haqida muallif asarning muqaddima qismida ma'lumot berib o‘tadi.Hozircha lug‘atning ikki nusxasi ma’lum bo‘lib biri Eronda, Sipohsolar kutubxonasida, ikkinchisi Sankt-Peterburg xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Lug‘atning Sankt-Peterburg shahridagi qo‘lyozmasi 1750-yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 1960-yilda A.K. Borovkov tomonidan nashr qilingan. ”Badoyi al-lug‘at” uch qismdan iborat bo‘lib, kirish, lug‘at teksti,va zayl ya'ni qo‘shimchalarni o‘z ichiga oladi. Kirish epistolyar janr namunasi. U qofiyali proza-saj bilan yozilgan. Orada she’riy parchalar ham keltiriladi. Muqaddimadan ma’lum bo‘lishicha, Tole Harayiy Navoiy she'rlarini tushinish uchun zarur ba'zi qiyin eski o‘zbek so‘zlarini o‘z ichiga oluvchi qisqa lug‘at tuzish kerak bo‘lgan. ”Badoyi al-lug‘at” Navoiy asarlarida uchraydigan avvalo turkiy va mo‘g‘ulcha so‘zlarni, so‘ng esa juda kam miqdorda arabiy so‘zlarni ham o‘z ichiga olgan lug‘atdir.

Shuning bilan birga lug‘atni tashkil qiluvchi bu so‘zlarning ma’nolari fors tilida izohlangani yoki tushintirilgani uchun ”Badoyi al-lug‘at” ikki tilli lug‘atlar turiga ham kiradi.O‘sha davrga ya’ni XV asrga kelib , bunday ikki tilli lug‘atlarni tuzishda katta tajriba yig‘ilgan edi. Arabcha-forscha, forscha-turkcha, shuningdek, turkcha-arabcha lug‘atlar ko‘plab tuzilgan bo‘lib, katta izohli lug‘atlar qatori tarjimali lug‘atlar tuzish bo‘yicha hamboy leksikografik traditsiyaning mavjudligi “Badoyi al-lug‘at” ni yaxshi leksikografik saviyada tuzish imkonini berdi. Lug‘atdan jami 854 so‘z o‘rin olgan bo‘lib, ular 24 bobga joylashtirilgan. Har bir so‘z o‘zining ma'nolari va shu ma'nolar tasdiqi uchun keltirilgan misollar ilyustratsiyalar bilan birga mustaqil lug‘at maqolani tashkil qiladi, hamda qo‘lyozmada uning bosh so‘zi sifatida lug‘at tekstidan ajratilib, qizil siyoh bilan bitilgan, ba'zan ustiga chiziq ham tortib qo‘yilgan.

“Badoyi al-lug‘at” tuzilishidagi eng muhim shartlardan biri-so‘zlarning ma’nolarini tasdiqlovchi misollarning keltirilishidir. Tole Haraviy bu uslubni lug‘atning kirish qismidayoq ta’kidlab o‘tgan. Bu misollar “shohid” deb ataladi va ular, asosan, Alisher Navoiy “Xamsa”sining “Hayrat ul- abror”, “Farhod va Shirin”, ”Layli va Majnun”, “Sabbai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, va “Lison ut- tayr”

dostonlari, “Mahbub ul-qulub” , “Majolis un-nafois” asarlaridan olingan.Bundan tashqari Tole Haraviy misollarning “Chor devon”dan olinganini ham ta’kidlab o‘tadi.Lug‘atda Lutfiy, Husayn Boyqaro, she’rlaridan va Mir Haydarning “Maxzan ul-asror” asarlaridan ham misollar olingan. Shuningdek Suhayliy va Azraqiy she’rlaridan bittadan misollar keltirilgan.

Shunday qilib bu lug‘at o‘zidan keyin tuzilgan lug‘atlar uchun ajoyib manba vazifasini o‘tadi. Hozirgi kunda esa tilshunos, adabiyotshunos olimlar, yozuvchi va shoirlar uchun unutilgan yoki unitilayozgan, lekin Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi ulug‘ allomalar iste'molida bo‘lgan so‘zlarni o‘z sahifalarida saqlab turgan bebaho xazinadir. Navoiy asarlariga tuzilgan yana bir lug‘at “Abushqa” lug‘atidir. Lug‘at bundan 450 yil muqaddam ilgari tuzilgan bo‘lib uni o‘zbek tilida yaratilgan birinchi izohli lug‘at deyish mumkin. Ushbu lug‘atning fanda o‘ndan ortiq nusxalari bo‘lib, ularning eng qadimgi nusxalari chet el xazinalarida. Lug‘atning 1552-yilda kitob qilingan Vena nusxasidan foto ko‘chirma olingan edi. Endi Tehron nusxasidan ham ko‘chirma olindi. Foto nusxasidan ko‘rinib turibdiki, qo‘lyozma to‘liq va yaxshi saqlangan. Lug‘at yirik nastaliq xatida yozilgan. Hajmi 201 varaq, ya'ni 402 betdan iborat. Har bir betda to‘rttadan sakkiztagacha so‘z misollar bilan izohlangan. Lug‘atning bu nusxasi Tehrondagi Malak kutubxonasida “Farhangi devoni Alishe Navoiy” nomli qo‘lyozma tarkibida saqlanmoqda. Hozirgacha bu lug‘at muallifi noma'lum edi. Vena va Tehron nusxalarini solishtirish natijasida uning muallifi Turk olimi Mustafo Binni Sodiq ekanligi ma'lum bo‘ldi. Ammo uning tartib berilgan yili hali ham noma'lum. Hozircha lug‘atning bizga ma'lum eng qadimgi Vena shahridagi nusxasi 1552- yilgi tarixga ega. Lug‘atda so‘z ma'nosi, asosan 2 xil usulda ochib berilgan. Birinchi usulda lug‘atshunos so‘z ma'nosini bir so‘z bilan lo‘nda ifodalaydi. Chunonchi, ko‘kumtul so‘zi ko‘m-ko‘k deb izohlangan. Ikkinchi usulda so‘z ma'nosi tushuntirish yo‘li bilan ochib berilgan. qirov-qirag‘u demakdurki, savuq ayyomda gecha ila havodan era dushar eri ag‘arduri “Navodir - ush-shabob” da kelur,bayt.

Xullai kofurg‘un ul xil'ati xuzro uza,
Sabzai xuzroya go‘yo tushti rahmatdir qirov.

Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlardan “Abushqa” o‘zining leksik materialni qamrab olishi jihatidan ”Badoyi al-lug‘at” ga nisbatan boyligi va keng o‘quvchilar ommasi foydalanishi uchun qulayligi tufayli uning qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan. Bu esa lug‘atni ilmiy muomalaga kiritish ishini birinchi navbatda amalga oshirishning omili bo‘ldi. Natijada “Abushqa” navoiyshunoslar, turkologlar va o‘zbek klassik adabiyoti mutaxassislari uchun tez-tez murojaat qilib turiladigan kitobga aylanishiga olib keldi. Shunday qilib “Abushqa” lug‘ati ham boshqa lug‘atlar kabi Navoiy asarlariga yaratilgan mukammal asarlardan biridir. “Abushqa” lug‘ati Navoiy davridan boshlab hozirgi kunga qadar Navoiy asarlarini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

“Abushqadan so‘ng ikki asr davomida Alisher Navoiy asarlariga bag‘ishlangan katta lug‘at tuzilgani ko‘zga tashlanmaydi. Bu davr ichida Navoiy asarlari qo‘lyozmalari hoshiyalariga bitilgan kichik lug‘atlargina shu qo‘lyozmalar bilan birga bizgacha yetib kelgan. Eski o‘zbekcha - forscha lug‘atnavislik an'analarining XVIII asrdagi ravnaqi Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bog‘liq, lekin uning hayot yo‘li haqida ma'lumot juda kam. Mirza Mahdiyxon Navoiy asarlariga bag‘ishlab o‘zining “Sangloh” lug‘atini tuzgan. Bu lug‘at Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan eng katta lug‘at hisoblanadi. “Sangloh”ning o‘zidan oldingi lug‘atlarga nisbatan beqiyos katta hajmi ko‘zga tashlanadi.6181 lug‘at maqolani o‘z ichiga olgan bu lug‘at ”Badoyi al-lug‘at” va “Abushqa” dagi hamma so‘z va so‘z formalarini birga qo‘shib sanaganda ham ulardan ko‘ra bir necha marta ko‘p o‘rin egallashi aytilgan. Mirza Mahdiyxon turkiy xalqlarning afshar urug‘idan bo‘lib, u Eron shohi Nodirshohning kotibi bo‘lgan. Lug‘at tuzishdan maqsadi Navoiy asarlarida uchraydigan qiyin so‘zlar ma'nosini forsiyzabon xalqlarga ochib berish edi.Shuning uchun u lug‘atni “Sangloh”, ya'ni toshli yer,toshloq deb atadi. Lug‘at 1759-1760-yillarda yozib tugallangan. Mahdiyxon kitobni umumiy nom -” Sangloh” bilan atagan. Bu haqda muallifning o‘zi lug‘atning kirish qismida o‘zbek tili va Navoiy leksikasi va iboralarining salobati va so‘zlarining qiyin (qattiq)ligi sababli kitobga “Sangloh” deb nom qo‘yganini aytadi. (4;33-b) Bu haqda “Badoyi al-lug‘at” asari oxiriga ilova qilingan 180 so‘z boshlanishidagi biz yuqorida tarjimasi bilan bergan jumladagi

“Sangloh” ma'nosi to‘g‘ri ekanini yana bir bor qayd qilish mumkin. Hozircha lug‘atning uch nusxasi aniqlangan bo‘lib, ular Angliya qo‘lyozma xazinalari fondida saqlanadi. “Sangloh” lug‘ati1960-yilda mashhur ingliz olimi Djerard Kloson tomonidan turli sharh va izohlar bilan Londonda nashr ettiriladi. Lug‘atshunos so‘z ma'nolarini ochish uchun asosan Alisher Navoiyning poetik asarlariga murojaat qiladi. Ayrim hollarda qo‘shimcha ravishda Bobur, Husayn Boyqaro, Lutfiy kabi shoirlar ijodidan ham misollar keltiriladi. Ushbu lug‘atning boshqa mumtoz lug‘atlardan farqi shuki, “Sangloh” da birinchi marta nasriy asarlardan ham misollar keltirilgan. Lug‘atda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan juda ko‘p nodir so‘zlar ma'nosi ochib berilgan. Bunday so‘zlar boshqa lug‘atlarda uchramaydi. Shulardan biri qadam tashlash, yurish ma'nosidagi “Mangish” so‘zidir. Bu so‘z ma'nosi Mahdiyxon tarafidan quyidagicha izohlanadi: mangish- kun ustida sukun, forsiy “k” (ya'ni “g”) kasrali, ma'nosi xirom va raftor qadam tashlamoq, chunonchi, “Layli va Majnun” da uchraydi.

Bir- bir mangishda yuz latofat,
Yo‘q- yo‘qki sochib jahonga ofat.

Mahdiyxon lug‘atning fonetik tuzilishini bayon qilish chog‘ida XVIII asr Astrobod o‘zbeklarining tili haqida noyob ma'lumotlar yozib qoldirgan. Bu ma'lumotlarga ko‘ra o‘sha davr tilida 9 ta unli (ulardan 6 tasi fonologik ahamiyatga ega), 28 ta undosh tovush bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Muallif so‘z ma'nolarini izohlar ekan, ularning ko‘chma ma’nolarini alohida qayd qilib o‘tadi. Chunonchi, etak so‘zini izohlar ekan, uning asosiy ma’nosi forscha doman ekanligini ko‘rsatadi, shu bilan uning majozan tog‘ etagi ma'nosini anglatishini quyidagicha yozadi: tak- (forscha) ma'nosi doman, arabcha zayl, majozan tog‘ning etagi. Biz yuqorida keltirgan lug‘atlar eski o‘zbek lug‘atlarining eng asosiylari hisoblanadi. Bulardan tashqari o‘nlab lug‘atlar bor. Ular jumlasiga “Kitobi lug‘ati atrokiya”, “Farhangi Hazrati Alisher mullaqab ba al-Navoiy” kabi lug‘atlar ham kiradi.(5; 22-b) O‘zbek lug‘atchiligi tarixida XXasr alohida o‘rin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni ko‘zda tutgan ko‘plab terminalogik lug‘atlar, o‘quv va imlo lug‘atlari, ikki va uch tilli so‘zlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha- o‘zbekcha va

o‘zbekcha- ruscha, shuningdek o‘zbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o‘rganishga mo‘ljallangan lug‘atlar alohida o‘rin tutadi. Ularning eng muhimlari sifatida E.D.Polivanovning “Qisqacha ruschao‘zbekcha lug‘at”i(Toshkent, Moskva,1926), Ashurali Zohiriyning 2jildli “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘ati” (34 ming so‘z; Toshkent 1927-28), K.K.Yudaxinning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘ati”(arab grafikasida, Toshkent 1927), U.Axmadjonov va B.Ilyozovning “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”i (lotin grafikasida, Toshkent 1931), S.Rahmatiy va Abdulla Qodiriylarning “Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik” (2-jild, 34 ming so‘z; Toshkent- qozon,1934, lug‘atning 1-jildi nashr etilmay qolgan), V.V.Reshetovning” Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘ati”(Toshkent, 1935) kabilarni ko‘rsatish mumkin. 40-yillarning boshlarida 17-ming so‘zli “O‘zbekcha – ruscha lug‘at” (Toshkent 1941) va 30 ming so‘zli “Ruscha - o‘zbekcha lug‘at” (Toshkent 1942) yaratildi va nashr etildi. Professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borokovlar tahriri ostida tayyorlangan ushbu lug‘atlar so‘zligining tarkibi jihatidan ham, lug‘at maqolalarining to‘laligi jihatidan ham avval nashr etilgan lug‘atlardan ancha mukammal edi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli “Ruschao‘zbekcha lug‘at”ning bosilib chiqishi (78 ming so‘z Toshkent 1950-55), 50 ming so‘zli 1 jildli “Ruscha - o‘zbekcha lug‘at” (M. 1954) va 40 ming so‘zli 1 jildli “O‘zbekcha - ruscha lug‘at” (M. 1959) kabi lug‘atlarning nashr qilinishi o‘zbek leksikografiyasining tarixida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur lug‘atlar, ayniqsa, 1959-yilda nashr etilgan “O‘zbekcha - ruscha lug‘at” o‘zbek tilining dastlabki, birinchi izohli lug‘ati tuzish uchun asos bo‘ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi. Ushbu lug‘atlarda o‘zbek leksikografiyasining tajribalari umulashtirilgan, hozirgi zamon o‘zbek tilining leksik- semantik tizimi va XX asrda shakllangan meyorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi.

Ushbu ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi uzoq tarix va boy an’anaga ega. Xullas, o‘zbek lug‘atchiligi tarixida yaratilgan lug‘atlar o‘sha davrda yaratilgan buyuk allomalarimizning noyob asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlardir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Миртожиев М. Ўзбек лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000.

2. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзмалуғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004. -36 б.

3. Неъматов Ҳ., Бахриддинова Б. “Бешикдаги Алпомиш” - луғатларгулдастаси. “Маърифат”. 2007 й, № 76.

4. Сайфуллаева Р. ва б. Т. Ўқув луғатлари яратиш – долзарб вазифа //Тил ва адабиёт таълими, 2007. № 4. – Б. 4-6.

5. Қиличов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро: 1999., 226 б.

6. Менглиев Б.Р., Баҳриддинова Б.М. Ўқув луғатлари. “Маърифат”, 2013 й., № 82.

7. Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир //Навоий ДПИ ахборотномаси. 2015., 1-сон. – Б. 66-72.

8. Нормаматов С.Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларинингўрни: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. –Тошкент. 2019., -250 б.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV (BOBUR IJODI TALQINIDA)

Farrux Qulsaxatov
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
farruxqulsaxatov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o‘rganish, aniqrog‘i “Boburnoma” asarini o‘qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini, fanlararo bog‘liqligini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, texnologiya, metod, tarixiy suratlar, albomlar, tashbeh, mubolaga, qahramonlar tabiati, poetik nutq, ichki monolog, tabiat tasviri, psixologik holatida, badiiy to‘qima, tarixiy izchillik.*

Zamonaviy ilm-fan taraqiyotiga nazar soladigan bo‘lsak barcha fanlarni o‘qitishda ma’lum bir metodikaga yoki uslub-yo‘nalishga murojaat qilamiz. Aniq fanlarni o‘qitishda aniq faktik ma’lumotga masalan qo‘shish, ayirish shunga o‘xshagan qonunlarga bo‘ysingan holda ish tutiladi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiat bilan uyg‘unlashgan hodisalarga nazar qaratiladi. Ijtimoiy fanlarga to‘xtaladigan bo‘lsak ona tili, adabiyot, tarix va bir qancha fanlar bu fanlarni o‘qitishning ham o‘zining qoidasi bor desak adashmaymiz. Shu o‘rinda adabiyot faniga oid mavzularga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Adabiyot bu ummon misoli o‘ziga keng qamrovni talab qiladigan va o‘zida mujassamlashtira oladigan fandir. Uzluksiz ta’lim tizimida adabiyot fani deyarli, maktabgacha ta’lim maskanlaridan o‘qitilib keladi. Faqatgina, boshqa nomlar bilan masalan she’r yod oldirish, tarbiya shunga o‘xshash mashg‘ulotlar orqali. Ushbu mashg‘ulotlarda bolalar tarbiyasini o‘stirish maqsadida ma’lum bir yozuvchi shoirning ijodiga ahamiyat qaratiladi. Bola bular orqali yaxshilik va yomonlik tushunchalarini anglay boshlaydi. Ko‘rib turibmizki adabiy asarlar bola ongiga yoshlikdan o‘z ta’sirini ko‘rsatib borarkan. Maktab ta’lim tizimida ijtimoiy fanlar kesimiga alohida e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida, maktabgacha ta’lim tizimidan uzilmagan holatda ularga fanlar taqsimlanadi. O‘qish kitobi orqali bolalar yanada qiziqroq adabiy asarlar, rivoyat, ertaklar bilan yaqindan tanishtirilib boriladi. O‘qish kitobida beriladigan adabiy asarlarni ularga boshida sharhlab tushuntirib berish va asarda keltirilgan qahramonlar obrazini yaratish yoki tasvirlar orqali jonlantirish vazifalari yordamida o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan shu o‘rinda 2-sinf o‘qish kitobida keltirilgan “Tandir” rivoyatini olaylik unda Navoiy hazaratlarining hunar bilan bog‘liq masalasi keltiriladi. “So‘zimni eshit, – debdi Navoiy. – Birgina tandirni eplab qurolmaysan, ammo uyni sotmoqchi bo‘lasan. Uyingni sotib qo‘yib, yangisini qura olmay, ko‘chada qolib ketishni o‘ylamadingmi? Bor, hunar o‘rgan, ishla, uying ham yonga qoladi, tirikchiliging ham o‘tadi… Navoiyning dono so‘zlariga tan bergan Xudoyberdi hunar o‘rganib, yaxshi kun kechira boshlabdi”[T. G‘afforova, SH. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova, 2018: 11]. Shu bilan bir qatorda “Bobur va Kabutar” rivoyatini ham misol tariqasida

olishimiz mumkin. Bu rivoyatda Mirzo Boburni zehnli inson sifatidagi tasvirini ko‘rishimiz mumkin. Gapga qo‘shilmay, bir chekkada jim o‘tirgan Mirzo Bobur: “Yo‘q kabutar unday demaydur, ota u qovun sayliga chaqiribdur”[M.Umarova, X.Xamraqulova, R.Tojiboyeva, 2019: 25].

Ko‘rib turganimizdek yosh o‘quvchilarimizni Navoiyni hikmatli so‘zlari va Bobur hayotiga bog‘liq rivoyatlar orqali hunarga, halol mehnatga, o‘tkir zehinlilikka o‘rgatishdek katta mas’uliyatlardan biri adabiyot fanida o‘z ifodasini topadi. Darsliklarimiz hozirgi kun miqiyosidan kelib chiqqan holda berilgan matnlar faqatgina yod oldirishga emas, fikrlashga, inson qobiliyatini oshirishga qaratilganligi bilan ham e’tiborlidir. Jumladan bunga misol sifatida boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan rivoyat, ertak, maqol, she’r va topishmoqlarni oladigan bo‘lsak obrazlarni tasvirlashda tasvirlarni ham berilganligi bolalarni adabiyotni tushunishiga va undan kerakli xulosalarni chiqarishga to‘la qonli xizmat qiladi. Gapimizni isboti tariqasida Navoiydan keltirilgan hikmat bolalarni hunar o‘rganishga chorlasa, Bobur haqidagi keltirilgan rivoyat esa ularni o‘tkir zehnlilikka jalb qiladi. Shu bilan rivoyatda keltirilgan ma’lumotlar orqali Boburni otasi kabutarlarni yaxshi ko‘rgani va o‘sha davrda xabarlarni yetkazishda kabutarlarning o‘rni katta ekanligi, dehqonchilik qovun yetishtirishda Andijon qovuni haqida “Boburnoma” asarida ham gapirilganligini ham e’tirof etsak bo‘ladi. Kichik rivoyatlar orqali hunar, dehqonchilik, xat tashuvchi kabutarlar, zehnlilikka oid bilimlarni uzluksiz fanlararo aloqa sifatida o‘zlashtiradilar.

5-6-7-sinf adabiyot darsligi qismida bolalarimiz turli mavzulardagi kengroq qamrovni o‘z ichiga olgan, adabiy asarlar bilan tanishib borishadi. Albatta, bir narsa har doim yodimizda turushi lozimki adabiyot darsliklariga qo‘yilayotgan adabiy asarlar bola psixologiyasiga mos ravishda bo‘lmog‘i zarur. Aks xolda, bolalarda fandan zerikish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Adabiyot bola qalbini ochib beruvchi va dunyo qarashlarini kengaytiruvchi fan sifatida yuksak o‘rinda turadi.

So‘zning badiiy malohati va unga havas-ishtiyoqning paydo bo‘lishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos ekanligini hamma yaxshi biladi. Badiiy adabiyot namunalari o‘quvchining nafaqat

badiiyat olamiga yetaklaydi, balki uning olam va atrof muhit, odamlar, ularning ichki dunyolari borasidagi bilimlarni o‘zlashtirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sankt-Peterburg universiteti tadqiqotchisi M.S.Emelyanov o‘zining “Maktab ta’limida adabiyot va tarix o‘qitishda integratsiyaning roli” nomli doktorlik dissertatsiyasida tarixiy faktlarning aniqlashtirilishi va o‘quvchilarning tarixiy dalillarga qiziqishini orttirishda adabiy tarixiy asarlar muhim ahamiyat kasb etishiga alohida to‘xtalib o‘tadi.[Емельянов М. С, 2013: 29]. Olim adabiyot va tarixi fanlari integratsiyasiga erishish uchun bir dars mashg‘ulotlarida bir necha o‘qitish usullaridan foydalanish lozimligi, o‘z hayotiy tajribasida esa muayyan mavzu, tushuncha va hodisaning mohiyatini anglatish, o‘rgatish maqsadida, integratsiyalashgan darslarni tashkil qilganligini tushuntiradi. T.G.Brajening maqolasida esa, zamonaviy maktab predmetlari integratsiyasi borasida to‘xtalib, tarix fanida berilgan mavzuni o‘rgatishda shu mavzuda yaratilgan badiiy adabiyot namunalaridan xabardor bo‘lish tarix to‘g‘risidagi qiziqishlarini oshirishi alohida urg‘ulanadi.[Браже Т.Г, 1996: 5].

Bunday darslar hamisha boshqa darslardan ajralib turadi. Integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqalar jarayonida fanlar ikki guruhdan tashkil topadi. Birinchi guruh yetakchi integratsiyalashtiruvchi fan bo‘lib, dars mashg‘uloti aynan mana shu fan mvzularidan birining o‘qitilishi asosiga quriladi. Ikkinchisi esa, integratsiyalashuvchi fanlar guruhinidan iborat bo‘ladi. Integratsiyalashuvchi fanlar yordamchi fanlar sifatida ham qaraladi. M.S.Emelyanov integratsiyalashishda ishtirok etadigan fanlarni yordamchi fanlar sifatida talqin qiladi.

Ye.N.Kolokoltsev, A.V.Danovskiy va boshqalar muallifligida yaratilgan o‘quv qo‘llanmada maktab adabiyot kursi fan ichida va fanlararo integratsiyaga ega. Fanlararo integratsiyada ular adabiyot va tarix, adabiyot va jahon badiiy madaniyati, adabiyot va san’at kabilarni o‘z ichiga olishini aytib o‘tadi.[Колокольцев Е.Н., Дановский А.В, 2009: 21]. Olimning fanning ichki integratsiyasi borasidagi mulohazalarida adabiyotning tilshunoslik, zamonaviy adabiyot va boshqa fanlar bilan aloqasi mavjudligi aniqlanadi. Biz olimlarning mulohazalariga qo‘shilgan holda adabiyot fanining ichki

integratsiyasi, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, folklor kabi fanlardan iborat bo‘lishini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Boshlang‘ich umumiy ta’limning zamonaviy texnologiyalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasida fanlararo aloqalar bo‘limini yozgan M.G.Zabbarovaning fikricha, integratsiyalashayotgan fanlarning tushunchalari mohiyatini ochish uchun bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarga bir necha fan doirasidagi bilimlar o‘rgatilishi o‘qitishning samarali metodlaridan biri ekan.[Арябкина И.В., Березова Н.А., Дормидонтова Л.П., Заббарова М.Г., Курылева М.В., Спиридонова А.А., Стрюкова Г.А., Тихонова А.Ю., Шемарина И.Ю, 2016: 190]. E’tibor berib qarasak, adabiyot darslarida integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish orqali adabiyot, tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik, san’at, falsafa, dinshunoslik va boshqa bir necha fanlarning o‘zaro bog‘liqlari borligini guvohi bo‘lamiz. Albatta, buning uchun mavzu va materialning mazmun mohiyati juda katta ahamiyatga egadir. Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan “Boburnoma” asarini o‘qitishda yuqorida keltirganimiz singari bir necha fanlar integratsiyasi kuzatiladi. Bu o‘rinda adabiyot integratsiyalashtiruvchi – yetakchi fan vazifasini bajaradi, adabiyotdagi mavzuni mohiyatida muayyan tushunchalar, dalillar va hodisalarni aniqlashtirishda yordamlashuvchi fanlar – yordamchi fanlar bo‘lib ular integratsiyalashuvchi fanlar sifatida qaraladi.

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bu o‘quvchilarni taraqqiy etgan jamiyat a’zosi sifatida hayotga tayyorlashdir. Ushbu vazifani hal qilish har xil turdagi vakolatlarning shakllanishi orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishning eng samarali usuli-maktab o‘quv fanlarining integratsiyasi.

Shuningdek, integratsiyalashgan o‘quv jarayoni integratsiyalashgan kasbga qiziqishni jonlantira oladi, maktab vaqtidan oqilona foydalanishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar atrofdagi voqelikning yaxlit nuqtayi nazarini shakllantirishga hissa qo‘shadi, turli hodisalar va hayotiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini sezishga imkon beradi.

Jamiyat rivojlanishida maktab ta’limining muhim va beqiyos xizmati bor. Ayni maktab darslarining mazuni va sifati, ta’lim va

tarbiya uyg‘unligi har qanday millatning istiqbolini belgilab beruvchi masalalardan biridir.

Hech kimga sir emaski, ko‘plab o‘qituvchilar fanlararo munosabatlarni ta’minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Integratsiyalashgan darsning o‘ziga xosligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq o‘qituvchi yoki bir nechta qo‘shni fanlar bo‘yicha malakali o‘qituvchini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darsni tayyorlayotganda, uni amalga oshirish metodologiyasini ko‘rib chiqish juda muhimdir. Bu o‘rinda oldingi darsda berilgan uy ishidan tortib, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning imkoniyatlari va diqqatini tortishgacha bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Integratsiyalashgan darsning so‘ngida beriladigan uyga vazifa ham o‘ziga xos xusisiyatga ega bo‘lishi lozim. Uy vazifasida integratsiyalashgan fanlarning mohiyatidan kelib chiqib, mavzuning muhim tomonlarini o‘rganishga qaratilgan topshiriqlar aks etishi lozim. O‘quvchilarning faolligi va intelektiga qarab integratsiyalashgan dars bir nechta akademik fanlar bo‘yicha bilimlar aloqasini belgilash imkoniyatini anglatadi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘quv jarayonida integratsiyalashgan darslar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz integratsiyalashgan darslarning maqsad va vazifalariga murojaat qilamiz, ularning turlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Integratsiyalashgan darslarni Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o‘rganish, aniqrog‘i “Boburnoma” asarini o‘qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini tahlil qilamiz. Integratsiyalashgan dars g‘oyasi qanday paydo bo‘ldi? Mazkur g‘oya dastlab G‘arb olimlari tomonidan olg‘a surildi. Keyinchalik, rus metodistlari bir dars jarayonida o‘quvchilar bilim va ko‘nimalarini kengaytirishni maqsad qilib oldilar va dars mashg‘ulotlarida har bir tushuncha va hodisani izohlashda ilmiy tamoyillarga tayanish tarafdorlari paydo bo‘ldi. Shu tariqa adabiyot ijtimoiy hayotning badiiy in’ikosi degan nazariyaga tayanib, badiiy asarlarni tahliliga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi.

O‘qituvchilar oldidan zamonaviy ta'lim o‘quvchilar tasavvurida yaxlit holda shakllantirish vazifasini qo‘yadi, so‘ngra fanlar o‘rtasida integratsiyaga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Fanlar o‘rtasidagi integratsiya o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun katta imkoniyatlarni ochib beradilar. Integratsiyalangan sinflar doirasida talabalar bir nechta fanlar bo‘yicha ma’lumotlardan foydalangan holda ko‘p qirrali, yanada chuqurroq bilimlariga ega bo‘ladilar. Integratsiyalashgan darsda eng muhim ko‘nikmalardan biri – bu bir sohada ikkinchisiga doir bilimni o‘zlashtirishdir. Bu esa, tanqidiy fikrlash, tahliliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, integratsiya mustaqil, bag‘rikeng, mas’uliyatli shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga mavzuga oid ma’lumot va bilimlarni o‘zlashtirishlarida differentsial yondashuvni amalga oshirishga yordam beradigan tarzda tashkil etiladi. Integratsiyalashgan dars o‘z qobiliyatlariga qarab turli toifadagi o‘quvchilar uchun imkoniyatlarni ochadi. Chunki, bir mavzu mohiyatni yoritish asnosida turli fanlarga xos bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Bunda albatta, o‘qituvchining o‘zi integratsiyalashadigan fanlar borasidagi tushunchalar, ma’lumotlardan yaxshigina xabardor bo‘lmog‘i lozim.

Shunday qilib, integratsiyalashgan darsda ishtirok etish jarayonida bir nechta ob’ektlardan olingan bilimlarni ishlab chiqish, tizimlashtirish,tahlil qilish, talabalar tomonidan olingan bilimlarning uzluksizligi ta’minlash talab etiladi. Integratsiyalashgan darsni to‘g‘ri tashkil etish uchun uning asosiy farqlarini darsning an’anaviy shakli bilan qiyoslagan holda aniqlash kerak. Integratsiyalashgan dars an’anaviy darsdan farqli o‘laroq, o‘rganilgan hodisalarning xilma-xilligini o‘z ichiga olgan, adabiy materialni turli rakursda o‘rganishda o‘quvchi faoliyatini tashkil etish va uning turli usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Integratsiyalashgan darsda quyidagi didaktik vazifalar bajarib, unda quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

– Integratsiyalangan fanlarni o‘z ichiga olishi kerak;

– Bu tipdagi darsni tayyorlashda o‘qituvchilar bir-biri bilan yaqindan o‘zaro hamkorlik qilishi kerak;

– Integratsiyalashgan darslarni mavzuning murakkab tomonlarini ochish maqsadida, o‘qituvchi majburiy ravishda tashkillashtiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan darsni tayyorlashda o‘qituvchi o‘quvchilar, sinf imkoniyatlari, o‘quvchilar

o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish integratsiyalashgan fanlar bo‘yicha o‘rganilgan ma’lumotlarni o‘rganishda aniqlik, mulohaza va mantiqiy aloqalarni ta’minlash lozimligini anglatadi. Shu asosda integral sinflarning umumiy tavsifi turli xil o‘quv fanlarining o‘quvchilarning ikki va undan ortiq o‘qituvchilar ishtirokida mashg‘ulotlar tashkil etish va o‘tkazish;

– Integratsiyada amalga oshirilayotgan fanlar bo‘yicha asosiy malakaga ega bo‘lgan bitta o‘qituvchida darslarni tashkil etish va o‘tkazish;

– nafaqat bitta integratsiyalangan sinflarni, balki integratsiyalashgan iloji boricha shunday kurslarni yaratish maqsadga muvofiq keladi.

Ta’kidlash joizki, integratsiyalashgan sinflarning o‘quv jarayoniga jalb qilinishi talabalarning mustaqil faoliyati hajmining ko‘payishini anglatadi, chunki fanlar bo‘yicha o‘rganilayotgan materiallar kengaya boradi. Temuriylar davri tarixining muhim adabiy tarixiy manbasi sanalmish “Boburnoma”ga bag‘ishlangan tarix va adabiyotda integratsiyalashgan darsning ko‘rib chiqaylik. Tanlangan mavzuning dolzarbligi asar voqealari 1494-yil voqealari bayonidan boshlanadi. Bu Temuriylar tarixining muhim davri haqidagi tarixiy hodisalar tafsiloti edi.

“Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdadir. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning chegarasi – tog‘lar, shimolida ilgarilar Olmoliq, Olmotu va Yangi singari shaharlar bo‘lgan ekan, uni kitoblarda O‘tror deb yozadilar, mo‘g‘ul va o‘zbaklar yurishlari tufayli hozirgi paytda buzilib ketgan, aslo obodonlik asari qolmagan. Kichik viloyatdir, g‘alla va mevasi farovon. Tevarak-atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan. G‘arbiy tarafida, ya’ni Samarqand va Xo‘jand tomonida tog‘ yo‘q. Ushbu yoqdan boshqa hech bir tomondan qishda dushman kela olmas. Sayhun daryosi Xo‘jand suvi nomida mashhur, u sharq-u shimol tarafdan kelib, viloyatning ichi bilan o‘tib, g‘arb sari oqadi; Xo‘jandning shimoli va Fanokatning (hozir Shohruxiya sifatida mashhur) janubiy tarafidan o‘tib, yana shimolga burilib, Turkiston sari boradi. Turkistondan ancha quyiroqda bu daryo butunlay qumga singib ketadi, bironta daryoga qo‘shilmaydi.”

Asardagi mazkur parchani o‘qitishda Geografiya faniga murojaat qilish talab etiladi. Farog‘ona viloyatining chegaralari, tog‘ tizmalari, unga yaqin shaharlar haqida ma’lumot beriladi. Bu ma’lumotlarning tasdig‘ini topish uchun tarix va manbalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi birgina mavzu doirasidagi bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish uchun tarix, geografiya, manbashunoslik kabi fanlarga murojaat qilishi, shu fan sohasi mutaxassislari bilan muloqotda bo‘lishi talab etiladi. Demak, “Boburnoma” asarini integratsiyalashgan holda o‘qitish fan o‘qituvchisidan darsga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini, integratsiyalashayotgan fanga doir bilim va tushunchalar bilan ham qurollanishini talab etadi.

“Boburnoma” asarini o‘qitishda integratsiyalashgan dars tashkil etishda asarning mazmunini tarixiy dalillar va tarixiy haqiqatga munosabatini aniqlash ham lozim. Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan memuar asarida keltirilgan tarixiy dalillarning yana boshqa tarixiy manbalardagi ma’lumotlar bilan chog‘ishtirish asnosida o‘sha davr tarixiga doir haqiqatni anglash va u bilan o‘quvchilarni tanishtirish kerak bo‘ladi.

“Boburnoma”ning o‘qitishda adabiyotga integratsiyalashadigan yana bir fan tarbiya – didaktikadir. Asardan keltirilgan parchadagi tarixiy shaxslarning xulqi, fazilatlari, axloqidagi kaamchiliklar kabi jihatlarning o‘quvchilarga tushuntirish adabiyotning ikkinchi asosiy vazifasi bo‘lgan tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bunday darslar dastlab boshlanishida o‘quvchilarga mustaqil topshiriq berishdan boshlangani, ularga asardagi tarixiy davr va tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlar qanchalik o‘zini oqlaydi?- degan savol bilan murojaat qilish, imkon qadar “Boburnoma” mavzusini o‘tishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga asar bilan tanishish va o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan savol va topshiriqlarni berib yuborishi lozim. Bunda teskari holat ko‘zga tashlanadi. An’anaviy darslarda odatda uy vazifasi mavzudan keyin beriladi. Biroq intergatsiyalashgan darsda mavzudan oldin topshiriqlar berilib, o‘quvchilar material bilan tanishadilar, ulardagi mazmun mohiyat borasida ma’lumotlar to‘plashga, o‘zlarida dastlabki tasavvurlar hosil qilishga harakat qiladilar. Dars jarayonida o‘quvchilarning oldinroq qilgan harakatlari va ko‘nikmalari qo‘l keladi. Endi o‘qituvchi

o‘quvchilar tomonidan topilgan topilmalar – ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshiradi. O‘zi tomonidan qo‘lga kiritilgan dalillarni o‘quvchilarga taqdim etadi, hammasi birgalashib, muayyan masala yuzasidan yagona xulosaga keladilar. Agar biz darsni shu tariqa tashkil etsak, albatta, u samarali bo‘ladi. Bunda birinchidan,o‘quvchilarning faolligi ortadi, ikkinchidan, o‘quvchilar adabiyot va unga integratsiyalashayotgan fanlar o‘rtasidagi qiziq jihatlarni o‘rganishdan zavq olish natijasida unga oshufta bo‘ladi. O‘quvchilarda fanga mehr ortadi, uchinchidan, o‘quvchilar va o‘qituvchi bir masala yuzasidan jonli muloqot yarata olishga erishadi. Sinf o‘quvchilari va o‘qituvchining diqqati bir yerga jamlanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini integratsiyalashgan dars vositasida o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat adabiyot, balki, tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, manbashunoslik fanlari bilan bog‘lashga, shu fanlarga doir bilimlarning hayotiy o‘rnini aniqlab olishlarida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арябкина И.В., Березова Н.А., Дормидонтова Л.П., Заббарова М.Г., Курылева М.В., Спиридонова А.А., Стрюкова Г.А., Тихонова А.Ю., Шемарина И.Ю. Современные технологии начального общего образования. – Ульяновск: ФГБОУ ВПО “УлГПУ им. И.Н. Ульянова”, 2016. –190 с.
2. Асаева Л.Х. Интеграция на уроках литература/ https: // урок.рф /library
3. Браже Т.Г. Интеграция предметов в современной школе// Лит. В шк. 1996. №5.
4. Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma. –Toshkent.: Sharq, 2002.
5. Емельянов М. С. “Роль интеграции литературы и истории в школьном преподавании” Дисс.докт. пед. наук – СГПУ, 2013. – С.29.
6. Husanboyeva Q., Niyazmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Innovatsiya-ziyo.2020. – B. 29.

7. Межпредметные связи при изучении литературы в школе /Колокольцев Е.Н., Дановский А.В. и др.; Под ред. Колокольцева Е.Н. – Москва, Просвещение, 2009.– С. 21.
8. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B.28.

ODIL YOQUBOV DRAMATURGIYASIDA AMIR TEMUR OBRAZI TASVIRI

Maqsuda Djalilova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Istiqlol yillarida tarixiy drama janri yangi bosqichiga ko‘tarildi. O‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur siymosining ma’naviy-ma’rifiy qirrasini ifoda etishga e’tibor ortdi. Anashunday dramalardan biri Odil Yoqubovning “Avlodlarga vasiyat” [1.229] asaridir. Mazkur drama tarkibiy tuzilishi jihatidan muqaddima, ikki parda va to‘rt ko‘rinishdan iborat. Asarning voqealari Samarqad, Usmonlilar saltanati va O‘trorda bo‘lib o‘tadi. Drama bosh qahramoni Sohibqiron Amir Temur 67-72, Sulton Boyazid esa 50-60 yoshlardadir. Drama vVoqealari O‘trordagi o‘z qarorgohida betob yotgan va xastaholligiga qaramay, Suluvko‘z ismli suyukli ayolining bevaqt o‘limidan ruhiy iztirob chekayotgan Amir Temur tasviri bilan boshlanadi.

Ushbu dramatik asarni o‘rganishimizda O.Yoqubov ijodining ichki tadriji bilan bog‘liq badiiy-estetik hodisani ham nazarda tutishimiz lozim. Zotan, O.Yoqubov zamonaviy mavzudagi hikoya, qissa va romanlaridan ko‘ra “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” tarixiy romanlarida ko‘proq muvaffaqiyatga erishgan edi. Adib badiiy nasrda Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Mirzo Abdullatif obrazlarini qayta jonlantirdi. Mahmud G‘aznaviy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino xarakterlarini ishonchli poetik ifoda etdi. “Ko‘hna dunyo” romanida polifonik ifoda imkoniyatlaridan samarali foydalandi. Yozuvchi shu ijodiy tajriba va yutuqlarga tayangan holda, istiqlol yillarida boshqa bir adabiy tur va janrda yana tarixiy mavzuga murojat qildi. Buning siri nimada ekan?- degan mulohaza hamda “Avlodlarga vasiyat” O.Yoqubovning tarixiy mavzudagi yagona

dramasi ekani bois, biz asar mavzusi va janri masalasiga alohida ahamiyat qaratdik. Zotan, adib tarixiy nasrdagi o‘z yutuqlarini bila turib, ongli ravishda dramaga qo‘l urgan, mavzuni olis tarix – shavkatli hukmdor Sohibqiron Amir Temur davridan tanlagan. Ta’kidlanganiday, bu hol tasodifiy tarzda sodir bo‘lmagan. Bizningcha, ijodiy-psixologik jarayonning quyidagi ob’ektiv va sub’ektiv sabablari mavjud:

Birinchidan, “Ulug‘bek xazinasi” romani yozilgan XX asrning 70-yillaridayoq yozuvchi qalbi va ijodiy niyatida ulug‘ saltanatlar qurgan bobokalonlarimiz qismatini tasvirlash armoni bo‘lgan. Ayonki, bu ijodiy niyat “Ko‘hna dunyo” romanida yuzaga chiqmadi. Mahmud G‘aznaviy xarakteri chuqur psixopotalogik jarayonlar og‘ushida tasvirlangan bo‘lsa ham, asosan salbiy tip sifatida ifodalandi.

Binobarin, Sohibqiron Amir Temur timsoli va temuriylar davriga murojaat qilinishi birinchi navbatda ichki ehtiyoj mevasidir.

Ikkinchidan, mustaqillik yillari ato etgan keng imkoniyatlar o‘ziga xos badiiy “temurnoma”larni yuzaga chiqardiki, O.Yoqubov bu jarayonlarning shunchaki kuzatuvchisi bo‘la olmasdi.

Uchinchidan, tarixiy drama yozilgan paytda yozuvchi murakkab hayot sinovlaridan sabot bilan o‘tgan, tabarruk 70 yosh ostonasida edi. Bu yosh – ulkan hayotiy va ijodiy tajriba tarixiy davr hamda inson taqdirini chuqur mushohada qilish imkonini berishi bilan ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, 70 yoshdagi odam, ayniqsa ijodkor inson, foniy dunyoda kechgan hayotini taroziga solib ko‘radi. Bosib o‘tilgan dovonlar, ulgurilishi zarur bo‘lgan savob amallar haqida mushohada qiladi, ba’zan mahzun o‘ylarga toladi. Bunday kezlarda u tarixan qisqa umrni lahzalarga jamlaydi. Qaytmas safarga ketgan ajdodlari, piru ustodlari, sadoqatli do‘stlari bilan hayolan suhbatlashadi. Voqelikdan salmoqli xulosalar chiqaradi. Qolgan hayotini chamalaydi. Agar, imonli muslim bo‘lsa, Yaratgan inoyatidan rizo va mehru shafqatidan umidvor bo‘ladi. Umr bevafo, toju taxt bebaqo ekanini anglaydi va buni avlodlariga ham bildirmoqni tilaydi.

Dramada Amir Temur tilidan aytilgan davlatning barqarorligiga rahna soluvchi uch ulkan xatar: (noahillik, jaholat, tarafkashlik) dan saqlanishga da’vat – aslida, O.Yoqubov estetik ideali va hayotiy

mantig‘i. Bu esa, ijodkor shaxsini nafaqat olis tarixga, balki moziyning achchiq saboqlaridan ibratli xulosalar chiqargani bilan mustaqillik davriga, uning abadul-abad poydor turishiga mas’ul inson sifatida chambarchas bog‘laydi. Binobarin, ushbu tarixiy dramada ob’ektning plastik obrazi yaratilgan. Ya’ni unga ijodkor sub’ektining fikr-o‘ylari, ruhiyat-hollari ham singdirib yuborilgan.

To‘rtinchidan, O.Yoqubov globallashgan davr shiddatini chuqur his etgan. Shu bois, fikrlari zamondoshlariga tezroq yetib borishini, jamiyat bilan murakkab munosabatdagi bunyodkor tarixiy shaxs obrazining real va jonli tasviri orqali ularning ijodiy faolligini oshirishni istagan. Shu bois, tarixiy drama janriga qo‘l urgan. Shubhasiz, asarning yutuqlarini ta’minlashda yuqoridagi faktlar ham muhim rol o‘ynagan.

Xulosa qilib aytganda, O.Yoqubovning “Avlodlarga vasiyat” dramasida Sohibqiron hayotining so‘nggi kunlari tasvirlash orqali Amir Temurning dorulfanodan dorulbaqoga ketish arafasidagi fikr-hislariga diqqat qaratilgan. Muallif dramada xalq og‘zaki ijodi ruhini markaziy o‘ringa ko‘tara olgan. Amir Temur shaxsiyatining ma’naviy-axloqiy qirralarini yoritishda Suluvko‘z, Saroybon va Sohibqiron o‘rtasidagi muloqotlarga keng o‘rin ajratgan. Tarixiy siymoning Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan davlatini barpo etishi, feodal tarqoqlik hamda ichki nizolarga barham berishi, davlat boshqaruvi tizimini ishlab chiqishda adolat tamoyillariga tayanishi, o‘g‘il-nabiralariga pand-nasihatlarini qahramon xarakterini ochib beradigan vositaga aylantira olgan. Asar syujeti muallifning Amir Temur hayoti va faoliyati, Temuriylar davri tarixi va madaniyati bilan yaxshi tanish bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ammo, Bibixonim to‘g‘risidagi tarixiy rivoyatning qo‘yilishi asar syujetida asosiy g‘oyaning ikkinchi o‘ringa tushib qolishiga ham olib keladi. Shunga qaramasdan, muallif tarixiy voqelik va afsonaviy talqinni o‘zaro uyg‘un hodisaga aylantirishga intilgan. Bu hol, dramada Amir Temur qiyofasi yaxlitlikda namoyon bo‘lishini ta’minlagan. Dramaturg o‘z orzu-istaklarini Sohibqiron timsoliga singdirib yuborgan. Amir Temurning xalq manfaatlari, tinchlik va adolat uchun zafarli janglarini umuminsoniy mohiyatga yo‘naltirgan. Shu boisdan, faktik aniqlikning qay darajada berilishi asarning estetik qimmatiga u qadar salbiy ta’sir o‘tkazmaydi.

Dramada tasvirlangan saroy fitnachilari va Bibi Sardor boshchiligidagi g‘iybatchilar aybi bilan o‘z joniga qasd qilgan Suluvko‘z beka fojiali taqdiri kitobxon (tomoshabin)da achinish va hamdardlik uyg‘otadi. Aqchagul – Bosqonbek (xos qo‘riqchi), Sarigul – Qoplonbek (eshik og‘asi) pokiza muhabbatlari tarixi vositasida birinchidan, Amir Temur jangning eng xatarli nuqtalariga dadil kirib boruvchi jasur inson sifatida tasvirlanadi. Ikkinchidan, saroy murakkab va chigal hayotining inson taqdiriga ta’siri masalasiga urg‘u beriladi.

Dramada davlat tomiriga bolta uruvchi uchta xatar: o‘zaro noahillik, jaholat va tarafkashlik illatlaridan ehtiyot bo‘lish vasiyat qilinadi [1]. .Binobarin, O.Yoqubov Sohibqiron xarakterini, hayotining so‘nggi lahzalarida ham saltanat va el taqdiri, uning istiqboli haqida qayg‘uruvchi fidoyi inson sifatida ochadi. Shu ma’noda aytish mumkinki, bu asar Amir Temur umr poyonida anglab yetgan haqiqatlar haqidagi o‘ziga xos iqrornomadir.

Dramaturglar ko‘plab tarixiy manbalarga tayanib, Amir Temur obrazini yaratishgan bo‘lishsa-da, bu obrazga yondashuv har bir davrda o‘ziga xos kechdi. Tarixiy shaxsga bo‘lgan munosbatlar adabiy-siyosiy talablarga, tuzumlarning ehtiyojlari va ijod ahlining imkonlariga qarab o‘zgarib turdi. Lekin, shunday bo‘lishidan qat’iy nazar, adabiy qarashlarda Amir Temur butunjahon tarixida o‘ziga xos o‘rin egallashini anglash sari sezilarli siljish namoyon bo‘ldi.Zotan, u tarixiy va ma’naviy jihatdan teran o‘rganishga arzigulik ulug‘vor shaxsiyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoqubov O. Qaydasan, Moriko? – Toshkent, Sharq NMAK. 1992, –B. 250.
2. Yoqubov Odil. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi jild. Sharq NMAK Bosh tahririyati, – Toshkent 2005.
3. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. – T.: 2011.
4. Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari. – T.: Adabiyot va san’at, 1991
5. Soliyev A. Dramaturgiyada inson talqini – T.: Xalq merosi, 2004.

OYBEKNING QAHRAMON XARAKTERINI TASVIRLASH MAHORATI

Kurban Kuchkarova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek nafaqat lirik shoir, balki yetuk nosir, zukko adabiyotshunos, mohir tarjimon sifatida ham adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Uning “Navoiy” [3] romani o‘zbek romanchiligida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Oybek “Navoiy” romanini yaratish uchun uzoq yillar ijodiy ish olib bordi. U ko‘pgina she’rlarida Navoiy obrazini gavdalantiradi. Shoir o‘z she’rlarida besh asr oldin xalq dardi, xaqiqat va ishqni kuylagan, yorug‘ kunlar umidi bilan yashagan shoirni ulug‘laydi (“*Haykal oldida*”). Oybekning *“Navoiy”* dostonida esa Navoiy ko‘nglidagi buyuk orzular, tafakkurini band etgan o‘ylar, shaxsiyatiga xos iliq samimiyat, nozik zavq, ulug‘vor siymosiga xos ruhiy nafislik va mag‘rurlik o‘z ifodasini topadi.

“Navoiy” romanida ulug‘ gumanist shoirning tarjimai holi batafsil yoritilganday tuyuladi. Chindan ham romanda 1469- yilning ko‘klamidan 1501-yilning yanvarigacha bo‘lgan o‘ttiz ikki yillik voqealar qalamga olingan. Navoiy qizg‘in madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishmand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz, madaniyat-ma’rifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof diyonat, adolat himoyachisi, mamlakat va xalq osoyishtaligining posboni sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir shoir va olim sifatida o‘z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Davlat va idora usulida mustahkam tartib o‘rnatish va ayrim isloxatlar o‘tkazish yo‘lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Jaholat iskanjasidagi yurt peshvolarining qilmishlaridan ranj-alam, iztirob chekadi. Roman Navoiy fikrlarining yashovchiligiga da’vat etuvchi optimistik yakunga ega.

Shubhasiz, Navoiy ulug‘vorlik va mardonalikni o‘zida mujassamlashtirgan nodir shaxs. Biroq bu hol uni o‘z g‘azabini bosolmay qoladigan jangari va jaydari odam sifatida tushunishga asos

bo‘la olmaydi. O‘z suhbatdoshlari ustidan kinoyali va zardali kulib: “*ajdarnafs”, “darranda”, “gazanda”, “bo‘rilar”, “itlar”, “chirkin maxluqlar”, “iflos pashshalar”* deb oshkora qayirib tashlovchi, *“johillarning qo‘llarini kesmoq zarur”* deguvchi kurashchiga aylanadi. U o‘z oqilona fikri bilan voqealar oqimini osongina izga solib yuboraveradi. Sulton Husayn go‘yo uning yetovidagina harakat qiluvchi, bazm va mayho‘rlikka berilgan, mustaqil fikrdan mahrum kishidek taasurot uyg‘otadi. Navoiyning bu qadar keskirligi oldida Majididdin va uning tarafdorlari qo‘rquvdan titrab, tillari kalomga kelmay qoladi. Bunday sxematizm ta’sirida Navoiy shaxsiyatidagi mutasavvuf shoirlik va shayxlikka hos bosiqlik, vazminlik o‘rnini tahdid va siyosat, xaqorat va dag‘dag‘a egallaydi. Shoirning bu qadar ishbilarmon va sohibtadbir kishiga aylanishi ham real mantiqqa bir qadar muvofiq emasdek tuyuladi. Bunday o‘rinlarda sho‘ro adabiyotining mexnat kishisini ulug‘lashga moyilligi ta’siri ko‘zga tashlanadi.

“*Navoiy”* romani mafkuraviy taziyqlar adabiy siysatga aylangan davrda yaratilgan asardir. Binobarin, Oybek o‘zi tilamagan holda shohni *“qoplon*”ga uning atrofidagi amaldorlarni *“it”*ga qiyoslashga majbur edi. Agar jiddiy e’tibor berilsa, romanning aksariyat qahramonlari ulug‘ bir taxlika va qo‘rquv saltanatining zalvori ostida harakat qiladilar. Arslonquldan Dildorga xabar keltirgan folbin kampir atrofga alanglab sekingina so‘zlaydi. Hayajonini bosolmagan Dildorni: *“Hoy, sekin gapir!... Jinni bo‘ldingmi? Qerdasan?*” - deya ogohlantirar ekan, darichani yopib qo‘yib, shivirlagan holda so‘zlaydi. Hatto vahimaga tushib, *zinhor birovga og‘iz ochma*, - deya ta’kidlaydi. Dildorning*: “Xat bermadimi sizga?”* - degan so‘rovga: “*Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi, bolam*!” - deya bir qadar o‘kinish va jafoni bo‘yniga olgan kishiga xos vazminlik bilan javob beradi. [3. 228]

Darxaqiqat, Oybek qalbidagi po‘rtanalar roman matniga ko‘chmasligi mumkin emas. Zero ijodkorning mudom uyg‘oq qalbi olam hodisalarini idrok va his etadi. XV asr voqea-hodisalarini badiiy umumlashtirishda adib qalbida musiqiy bir ohang oqqanki, Oybek tomonidan his etilgan bu holat romanga o‘ziga xos ichki harorat bag‘ishlaydi. Kitobxon romanda goh balandlab, goh pastlab jo‘shqin va sokin ohanglarda taralayotgan hazin kuyni xis etadi. Navoiyga xos

ulug‘vorlik va mag‘rurlik, qudrat, iroda, matonat ruhi unda mamnunlik va iftixor hissini uyg‘otadi.

Romanda hayot sinovlarini matonat bilan yengib o‘zligini anglagan qahramonlar holati jonli tasvirlanadi. Ular orasida Navoiy xarakter sifatida o‘z erkinligi bilan alohida ajralib turadi. Aqidalarida sobit, istiqbolga komil ishonch bilan boquvchi qudratli ruh kishisining ezgulik yo‘lidagi harakatlari kitobxon qalbiga dalda beribgina qolmay, yaratuvchanlik va ijodkorlik ruhini ham tug‘diradi.Romandagi ritm qismlar uzviyligini ta’minlaydi. Ohangning goh avj pardalarda, goh sokin, goh tantanavor, gohida esa ma’yus oqishi surat va siyrat jilvalaridagi qalb tug‘yonlari, isyon va itoat, qat’iyatlilik hamda bandasining ojizligi ruhini ifodalaydi. Oybekning Olamu Odam yaxlitligini namoyon etishida romandagi yagona ovoz ohanglarning o‘zaro uyg‘unligi kitobxonning butun borlig‘ini qamrab oladi.

Yozuvchi romanda sodir bo‘layotgan jarayonlarning manbalarini ko‘rsatish orqali qahramon harakterining shakllanishi sabablarini ochishga muvaffaq bo‘ladi. Aksariyat obrazlarning intilish va kechinmalar olamini ishonarli tahlil qiladi. Boshqacharoq ayganda, syujet qurishning retrospektiv usulidan imkon qadar foydalanishga urinadi. Qahramon ichki dunyosini taftish qilishda ularning o‘y-xayollari, iztirob va kechinmalari, o‘z qilmishlarini tahlildan o‘tkazishlaridan foydalangan holda borliqni keng ko‘lamda tasvirlash imkoniga ega bo‘ladi. Afsuski Oybek ko‘proq e’tiborni personajlarning bevosita ob’ektiv faoliyatiga qaratadi. Chunki *“Navoiy”* romanida hayot hodisalari zamonda sababiy ketma-ketlikda joylashtirish tamoyili asosida yoritilgan. Yozuvchi hamisha ham inson ruhiyatidagi jarayonlar, uning qalb dealektikasini nazarda tutadi deyish qiyin. Bu hol keng ko‘lamdagi epik voqealarning ifodasida lirik haroratning susayishiga olib keladi.

Biroq bunga asoslanib “*Navoiy”* romanida faqat hayotiy voqealar tasvirigina berilgan ekan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Romanda voqealarning qahramonlar ongi va qalbiga ta’siri, xotira va tasavvurlar, shaxsning jamiyat bilan chambarchas aloqadorligini ko‘rsatish maqsadida Oybek tasvirda tashqi jarayonarning inson ruhiyatiga ta’sirini ko‘rsatish yo‘lidan boradi. Shu boisdan ham

romandagi aksariyat qahramonlarning qalb torlari ijtimoiy jarayonlarning kuchli ta’siri ostida tebranishiga ahamiyat qaratiladi.

“Navoiy” romani razolatga qarshi shafqatsizlik bilan javob berishni inkor etuvchi, aql va tafakkur ustunligini ulug‘lovchi zamona zulmi, ta’qib va qiynoqlari, adolatsizliklarini ayblovchi hukmnamogina emas. Hasadgo‘ylar bilan kurashishni o‘ziga noloyiq deb bilgan, insoniy g‘ururi va qadri uchun nuqson deb hisoblangan, bo‘ysunmas qalbidagi yuksak tuyg‘ularning erkin zamona zanjirband eta olmagan ulug‘ insonning kelajak nasllarga qoldirgan munosib tuhfasidir.

Ko‘rinadiki, Navoiy obrazida adolat va buyuk insonparvarlik g‘oyalari mujassam. Ulug‘ mutafakkir o‘z dono maslahatlari bilan shohga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatgan bo‘lsa, amaliy faoliyatida insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirgan. Oybek “Navoiy” romanida ulug‘ mutafakkir xarakterining shu jihatlarini mahorat bilan tasvirlay olgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Millatni uyg‘otgan adib. – T.: Universitet, 2005.
2. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1980
3. Oybek. Navoiy. Roman. – T.: O‘qituvchi, 1985
4. Sabriddinov A. Oybekning she’riy mahorati. – T.:Fan, 2006.
5. Ulug‘bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji.Monografiya va maqolalar. – T.:Yangi asr avlodi, 2002.
6. Yakubov I. O‘zbek romani tadriji. – T.: Fan va texnologiya, 2006

ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI

O'ZBEK TILIDAN RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR BO'YICHA MULOHAZALAR

Hoshim Ahmedov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'rganishda qo'llanadigan ayrim topshiriq va savollar haqida fikrlar bayon qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad – o'quvchilarning til o'rganish borasida malakasini, mustaqil fikrini rivojlantirish hamda bilim va tasavvurlari doirasini kengaytirish. Tajriba yo'sinida tayyorlanga hamda amaliyotda sinab ko'rilgan topshiriqlar yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: *umumta'lim maktablarida o'zbek tili, rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar.*

Umumta'lim maktablarida qo'llanayotgan darslik va qo'llanmalar mana bir necha yillarki takomillashtirib kelinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – mukammalroq o'quv dasturlari va manbalarga ega bo'lish. O'z vaqtida mashhur pedagog-olim Yan Amos Komenskiy o'qish va o'qitish ishlarida tizimlilik, tadrijiylik hamda uzviylik bo'lishi zarurligini qayd etgan edi [1]. Chunki har qanday faoliyat qat'iy tizimga va yuqorilab boruvchi yo'lga tushmas ekan, natijaga erishish muammo bo'ladi. Shu maqsad yo'lida biz ham milliy maktablardagi o'zbek tilini o'rganishda qo'l kelishi mumkin bo'lgan va sinov darslarimizda yaxshi natija bergan ayrim yangiliklarimizni bayon qilmoqchimiz.

Odatda har bir darslik va qo'llanmalarda savol va topshiriqlar beriladi. Ular o'tilgan mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta. Mana shu jihat uchun tanlab olinadigan mashq va topshiriqlar

o‘quvchining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ayon. Lekin bu borada o‘qituvchi o‘zining kasbiy mahoratidan kelib chiqib, o‘ziga xos (original) savol va topshiriqlar tuzishi ham mumkin. “O‘quvchilarni o‘z mustaqil fikrini aytishga yo‘naltiradigan topshiriqlar berish oldindan ma’lum narsalarni takrorlamaslikni, o‘rganilganlar orasidan darsliklarda yo‘q yangilikni topishni talab qiladi” [2, 266-bet].

Ba’zi misollarni tavsiya qilamiz. Jumladan, o‘zbek tili darslarida milliy adabiyotimiz bo‘yicha qiziqarli savollar berish mumkin. Bunda ***“Ikki javobdan birini tanlang”*** usulidan foydalanish mumkin. Mana bir misol:

1. O‘zbek shoir va yozuvchilarining qaysi asrda yashaganlarini aniqlang.

1. Abu Rayhon Beruniy IX asr – XII asr
2. Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) X – XI
3. Mahmud Qoshg‘ariy XI – XV
4. Alisher Navoiy XV – XVII
5. Zahiriddin Muhammad Bobur XVI – XVII
6. Boborahim Mashrab XVII – XIX
7. Yusuf Xos Hojib XII – XIX
8. Ahmad Yugnakiy XV – XII
9. Ahmad Yassaviy XI – XV
10. Jahon otin Uvaysiy XIX – XIII
11. Mohlaroyim Nodira XV – XIX
12. Xo‘janazar Huvaydo XV – XIX
13. Mahmudxo‘ja Behbudiy XX – XIX
14. Abdulla Avloniy XVI – XX
15. Abdulla Qodiriy XVIII – XX

Bu usulni o‘quvchilar darsda bajarishlari tavsiya etiladi. Hatto buni “***Musobaqa darsi***”da sinab ko‘rsa ham bo‘ladi. Buning uchun xuddi shunday variantdan yana bittasini tayyorlab, raqib guruhga berish lozim. Bu endi o‘qituvchidan muayyan kreativlikni (hozirjavoblikni) ham talab qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, muayyan tajribani o‘tkazishdan avval o‘sha sinf o‘quvchilari ruhiyatini, intellektual-psixologik tayyorgarliklarini hisobga olish kerak. Chunki tajriba qiziqarli tarzda uyushtirilgandagina ko‘zlangan natijani berishi mumkin. Yana bir misolga diqqatingizni jalb qilamiz:

2. “Qiziqarli savolnoma”

1. Motsart – musiqachimi yoki aktyor?
2. Qaysi Tolstoy Yasnaya Polyanada tug‘ilgan?
3. Ertakda Oppog‘oyga kimlar yordam bergan?
4. Mashhur ertakchi Xans Kristian Andersen Shvetsiyalikmi yoki Daniyalik?
5. Kosmos(fazo)ga birinchi chiqqan inson?
6. Gidrometeorologiya – nima bilan shug‘ullanadi?
7. Italiyadagi gladiatorlar maydoni?
8. Angliyaning poytaxti - …
9. O‘zbeklarning milliy boyligi bu - …
10. Orol dengizi qaysi viloyatda joylashgan? Va hokazo…

Bunday savolnomalar ham o‘quvchida muayyan qiziqish paydo qilishi mumkin. Bunda savollar o‘ta murakkab bo‘lmay, o‘quvchilarning qiziqish doirasida bo‘lishi lozim. Yoki o‘zbekcha iboralarning ma’nosini topishga buyurilgan ***topshiriqlar*** ham o‘quvchida qiziqish uyg‘otishi mumkin. “Qiziqishning mavjudligi shaxs psixologik faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi, uni yuqori pog‘onaga ko‘taradi. Tafakkur jarayoni, xotira, diqqat, tasavvur faollashganda insonga ko‘proq va chuqurroq bilim olish imkoniyati paydo bo‘ladi” [3, 18-bet]. Yangicha yondashuvga yana bir misol:

3. “Yurtimiz va elimizni o‘rganamiz”.

1. O‘zbeklarda “Non sindirish” voqeasi nima? (Как организуется «Помолвка» в узбекских семьях?)
2. Ro‘za tutiladigan oyda nima qilinadi? (Что такое «Руза»? (Пост)
3. Xonadonlarga uya quradigan qush – ? (Птица гнездуящая в домах людей)
4. YUNESKO ro‘yxatidagi O‘zbekiston shaharlari uchta:… (Назовите трех древных городов Узбекистана включенные в список YUNESKO)
5. 1966-yil 26-aprel kuni Toshkent tarixida qanaqa kun? (Что означает это дата в истории Ташкента?)

Topshiriqni bajarishda o‘zbekcha so‘zlashishni rag‘batlantirib turish kerak. Zarur o‘rinlardagina ruscha aytishga ruxsat berish mumkin. Bu tajribani muayyan holatni hisobga olib, ***“Muammoli ta’lim”*** usulida o‘rgansa ham bo‘ladi.

Endi yana bir tajribaga to‘xtalamiz. Bunda o‘zbekcha iboralar berilib, ulardan to‘g‘ri javobni “***Ikkisidan birini tanlash***” usulidan foydalanamiz:

1. Barmog‘ini tishlab qoldi – *hayronlik / xursandlik*
2. Betga chopar – *to‘g‘riso‘zlik / odobsizlik*
3. Biri ikki bo‘lmadi – *hech ishi yurishmadi / bir so‘mi ikki so‘m bo‘lmadi*
4 .Bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda – *juda boy / juda qarigan*
5. Boy bermoq – *qo‘ldan chiqdi / boyni qo‘lga tushirdi*
6. Bor otangga, bor onangga – *ota-onaga yubormoq / ovora qilmoq*
7. Gapning po‘skallasi – *bo‘ladigan gap / gapning boshi*
8. Dami ichida – *nafasi ichida / dardi ichida*
9. Dunyoning achchiq-chuchugini totgan – *dono / sayohatchi*
10. Do‘ppi tor kelib qoldi – *do‘ppisi tor / imkoniyati oz*
11. Yerga urmoq – *qadrlamadi / yerga urib do‘pposladi*
12. Yer tagida ilon qimirlasa biladi – *juda sezgir / yer ilmini yaxshi biladi*
13. Yetti uxlab tushiga kirmagan – *hech tush ko‘rmaydi / hech o‘ylamagan ish*
14. Yoshi bir joyga borib qolgan – *juda qari / adashib borib qolgan*

Mavjud holatda biz o‘quvchilarni o‘zbek tili boyligini yana ham chuqurroq his qilishga undagan bo‘lamiz. Qolaversa, bizning mamlakatda yashaydigan rusiyzabon mardum aslida mahalliy millat hayotiga ancha integratsiyalashgan aslida. Yana bir muhim jihat shuki, u yoki bu tajribaning qanday natija berishi – muayyan sinfdagi o‘quvchilar soniga, ularning ruhiy individual xususiyatlariga bog‘liq. “O‘qituvchining har bir pedagogik vaziyatdagi sezgirligi, hozirjavobligi hamda mana shu tadrijiy faoliyatini muvaffaqiyatli tarzda yo‘lga qo‘yishi – pedagogiknaing muhim jihatidir”, – deydi Jon Dyui [4, 19-bet].

Modomiki millat kelajagi milliy ta’limning nechog‘li muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq ekan, amaliy tajribalar o‘tkazishni muntazam davom ettirish – pirovard ijobiy natijalarga olib keladi, shubhasiz. Tajribalarimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Har bir o‘tkaziladigan tajriba puxta ishlanishi hamda muayyan sinf o‘quvchilarining axloqiy-psixologik holatini, o‘zini tutishi, bahs madaniyatini hisobga olishi zarur;
2. O‘zbek tili darsini milliy o‘zbek adabiyoti bilan qiziqarli tarzda bog‘lab o‘tish – o‘quvchilarda milliy madaniyatimizga, adabiyotimizga, mentalitetimizga bo‘lgan qiziqish va hurmatni oshiradi;
3. Milliy urf-odatlarimizni qiziqarli usulda taqdim etish orqali o‘quvchilarning tabiiy – ijobiy munosabatini shakllantirishga erishamiz;
4. O‘zbek madaniyatini, til va adabiyotini xalqaro e’tirof etilgan jihatlar bilan bog‘liqlikda taqdim etish – dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komenskiy Y. A. Asosiy didaktik g‘oyalar. https://studbooks.net/1842906/pedagogika/osnovnye_pedagogicheskie_idei_komenskogo.
2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: “Innovatsion-ziyo”. 2020. – 352 b.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. T.: “Innovatsion-ziyo”. 2022. – 404 b.
4. Jon Dyuining asosiy pedagogik qarashlari va didaktik g‘oyalari. https://studbooks.net/1933558/pedagogika/glava_deyatelnost_dyui_znachenie_raboty_praktiki_obucheniya

MATN TUZISHNI O‘RGATISHDA DARSLIKLARDAGI O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Klaraxon Mavlonova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–7-sinf “Ona tili” darsliklarida berilgan matn tuzilishini o‘rgatishga oid nazariy ma’lumotlar, berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog‘liq maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og‘zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari, olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo‘ljallangan savol hamda topshiriqlar mazmuni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *matn, matn qismlari, darslik, nazariy ma’lumot, mashq, savol va topshiriqlar.*

5–9-sinf “Ona tili” darsliklari asosida ish olib borish jarayonida matn tuzilishini o‘rgatish borasida shu darsliklar beradigan imkoniyatlarni quyidagi guruhlarga ajratib, o‘rni bilan ulardan maqsad sari yo‘naltirgan holda unumli foydalanish mumkin:

1) nazariy ma’lumotlar;

2) berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog‘liq komponent ustidagi ish mo‘ljallangan maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og‘zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari;

3) olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo‘ljallangan savol hamda topshiriqlar.

7-sinf “Ona tili” darsligida [1] **matn tuzilishini o‘rganishga doir nazariy ma’lumotlar quyidagilardan iborat:**

Olmoshlar so‘z, so‘z birikmasi, gaplar va matnlarga ishora qiladi, ularning o‘rnida almashib kela oladi. Masalan, *Salimning sochlari sariq, ko‘zlari ko‘k. U hecham o‘zbekka o‘xshamaydi* gapida *u* olmoshi *Salim* o‘rnida qo‘llanmoqda. *Asrora sahnaga chiqmadi. Bu Lola opaning jahlini chiqardi* gaplarida esa *bu*

olmoshi butun bir gapga ishora qilmoqda. Mazkur o‘rinlarda olmoshlarning qo‘llanishi nutqiy qisqalikka, ravonlikka va o‘rinsiz takrorlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Muammoning yechimini taklif qiladigan yaxshi matn quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) **kirish qismi** – unda muammoning bayoni beriladi. Ya’ni bu qanday muammo ekani tavsiflanadi (uning kelib chiqish sabablarini ham yozish mumkin);

b) **asosiy qism** – bunda takliflar hamda ularning natija yoki oqibatlari taqdim etiladi. Har bir taklif yangi xatboshidan boshlanadi;

c) fikrlarni umumlashtiruvchi **yakuniy qism**da muammo va uning yechimi haqidagi shaxsiy fikrlar umumlashmasi yoziladi. 34-b.

II. Berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog‘liq komponent ustidagi ish mo‘ljallangan maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og‘zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari matn tuzilishiga doir ayrim tushunchalar ustida ishlashning (tushuncha berish, o‘tilgan qoidalarni eslash, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish va b.) imkoniyati katta.

Berilgan mavzuda matn tuzish talab etilgan mashqlar barcha darsliklarda mavjud. Ularni grammatik topshiriqli mashqlar sirasida matn tuzilishini o‘rganishga qaratish mumkin.

6-sinf “Ona tili” darsligidagi [2] **mashq va topshiriq shartlari orqali anglatilayotgan matn tuzilmalari:**

O‘zaro bog‘langan gaplarni aniqlash va izohlashga doir:

Ikki ustundagi gaplarni o‘qib chiqing hamda ularni o‘zaro solishtiring. Savollarga javob bering. Qaysi ustundagi gaplar bir-biri bilan o‘zaro mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan? Javobingizni izohlang.

Gaplarni o‘zaro bog‘layotgan mavzuni aniqlash va izohlash:

Birinchi ustundagi gaplarni qaysi mavzu o‘zaro bog‘lab turibdi? 2-ustunda-chi?

Xatboshilar va mavzu munosabati:

Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating. 58-b.

Gaplarning matn ekanini aniqlash va izohlash:

Qaysi ustundagi gaplarni matn deyishimiz mumkin? Qaysi xususiyatlariga ko‘ra? 15-bet.

Matndagi gaplar anglatayotgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash va izohlash:

Matn asosida berilgan to‘g‘ri fikrlarni aniqlab yozing. Noto‘g‘ri gaplarni esa to‘g‘rilab ayting. 22-b.

Xatboshilarni aniqlash, topish:

Berilgan matnni o‘qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping 24-b. Matnga mos sarlavhani tanlab, yozing. Tanlovingizni qisqacha izohlang. 42-b. Matn xatboshilari uchun berilgan kichik sarlavhalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ko‘chiring. 109-b. Matndagi gaplar chegarasini, 4 ta xatboshini aniqlang, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ko‘chiring. 216-b.

Olmoshli bog‘lanishga doir:

Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing. 38-b. Matnda ajratib ko‘rsatilgan olmoshlarni ular ishora qilayotgan birliklar bilan birga ko‘chiring. 52-b.

Bog‘lovchili bog‘lanish: Yozgan gaplaringizni o‘qing. ***Lekin, chunki, va*** so‘zlari orqali fikringizni izohlang. Berilgan gaplarni o‘qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda ***va, ammo, lekin, chunki, biroq*** kabi bog‘lovchilar yordamida bog‘lovchilarsiz ham gaplarni davom ettirish mumkinmi? Ular nima maqsadda qo‘llangan deb o‘ylaysiz? Gaplarni mazmunan bog‘lab, “Qon aylanish tizimi” haqida matn yozing. 62-b. Matnni ko‘chiring. Xatboshilarni hamda ular tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni aniqlab, ularning tagiga chizing. Matndagi 3- va 4-xatboshilar hamda 4- va 5-xatboshilarni qanday vositalar o‘zaro bog‘lab turganini tahlil qiling. 131-b.

Matn tuzish: Tavsiyalaringizni matn ko‘rinishida qoralama nusxada yozing. “Mening kasbim – mening kelajagim” mavzusida

ijodiy matn yarating. Unda sifat darajalaridan foydalaning. 96-b. Quyida badiiy uslubdagi kichik matn berilgan. Siz uni badiiy bo‘lmagan uslubga aylantirib, qayta yozing. 190-b.

Yozilgan matnni tahrir qilish:

Yozgan matningizni tahrir qiling hamda oqqa ko‘chiring. Tahrir jarayonida ko‘rsatish olmoshlari hamda sifat darajalaridan foydalanganingizga e’tibor bering. O‘qituvchingiz to‘g‘rilagan o‘rinlarga diqqat qiling. O‘qituvchingiz tavsiyalari asosida matnni qayta ko‘chiring. Xatolaringizni anglab, keyingi safar bu xatoni takrorlamaslikka harakat qiling. 176-b.

Radionutq tayyorlash: “Men tabiat bilan birgaman” mavzusida radionutq tayyorlang. 40-b.

Tinish belgilariga doir: Matndagi ko‘pnuqtalarning vazifasi nima? 49-bet.

Reja tuzish: Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin. 53-b.

101-b. Matnning xulosa qismidan o‘zingiz eng muhim deb bilgan gapni topib, ko‘chiring. Tanlovingizni asoslab bering.

Biror mavzu yuzasidan kirish, muammo va tahlil, xulosa qismlaridan iborat maqola yozing. 102-b. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang. 130-b. Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning uchtasi noto‘g‘ri. Ularni toping va javobingizni izohlang. 138-b.

7-sinf “Ona tili” darsligidagi mashq va topshiriqlar:

Sarlavha va matn mazmuni: Matnga mos keluvchi sarlavhalarni aniqlab, yozing. Yana qanday sarlavhalarni tanlagan bo‘lardingiz? Chap ustunda sarlavhalar, o‘ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko‘chiring. 25-b.

Matn tuzish: Ushbu jumlani davom ettirib, kichik matn yozing. Unda quyidagi so‘zlardan foydalanishingiz mumkin: *ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, va, hamda, yoki, bilan, uchun, kabi.* 9-b. Quyidagi vositalardan foydalangan holda ikkinchi matnni bog‘lanishli matnga aylantirib ko‘chiring. Matndagi takroriy so‘z va jumlalarni, uslubiy g‘alizlikni tuzatishga harakat qiling.

Matnni tekshirish: Yozgan matningizni sinfdoshingizniki bilan almashing. Uning matni bilan tanishing hamda qisqacha izoh yozing. Havolada berilgan maqolalar bilan tanishing. Yozgan matningiz bilan solishtiring. 12-b.

Gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni aniqlash va izohlash: Birinchi matnda gaplarni o‘zaro bog‘layotgan birliklarni aniqlang. *Menimcha, ularga, qolaversa.* 20-b.

Quyidagi olmoshlar ma’nosida, qo‘llanishida o‘zaro qanday farqlarga ega ekani haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni tuzgan gaplaringiz orqali asoslang 26-b. Berilgan parchalardagi olmoshlarni aniqlang. Ular nimani almashtirib kelayotganini yozing. 27-b.

Xulosa qism: Matndagi gaplar yakunini aniqlab, mos tinish belgilarini qo‘ying. Bo‘sh o‘rinlarga zarur til birliklarini qo‘yib, matnni ko‘chiring. 7-bet. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang. 18-b. Matn asosida berilgan xulosalarning qay biri noto‘g‘ri? 50-b.

Olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo‘ljallangan savol hamda topshiriqlar matn tuzilishini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, 6-sinf “Ona tili” darsligidagi qismlarning nomlanishi bo‘yicha: Matnning uchinchi qismi nega “Muhim ma’lumot” deb nomlangan? Bu qismdagi aynan nima muhim ma’lumot bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni asoslang. “Ma’lumotni misollar bilan tushuntirish” qismida misol sifatida qaysi ma’lumotlarga urg‘u berilgan? Bu qismni yana qanday nomlash mumkin? “Muammo va tahlil” qismidagi qaysi gap muammoni to‘laqonli ifodalaydi? Qaysi gapda tahlilni ko‘rish mumkin? Xulosa va yechim” qismidagi xulosa qaysi, yechim-chi? “Fikrlashga undovchi savol” qismi matnda nima uchun berilgan deb o‘ylaysiz?

I.Azimova “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasida sarlavhalar muloqotning o‘ziga xos birligi deb hisoblab, rus olimi A.A.Veyze matnning uslubidan qat’i nazar ularga xos umumiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda ularni quyidagi besh guruhga ajratganligiga e’tiborni qaratadi:

1. Hukm (gap) shaklidagi sarlavhalar.

2. Nominativ birikma tarzidagi sarlavhalar. Ular matnning tematik tomonini o‘zida mujassamlashtiradi.

3. Matnning tematik tarkibini umumlashtiruvchi.

4. Matnning umumiy mazmunini mavhumlashtirib ifodalagan.

5. Mazmun-mundarijaning bir bo‘lagini nomlovchi [3].

Bu kabi jihatlarni “Ona tili” darsliklaridagi matnlarning nomlanishida ham ko‘rish mumkin.

Xullas, 6–7-sinflar uchun nashr qilingan “Ona tili” darsliklari ularda berilayotgan nazariy ma’lumotlar, matnning tuzilish komponentlari bilan bog‘liq maxsus mashqlar, savol va topshiriqlardan darslarda maqsadli va unumli foydalanish imkoniyatlari katta bo‘lib, darslar samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. “...turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yozma topshiriqlar bajarish o‘quvchining yozma nutq haqidagi bilimi tasavvurlarini kengaytiradi. Bunday topshiriqlar matndan ma’lum kommunikativ vazifada qo‘llangan so‘z va so‘z birikmalarini topish, ularning nima uchun qo‘llanganiga izoh berish, matn ichidan matnning bir butunligini ta’minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi” [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

2. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

3. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2008. – 62–63-b.

4. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Til ta’limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2020. 58-b.

NUTQIY VA LINGVISTIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIALI TA’LIMNING O‘RNI

Zilola Xudoybergenova
Bartin universiteti professori (Turkiya)
Sanobar Kuldasheva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ona tili darslarida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, multimediali texnologiya va topshiriqlarni yaratishda qo‘yiladigan talablar va ularning joriy etilishi haqida fikr yuritiladi. Olim va metodistlarning fikrlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *virtual olam, kiberpedagogika, multimediali texnologiya, animatsiya, video, faoliyatli yondashuv.*

Keyingi yillarda nutqiy faoliyatda “informatsion portlash”, “virtual olam” degan tushunchalar paydo bo‘ldi. Unga kibero‘qish, kiberxat, kibertalaffuz, kibermuloqot tushunchalari ham singib bormoqda. Hatto kiberpedagogika degan tushunchalar ham fanga kirib keldi. Bular biz odatlangan ko‘rish, eshitish kabi jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar deb qaralmog‘i kerak. Bu yerda so‘zlarni aniq va to‘g‘ri o‘qishdan, chiroyli va xatosiz yozishdan tashqari ularning rang-barang shakl va ko‘rinishlarga kira olishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni ifodali o‘qish vositasida ularning ma’no qatlamlariga ta’sir ko‘rsatish mumkinligi juda ochiq tarzda namoyon bo‘ladi. Natijada, o‘quvchining tegishli ko‘nikma va malakalari tezroq, qulayroq hamda yoqimliroq tarzda amalga oshadi.

A.Garsov ta’kidlaganidek, har bir pedagogik davr o‘ziga xos texnologiyalar avlodini tug‘diradi [Garsov, 2009: 398]. Asta-sekin og‘zaki nazariy ta’limning o‘rnini ko‘rgazmali ta’lim egallay boshladi. “Keyinchalik, ko‘rgazmali ta’lim ham maqbul emasligi aniqlanib, uning o‘rniga faoliyat yondashuvga asoslangan ta’lim kirib keldi” [Suropov, 2019: 149]. Faoliyat yondashuvga asoslangan

ta’limni inson faoliyatining sezgi, his, diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, aqliy va ruhiy jarayonlari bilan bog‘liq holda qamrab olish axborot asrida tez rivojlanib kelayotgan multimedia vositalari yordamida amalga oshirish samaradorligi tan olindi. Multimedia vositalari bilan ishlanganda o‘quvchi jarayonni bevosita o‘zi kuzatadi, uni boshidan kechiradi va o‘zi xulosa chiqaradi. An’anaviy dars va multimediali darslar solishtirilganda quyidagi afzalliklar ko‘zga tashlanadi: an’anaviy ona tili darsliklarida mavzuga tegishli materiallar matni hamda ba’zi o‘rinlarda statik ko‘rinishdagi rasm beriladi; multimedia ishtirokidagi darslarda mavzuga tegishli material matni, uni sharhlab beruvchi ovoz yoki video, mavzuga tegishli bir nechta rasm, diagramma, jadvallar, animatsiya, musiqaning birgalikda berilish imkoniyati mavjud. “Darslik bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, qoidalarni o‘rganish yoki qayta esga tushirish, mashq topshiriqlari asosida grammatik hodisalarni aniqlash va izohlash ko‘nikmalari rivojlantirilsa, multimedia ilovalar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati yaxshilanadi, yangi mavzuni mustaqil o‘zlashtirish va o‘zini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi” [Masharipova, 2018: 160]. Shu bilan birga multimedia vositalaridagi bir necha xillik o‘quvchini qiziqtiradi, fikrlashga undaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, bilim, malaka va ko‘nikmani bog‘lab boradi. Mukammal multimediali dars loyihasini yaratish uchun olim, fan o‘qituvchisi hamda kompyuter mutaxassisi birlashmog‘i darkor. Qolaversa, elektron ta’lim resurslarini yaratish uchun qo‘yiladigan maqsad va talablar nazardan chetda qolmasligi kerak.

Multimedia texnologiyalarini yaratish uchun pedagogik, psixofiziologik hamda metodik talablarni inobatga olish zarur. Pedagogik talablarga yaratiladigan mahsulotning davlat ta’lim standartlari, amaldagi o‘quv dasturlariga muvofiq kelishi; psixofiziologik talablarga o‘quvchining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishlarini inobatga olgan holda, sodda, aniq, tushunarli va qulay ishlab chiqilishi; metodik talablarga esa o‘rganiladigan o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda, uzviylik ta’minlangan holda, o‘zlashtirilgan bilim darajasining murakkabligini inobatga olib turli metodlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari texnik,

estetik, didaktik va boshqa talablar bilan mutanosiblashtirilsa, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, muloqotning interfaolligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit birligi inobatga olinsa, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi.

Ona tili darslarida foydalanish uchun multimedia texnologiyalarini yaratishda multimedia shartlarini e'tiborsiz qoldirish ham tayyorlangan darsni didaktik nuqtayi nazardan muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Afsuski, ko'pgina o'qituvchilar multimedia vositalaridan foydalanishda kichik detallarga e'tibor bermaydilar. Proyektordan foydalanish uchun sinf xonasining derazalarini parda bilan to'smaslik lozim, aksincha, proyektor yoki interfaol doskani chiroq nuri tushmaydigan zonada joylashtirish va undagi ranglarga alohida e'tibor qaratish muhim. Sinf xonasi multimedia darslarini o'tishga jihozlanmagan bo'lsa, multimedia darslarini informatika xonalarida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Mazkur talablar asosidagi innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni rivojlantirish bilan birga mustaqil intellektga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o'taydi. Yana bir imkoniyatli tomoni shundaki, multimediyali ishlanmalardan sinfdagi dars mashg'ulotlarida, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, past o'zlashtiruvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, ona tili to'garaklarida, shuningdek uyda mustaqil ishlash uchun foydalaniladi. Faqatgina o'qituvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning tezligi, material miqdori, qiyinchilik darajasini belgilash hamda, eng asosiysi, o'quvchida kerakli media vositalaridan o'rinli foydalana olish malakasi va madaniyatini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Olimlar ta'limda multimediali texnologiyalardan foydalanish orqali bir qator ijobiy omillarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish uchun amaliy vositalarni tanlash, saralash, darsning maqsadidan kelib chiqib multimedia ssenariylarini yozish bevosita fan o'qituvchilarining tashabbusi bilan amalga oshiriladi. O'z g'oyalarini mahsulotga aylantirishda dasturlovchi mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatiladi. Multimedia texnologiyasini yaratishdagi texnologik

jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: dastlab g‘oya asosida ssenariy yoziladi. Mavzuga doir yakka tartibdagi ma’lumotlar (taqdimotlar, matn, jadval, tasvir, sxema, diagramma, audioyozuvlar) tayyorlab olinadi. Barchasi bitta papkada jamlanib texnologik ishlov (animatsiya harakatlari, rang, ovoz) beriladi. Multimediali axborot majmuasi hosil qilinadi va saqlanadi (Qarang: 1-rasm).



1-rasm. Multimedia texnologiyasi

Ona tili ta’limida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish masalalari davlat ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Ammo ona tili o‘qituvchilarining aksariyati kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish deganda, faqatgina matn muharriri va Power Point dasturlaridan foydalanishni tushunishadi. Aslida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan bir qancha dasturlar borki, ona tili fani o‘qituvchilari bunday dasturlarning afzalliklaridan bexabar [Muhammedova, Abdullayeva, Yuldasheva, Eshmatova, 2020: 263]. Odatda, fan o‘qituvchilari bunday loyihalarni kompyuter dasturchilari bilan amalga oshiradilar. Kompyuter dasturchilari yaratiladigan mahsulotning sifati bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishi mumkin, ammo metodik talablariga to‘la-to‘kis javob berolmaydilar. Shuning uchun zamonaviy ona tili o‘qituvchilari nafaqat o‘z mutaxassisliklarini,

balki dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini ham egallashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гарцов А.Д. Электронная лингводидактика в системе инновационного языкового образования. Дисс. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук. Москва – 2009. С.398.

2. Суропов Б. Электрон таълим муҳитида ахборот коммуникация технологиялари фанини ўқитишнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед.фан.б. фал. док. … дис. – Тошкент, 2019. – 149б.

3. Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси. Пед.фан.б. фал. док. … дис. – Тошкент, 2018. – 160б.

4. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: “Excellent Polygraphy”, 2020. – B.263.

5. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. Пособие для студентов / МГУКИ. – Москва, ФАИР-ПРЕСС, 2004. – С.415

OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Nilufar Berdiyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish ularning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. Ushbu maqola talabalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish metodlarini va ularda nutqiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *nutqni rivojlantiruvchi o‘yinlar, semantik assotsiatsiyalar, interfaol usullar, assotsiatsiyalash g‘oyalari, kommunikativ yo‘nalish*

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.
(A.A.Leontyev)

Bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta’lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘qitish zarurligi masalasini ko‘tarib chiqdi. U tomonidan o‘tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o‘zbek bolalariga ruscha og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda lug‘at bilan ishlash juda muhim bo‘lib, o‘qituvchi talabalarga nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan dialogik nutq orqali ularga turtki bo‘ladilar. Talabalarga so‘zlarning tarjimasini tushuntiribgina qolmay, balki bu so‘zlarni nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradilar. Lug‘at tilning qurilish materiali hisoblansa, grammatika gapda so‘zlarning o‘zgarishi va ularning bog‘lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini belgilaydi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o‘quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko‘rish, nutq buzulish sabablarini o‘rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to‘ldirilib, qaysi tovushlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o‘stirish ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo‘lgan bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e’tibor va qiziqishni o‘stirish, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Ba’zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bunday hollarda logoped mashg‘ulotlar yordamiga muhtoj bo‘ladilar. Ijodiy qayta hikoyalashda hikoya kontekstini yoki shaklini o‘zgartirish, o‘qilayotgan hikoya yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirish orqali aytiladi. Sahnalashtirish yoki sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnalashtirilgan hikoyaga aylantiradilar. Ular hikoyaning ssenariysi, kostyumi, imo-ishoralari haqida o‘ylashadi, ishtirokchilar monologni dialogik

nutqqa aylantiradi (bu eng ko‘p til o‘rgatish nuqtayi nazaridan muhim ish). O‘qilishi kerak bo‘lgan hikoyaga rasm chizishda o‘quvchi o‘qilgan hikoyaga rasm tanlaydi, o‘qilgan yoki chizilgan asar mazmuniga ko‘ra rassomlar tomonidan chizilgan rasmlarning o‘zini tasvirlaydi. Agar talaba rasmni yaxshi chiza olmasa, u og‘zaki o‘zi chizmoqchi bo‘lgan rasmni tasvirlaydi, ya’ni so‘zlar bilan rasm chizadi.

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o‘quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqali odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda to‘la rivojlangan yoki shakllangan bo‘lavermaydi. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi. Nutq ikki ko‘rinishga ega – og‘zaki va yozma nutq. Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lsa ham, har birining o‘ziga xos xususiyati bor. Og‘zaki nutqda tovushlar, so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a’zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishida, avvalo, ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini izlab topishimiz kerak. Og‘zaki nutqqa o‘rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo‘l alifbosi)dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o‘zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutq normalarini (me’yorlarini) muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga hamda tilning emotsional tomonlarini his etish qobiliyati rivojlanishiga, og‘zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta’sir etadi. So‘zlashish ¬ suhbat metodidan bolalar lug‘atini faollashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali bola lug‘atidagi so‘zlardan o‘rinli foydalanishga, gaplarni to‘g‘ri tuzishga o‘rganib boradi. Bunda o‘qituvchi kichik guruhda tabiiy obyektlar va ularning modellari (o‘yinchoqlar, suratlar)ga tayanish usullaridan, katta guruhlarda esa so‘zli didaktik o‘yinlardan foydalanadi.

Og‘zaki nutqda so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinganda tovushlar eshitish organlari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda, avvalo, ularning nutqidagi kamchiliklarning sabablarini aniqlashimiz va uni bartaraf etish yo‘llarini izlashimiz kerak. Chiroyli gapirishni, savodli bo‘lishni, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq ifodalashni bilmagan o‘quvchi bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi go‘zal, mukammal, talaffuzi aniq va ravon bo‘lsa, tafakkur doirasi keng, idroki chuqur bo‘ladi. Nutq orqali inson o‘zining ichki tuyg‘ularini ham ifodalaydi, nutq esa hamma odamlarda bir xilda to‘la takomillashib, shakllana olmaydi. Ba’zi bolalar nafaqat tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar, balki ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar bolalar uchun darslarni o‘zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda nutq terapevtlari o‘qitishning yordamiga muhtoj. Og‘zaki nutqni o‘rgatishning birinchi davrida daktiologiya (qo‘l alifbosi) qo‘llaniladi. Bu faqat yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki bolalar tovushlarni talaffuz qiladi va o‘zlashtiradi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir. Grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar ko‘rgazmali materiallar yoki ko‘rgazmasiz o‘tkaziladigan ta’limiy o‘yin xarakteriga ega. O‘quvchi nutqidagi xatolarni do‘stona, xushmuomalalik bilan tuzatish kerak. Hech vaqt bola nutqidagi xatoni takrorlash yaramaydi, yaxshisi grammatik

shakli to‘g‘ri bo‘lgan so‘zlarni, ta’limiy o‘yinlarni takrorlash joizdir, o‘qituvchi dars davomida yoki turli xil o‘yinlar davomida bola nutqini kuzatib borishi va grammatik xatolarni tuzatishi shart.

O‘qituvchi darsda nutqi yaxshi rivojlanmagan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishi kerak. Ayniqsa indamas, muloqot qilishni istamaydigan, o‘zini tutib tura olmaydigan o‘quvchilarga alohida yondashishi kerak. Mashg‘ulot vaqtida qo‘l keladigan interfaol usullar va didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalanish va muvaffaqiyatli tashkil etish o‘quvchilarning ongli faoliyatining faollashuvi, bilimlarni puxta egallash vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ma’qulova B. va boshqalar. Boshlang‘ich sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari. T., “O‘qituvchi”, 1996.

2. Mirzaev I. Dars tahlili. T., “O‘qituvchi”, 1985.

3. Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish. T., “O‘qituvchi”, 1982.

4. To‘rt yillik boshlang‘ich sinflar dasturi. T., “O‘qituvchi”, 1999.

5. Umarova M, Xudoyberganov M. Bayonlar to‘plami. T."O‘qituvchi",1992-yil. 6.Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodiicasi. T., O‘qituvchi, 1985- yil.

7. Gazieva S. T. READING IS THE RECEPTIVE SIDE OF WRITING //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 1564-1570.

8. Gazieva S. T. Modern technology in learning foreign languages //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – C. 1272-1275.

IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Shaxnoza To‘rayeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda didaktik o‘yinlarning samaradorligi haqida fikr bildiriladi. O‘quvchilar savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan “Anogramma”, “Globoalfavit”, “A4 format”, “O‘zingni

bilmagandek ko‘rsat”, “Hikoyalar dunyosi”, “O‘zim tekshiraman” kabi didaktik o‘yinlar haqida ma’lumot beriladi va misollar keltiriladi.

***Kalit so‘zlar**: imlo, imlo savodxonligi, to‘g‘ri yozish usullari, orfografiya me’yorlari, didaktik o‘yinlar, pedagogik texnologiyalar.*

Umumiy o‘rta ta’lim, shu jumladan boshlang‘ich ta’limning ham lotin alifbosida amalga oshirilishi munosabati bilan imloni o‘quvchilarga o‘rgatish jarayoni yangi bosqichga o‘tdi-yu, bu jarayonda til va imloni o‘qitishda mavjud texnologiyalarga tayanish, ularni qisman tahrir qilish yoki yangi metod va texnologiyalarni kashf qilishdek vazifa yuzaga chiqmoqda. Ushbu maqolada esa o‘sha yondashuvlardan birinchisi va qisman tahrir qilingan texnologiyalar to‘g‘risida gap boradi. Ma’lumki, o‘quvchilarga imlo savodxonlik boshlang‘ich ta’limdan o‘rgatila boshlaydi. O‘quvchida imlo savodxonlik rivojlansagina, u fikrini to‘g‘ri va aniq ifodalay oladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinfda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan mashqlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish, o‘quvchilar yozma savodxonligini rivojlantirish, ushbu jarayonda aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’sir ko‘rsatish asosiy mezon sanaladi.

Adabiy tilning og‘zaki shaklida so‘z tanlash, gap tuzish va to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, uning yozma shaklida orfografiya me’yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me’yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to‘g‘ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy rolini mustahkamlashda buning o‘ziga yarasha ahamiyati bor. [Jamolxonov H., Sapayev Q., 2007:165]

Imlo yozma tilning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yozma imlodagi mumkin bo‘lgan xatolar yozma materialning ma’nosi va tushunchasini o‘zgartirishi va uni tushunarsiz qilishi mumkin. Demak, bu muhim mazmunan ko‘zda tutilgan ma’noni aniq yetkazish uchun so‘zlar to‘g‘ri yozilishi lozim. Aksariyat bolalar birinchi va ikkinchi sinflarda o‘qish va yozishni o‘rganish bilan bir vaqtda so‘zlarni to‘g‘ri yozishni va imlo qoidalarini o‘rganishni

boshlaydilar. Bolaning harflarni to‘g‘ri yozish qobiliyatini o‘zlashtirishi juda muhim mahoratdir. O‘qituvchi imlo savodxonligini oshirishda orfografik qoidalarga tayanishi tabiiy, ammo bu qoidalardan istisnolar va ko‘plab imloviy qiyin so‘zlar mavjud. Jamiyatimizda ta’limni tashkil etishda didaktik o‘yinlardan samarali foydalanishga e’tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning imlo savodxonligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning roli kattadir. O‘qituvchi darsni o‘yinli usullar hamda vositalar bilan olib borsa, auditoriyada o‘tirgan o‘quvchilarning yodida uzoq vaqt qoladi hamda qaysi paytda so‘ralsa ham, javob berishga harakat qiladi. O‘quvchi birinchi navbatda ko‘rgan va eshitgan hayotiy voqelikka ishonadi va shunga qiziqadi [Axmadjonova Y., Axmadjonova U., 2021:979]. L.S.Vigotskiy ham didaktik o‘yinlarni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. Quyida berilgan didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda imlo savodxonligini rivojlantirish mumkin.

“Anogramma” mashqi. Bunda o‘quvchiga berilayotgan so‘zlar faqat biror hodisa, mavzu asosida yoki boshqa biror jihatlari bilan umumiy xususiyatga ega bo’lib, ular ichida faqat bittasi “begona” bo’ladi. O‘quvchi ana shu so‘zni aniqlay olishi va javobini izohlay olishi kerak. Imlo savodxonligida esa bu usul to‘g‘ri yozilgan so‘zlar ichidan xato yozilgan so‘z, ya’ni “begona”si topish yoki xato yozilgan so‘zlar ichidan to‘g‘risini topish sharti beriladi. Anogrammaga misollar: 1. *yutiq, butun, tovuq, sovuq, sovun, quyun.* Javob: xato yozilgan so‘z – yutiq. 2. *Avtomat, afg‘on, avtobus, aftomobil*. Javob: xato yozilgan so‘z – aftomobil 3. *borip, xisob, xayol, ischil, momila*. Javob: to‘g‘ri yozilgan so‘z – xayol.

Globoalfavit. O‘qituvchi istalgan harflarni o‘quvchilarga qarab har biriga birma-bir aytadi. A i k l f d o s. Anvar – k, Lobar – s…tarzda. Har bir o‘quvchi 1 daqiqa ichida o‘ziga tegishli harfdan boshlanadigan, imloda ko‘p xato qilinadigan so‘zlarga misol yozadi va o‘qituvchiga ko‘rsatadi. Masalan: *a – afg‘on, adib, ahvol; k – kompyuter, klaviatura; h – haqiqat, hashar, havas; t – taassurot, taxminan, taajjub*… Bu refleksiya (aks ettirish) jarayoni deb nomlanadi. Bunda o’tilgan mavzu yana bir bor xotirada aks ettiriladi.

A4 format. Yozuvda ko‘p xatoga yo‘l qo‘yiladigan so‘zlar o‘qituvchi tomonidan ekranda ko‘rsatib o‘rgatiladi va qatorlar soniga ko’ra A4 formatda varaq tarqatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ekranda ko‘rsatilgan so‘zlardan 2-3 tasini yozishni buyuradi. 1-partadagi 2 ta o‘quvchi o‘z fikrlarini yozib, orqadagi 2 ta o‘quvchiga uzatadi, u esa keyingisiga va shu tarzda qator oxirigacha davom etadi. Bir marta yozilgan so‘zni takror yozish mumkin emas. Bunda har bir keyingi yozayotgan o‘quvchi o‘zidan avvalgi yozilgan so‘zlarni o‘qiydi va qayta o‘rganib, yangi so‘z yozishga harakat qiladi. Oxirgi partalarda, barchaga ma’lumki, darsga qiziqishi kam bo‘lgan o‘quvchilar o‘tirishadi va ularga navbat yetganda esa ko‘p ma’lumotlar yozib bo‘lingan va ular yangilarini topishi kerak bo‘ladi.

O‘zingni bilmagandek ko‘rsat. Doskaga biror so‘z yoki misolni kichikroq xato bilan yozish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarga yuzlanib, bu “xo‘sh, gap/so‘z/misolni to‘g‘ri yozdimmi?” deya so‘rash mumkin. Yoki shunchaki ahamiyat bermasdan ularni sinab ko’rish mumkin. Bunda o‘quvchilarning o‘zlarini aqlliroq va bilimliroq qilib ko‘rsatish instinkti uyg‘onadi va bu esa o‘z navbatida diqqatni oshiradi. Bunday vaziyatlar kutimaganda sodir bo‘lganda ham o‘qituvchi ularning oldida qilgan xatosidan xijolat bo‘lib emas, balki ularning sezgirligi uchun rag‘batlantirib vaziyatdan chiqib ketishi mumkin.

Hikoyalar dunyosi. Imlo ro‘yxatidagi so‘zlarning takroriy misollarini o‘z ichiga olgan hikoyalarni topib o‘quvchilarga beriladi. O‘quvchilar hikoyalarni o‘qish davomida imloda ko‘plab xato yozadigan so‘zlariga duch keladilar va ko‘z bilan ko‘rib yodlash orqali ular xuddi o‘sha so‘zlarni to‘g‘ri yozishiga o‘rganishadi.

O‘zim tekshiraman. Bunday o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi eng keng tarqalgan noto‘g‘ri yoziladigan so‘zlarni tanlaydi va o‘quvchilarga yozdiradi. So‘zlar yozib bo‘lingach, o‘qituvchi aytilgan so‘zlarni xattaxtada yozadi va o‘quvchilarga yozgan so‘zlarini o‘zlari tekshirib olishadi. Kelasi darsda yana xuddi shu so‘zlar o‘quvchilarga beriladi va natijalar aniqlanadi. O‘quvchi bu so‘zlarni avvalgi darsda o‘rgangani uchun xatolik kamroq kuzatiladi. Tahlil, xatolar ustida ishlash o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga ijobiy ta‘sir etadi.

O‘quvchilarni darsga qiziqtirish va ular bilimini oshirishda mana shunday interfaol usullar, albatta, o‘z samarasini beradi. O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otmaguncha o‘rganish samarali yoki muvaffaqiyatli bo‘lmaydi. [Dheifallah Altamimi, Radzuwan Ab Rashid, 2019]

O‘quvchilarda imloviy bilimlarni oshirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish samaralidir, albatta. Bunda ko‘pincha so‘zlarni og‘zaki va yozma shaklda ishlatishni mashq qilish kerak. O‘quvchilarda imloviy savodxonlikni rivojlantirishni boshlang‘ich ta’lim davridanoq, ya’ni harflarni o‘rganayotgan paytdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu bilimlar ta‘limning keyingi bosqichlari uchun zarur bo‘ladi. Shuningdek, imloga oid tushunchalardan boshqa fan darslarida ham kerakli o‘rinlarda foydalanilsa, ijobiy natijaga erishish mumkin. Umuman olganda, o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga rioya qilish faqat yosh avlodning emas,balki shu jamiyatda yashayotgan har bir shaxsning asosiy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jamolxonov H, Sapayev Q. Imlo muammolari.- –T.: O‘zbekiston,2007. – B. 194.

2. Axmadjonova Y, Axmadjonova U, O’quv dars mashg’ulotlarida didaktik o’yin texnologiyalaridan foydalanish. “Science and Education” Scientific Journal, 2021.

3. Dheifallah Altamimi, Radzuwan Ab Rashid, Effective Teaching Strategies to Eliminate Spelling Problems Among Saudi English Language Undergraduates. International Journal of English Linguistics, 2019

4. 5-sinf ona tili darslik. –T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 192.

“TIL TEXNOLOGIYASI” TERMININING METODIK TALQINI

Durdona Mahkamova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada til texnologiyasi terminining ikki talqini borasidagi mulohazalar beriladi. Terminning pedagogik, metodik termin

sifatidagi mazmuni bayon qilinib, ayrim zamonaviy til texnologiyalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *til ta’limi, til texnologiyasi, metodika, pedagogika, terminologiya, “Google Class”,“Kahut”, “Padlet”, ta’lim modernizatsiyasi, terminologik polisemiya.*

Til ta’limi masalasi barcha davrlarda pedagogika va tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan sanalgan. Uni samarali tashkil etish, ta’lim maqsadlariga erishish, bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq qilish, lingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish, ayni paytda o‘quv mashg‘ulotlarini ilg‘or pedagogik metod va texnologiyalar asosida olib borish kabi masalalarning barchasi til ta’limining mazmunini keltirib chiqaradi.

Istiqlol yillariga qadar o‘zbek terminologiyasida “texnologiya” termini, asosan, texnika fanlari doirasida qo‘llangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida mazkur komponent ijtimoiy-gumanitar fanlar terminologik tizimlarida ham ommalasha bordi. Xususan, *pedagogik texnologiyalar* termini va mazkur termin ostida birlashuvchi bir qancha terminlar pedagogika terminlari tizimining modernizatsiyasiga sabab bo‘lgan birlamchi omillardandir [Ishmuxamedov, 2013].

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni shartli ravishda ikki yirik guruhga ajratish mumkin: *umumiy texnologiyalar* (barcha fanlar uchun) va *xususiy texnologiyalar* (ma’lum bir fanni o‘qitishga xoslangan).

O‘z nomi bilan *til texnologiyasi* lingvistik ta’limga xos. Biroq termin hozirda lingvistikaning o‘zida ham ikki ma’noda qo‘llanadi. *Til texnologiyasi* qo‘llaniluvchi birinchi lingvistik soha kompyuter lingvistikasi bo‘lib, unda termin “*kompyuter dasturlari yoki elektron qurilmalarning inson matnlari va nutqlarini qanday tahlil qilish, yaratish, o‘zgartirish yoki javob berish usullari*” [Grishman, 1994] sifatida ta’riflanadi. Lingvistik ta’lim, til ta’limida esa til texnologiyalari yuqorida qayd etilganidek, xususiy texnologiya mazmuniga ega.

“Til texnologiyasi”ning metodik talqini ham texnologik talqin kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ikki talqin bir qarashda *til texnologiyasi*ni omonim termin deb baholash kerak, degan xulosaga

olib kelsa, ikkinchi tomondan ularni tutashtiruvchi nuqtalar bu aslida bir tushuncha, degan fikrga ham olib keladi. Quyida til texnologiyasining mohiyati, ishlash mexanizmi, turlari bilan tanishtirib, termin borasidagi fikrlarimizni aniqlashtiramiz.

Til texnologiyalari metodikada aynan ma'lum bir tilni (aksariyat hollarda xorijiy tilni) o'qitishga, yoxud lingvodidaktikaga (aynan til ta'limiga) xos tushunchadir.

Ta'lim muassasasida har qanday chet tilini o'rganishda asosiy maqsad kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishdir. Qolgan barcha maqsadlarga asosiy maqsadni amalga oshirish jarayonida erishish mumkin. Har qanday chet tili – bu chet tilini o'qitishda turli xil raqamli vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, talabalar uchun maxsus muhit yaratilishi lozim bo'lgan fan [Niyazova, 2022]. Raqamli vositalar bir vaqtning o'zida bir nechta vositalar bilan ishlashga imkon beruvchi interaktiv tizimlar: tasvirlar, ovozli kompyuter grafikasi, statistik vositalar, video va boshqalar. Til texnologiyasi yordamida zamonaviy talabalar turli axborot kanallaridan ma'lumot olishadi. E'tiborlisi, ba'zida ular sinfda, dars jarayonida kompyuter o'yinlaridan foydalanishadi. Kompyuter o'yinlari talabalarning til kompetentsiyasini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. O'yin asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, u o'rganishni sezilarli darajada osonlashtiradi va material tez o'zlashtiriladi. Ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'yin davomida ma'lumotlar ancha yaxshi va samaraliroq qabul qilinadi. Ingliz tili darslarida raqamli vositalar va kompyuter dasturlari bilan ishlash shakllariga: lug'atni o'rganish, talaffuzni mashq qilish, yozishni o'rgatish, grammatikani mashq qilish, monolog va dialogik nutqni o'rgatish kabi jarayonlar kiradi.

Mamlakatimizda zamonaviy til texnologiyalari bilan aksariyat o'qituvchilar tanish va ular bu texnologiyalardan faol darajada foydalanadilar, deb ayta olmaymiz. Ammo bu ta'rif xorijiy til, xususan, ingliz tili o'qituvchilari uchun xos emas. Aynan ular bugungi kunda til texnologiyalaridan o'ta faol foydalanadilar va tajribalari bilan Respublika va Xalqaro doirada o'rtoqlashmoqdalar. Mashg'ulotlarda mazkur texnologiyalardan foydalanish bilan birga nashriy chiqishlar qilayotganlari tez kunda samarasini berishi va bu tur texnologiyalar milliy lingvodidaktikaning ajralmas qismiga

aylanishiga ishonamiz. Boisi amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ta’lim tizimini yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish vositasi pedagoglar faoliyatining innovatsion yo‘nalishi bo‘lib, u eng yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Til texnologiyalari sirasiga ko‘plab texnologiyalarni kiritish mumkin.Ulardan ayrimlariga to‘xtalamiz:

Google Class

Google Classroom ajoyib raqamli vositadir, chunki u o‘qituvchilarning vaqtini va qog‘ozini tejaydi va ularga darslar yaratish, topshiriqlarni yuborish va o‘quvchilari bilan oson muloqot qilish imkonini beradi. Bu, shuningdek, o‘qituvchilarga qaysi talabalar topshiriqlarini bajarganligini ko‘rish imkonini beradi va ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr-mulohaza va real vaqtda baho berishlari mumkin. Aslini olganda, Google Classroom barcha o‘qituvchi topshiriqlari, e’lonlar va talabalar ishlarini bir joyda to‘playdi. Bu talabalar bilan ma’lumot almashish, ularning ishlarini yig‘ish va har qanday mavzu bo‘yicha fikr-mulohaza bildirish uchun ajoyib vositadir. Google Classroom yordamida o‘qituvchilar:

Ularning darslarni qanday boshqarishini optimallashtiradilar.

Topshiriqlar, o‘quv materiallari (videolar, veb-saytlar, PDF-fayllar va boshqalar) va talabalar ishini tashkil qiladilar, ularni tarqatish va raqamli ravishda to‘plashga erishadilar. Talabalar bilan sinfdagi ishlari haqida suhbatlashadilar.

Kahut (Kahoot) – o‘rganish va viktorina o‘yin platformasi. Bu ham raqamli vosita bo‘lib, o‘quvchilarning bilimini sinash, muhim tushunchalarni ko‘rib chiqish va ma’lumotlarni eslab qolishlariga yordam berishi mumkin bo‘ldan texnologiyadir. Shuningdek, u o‘qituvchilarga o‘quvchilar o‘rtasida sinf muhokamasi va o‘zaro munosabatlarni yaratish imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar o‘z ilovasi yoki qurilmasiga o‘yin kodini kiritish orqali o‘quvchilar sinf sifatida o‘ynashi mumkin bo‘lgan sinf mazmuniga oid ko‘p tanlovli o‘yinlarni yaratishi mumkin. Kahut sinfda ishlatilishi mumkin va masofaviy ta’lim uchun idealdir. O‘qituvchilar viktorina o‘rnatishlari va natijalarni ko‘rish uchun talabalar uni bajarishlarini kutishlari mumkin. O‘qituvchilar, shuningdek, sinf taraqqiyotini yaxshiroq baholash uchun natijalarni ko‘rishlari va formativ baholash o‘yini hisobotlaridan tahlillarni o‘tkazishlari mumkin.

Padlet – bu ko‘p qirrali va intuitiv virtual e’lonlar taxtasi bo‘lib, uni o‘quvchilaringiz bilan sinfda yoki ularning o‘rganishiga qo‘shimcha sifatida ishlatish mumkin. Padletdan talabalar va o‘qituvchilar foydalanishi mumkin. Planshet yordamida o‘qituvchilar onlayn doska yaratishi mumkin, uni istalgan talaba yoki hamkasbingiz bilan baham ko‘rishingiz mumkin. Talabalarga noyob Padlet havolasini berish kifoya. Smartfon yoki kompyuterida Padlet taxtasi ochiq bo‘lgan har bir kishi unda nima yozilgani va hamma nima yozayotganini ko‘ra oladi.

Hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan til texnologiyalari quyidagilardir:

munozara taxtasi – o‘qituvchi savol beradi va barcha talabalar javob beradi.

sinf blogi – tadqiqot, fikr-mulohaza yoki topshiriq bo‘yicha savollar bilan bo‘lishish.

guruh portfeli(Moodboard) – talabalar, masalan, bir-birini tekshirish uchun o‘z ishlarini nashr etadi.

guruh mashqlari – guruhlarga turli tadqiqot mavzulari beriladi va o‘z natijalarini planshetga yozadi, so‘ngra shaxsiy taqdimotda butun sinf bilan bo‘lishadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar Filologiya fanlari doktori Gulnora Niyazovaning “Educator Perceptions of Digital Literacy” maqolasi [Niyazova, 2022]dan (tarjima qilingan) olingan bo‘lib, olima milliy ta’limda mazkur texnologiyalardan o‘ta faol va samarali foydalanayotgan, hamda ularning metodologik asoslarini tadqiq etayotgan pedagoglardan biridir.

Ko‘rilganidek, *til texnologiyalari* til kompetensiyasini shakllantirish, lisoniy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvodidaktik texnologiyalardir. Kompyuter lingvistikasida esa *til texnologiyalari* til bilan bog‘liq amallarni bajarilish mexanizmi va shunga yo‘nalgan dasturlarni ifodalaydi. Metodikadagi zamonaviy til texnologiyalarining aksariyati bevosita internet va kompyuter bilan bog‘liqligini (yuqoridagi Google Class, Kahut, Padlet kabi metodlar) hisobga olsak, mazkur terminni polisemantik termin sifatida baholash mumkin.

E’tibor qilinsa, zamonaviy texnologiyalar, AKTning rivoji, ta’lim va dars jarayoniga yondashuvdagi modernizatsiyalashuv

barcha sohalar kabi pedagogik terminlar tizimiga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Bu o'z navbatida o'zbek tili pedagogika terminlari tizimini tartibga solish, uni terminologik nuqtayi nazardan o'rganish kabi masalalar ustuvorligini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grishman R. Computational linguistics. –Cambridge: University Press, 1994.
2. Ишмуҳамедов Р., Юлдашев.М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. –Тошкент, 2013.
3. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
4. Niyazova G. Educator Perceptions of Digital Literacy//Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar. –Toshkent: Firdavs-shoh, 2022.

ONA TILI TA'LIMIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANISHI

Nargiza Ergasheva

Farg'ona shahridagi Prezident maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

Annotatsiya

Mazkur maqola "Tahrirlash" metodi orqali ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu metod matn bilan ishlash, yozma nazorat ishlari tahlillarini o'tkazish uchun tavsiya qilinadi. "Tahrirlash" metodida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning yozma savodxonligi oshiriladi. Ona tili fanini o'qitishdan maqsad o'quvchiga faqat lingvistik kompetensiyani o'rgatish emas, balki nutqiy kompetensiyalar orqali uni mustaqil hayotga tayyorlash masalasi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *"Tahrirlash", "Kichik guruhlarda ishlash" (o'qib tushunish yoki tinglab tushunish ko'nikmasi), "Lug'at*

diktant"(yozish),"Tushunchalar tahlili" (yozish va gapirish), "Intervyu".

"Tahrirlash" metodi

"Tahrirlash" metodi, asosan, *matn bilan ishlash, yozma nazorat ishlari tahlillari*ni o'tkazish uchun tavsiya qilinadi. Mazkur metodda matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning yozma savodxonligi oshiriladi. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan **"Kichik guruhlarda ishlash"** (o'qib tushunish yoki tinglab tushunish ko'nikmasi)**, "Lug'at diktant**" (yozish), **"Tushunchalar tahlili"** (yozish va gapirish), **"Intervyu"** (gapirish) usullaridan foydalanish mumkin. O'qituvchi tavsiya etilgan usullardan boshqa unumliroq usullarni ham qo'llashi mumkin.

Maqsad: Lug'at bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. O'quvchi imlo, ishoraviy va uslubiy xatolarni topish, xato turlarini o'zaro farqlash orqali hayotiy voqea-hodisalarga munosabat bildirishni o'rganadi. Guruh bilan hamkorlikda ishlash orqali jamoaga hurmat, o'zgalarning fikrini tinglash, o'z fikrini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi.

5-sinf o'quvchilari uchun berilgan quyidagi diktant misolida metod tushuntirib o'tiladi.

INVESTITSIYA KIRITING

Dunyoga mashxur ixtirochi, milliyarder Ilon Mask 12 yoshida kompyuter o'yini yaratib, uni 500 AQSh dolleriga pullaydi. U bu pulning yangi ochilgan dori ishlab chiqaruvchi kampaniyaga investitsiya qiladi. Yillar o'tib dori kampaniyasi rivojlanib ketadi. Ilon kiritgan sarmoya esa, unga o'n barobar ko'p foyda keltiradi. Ilon Mask 12 yoshidayoq investitsiya nimaligini yaxshi bilgan.

Investitsiya – foyda olish maqsadida sarmoya kiritish. Pul shunday narsaki, u hech qachon o'z-o'zidan ko'paymaydi. Aksincha, turgan pul qadrsizlanadi yoki
ishlatib qo'yiladi. Pul ko'payishi uchun u doim harakatda bo'lishi kerak. Pul qanday harakat qiladi deysizmi, Pul investitsiya qilinsagina, harakat qila boshlaydi. (90 so'z, Jajji akademik)

I. „Kichik guruhlarda ishlash" usuli. ***(O'qib tushunish yoki tinglab tushunish*** *ko'nikmalarini rivojlantiradi)* O'quvchilar 3 ta kichik guruhga bo'linadi. O'qituvchi diktantni tekshirish davomida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni umumlashtiradi.

Yagona matn tayyorlab, guruhlarga taqdim etadi. Kichik guruhlarga quyidagi tartibda xatolar bilan ishlash topshirig‘i beriladi.

1-guruh	Matndagi imlo xatolarini topish topshirig‘i beriladi
2-guruh	Matndagi punktuatsion xatolarni topish topshirig‘i beriladi
3-guruh	Matndagi uslubiy xatolarni topish topshirig‘i beriladi

YECHIM:

1-guruh – Imlo xatolari

	Matndagi xatoliklar	O‘quvchilar tomonidan to‘g‘rilagan variant
1	mashxur.	Mashhur
2	Milliyarder	Milliarder
3	Doller	Dollar

2-guruh – Punktuatsion xatolar

	Matndagi xatoliklar:	o‘quvchilar tomonidan to‘g‘rilangan variant:
1	Ilon kiritgan sarmoya esa, unga o‘n barobar ko‘p foyda keltiradi.	esa bog‘lovchi vositasidan so‘ng vergul ishlatilmaydi.
2	Pul qanday harakat qiladi deysizmi.	so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq belgisi qo‘yiladi.
3	(85 so‘z, Jajji akademik)	(85 so‘z, “Jajji akademik”)

3-guruh – Uslubiy xatolar

1	U bu pulning yangi ochilgan dori ishlab chiqaruvchi kampaniyaga investitsiya qiladi.	U bu pulni yangi ochilgan dori ishlab chiqaruvchi kompaniyaga investitsiya qiladi.
2	Investitsiya – foyda olish maqsadidan sarmoya kiritish.	Investitsiya – foyda olish maqsadida sarmoya kiritish.

II. “Lug‘at diktant” usuli *orqali o‘quvchilarning* ***yozish*** *ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. Matndagi imlosi qiyin tuyilgan*

so‘zlarni o‘qituvchi saralab aytib turadi, o‘quvchilar esa daftarlariga yozadilar.

Mashhur, ixtirochi, milliarder, kompyuter, dollar, kompaniya, investitsiya, barobar, yoshidayoq, hech qachon, o‘z-o‘zidan…

III. “Tushunchalar tahlili” usuli *orqali matndagi izohtalab so‘zlar ajratiladi va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan ma’nosi topilib, mos qatorga yozadilar.* ***(Yozish va gapirish*** *kompetensiyalarini shakllantiradi)*

	Tushuncha	Tahlili
1	Milliarder	fr. milliardlar bilan hisoblanadigan boylikka ega bo‘lgan kishi
2	Dollar	Amerika Qo‘shma Shtatlarining pul birligi
3	Kompaniya	savdo, sanoat yoki transport sohasida iqtisodiy faoliyat olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, ishbilarmonlar birlashmasi
4	Sarmoya	asosiy savdo mablag‘i
5	Investitsiya	mamlakat ichkarisida yoki chet elda, biror foyda ko‘rish maqsadida, biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog‘iga kapital qo‘yish

IV. “Intervyu” usuli orqali sinfdagi jurnalistikaga qiziqqan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mumkin. Sinfdagi uchta guruhdan bittadan o‘quvchi jurnalist sifatida raqib guruhlarga matndagi tanlangan so‘zlar ishtirokida savol tayyorlaydilar. O‘z savollariga do‘stlaridan javob oladilar. Bunda o‘qituvchi jurnalist-o‘quvchining nutqiga, savollarni to‘g‘ri qo‘ya olganiga va o‘zini tutishiga alohida e’tibor qaratishi kerak. Jurnalist – o‘quvchilarning tayyorlagan intervyularidagi yutuqlar, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni sharhlab berishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar o‘zlarini studiyadagidek his qilishlari uchun mikrafonning maketi tayyorlansa ham bo‘ladi. Sinf logotipi (sinflar o‘z logotiplarini ham yaratishlari mumkin)ni mikrafonga tushirishlari o‘quvchiga motivatsiya beradi. Kamera o‘rnida o‘qituvchining qo‘l telefonidan foydalanish va lavhani sinfning telegram guruhiga joylashlari ham mumkin.

Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Siz kelajakdagi **kompaniya**ngiz bilan qaysi chet davlatlar bilan shartnoma tuzmoqchisiz?

2. **Mashhur** insonlardan kimlarni o‘z qahramoningiz deb bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi [2021:7] Toshkent
“O‘zbek tilining imlo lug‘ati A. Madvaliyev, E.Begmatov; muharrir N.Mahmudov. Akademnashr, 2012. - 528 b.

O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI ANIQLASH USULLARI

Feruza Sharopova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqola birinchi tili o‘zbek tili bo‘lgan o‘quvchilarning ona tili darslarida matnni o‘qib tushunish malakasini aniqlash va rivojlantirishga bag‘ishlangan. Tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib borilmoqda, mazkur ishda ularning matn bilan ishlash jarayonidagi ilk natijalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *matn, o‘qib tushunish, shakl va mazmun uyg‘unligi, amaliy ko‘nikmalar, kontekstual ma’no.*

Matnning semantik mohiyati, bu tafakkur idroki jarayonida hosil bo‘ladigan tushunchadir. Shu sababli, matnning yaratilishi va mazmunining to‘g‘ri qabul qilinishi – kognitiv va nutqiy-kognitiv faoliyat natijasi sanaladi.

O‘qib tushunish faoliyati haqida ingliz tilshunosi Cheryl J.Gowie “Bolaning bilimiga mos keladigan matn, uni to‘g‘ri va tez tushunishiga yordam beradi, berilayotgan ma’lumot uning oldingi bilimini chuqurlashtirishi, aniqlashtirishi kerak”, – deydi [1;8]. Tilshunos olim boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bir nechta sodda gaplarni o‘qittirib, ulardan nimani tushunganlarini so‘raydi. Bunday gaplar aniq va majhul nisbatdagi gaplar bo‘lib, tajriba natijasida

hamma retsipiyentlar aniq nisbatdagi ma'lumotlarni tez, to'g'ri va oson tushunganlarini aniqlaydi.

Dekodlash jarayonini kuzatish uchun turli xil usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida ingliz metodisti Elizabeth Tighe qo'llagan bir qancha metodlarni ko'rib chiqamiz. U maktabning turli yoshdagi o'quvchilari o'rtasida bir nechta tajribalar o'tkazgan. Tajriba turlaridan biri ***So'z o'qish samaradorligi testi*** *TOWRE- 2 (Test of Word Reading Efficiency)* deb nomlanib, u fonologik dekodlash samaradorligi (PDE) va so'z samaradorligini ko'rish (SWE) subtestlarini o'z ichiga oladi. TOWRE- 2 so'zni aniq va ravon o'qilishini tekshirishni maqsad qilgan bo'lib, unda o'quvchi ma'lum belgilangan vaqt davomida ularga berilgan so'zlar (bir nechta grafemalarning tartibsiz joylashuvi)ni o'qish davomida ikki guruhga (ma'noli so'zlar va ma'no bildirmaydigan so'zlar) ajrata olishi kerak. *(Elizabeth Tighe,2018: 5).* Bu topshiriq orqali o'quvchining lug'aviy bilim darajasi aniqlanadi. Keyingi topshiriq ***ovozsiz o'qish samaradorligi va tushunish testi*** *(TOSREC – Test of silent Reading Efficiency and comprehension)* deb nomlanib, unda o'quvchilarga har xil mazmundagi axborotlar yozilgan jumlalar berib, ularni "ha" yoki "yo'q" deb belgilashlari so'raladi, ya'ni axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini har bir o'quvchi o'zida mavjud bilimlarga asoslangan holda belgilaydi. ***TABE (Test of adult Basic Education) – Yoshlar uchun asosiy (umumiy) ta'lim testi***, bu juda samarali va qiziqarli test usuli hisoblanadi. Test beshta darajadan iborat bo'lib, har bir darajada topshiriqlarning qiyinchilik darajasi ortib boradi.

Mazkur topshiriqlar orqali o'qilgan ma'lumotlarning tushunilganlik yoki tushunilmaganligi eng sodda ko'rinishdagi mashqlarning murakkablashib borishi bilan o'quvchining tushunish ko'nikmasi qay darajada ekanligi aniqlanadi. Tajriba natijalariga ko'ra, o'quvchilarning tushunish darajasi past ko'rsatkichni namoyon qilgan.

Matnning tushunilishini sarlavhalar orqali o'rgangan tilshunos I.Azimova (Azimova I., 2008, 62) universitetning I kurs talabalariga darak gap, so'roq gap, matn mazmunini mavhum ifodalovchi so'z birikmalaridan iborat sarlavha, g'ayriodatiy lisoniy vositali sarlavhalar berib, vazifa sifatida maqolaning mazmuni haqidagi tasavvurlarini bir-ikki gap bilan yozishlarini topshiradi. Natijalarda

ko‘rinadiki, darak gap shaklidagi, so‘zlari o‘quvchiga tanish bo‘lgan sarlavhalar to‘g‘ri tushunilgan. So‘roq gap va notanish so‘zli, o‘ta uzun sarlavhalarning tushunilishida ko‘proq xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Xulosa qilib aytganda, taqdim qilinayotgan matn o‘quvchiga notanish mavzuda, noodatiy so‘z, birliklardan iborat bo‘lmasligi, balki ularni qiziqtiradigan mavzuda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Biz mazkur tadqiqotimizda matnning tushunilishini yuqoridagi tajriba metodlaridan boshqacha usullarda o‘rgandik. Ishda umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Tadqiqotning maqsadi, birinchi navbatda, shu paytga qadar o‘qib tushunish ko‘nikmasi ustida ishlanmagan o‘quvchilarning bilimini aniqlash hamda keyingi darslar davomida past ko‘rsatkichli ko‘nikmalarni rivojlantirish deb belgilandi.

Usullar.

Tajriba ishtirokchilari. Tajriba-sinov ishlari 9- sinf o‘quvchilari bilan olib borildi. Bunday sinov darslarida o‘quvchilarga publitsistik, badiiy va ilmiy-ommabop uslubdagi qiziqarli matn va mazkur matn yuzasidan savol va topshiriqlar berilmoqda. Biz maqolada publitsistik uslubdagi matn natijalarini tahlil qilamiz.

Tajriba materiali. O‘quvchilarga publitsistik uslubdagi “Bir pas necha daqiqa?” va “Fuqarolar deyish to‘g‘rimi?” mavzularidagi qisqa matnlar berildi [Vohidov, 2013: 12). Matn 438 ta so‘zdan iborat bo‘lib, ikkita sarlavha va 7 ta qism (abzas)dan iborat. Matn qismlari sonlar bilan belgilanib, ajratilgan.

Tajriba jarayoni. O‘quvchilarga matn hamda uning ustida ishlanadigan topshiriq varaqlari tarqatildi. O‘quvchilar oldin matnni ikki-uch marta o‘qishlari, keyin esa topshiriqlarni mustaqil holda bajarishlari kerakligi tushuntirildi. Matn ustida ishlash uchun 30 daqiqa vaqt berildi.

Berilgan topshiriqlarni quyidagi guruhlarga ajratdik: (1-jadval)

1. Eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma’lumotdan xulosa chiqarish (test) – 4 ta

2. Matn mazmunidan chiqarilgan hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash (belgilash) – 1 ta

3. Moslashtirish metodi, ya’ni matn qismlariga mos sarlavhani tanlash (bu yerda to‘g‘ri variantlardan tashqari 2 ta ortiqcha variant berildi) – 5 ta

Tajriba natijalari va tahlili.

1-jadval

Topshiriq turi	**Savollar soni**	**To‘g‘ri javoblar soni**	**Foizi**
1. Test	4 ta	1. 12 ta	**37,3 %**
		2. 24 ta	
		3. 12 ta	
		4. 27 ta	
2. Hukm	1 ta	5. 17	**56 %**
3. Moslashtirish	5 ta	6. 13 ta	**10,3 %**
		7. 16 ta	
		8. 1 ta	
		9. 10 ta	
		10. –	

1. Eksplitsit (Test) (ochiq ifodalangan) ma’lumotdan xulosa chiqarish topshirig‘ida eng ko‘p xato 1-va 3-testlarda kuzatildi – 18 tadan.

Mazkur topshiriqdagi 1-testni tahlil qilamiz.

Shoir she’rida kimga yoki nimaga murojaat qilib, “bir pas” birligini ishlatgan?

A. Yoshlik chog‘iga
B. Inson umriga
C. Tabiat hodisasiga
D. Kechki paytga

Matnda keltirilgan o‘rin: Bolalikdagi she’riy mashqlarimning birida, shabboda, to‘xta bir pas, deb yozgan ekanman. Pos – tunning sakkizdan biri, deb sharhlanibdi. Demak, taxminan bir soatga teng tungi muddat - pos, bir soatlik tungi soqchi - posbon, ruscha chasovoy ma’nosidagi atama bo‘lib chiqdi.

Bu yerda to‘g‘ri javob C (Tabiat hodisasiga) bo‘lib, o‘quvchilar, asosan, A va D javoblarni belgilaganlar. Bu joyda xatoga sabab bo‘lgan narsa, “shabboda, to‘xta bir pas, deb yozgan ekanman” degan

gapdagi to‘ldiruvchi vazifasini bajarayotgan ifodaning ichidagi tafsilot so‘ralganidir. Demak, o‘quvchilar savolga yetarlicha e’tibor bermaganlar, “kimga yoki nimaga” so‘roq so‘zlariga emas, “bir pas” birikmasi izohiga e’tibor qaratganlar.

2.Matn mazmunidan chiqarilgan hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun berilgan savolga 13 ta o‘quvchi, ya’ni o‘quvchilarning deyarli yarmi noto‘g‘ri javobni belgilaganlar. Bundan mazkur o‘quvchilar matnda muhokama qilinayotgan muammoning javobini ilg‘ay olmaganliklari xulosa qilinadi.

Mazkur topshiriqda berilgan hukm: Muallif matnda “fuqaro” so‘zini faqat birlik shaklda qo‘llanganini ta’kidlaydi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

Matnda keltirilgan o‘rin: Bamisoli ulamo, fuzalo olim-u fozilning ko‘plik shakli bo‘lganidek, fuqaro ham faqirlar, ya’ni kambag‘allar, yo‘qsillar demakdir. Qoidaga ko‘ra, fuqaroga ham “lar” qo‘shish xato bo‘ladi.

Demak, bundan ikki asr avval fuqaro amirlikka tobe inson ma’nosida ishlatilgan va fuqarolar shakli ham mavjud bo‘lgan.

Ko‘rib turganingizdek, matnda muallif “fuqaro” so‘zini qoidaga ko‘ra qo‘llanishi kerak bo‘lgan ko‘rinishini ham, shu bilan birga ma’lum bir davrda (hatto hozir ham) -lar qo‘shimchasini olgan holda qo‘llanganligini asoslab ko‘rsatadi. Savolda esa “faqat birlik shaklda” birikmasi berilib, bu orqali o‘quvchilarning matn umumiy ma’nosining qay darajada tushunilganligi, ya’ni muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni anglashi (anglay olmaslik) tekshirilgan.

3.Moslashtirish metodi, ya’ni matn qismlariga mos sarlavhani tanlash topshirig‘ida eng ko‘p xatolarni ko‘rishimiz mumkin, 4-17 ta, 5-29 ta, 6-20 ta, 7-30 ta.

Natijalardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘quvchi matn qismlari anglatayotgan ma’noni yaxlit holda tushunishda qiynalgan. Har bir topshiriq o‘quvchining ma’lum bir til ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, birinchi topshiriq turi matnda ochiq ifodalangan (eksplitsit) ma’lumotni topa olish ko‘nikmasini; ikkinchi topshiriq – matnda berilgan ma’lumotlarni integratsiya qilish orqali xulosa chiqarish ko‘nikmasini; uchinchi, umumlashtirish topshirig‘i matn qismlari umumiy ma’nosini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Berilgan 10 ta

topshiriq natijalariga ko‘ra, to‘g‘ri javoblar – 40,4 %ni, noto‘g‘ri javoblar – 50,6 %ni tashkil qilmoqda.

6 oy davomida olib borilgan tajriba darslaridan so‘ng, yakunlovchi nazorat tajribasi o‘tkazildi, unda birinchi nazorat matnlariga o‘xshash matn va uning ustida ishlangan topshiriqlar o‘quvchilarga tarqatildi. (2-jadval)

Tajriba natijalari va tahlili.

2-jadval

Topshiriq turi	**Savollar soni**	**To‘g‘ri javoblar soni**	**Foizi**
1.Test	4 ta	1. 20 ta	**60,6 %**
		2. 19 ta	
		3. 21 ta	
		4. 19 ta	
2.Hukm	1 ta	5. 22	**73 %**
3.Moslashtirish	5 ta	6. 14 ta	**50,9%**
		7. 17 ta	
		8. 19 ta	
		9. 17 ta	
		10. 11	

2-nazorat ishi natijalarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasi sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘qib tushunishni tekshirish uchun turli shakldagi mashqlardan foydalanish mashg‘ulotlarning o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Mashq va topshiriqlarning qiziqarliligi esa o‘sha mashg‘ulotning samaradorligini ta’minlovchi omillardandir.

Ushbu tadqiqot yuzasidan olib borilgan tajribaviy darslardagi o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari tahlili matnni o‘qib tushunish uchun haftada bir marta alohida shu ko‘nikmaga bag‘ishlangan dars o‘tilgan holatda maxsus e’tibor qaratilmagan holatdagiga nisbatan bir necha baravar yaxshiroq natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cheryl J.Gowie, Psycholinguistic strategies for improving reading comprehension, The elementary school Journal, Volume 79, number 2. Dec.2015. – B. 8-9.

2. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: f.f.n.diss. – T.O‘zMU,2008.
3. David Nunan. Language teaching methodology. Macquarie university.1991.
4. Elizabeth Tighe. Assessing the direct and indirect effects of metalinguistic awareness to the reading comprehension skills of struggling adult readers. Springer Nature B.V.2018.
5. Handbook of Research on Teaching the English Language Arts, Diane Lapp, Douglas Fisher. Taylor & Francis 2010.
6. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma), «SHARQ» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2019.

O‘QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nilufar Turg‘unova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim texnologiyalari, xususan, loyiha ta’lim texnologiyasining mazmuni, maqsadi, ta’limda qo‘llashning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. O‘quv loyihalarining tasnifi va bajarilish bosqichlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, loyiha texnologiyasi, o‘quv-loyihaviy faoliyat, o‘quv loyihasi, tadqiqotchilik.*

Bugungi kunda kreativ, faol, har bir sohada erkin fikr yurita oladigan o‘quvchini tarbiyalash ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabda o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarida o‘quvchini faqatgina nazariy bilimlar bilan qurollantirib qolmasdan, olingan bilimlarni bevosita amaliyotda qo‘llash, real vaziyatlarda foydalana olish ko‘nikmalarini ham shakllantirish zarur. Buning uchun ta’limda bir qator texnologiyalar, interaktiv usullardan foydalanish ijobiy natija beradi. Xususan, loyiha ta’lim texnologiyasi o‘quvchini tadqiqotchilikka undaydigan eng samarali texnologiyalardan biridir.

Pedagogik texnologiya atamasiga pedagog olimlar tomonidan turlicha ta’riflar keltiriladi. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. M.V.Klarin pedagogik texnologiyaga pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibi degan ta’rifni beradi. O‘zbek olimi Azizxo‘jayev turli olimlarning qarashlarini o‘rgangan holda quyidagi ta’rifni keltiradi: ta’lim texnologiyasi deganda ta’limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko‘ra o‘quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo‘lishini ta’minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi. [Sharopova, 2019; 75]

Pedagogik texnologiyalar orasida loyiha ta’lim texnologiyasi alohida o‘rin tutadi. Loyiha ta’limi texnologiyalaridan o‘quv amaliyotida foydalanishda “o‘quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo‘llanadi. O‘quv loyihaviy faoliyat – o‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. [Sharopova, 2019; 237]

Loyiha ta’lim texnologiyasiga oid ilk qarashlar XX asr boshlarida AQShda vujudga kelgan bo‘lib, uning ilmiy asoslari amerikalik pedagog va faylasuf Djon Dyui va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik mazkur texnologiyaga rus pedagoglari ham e’tibor qarata boshlashdi va 1905-yilda S.T.Shatskiy boshchiligidagi ishchi guruh loyiha texnologiyasini ta’limda qo‘llay boshladilar [Беликова].

Ma’lumki, ta’lim texnologiyalari bir nechta dars jarayonlarini qamrab olib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Loyiha texnologiyasidan foydalanishda ham dastlab o‘quvchilarga muayyan mavzu bo‘yicha ma’lumot beriladi. So‘ngra loyihaning bajarilish tartibi, o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar bir nechta dars davomida bayon etib boriladi. O‘quvchilar loyihaning mazmunini to‘liq anglagach, qo‘yilgan talablar asosida vazifalarni bajarib loyiha ishini taqdim etadilar. Ishning natijasi turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: taqdimot, ma’ruza, sahna ko‘rinishi,

maqola, intervyu, devoriy gazeta, strategiya, o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan kitoblar, gazetalar va hokazo.

Har bir loyiha zamirida aniq maqsad, muammo bo‘lishi zarur. O‘quv loyihalarini bajarishdan avval o‘quvchilar o‘zlari uchun quyidagi ko‘rinishda yo‘riqnoma tuzib olishlari lozim:

Loyihaning mavzusi – nima maqsadda biz bu loyihani bajaryapmiz? (loyihaning dolzarbligi, motivatsiya)

Loyihaning maqsadi – nima uchun biz bu loyihani bajaryapmiz? (maqsadni belgilash)

Loyiha topshiriqlari – qanday bajarishimiz mumkin? (vazifalarni belgilab olish)

Metodlar – nima yuzaga keladi? (usullar va metodlarni tanlab olish, rejalashtirish)

Natija – nimaga? (kutilayotgan natija)

O‘quv loyihalari turli xil ko‘rinishlarda bajarilishi mumkin. Pedagogika fanlari doktori Y.S.Polat o‘quv loyihalarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Faoliyat turiga ko‘ra: axborot beruvchi, tadqiqotchilikka asoslangan, amaliy, ijodiy, rolli-o‘yinli loyihalar.
2. Ishtirokchilar soniga ko‘ra: individual, juftlik, jamoaviy loyihalar.
3. Murakkabligiga ko‘ra: monoloyiha, fanlararo loyiha.
4. Davomiyligiga ko‘ra: mini loyiha (bitta darsga mo‘ljallangan), qisqa muddatli (4-6 dars), haftalik (30-40 dars soatini qamrab oladi), uzoq muddatli (yillik, asosan, darsdan tashqari vaqtda bajariladi). [Полат, 2005; 71]

O‘quvchilarning o‘quv loyihaviy faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi – loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (auditoriya ishi).
2. Loyihani bajarish bosqichi – auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan amaliy faoliyat
3. Yakunlovchi bosqich – loyiha taqdimoti, talabalar faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi (auditoriya ishi) [Sharopova, 2019; 238].

Mazkur texnologiyaning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchilar o‘rgangan nazariy ma’lumotlarini bevosita amaliyotda sinab ko‘rish

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, loyiha ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik, jamoa bilan ishlash, mas’uliyatlilik sifatlarini shakllantirishda, ulardagi yashirin qobiliyatlarni kashf etishda muhim rol o‘ynaydi. Loyiha ta’lim texnologiyasidan barcha fanlarni o‘qitishda, xususan, ona tili va adabiyot ta’limida ham samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. – T.: Navro‘z, 2019.
2. Беликова Е.В Метод проектов в образовании https://urok.1sept.ru/articles/648795
3. Пахомова Н.Ю Метод учебного проекта в образователном учреждении АРКТИ, 2005.
4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования [Текст]: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров. – М.: Издательский центр «Академия», 2005.

YOZISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OG‘ZAKI NUTQNING AHAMIYATI

Firuza Mirzaraxmedova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada orfoepiya va orfografiyaning o‘zaro uyg‘unligi, orfografiyada tinish belgilarining o‘rni haqida qisqacha fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *orfografiya, orfoepiya, nutqiy ko‘nikma va lingvistik bilim, punktuatsiya.*

Hozirgi kunda ona tilimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, chet tilini bilish – zamon talabi, ammo

ona tilini bilishni majbur qilish kerak”, – deb aytgan so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun o‘quvchi yoshlarning yozuvdagi orfografik xatoliklarni bartaraf etishga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Orfografik xatoliklarga yo‘l qo‘yish, albatta, orfoepiya, ya’ni talaffuz bilan ham bog‘liq. Bundan tashqari tinish belgilarining o‘z o‘rnida ishlatilishni bilish ham muhim hisoblanadi. Bu esa o‘zbek tilining kelib chiqish tarixiga borib taqaladi.

O‘zbek tili ko‘p shevali, kelib chiqish jihatidan uch qabila uyushmasi – qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalaridan iborat. Bu lahjalar o‘zbek xalqi va uning tili paydo bo‘lishida yetakchi rol o‘ynab, hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va til faktlarini stabillashuvida qatnashgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tayanch shevalari qilib fonetik jihatdan Toshkent va morfologik jihatdan Farg‘ona tip shevalari olingan.

Nutqning fonetik xossalarini matn orqali dastlab amaliy, so‘ngra nazariy o‘zlashtirib borish bilan adabiy til me’yorlari asosida malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘lg‘usi yosh mutaxassislarni “O‘z fikrini mustaqil, davlat tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifodalash”ga samarali yordam beradi [Karimov, 1997]. Maktab darsliklarida matn orqali yosh avlodni o‘z fikrini mustaqil ifodalay olishga o‘rgatuvchi bir nechta topshiriqlar ishlab chiqildi. Masalan, 6-sinf darsligida nutqiy ko‘nikma va lingvistik bilimni berishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Xususan, “Til – muloqot vositasi” bo‘limida berilgan o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan quyidagi topshiriqda nafaqat o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalari rivojlantiriladi, balki savollar yordamida mulohaza yuritishga ham undaydi.

Berilgan matnlarni o‘qing. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

BIRINCHI MATN

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo‘lmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday

yashagan va bugungi moddiy va ma’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi. Tilning birinchi ma’rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta’minlanadi.

Alibek Rustamov

IKKINCHI MATN

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar o‘rtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot “oldi-berdi”sining timsolsiz ta’minlovchisi. U yo‘qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o‘zida xalq, erki o‘zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg‘usini bir on unutmaydi.

Nizomiddin Mahmudov

1. Bilim olishimizda til imkoniyatidan qanday foydalanamiz?

2. Birinchi matnda tilning ikki ma’rifiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Ular qaysilar?

3. Ikkinchi matnda tilning hayotimizdagi o‘rni qanday ifodalangan?

4. Ajdod va avlod o‘rtasidagi “oldi-berdi” nimalar bo‘lishi mumkin?

5. Til salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketishi haqidagi fikrni izohlang. Muallif bu bilan nima demoqchi?

6. Til qanday qilib muhofaza qilinadi? Bu jarayonda siz ham qatnashishingiz mumkinmi? Qanday qilib?

7. Ikkala matn uchun qanday umumiy sarlavha qo‘yar edingiz? Javobingizni izohlang.

Ushbu topshiriqda til haqidagi matn tanlangan bo‘lib, unda tilning inson hayotidagi o‘rni bayon qilingan. Matn asosida berilgan savollar esa tilning jamiyatdagi muhim ahamiyatini anglashga qaratilgan.

O‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlardan ham foydalanish o‘z samarasini beradi.

Yolg‘onchilik va lafzsizlik

Yolg‘onchilik bor joyda: ishonch, vafo, sadoqat, mehr zarracha qadrga ega bo‘lmaydi; subutsizlik urug‘i ko‘payadi; xiyonat niholi barq uradi; muqaddas tuyg‘ular chilparchin bo‘ladi. Eng achinarlisi, ushbular oqibatida bir inson umri zoye yashab o‘tiladi!

Ushbu topshiriqda matn o‘qib beriladi va matn mazmuniga mos maqol topish vazifasini topshiriladi.

Javob: Yolg‘onchidan shon qolmas, nomidan nishon qolmas. (Maqol)

O‘quvchilarning matnni tushunganlik darajalari rivojlantirilishi bilan birga matn mazmuniga mos fikr bildirishga ham o‘rgatiladi.

Bundan tashqari quyidagicha matn berib boshqacharoq topshiriq berish mumkin.

Baxillik

O‘g‘ilginam, totmagil baxil nonidan,
Uzoq bo‘l baxilning dasturxonidan.

Farididdin Attor

“Baxilning bog‘i ko‘karmas”, deganlaridek, avvalo, bu illat egasining dili xotirjam, niyati xayrli bo‘lmas. Baxil o‘z mol-mulkining lazzatini tuymaydi, balki uning qorovuli hisoblanadi. Baxilning niyati hasad, g‘iybat bilan to‘lib toshgan. Unda pastkashlik, nokaslik, dilozorlik illatlari kun sayin rivoj topib kuchayib boraveradi. Baxillik kishini o‘z-o‘zidan begonalashtirib, oxir- oqibat yolg‘izlikka mahkum etadi.

Ushbu topshiriqda matn o‘qib beriladi va unga mos xulosa yozish kerakligi yuklatiladi. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning idrok etish qobiliyati va xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

“Til – muloqot vositasi” bo‘limda keltirilgan quyidagi topshiriqda so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratish vazifasi yuklatilgan.

So‘zlarni namunadagidek tahlil qiling. Berilgan so‘zlarning barchasi ushbu qoidaga mos keladimi? O‘zingiz ham namunadagi kabi so‘zlardan topib, yozing.

Ruhiy, amaliy, ma’rifiy, aqliy, ma’naviy.

Namuna: **tarixiy – tarix+iy.**

Ushbu topshiriqda lingvistik bilim berish maqsad qilingan. Shu bilan birga bu topshiriq so‘zlarni yozishda tutuq belgisining qo‘llanilishiga, tallaffuzda tushib qoladigan ayrim harflarni yozuvda ifodalashga ham e’tibor qaratishga yordam berishi mumkin.

Shuningdek, darslikda ham nutqiy ko‘nikma, ham lingvistik bilimlarni berishga qaratilgan bir nechta topshiriqlar ishlab chiqilgan. Quyidagi topshiriq vositasida ham lingvistik bilim beriladi, ham nutqda so‘z qo‘llash ko‘nikmasini oshirishga erishiladi.

Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

Kasal, amir, ranjimoq, dam olmoq, jazm qilmoq, sog‘aymoq, itoat

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini mustahkamlash va so‘z boyligini oshirish mumkin.

Shu bilan birga so‘z boyligini oshirish va so‘zlarni to‘g‘ri yozishga qaratilgan quyidagi topshiriqda o‘quvchilarning eshitib yozishi, imloviy savodxonligi tekshiriladi.

Bunda o‘quvchilarga har bir darsda 10 ta so‘zning yozilishi o‘rgatiladi va ikkita so‘zning ma’nosi haqida ma’lumot berib boriladi.

Toshkent, dunyo, mamlakat, davlat, xoin, bilim, kitob, orzu, bog‘, husnixat, baho, mulohaza, muhokama, muhabbat, maslahat, seshanba.

Husnixat – (arabcha) chiroyli yozuv.

Mulohaza – (arabcha) o‘ylab ish tutish.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va xatosiz yozishga o‘rgatish maqsad qilib olingan. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning og‘zaki nutq vositasida yozish ko‘nikmasining shakllanishiga olib boradi, orfogarfiya va orfoepiyaning faqrli hamda bog‘liqligini anglashga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish jarayonida nafaqat orfoepiya, balki punktuatsiyaning ham o‘rni bor.

Yozma nutqda tinish belgilarining ahamiyati juda muhim. O‘rta ta’lim maktablaridagi darsliklarda o‘quvchilarning tinish belgilarini o‘rinli qo‘llashga o‘rgatuvchi bir nechta topshiriqlar ishlab chiqilgan. Gaplarni ko‘chiring, tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlariga diqqat qiling kabi topshiriqlar misolida buni ko‘rish mumkin. Yoxud yaxlit

matn berilib, mos keladigan tinish belgilarini qo‘ying kabi topshiriqlar berilgan.

Ushbu topshiriqlar orqali o‘quvchilarga tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatilishini o‘rgatish mumkin.

O‘quvchilarning yozma nutqda tinish belgilarini qo‘llashga o‘rgatuvchi topshiriqlardan foydalanish o‘z samarasini beradi. Xususan, 6-sinf o‘quvchilariga harakatli o‘yinlardan biri bo‘lgan “Oq terakmi ko‘k terak, bizdan sizga kim kerak?” matnining so‘zlarini yozish vazifasi topshiriladi. Bu o‘yinda o‘quvchilar she’r matnini yozadilar va guruhlar o‘zaro almashib tekshiradilar, xatolarini tuzatadilar.

1-guruh. Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
2-guruh. Ola-bula kapalak,
Aziza bo‘taloq kerak.

Xullas, yozma nutqning rivojlanishida, asosan, idrok etish, ya’ni anglashning ahamiyati katta. Inson o‘qib o‘rganganlarini, anglab yetgan narsasini og‘zaki bayon etadi va yozma tarzda ifoda etish jarayonida so‘zlardan unumli foydalanib, so‘zlamoqchi bo‘lgan nutqini yanada jozibali yozishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Obiddin Mahmudov. Farzandnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Iroda Azimova. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Til ta‘limiga oid fanlar moduli). – Toshkent, 2020.
4. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2022-yil 8-son.
5. Ona tili: 9-sinf uchun darslik. M.N. Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh. Sobirov. – Toshkent: Tasvir, 2019.
6. Ona tili (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf uchun darslik). Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Yangi nashr. – Toshkent, 2022.

FIKRNI TUSHUNISH VA YOZMA BAYON QILISH DARAJASINI ANIQLASH USULLARI

Dildora Mirvaliyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada fikrni tushunish va yozma bayon qilish darajasini aniqlash usullari haqida so‘z boradi. Bunday darajalarni aniqlashda individual-psixologik xususiyatlarga bog‘liqligi aytib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda 5-sinf o‘quvchilari yozma nutqini o‘stirishga qaratilagan matnlarni tushunish darajalari ham ochib berildi. O‘quvchilarning yozma nutqini tekshirish va tahlil qilishda alohida talablar haqida ham ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, matn, psixologik yondashuv, darajalanish, assotsiativ, struktural, matn darajasi, nutq mazmundorligi, ifodaliligi, tushunarliligi, to‘g‘riligi, sofligi, aniqligi.*

Ona tili ta’limi jarayonida til va so‘z boyligini egallashi uning leksikasi bo‘yicha til imkoniyatlarini qo‘llay bilishi matniy topshiriqlarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Psixologik yondashuvda birlamchi obyekt inson bo‘lib, matnning qabul qilinishida uning individual ruhiy holati, xususiyatlari ko‘proq tahlil qilinadi. T.A.Drozdova matn tushunishni psixologik tajriba asosida tadqiq etib, uning darajalarini belgilaydi. Ammo bu darajalar har doim ham tushunish jarayonida yuzaga chiqavermasligini muallif ta’kidlab o‘tadi, ya’ni tajriba sinaluvchilarining 36% ida tushunish jarayoni bosqichma-bosqich kuzatilgan bo‘lsa, sinaluvchilarning qolganlarida tushunish aralash, betartib holatda amalga oshgan, shuningdek, yuqorida keltirilgan bosqichlarning ayrimlari tushirib qoldirilgan, bunda qisqartirilgan holatlar ham kuzatilgan. Shunga ko‘ra, tadqiqotchi tushunish jarayonining borishi sinaluvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liqligini aytadi [Azimova, 2008:19].

A.A.Leontev “Matnning mazmuniy tarkibi ongda bosqichma-bosqich tahlil qilinar ekan, bu tahlil matnning tushunilishi hamda

mazmuniy tahlil asosida kechadi”, – deydi. V.P. Belyanin ham matnning persepsiya jarayoni hamda uning mazmuni haqida shunday fikr yuritgan [Azimova, 2008:60].

Shunga ko‘ra, 5-sinf o‘quvchilari yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan matnlarni tanlashda, asosan, shu jihatlarga e’tibor berdik, ya’ni shu yoshdagi o‘quvchilarga tushunilishi mos bo‘lgan, ular yoshidagi bolalarni qiziqtira oladigan matnlarga e’tiborimizni qaratdik. Bu mazmun jihatdan boy bo‘lgan bayon yaratishlari uchun muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilarning tanlangan matnni tushunish jarayoni shu asosda darajalandi hamda tahlil qilindi [Azimova, 2008:88].

1. Assotsiativ daraja – tayanch matnning uslubi, unda qo‘llanilgan so‘zlarning ma’nosi, o‘qib berilgan matn tarkibida yo‘q so‘zlardan foydalanganligi yoki so‘zlarning sinonimlarini qo‘llaganligi.

2. Struktural daraja – tayanch matndagi mazmuniy jihatdan ajratilgan tarkiblarning ketma-ketligi, ularning o‘zaro bog‘lanishi.

3. Matn darajasi – o‘qib eshittirilgan matnning yaxlit holda hosil qilinishi. Bunda eshittirilgan matn mazmun va shakl jihatdan to‘ldirilgan holda bayon qilinadi, lekin tayanch matnning oldingi mazmuniga putur yetkazilmaydi.

Matn tushunish jarayoni yuqorida sanab o‘tilgan parametrlar asosida darajalangan bo‘lsa, ularning yozma nutqini tekshirish va tahlil qilishda ham alohida talablar hisobga olindi:

1. Nutqning mazmundorligi – bunda matn tarkibida asosiy fikrning mavjudligi, axborot dalillarning muhimligi, berilgan axborotning yangiligi.

2. Yozma nutqning tushunarliligi – yaratilgan matn qay darajada mantiqiyligi hamda tilning aniq va ravshanligi.

3. Nutqning ifodaliligi – lug‘atning boy yoki sayozligi [Muhiddinova, 2011:26].

Bundan tashqari quyidagilar ham yozma ishlarni darajalarga ajratishga yordam beradi:

1. Har bir so‘z, har bir jumla mazmunni va muallif maqsadini ochishga xizmat etishi, shuningdek, nutq ixcham, izchil va mantiqiy ifodalanishi zarur.

2. Yozma nutqdagi fikr qiziqarli, ifodali, uslub jihatdan sodda va ravon bayon etilishi kerak.

3. Bildirilgan fikrlar asosida zarur xulosa chiqarishga alohida e'tibor berish zarur.

Yozma nutqning mohiyatli chiqishi uchun material yig‘ilgandan so‘ng ularni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning xomaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab, takomillashtirish va oqqa ko‘chirish zarur.

Yozma nutqning sifati fikrning mustaqil ravishda bayon etilishi bilan belgilanadi.

Yozma nutq turli yozma ishlar orqali yuzaga chiqadi. Nutqning ikkinchi turi, ya’ni yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatdan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatdan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi, ana shu sababli nutqning bu turini o‘stirish ancha sekin va murakkab kechadi.

Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi.

Ona tili o‘qituvchisi yozma ishlarda mazmunga, mavzudan chetga chiqmaslikka, faqat imlo va tinish belgilarigagina emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham e’tibor qaratishi lozim.

Ona tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi.

O‘quvchi yozma nutqi darajalarini quyidagi talablar asosida aniqlash eng mukammal usullardan hisoblanadi:

Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoqda bo‘lgan so‘zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (ya'ni xat, maktub, axborot, voqeanavislik va hokazo) vositasida fikr almasha oladi. Shuning uchun bolalarni maktub yozishga o‘rgatish ayni bir fikrni turli shaklda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqning mazmundorligi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqea–hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qila oladi. Aniq dalillar, kuzatish va taassurotlar, his-tuyg‘ular asosida yaratilgan fikrgina o‘zgalar diqqatini o‘ziga tortadi. Mazmunsiz fikr so‘zlovchining o‘ziga ham, o‘zgalarga ham yoqmaydi. Suhbat, hikoya, insho uchun o‘qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealari boy material bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqning to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ortadi. Buning uchun o‘quvchidan narsa, voqea, hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularga to‘g‘ri baho bera bilish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilish talab etiladi. O‘quvchi fikrini bayon qilayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olishi, mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi zarur.

Nutq – mantiqan fikrlash mahsuli. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog‘langan.

Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o‘xshashligi va farqi aniqlab olinib, shu asosda hukm hamda xulosalar chiqariladi. O‘quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to‘g‘ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqiy to‘g‘riligi esa avvalo fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog‘langan bo‘lishi, fikr yuritilayotgan mavzudan chetga

chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va mujmal jumlalar bo‘lmasligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo‘lishi demakdir.

Nutqning boy va rang-barang bo‘lishi, avvalo, fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlaridan, shuningdek, nutqning badiiy qiymatini oshiruvchi vositalardan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, o‘zbek xalqining qochiriq so‘zlari va frazeologik iboralaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘alardan, ritorik so‘roq gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rangbaranglik baxsh etadi.

Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi. O‘quvchi so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog‘lash, egalik va kelishik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llash, gapning ega va kesimini moslashtira olish kabi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Nutqning soddaligi va sofligi. Sodda nutq tushunarli bo‘ladi. Buning uchun matnda fikr lo‘nda, aniq bayon qilinishi kerak. Tushunarsiz, g‘aliz jumlalardan saqlanish lozim.

Nutqning sofligi uning tozaligi demakdir. Nutqni har xil qaytarishlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, tilning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish yozma nutqning soddaligini ta'minlaydi.

Til boyligi – o‘quvchining til vositalaridan samarali foydalanishi, fikr ifodalashda o‘zidagi lisoniy-nutqiy imkoniyatlarni to‘liq ishga sola bilishi, matnda tugallik, me’yorlilik, badiiy bunyodkorlik, uslubiy ravonlikni ta’minlay bilishini ochib beradi [Mahmudov,1991:174].

Tajriba-sinov jarayonida qatnashgan 5-sinf o‘quvchilarining yozma ishlarida nutqiy-uslubiy xatolar, o‘quvchining til imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, gapda so‘z tartibining buzilish holatlariga tez-tez duch kelindi. Ularning o‘rtacha miqdori kutilganidan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur nazorat matnlarida so‘zni noto‘g‘ri qo‘llash, gap qismlari va gaplar orasidagi sintaktik aloqaning buzilishi, noo‘rin inversiya bilan bog‘liq uslubiy xatolar ko‘p uchraydi.

Matn yaratish jarayonida 5-sinf o‘quvchilari yo‘l qo‘ygan uslubiy xatolar: badiiy bo‘yoqli so‘z, tasviriy ifodalar mavjud bo‘la

turib, gapda sodda so‘zlar ishlatish, ko‘chma va ko‘p ma’noli so‘zlar, iboralardan foydalanmaslik bilan bog‘liq kamchiliklar; umumiste’molda uchramaydigan so‘zlarni (ixtisosiy atamalar, arxaizm, neologizm) me’yoridan ortiq qo‘llash; ilmiy matnda so‘zlashuv nutqiga xos sheva so‘zlari, jargon so‘zlardan foydalanish; gap bo‘laklari orasidagi sintaktik aloqaning buzilishi, gapda so‘z tartibi, raqamlash, ma’noning darajalanishiga ahamiyat bermaslik, ma’nodosh so‘z ishlatmaslik, matnda g‘alizlik, takror, uslubiy xatolarning kelib chiqishiga sharoit yaratadi [Qurbonova,2001:18-23].

Yuqorida ko‘rsatilgan matn talablariga asosan o‘quvchilarning yozma ishlari tekshirib borildi. Bunda turli metodlar qo‘llandi hamda ularning natijalari statistik tahlil qilib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.f.n.dis. –Toshkent: 2008. – 19-60 b.

2. Mahmudov M. Maktabda muammoli ta’limni tashkil etish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 174 b.

3. Muhiddinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.

4. Qurbonova G. Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi. P.f.n. diss. – Toshkent: 2001. 18 – 23-b.b.

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Shahnoza Qo'yliyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili o'qitishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, o'z fikri mustaqil ifoda qilish, matn yaratishda ijodiy yondashishni rivojlantirish hamda nutq madaniyatini egallash bo'yicha tilshunos va metodist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *nutq, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o'quv topshirig'i, matn ustida ishlash.*

Respublikamizda so'nggi yillarda ona tili darslarida mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ravon ifodalay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan barkamol shaxsni kamol toptirish, ona tili ta'limining bosh maqsadi sifatida belgilangani, yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi [Юсупова, 2005:56]. Natijada, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o'ziga xos o'rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig'ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g'oya mazmunini qayta hikoya

qilish va adabiy til me'yorlariga asoslanib so'zlab berish hamda yozish, o'z nutqini og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [Mirziyoyev, 2016:14], – deb e'tirof qilinishi ona tili o'qitish metodikasi oldiga ta'lim jarayonining sub'ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma'lum fikrini ma'noli ifodalab, aniq, sermazmun so'zlab yetkazadigan va diqqat bilan o'qish qobiliyatlariga ega bo'lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma'lumot va axborotlarni o'qib kerakli xulosani chiqaradigan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo'yadi.

N.Sh. Turdiyevning "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari" qo'llanmasida "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi, shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi holatlariga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi.

Shuningdek, B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida: "Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qayerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan muomala-muloqot sirlarini o'rgatadi; sharqona odob-andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi" [Тўхлиев, 2006: 314], – deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko'nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o'stirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma'no, o'rinli so'zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok

etishini rivojlantirishdir. Professor Sh. Yusupovaning ta'kidlashicha, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha "Sharhlash usuli"ni qo'llashdan turli maqsadlar ko'zlanishi nazarda tutiladi."

1. Sharhlash ona tili bo'yicha o'tilgan nazariy ma'lumotlarni idrok qilishga yordam beradi.

2. Sharhlash nazariy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashni bildiradi.

3. Og'zaki nutqni o'stirishga yordam beradi

4. Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi.

5. Butun dars jarayonida o'quvchilarda nazariy ma'lumotlar ta'kidlanadi" .

Metodist olima to'g'ri qayd etganidek, ona tili darslarida o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni sharhlashi natijasida to'g'ri so'zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me'yorlariga amal qilib to'g'ri yozishdagi ko'nikma va malakalari, dars davomida o'rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o'tadi.

G'.Hamrayevning "Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikmasi bir xil bo'lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma'noda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi", – deyiladi.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosan ona tili o'qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog'liq. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o'qish, yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o'qitishda o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilardagi hosil bo'lgan nutqiy ko'nikmalarlarning rivojlanish ko'rsatkichini nazorat qilish va shu bilan bir qatorda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning o'sish darajalarining "oqsayotganini"

aniqlash, interaktiv metodlardan foydalanish va bu borada ularning yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari ustida muntazam ishlab bu kemtik o‘rinlarni o‘z vaqtida tuzatishdir.

O‘quvchilarga so‘zlarning imlosi bo‘yicha imlo lug‘at bilan ishlashni, ko‘chirib yozish mashqlarini bajarishda o‘rganib, eslab qolishni uqtirish, so‘zlarning ma’noviy strukturasida izohli lug‘atlar bilan ishlash, omonim va sinonim lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o‘qish va yozish mashqlariga alohida urg‘u bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon o‘qituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo‘shimcha ilmiy adabiyotlar ishlashni, zamonaviy va ilg‘or metodlardan foydalanishni talab qiladi.

M.Mahmudovning fikricha, “yoshlarning fikrlashi, tafakkurini o‘stirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish” o‘qitishning jamiyat rivojidagi bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri sanalishi e’tirof etiladi [Mahmudov, 2005:49]. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini o‘stirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ayniqsa jamiyatda tub burilishlar, o‘zgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh. Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. “O‘qituvchining o‘qish namunasiga ko‘ra o‘quvchilar to‘g‘ri, ifodali o‘qishni o‘rganadi. Darsda matnni o‘qib berish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o‘rinlari qanday o‘qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O‘qituvchi ayrim tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni qanday o‘qish kerakligini izohlagach, o‘quvchilar matnni navbat bilan o‘qishadi. O‘qituvchi ularni kuzatib, to‘g‘rilab boradi”.

O‘qituvchi so‘zni risoladagidek o‘qishni, so‘zlarni o‘qish vaqtida intonatsiya va urg‘uga e’tibor berishni, jumlalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni o‘rgatsa, o‘quvchilarning o‘qish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga o‘zgaradi.

R.A.Yo‘ldoshev, L.R.Mirjalolovalarning fikricha, “Nutqiy kompetensiya deganda bilim → nutqiy birlik → ko‘nikma → malaka chizig‘idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu erdagi bilim nutqda

bexato yoki xato qo‘llanadigan, shuningdek, o‘quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog‘lanadi, asosiy e’tibor, ayni shu til hodisasini amalda to‘g‘ri qo‘llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o‘zlashtirish, nutqda qo‘llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko‘nikma asta-sekin malakaga aylana boradi.

Ilmiy, metodik adabiyotlar va tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holda, ushbu atamani quyidagicha izohladi: nutqiy kompetensiyani rivojlantirish – bu ona tili darslari jarayonida o‘quvchining o‘z nutqida leksik, grammatik, so‘z yasalishi, sintaktik, uslubiy me’yorlarga amal qilishi, tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozishni mukammal o‘rganishi natijasida hosil bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning nutqiy vaziyatlarda o‘rinli va amaliy qo‘llay olish layoqatidir. Ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga sub’ektiv munosabat bildirish, turli nutqiy jarayonlarda o‘zining qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lish, og‘zaki va yozma nutqi rivojlanishining yuksak darajasi takomilidir.

O‘qish texnikasini egallashda takror o‘qish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta o‘qilgan matn o‘quvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. O‘qish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yo‘naltiradi. Muntazam kitob o‘qish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni o‘zida tarkib toptiradi. Binobarin, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin:

– o‘quv dasturida berilgan mavzular bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

– o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

– mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o‘stirish;

– ona tili darsligida berilgan matn va lug‘at ustida ishlashni muntazam olib borish;

– ona tili mashg‘ulotlarida ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bog‘lanishli matn tuzish va yozish malakalariga e’tibor qaratish;

– ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Demak, ona tili darslarida o‘quvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri og‘zaki va yozma nutqini adabiy til me’yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, o‘quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat’iy o‘zlashtirilishi natijasida, nutqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, o‘quvchilarda tinglab tushunish, eshitish, so‘zlash, yozish ko‘nikmalarining subyektiv munosabat bildirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish, ta’lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, so‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga tatbiq qilingan 10-11-sinf “Ona tili” darsliklari shakl va mazmun jihatdan yangilandi. Mazkur darsliklarning o‘quvchilar uchun afzal tomonlaridan biri mavzular bosqichma-bosqich berilgan bo‘lib, nazariy ma’lumotlar keyingi mavzularni o‘rganish uchun asosiy o‘rin tutgan.

10-sinf “Ona tili” darsligida nutq uslublari, morfologik ko‘rsatkichlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari uslubiyati, har bir uslubga xos bo‘lgan leksik va morfologik, sintaktik birliklarning ishlatilish o‘rinlari, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, undalma va kirishlar, qo‘shma, ko‘chirma, o‘zlashtirma gaplar uslubiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan. 11-sinf darsligida esa, nutq va uning madaniyligini ta’minlovchi kommunikativ sifatlar yuzasidan umumiy tushunchalar, nutq kommunikativ sifatlarining har biriga tegishli alohida nazariy ma’lumotlar hamda mavzularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar berilib, turli lug‘atlardan og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi so‘zlar izohi, tilimizga kirib kelgan yangi so‘zlar ma’nosi keltirilgan [Mahmudov, 2005;49].

Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish innovatsion metodlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, ona tili darslarida innovatsion,

interfaol ta’lim texnologiyalar (“Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar ustida ishlash” metodi, “Onlayn topshiriq berish” metodi, “Savodxon” metodi, Grammatik-assotsiativ metod, va “Qiziqarli taqdimot”, “Zukkolik”, “Subyektiv munosabat”, “Ma’nosiga izoh”, “Bahs-munozara” o‘yinlari) tushunib so‘zlash, ifodali o‘qish, adabiy til me’yorlariga amal qilib yozma nutqini o‘stirish uchun samarali natijalar beradi.

Shuningdek ona tili darslarida [Turdiyev, 2015: 8]:

- “Savodxon” metodi yordamida imloviy me’yorlarni aniqlashtirish;
- “Grammatik-assotsiativ metod” metodidan foydalanib o‘quvchilarni mavzu doirasida tilshunoslik asoslari bo‘yicha grammatik qoidalar negizida matn turlarini tuzish va yozish;
- “Onlayn topshiriq berish” metodi vositasida masofaviy ta’limda lingvistik kompetensiyalar negizida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- “Qiziqarli taqdimot” o‘yinini o‘tkazish orqali rasmiy matnning rekvizitlariga rioya qilib tuzish; bahs-munozara asosida davra suhbatini tashkil etish;

Darsliklarni o‘rganib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga asosli ravishda ona tili darslarida o‘quvchilarning erkin so‘zlash qobiliyatining to‘liq holatda rivojlanmagani, tinglovchi va so‘zlovchining nutqiy vaziyatlarda tilning turli sath birliklari, leksik, morfologik, sintaktik birliklarini qo‘llash mahorati, adabiy til me’yorlariga muvofiq mustaqil matn tuzish va yozish ko‘nikmalariga etarli darajada ega emasligini inobatga olgan holda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun, ularda nutqning madaniyligini ta’minlovchi kommunikativ sifatlari nutqida ishlatishni mukammal o‘rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston.2016. – 14b

3. Mahmudov M.Bolalarning o‘quv maqsadi– ta’limni ilmiy loyihalash omili// Xalq ta’limi. –2005. –№5. –49 b

4. Sariyev Sh.U. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish nazariyasi va amaliyoti (1-, 2-sinf materiallari misolida)): Ped. fan. nomz. diss. –T.:2020.

5. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.

6. Yusupova Sh.J. Ona tili talimi samaradorligini oshirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Ped. Fan. Nom-di diss. - Toshkent: TPDI, 1998.

7. Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan doktori … diss.- Toshkent: TDPI, 2005.

8. Hamroyev G‘.H. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss.... – Samarqand: 2019.

9. Turdiyev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. -T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2015.- 8 b.

10. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo‘llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – 9 b.

MAKTAB DARSLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH – ZAMON TALABI

Umida Badriddinova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktab darsliklarini takomillashtirish, o‘quvchilarni bir soatlik dars davomida lingvistik bilimni kontekstda berish orqali bilim saviyasini oshirish, mavzuga mos tanlangan matn bilan ishlashga o‘rgatish xususida so‘z yuritilgan. Matn asosida

tuzilgan topshiriq, savol, testlar, qiziqarli o‘yinlar orqali o‘quvchini ijodiy fikrlashga o‘rgatish mumkinligi misollar orqali isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik bilim, interfaol metod, darslik, nutqiy faoliyat, lingvodidaktik vosita, nutqiy ko‘nikma.*

Bugungi yoshlarni har tomonlama yetuk tarbiyalash, mamlakatimiz taraqqiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tarbiya bilan ta’lim doim uzviy bog‘liq, muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor samarasi kundan-kunga ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Albatta, chet tilini bilish – zamon talabi, ammo ona tilini bilishni majbur qilish kerak! Farzandlarimiz chet tilini bilishi kerak, ammo ona tilini bilishga majbur! Mening bolam chet tilini biladi, lekin o‘zbek tilini bilmaydi – deyish yangi O‘zbekistonga to‘g‘ri kelmaydi! …Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir [1.3], – degan fikrlarida jon bor. Biz kelajakda o‘z tilimizni dunyoga tanitadigan, uning rivoji uchun o‘z qobiliyatlarini, iste’dodini ishga soladigan farzandlarni tarbiyalayapmiz.

Bugungi kundagi darsliklarimiz ham zamon talabiga qarab o‘zgarib bormoqda va bundan so‘ng ham o‘zgarib, takomillashib bormog‘i lozim. Chunki insonning fikrlash darajasi o‘zgarmoqda, zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Darslik ham shu talablarga javob bermog‘i zarur. Darsliklardagi matnlar va topshiriqlar bir-biriga bog‘liq bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lingvistik bilimni kontekstda berish orqali o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanadi, nutqiy ko‘nikmalari shakllanadi. Bu tajribada sinaldi va o‘z isbotini topdi. Quyida bunga misollar keltiramiz (6-sinf uchun):

Istiqlol orzusi

Bu mavzuda o‘rganamiz

Tarixga bir nazar, bugungi kundagi o‘zgarishlarga munosabat, sonlarning imlosi va gapda qo‘llanilishi, jadidlarning o‘zbek tili rivojiga qo‘shgan hissasi haqidagi ma’lumotlar, fikrni dalillar bilan asoslash.

Quyida rasmlari keltirilgan maskanlardan qaysi birida bo‘lgansiz?

1-topshiriq

Rasmlarni so‘zlar bilan to‘ldiring.

2-topshiriq

Matnni o‘qing va unga sarlavha qo‘ying.

Suverenitetimiz belgisi

Jadidlar **XIX** asr oxiri – **XX** asr boshida Rossiya imperiyasida musulmon **modernist** islohotchilari bo‘lgan. Ular o‘zini “taraqqiyparvar”, “ziyoli” yoki faqat “yoshlar” deb atagan kishilar edi. Garchi harakat ichida jiddiy mafkuraviy kelishmovchiliklar bo‘lgan bo‘lsa-da, ta’lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda “usul ul-jadid” yoki “yangi usul”ni tatbiq qilish va rivojlantirishga intilgan. Ma’lum bo‘lishicha, mashhur jadid va yoshlarning sevimli yozuvchisi Cho‘lpon **1910**-yilda **o‘n uch** yoshda, Behbudiyning

yoshi esa **o‘ttiz**dan oshiqroq bo‘lgan. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo‘lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikga uchramagan bo‘lsin. O‘zlikni anglash, milliy g‘ururni tarbiyalash, tarixiy muammolardan biri – ajdodlarimizning o‘z erki, Vatan ozodligi yo‘lida mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan kurashlari tarixidir.

Mana necha yildirki, tinchlik-osoyishtalik, mustaqillik ne’matida yashab kelmoqdamiz. Bu kunlarni ko‘rish orzusida **bir** necha avlod vakillari umid va hasratda dunyodan o‘tib ketishdi.

Istiqlol ne’mati tufayli bugun insoniy qadriyatlarimizning asosini tashkil etgan Islom dini ta’limotlaridan elimiz yana bahramand bo‘la boshladi. **Minglab** masjidlar ochilib, mo‘min-musulmonlar ixtiyoriga topshirildi, **o‘nlab** diniy ta’lim muassasalari barpo qilinib, u yerda yoshlar diniy va dunyoviy fanlardan tahsil olmoqdalar. **Yuzlab** ziyoratgohlar ta’mirlanib, diniy idora ixtiyoriga topshirildi. Har yili hukumatimizning ko‘magi bilan **minglab** vatandoshlarimiz muborak Haj va Umra ziyoratiga borib kelmoqdalar.

Mustaqillik yillarida diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni ta’minlashda olib borilgan izchil tadbirlar natijasida bugun yurtimizda **130 dan** ortiq millat vakillari, **2200 dan** ortiq diniy tashkilotlarning diniy bag‘rikenglik asoslariga rioya qilgan holda o‘zaro tinch-totuvlikda umrguzaronlik qilayotgani so‘zlarimizning yaqqol dalilidir.

Shubhasiz, Alloh taolo o‘zi nazar solib turgan bu jannatmakon diyorimiz bugun dunyodagi eng tinch va obod yurtlardan biri bo‘lib turibdi. Bunday ulug‘ ne’matning qadriga yetish, Vatanning koriga yarash, shu maskanda yashayotgan har birimizning burchimizdir, azizlar. Zero, biz o‘z farzandlarimizga hamma narsaning eng afzalini, yaxshisini ilinamiz. Unutmaylikki, barcha yutuqlar va yaxshiliklar tinchlik, osudalik bo‘lsagina qo‘lga kiritiladi. Tinchlik qaror topgan yurtda xotirjamlik hukm suradi, oqibatda, jamiyatda har tomonlama yuksalish va rivojlanish ro‘y beradi.

Shuning uchun barchamiz ona Vatanimizdagi tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga yetib, shu farovon, osuda hayotni yanada mustahkamlash uchun o‘z hissamizni qo‘shib, el-yurt taqdiri, kelajagi uchun qayg‘urib umrguzaronlik qilaylik.

3-topshiriq

Siz nimalarni orzu qilasiz? Matnga shaxsiy munosabatingizni yozma ravishda bayon qiling.

Unli bilan tugasa: Ikki-nchi = ikkinchi Olti-nchi = oltinchi **Undosh bilan tugasa:** Bir-inchi = birinchi Sakkiz-inchi = sakkizinchi 5-(inchi) gul 12-(inchi) kitob	

4-topshiriq

“Modernist” so‘zi o‘rnida yana qaysi so‘zni ishlatsa bo‘ladi?

5-topshiriq

Matndan gaplarning 2-darajali bo‘laklarini toping.

6-topshiriq

Matnda ishtirok etgan sonlarni ajrating va ularga qanday qo‘shimcha qo‘shilganiga e’tibor bering.

Mashq

Jadidlar davrida yaratilgan quyidagi asardan olingan parchadagi qo‘shimchalarni bugungi kundagi muqobilini topib, daftaringizga ko‘chiring.

Boy: So‘zlashib o‘lturing, taqsir.

Domulla: Xo‘b, xo‘b, boyvachcha katta bo‘lubdur, Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o‘qiydur, yoingki, eski maktabga?

Boy: Ikkisiga ham bormaydur.
Domulla: O‘z hovlingizda o‘qutaturg‘onsiz?
Boy: Yo‘q, yo‘q. Men o‘g‘limni o‘qutmoqg‘a o‘ylaganim yo‘q.
Domulla: Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysuz? Vaholangki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur [3.2].

Juftlikda ishlang. Bobo-buvingiz yoki ota-onangizdan so‘rang. Dialog matnini yozing.

1. Siz istiqloldan necha yil oldin tug‘ilgansiz?
2. Bolaligingizda nimalarni orzu qilardingiz?
3. Orzularingiz ushalganini qachon his qildingiz?
4. Yurtimizning qaysi tarixiy obidasiga men bilan sayr qilishni xohlardingiz?
5. Istiqlolimiz davrida bo‘lgan o‘zgarishlarni sanab o‘ting.

Ma’lumki, biz o‘quvchilar bilan biror matn ustida ishlash uchun, avvalo, matnning notanish so‘zlarini o‘rganib chiqamiz, keyin unga oid topshiriqlar bajaramiz undan so‘ng esa mustahkamlash uchun mashqlar bajaramiz.

Mashq va vazifaning farqi shundaki, mashq bu mahorat yoki qobiliyatni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan, mashq qilish yoki uni takomillashtirish uchun mo‘ljallangan har qanday ish turi bu faoliyatdir, vazifa esa o‘z vazifalarining bir qismi sifatida bajarilgan ishdir, vazifani tayinlash yoki vazifani yuklash paytida rivojlanish uchun mashq qilish jarayonidir [Wikidiff sayti]. Ushbu ta’rif Wikidiff saytida keltirilgan bo‘lib, yuqoridagi fikrlarga yanada aniqlik kiritadi. Ya’ni, mashq bu qobiliyatimizni rivojlantirish uchun berilgan topshiriq turi, uni takomillashtirish uchun mo‘ljallangan ish turi faoliyat, rivojlanish uchun berilgan ish turi vazifadir.

Umuman olganda, darslik har bir o‘quvchining qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, rivojlantirishga xizmat qilmog‘i darkor. O‘quvchi va o‘qituvchini birgalikda ishlashga chorlamog‘i lozim. Shundagina ta’lim tizimimizda yangilanish va oldinga siljish ro‘y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr “Murojaatnoma” sidan
2. https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/
3. Беҳбудий “Падаркуш” “Шарқ юлдузи”журнали1989 йил.

4. К.Мавлонова. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.ф.д.дисс. (PhD). – Тошкент, 2019.
5. Ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi loyihasi. – Toshkent, 2020.

O‘ZBEK BOLALAR ANTROPONIMLARINING KONNOTATIV XUSUSIYATLARI

Gulnoza Abdurahimova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Annotatasiya

Maqolada bolalar nutqidagi antroponimlarning konnotativ xususiyati tahlil qilinadi. Laqablarning leksik jihatdan bolalar nutqida qo‘llanilishi, adresant tomonidan lisoniy birliklarga qo‘shimcha ma’no, rang, bo‘yoqdorlik, nutqning ta’sirchanligi konnotatsiyani yuzaga keltirishi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *Konnotatsiya, bolalar nutqidagi qo‘llangan laqablar, leksik konnotatsiya, varvarizmlarning laqabga aylanishi.*

Inson tashqi olamni til orqali aks ettirish jarayonida tuyg‘ulari, kechinmalari va unga bo‘lgan munosabatini chetlab o‘tolmaydi. Bu jarayonlarga adresant tomonidan lisoniy birliklarga qo‘shimcha ma’no, ma’no ottenkalari qo‘shilib boradi. Tilshunoslikda mana shunday qo‘shimcha ma’nolar, ma’no ottenkalari umumiy nom bilan konnotatsiya deb yuritiladi. O.S.Axmanova konnotatsiyaga quyidagicha tavsif berdi: “…konnotatsiya qo‘shimcha ma’no, rang, bo‘yoqdorlik. So‘zning asosiy ma’nosi ustiga qo‘yilgan, turli xildagi ekspressiv-ijtimoiy baho obertonlarini ifodalashga xizmat qiluvchi ma’no, so‘zga hamroh bo‘lgan semantik yoki stilistik ottenkalardir” [Qurbonova, 2018]. A.V.Fillipovning fikricha, konnotatsiya lisoniy birlik semantikasiga kiruvchi va uni to‘laligicha namoyon etuvchi denotativ va grammatik bo‘lmagan ma’no bo‘lib, uni emotsional, uslubiy-stilistik ma’no deb atash lozim [O‘sha manba].

Tavsif va tariflardan ma’lum bo‘ladiki, konnotatsiya tushunchasi keng va tor ma’noda talqin qilinadi. Lingvistik hodisa sifatida

konnotatsiya til tizimining turli sathlariga dahldor. Konnotatsiyani ifodalovchi birliklarning qo‘llanilish darajasi bolalar va kattalarda, erkaklar va ayollarda farq qiladi. Fonetik sathda konnotatsiyaning urg‘u, bo‘g‘in, tovushlar yordamida, morfologik sathida yuklama, lug‘aviy shakl yasovchi grammatik birliklar, modal so‘zlar, yuklamalar, sintaktik sathda ritorik so‘roq gaplar, undov gaplar konnatatsiyani ifodalovchi birliklardir. Ilmiy manbalarda konnotativ ma’noni hosil qiluvchi turli vositalar hamda konnotatsiyaning o‘ziga xos ifodalanish usullari qayd etiladi. Konnotatsiya hodisasini ekspressivlik termini ostida maxsus o‘rgangan

Konnotatsiyaning voqealanishida adresantning til bilimi, lisoniy zaxirasi va undan foydalanish mahorati qatorida, yosh xususiyati muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda bolalar nutqida konnotatsiyaning ifodalanishi, turlari, matndagi o‘rni va ahamiyati o‘zbek pragmalingvistikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Biz konnotatsiyani tadqiq etishda asosiy e’tiborni ma’noning bola nutqi belgilayotgan antroponimga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi makrokomponentga qaratamiz.

Leksemalarda konnotativ ma’no yorqin ko‘zga tashlanadi. Tilning leksik tizimida sinonimik, ontonimik, omonimik, munosabatdagi leksemalar, polisemantik so‘zlar dialektizm, vulgarizm, bo‘yoqdor so‘zlar nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi faol birliklardir. Shu bilan birga, neologizmlar eskirgan so‘zlar ham o‘rni bilan nutqiy konnotatsiyani hosil qilishda ishtirok etadi. O‘zbek tilida ayrim leksemalar til egasining voqelikka munosabati, his-tuyg‘ularini ham aks ettirishi jihatidan ajralib turadi. Leksemaga xos bo‘lgan bunday qo‘shimcha ma’nolar konnotatsiyaning o‘rganish obyekti sanaldi. Bolalar nutqida bunday konnotativ ma’no juda ko‘p hollarda ekspressiv- emotsional bo‘yoqdor so‘zlarning ishlatilishi nutqning ta’sirchanlikni oshiradi. Bolalar nutqida eng serunum qo‘llaniladigan vositalardan biri o‘xshatishdir. O‘xshatish usulida biror narsa-predmet, voqea-hodisa, yoki tushuncha ma’lum bir umumiylikka ega bo‘lgan boshqa narsa-predmet, voqea-hodisa, tushunchaga o‘xshatiladi.

Tilshunoslikka oid ilmiy manbalarda o‘xshatishning leksik va grammatik o‘xshatish turlari bor. Bolalar nutqida esa leksik o‘xshatishlar konnotatsiyaning yorqin na’munasi bo‘la oladi.

Bolaning leksik birliklar orqali konnotativ maqsadni ifodalashda konnotatsiya hodisasi yuzaga keladi.

2. – Bugun darsga kim kelmadi?

– Pakana, Sarig‘, Xanpi (Husniddin 13 yosh)

Yuqoridagi misolimizda Pakana laqabi bolaning tashqi ko‘rinishi jussasining boshqa bollardan kichikligi uchun qo‘yilgan nom bo‘lsa, Sarig‘ laqabi bolaning rang tusiga qarab unga berilgan laqab, Xanpi laqabi esa ijtimoiylashuvdan kelib chiqqan nom. Biz uchun esa o‘zgacha nomlash usuli bo‘lganligi uchun va nutqiy ta’sirchanlik kuchliligi sababli konnotatsiyani yuzaga keltirgan.

1. Bu *Pismiq*dan hich gap ololmiysan, g‘ing demiydi, *Sergap*dan so‘rash kerak. Urish o‘zi nimadan chiqdi, kim boshladi. Oqizmay-tomizmay hammmasini gapirib beradi. (Bekzot 12 yosh)

Pismiq laqabini olgan bolamiz tengdoshlari orasida fe’l-atvoriga qarab qo‘yilgan nom bo‘lib, o‘ta kamgap, o‘zini ishini bilib-bilib qiladigan, boshqalarning ishiga aralashmaydigan, ortiqcha gap gapirmaydigan taassurot uyg‘otgan bola bo‘lganligi uchun unga qo‘yilgan laqab bo‘lsa, Sergap nomini olgan bola o‘ta ko‘p gapiradigan, hamma narsani nazardan chetda qoldirmaydigan va ehtiros bilan rollarga kirib, voqeani jonlantirib aytadigan bola bo‘lgani uchun sinfdoshlari tomonidan unga berilgan nom. Bola biror voqea hodisani gapirayotganda o‘sha voqeani ichiga kirib ketadi. Uning nutqidagi ohang, hayajon, kulminatsiya qismini berilib gapiradi. Uning nutqini eshitgan inson bolaning emotsiyaga berilganligini, nutqiy ta’sirchanlikni yuzaga kelayotganini ko‘rish mumkin. Bu esa konnotatsiyani yuzaga keltiradi.

2. – Sinfda kim yo‘q?

– Oppog‘oy (Shohida)

– Nega? Nima bo‘ldi?

– Kasal, issig‘i chiqyapti ekan. (Nurlibek 12 yosh)

Sinfdoshlari tomonidan Shohida ismli qizga “oppog‘oy” laqabining qo‘yilishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bir tadbirda “Oppog‘oy va yetti gnom” ertaginining qo‘yilishi, bu ertakdan keyin ustozi uni oppog‘oy deb chaqirishi bolalar ham katta insonning nutqi ta’sirida o‘zlariga moslashtirib olishi va bu laqabga aylanishiga sabab bo‘lgan. Demak, kattalar nutqi ta‘sirida bola laqablarni obrazlilikka aylantirishi natijasida yuzaga kelgan nom konnotatsiyani hosil qilgan.

3. “Sinfimizda bitta *sichqon* bor. O‘ziyam sichqonga o‘xshiydi, ovozi chiy-chiy qib chiqadi. Darsda hammaga halaqit beradi, o‘ziyam dars qimiydi birovam dars qildirmiydi”. (Dilnura 13-yosh)

Sinfdoshi tomonidan o‘zining tengquriga nisbatan sichqon laqabining berilishi bolaning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lib, sochining tikka-tikka turishi, silliqligi, peshonasiga tushib turishi, ko‘zining qisiqligi gapirganda ovoz tonining ingichka un paychalaridan chiqishi, boshqalarga bu yoqimsiz holat tug‘dirishidan unga qo‘yilgan laqabdir. Sinfdoshlari bu bolaga qaraganda xuddi sichqonni ko‘rgandek bo‘lishi, obrazlilikka berilishi va bundan ta’sirlanishi konnotatsiyani yuzaga keltiradi.

Bolalar nutqida uchraydigan laqablarning xarakter xususiyati tomonidan tengqurlariga qo‘yilgan nomlar: tulki, chayon, urishqoq, shallaqi, qishloqi. Bu nomlar bolalar tomonidan ularga nisbatan boshqalarning taassurotlari bilan bog‘liq bo‘lib, tulki ayyorlik, mug‘ombirlik xususiyatiga ega bo‘lgan bolaga nisbatan, chayon har gapida chaqib, kesatib zaharxandalik bilan javob qaytaradigan fe’l-atvor egasiga nisbatan, urishqoq, shallaqi arzimagan narsaga janjal qiladigan, o‘zini haq deb biladigan, bitta gapdan qolmaydigan, o‘zining so‘zini tengqurlariga o‘tqazadigan xarakter egasiga qo‘yilgan nom bo‘lsa, qishloqi laqabi tengqurlariga nisbatan zamondan ortda qolgan zamonaviy narsalardan bexabar bolaga qo‘yilgan nomdir. Bolalar nutqida bunday laqablarning uchrashi obrazlilikni, ta’sirchanlikni yuzaga keltirishi natijasida konnotatsiyani yuzaga chiqaradi.

Bolalar nutqida uchraydigan laqablarning tashqi ko‘rinish jihatidan tengdoshlariga qo‘yilgan nomlar: Bo‘virsoq, quyon, semiz, Jassi, qiltiriq. Bo‘virsoq laqabining qo‘yilishi xamirday yumshoq, oppoq, do‘mboqqina, lekin tez harakatchan ko‘rinishga ega bo‘lgan bola bo‘lganligi uchun tengdoshlari tomonidan o‘ylab topilgan nom. Bunda bola bo‘g‘irsoq obrazini o‘zining tengqurida ko‘rganligi uchun unga shu nomni berish orqali nutqida konnotatsiyani yuzaga keltirgan. Quyon oppoqqina, momiqqina, yumshoq, yoqimtoy jonivor bo‘lganligi uchun, bu obraz bolaning tashqi ko‘rinishini shu jonivorga o‘xshatganligi uchun, unga shunday nom beradi. Semiz laqabining berilishi o‘zining tengqurlariga nisbatan vazni ancha kattaligiga nisbatan qo‘yilgan laqabdir. Jassi laqabi hind kinosidagi

qahramon qizning katta ko‘zoynak taqqanligi, tishlarida temir qisqichlarning qo‘yilganligi, kulganda uning ko‘rinishi yanada yoqimsiz tusga kirishini o‘zining tengdoshida ko‘rganligi uchun shunday laqab qo‘yilgan. Bolalarda obrazga kirib ketish, emotsiyaga berilish, ta’sirchanlikning kuchliligi natijasida g‘ayri oddiy nomlarning qo‘yilishi konnotatsiyani yuzaga keltiradi.

Bolalar nutqida ayrim varvarizmlarni qo‘llash orqali konnotativ ma’no yuzaga keladi:

Sinfimizi *Delavoyi* bugun yana Sayyorapadan gap eshitdi. (Saidikrom 15 yosh)

Bola delavoy laqabining berilishi tengqurlariga nisbatan o‘zini katta tutishi, gapirish ohangida o‘ziga ishonadigan, boshqalarni nazar pisand qilmaydigan, eng zamonaviy kiyimlarni, narsalarni kiyadigan, o‘zini hammadan zo‘r deb biladigan bolaga nisbatan qo‘yilgan nom bo‘lib, tengdoshlarining orasida shunday obrazni yaratganligi konnotatsiyani yuzaga keltirgan.

1. *Shakal* 2 kunnan beri kichik sinfdagi qizlarni orqasidan poylidi. Chota bir gap bor. (Nigina 15 yosh)

Shakal laqabini olgan bola maktabning eng bezori bolasi bo‘lib, undan hamma qo‘rqadi. Butun maktab bollarning boshlig‘i uni ko‘rganda hamma undan qochadigan, qiz bolalar undan bezor bo‘lgan bolaga qo‘yilgan nom. Bu nomning berilishi uning xarakter xususiyatidan kelib chiqqan laqab bo‘lib, ko‘cha tarbiyasini olgan jinoyatchilikka moyilligi bor bo‘lgan fe’l-atvor egasi. Unga qo‘yilgan laqabda qo‘shimcha ma’no, rang bo‘yoqdorlikning kuchliligini ko‘ramiz. Bu esa konnotatsiya yuzaga keltirgan.

2. *Shurikning* harakteri shunaqa o‘zi hich narsani bilmiydi-yu, o‘zini hamma narsani biladigandey tutib ustoz bilan bahslashadi, keyin ustozi jahli chiqadi. (Go‘zal, Gulchehra 16 yosh)

Bolaga Shurik laqabining berilishi tashqi ko‘rinishining rus kinosidagi Shurik ismli qahramonga o‘xshab ketishi, sochining och tusda ekanligi, ko‘zining rangi ko‘kligi, ko‘zoynak taqishi va ozgina laqmaligi, kinodagi qahramonni estatishi Shuhrat ismli bolaning tashqi ko‘rinishi, fe‘l-atvorida obrazlilikni yuzaga keltirganligi uchun ham konnotatsiyani hosil qilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bolalar nutqida konnotatsiyani hosil qilishda laqablar, neologizmlar, varvarizmlar,

sinonimlar adabiy til me'yorlaridan chekinsa ham, ulardan unumli foydalanadilar va nutqning ta'sir kuchini, obrazlilikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ходжаян. Т. Коннотативные особенности цветообозначений в современном немецком языкею.// https://google.co.uz
2. М.Курбонова. Ўзбек болалар нуткиниг прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз ...дисс. Тошкент,2018.
3. Бегматов Э.А. Узбек тили антропонимикаси: ЎзФа. Фан – Тошкент, 2013.
4. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси Т.2017.
5. Қиличев Э. Лақаблардаги номинотивлик // Хива, 1991,
6. Бектемиров Х. Номларнинг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1992.

TEST – BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQ

Feruza Muratova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limida lingvistik bilimlar, nutqiy ko'nikmalar hamda savodxonlikni baholashda test topshiriqlarining tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan, testlardan namunalar keltirilib, tahlilga tortilgan, xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: *test, test turlari, test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar, baholash, nutqiy ko'nikma, lingvistik bilim.*

Umumta'lim tizimida ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyatga ega masala sanaladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning

bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz” [Mirziyoyev, 2016:14], – degan so‘zlari ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liq yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ona tili fani ham tajriba va izlanishlar asosida rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida shuni aytib o‘tish kerakki, rivojlangan malakatlardagi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘z milliy qadriyatlarimiz nuqtayi nazaridan tahlil etib, ta’lim jarayoniga joriy etish ham lozim. Ana shunday pedagogik texnologiyalardan biri test topshiriqlari bo‘lib, test yordamidan ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari baholanibgina qolmasdan, egallagan bilimlarini mustahkamlash, fikrlash qobiliyatarini rivojlantirish ham mumkin.

O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, egallagan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi test topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish metodikamiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Test topshiriqlarini ishlab chiqishning nazariy-metodik asoslari esa o‘zbek olimlarining ilmiy tadqiqotida aks etgan. K.Jalilov, M.Zakirova, N.Ermatova, Z.Mirvaliyeva va boshqalar test turlari, test topshiriqlariga qo‘yiladigan talablar, test tuzish metodikasini o‘z tadqiqotlarida o‘rganib, nazariy-amaliy metodlarini tavsiya qilganlar.

K.Jalilov “Baholash nazariyasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida: “Test-baholanishi lozim bo‘lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig‘indisi ”, – deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, test bilim, ko‘nikma va malakalarni baholovchi topshiriqdir. Test yordamida o‘quvchi egallagan bilimlar baholanadi. O‘quvchi bilim, axborot va ko‘nikmalarni qay darajada o‘zlashtirgani aniqlanadi.

Mahalliy manbalarda test topshiriqlari maqsadi, qo‘llanilish o‘rni va shakliga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi:

1-yopiq turdagi testlar;

2-ochiq turdagi testlar.

K.Jalilov esa “Baholash nazariyasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida yopiq testlarning bir necha turlari mavjudligini ta’kidlab o‘tgan. Ular quyidagilar:

1) muqobil javobli;

2) to‘g‘ri-noto‘g‘ri shaklli;

3) moslashtirish testlari;

4) ketma-ketlikni topish testlari.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ochiq test topshiriqlarning quyidagi turlari sanab o‘tilgan:

1) qisqa javobni talab qiluvchi;

2) kengaytirilgan javobni talab qiluvchi;

3) amaliy test topshirig‘i.

Ona tili ta’limida yuqorida sanab o‘tilgan test topshiriqlaridan samarali foydalanish mumkin. Barcha turdagi test topshiriqlari ma’lum bir maqsadga xizmat qiladi.

Maktablarda test, odatda chorak oxirida, yil yakunida, imtihonlarda olinadi. Ammo testlardan ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirayotganda ham foydalanish va hatto har bir mavzuda ham test topshiriqlari berilib, mavzuni o‘quvchilar puxta o‘zlashtirib olishlari uchun xizmat qilishiga erishish mumkin.

Ma’lumki, test bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash uchun, ya’ni ma’lum bir maqsadda o‘tkaziladi. Undan o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatini, qo‘yilgan ta’limiy maqsadlarga erishilganlik darajasini aniqlash uchun foydalaniladi.

Testni qo‘llash natijasida ta’limda va jamiyatda o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Turkiya, AQSH kabi davlatlarda testdan unumli foydalaniladi. Bu mamlakat taraqqiyotida o‘z natijasini ko‘rsatib kelmoqda.

Test topshiriqlari mukammal bo‘lishi uchun, ularni tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish darkor:

1. Test topshiriqlari mazmunining o‘quv maqsadiga muvofiqligi. Test topshiriqlarining mazmuni aniqlashtirilgan o‘quv maqsadiga mos bo‘lishi kerak. O‘quv maqsadlari majmuyi iyerarxik tuzilishiga ega bo‘lganligi bois yaqin maqsadni amalga oshirmasdan, umumiy maqsadga erishish imkoniyati yo‘q. Har bir test savoli ma’lum bir o‘quv maqsadining amalga oshishini ta’minlashi darkor.

2. Materialning ahamiyatliligi. Test savollariga o‘quv materialining eng muhim va asosiy qismlarini kiritish lozim, chunki mavzular to‘liq qamrab olinmagan bo‘lishi mumkin. Test topshiruvchining nazariy qoidalarni alohida holda qo‘llashni qanchalik o‘zlashtirgani, tafsilotlarni bilishi esa nazariy asoslarni

tushuntira olish qobiliyatlari uning umumiy holdan xususiy xulosaga kelishi va ayrim dalillardan umumiy xulosa chiqara olishida bilinadi.

3. Ilmiy aniqlik. Testga mulohaza, bilim asosida dalillash mumkin bo‘lgan haqqoniy ma’lumotlar kiritiladi. Test topshiriqlari avvaldan ma’lum bo‘lgan, aniq javobni talab qiladi.

4. Izchillik. Testdagi savollar muayyan bir fanga oid bo‘lishi hamda umumiy mohiyatiga ko‘ra bog‘liq bo‘lishi kerak. Bir topshiriq javobining umumiy test natijalariga nisbatan munosabatida izchillik ko‘rinadi.

5. To‘kislik va uyg‘unlik. Mavzu va qismlarga nisbatan testdagi topshiriqlarning umumiy soni teng taqsimlanishi kerak.

6. O‘zlashtirish darajasiga ko‘ra tabaqalashganlik. Tuzilgan test savollari o‘quv materailining ma’lum bir tarkibiy qismiga oid o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlardan iborat bo‘lishi darkor.

7. Samaradorlik (kummulyativlik). Test topshiriqlari borgan sari murakkablashib boradi. Bu qat’iy talab hisoblanmaydi, chunki zamonaviy kompyuter test tizimida ta’lim oluvchilarga keyingi test topshirig‘i, oldingisini qanday yechganiga qarab berib boriladi. Ya’ni oldingi savolga berilgan noto‘g‘ri javobdan keyin, unga nisbatan qiyin bo‘lmagan test topshirig‘i beriladi.

8. Til ravonligi va aniqligi. Test topshiriqlarida so‘zlarni qo‘llashda ahamiyatli bo‘lish talab etiladi, ya’ni ko‘p ma’nolilik va noaniqlikka yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Ixchamlik. Test topshiriqlarining matni hajman ko‘p bo‘lmasligi kerak.

10. Vaqtning qat’iy belgilanishi. Test topshirig‘ini yechish uchun kerak bo‘ladigan vaqt 2 daqiqadan ortiq bo‘lmasligi darkor.

11. Murakkablik me’yori. Test topshiriqlari oddiy axborot berib qolmasligi, javobi ochiq ma’lum bo‘lmasligi kerak. Nisbatan samarali test topshiriqlarining natijasi yarmiga teng (Pq0,5) bo‘ladi va o‘quv materialini o‘zlashtirmagan yoki puxta tayyorgarlik ko‘rmagan ta’lim oluvchini aniqlashni yengillashtiradi. Abituriyentlarni saralash, bitiruv imtihonlari uchun tayyorlangan test topshiriqlarini o‘quv dasturini to‘liq o‘rgangan o‘quvchilarning 50 foizi bajara olishi kerak. Test topshiriqlarini tayyorlashda mana shu

talablar hisobga olinishi kerak. Muallimlar tomonidan o‘z sinfi uchun tayyorlanadigan test savollarida esa 85 foiz ko‘rsatkich olinadi.

12. To‘g‘ri javobda qo‘shimcha belgilarining mavjud emasligi. To‘g‘ri javob boshqa javoblarga nisbatan kengroq yoki batafsilroq bo‘lishi kabi hodisalarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki talabalar buni oson anglab oladilar. Javobni ham shu belgiga ko‘ra aniqlaydilar.

13. Variativlik. Muayyan bir mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun bir o‘quv materialiga oid bo‘lgan mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari, murakkabligiga ko‘ra turlicha test topshiriqlari tuzish mumkin. Bunda bir o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida topshiriqlar turkumini ishlab chiqish imkoni paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham kompyuter testlar tizimi topshiriqlarning variativlik xususiyatiga asoslangan. Bunda kompyuter navbatdagi topshiriqni oldingi savolga berilgan javobga qarab tanlaydi.

14. Shaklan va mazmunan o‘zaro bog‘liqlik. Test savollari shaklan va mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak.

Test topshiriqlari yuqoridagi talablar asosida tuzilsa, ta’lim oluvchilarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini haqqoniy hamda aniq o‘lchash xususiyatlari ta’minlanadi. Test ma’lum bir bilim, ko‘nikma va malakalarni baholashga mo‘ljallangan ekan, u o‘z qonuniyatlari doirasida tuziladi. Xususan, yopiq test topshiriqlari bilish, ya’ni ma’lumotni eslab qolish, ba’zan tushunish va qo‘llash kabi quyi darajadagi ko‘nikmalarni tekshirish uchun xizmat qiladi, deb hisoblashadi. Ammo yopiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi bilim va ko‘nikmalarni baholashda foydalanish, o‘quvchilarni fiklashga undovchi materiallar berilishi mumkin. Matn, rasm, jadval va shu kabilar.

Passiv til ko‘nikmalari o‘qib tushunish, tinglab tushunishni tekshirishga qaratilgan testlar o‘qilgan yoki eshitilgan matnning ma’nosini anglash, ma’lumotlarni tushunish, yashirin fikrlarni ilg‘ash singari ko‘nikmalarni tekshiradi.

Faol til ko‘nikmalarini tekshirishga qaratilgan testlar gapirish va yozishni, ya’ni og‘zaki va yozma nutq hosil qilish ko‘nikmalarini aniqlaydi.

Kombinatsiyalashgan testlar bir paytning o‘zida bir necha ko‘nikmalarni tekshirishi mumkin. Xususan, o‘quvchilardan biror

matnni tinglab, uni mazmunini yozish talab qilinsa, tinglab tushunish va yozish ko‘nikmalari tekshiriladi.

Quyida keltirilgan matn asosida tuzilgan test topshirig‘i yordamida esa o‘qib tushunish va yozish ko‘nikmalarini tekshirish mumkin.

Vijdon

Barchinoy sinfdoshi Chechak bilan maktabga borar edi. Ular yo‘l-yo‘lakay dars mashg‘uloti haqida suhbatlashib ketardi. Bexosdan Barchinoyning hamyoni yerga tushib qoldi. Qizlar buni sezishmadi.

Sinfdoshlari Erkin va Esonboy ham Barchinoy va Chechakdan keyin maktabga ketishayotgan edi. Erkin hamyonni tushib qolganini ko‘rib, Barchinoyni ogohlantirimoqchi bo‘ldi, biroq Esonboy uni to‘xtatdi, Barchinoyni ogohlantirishiga yo‘l qo‘ymadi. U Barchinoyning hamyonini olib sumkasiga solib qo‘ydi. Chunki kechagina tanaffus vaqtida Barchinoy bilan qattiq bahslashib qolishgandi. Shuning uchun Barchinoyni hamyonni qidirib ovora bo‘lishini xohladi. Bu bilan undan alamini olmoqchi bo‘ldi.

Sinfdoshlar maktabga yetib borishdi. Darslar boshlandi, ular mashg‘ulotlarda ishtirok etishdi. Tushlik vaqtida hamma o‘quvchilar oshxonaga borishdi. Oshxonada xarid qilgan Barchinoy hamyonini topolmay qoldi. U hamyoni yo‘qolganini anglagach, juda xafa bo‘ldi. Hamyonni qidirishga tushgan sinfdoshlar 8-“B” sinfda o‘qiydigan Qizlarbeka ismli qizni savolga tuta ketishdi. Chunki uning hamyoni Barchinoyning hamyoniga juda o‘xshardi. Gap nimadaligini anglab yetmagan Qizlarbeka shoshib qolib, hamyon o‘ziniki ekanligini aytdi. Qizlarbekani bir zum o‘zini yo‘qotib, mulzam ahvolga tushib qolganini ko‘rgan Esonboy bo‘lgan voqeani aytib berdi. Alamini olgach, hamyonni Barchinoyga qaytarib bermoqchiligini ham qo‘shib qo‘ydi.

Matnni tushunish bo‘yicha tuzilgan quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini toping.

1. Hikoyaning boshida Esonboy nima qildi?

A. Sinfdoshlari Barchinoy va Chechak bilan bahslashib qoldi.

B. Erkinni hamyonni olib, yashirib qo‘yishga undadi.

D. Barchinoyning hamyonini olib sumkasiga solib qo‘ydi.

E. Qizlarbekani aybsizligini hammaga aytib berdi.

2. Nega Qizlarbeka hamyonni olmagan bo‘lsa ham, bir zumga o‘zini yo‘qotib qo‘ydi?

A. Qizlarbeka noqulay ahvolga tushib qoldi, chunki uni savolga tutishayotganda shubha qilishayotgan edi.

B. Hamyonini o‘xshashligidan xafa bo‘ldi, chunki hamyoni o‘xshamaganida undan shubha qilishmasdi.

D. Qizlarbeka hamyonni Esonboy olib, sumkasiga solganini ko‘rib, buni hech kimga aytmay sukut saqlaganidan hijolat bo‘ldi

E. Qizlarbeka Barchinoyning hamyonini olib qo‘yib, vaqtida ogohlantirmaganligidan uyatda qoldi.

3. Hikoyaning sarlavhasi qaysi voqeada aks etgan?

A. Esonboy Barchinoydan alamini olishni xohlaganida

B. Esonboy Qizlarbekani aybsiz ekanligini aytib berganida

D. Esonboy Erkinni jim turishga undaganida

E. Sinfdoshlar Qizlarbekani savolga tutib ketishganida

4. Hikoya asosida matn tuzing va unga quyidagi maqollardan birini salavha uchun tanlang.

A. Qasd qilgan past bo‘lar

B. Yaxshi vijdon – Xudoning ko‘zi

D. Gina – adovatning qo‘shnisi

E. Adovat emas, adolat yengar

Mazkur test topshirig‘i bitta javobga ega muqobil test topshirig‘i bo‘lib, u bir paytning o‘zida bir necha ko‘nikmalarni tekshiradi. Bu test topshirig‘i vositasida ona tilida matnni o‘qib tushunish (matn mazmunini, uning grammatik qurilishini, undagi mazmuniy bog‘lanishlarni anglash; matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma’lumotlarni hamda matn yoki uning qismlarining umumiy ma’nosini tushunish) va yozma matn (hikoya veqealari asosida matn tayyorlash, tayyorlanayotgan matnga sarlavha tanlash) tayyorlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

“To‘g‘ri-noto‘g‘ri” shaklidagi test topshirig‘ida berilgan fikrning “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” ekanligi tanlanadi. Bunday testlarda “to‘g‘ri”/noto‘g‘ri, “ha”/”yo‘q”, “qo‘shilaman”/”qo‘shilmayman” shaklidagi javoblardan biri belgilanadi. Bunday test topshirilari savodxonlik darajasi hamda lingvistik bilimlarni tekshirishga xizmat qiladi. Savodxonlikni tekshirishga xizmat qiluvchi test topshiriqlari imloviy xatolarni kamaytirishga ham ko‘maklashadi.

Moslashtirishni talab qiluvchi test topshirig‘ida bog‘liqliklar haqidagi bilimlar tekshiriladi. Bunday testlarda berilgan ikkita ro‘yxat o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslanib, birinchisidagi savollarga ikkinchisidan to‘g‘ri keladigan javoblarni tanlash lozim bo‘ladi. Bunday testlarga quyidagicha misol keltirish mumkin.

I.Quyida berilgan hisob-kitob so‘zlarining qisqartmalarini toping. Har bir javob faqat bir marta ishlatilishi mumkin. A-F javoblardan biri ortiqcha!

Hisob-kitob so‘zlari Qisqartmalar

1. Metr A. min
2. Minut B. m
3. Soat D. s
4. Sentner E. h

F. q

II.Quyida berilgan qoidalarga mos gaplarni toping.

Qoidalar:

1. Gap kesimi tarkibida *edi* to‘liqsiz fe’li ishlatiladi.

2. *Edi* to‘liqsiz fe’li o‘tgan zamonda sodir bo‘ladigan ish-harakatni ifodalaydi.

3. *Edi* to‘liqsiz fe’lining *–di* shaklini ham qo‘llaymiz.

A. Elto‘ra maktabning eng a’lochi o‘quvchilardan biri hisoblanar edi.

B. U fizika fanidan olimpiadaga borishga qaror qilgan emish.

D. Ustozi unga qo‘shimcha darslarga qatnashishi kerakligini aytibdi.

E. Endi Elto‘ra har kuni qo‘shimcha darslarga qatnashar ekan.

Mazkur test topshiriqlarida ham savodxonlik darajasi hamda lingvistik bilimlar tekshiriladi. Shuningdek, gapning grammatik qurilishi bilan mazmunining o‘zaro bog‘liqligini anglashga yordam beradi.

Ochiq test topshiriqlarida ta’lim oluvchi test javobini o‘zi olishi lozim. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qanday javob talab etilishiga qarab ochiq testlar qisqa javobni talab qiluvchi testlar, kengaytirilgan javobni talab qiluvchi testlar, amaliy test topshiriqlari kabi uch turga bo‘linadi.

Qisqa javobni talab qiluvchi test topshiriqlari bilish, tushunish, qo‘llash kabi quyi darajadagi kognitiv til ko‘nikmalarini tekshiradi.

Bunday testlar to‘lisiz gap shaklida bo‘lishi ham mumkin. Ammo ularning so‘roq gap shaklida bo‘lishi foydali.

Kengaytirilgan javobni talab qiluvchi test topshiriqlari yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar, ko‘nikmalar integratsiyasi, mantiqiy fikrlash va fikrni asoslash, muammolarga yechim taklif qilish qobiliyati hamda kognitiv bo‘lmagan ko‘nikmalar (yozma yoki og‘zaki nutq) haqida asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, chet tili testlarida “cloze” (inglizcha “closure”-“yopilish”) testidan ham foydalaniladi. Bunday testlarda test topshiruvchiga matn beriladi, matndagi ba’zi so‘zlar tushirib qoldirilgan bo‘ladi. Test topshiruvchi ana shu tushirib qoldirilgan so‘zlarni topishi lozim bo‘ladi. Test yopiq shaklda (muqobil javoblar berilgan) yoki ochiq shaklda (javoblarsiz) bo‘lishi mumkin. Matndagi tushirib qoldirilgan so‘zlar mexanik tarzda (har nechanchidir, masalan, har oltinchi so‘z) yoki ma’lum bir maqsadga qaratilgan holda (masalan, olmoshlar yoki bog‘lovchi so‘zlar) tanlanishi mumkin [Jalilov, 2020].

Bunday testlarda tilga oid bilimlar, passiv til ko‘nikmalari (o‘qib tushunish, tinglab tushunish) tekshiriladi. Ona tili ta’limida ham shu kabi testlardan foydalanish mumkin. Bunday testlarga quyidagicha misol keltirish mumkin.

Quyida berilgan matndagi nuqtalar o‘rniga mos bo‘lgan sinonim so‘zlar to‘g‘ri qo‘yilgan javobni belgilang.

Go‘zallik

Insonning tashqi ko‘rinishi (1)… bo‘lishi unga baxt olib keladi deb aytishadi. Biroq ko‘pchilik (2) …ning ko‘rkam bo‘lishidan (3)…ning go‘zal bo‘lishini afzal deb bilishadi. Aslida tashqi ko‘rinishning ham, ichki dunyoning ham go‘zal bo‘lishi insonga ato etilgan ne’matlardandir.

A. Suluv, bet, ko‘ngil

B. Go‘zal, yuz, qalb

D. Chiroyli, aft, yurak,

E. Ko‘rkam, chehra, yurak

Ochiq shakldagi “cloze” ga ham quyidagicha misol keltirish mumkin.

Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, test topshiriqlarini bajaring. Quyida nuqtalar o‘rniga qo‘yilishi kerak bo‘lgan

so‘zlarning paronimlari berilgan bo‘lib, ular yordamida mos so‘zlarni aniqlash mumkin.

Mas’uliyatli kasb

Elbek tibbiyot kollejiga o‘qishga kirdi. U (1)…larda faol qatnashib, puxta bilim olishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ydi. Chunki kelajakda o‘qishni davom ettirib, o‘z xizmat (2)… ni sidqidildan (3)… etadigan shifokor bo‘lmoqchi edi. Elbek shifokorlik kasbi odamlarning salomatligini tiklashda muhim bo‘lgani uchun bu kasbni boshqa kasblardan (4)… deb bilardi. U shifokorlikni (5)… (6)… mas’uliyatli
kasb deb hisoblardi. Shuning uchun ham tinmay bilim olardi.

Paronim so‘zlar: darz, burj, ato, abzal, judo, xam.

Mazkur test topshiriqlari yordamida lingvistik bilimlar tekshiriladi. Shuningdek, matnda yoxud nutqda so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish va so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikma va malakalari aniqlanadi.

Xatoni topish (to‘g‘rilash) test topshirig‘ida gap yoxud matndagi xatolar topilishi yoki to‘g‘rilanishi lozim bo‘ladi. Bunday testlardan so‘zlarni qo‘llash, grammatik strukturalarni tekshirish uchun foydalaniladi va bu shakldagi test topshirig‘i yopiq shaklda yoki qisqa javobni talab qiluvchi ochiq test topshirig‘i shaklida bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, test topshiriqlari qanday tur va shaklda bo‘lmasin, asosiysi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini teshirish, natija asosida bo‘shliqlarni to‘ldirish va mustahkamlashga xizmat qilishiga erishishdir. Fikrlash darajasini oshirishga undovchi testlardan ham unumli foydalanish darkor. Bu ta’lim oluvchilarning aqliy qobiliyatini yuksaltiradi, zehnini charhlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiraimov Sh., “O‘qib tushunish malakasini baholash usullari” Til va adabiyot ta’limi Toshkent: 2021.

2. Hojiyev A., O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Univesitetlarning va pedagogika institutlarining talabalari uchun qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 1974.

3. Jamolxonov H. A., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. Toshkent: Talqin, 2005.

4. Jalilov K., Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2020
5. Ma’rufov A., Paronimlar lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
6. Mirziyoyev. Sh. M., Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
7. Shukurov O., Bahriddinova B., O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun. Toshkent: 2006.

BOSHLANG‘ICH SINFDA BADIIY MATNLAR USTIDA ISHLASH

Sevara Bobonazarova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO ‘TAU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matn va uni tahlil qilishdagi yondashuvlar haqida ma’lumot berilgan. 4-sinf ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy hamda lingvistik ko‘nikmalarini shakllantirishda badiiy matnlarning ahamiyati topshiriqlar misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, nutqiy ko‘nikma, badiiy tasviriy vositalar, tasviriylik, she’riy matn, boshlang‘ich sinf.*

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishda badiiy matnlar bilan ishlash o‘ziga xos yondashuv va tamoyillarni talab etadi. Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek, “Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat” [4] . Ona tilini o‘qitishda badiiy matnlarni tahlil qilish orqali til birliklarini aniqlash, tildagi badiiy tasviriy vositalar hamda uslubiy bo‘yoqdor birliklarni topish va matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Avvalo, badiiy matn tushunchasiga to‘xtalsak. J. Lapasov badiiy matnga quyidagicha

ta’rif beradi: “Tasviriylik va hissiylik badiiy matnning asosiy xususiyatlaridandir. Chunki yozuvchi tabiiy va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘lib, shu borliqning mohiyatini ochib ko‘rsatish maqsadida turli-tuman lug‘aviy birliklar, badiiy obrazlar, adabiy tilning tasviriy vositalari va nozik qirralaridan to‘liq foydalanadi [1; 5]. Badiiy matnning yana bir muhim jihati shundaki, u barcha matn elementlarini o‘zida aks ettirishi mumkin.

Keyingi davrda o‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish metodikasiga doir qator metodik qo‘llanmalarda o‘quv dasturida “grammatika grammatika uchun” qolipidan voz kechish, “grammatika fikrning aniq va lo‘nda ifodasi uchun” shiorini asos qilib olish tavsiya etilgan [6]. Quyida 4-sinf ona tili darsligida berilgan matn va topshiriqlar e’tibor qaratamiz:

She’riy matn	29
Topishmoq	14
Rasmli matn	13
Hikmat	6
Axborot matni	6
Maqol	5
Ertak	3

She’riy matn bilan bog‘liq mashqlarga e’tibor qaratsak, asosan, bir xil qolipdagi topshiriqlardan foydalanilgan. Masalan: *“She’rni ifodali o‘qing. She’rga sarlavha toping va husnixat bilan ko‘chiring. (2-mashq. 3-bet) She’rni ifodali o‘qing. Uning qaysi diyor haqida ekanini ayting. She’rni yoddan yozing. (19-mashq. 10-bet) She’rni ifodali o‘qing. Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarning shaxs-sonini ayting. 181-mashq. 77-bet)* Yuqoridagi topshiriqlardan ma’lum bo‘ladiki, ushbu she’riy matnlar faqat o‘qishga yoki grammatik bilimlarni tekshirishga qaratilgan. Tabiiyki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir xil mazmundagi topshiriqlardan tez zerikadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati cheklanadi. Badiiy matnni tahlil qilish uchun quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

Bunda bulbul kitob o‘qiydi,
Bunda qurtlar ipak to‘qiydi.
Bunda ari keltiradi bol,

Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so‘ylaydi olqish.

1. Sizningcha, bulbul kitob o‘qiy oladimi?
2. Qurtlarning ipak to‘qishini kuzatganmisiz? Bu qanday jarayon?
3. She’rda nimalar jonlantirilgan?
4. “So‘ylamoq” so‘zining ma’nodoshlarini ayting.

She’riy matnlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar nafaqat nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, balki, lug‘at boyishi, nutqni o‘stirish, tilni amaliy jihatlarini egallash til ta’limining asosiy maqsadlaridan biridir.

Matn mazmunini anglash undan ta’sirlanish, fikr olish va tarbiya topishdan iborat uch jihatni o‘z ichiga qamrab oladi. Buning uchun tushunarli matn tanlanishi, qiziqarli bo‘lishi va o‘quvchilarning dunyoqarashiga mos bo‘lishi kerak. Unda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari tilning lug‘at boyligi, jozibadorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bizningcha, maktab kursida ona tilidan grammatik materiallarni o‘rganish barobarida badiiy matnlarning til xususiyatlarini, ayniqsa, ulardagi adabiyot darslarida o‘rganiladigan badiiy tasvir vositalari va she’riy san’at turlarini tahlil qilish o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini izchil rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa nutq madaniyatining izchil rivojlanishini ham anglatadi. Bunday nutqqa erishish ona tilining boy imkoniyatlarini egallash zarurligini ham bildiradi” [2].

4-sinf ona tili darsliklarini tahlil qilganimizda, faqat 1 o‘rinda biror narsaning nimaga o‘xshatilganini aytish so‘ralgan. “She’rni ifodali o‘qing. Bolalar paxtani nimalarga o‘xshatishgan?” (22-mashq. 12-bet). Yoki quyidagi topishmoqlarda o‘xshatishning bir nechta ko‘rinishlari ishtirok etgan:

*Shakli **o‘xshar** o‘roqqa,*
Doim tutar so‘roqqa.
*Tariq**day** kichkina xol.*
Gapni tugatar darhol.
*Chinor bilan terak**dek,***
Faqatgina turar tik.

Biroq topshiriq sharti faqat tinish belgilarini aniqlashga qaratilgan. O‘xshatishni yuzaga keltiruvchi *-dek, -day* kabi unsurlar haqida to‘xtalib, matn turli tomondan tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, darslikda *oltin tog‘lar, oltin kuz, miya kabi shakl, o‘ynoqi ariqlar, quvnoq kuylar* singari o‘xshatishlar qo‘llangan. Topshiriqlar davomida ushbu birliklarni aniqlash “… badiiy matndagi so‘z ma’nolarini farqlash. Tanlab o‘qish, matndan asar qahramonlari, tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘z va iboralarni topa olish” imkoniyatini beradi [4; 69-bet].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dastlabki bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida badiiy matnni tahlil qilish jarayonida lingvistik ko‘nikmalar bilan bir qatorda, nutqiy ko‘nikmalar ham shakllanadi; o‘quvchilarning lug‘at boyligini, tafakkurini rivojlantiradi va nutqida ham badiiy tasvir elementlaridan foydalana boshlaydi; matnni har tomonlama tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
2. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. nom. …diss. –Toshkent, 2019.
3. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D., – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2010.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
6. G‘ulomov A. Ona tili ta’limi mazmuni. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 1995.

BOLALAR NUTQIDA MAKON DEYKSISINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Maftuna Saidaxmatova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar nutqida makon deyksisiga ishora qilib keladigan leksik birliklar haqida ilmiy va tahliliy fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Makon deyksisi, nutq, bolalar nutqi, nutq ontogenezisi, leksik birliklar, leksika, obdasta, deyksis.*

Makon deyksisi kattalar nutqida mavjud bo‘lgan kabi bolalar nutqida ham mavjud bo‘ladi. Ammo bolalarda biroz o‘ziga xoslik mavjud bo‘ladi. Bunga bolalarning nutqiy imkoniyati asosiy sabab bo‘ladi. Kattalar o‘zining nutqiy imkoniyatidan, ijtimoiy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda nutqida makonni bildiradigan deyktik birliklardan foydalanadilar. Bolalarda esa nutqiy imkoniyat biologik va nazariy jihatdan rivojlanish bosqichida bo‘lganligi sababli biroz torroq doirada foydalanadi.

Bolalar nutqida mavjud bo‘lgan makon deyksisini nimalar orqali ifodalash mumkin degan munozarali savol ham mavjud. Chunki, bolalar va kattalar makon deyksisini ifodalash uchun, makonga ishora qiladigan tilda mavjud bo‘lgan qandaydir birliklardan foydalanish kerak bo‘ladi. Bu birliklar fonetik, leksik va grammatik sathlar doirasida bo‘ladi. Aynan biz yoritmoqchi bo‘lgan birlik bu – leksik birliklar hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, leksik birliklar nafaqat makon deyksisi balki deyksisning boshqa turlariga ishora qilishda ham faol ishtirok etadigan birliklar hisoblanadi. Leksik birliklar tilshunoslikda leksika deb ataluvchi bo‘lim tarkibida o‘rganiladi. Leksik birliklar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishimiz va bundan keyingi o‘rinlarda keladigan leksik birliklar haqidagi ma’lumotlarni yanada atroflicha tushunishimiz uchun bu bo‘limga biroz to‘xtashni joiz deb bildik.

Leksika (yunoncha lexis — so‘zga oid, lug‘aviy) — tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi. Leksika

ma’lum qonun-qoidaga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Bu narsa lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda leksika boyib boradi. XX asrda barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o‘sib, taraqqiy etdi. O‘zbek tili leksikasiga baynalmilal so‘zlar keng ko‘lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. O‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam, shuningdek, o‘z qatlam tarkibida umumturkiy so‘zlar va ulardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlar mavjud. O‘zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so‘zlar bor. [https://uztext.com/45714-text.html:6]

Bu ma’lumotlardan bilishimiz mumkinki, bolalar va kattalar o‘z nutqida ma’lum bir makonni bildiruvchi so‘zdan foydalanishi leksik birlikdan ayro hodisa hisoblanmaydi. Barcha so‘zlarni, u o‘z qatlammi yoki o‘zlashma qatlamga tegishli so‘z bo‘lmasin leksik birliklardan tashqaridagi jarayon emas. Shu sababli ham leksik birliklardan makon deyksisini ifodalashda deyektik birlik sifatida keng miqyosda foydalanish holatlari mavjudligini aytish mumkin.

Bolalar nutqida leksik birliklardan deyektik birlik sifatida foydalanish holatlarini ham Munavvara Qurbonova o‘z dissertatsiyasida quyidagicha tushuntirishga harakat qilgan.

Bola 8-9 oylik davridan boshlab talaffuzi qulay bo‘lgan leksik birliklarni o‘zlashtiradi. 10-11 oylik ba’zi bolalar muayyan birlikka ikki va undan ortiq deyktik vazifa yuklashi ham mumkin. Masalan, Toshkent shevasida so‘zlashuvchi Muxlisaxon Muhiddinova (10 oy) va Saidolim Bahodirov (11 oy)ning “ada” so‘zi orqali nafaqat otasi, balki onasi, bobosi va buvisini ham ko‘rsatishi aniqlandi.

Shaxs deyksisining bolalarga xos ifodasi ularning uch-to‘rt yoshida birmuncha murakkablashadi. Bu yoshdagi aksariyat bolalar o‘yin jarayonida kattalarning ijtimoiy roliga taqlid qiladilar yoki uni ijodiy takrorlaydilar. Ularning tushunishicha, hayot davomida shaxslarning ijtimoiy rollari ortmaydi, balki o‘zaro almashadi. Masalan, Toshkent shevasida so‘zlashuvchi (Sarvarbek Umarov, 3

yosh)ning otasi bilan muloqotida shunday holat kuzatildi: Sarvarbek: – Ada! Kotta bo‘ganimda ada bo‘laman-a? Otasi: – Ha. Sarvarbek: – O‘shanda siz mani o‘g’lim bo‘lasizmi?

Bola o‘z nutqida makonni ifodalaydigan birorta so‘zdan foydalandimi uni hech ikkilanmasdan makon deyksisini ifodalovchi leksik birlik sifatida olishimiz mumkin. Biz ma’lum bir harflar konbinatsiyasidan vujudga kelgan va undan ma’no anglashsa bo‘ladigan leksik butunlikni leksik birlikka olishimiz mumkin. Shunday ekan eng faol makonni ifodalaydigan deyektik birlik bu leksik birlik hisoblanadi.

Bola besh yoshga yetganda kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan deyktik birliklarni to‘liq o‘zlashtiradi. Biroq bu yoshdagi bolalar nutqida shaxs deyksisini shakllantiruvchi ba’zi verbal vositalar noo‘rin qo‘llanishi ham mumkin. Masalan: Yulduzxon besh-olti yoshga kirguncha ham oyisini “kennoyi” deb chaqirib yurdi. [Қурбонова, 2018: 19]

Xuddi shuningdek, bolalar va kattalar nutqida mavjud bo‘lgan *bu yer, shu yer, qayer, bog‘da, tog‘da, shaharda, oshxonada, masjidda, mashinada* kabi ma’lum bir makonni bildiradigan so‘zlar gapda makon deyksisi vazifasini bajarib keladi. O‘zi umuman makonga aloqador barcha birlik nutqda makon deyksisi bo‘lib keladi. Ba’zan esa ularni boshqa birliklar orqali ham ifodalash holatlari ko‘zga tashlanadi.

Misol uchun, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Mehnatobod qishlog‘ida istiqomat qiluvchi 2 yosh-u 5 oylik Nazarov Umidjon ismli respondentimiz bilan bo‘lgan voqeani Umidjonning onasi aytib berdi. Bir kuni Umidjon mashinaning kalitini o‘ynash uchun olgan va uni obdasta ichidagi suvga bexosdan tushirib qo‘ygan. Kattalarning bundan xabari yo‘q va uyni boshdan oyoq izlab topolmagan. Umidjondan mashina kalitlari qayerda ekanligini takror va takror so‘raganda *“uvva(suv), uvva”* deb javob beravergan. Keyinchalik uy egalari qo‘lini yuvayotganda obdasta ichidagi suvdan topilgan.

Bu voqeadan anglashimiz mumkinki, suv so‘zini yosh bola nutqida *“uvva”* shaklida talaffuz qilinishi aynan bu so‘z bola nutqiga tegishli ekanligini anglatadi. Shu o‘rinda biz tushunishimiz kerak bo‘lgan bir jihat ham mavjud. Bu yerda *suv* so‘zining o‘zi makon ma’nosini berolayotganidir. Yosh bola uchun *obdasta* so‘zini talaffuz

qilish anchagina murakkablik tug‘diradi. Shu bois unga yondosh, u bilan har doim birga ishlatiladigan, u bilan foydalaniladigan *suv* so‘zini qo‘llagan. E’tibor beradigan bo‘lsak, suv so‘ziga kech qanday grammatik qo‘shimcha qo‘shmagan holda javob bergan. Grammatik qo‘shimchalar ham yosh bola uchun turli xil qiyinchiliklarni tug‘diradi. Shuning uchun ham bola aynan o‘zi uchun murakkablik qilgan obyekt nomini chetlab o‘tib, unga aloqador bo‘lgan, talaffuz uchun qulay bo‘lgan so‘zlarni tanlab nutqida ishlatadi. Bu so‘zlarni ham o‘zining nutqiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda talaffuz qiladi. Umidjonning *suv* leksik birligini *“uvva”* shaklida aytishi ham shundandir.

Biz bolalar nutqida makon deyksisini ifodalab kelayotgan leksik birliklarni yoritar ekanmiz, *suv* so‘zini hech ikkilanmasdan leksik birlikka kiritishimiz mumkin. Kalitlarning obdasta ichidagi suvda turganligini aytadigan bo‘lsak, buni makon deyksisiga olishimiz mumkin. Suvning *“uvva”*deb talaffuz qilinishi esa bola nutqiga tegishli ekanligini anglatadi. Shunda ularning barchasini jamlaganimizda biz izohlayotgan bolalar nutqida makon deyksisini leksik birlik ifodalab kelayotganiga misol qilsak bo‘ladi.

Xuddi shuningdek bolalar nutqida mavjud bo‘lgan makon deyksisini ifodalab kelgan lisoniy birliklar deyarli kattalarnikidan farq qilmaydi. Farqi shundaki, ular nutqiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda so‘zlarni talaffuz qiladi. Shuningdek, makonni ifodalab kelayotgan so‘z bola uchun murakkablik tug‘dirsa, unga shakl yoki mazmun jihatidan aloqador bo‘lgan so‘zni tanlab o‘ziga xos tarzda talaffuz qiladi. Bolalarning nutqidagi leksik birliklar shu jihatlari bilan kattalar nutqidagi holatlardan farqlanib turadi.

Bolalar nutqida laqab sifatida qo‘llangan disfemizm (Disfemizm – evfemizmning aksi bo‘lib, ayrim tushunchalarni qo‘pol va dag‘al usulda ifodalash. Disfemizm kakofemizm deb ham ataladi. Masalan, “…uyda xat yozib o‘lturgan Ra’no onasining kim bilandir havli yuzida ko‘rishib, so‘zlashqanini eshitdi va birozdan so‘ng yumaloqqina, to‘la-to‘kis bir bo‘g‘oz xotinni ayvon muyushida ko‘rib, yozuvini to‘xtatishqa majbur bo‘ldi”. [https://fayllar.org/fargona-davlat-unversiteti-filologiya-va-tillarni-oqitish-ingi.html?page:5] Ular ham deyktik vazifa bajaradi. Tashqi belgiga ko‘ra o‘xshashlik asosida metaforik shaxs deyksisini hosil

qiluvchi disfemizmlar maktab yoshidagi bolalar nutqida ko‘p uchraydi. Masalan: Maktabda bolalar Anvarni “Laylak” deb chaqirishadi. (Nodir Ahmedov, 13 yosh). [Қурбонова, 2018: 20]

Bu fikrlardan anglashimiz mumkinki, bolalar nutqida ishlatiladigan disfemizmlar ham leksik birlik sifatida deyektik vazifa bajarib keladi. Bu leksik birliklar makon deyksisiga ishora qilib ham keladi. Laqab sifatida keladigan disfemizmlar makon deyksisiga ishora qilib keladigan deyektik birlik sifatida faol ishtirok etadi. Qishloqlarda bolalar hojatxona o‘rnida “odob” so‘zini ishlatadi. Qayerga chiqmoqchisan? qabilida savol berilsa, “odob”ga deb javob beradilar. Hojatxona o‘rnida bu so‘zni ishlatishadi. “Odob” kontekstdan tashqari joyga umuman aloqasi yo‘q so‘z hisoblanadi. Ammo bolalar nutqida makonga ishora qilib keluvchi leksik birlik hisoblanadi. Kattalar nutqida makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar qanday holatda kelsa, bolalar nutqida ham shu shaklda keladi. Talaffuzda nutqiy imkoniyat bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalar nutqida makon deyksisiga ishora qilib keluvchi leksik birliklar yuqorida ta’kidlaganimizdagi kabi kattalarda mavjud holatlar bolalar nutqida ham takrorlanadi. Chunki bolalar kattalarga nutqiy va xatti- harakat nuqtayi nazaridan taqlid qiladi. Taqlid qilgan holatlarning barchasiga bolalar o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda yondashadi. Bu holat esa kattalar va bolalarning nutqida makon deyksisini ifodalashdagi farqlanishni ta’minlab turadi. Bolalar odatda taqliddan ijodkorona foydalanadi. Bu jihat ham kattalar nutqidan farqlanib turishiga asos bo‘ladi. Leksik birliklar bolalar nutqida ham kattalar nutqida ham nutqda ishtirok etishi nuqtayi nazaridan eng faol deyektik birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лутфуллаева Д., Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқига хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013.
2. Қурбонова Мунаввара, Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари, филология фанлари доктори (dsc) диссертацияси, Т.,2018. 19-bet.
3. https://uztext.com/45714-text.html

4. https://fayllar.org/fargona-davlat-unversiteti-filologiya-va-tillarni-oqitish-ingi.html?page=5

HAMKORLIKDA O‘QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Yulduz Usmonova
Alisher Navoiy nomidagi
TOSHDO‘TAU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining mazmuni, 375isual375ic va psixologik asoslariga doir fikr-mulohalar o‘rin olgan. Shuningdek, hamkorlik texnologiyasidan foydalanish orqali ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda yuqori samadorlikka erishish omillari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, loyihalashtirish, hamkorlik pedagogikasi, guruhlarda ishlash uchun metodlar.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga turli yangi 375isual375ic texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan metodik ta’minotning yaratilayotgani ahamiyatlidir. Shulardan biri hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalangan holda ona tili darslarini loyihalashtirishdir.

O‘zbekistonlik olimlardan N.Azizxo‘jayeva, J.Yo‘ldoshev, R.Safarova, B.Xodjayev, Sh.Abdullayeva, N.Dilova singari olimlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi, o‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan [1].

Jahon pedagogikasida hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlardan foydalanish masalasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, B.Arshinov, M.Boguslavskiy, V.Budanov, V.Vinenko, L.Zorina, V.Ignatova tadqiqotlarida hamkorlikda o‘qitishning afzalliklari, o‘qituvchi-o‘quvchi

hamkorligini tashkil etishning yetakchi g‘oyalari o‘z aksni topgan [2].

Hamkorlik pedagogikasi – an’anaviy o‘qitishdan farq qilib, bola bilan do‘stona munosabat yuritishga qaratiladi. “Men” o‘rniga “Biz”, ya’ni hamkorlikda – “subyekt” – “subyekt” munosabatlariga asoslangan holatda 376isual376ic faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili o‘quvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O‘quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so‘ngra uni bajarish uchun bolada o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o‘z xohish-irodasini yagona ta’lim olishiga yo‘naltiradi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko‘rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Hamkorlikda o‘qitish mahg‘ulotlarini tashkil qilishda: o‘qituvchi–sinf, o‘qituvchi–kichik guruh, o‘qituvchi–katta guruh, o‘qituvchi–o‘quvchi, o‘quvchi–o‘quvchi (juftlikda ishlash) va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos 376isual376ic, psixologik va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

– tashkiliy-pedagogik asoslari – o‘quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o‘zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o‘quv mashg‘uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish;

– psixologik asoslari – o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotda har bir o‘quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo‘llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta’riflar, formulalar va boshqa shartlarning o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash;

– uslubiy asoslari – mashg‘ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo‘lishini ta’minlash [3].

Hamkorlik texnologiyasi umumiy ta’lim maqsadiga erishish uchun o‘quvchilarning juftlik yoki kichik guruhlarda ishlashini o‘z ichiga olgan o‘qitish metodologiyasidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda samarali ekanligi isbotlangan [4]. Albatta, o‘qib tushunishda kichik guruhlarda yoki juftlikda ishlash uchun qo‘shimcha usullar mavjud: ***1. O‘zaro ta’lim***: Bu usulda o‘quvchilar navbatma-navbat matn bo‘yicha muhokamalar olib boradilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos rolni o‘z zimmasiga oladi, masalan, umumlashtiruvchi, savol beruvchi, aniqlovchi yoki bashoratchi. Ular o‘qiyotganlarida ushbu rollardan matnni tushunishga yo‘naltirish va sheriklari bilan muhokama qilish uchun foydalanadilar. ***2. O‘ylab ko‘ring – juft bo‘ling – bo‘lishing:*** Bu usul o‘quvchilarning qisqa parchani o‘qishini va keyin uni sherik bilan muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. Ular munozaraga yordam berish uchun bir qator yo‘naltiruvchi savollar yoki maslahatlardan foydalanishlari mumkin. Bir necha daqiqa suhbatdan so‘ng ular o‘z fikrlarini kattaroq guruh bilan o‘rtoqlashadilar. ***3. Jigsa o‘qish:*** Bu usulda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga matnning har xil bo‘limi beriladi. O‘z bo‘limini o‘qib chiqqandan so‘ng, ular matnning o‘sha qismi bo‘yicha mutaxassis bo‘lib, keyin uni guruhning qolgan a’zolariga o‘rgatishadi. ***4. Grafik organayzerlar:*** Grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarga o‘qiyotgan ma’lumotlarni 377isual tarzda tartibga solishga yordam beradi. Matnni yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun ular o‘zlarining organizatorlarini yaratishlari yoki oldindan tayyorlagan materiallaridan foydalanishlari mumkin. ***5. Tengdoshlar bilan tahrir qilish:*** Matnni o‘qib chiqqandan so‘ng, o‘quvchilar bir-birlarining yozma javoblari yoki xulosalarini tahrirlash va qayta ko‘rib chiqish uchun juft bo‘lib ishlashlari mumkin. Bu ularga turli nuqtai nazarlarni ko‘rishga va o‘zlarining yozish va anglash qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Xullas, hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi xatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi, o‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy

harakatiga aylanadi, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatda esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishimiz kerak. Chunki psixologiya va pedagogikaning bir qancha tadqiqotlarida o‘quvchi biror bir bilimni individual tarzda egallagandan ko‘ra, katta yoki kichik guruhlarda, tengdoshi, partadoshi, ota-onasi bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali ko‘proq va tezroq muvaffaqiyatga erishishi isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. Fan. Bo‘yicha fal. Dok…diss. – Nukus, 2018. – 152b.

2. Inaqov Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish. Ped. Fan. Bo‘yicha fal. Dok…diss. – Toshkent, 2019. – 18-b.

3. Rasulova Z. Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish. Scientific progress 2-son, 2021.

4. Rohanna Syamsuddin Improving reading comprehension for Indonesian language learners by learning starts with questions strategy. Talant development & Excellence 12- son, 2020.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM UCHUN SO‘ZLAR DARAJALANISH O‘QUV LUG‘ATINING ZARURATI

Qahramon Eshboyev
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi uchun darajalanish lug‘atining o‘rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, lug‘atchilik, o‘quv lug‘ati, leksikografiya, graduonimiya, darajalanish.*

O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning darajalanish munosabatiga asoslangan ilk o‘quv lug‘at Sh.Bobojonov va I.Islomov hammuallifligida tuzilgan “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati”dir. Mazkur lug‘atning “So‘zboshi”sida lug‘atning tarkibi, tuzilishi, leksikografik xususiyatlari bilan birga lug‘atni yaratish zarurati xususida ham ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu lug‘at bu turdagi lug‘atlarning ilk namunasi bo‘lganligi tufayli unda ayrim kamchilik va xatolar ham mavjud, o‘quv lug‘ati oldiga qo‘yiladigan lingvodidaktik talablarga to‘liq javob beradi, deb bo‘lmaydi. Darhaqiqat, lug‘at tuzishning ham o‘ziga xos leksikografik, lingvodidaktik me’yoriy talablari, mezonlari mavjud. Ushbu lug‘atda so‘zlarning darajalanish qatorlari keltirilgan bo‘lsa-da, qatordagi so‘zlar leksikografik izoh bilan ta’minlanmagan, unda so‘zlar darajalanishi alifbo tartibida illyustrativ misollarsiz graduonimik qator holida aks ettirilgan. Ushbu lug‘at o‘zbek tilida yaratilajak zamonaviy darajalanish o‘quv lug‘atini yaratish uchun boshlang‘ich manba bo‘lib xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etishini inkor etib bo‘lmaydi. Kuzatuvimizdagi lug‘at tarkibidan o‘rin olgan ayrim darajalanish qatorlariga e’tibor qaratib o‘tish joiz:

Achchiq – taxir – nordon – chuchuk – shirin;
(maza-ta’mning me’yoridan ortiq-kamligiga ko‘ra)
Avvalgi – hozirgi – keyingi;
(zamon belgisiga ko‘ra)
Adoq – bel – bosh;
(joylashish o‘rnining yuqoriligiga ko‘ra)
Ayb – gunoh – jinoyat
(ijtimoiy zararining kuchliligiga ko‘ra)[Бобожонов Ш., 2007:9]kabi.

Keltirilgan misollardan ma’lumki, so‘zlarning darajalanish qatorini tuzishga asos bo‘lgan belgi umumiy tarzda berilgan bo‘lib, denotativ belgisiga ko‘ra darajalanish qatorlari sifatida belgilanishi mumkin.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, bu lug‘at o‘zbek tilida darajalanish munosabatiga asoslangan lug‘atning ilk namunasi sifatida o‘ziga xos yutuq va kamchiliklarga ega bo‘lishi tabiiy. Tilshunosligimizda bu turdagi lug‘atlarning metodik ta’minoti ham

hali to‘liq yaratilmagan. Mazkur lug‘at ham foydalanuvchining to‘liq lug‘at ustida ishlashiga amaliy yordam beruvchi uslubiy ko‘rsatmaga ega emas. Bu, albatta, tilshunosligimiz oldida turgan lingvodidaktik tadqiqotlar, pedagogik leksikografiya yo‘nalishlari taraqqiyoti bilan bog‘liq vazifalardandir.

Biz tadqiqotimiz davomida taklif qilayotgan yangi, zamonaviy o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan darajalanish o‘quv lug‘ati yuqorida qayd qilingan lug‘atdan farq qiladi. Lug‘at “So‘z boshi” mavzusi ostida, graduonimik qatordan tashkil topib, qatorning quyi qismidan darajalanish qatoridagi har bir so‘zga izoh beriladi, zarur bo‘lgan hollarda illyustrativ misollar keltiriladi hamda so‘zlar lug‘at belgilari bilan ta’minlanadi. Shuningdek, har bir toifa guruhi uchun alohida tuziladigan o‘quv lug‘atida bog‘cha tarbiyalanuvchilari uchun, boshlang‘ich sinflar uchun va tayanch sinflar uchun foydalanuvchilarning yosh xususiyati ham e’tiborga olinadi, shu asosda so‘zlar darajalanish qatorlari tuzib chiqilishi ko‘zda tutiladi. Ya’ni bog‘cha tarbiyalanuvchilari uchun eng sodda, tushunarlilik darajasi oson bo‘lgan so‘zlar qatori, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sal murakkab ma’noli so‘zlar qatori va tayanch sinflar uchun darajali munosabatga kirishuvchi barcha so‘zlar qatori tanlanishi nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda darajalanish so‘zlar lug‘ati va uning so‘zligi masalasida tilshunosligimizda amalga oshirilgan tadqiqotlarning o‘rni va ahamiyati katta. Xususan, Sh.Orifjonovaning “O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya” nomli dissertatsiyasi graduonimiya (darajalanish) hodisasi tadqiqida alohida ahamiyat kasb etadi, deyish mumkin. Unga ko‘ra, darajalanuvchi so‘zlar lug‘at maqolalarini darajalanish qatoridagi so‘zlar ma’noviy o‘sish yoki kamayishiga qarab joylashtirilishi lozim. Masalan: *gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – ol – qirmizi*. Bu qatorda bir rangdan ikkinchi ranga o‘tish jarayonida oraliq xolatlarni ko‘rishimiz mumkin.

1. “**Gulobi** *[f.*- pushtirang] – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo‘yoqli rang.

2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to‘qroq.

3. **Qizg‘ish** – pushtidan to‘qroq, qizildan ochroq, qizg‘imtir rang.

4. **Qizil** – qon rang.

5. **Ol** *kt.* – qizildan to‘qroq rangli.

6. **Qirmizi** – to‘q qizil rangli”.

darcha-eshik-darvoza

1. Darcha *[f.* – eshikcha] – ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tabaqali eshikcha; eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha.

2. Eshik – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan, ochib-yopib turiladigan moslama.

3. Darvoza *[f.* – ikki tabaqali katta eshik] – hovli, qo‘rg‘on, qal’a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa” [Орифжонова Ш., 1996:21].

Darajalanish lug‘ati uchun graduonimik qator a’zolarining joylashuvi shu tartibda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Yangi zamonaviy so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atini tuzishda shu kabi darajalanish qatorlari namuna vazifasini o‘taydi.

Tilshunos O.Shukurovning “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” kirish qismida sinonimiya, antonimiya va graduonimiya munosabatiga doir fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, “O‘tgan asrning oxirlariga qadar so‘zlararo ma’noviy munosabatlar sinonimiya va antonimiya bilan chegaralanib qolgani, sistem tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlarda tilda ma’noviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashgani, ularning graduonimiya, giponimiya, partonimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi turlari aniqlangani, ushbu lug‘at avvalgi lug‘atlardan so‘zlikni shakllantirishda mazkur munosabatlardan sinonimlarni ajratib olishi bilan farqlanishi izohlanadi: “Lug‘aviy ma’nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo‘lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Darajalanish esa umumiy atash semalari bir xil, lekin ma’lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksemalardir. Bundan tashqari, ma’nodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, ma’nodoshlik qatoridagi leksemalar o‘zaro ifoda semalari bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, ma’nodosh sifatida qarab kelingan ko‘pgina darajalangan so‘zlar alohida munosabat tizimi sifatida qaralib, mazkur lug‘atdan chetda qoldi”[Шукуров О., 2007:5].

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak yangi avlod uchun zamonaviy so‘zlar darajalanish lug‘atini tuzish tilshunoslarimiz zimmasida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобожонов Ш., Исломов И. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 39 б.
2. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: филол. фан. номзоди дисс... – Тошкент, 1996. – 113 б.
3. Шукуров О., Бойматова Б. Ўзбек тилининг маънодош сўзлар ўқув луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 53 б.

O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI BAHOLASH ZARURATI

Feruza G‘aybulloyeva
ToshDO‘TAU 1- kurs magistranti
gaybulloyevaferuza72@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash jarayoni, 7-sinf o‘quvchilarning ona tili ta’limida og‘zaki nutqini baholashning ahamiyati, shuningdek, ona tili ta’limida so‘zlashish ko‘nikmasini baholash mazmuni, metodikasi va mezoni yuzasidan nazariy-uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *baholash, og‘zaki nutq, 7-sinf o‘quvchilari, malaka talablari, baholash mezoni*

Ma’lumki, og‘zaki nutq muloqot jarayoniga kirishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir insonning madaniy, ma’rifiy-mafkuraviy va ma’naviy saviyasi, muloqot madaniyati uning o‘z ona tili boyliklaridan qanchalik maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishida, tinglovchiga maqbul keladigan ohangda, ravon, ifodali

gapira bilishida, adabiy til qonun-qoidalariga amal qilishida namoyon bo‘ladi. Binobarin, gapirilishi kerak bo‘lgan nutq tafakkurda shakllanadi va tinglovchiga yetkaziladi. Yaxshi rivojlangan, tushunarli va ravon nutq kishilarning jamiyatdagi faoliyatida muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida og‘zaki nutqning muhim tomonlarini yoritishda A.G‘ulomov va B.Qobilovaning “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitoblaridagi metodik tavsiyalar, topshiriqlar ilmiy asos bo‘la oladi.

Rus filologi Nora Gal, Karsten Bredemayer, Lev Uspenskiy, Nina Zverovalarning ilmiy tadqiqotlarida so‘z va undan foydalanish, so‘zlash jarayonida fikrni jamlash, nutq jarayoniga tayyorgarlik masalalari ham yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil oktyabr oyida e’lon qilingan “2020-2023-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq “O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan ko‘nikma va malakalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi”. Bundan tashqari, ushbu dasturda o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos tarzda sinflar kesimida malaka talablarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning egallagan malakalari lingvistik kompetensiyaning talablari asosida tekshirilmoqda. Natijada, ona tili ta’limida baholash mazmuni, shakli, me’yorlariga mos kelmaydigan qator muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, nutqiy ko‘nikmalardan biri og‘zaki nutq ko‘nikmasini baholashning ilmiy-metodik asosini belgilash ham dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Ona tili ta’limida og‘zaki nutq malakasini baholash usullari va pedagogik o‘lchovlariga oid maxsus ilmiy ishlar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, bu borada bir qancha qo‘llanma, darslik hamda ishchi o‘quv dasturlarida muayyan qarashlar o‘z aksini topgan. Jumladan, D.Yo‘ldoshevaning “O‘zbek tilining o‘qitish metodikasi“, Q.Shodiyeva “Nutq o‘stirish uslubiyati“ (darslik), A.D.Najimova “Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi” (darslik), G.Najmiddinova “Bolalar nutqini o‘stirish“ (o‘quv qo‘llanma), Sh.Abdiraimovning “Nutqiy ko‘nikmalarni baholash asoslari” faniga doir ishchi o‘quv dasturida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantish usullari hamda nutqiy malakalarni baholash mezonlari va texnologiyalari borasida muhim tavsiyalar berilganiga guvoh bo‘lamiz. Ammo umumiy o‘rta talimda, xususan, 7-sinf o‘quvchilarining ona tili ta’limida og‘zaki nutqini baholash mazmuni, mezoni va vositalari haqida alohida munosabat bildirilmagan.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limining amaldagi Milliy o‘quv dasturida Ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan malaka talablari ishlab chiqilgan, unda fanga oid kompetensiyalar quyidagicha tartiblangan:

1) nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish).*

2) lingvistik kompetensiya*(lingvistik bilimlar).*

Ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda nutqiy malakalarni yuksaltirishdir. Lingvistik kompetensiyalar esa nutqiy ko‘nikmalarni shakllanishi, to‘g‘ri rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Amalda umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning egallagan malakalari muntazam baholanib, choraklik, yillik va xulosalovchi bitiruv imtihonlari tarzida amalga oshiriladi. Baholash jarayoni turlicha, ya’ni yozma ish (*diktant, bayon, insho*), ochiq va yopiq test topshiriqlari, qisman og‘zaki so‘rov (*bilim va xotirani sinashga asoslangan*) shakllaridan foylanilayotganini kuzatamiz. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ona tili ta’limida o‘quvchining nutqiy ko‘nikmalari rivojlanishini muntazam baholash bo‘yicha aniq mezon, baholash tartibi, topshiriqlar soni, metodikasi va usullari bo‘yicha aniq tavsiyalar berilmagan, asosan, darsliklarga tayanilgan holda

undagi topshiriqlar asosida baholanmoqda. Bundan tashqari, oraliq va bosqichli nazoratlarda foydalaniladigan topshiriqlarning shakli, tuzilishi, mazmuni, baholash mezonlari va topshiriqlar metodikasi haqida zaruriy ko‘rsatmalar aniq belgilab berilmagan. Shuni ham eslatib o‘tish joizki, yozma nutqni baholash uchun ma’lum bir mezonlar ishlab chiqilib, turli metodik tavsiyalar amaliyotga tatbiq qilingan. Biroq so‘zlash, tinglab tushunish ko‘nikma va malakalarini baholash, baholashda foydalaniladigan topshiriqlar bo‘yicha metodik usullar hamda aniq mezonlar tartiblanmagan. Bu esa ona tili ta’limida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini baholash mexanizmini ishlab chiqish zaruratini dalillaydi.

Milliy o‘quv dasturida ko‘ra 7-sinf o‘quvchilari ona tili ta’limida og‘zaki nutq bo‘yicha quyidagi malakalarga ega bo‘lishi kerak:

1	o‘zbek tilining adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta’sirchan va ravon so‘zlay olish
2	ma’lum mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va so‘zlash, fikrini mantiqiy, ishonchli, tanqidiy va izchil tarzda taqdimot ko‘rinishida ifodalab bera olish
3	sodda grafik chizma hamda diagrammalarni og‘zaki ifodalab bera olish
4	she’rlarni yoddan ifodali o‘qish, obraz holatini anglagan holda dramatik asarlardan parchalar ijro etib bera olish
5	nutq jarayonida ohang, to‘xtam (pauza)dan o‘rinli foydalana olish

Yuqorida keltirilgan 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqqa oid malaka talablari va darajalari baholash mezonlarini belgilashda alohida hisobga olinishi lozim. Ta’kidlash joizki, ona tili ta’limida 7-sinf o‘quvchilarining egallagan bilim ko‘nikma va malakalarini tekshirish maqsadida bir chorak davomida 2 marta nazorat sinovlari tashkil etiladi va olingan natijalar asosida baholanadi. Amaliyotga tatbiq etilayotgan milliy o‘quv dasturida muayyan darajada nazorat turlari haqida ma’lumot bergan bo‘lsa-da, lekin o‘quvchilarning og‘zaki nutq malakasini na formativ baholash jarayoni, na summativ baholash jarayonida baholash shakli, topshiriqlar soni, baholash indikatorlari va metodikasi yuzasidan maxsus ko‘rsatmalar berilmagan hamda namuna uchun og‘zaki nutqni tekshirish topshiriqlari ishlab chiqilib taqdim etilmagan. Joriy-kunlik baholash va yakuniy baholash jarayonida 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq

ko‘nikmasini baholash o‘qituvchi o‘zi belgilagan talablar asosida amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotimiz davomida aniqlanishicha, nazorat ishlari asosan yozma ish va test topshiriqlari ko‘rinishida o‘tkazilmoqda. Bu jihatlar lingvistik kompetensiyalarga tayangan holda baholash amalga oshirilishiga olib kelmoqda. Tan olish kerakki, 45-daqiqa mobaynida o‘quvchilarning egallagan malakalarini yozma ish orqali tekshirish, so‘zlashish ko‘nikmasini baholash imkonsiz. Ya’ni 45 daqiqa (bir soat dars davomida) ona tili ta’limida o‘quvchilarning fanga oid barcha ko‘nikmalarini baholash uchun kamlik qiladi. Bu esa har bir sinf uchun nazorat ishi va tahliliga ajratilgan soatlar miqdorini qayta ko‘rib chiqish lozimligini dalillaydi.

O‘rganishlarimiz natijasida shu aniq bo‘ldiki, Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturida 7-sinf o‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish yuzasidan muayyan talabalar belgilangan. Biroq nazorat ishlarida o‘quvchilarning so‘zlash ko‘nikmasi baholanmay qolmoqda. Boisi ularning og‘zaki nutqini baholash mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Demak, ona tili ta’limida o‘quvchilar og‘zaki nutqini baholash mazmuni, mezonlari hamda metodikasini takomillashtirish o‘zbek lingvodidaktikasining dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahim Sh.. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti – 2021.. 126 b.

2. Abdiraimovning Sh.S. Nutqiy ko‘nikmalarni baholash asoslari. Ishchi darstur. ToshDO‘TAU. – 2022.. 7 b.

3. Hasanova G.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z faoliyatini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari.Toshkent, 2009.. 136 b.

4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent, “Akademnashr” – 2020.. 252 b.

5. Najimova A.D. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi. – Toshkent. “Fan va texnologiya” nashriyoti – 2019.. 86b.

6. Najmiddinova G. Bolalar nutqini o‘stirish. O‘quv qo‘llanma.TDPU. –2019.. 185 b.

7. Yo‘ldosheva D. O‘zbek tilining o‘qitish metodikasi.Darslik.BuxDU. – 2021.. 192 b.

8. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyati. – “O‘qituvchi” nashriyoti – 2021.. 304 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil oktyabr oyidagi “2020-2023-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son https://lex.uz/docs/-6008663.

TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

TA'LIM JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Hulkar Xidirova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori
S.Kambarova

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida integratsiya, uning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, fanlarni integratsiya asosida o'qitishning afzalliklari hamda natijalari yaqqol ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *Zamonaviy ta'lim, integratsiya, pedagogik texnologiya, o'quv jarayoni, fanlararo uzviylik, integrativ ta'lim, mustaqil dunyoqarash.*

Zamonaviy bilim olishda o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Integratsiya – ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [O'zbek tilining izohli lug'ati, 1981: 380]. "Integartsiya "tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi. Demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish hisoblanadi. Adabiyot ta’limiga integrativ yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Biz mazkur maqolada adabiyot ta’limida integratsiyaning roli va uning ahamiyati xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Ma’lumki, o‘quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Sababi, bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o‘zgarishlarining bo‘lishini ham taqozo etmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Ularning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa, Koreya va Shvetsariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo‘nalishidagi o‘quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o‘quv fanlari mujassamlashgan holda o‘qitiladi [Ta’lim taraqqiyoti, 1999: 48].

Pedagog U. Musayev integratsiya darajalarini tasniflashda, asosan, mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiyaning ahamiyatiga to‘xtaladi. Bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv materiali keyingisini to‘ldiradi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Integratsiya – differensiatsiyaning aksi bo‘lib, unga teskari bo‘lgan jarayondir [Musayev, 2022: 5–6]. Bizningcha, uni quyidagicha yo‘nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

a) o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalash; b) turli o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; d) ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash.

Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi [Ro‘zimuhammad B. 2002: 6].

Dars faqat ta’limiy bo‘lib qolmasdan, o‘quvchilarning insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Maktablarda o‘qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtayi nazaridan juda muhim bo‘lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kundagi fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o‘rnatishga, tafakkuri rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak- atrofda bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglashga, ularning mohiyatini tushunadigan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Maktablarda o‘rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko‘rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlar integratsiyasiga moyillik yuqori turadi. Maktab umumta’lim fanlarining tarqoq holda o‘rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda o‘rgatilmasligi o‘quvchilar bilimini to‘la bo‘lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to‘sqinlik qilib, o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi.

Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday tushuncha ta’lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog‘liqlikni yana bir bor ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta’lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. Integratsiyalashgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o‘rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang‘ich sinflarda darslarning integratsion bog‘lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo‘lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o‘rtasida bahsli masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Integratsiya – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog‘liqlikka asoslanadi. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini umumiy o‘quv predmetlari mazmuni va maqsadlarini ma’lum uzviylikda va o‘zaro mantiqiy bog‘langan holda tashkil qilish ta’limni sifat va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchi yoshlarni dunyoqarashini kengaytirib, ularni fikrlash olamini yorqin obrazlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Ta’lim mazmuni va ko‘lamini optimallashtirish, o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, ta’lim mazmunini o‘quvchi yoshlar ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalantirishda ham predmetlararo aloqaning imkoniyatlari cheksiz.

Adabiyot fanini o‘qitishda integratsiya o‘zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog‘lanishni mustahkamlab, ularni umumlashtirib, o‘quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o‘qituvchining qanday usul va vositalardan samarali foydalanishiga bog‘liq. Shu o‘rinda, avvalo, DTS va o‘quv dasturlarini predmetlararo bog‘lanish imkoniyatlarini aniqlay olishga e’tibor qaratish lozim. Taqvim mavzu rejalar tuzish jarayonida har bir mavzu mazmunidan kelib chiqib, bog‘lanish mumkin bo‘lgan fanlarni aniqlay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot fanini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishda o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, yangi o‘quv-metodik majmualar mazmuni va zaruriy bog‘lanishlarni o‘rgatish kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish bu borada samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Fanlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq. Insoniyat rivojlanishining dastlabki

bosqichlarida odamlar tabiat haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaganlar, atrof-muhitda sodir bo‘ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo‘lishgan, xolos. Keyinchalik hodisa, jarayonlarning sodir bo‘lishini kuzatibgina qolmay, ma’lumotlar to‘plab, tahlil qila boshlaganlar.

O‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, uning amaliyotga ta’siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta’lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha ushbu ta’riflarning umumiylik tomoni – integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o‘zining rivojini integratsiya g‘oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo‘lgan predmetlarni o‘rganish bo‘lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit, bir butunligini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi.

Ta’limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish. 2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi). 3. Rivojlantiruvchi ta’lim berish vositasi sifatida. 4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida.

Xulosa qilganda, ikki o‘quv fani o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Turli o‘quv fanlardagi mavzularning uzviy bog‘liqligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo‘lishi kerak. Integratsiyalashgan dars natijalari o‘qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya – bir necha o‘quv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev U. Integratsiya darajalari // Xalq ta'limi, 2002. – № 6. – B. 5-6.
2. Ro'zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasida // Ma'rifat, 2002. – № 26. – B. 6.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: M.: Русский язык, 1981. – 380-b.
4. Ta'lim taraqqiyoti. – T.: Sharq,1999. – B. 48

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA BADIIY SAN'ATLAR IFODASI

Gulinor Xolmurotova
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Eshqobil Shukur ijodiyotining o'ziga xos badiiyati borasida so'z yuritiladi. Maqolada shoir ijodinng o'zbek she'riyatidagi o'rni; o'zlikni angash, hayotning asl mohiyatini tushunib yetish; go'zallik, ezgulik, insoniylik kabi azaliy va abadiy dolzarb mavzulari orqali badiiy tafakkurning yuksalishiga xizmat qilishi haqidagi fikr-mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *tashbeh, tafakkur, peyzaj lirikasi, gradatsiya, ko'chimlar, sintaktik parallelizm, ellipsis*

O'zbek she'riyatining o'ziga xos ohang sohiblaridan biri Eshqobil Shukurdir. Shoir she'riyatidagi sof o'zbekona mentalitet, mehr-muhabbat, odamiylik, tabiat va inson qalbidagi go'zallik, hayot haqiqati kabi mavzular kutilmagan tashbeh, o'xshatish, nozik qochirim, shoirona qiyoslash, sof o'zbekona lutf va samimiyat, kuyunchaklik bilan uyg'unlikda o'quvchi qalb to'riga kirib boradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam ta'biri bilan aytganda: *"Eshqobil juda xalqchil shoir. Shunday bo'lsa-da, boshqalarga o'xshamaydi. Men qidirib ko'rdim, kimga o'xshar ekan deb, yo'q, o'xshamaydi".* Haqiqatan ham, Eshqobil Shukur she'rlarini talqin qilar ekanmiz, unda, asosan, o'zlikni anglash; hayotning asl mohiyatini tushunib yetish; go'zallik, ezgulik, insoniylik kabi azaliy

va abadiy dolzarb mavzular bilan yo‘g‘rilganligiga guvoh bo‘lamiz. Shoir she’rlarida samimiyat, donishmandlik, kishini o‘ziga rom etuvchi falsafiy g‘oyalar ustunligi yaqqol ko‘rinadi. Uning donish fikrlari o‘quvchi qalbini larzaga keltiradi; hayotini taftish qilishga chorlaydi. Shoirning “Orzu” she’rida insonni haqiqiy insondek ko‘rish umidi tasvirlangan:

Daholar ko‘ngliga cho‘g‘ tashlagan sir,
Osmon maktublarin mangu mavzusi.
Azal zulmatlarin kesib o‘tgan nur –
Insonni insonday ko‘rmak orzusi.

“Hayotga qasida” she’rida esa insoniyatni bevosita tiriklik chog‘ining qadriga yetishga, mazmunli hayot kechirishga chaqiriladi:

Sen bu tiriklikni tingla va angla.
…lahzani ushlab qol,
yashab o‘t lahzani…

“Yashab o‘t” jumlasi bilan oddiy umrguzronlikni nazar tutilmaydi, aksincha, yangiliklarga, ezguliklarga, go‘zalliklarga tashna holda yashashga, dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqish orqali tafakkur qilishga, ajib xulosalar olishimizga undaydi. Shoir o‘zining bir suhbatida “hayrat”ga shunday ta’rif beradi: *“Insonni olamga, dunyoga, butun hayotga, koinotga va ilmga oshiq qiladigan narsa – hayrat. Modomiki, hayrat bo‘lmasa, beshikdagi bola ham ulg‘aymaydi”.* She’rlarida ham hayrat orqali hayot mohiyatini anglash insoniylikning eng muhim belgilaridan biri ekanligiga urg‘u beradi:

Aqlning shiddati, tuyg‘u g‘ayrati –
Dunyoga yangilar Inson hayrati.
Bizlarni hayratsiz ko‘zlardan asra,
Tillarni qanotsiz so‘zlardan asra.

Eshqobil Shukur ijodidagi sehr kitobxon qalbini asir etmasdan qo‘ymaydi. O‘quvchini mushohada qilishiga, ortda qolgan umrini tahlil qilishga majbur qiladi. Ushbu qarashlarni quyida shoir she’rlaridan olingan bir necha parchalar misolida ko‘rib o‘tamiz.

***

Dunyoga ne berib, nimani oldim.

***

Bilolmasmiz nimaga keldik

Va nimaga ketyapmiz oxir
***
Ortimda qolajak hayotdan faqat
Xavotir olaman, qattiq xavotir…
***
Beshigimdan tobutimgacha
Xatolardan iboratman men.
***
Vijdon bilan ketsam izma-iz,
Bo‘lsam deyman ko‘p yaxshi odam…
***
Shular qatorida bor edi inson,
U hayot va xudo ma’nisin bildi.
***
Uning haqiqatin anglat menga sen,
Sirlarin ko‘z yoshday kipriklarga tuz.
***
Qorong‘ulik oralab ko‘nglim
Yaratganni o‘rganib borar.

Bundan tashqari, shoir she’riyatining aksariyatida tabiat tasvirlarini uchratish mumkin. Peyzaj lirikasida ijod qilish shoirning ijodiyotda ajratib turadigan yana bir muhim belgisi desak adashmaymiz. Tabiat unsurlari, masalan, daraxt, bulut, suv, yo‘l, oy, dala, shamol va bunga o‘xshash obrazlarning tez-tez qo‘llangani she’riyat muxlisi nazdida, Eshqobil Shukur beg‘ubor yoshligining go‘zal damlari qir-adir, dala-dashtlarda, umuman olganda, haqiqiy tabiat sirlari bilan oshno tarzda o‘tganligi bilan bog‘liqdir. Serqirra shoirning o‘zi bu obrazlarga shunday izoh beradi: *“Oy, bulut, shamol, dala, yo‘l… Ular doim mening she’rlarimga kirib kelaveradi. Yo‘q, bular shunchaki obrazlar emas. Ular mening bu dunyodagi doimiy hamrohlarimdir. Shaharning eng gavjum, eng sershovqin joyida ham ular mening yonimda ekanini his etaman”.*

Bilamizki, badiiy nutq talabi bilan she’riyatda ko‘chimlardan, o‘xshatishlardan keng ko‘lamda foydalaniladi. She’rning jozibadorligi, originalligi, ta’sirchanligini ta’minlab turadigan omillardan biri – ***ko‘chim****lardir*. Ayniqsa, ko‘chimning badiiy nutqda eng ko‘p va samarali qo‘llanuvchi turi ***istiora*** *(metafora)* muhim

ahamiyatga ega san’atlardan biri. Voqelikdagi narsa-hodisalar yoki ko‘ngil hollari bilan moddiy olam orasidagi bizga ko‘rinmagan, biroq san’atkorona o‘tkir nigoh bilan ilg‘angan o‘xshashliklar asosidagi ko‘chimlar ham borki, ular o‘quvchini hayratlantiradi, cheksiz zavq bag‘ishlaydi. Eshqobil Shukur o‘z she’rlarida ana shunday o‘quvchidan kuchli tafakkur va e’tibor talab qiluvchi ohorli o‘xshatishlardan ham mohirona foydalangan.

Sen suvni tinglab ko‘r, anglab ko‘r suvni,
Gunglarning tilida muzlagan ovoz,
Ko‘rlarning ko‘ziga qamalgan ranglar
Suvning rangi bilan tovushiga mos

satrlarida metaforaning ma’no assotsiatsiyalari keng ko‘lamda aks etgan. Albatta, ushbu o‘rinda kelgan assotsiativ metaforani har kim har xil talqin qilishi, turlicha tushunishi tabiiy. Avvalo, shoir *“Sen suvni tinglab ko‘r, anglab ko‘r suvni”* xitobi bilan bir muddat o‘quvchini o‘ylantirib qo‘yadi. She’rxon g‘ayriixtiyoriy tarzda “Suvning tovushi qanday edi? Uni hech eshita olganmanmi?”, deb o‘zi-o‘zini so‘roq qilib boshlaydi. Keyingi satrlarni o‘qish orqali ma’no oydinlasha boradi. Endi adib suvning tovushini *“gunglarning tili”*ga tashbeh beradi. Gunglarning tili ham bor, ular ham gapira oladi, eng asosiysi, biz suvning tovushiga e’tiborsiz ravishda bo‘lganimizdek, ularning ham so‘zlashini anglay olmaymiz. Ikkinchi assotsiativ obrazga e’tibor bersak, Eshqobil Shukurning faylasufona fikrlariga yana bir bor tan beramiz. Shoir o‘z misralari orqali “So‘qirlar dunyoni suvning rangi bilan ko‘radi”, degan donishmanlarga xos mushohada yuritmoqda. Beixtiyor o‘quvchi ko‘rlarning olamni qanday ko‘rishi haqida o‘yga toladi va chuqur hislarga beriladi.

She’riy nutqning musiqiyligi, ta’sirchanligi, hissiy to‘yintirilganligida undagi o‘ziga xos gap qurilishining, lafziy san’atlar (stilistik figuralar)ning o‘rni beqiyos. Badiiy adabiyotda stilistik figuralar ijod namunalarini bir qadar go‘zal, jarangdor, ta’sirli bayon etishda ko‘makchi vositalardan biri hisoblanadi. Eshqobil Shukur she’rlarida ma’no ko‘lamini sayqallashda ma’naviy va lafziy san’atlardan foydalanishga ham alohida ahamiyat qaratganiga guvoh bo‘lamiz:

Sen qancha **tor** bo‘lsang… qancha bo‘lsang **tor**,
Dunyo shuncha **keng**dir, dunyo shuncha **keng**.

Ushbu parchada ***antiteza***ning yorqin namunasini ko‘ramiz. Antiteza usuli narsa va hodisalar mohiyati, insonlar xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash orqali oydinlashtirish usulidir. Mumtoz adabiyotda bu usul *tazod* deb yuritilgan. Lirik qahramonning ruhiy holatini, nutq yo‘llangan insondan norozilik kayfiyatini ochib berishda bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar orqali zidlantirish usuli juda qo‘l kelgan.

Men
Qizg‘in qizg‘aldoqlar kaftida o‘sdim,
Yonayotgan muzning taftida o‘sdim,
Bir juft kabutarning kiftida o‘sdim…

Oksyumoron antitezaning bir ko‘rinishi. Oksyumoronda, odatda ma’nolariga ko‘ra bir-biriga yopishmaydigan so‘zlar yonma-yon ishlatiladi va badiiy nutqda original o‘xshatishni paydo qiladi. Yuqoridagi parchada qo‘llangan *“yonayotgan muz”* jumlasida qo‘llangan ikkita bir-biriga mutlaqo teskari so‘zlar bo‘lib, badiiyat talabi bilan yonma-yon kelib, bir yaxlit ma’noni ifodalamoqda.

Qalandarning to‘rvasida hamma narsa bor:
hayoti, o‘limi,
non-suvi, tuzi…
To‘rvaga yashirgan
o‘zini o‘zi.

Yuqoridagi parchada uyushiq so‘zlar bog‘lovchi vositalarsiz faqat ohang yordamida bir-biriga bog‘lanib, *asindeton* hodisasini yuzaga keltirmoqda. Asindeton – bog‘lovchisizlik badiiy uslubda emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri. Shoir asindeton usulini qo‘llashi orqali uyushgan bo‘laklar alohida qat’iyat, keskinlik va jangovarlik bilan talaffuz qilinib, qalandar o‘zi bilan butun bir hayotini, bor-u yo‘g‘ini, asl mohiyatini olib yurishiga alohida e’tiborni jalb qiladi.

Bizlar uyalganmiz tong **ila** shomdan,
Biz aziz tutganmiz quyosh **va** oyni.

Eshqobil Shukur “tong ila shom”, “quyosh va oy” kabi uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi vositasida bog‘lash orqali mazkur tushunchalarga butun diqqat e’tiborni tortibgina qolmay, alohida

salobat bilan ta’kidlab o‘tmoqda va bu ***polisendeton*** san’atini yuzaga chiqaradi. **Polisenditon** – bog‘lovchilik. Bog‘lovchisizlik usulida shakllangan gaplardan ma’noni ifodalash usuli bilan farq qiladi. Bunda uyushiq bo‘laklar ohangidagi me’yor, ritm saqlanib qoladi, ammo u bog‘lovchisiz gaplardagidan o‘z salobati bilan, ta’kidlash ohangi bilan farq qiladi.

Xatmi bu, xatmmi, yo xatmi Hayot,
Qog‘ozga aylanib borardi Ayol.

She'riy misralarda aynan bir so‘zning emas, balki ma’noni kuchaytirib takrorlashga asoslangan usul ***gradatsiya*** deb yuritiladi. Bunda so‘zlarning uyushib kelishida uyg‘unlik mavjud. E’tiborli jihati shundaki, ketma-ket kelayotgan so‘zlarning ma’nosi o‘zidan oldin kelganiga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. *“Xatmi bu, xatmmi, yo xatmi Hayot”* deb ifodalangan misralar orqali ma’no kuchayishining takrori yuz berib, lirik qahramon kechikmalari, tuyg‘usining kuchayishi, hislarining chuqurlashishini beixtiyor o‘quvchi ham tengma-teng his qiladi. Bu o‘rindagi shoirning so‘z qo‘llash, sintaktik-stilistik usullarda mohirona foydalanish mahoratiga qoyil qolmaslikning imkoni yo‘q.

Tuyg‘ular quvilgan koshonalarda
Yuraklar, sevgilar gullarmidi hech?

Yuqoridagi parchada qo‘llangan *ritorik so‘roq gap* orqali *“Tuyg‘ular quvilgan koshonalarda yuraklar, sevgilar hech qachon gullamaydi”,* degan ma’no anglashilmoqda. Ritorik so‘roq gaplarning stilistik usul sifatida o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu savollarning ichida javobi ham tayyor bo‘ladi. Shu berilayotgan savolning teskari ma’nosida tasdiq yotadi. Albatta, o‘rni bilan ma’lum bir fikrni oddiy yo‘sinda emas, ritorik so‘roq gap yordamida ifodalash she’rning ta’sir doirasini yanada kuchaytiradi.

Sintaktik og‘ishlardan yana biri **ellipsis** bo‘lib, unda gap bo‘laklaridan biri (ko‘proq bosh bo‘laklar) atayin tushirib qoldiriladi. Masalan:

Yasan-tusan qilib olgan bu qabr
Ichida maishat qilar bir murda,
Tinmay parvarishlar o‘lik tanasin.
Murda kulishni ham eplay olardi,
Tiriklar ustidan kulishni.

Keltirilgan parchada “eplay olardi” kesimi tushirib qoldirilgan va natijada “kulishni” so‘zi mantiqiy urg‘u oladi. Agar kesim tushirib qoldirilmaganida so‘nggi misra *“Tiriklar ustidan kulishni eplay olardi*” shaklida bo‘lar va yuqoridagidek hissiy ta’sirdorlik birmuncha yo‘qolar edi. Shunga o‘xshash, she’riy misralarning atayin tugatilmay qo‘yilishi yana bir sintaktik figura – ***jim qolishni*** yuzaga keltiradi va shoir bu usuldan ham mohirona foydalanadi:

Sahroda bir daydi daraxtni ko‘rdim,
Qum kechib borardi
yalangbosh
yalangoyoq…
Nenidir izlardi,
Nenidir istardi…

Jim qolish – ellipsisning bir turi. Bu usul yordamida yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida mustahkam psixologik aloqa o‘rnatiladi, o‘quvchi beixtiyor ijodkor hissiyotlariga sherik bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan parchada sahroda yalangbosh, yalangoyoq qum kechib borayotgan bir daydi daraxt haqida o‘quvchi bir marta o‘ylab qolsa, ikkinchi marta jim qolishda shoir endi daydi daraxtning izlayotgan, istayotgan narsa nima ekanligini she’rxonning o‘ziga qoldiradi. O‘quvchini jim qolib o‘ylashga majbur qiladi. Bir muddat kayfiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu holatni ham Eshqobil Shukurning shoirona mahorati deb izohlaymiz.

Ikki bo‘ri ko‘rdim, yer talashardi.
Ikki kiyik ko‘rdim yor talashardi.
Ikki qo‘ngiz ko‘rdim, go‘ng talashardi.
Ikki odam ko‘rdim, go‘r talashardi.

Keltirilgan parchada shoir har bir misrani “ikki” so‘zi bilan boshlash orqali she’rga o‘zgacha joziba, o‘zchaga ritm bag‘ishlagan. Bu usul ***anafora*** deb ataladi. Anafora usulida misralar boshidagi so‘z yoki birikma takrorlanadi. Shoir ***“ikki bo‘ri”, “ikki kiyik”, “ikki qo‘ng‘iz”*** va ular bilan teng ravishda ***“ikki odam”*** obrazini bir qatorda qo‘llash zamirida **“odamlar hayvonlardan farqli o‘laroq nimanidir talashib yashashi kerak emas”, “inson hayvonlar qatorida bo‘lishi kerak emas”** degan g‘oyalarni ilgari surmoqda.

She’r misralarida bir xil yoki bir-biriga juda yaqin sintaktik konstruksiyalarning takrorlanib qo‘llanishi — ***sintaktik parallelizm***

ham she’rning ohangdorligini, ta’sirchanligini oshiruvchi shakllardan sanaladi:

Oy muncha osmontalab, osmon esa jontalab,
Yer muncha naysontalab, nayson esa ontalab,
Yor muncha hijrontalab, hijron esa qontalab,
Men muncha parishonman, munchalar parishonman.

Ko‘rib turganimizdek, keltirilgan parchada uch gap bir xil sintaktik qurilishda o‘zaro takrorlanyapti. Shoir sintaktik parallelizm usulini qo‘llash orqali she’rda takrorlanmas musiqiy ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Xulosa qilib aytganda, shoir maqsadini amalga oshirishda she’rning musiqiyligi va ritmini ta’minlashda badiiy til unsurlarning ahamiyati katta, albatta. Badiiy til unsurlari shoir she’riyatining g‘oyaviy pishiqligi, badiiy mukammalligi, o‘zi xos so‘z qo‘llay olish mahoratini namoyon qilgan. Haqiqiy o‘zbekona ruh bilan ijod qiluvchi shoir Eshqobil Shukur she’rlarini mutolaa qilar ekanmiz, undagi samimiylik, dilkashlik, nafislik, kuyinchaklikdan zavq olamiz. Beixtiyor atrofimizni o‘rab turgan borliq va undagi go‘zalikka mehr qo‘ya boshlaymiz, bu mehr-muhabbatni shoir o‘z she’rlari vositasida bizga yuqtirgan bo‘lsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san’ati. – Samarqand, 2020. – B.240.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: Noshir, 2019. – B.310.
3. Shukur E. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B.104.
4. www.kh-davron.uz elektron kutubxonasi.

“YULDUZLAR MANGU YONADI” VA “AZROIL O‘TGAN YO‘LLARDA” ASARLARIDAGI MUSHTARAK VA AYRICHA JIHATLAR

Sardor Jo‘raqulov
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 301-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi va Said Ahmadning “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi qiyosiy tahlilda o‘rganiladi. Syujet mushtarakligi va mazmunning o‘ziga xos jihatlari qiyoslanadi. Adiblarning obraz yaratish, syujet tuzish mahoratlari haqida xulosalar beriladi. Milliy xarakterlar, asar konfliktining tabiiy ta’sirchan usulda berilishi kabi jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Said Ahmad, “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi, Tog‘ay Murod, “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi, syujet va obrazlari, adiblar mahorati.*

Said Ahmad va Tog‘ay Murod zamonaviy adabiyotimizning qalami o‘tkir, yetuk ijodkorlaridir. Shunday ekan, bu ikki badiiy so‘z ustalaring asarlaridagi o‘xshashliklar etiborni tortmay qolmaydi. Xususan Said Ahmadning “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi va Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi voqealarning ko‘p jihatdan mushtarakligiga guvoh bo‘lamiz. Said Ahmadning keyingi davr hikoyalarini “xotirjam o‘qish mumkin emas, har qanday bag‘ritosh odam ham ularni o‘qiganda larzaga tushadi, ko‘ngli yumshab, ko‘ziga yosh kelganini o‘zi ham payqamay qoladi. Ehtimol adibning bunday baquvvat asarlar yozayotganining ajablanarli joyi yo‘qdir”-deydi Ozod Sharafiddinov [“Ijodni anglash baxti”, 363-b.]. Tog‘ay Murod qissalari ham o‘z davridayoq shuhrat qozongan edi. Qozoqboy Yo‘ldosh adib haqida shunday deydi: “Tog‘ay Murod o‘zbek nasri taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Adib asarlarini boshqa biron yozuvchiniki bilan adashtirish mumkin emas. Shuning uchun Tog‘ay Murod deb atalmish betakror adabiy fenomenni yuzaga keltirgan omillar nimalardan iboratligi ko‘pchilikni qiziqtiradi”. [“So‘z yolqini”, 278-bet].

Manbalar tahlili. Ushbu asarlar syujetiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Ikkala asarda ham qahramonlar xatti harakatini yo'naltiruvchi to'rtta asosiy voqea mavjud. Bizningcha ular quyidagilar:

1. Har ikkala asar bosh qahramonlari – kuragi yerga tegmagan polvonlar;
2. Qahramonlarning yosh polvonlarga yengilib berishi ham o'xshash.
3. Har ikkala bosh qahramon polvonlarga xos bo'lgan ayrim mehribonlik holatlari mavjud.
4. Asar qahramonlari har ikkalasi ham hayot kurashidaga mag'lub insonlar.

Kurash o'zbek xalqining eng azaliy sport turlaridan hisoblanadi. O'zbek to'ylari, hosil bayrami, albatta, kurashsiz o'tmagan . Har bir kurash davrasining fayzi davradagi polvonlar qarab belgilaganlar. – *Ajrim qivoringlar, kurash ko'rgani kelganmiz.*

- *Jalol palvon chiqsin, Jalol palvon chiqmasa kurash qizimaydi! Jalol palvon yetmish yoshlarga borib qolgan ellik yildan buyon kurash tushadi* ("Azroil o'tgan yollarda", 26-b.). *Endi olishni boshlasak bo'la berar. Bugungi davrimizda vohamizdagi dong'i ketgan Bo'ri polvon o'tiribdi* ("Yulduzlar mangu yonadi, 339-b.).

Yozuvchilar kurash maydonini shunchalik mahorat bilan tasvirlaganki, asarni o'qib turib bevosita o'zingizni shu kurash maydonida turgandek tasavvur qilasiz. Polvon xalqi juda izzat nafsli bo'ladi. Davradagi mag'lubiyatni juda og'ir qabul qiladi. Yosh polvonlarni odatda o'ziga ep ko'rmaydi, ular bilan kurashni nafsoniyatiga tegish deb hisoblaydi. Mana ba'zi lavhalarni ko'rib chiqaylik:

– *Men bellashaman. Qo'y bolam men go'daklar bilan kurashmayman, o'z tenging bilan kurash dedi unga nasihat qilgandek.*

– *Yo'q faqat siz bilan kurashaman! Bilib qo'ying, yengaman! Kuragingizni yerga ishqayman.*

– *Katta ketma bola! Mening kuragim faqat o'lganimda yerga tegadi* ("Azroil yurgan yo'llarda", 27-b.).

Endi ikkinchi asarga murojaat qilamiz: *Sarosiyoda osha davrada Bo'ri polvonning tengi topilmadi. Talabgar topilmadi. Talabgor*

bo‘lmasa, sariosiyoliklar denovliklardan qoyil bo‘ldi, bo‘ladi. O‘z uyida qoyil bo‘lish mag‘lub bo‘lishdan yomon bo‘ladi! Bo‘ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi”. Laylakning yurishini qilaman deb, laylakning puti yirtilgan ekan!-deb o‘yladi Bo‘ri polvon.

– Bu yosh bolaku o‘ylab ish qilyabdimi? O‘, kayfi bormi?” Bir yosh bola Bo‘ri polvon shon-shavkatini nazarga ilmay qurga yugurib chiqishi Bo‘ri polvonning izzat nafsiga tegdi. (“Yulduzlar mangu yonadi” 368-bet). Polvon xalqi odatda sovuqqon, rahmsiz bo‘ladi . Lekin bu ikki asardagi polvonlar ularga xos bo‘lmagan rahmdillik bilan tasvirlangan.

Raqibing chayir qo‘llari uning yelkasini bosib turardi. Shunda …Shunda Jalol polvon raqibning o‘t chaqnagan ko‘zlarida go‘daklar yig‘laganda oqadigan shaffof, bokira yoshlarni ko‘rib seskanib ketdi. Ermat o‘kirib o‘kirib yig‘ladi. Bu Jalol palvonning yurak bag‘rini o‘rtab yubordi (“Azroil yurgan yo‘llarda”, 28-b.). O‘xshash syujetni T. Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida ham ko‘rishimiz mumkin: *Nasim polvon chaqqonlik bilan o‘zini orqaga oldi. Xuddi shu daqiqa ko‘zlar uchrashib qoldi. Bo‘ri polvonga o‘sha qop-qora ko‘zlar tik boqdi. O‘sha ko‘zlar, bez ko‘zlar Bo‘ri polvon uchun qanchalik jirkanch bo‘lsa, shunchalik qadrli edi. Qadrdon ko‘zlar Bo‘ri polvon qalbida ko‘pirib toshayotgan qahrni so‘ndirib yubordi.* (“Yulduzlar mangu yonadi”, 359-b.). Bu ikki asarning yana bir o‘xshash jihati shundaki kuragi yerga tegmagan, o‘z davrining zo‘ri bo‘lgan polvonlari hayot kurashida yengilganligi. Bo‘ri polvon do‘sti va sevganining “chili”dan yiqilgan bo‘lsa, Jalol polvon o‘g‘lining qilgan ishlaridan boshi egiladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek ikki asar sujeti deyarli o‘xshash, lekin mazmun, g‘oya jihatdan bir xil ekanmi?

Asardagi asosiy mavzu bosh qahramon – polvonlarning hayoti bir xildek tuyuladi. Ammo mohiyati jihatdan bu ikki asar tubdan farq qiladi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi orqali Surxon vohasidagi to‘ylarni, uning milliy urf-odatlarini, odamlarning samimiyligini, polvonlikning nasl surishini, polvonlarning ruhiyatini zo‘r mahorat bilan ochib bergan. S.Ahmad esa bu hikoyani “sobiq sho‘ro tergovchilari qo‘lida azob chekkan yurtdoshlarimga bag‘ishlayman” deb epigrif qo‘ygan. Ma’lumki, mustaqillikdan

avvalgi “O‘zbek ishi”, “Paxta ishi” kabi kampaniyalar chog‘ida juda ko‘p adolatsizliklar ro‘y bergan. Said Ahmad hikoyasi ana shu jarayonlarning badiiy ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan. “Badiiy falsafa ko‘zi bilan qaralsa, muayyan asardagi oddiy, tuyqus ko‘zga tashlanmaydigan jumla, qahramonga berilgan tavsif katta ma’no yukini tashib, xuddi sehrgar tayoqchasidek badiiy asarga yangi qiyofa kasb etishi mumkin” [“So‘z-u so‘z”, 9-b.].

Xulosa.

1. Turli janrda bitilgan asarlarda o‘xshash syujetlar tashqi jihatdan ro‘y beradi. Mohiyatan esa ular turli badiiy-estetik vazifalarni bajarishi mumkin.
2. Tog‘ay Murod o‘z qissasida polvonlar hayotini milliy go‘zal urf-odatlar bilan yo‘g‘irib tasvirlaydi.
3. Said Ahmad hikoyasida garchand bosh qahramon polvon kishi bo‘lsa ham, yozuvchi XX asr oxirlarida ro‘y bergan katta ijtimoiy adolatsizlikni badiiy gavdalantirgan.
4. Tog‘ay Murod qissasida badiiy psixologizm, konflikt tarangligi haddi a’losiga olib chiqb tasvirlangan, polvon hamiyati, or-nomusi, insonlik sha’ni, shaxsiy g‘urur holatlari ishonarli tasvirlangan.
5. Said Ahmad roman janriga tortadigan voqealarni bir hikoya bag‘riga sig‘dira olgan. Hikoyada keskin salbiy holatlar tadrijiy ravishda ro‘y beradi, asar kulminatsiyasini o‘ta serhayajon nuqtaga olib chiqadi. Hikoya so‘nggida Jalol polvonning o‘z o‘limi oldidan odamlarni ertalabki oshga taklif qilishi (janozasiga) – kutilmagan, ammo puxta dalillangan yechim bo‘lgani bilan alohida badiiy qimmat kasb etgan.
6. Har ikkala ijodkorga xos fazilatlar: badiiy matnning yorqin aks etganligi; qahramonlar ruhiyatining yaxshi ochib berilishi; syujet puxtaligi; asar konfliktining haqqoniyligi va ko‘plab jihatlarni keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad S. Tanlangan asarlar. III jildlik. – T.: Sharq, 2000. Jild I. Hikoyalar. – 304 b.
2. Meli S. So‘z-u so‘z. – T.: Sharq, 2020. – 528 b.
3. Murod T. Tanlangan asarlar. Romanlar, qissalar. – T.: Sharq, 2018. – 704 b.

4. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 504 b.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004. – 640 b.

BOLALAR ADABIYOTIDA MILLIY MENTALITET

Asroriddin Saydazimov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi
Barchinoy Muhammadiyeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining milliy mentalitet haqidagi masalalar, shuningdek, bolalar adabiyotining taraqqiyoti va milliy ahamiyati to‘g‘risidagi tadqiqodlar yoritilgan. Bolalarning o‘zbekona qarashlari, bolalar adabiyotining milliy qadriyatlari haqidagi falsafiy ilmiy izohlar ifodalangan.

***Kalit so‘zlar**: bolalar, bolalar adabiyoti, urf-odatlar, madaniy boylik.*

Bolalar adabiyoti – bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy- ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o‘yin qo‘shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijod namunalaridan boshlanadi.

Bolalar adabiyotida har bir yosh mittivoylarning jajji yuraklari va ularning kelajakda kim bo‘lmoqchi ekanligiga ulkan ishora bor. Mittivoylarning qalbi oppoq qog‘oz misoli, unga nimani yozsang, shuni o‘qiysan. Tibbiyotda butun dunyoga mashhur olim Ibn Sino bolalar haqida qayg‘urishni, hali tug‘ilmasdan turib, onasini tarbiyalash kerakligini va bu tarbiya ona qornida shakllanayotgan mo‘jizaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini takidlab o‘tgan. Chunki ilk shakllanayotgan bolaga onasidan ham jismoniy, ham fiziologik, ham

ma’naviy ozuqalar o‘tadi. Qozoq adibi Abay esa bu to‘g‘rida: “Inson farzandini zamona tarbiya qiladi, kimki yomon bo‘lsa, ayb zamondoshlarida” deb sotsiologiya va jamiyatshunoslikni obyekt sifatida qaragan. O‘zbek xalqi ham ertangi kun egalari tarbiyasiga doimo alohida e’tibor berib kelgan. Bu ularning milliy mentalitetida yaqqol aks etgan.

Bolalar adabiyotining katta-kichik janrlaridan tashqari milliy mentalitetni shakllantiruvchi foklor va milliy urf -odatlar asosiy boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Bu bola ongiga milliy qarashlarning shakllanishida asos hamdir. Keyinchalik ularning ongida ijodkorlarning maxsus milliy ruhda yaratilgan asarlari yanada kengroq tasavvur va tushunchalarni shakllantiradi. Bolalar maktab yoshigacha va shu davr oralig‘ida milliy o‘yinlar, folklor va ertak hikoyalardan bahramand bo‘lishadi. Bolalar adabiyotining tahliliy metodologiyasida ularning rivojlanishidagi adabiyoti va mentaliteti bir-biriga chambarchas bog‘liq. Bunga buyuk o‘zbek yozuvchisi Oybekning “Bolalik” asarini misol qilib keltiramiz. Asarda yozuvchi, bolaligidagi holatlarni hamda o‘zini qurshab turgan jamiyat vakillarining, hayoti, yashash tarzi, madaniyati, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini badiiy ifodalaydi. Shuningdek, milliy mentalitetning shakllanishida bola rivojlanishidagi adabiyotlar sezilarli darajada ongiga ta’sir ko‘rsatadi. Buni bolaning fiziologik, psixologik va biologik rivojlanishida ham ko’rish mumkin.

Fiziologik shakllanish: Bola yosh jihatidan yuksalishi bilan birga, unda tarixiy va zamonaviy qadriyatlar shakllanib boradi. Uning hayoti davomida ta’lim va tarbiya jarayoni, insonlarning munosabatlari va o‘qigan kitoblari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda “Alla” folklor qo‘shig‘i, o‘zbek xalq ertaklari, bolalar uchun yozilgan she’rlar, masal, kabi adabiy janrlardan keng foydalaniladi. 3-7 yoshdagi bolajonlar, asosan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bahramand bo‘lishadi. Xalq og‘zaki ijodi bola tug‘ilganidan boshlab uni qurshab olgan muhit sanaladi va shu obyektga qarab rivojlanib boradi. Shu sababli bolalarga o‘zligini topishda eng ma’quli, xalq og‘izaki ijodi namunalari hisoblanadi. Fiziologik shakllanishda ham psixologik, ham jismoniy (biologik) rivojlanish eng muhim omillar sirasiga kiradi.

Jismoniy (biologik) shakllanishda Bolalar jismoniy harakatlar bilan shug‘ullanadi. Bolalarga milliy mentalitet folklori jismoniy harakat bilan bog‘liq xalq o‘yinlari orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq o‘yinlarini bola 7 – 9-yoshdan boshlab o‘ynay boshlaydi. O‘zbek milliy o‘yinlariga: “Hakkachillik”, “Oq terakmi, ko‘k terak,” “Kim oladi-yo shuginani-yo”, “Arqon tortishuv”, “Berkinmachoq”, “Quvlashmachoq” va hokazolar kiradi. Bu o‘yinlar harakatli o‘yinlar bo‘lishi bilan birga, she‘riy janrdagi xalq qo‘shiqlarini aytilishi bilan bolalar adabiyotinning milliy mentalitetiga daxldordir.

Masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yinida bolalar xalq og‘izaki ijodi namunasidan birini aytadi: Oq terakmi ko‘k terak, Bizdan sizga kim kerak…..

Bundan tashqari endi ularda mustaqil o‘qish qobiliyati shakllanib, tushunchalariga ko‘ra olamni idrok eta boshlaydi.

Psixologik shakllanish: Psixologik shakllanishda bola inson sifatida tashkiliy jihatdan katta yoshli odamlarga o‘xshasa ham, o‘zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jihatdan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Turli yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, hissiyot, xayol va iroda kabi psixik jarayonlarining namoyon bo‘lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvida bolalar adabiyotining bir-biridan qiziqarli janrlari va asarlari muhim ahamiyatga ega. Masalan Adabiy janrlar – bu adabiy asarlarni tasniflash mumkin bo‘lgan turli toifalar va guruhlarga bo‘linadi. An’anaviy adabiy janrlar – she’riyat, hikoya va drama va turli bolalar adabiyotining turlari kiradi.

She'riyat

She’riyat ritm va qofiyaga asoslangan o‘ynoqi va musiqiy xarakteri tufayli bolalar uchun juda jozibali. Bu alliteratsiya, qo‘shiqlar va qofiyalar kabi manbalar tufayli xotirani mashq qilishga yordam beradigan janr. Shu bilan birga, bolalar she’riyati diksiya va intonatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek bolalarining she’riyatida milliy beg‘uborlik, quvnoqlik va yumorga boyligi bilan an’anaviylashadi. Masalan Abdullajon Axmatovning quyidagi she‘rini keltirishimiz mumkin:

Ayajonim nima deysiz,
Eshitmadim ovozingiz.
Ushlab olsam: “Qo‘yvor!” -deysiz,

Jo‘ja, dakan xo‘rozingiz.
Siz quloqsiz deysiz meni
Egri yo‘ldan qolmasmishman,
Siz gapirgan so‘zni sira
Qulog‘imga olmasmishman.
Eh, ayajon o‘g‘ilchangiz
To‘ppa to‘g‘ri yuribdiku,
Ushlab ko‘rdim quloqlari
O‘z joyida turibdiku?

Ertaklar

Ertak esa uning xayoliy orzularini jonlantirib o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadlar uchun kuch beradi. Ertak an’anaviy adabiyotning aksariyat qismini tashkil qiladi. Ertaklarga: afsonalar, ertaklar, balladalar, xalq qo‘shiqlari, afsonalar, fantastika, ilmiy fantastika, komediya va boshqalarni misol keltira olamiz. Ertak bolakayni komil inson bo‘lishida yordam ko‘rsatadigan eng birinchi adabiy janr hisoblanadi

Hikoyalar

Hikoyalar – didaktik ta’limot bilan birga milliy g‘oyaning moslashuvchanligiga xizmat qiladi. Erkin fikrlash va keng qamrovli o‘ylash qobiliyatini shakllantiradi. Bu insoniy qarashlarini va gumanizmga xos milliylikni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Rasmli kitoblar

Bolalar adabiyotining tasviriy ko‘rinishiga ega bo‘lgan rasmli kitoblar bolalarda olamga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. O‘zing bo‘ya, rasmli alifbolar, rasmli ertaklar – rasmli kitoblarning asosiy qismi hisoblanadi

Qo‘g‘irchoq teatrlari

Qog‘irchoq teatrida badiiy personajlar jonli harkatlar va so‘zlarga aylanishini ta’minlovchi qog‘irchoqlardan iborat kompozitsiyadan foydalaniladi. Teatrlarda qo‘g‘irchoqlarning soyali yoki ananaviy turidan foydalaniladi. Teatrda esa ko‘pgina bolalar teatrlashtirilgan tomoshalar xalq ertaklarining dramatik sahnalashtirilgan spektakllarini tomosha qilishadi.

Komiks va animatsiyalar

Multfilmlar yoki komikslar bolalar uchun eng qiziqarli grafik romanlardir, chunki ular chizmalarni komikslarning nutq

pufakchalari bilan bog‘lash orqali ularga oson o‘qishga va so'zlarning to'g'ri yozilishini singdirishga yordam beradi. Milliy multifilmlarimizdan: “Semurg‘ baxt qushi”, “Hunarmand shahzoda”, “Zumrad va Qimmat”, “Turonbotir”, “Sehrli qilich”, “Kenja botir” kabilari bolalarning eng sevimli animatsion filmlari hisoblanadi.

Bu kabi janrlarni bolalar adabiyotida yanada ko‘plab topiladi. Milliy mentalitetning tarqqiyoti milliy adabiyotlar va adabiyotga bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarni qamrab oladi.

Yoshlik, maktab hayoti, ona-yurt tabiati, xalqlar do‘stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o‘rin oldi. Dastavval, oilada boshlangan tarbiya bosqichlari keyinchalik butun bir millat hayotiga ko‘rinmas zanjirlar orqali ulanib ketadi. Bu esa ma’lum bir ma’noda millatning kelgusi istiqbolini ham belgilaydi. Bolalar adabiyoti namunalarining ta’sir kuchi ongdagi bo‘shliqlarni ezgu g‘oyalarga to‘ldirishga, bolajonlarni milliylik ruhida tarbiyalashga yetadigan darajada qudratli bo‘lishi kerak. Bola psixologiyasi shunday mexanizimga asoslanganki, u o‘zi ideal darajaga ko‘rgan qahramoniga ergashadi, u kabi bo‘lgisi keladi, o‘zini o‘sha qahramonga o‘xshab tutishni boshlaydi, uning nutqidan parchalarni o‘z nutqiga ko‘chiradi, unga o‘xshashga ongli va ongsiz ravishda harakat qila boshlaydi. Natijada kichkina qizaloqlar tilida “Men Zumradga o‘xshayman-a onajon” – degan jumlalarni ko‘p bor uchratamiz (Zumrad-O‘zbek xalq ertagi ijobiy qahramoni). Hatto Zumradga o‘xshagisi kelgan qizaloqlarimiz onasiga imkon qadar ro‘zg‘or yumushlarida ko‘maklashishga, maqtov eshitishga urinishadi. O‘g‘il bolalarimiz esa, Ziyod botirlardek bo‘lishni, u kabi nom qozonishni istashadi. Bu esa milliy mentalitet shakllanishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Har bir bolaning idealiga taqlidi bolalar sivilizatsiyasining taffakur evalyutsiyasida kelajakda qanday inson bo‘lmoqchi ekanligi haqidagi fikrlarning shakllanishiga xizmat qiladi

Bolalar adabiyotida ijod qilishda, avvalo, xalq hayotini yaxshi bilish, badiiy obrazlarni falsafiy dunyoqarash bilan shakllantirish maqsadga muvofiq. Milliy an’analar asosida vujudga keladigan xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarda rivojlantirishni osonlashtiradi. Umuman olganda, bolalar adabiyoti bolalarda ona tili rivojlanishini, xotira va ongning o‘sishini, oliyjanob fazilatlarning shakllanishi

ta’minlaydi. Motivatsion qarashlarni, teran fikrlash qobiliyatini, tafakkurni rivojlantiradi. Voqealardan kelib chiqib his-tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Bolalar adabiyoti bu bolajonlarning orzulariga qanot bo‘la oladigan beqiyos yordamchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti:darslik-majmua. –T.: O‘qituvchi, 2010.
3. Hamidova M. Bolalar adabiyoti: maruzalar matni. –N., 2017
4. Ойбек. Болалик хотираларим: Қисса/Ойбек.-Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.-242 б.
5. https://www.twinkl.co.uk/teaching-wiki/literatura-infantil
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_adabiyoti
7. https://youtu.be/LSwpwoFg7d8

“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” VA “BEPOYON OSMON” ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Shaxriniso Mitanova

ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi va Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasidagi qahramonlarning qiyosiy tahliliga oid ayrim jihatlari haqida so‘z yuritilgan. Sujet voqealarida Oyto‘ldi va uning turmush o‘rtog‘i Oymomo va Qoplon xarakterlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, oila deb atalmish maskanni so‘nggi yo‘lgacha olib borgan kishilar hayoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, hikoya, obraz, motiv, qiyosiy tahlil.*

Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi va Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyalari haqida so‘z borar ekan, chetdan qaraganda har ikki asar ham farzandsizlik motivi bilan boshlanib, shu bilan tugaydigandek ko‘rinadi. Asarni yuzaki tahlil qilganda ham shunday.

Ammo, bu ikki asarning mushtarakligi shundaki, asar haqiqiy muhabbat haqiqiy sabr, haqiqiy o‘zbek kishilari, hayot so‘qmoqlarini yengib o‘tgan pok insonlar haqidagi bir dostondir. Ularning farzandsizligi esa, bu to‘fonni bosib o‘tishda Olloh tomonidan berilagan bir sinovdir.

Har ikki asar qahramonlari qadarga iymon keltirgan kishilardir. “22.Na Yerga va na o‘zlaringizga biron musibat yetmas, magar (yetsa) Biz uni paydo qilishimizdan ilgari Kitobda (Lavhul-Mahfuzda bitilgan) bo‘lur. Albatta, bu Allohga osondir. Izoh. Ya’ni, hayotda sodir bo‘ladigan har bir yaxshi-yomon, katta-kichik voqea-hodisa, albatta, Alloh taoloning taqdiri azaliysida bitilgan bo‘ladi. Yaratganning amrisiz birovning badaniga bir tikan kirmaydi. Bu haqiqat bayon etilishiga sabab:23. Toki sizlar qo‘llaringizdan ketgan narsaga qayg‘urmagaysizlar va (Alloh)ato etgan narsa bilan shodlanib (havolanib) ketmagaysizlar. Alloh barcha kibr-havoli, maqtanchoq kimsalarni suymas” [1. “Qur’on” Hadid surasi 22.23]. Asar qahramonlari Oymomo va Qoplon, Oyto‘ldi va uning turmush o‘rtog‘i qadariga iymon keltirgan kishilar edi. Ular hammasini Ollohdan deb bilganlari uchun taqdirlariga isyon qilishmadi, aksincha rozi bo‘lib shukr qilib yashashdi. Navoiy ham bu borada shunday yozadi: “Oltinchisi qismat haqligi haqidagi so‘zdir. Bilingkim, azaliy yozi – qanday yaxshi va yomon narsa bo‘lsa, o‘shaning hammasidir” [Navoiy, 2006: 288].

“Oydinda yurgan odamlar” asarining qahramoni Qoplon aytadiki, “Esimni taniganimdan buyon Xudoga sig‘inib keldim, Xudoga topinib keldim. Dilimda-da Xudo bo‘ldi, tilimda-da Xudo bo‘ldi. Shunday ekan neki qilsang qil, pusht-u kamarli qil. Bandalaring qay bir podsholarga sig‘inmadi. Bandalaring qay bir kattalarga sig‘inmadi... “Ey partiya, o‘zing saqla”. “Ey Komsomol, o‘zing madad ber” demadim. Ammo deguvchilar bo‘ldi... “Ey banda, Xudodan qo‘rq” dedim. “Ey banda, partiyadan qo‘rq” demadim.” Ey banda, komsomoldan qo‘rq” demadim... “Ey Xudo, o‘zing kechir” dedim. “Ey partiya, o‘zing kechir”, “Ey Komsomol, o‘zing kechir” demadim.” [Murod,1985:119]. Qoplon Ollohdan boshqa kishilarga iymon keltirmagan obraz ekanligini yuqorida keltirilgan nutqi orqali ham anglab olishimiz mumkin. Voholangki, o‘sha paytda iymonidan qaytgan, partiya va komsomoldan madad kutganlar ham topilar edi.

“Odam faqat yaratganda shunday qiyofaga kiradi, odam faqat biror narsa yaratgan lahzalardagina yaratuvchining naqadar ulug‘ligi va qudratini his etadi. Bu his har bir odamga tanish. Bizning ishlarimiz o‘sha Yaratgan yaratganning yaratganlaridir…” [Ro‘ziyeva, 2022]. Ammo, bizning qahramonlarimiz garchi yaratmagan bo‘lsalar-da, Yaratuvchining ulug‘ligi va qudratini his etib umid dengiziga g‘arq bo‘lgan insonlardir. Ehtimol, uyida it-mushuk boqishni madaniyat deb bilganlar uchun, farzandsizlik qiyin masala emasdir. Lekin o‘zbek millati uchun, Qoplon va Oymomo, Oyto‘ldi va turmush o‘rtog‘i uchun bu sinovni boshdan kechirish anchagina qiyinchilikka olib keldi.

Asarni mushohada qilar ekanmiz yana bir jihatiga e’tibor bersak, bu qahramonlar hayot jangida yengilmasdan, so‘nggi nafasigacha kurashgan insonlar edi. Bularga har tomondan ta’na-yu dashnomlar yog‘ilib turdi. Ko‘z-yoshlar seldek oqib turdi. “Po‘lat pichoq qinsiz qolmas”, “Teshik munchoq yerda qolmas” singari kurakda turmaydigan gaplar bilan dillarini og‘ritib, yomg‘irdek ko‘z yoshlar yog‘dirsa ham chidadi. “Oydinda yurgan odamlar” asarida Qimmatmomo, “Bepoyon osmon” asarida ammasi Bibioyna hech kun bermas edi.

“Nima deysan ey g‘ayri inson ,
G‘iybatlaring qildi meni qon .
Sen ham bir kun o‘tursan inon ,
Mehr qolur muhabbat qolur...!” [Yusuf, 2007: 320]

Ko‘chada, uyda, mehmonda, azada bir xil muammo bilan ta’qib etardi. Ammo, Oymomo ham Oyto‘ldi ham buni hech kimga aytmas, ichlariga, yuragiga yashirar, lekin ko‘zlari oshkor qilib qo‘yar edi. Shunda ham ular yengilmadilar. Hatto Qoplon bobomizga: “Ko‘r bo‘l ha, ko‘r bol, otang rahmatli aytgan, enang rahmatli aytgan, turmushing turmush bo‘lmaydi deb, aytganlari keldimi, keldi, o‘zingning umringni o‘zing ko‘kka sovurding”. (Murod, 1985:132] deb aytilgan gaplari, Oyto‘ldi onamizga esa: “Agar gap faqat Xudoda bo‘lsa indamasdim, lekin hamma ayb Oyto‘ldining o‘zida. Bu qorabosh o‘lgurning o‘zi qisir! Agar akam boshqaga uylanganda allaqachon bir to‘da bolali bo‘lib ketardi.” [Eshonqul, 2014] deya qilingan malomatlarga chidadi, “mening qo‘yadigan xotinim yo‘q” deyishdi. Xalq ham tinch qo‘ymaganligi uchun, odamlarning gap-

so‘zi uchungina avliyolar-u azizjoylar, eng zo‘r tabiblar ham qolmadi. Natijada el og‘ziga tushmaslik uchun ayblarini er xotinidan, xotin eridan yashirib yashadi.

“Oydinda yurgan odamlar” va “Bepoyon osmon” asarlaridagi qahramonlar hayot mazmunini topish uchun, baland-u pastidan shod-u xurram o‘tishlari uchun o‘z farzandlarini yaratishdi. Oyto‘ldi va uning turmush o‘rtog‘i bu shodlikni amakisining o‘g‘lidan topgan bo‘lsa, Oymomo va Qoplon o‘z hayollaridagi, tushlaridagi farzanddan topdi. Qoplon va Oymomo shunchalar hayolga berilishdiki buning ta’sirida o‘z hayolida bobo va momo bo‘lishdi. Qoplon o‘zining hayoliga berilib Hizrdan farzand so‘radi va uni hayotiy deya o‘yladi. Ammo bu faqat xayolda edi xolos. Qoplon shunchalar xayolga berilgan ediki, Hizr qo‘lini qisaman deb ayolini bo‘g‘ayotganini ham bilmas edi. Qoplon ayoli yig‘lab o‘tirganida hayron bo‘lib shunday degan edi: “Men bo‘g‘dimmi? Seni-ya? Qachon?” [Murod, 1985:124]

Har ikki asar qahramonlari ayolisiz ham ma’lum vaqt yashab ko‘rdi. Ammo ko‘nika olmadi. Go‘yoki tarki dunyo holatida yashadi. Buni o‘z hayollari orqali ifodalangan jumlalardan ham sezishimiz mumkin. Bola amakisini shunday hikoya qiladi. “Oylab yolg‘iz qolsa ham amakim bir o‘zi, bo‘ydoqday yashayverdi. Boshqaga uylanishdan bosh tortdi. Yangam ketgan kunlari ovqat ham yemay, uyga qamalib olardi. Hech kim bilan ko‘rishmasdi, hech kim bilan gaplashmasdi.” [Eshonqul, 2014] “Qoplon akamiz yolg‘iz yashadi, Achchig‘i tarqalguncha bilinmadi. Keyin keyin xolamizning yo‘qligi bilindi. Kechalari ayolini qumsab entikdi. Bolishni bag‘riga bosdi. Hovlini aylanib yurdi” [Murod, 1985:132]. O‘z ayollarisiz yashash har ikkisi uchun og‘ir kechdi. Xudoning ishiga aralashib bo‘lmaydi deganlaridek qalblar yana birlashdi.

Eng muhimi shundaki, ular oila deb atalmish buyuk ne’matni saqlab qola oldi. Bu esa eng katta baxt edi. Ular o‘zidan moddiy ma’noda uyining chiroqlarini yoqib ketmagan bo‘lsa-da, ma’naviy ma’noda mehr chiroqlarini yoqib ketgan edi. “Bepoyon osmon” hikoyasida aytadi-ku “Hatto maktablarda ham o‘qituvchilarimiz Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnun, Tohir-u Zuhra haqidagi dostonlarni yanada hayotiyroq qilib tushuntirish maqsadida, albatta, amakimni misol qilib ko‘rsatishar, amakim barcha yoshlarning

muhabbat uchun o‘z rohat-farog‘atini, farzand ko‘rish, erkalash zavqini, umuman, hayotning bor ne’matlarini qurbon qilgan, muhabbatga hech narsani almashmagan o‘sha kitoblardagi ma’lum va mashhur sevishganlardan zarracha kam bo‘lmagan qahramonga aylangandi”.

Biz Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi va Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyalarini qiyosiy tahlil qilib ba’zi juz’iy xulosalarga keldik:

Emishki aslida bepayon osmon
Sevishganlar uchun xatarsiz makon.
Gar yalg‘on dunyoda topishsa zavol
Haqiqiy dunyoda berilar imkon. [https://m.ok.ru]

Yuqoridagi misralar go‘yo Oymomo va Qoplon, Oyto‘ldi va uning turmush o‘rtog‘ihaqida yozilgandek. Bu qalblar yerga sig‘madi. Bepoyon osmongina ularga xatarsiz maskan bo‘ldi. Bu yolg‘on dunyoda zavol topganligi uchun haqiqiy dunyoda ularga imkon beriladi. Bu dunyoda topmaganlarini u dunyoda topadi. Shuning uchun ham asar so‘ngida har ikki qahramon ham haqiqiy dunyoda saodat topish uchun ketish bilan yakunlanadi.

1. Asar qahramonlari Ollohning birligi va qadarning Ollohdan ekanligiga iymon keltirgan kishilar edi.
2. Garchi dunyoga kelib farzand qoldirmagan bo‘lsada, mehr-muhabbat qoldirgan insonlar edi.
3. Tarki kalom tarki taomdan qiyin.
4. Eng muhimi, shuncha sinovlar bo‘lsa ham oila deb atalmish maskanni tark etmadi.
5. Sen chidaganing sari, nasibang go‘zallashadi.
   Sen uringaning sari, nasibang yaqinlashadi.
6. Har ikki asarni manzur qilgan jihatlar ularning real hayotiy asosga qurilganligi.
7. Har ikki asarda ham badiiy konfliktlarning bir necha turi qo‘llangan: qahramon va jamiyat, qahramonlararo va har bir qahramonning o‘z ichki ziddiyatlari tasviri.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’on. – T.: Munir, 2022. – B. 858.

2. Навоий А. Ҳайратул-аброр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2006. – В.290.
3. Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1986. – В.119.
4. Ro‘zieva Z. 2022. https://kh-davron.uz.
5. Yusuf M. Saylanma. – T.:Sharq, 2007. – B 320.
6. Eshonqul N. Bepoyon osmon. – T., 2014. https://n.ziyouz.com
7. https://m.ok.ru

ADABIYOTDA UCHRAYDIGAN CHUMOLI OBRAZI TALQINI

Xulkaroy Rajapova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va jahon adabiyoti asarlarida uchraydigan chumoli tasviri haqida fikr yuritiladi. Chumoli obraziga yuklatilgan vazifalar, u nima maqsadda asarga olib kirilishi borasida mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *chumoli, Ezop, obraz, tahlil, an’ana*

Xalqimiz orasida “Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Mehnat qilsang yetasan murodga, yalqov bo‘lsang qolasan uyatga” degan maqollar ko‘p bora takrorlanadi. Bu maqollar, asosan, kattalar tomonidan bolalarga, kichiklarga maslahat tarzida ta’kidlab aytiladi. Hayotda ham, hattoki shu paytgacha o‘qilgan asarlarda ham insonning mehnatsevarlik xislati alohida ulug‘lanadi. Bolalarga bu xislat kichikligidan singdirib boriladi, harakat qilishga, dangasa bo‘lmaslikka o‘rgatiladi. Bolajonlar bu xislat haqida “Ninachi va chumoli” ertagida ham o‘qishgan, mehnatkashlik tasviri bo‘lgan jonivor – chumolini olqishlashgan ham. Hayvonlarga, hasharotlarga nisbat berilganda bu jonivor ish qilib charchamaydigan mehnatsevar obrazida zuhurlanadi. Xo‘sh, o‘zi adabiyotga chumoli tasviri qanday kirib kelgan? U nimaning timsoli hisoblanadi?

Ushbu obrazni dastlab, Ezop o‘zining masallariga olib kirgan. Uning ruschadan o‘zbek tiliga Qodir Mirmuhammedov tarjima

qilgan masalini olaylik. Bunda suv ichish maqsadida ehtiyotsizlik qilib, jilg‘aga tushib ketgan chumolining hayotini kaptar qutqarib qoladi. Birdan sayyod kaptarni ko‘rib, darrov uni ovlashga shoshiladi. Vaziyatni anglagan chumoli borib sayyodning oyog‘ini chaqdi. Buni ko‘rgach kaptar ham uchib ketdi va endi uning ham joni omon qoldi. Endi, chumoliga alohida to‘xtalsak. Chumolining birgina ishi kaptar yaxshiligiga javob qaytargan bo‘lsa, ovchining yomon niyati uchun ham uni chaqib oldi. Asosiy mohiyat, faqat bu emas, balki chumoli mayda jussali jonivor. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, uning yordami asqotdi. Demak, bu masaldan xulosa shuki, ba’zan, jussasi kichik, zaif odamlarning ham katta yordami tegishi chumoli orqali ochib berilyapti. Ezop chumoli haqida boshqa masallar ham yozgan. Undan keyin fransuz adibi Lafonten ham masal janrini davom ettirdi. Uning ijodida ham chumoli tasviri yo‘q emas. Lafontenning masalini rus adibi I.Krilov “Ninachi va chumoli” deb nomlab, she’riy yo‘l bilan rus tiliga tarjima qildi. Bu ertak 1808-yilda nashr etilgan bo‘lsa, rejissorlar tomonidan ikki marta suratga ham olingan. Shu tariqa bolajonlarning eng sevimli ertaklaridan biri yaratilgan. Bundan kimlardir mehnat qilish, dangasa bo‘lmaslik haqida o‘zlari uchun xulosa yasaydi. Lekin, ninachining yonini oladigan bolalar ham yo‘q emas. Xuddi, Somerset Moem o‘zining “Ninachi va chumoli” nomli hikoyasida yozganidek: “Menimcha, aqli noqislikdan emas, bolalarcha beboshligimdanmi, bunaqa axloqni qabul qila olmasdim. Axir bolalar uchun axloqiy hislar ahamiyatsiz-da” [https://kh-davron.uz] Chunki, bolalar dunyoni turlicha tasavvur qilishadi. Ularning dunyoqarashini, tushunchasini bir-biri bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Sababi, bular uchun hayot – xuddi kattalarnikidek oq-qora emas, balki gulogun ranglarga to‘la. Chumoli haqida suratga olingan multfilm qaysidir ma’noda bolalarni tarbiyalay oladi ham.

Eng qiziqarlisi esa, rus yozuvchisi Ivan Turgenov o‘zning mashhur “Otalar va bolalar” romaniga ham chumoli tasvirini bir kichkina epizod qilib kiritadi. Romanda ikki do‘st Bazarov va Arkadiy har tomonlama hayotni tahlil qilmoqchi bo‘lishadi. Bu yoshlarning o‘zaro gurungi o‘tloq ustida davom etayotganida Bazarovning ko‘zi chumoliga tushadi. Uning pashshani sudrab ketayotganidan Bazarov hayratlanib, shunday deydi: “ – Voy, anavi azamat chumolini ko‘r,

chala o‘lik pashshani sudrab ketyapti. Sudra, birodar, sudra. Uning o‘jarlik qilishiga qarab turma…” [Turgenov, 2015: 180]. Romandagi chumoli azamat va qat’iyatli. U pashshani hali yarim o‘lik bo‘lsa-da, sudrayapti. Nima qilib bo‘lsa ham uni olib ketmoqchi! Mana uning shijoati! Yo‘qsa, u maydagina bir jonivor-ku.

Bu tasvir faqat jahon adabiyotida emas, balki, o‘zbek adabiyotida ham uchraydi. Bunga misol tariqasida bundan necha asrlar ilgari yashagan Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarini aytish o‘rinli. Unda “Sulaymonning qarinchg‘a bilan so‘zlashgani” hikoyasi keladi. Manzara ismli qarinchg‘aning podshoh Sulaymon bilan suhbati chiroyli yoritilgani bilan asar yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega:

“Qarinchg‘a aydi:

…Shuncha tilagoningizcha nima berdi?

Aydilar:

– Shamolni musaxxar qilib berdi. Muncha hashamat va saltanat lashkarimni taxt-baxtlarim bilan birga ko‘tarib yurur – dedilar.

Manzara aydi:

–Ey Sulaymon, aning ma’nosi olam yeldek o‘tar. Aning borcha ishi behudadur. Yelning vujudi bo‘lmas, hamma ishlari foniydur. Ani mingancha ma’rifat markabini minganingizda erdi, ko‘z yumub ochguncha Arshi a’loga borur erdingiz…”. Ko‘rinib turibdiki, suhbatda chumoli o‘z jismining dono va raiyat uchun g‘amxo‘r podshohi sifatida aks etadi. Ogahiy o‘zining “Ustuna” radifli g‘azalida qalamga olganidek “bod ustuna taxtin qurib, sayr etgan Sulaymon” podshohda qarinchg‘a baxillikni, foniy dunyoga intilishni ko‘radi. Va ikkalasining suhbatidan bilish mumkinki: o‘tkinchilikka havas etib, u tomon yurishdan, hamma kirlardan xayollarimizni, qalblarimizni tozartirishimiz lozimdur. Bu tomon ketayotganlar ko‘ngil boyligi, xotirjamlik, ma’nan yuksaklikdan uzoqlashib boraveradilar. Mana shularni anglagan muallif, chumoli tilidan gapirib, insoniyatni ma’naviyat-u ma’rifatga undaydi. Ularning maqsadi – inson qalbini tarbiyalash. Chunki, “Yurak tez-tez o‘zgarib turgani uchun uni qalb deb ataganlar. Har daqiqada u nima xayolga tushadi, niyati yaxshimi, yomonmi, bilib bo‘lmaydi” [Kalila va Dimna, 2016: 238-239]. Muxtasar qilsak, inson botinini qayta-qayta isloh qilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lgay.

So‘ngso‘z o‘rnida aytganda, odam dil uyini chang-u qurumlardan tozalashni kanda qilmagani ma’qul. Yuqorida aytilgan so‘zlar bir misollardir. Bu chumoli ham aslida, turli xil qahramon sifatida zuhurlansa-da, insonni insoniylikka boshlashga ma’lum ma’noda xizmat qiladi. Bunday olib qaraganda, adabiyot – ko‘ngil ishi demak. Inson yashab turibdimi, dilini har qanday kirlikdan muhofazalashni bilishi kerak. Ichki olamini go‘zallashtirib borgan odam yuksak hissiyotli bo‘ladi. Insoniyat tafakkur olamini ma’naviyat suvi bilan yashnata oladi. O‘zi adabiyotning asosiy maqsadi ham o‘quvchini teran va tiniq fikrlashga o‘rgatish! Jamiyatdagi har bir a’zo adabiyot vakili bo‘lolmasligi mumkin. Ammo, inson qaysi sohani egallamasin, botiniy tomondan unda dil pokligi shakllansin va yuksalsin. Negaki, ko‘nglini tarbiyalay olgan inson – chinakamiga qahramon. Uyning poydevorini mustahkam qurish kerakligi aytilgandek, dilni ham kichiklikdan tarbiyalashni unutmaslik kerak. Adabiyot o‘quvchiga mana shuning uchun kerak. Adabiyotda uchraydigan chumoli tasviri orqali ham yozuvchi kitobxonni faqat poklanishga, yaxshilikka undaydi. Chumoli vositasida mana shu maqsadlar yotadi. Bu mehnatkash jonivorning asarlardagi vazifasi jamiyat a’zolarini komil inson sifatida shakllantirishga intilishdir. Yozuvchi o‘z qahramoni tilidan kitobxonga mana shularni anglatmoqchi, uqtirmoqchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kalila va Dimna. T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 238 – 239.
2. Turgenov I. Otalar va bolalar. Roman. T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 180.
3. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua I qism. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2018. – B. 105.
4. https://nastavnik124.ru/uz/physics/basnya-strekoza-i-muravei---krylov-ivan-ivan-andreevich-udivitelnoe-shkolnoe-sochinenie-o-basne-krylo/
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/ezop-masallar-3.html

EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI
(Qissa va hikoya misolida)

O‘g‘iloy Xushvaqova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada ta’lim olishning umumiy o‘rta ta’lim bosqichida epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullarini o‘rganish, epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslarini, tamoyillarini, metodik va me’yoriy asoslarini o‘rganish, shuningdek, ushbu o‘rganishlarimiz asosida epik asarlar: hikoya, qissa kabi turlarini tahlil qilish usullarini tavsiya etish maqsad qilib olingan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, qissa, epik asarlar, didaktik tahlil, “Mushohada” usuli, ilmiy tahlil.*

Hozirgi zamonaviy adabiyot ta’limida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu ishlar qatoriga epik asarlarni o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etishni ham kiritishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda epik asarlarni, xususan, hikoya va qissa misolida tahlil qilishning samarali usullarini yoritishga harakat qilamiz. O‘quvchi o‘qilgan asarning sir-asrorini tuygachgina qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi, chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa, haqiqiy kitobxonga aylanadi. Biror asarni o‘qish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan zavqlanishga undaydi.

Badiiy tahlil maqsadiga ko‘ra ilmiy va o‘quv (didaktik) tahlilga bo‘linishi haqida biz yaxshi bilamiz. Ilmiy talqin asarning badiiyligini ta’minlagan jihatlar, so‘z sehri, san’atning sirli tomoni nimada ekanligini ko‘rsata bilish bo‘lsa, (o‘quv) tahlil pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, tafakkuri va hissiyotini faollashtiradi. Ilmiy tahlil adabiyotshunosning aqliy faoliyati natijasi bo‘lsa, o‘quv tahlili odamlar bilan muloqot mobaynida amalga oshiriladi. Didaktik tahlilning vazifasi badiiy asarning jozibasi, o‘ziga xosligi, ta’sir kuchi sabablarini aniqlash orqali o‘quvchilarda sohir qalb, hassos tuyg‘ular,

ravon va ifodali nutqni shakllantirishdir. O‘quvchining estetik tarbiyasini faollashtirish, didini o‘stirish orqali uning shaxsini barkamollashtirish esa adabiy ta’limdan ko‘zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

O‘quv tahlili ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichda o‘qituvchi o‘qitiladigan asarni tahlil qiladi, savollar tuzadi, tahlil uchun maqbul usullar tanlaydi. Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligida darsda biror asar tahlil qilinadi.

O‘quv tahlili muayyan shaxslik fazilatlari va xislatlarini tanishga qaratiladi. Badiiy asarda voqea yoki kechinmalar yozuvchining mahoratiga qarab kitobxonni o‘z tomoniga “og‘diradi”. O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, estetik didi, ma’naviyatini yuksaltirishda o‘rganilayotgan hikoyalarning badiiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o‘quvchining o‘qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish, kezi kelganda, o‘z hayotlarida o‘rganganlaridan xulosalar chiqarish malakalari shakllantiriladi. Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi. Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni o‘z tajribasidan izlaydi. Bunday hayotiy tajriba hosil bo‘lishi uchun esa yaxshi kitobxon sifatida voqealar-u kechinmalarni o‘z qalbidan o‘tkazishi, o‘zi tanlab olgan obrazning tarafdori bo‘lib, uning yutuqlari, quvonchi, qayg‘usi-yu mag‘lubiyatini ham o‘ziniki qilib olishi kerak bo‘ladi. Maqolamizning ushbu qismida biz 5-sinf Adabiyot darsligida o‘rganilgan G‘. G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining tahlili asosida o‘z tavsiyalarimizni berib o‘tmoqchimiz.

“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini o‘rganish davomida o‘quvchilar **insof, diyonat, andisha, hamdardlik, qo‘rquv, topqirlik, nafsga qullik, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, yaxshi niyat** kabi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli-tuman kechinmalar, hissiyotlar olamidan o‘zlarini izlab ko‘radilar.

Ushbu hikoya tahlili olib borilar ekan, eng avvalo, hikoya hodisalari yuz berayotgan davr haqida o‘quvchiga ma’lumot berilishi lozim. Bunda I jahon urushida ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasi bu adolatsiz urushda nima qilib bo‘lmasin g‘olib chiqish maqsadida o‘zining mustamlakasi hisoblangan chekka o‘lkalar, jumladan, Turkiston xalqlarining bor boyligini tashib olib ketgani, o‘lkada

ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borgani va boshqa tarixiy faktlar axborot sifatida keltiriladi. Minglab oilalarning yagona boquvchilari – ishga yaroqli erkaklarning urush orti hududlariga mardikor sifatida majburlab olib ketilgani, panohsiz qolgan ayollar va bolalar tirikchiligi nihoyatda xarob ahvolga kelgani eslatiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarining tayyorgarligi ruhiy-aqliy darajasini hisobga olib, tahlilga chuqurroq kirishga undaydigan o‘z savol-topshiriqlarini va darslik mualliflarining yo‘naltiruvchi savollaridan foydalanishi mumkin. Badiiy asarni tahlil qilishga tutingan o‘qituvchi san’atkor bilan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga kiritadigan insondir. Buni qanday natijali amalga oshirish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq, albatta.

Epik janrga oid bo‘lgan yana bir tur bu – qissa. Maqolamizning ushbu qismida biz qissa janriga oid bo‘lgan badiiy asarlarni tahlil qilishga oid bo‘lgan innovatsion usullarni tavsiya qilamiz. Eng avvalo, qissa janriga berilgan ta’rif hamda ushbu janrning o‘ziga xos xususiyatlariga ozgina to‘xtalamiz.

Qissa arabcha, ma’nolari “voqeiy hodisa yoki afsonalar bayon qilingan epik asar, sujetning murakkabligi jihatidan romandan ko‘ra soddaroq badiiy asar” bo‘lib, eng qadimgi janrlardan biri sanaladi. Eng avvalo, o‘quvchilarning asar matni bilan to‘liq tanishgan yoki tanishmaganligini tekshirish uchun **“Mushohada”** usulidan foyalaniladi. Har ikki guruhga asarni turli joylaridan parchalar beriladi. Ushbu parchalar guruhda muhokama qilinib, asarning qaysi qismi ekanligi, asarda ushbu parchaning qanday ahamiyat kasb etganligi, uning davomi haqida o‘z mulohazalarini havola etishlari mumkin. Masalan, 1-guruhga quyidagi parcha berilishi mumkin:

...Bulutlar yaxshi biladi: ko‘ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo‘nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay oh-voh qilishsin: “Eh bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz?” – deb kuyib yurishsin. Bunday bo‘lmasligi uchun – sen yo‘qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang, bulutlar o‘shanga aylanib qoladi. O‘sha birgina bulutning o‘zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko’rib bilsang, bas.

1-guruh quyidagicha javob berishi mumkin:

– Bu holat asarning boshlanishida kuzatiladi. Bolakayning tabiatga mehri, sadoqati va tabiat bilan birlashib ketgani haqida fikr yuritiladi. Bu yerda yozuvchi bolakay ko‘p bora dili og‘rigani va hamma narsadan xafa bo‘lganida qanday holatga tushganini ko‘rsatib bergan. Bu ko‘p bolalar psixologiyasida uchraydi: kimdir xafa qilsa, qayoqlargadir ketib qolgisi keladi, toki hamma seni topolmay oh-voh qilishini istaydi, aytgan gaplaridan afsuslanishlarini xohlaydi.

So‘ng 2-guruh uchun ushbu parcha havola etiladi:

– Eh Ona bug‘u, sen odamlarni bilmaysan, – bosh tebratdi Cho‘tir Baymoq kampir. – Ular hayvonlargagina emas, hatto o‘z-o‘zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so‘zlarim qanchalik rostligiga o‘zing guvoh bo‘larding, lekin odamlar baribir qo‘lingdan tortib olib, bu bolalarni o‘ldirishadi. Buncha g‘amning senga nima keragi bor?

– Men bolalarni uzoq o‘lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo‘layin. Yelinlarim to‘lib turibdi, sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor”.

O‘quvchi: asar tarkibida Shoxdor ona bug‘u haqida ibratli hikoyat keltirilgan. Bu parcha shu hikoyatdan olingan bo‘lib, unda yetim bolalarni o‘lim changalidan qutqarib qolgan afsonaviy Shoxdor ona bug‘uning mehribonliklari haqida fikr yuritiladi. Insonlar o‘rtasidagi xunrezliklar, o‘z manfaatlari uchun jigarlarini ham ayamasliklari to‘g‘risida Cho‘tir Baymoq kampir tilidan aytib o‘tiladi. Insoniyatning tabiatga bo‘lgan ayovsiz munosabati nadomat bilan tilga olinadi. Shoxdor ona bug‘u ikki yetim bolani boqib, voyaga yetkazadi va Bug‘ular avlodining shajarasi paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda**,** epik turga mansub bo‘lgan hikoya, qissa janriga oid bo‘lgan asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularni tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha usul va tavsiyalarimizni berishga harakat qildik.

Hikoya janriga oid bo‘lgan asarlar tahlilini amalga oshirishda hikoya janrining adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati quyidagi uch yo‘nalish: tekstual tahlil, timsoliy tahlil, muammoli tahlil yo‘nalishida uyushtirilishi mumkinligi haqida ma’lumot berdik.

Hikoya janriga oid bo‘lgan asarlarni tahlil qilish usullarini G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi misolida ko‘rsatib berishga harakat qildik. Bundan tashqari qissa janrining o‘ziga xos xususiyatlari hamda uni tahlil qilishning innovatsion usullarini ko‘rsatishga harakat qildik. Ushbu o‘rinda Ch. Aytmatovning “Oq kema” qissasi tahliliga alohida to‘xtalishga qaror qildik. O‘quvchilarning asar matni bilan to‘liq tanishgan yoki tanishmaganligini tekshirish uchun “Mushohada” usulidan, o‘qituvchi bolakay obrazini kengroq va chuqurroq ochib berish maqsadida foydalandik. O‘ylaymizki foydalangan usulimiz o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini ta’minlagan holda amalga oshirilsa, maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism //S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. – Toshkent: Sharq, 2015.
2. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Sharq, 2013.
3. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
4. http://www.edu.uz/
5. http://ziyo.edu.uz/

ALISHER NAVOIY IJODI AZIZ QAYUMOV TALQINIDA

Sarvinoz Boymurodova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 110-guruh talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti tarixining yirik vakili navoiyshunos olim, shoir va tarjimon Aziz Qayumovning hayoti, faoliyati va ijodiy merosi haqida mulohazalar bildirilgan. Aziz Qayumovning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi, Navoiy hayoti va

ijodiy biografiyasini yoritishga doir tatqiqotlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *olim, shoir, tarjimon, an'ana, qo'lyozma, manbaa, devon.*

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular butun umri, faoliyatini, ilm- fan rivoji, insoniyat ma'rifati va kamoloti yo'lida safarbar etadilar. Navoiyshunos olim mumtoz adabiyot tarixining nuktadoni, nozikta'b shoir Aziz Qayumov ana shunday zakiy insonlardan biridir. Aziz Qayumov ilmiy ijodiy biografiyasini o'rganish, olim ijodiy labaratoriyasiga kirish, kitob, risola, maqola va yodnomalarini o'rganish bugungi kun yoshlari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bois, olim va adib, tarjimon, munaqqid, shoir va pedagog Aziz Qayumov ijodiy merosini adabiyotshunosli, matnshunoslik va adabiymanbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish zarurati mavjud. Fikrimizning isbotini Aziz Qayumov "Ishonchli manbalar" nomli risolasida shunday fikrlarini bildiradi.

Olim Aziz Qayumov butun umrini ilmga, adabiyot ravnaqiga sarflagan o'zbek farzandi sifatida ibrat maktabini yaratib ketgan. Fikrimizning isbotini olim xotira – estaliklaridan topish mumkin:

"1967-yili Alisher Navoiyning 525 yilligi keng nishonlandi. O'sha vaqtda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida Navoiyga bag'ishlangan ilmiy yig'in o'tkazildi. Unda Moskvalik va O'zbekistondan borgan Navoiyshunos olimlar ma'ruzalar qildilar. Ushbu yig'ilishda men ham qatnashgan edim. Ammo, yigin tugagach, xizmat ishlari tufayli tezkor Toshkentga qaytdim. Boshqa olimlarimiz Moskvada qolib, bu yerdagi o'quv yurtlari va korxonalarda uchrashuvlar o'tkazdilar, Navoiy ijodini kengroq ko'lamda targ'ib etdilar"[Qayumov, 2011:3]. Aziz Qayumovning o'z tilidan aytilgan ushbu fikrlar olimning nechog'lik ilm- ma'rifatga tashna bo'lganligini ko'rsatadi.

Ustoz Aziz Qayumov estalik xotirasini devon ettirib safar yakunigacha navoiyshunos Abduqodir Haytmetov bilan suhbatlashar ekan, safar jarayonidagi ijodiy uchrashuvlar, qizg'in suhbatlar haqida fikrlarini bilishga qiziqadi Abduqodir Hayitmetov qiziqarli va foydali o'tkan uchrashuvlarning birida bir zavod ishchilariga Navoiy haqida

so‘zlab berishganda ishchi yigitning bergan savoli barchani o‘ylantirganini aytadi.

“Sizlar Navoiy haqida juda aniq tafsiliy ma’lumotlar berdingiz. Bu ishlar hammasi bundan besh yuz yil oldin bo‘lib o‘tgan. Sizlar bu ma’lumotlarni qayerdan bilasizlar, qanday manbalardan olgansizlar ularni ishonarli deb hisoblash mumkinmi?”[Qayumov, 2011:4].

Buyuk Navoiy hayoti va faoliyati donishmandlik bilan bosib o‘tkan umr yo‘li sahifalarini anglash uchun toza qalb, teran nigoh bo‘lishi zarur zavodning oddiy ishchisi tomonidan berilgan asosli savol har qanday ilm ahlini jiddiy o‘ylantirishi tabiiy hol. Ustoz Aziz Qayumov Abduqodir Hayitmetovning xabari va hayratiga javoban shunday xulosani bildiradi: “ Tinglovchini ishontirish uchun kishi o‘zining qaysi ishonchli manbalardan istifoda etganini bildirishi shart”.

Ko‘rinadiki, Aziz Qayumov ilm zahmati , mahorati va fidoiyligidan hech qachon qo‘rqmagan, chekinmagan, balki qo‘lyozma manbalar tubidagi haqiqatni izlab topish, bir manabni ikkinchisi bilan qiyoslab yangi manbalarni qo‘lga kiritish payida bo‘lganlar. Kitobxonga taqdim etilayotgan dalillarni birlamchi manbalarga tayanib, asliyatni tiklab xulosalar bildirgan. Zero, donishmandlar bekordan – bekorga ilmni igna bilan quduq qazishga mengzamagan. Tinimsiz o‘qib o‘rganish, uyqusiz tunlarda qiroat bilan mashg‘ul bo‘lish Aziz Qayumovni buyuk olim Hazrati inson darajasiga yetkazdi. Aziz Qayumov – ijodiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz olimning doimiy ravishda o‘qib izlangani, bilmaganlarini bilish payida bo‘lganini ko‘ramiz. Xususan, Aziz Qayumovni navoiyxonlik darslarida tinglovchilar tomonidan doimiy ravishda beriladigan savol xususida kuyinib ta ‘kidlaydilar:” Deydilarki, Navoiy hayoti va ijodiga oid qimmatli manbalarning hammasi chetga olib ketilgan emish. O‘zimizda hech narsa qolmaganidan o‘sha kitoblarning fotonusxalarini chet ellardan olib kelib, foydalanishga to‘g‘ri kelar emish”.

Bu tarzdagi qat’iy va qaltis jiddiy savollarga javob berish asnosida Aziz Qayumov o‘tmish ota-bobolarimizning nechog‘lik ma’rifatli, zakiy insonlar bo‘lganiga ishora qiladi [Qayumov, 2011: 4].

Asrlar davomida turli tuman suronli bosqinchilik, jang-u jadallar, hunrezliklar, o‘zaro qirg‘inbarotlar avj olgan paytlarda ham Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini avaylab – asrab, avlodlardan avlodlarga o‘tkazib, bizgacha yetkazgan muxtaram ota – bobolarimizning nurli xotirasi oldida bosh egishimiz lozim. Zero, Aziz Qayumov Navoiy ijodini o‘rganish, o‘rgatish va o‘qitishda, dastavval Navoiyning o‘z asarlariga suyangan. Navoiy qalamiga mansub 32 asarning bizgacha yetib kelganligi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari xazinasida saqlanishini mamnuniyat bilan ta’kidlaydi.

Aziz Qayumovning ilmiy, ijodiy, faoliyatini tizimlilik asosida tadrijiy o‘rganar ekanmiz, olimning butun faoliyati ilmiy asosga qurilganini kuzatamiz. Muhimi shundaki navoiyshunos olim Aziz Qayumov har bir mulohaza, ta’kidlarini ishonarli manbalarga suyanib ayni paytda, o‘zbek va xorij navoiyshunoslarining Navoiy ijodiy merosiga oid qimmatli ilmiy taqdiqotlarga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilov B, Eshonova Z . Sulton Xusayn Bayqaro. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 1997. – B.24.

2. Qayumov A. Alisher Navoiy . – T.: O‘zbekiston, 2011. –B .40

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari . – T.: Akademnashr, 2018. – B.480.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AYOL IJODKORLARNING ASARLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Dildora Abdirashidova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d, dots. Z.Mirzayeva

Annotatsiya

Adabiyot darsliklarida keltirilgan ayol ijodkorlarining asarlarini "Taqqoslash" metodi hamda "Motivatsiya" metodidan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil qilish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *qahramon, taqqoslash, ayol, metod.*

"Uzliksiz ta'lim bosqichlarida o'quvchilar adabiyot olamiga "O'qish" kitobi orqali kirib keladilar. So'ng bosqichma-bosqich o'z dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy so'z sehrini anglashga bo'lgan iqtidoriga ko'ra adabiyotning cheksiz ummonlariga g'arq bo'ladilar. Adabiyotni sevishi, o'quvchida unga mehr-muhabbat uyg'otishda fan o'qituvchilarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi globallashuv davrida, texnika asrining talotumlarida ulg'ayyotgan yoshlarimizni adabiyotga, badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish oson kechmayotganligi ham ayni haqiqat. Maktab ta'limining quyi va yuqori bosqichlarida o'tilayotgan til va adabiyot darslarining kutilgan darajada emasligi, adabiyot darsliklaridagi yondashuvlar, bolani tanqidiy fikrlashga, atrofida bo'layotgan voqea- hodisalarga mustaqil munosabatini shakllantirishga, tafakkurini tiniqlashtirishga xizmat qiladigan savol va topshiriqlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlar til va adabiyot darsliklari bilan qiyoslanganda anchayin g'arib ahvolda ekanligi bir necha bor katta siyosiy davralarda, matbuot sahifalarida qayd etildi" [Mirzayeva, Jalilov, 2020]. Yuqorida keltirilgandek, bugungi globallashuv davrida, o'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, o'quvchilarga ayol

ijodkorlarning asarlarini o‘rgatish muommolarga sabab bo‘lmoqda. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek ayolining taqdiri oddiy yoki ko‘zga ilinmaydigan narsa emaski, unga befarq bo‘la olsak. Masalan: Chingiz Aytmatovning “Jamila” asarini olsak, bu asar badiiyati mukammal qissa. Ammo, o‘z eriga sadoqatini unutib boshqasi bilan ketish-bu chin muhabbatmi? Hali eridan qora xat kelmagandi. Ko‘pchilik bu asarni qoralasa, ba’zilar esa oqlaydi. Bu qirg‘iz millatiga xos asar, men bu asar orqali qirg‘iz millatini qoralamoqchi emasman. Ayol obrazini taqqoslab ko‘rar ekanmiz, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarining “O‘ris bolaning oyisi” nomli hikoyasining qahramoni Zebi xolani tilga olsak. Bir kunda ham eridan, ham o‘g‘lidan qora xat oladi, Zebi xola bu xabarni eshitib telba bo‘lib qolmadi yoki boshqaga turmushga chiqmadi, Zebi xola o‘zbek ayollarining matonatini ochib beruvchi qahramondir. Shuningdek, Nodira, Zulfiyaxonimdek ijodkorlarimizni bu o‘rinda tilga olish ma’qul deb o‘ylayman. Bu ikkala ijodkor ham turmush o‘rtog‘idan erta ajraladi va turmush qiyinchiliklarini yolg‘iz bosib o‘tdilar. Ikkinchi turmush qurmadilar, bolalarini yolg‘iz tarbiyalab, o‘z ijod yo‘llarini davom ettirdilar. Bu ijodkorlarimizni asarlarini hamda hayot yo‘llarini o‘quvchilarga tanishtirish hamda o‘rnak qilib ko‘rsatish kerak. Jahon adabiyotida, o‘zbek ayollariga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlarni ko‘rishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish ham kerakki, zamonaviy texnologoyalar rivojlangan asrda yashamoqdamiz, maktab o‘quvchilari ham turli xil texnologiyalardan foydalanmoqda, audio kitoblar o‘qishmoqda, biz bularni cheklay olmaymiz. Bu globallashuvning yagona oldini olishning yo‘li esa adabiyotdir. Ya’ni yuqorida aytib o‘tganimizdek, ijodkorlarimizning asarlarini taqqoslash orqali hamda o‘rnak qilib ko‘rsatish orqalidir. Taqqoslash metodi. Bu yangi bilim va tushunchalarni o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladigan ta’lim metodi hisoblanadi. Yangi o‘zlashtiriladigan bilimlarni avvalgilari bilan taqqoslash usuli, o‘z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko‘rinishidir. Taqqoslash metodi asosida o‘quvchilarda sinfdoshlarining isbot va dalillariga o‘zlarining mantiqiy qarashlarini qarshi qo‘yishga intilishlari yotadi. Adabiyot darslarida bu metoddan foydalanilganda o‘qituvchi o‘quvchilardan matnda mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko‘rsatishni talab

qilishi ham mumkin. O‘qituvchi tomonidan shunday savol yoki masalaning qo‘yilishi, farazlarning ilgari surilishi, ulardan birining to‘g‘riligini isbotlash fikrlar to‘qnashuvi asnosida amalga oshiriladi [Husanboyeva, Niyozmetova, 2018: 101].

Umumta’lim adabiyot darsliklarida berilgan ayol ijodkorlar bilan hammamiz birdek tanishmiz, sababi shundaki, bu ijodkorlarimiz doim darsliklarda mavjud va ularning darsliklarda keltirilgan asarlarini bilamiz. Ammo ularning darsliklarda kiritilmagan asarlari esa nom’alum. Chunki o‘quvchi darslik bilan cheklanib qolgan, hamda ular ayol ijodkorlarimizning asarlari bilan qiziqishmaydi. Masalan: Adabiyot darsliklarida, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin hamda Zulfiya, Saida Zunnunova singari salmoqli ayol ijodkorlarimizning asarlari bilan biz tanishmiz. Ammo bulardan tashqari ham ayol ijodkorlarimiz bor, ularning asarlari va ijod yo‘llari beqiyos. Adabiyotimizda nazar solsak, 70-80% erkak ijodkorlarimiz tashkil etarkan, ammo umumta’lim darsliklarimizda esa atigi 10% ayol ijodkorlarimiz kiritilgan. Ammo, shu keltirilgan ayol ijodkorlarimizning asarlari to‘laqonli o‘rganilmoqdami? Shuningdek, quyida berilgan ijodkorlarimizning asarlarini o‘qitishda qanday metodlar foydalanilmoqda?

Maktab o‘quvchilari bilan suhbat olib borilganda, qiz bola o‘quvchilar ayol ijodkorlarning asarlariga qiziqishi hamda ularning asarlarini sevib mutolaa qilishiga amin bo‘ldim. Shuningdek, qiz bola o‘quvchilarning qariyb yarmi Zulfiyaxonim she’rlarini yod olganligi, shoiraning hayot yo‘li bilan tanish ekanliklarini bildim. Bundan xulosa shuki, hammamizga ma’lumki “Zulfiya” mukofoti ta’sis etilgan, bu mukofot o‘zbek qizlariga bilimi, ularning jamiyatdagi o‘rni va hammaga o‘rnak bo‘la oladigan o‘zbek qizlariga topshiriladi. Ko‘plab maktab o‘quvchilari bu mukofotni olishni xohlaydilar, Zulfiyaxonim singari shoira bo‘lishni, u kishidek har sohada ilg‘or bo‘lishga harakat qiladilar va shu munosabat bilan, qizlarimiz ijodkorimizning asarlarini sevib o‘qishadi, she’rlarini yod olishadi. Nima uchun? Shoiradan ruhlanganligi, shoiraga o‘xshashga harakat qilganligi uchundir. Shunday ekan, Nega? Umumta’lim darsliklarida ayol ijodkorlarimizning asarlari kam kiritilgan. Maktab darsliklariga ko‘proq ayol ijodkorlarning asarlarini kiritish kerak, bu o‘quvchi

qizlarning qiziqishiga hamda kelajakda kasb egallashiga va hayotni tushunishiga yordam beradi. Ayol ijodkorlarimizning asarlarining asosiy qahramoni ayol kishi bo‘ladi, hamda ayol kishining holatini batafsil ochiq ifodalay oladi. Masalan: Zulfiya Qurolboy qizining asarlariga e’tibor qaratsak, ijodkorning asarlarida ayol motivi yaqqol ifodalanadi. Shuningdek, ayol kishiga xos bo‘lgan xislatlar, ayolning xulq-atvori va ayolda kejadigan psixologik holatlarni ham ifodalay olganligini ko‘rishimiz mumkin. Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasida Nazokat obrazi ayollarning o‘ziga xos matonati, sabr-toqati, irodasi, mehr va sadoqati, qat’iyati va mardonavorligini ochib bergan desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Hikoya bosh qahramoni Nazokatning hayot uchun kurashishlari, turli og‘riq-u azoblarga bardosh berayotganida uning ruhiyatida matonatni, og‘ir hamda xunuklashgan holda erining ko‘ziga ko‘rinishni istamagan paytida rafiqa sifatidagi mehr hamda jonkuyarlikni ko‘rishimiz mumkin [Science and innovation issn: 2181-3337 international scientific jour. 2022: 618]. Bu asar o‘zbek ayollarining matonatini yana bir karra ochib beroladigan asar, 10-11-sinf darsliklariga asarni kiritish o‘rinni deb o‘ylayman yoki mustaqil o‘qish uchun o‘quvchilarga tavsiya qilish lozim.

Umumta’lim maktablarida ayol ijodkorlarning asarlari o‘qitishda quyida berilgan metoddan foydalanish kerak, ayol ijodkorlarning asarlari doim o‘tilmaydi hamda ayol ijodkorlarni o‘tganimizda an’anaviy darsdan chekingan holda, interfaol o‘yinlar bilan o‘tilsa, dars qiziqarli va esdan chiqmaydi. Ayniqsa, Motivatsiya metodidan foydalanilsa:

Motivatsiya intrinzik (ichki) va ekstrinzik (tashqi) bo‘lishi mumkin. Intrinzik (ichki) motivatsiya o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi, o‘rganish jarayonidan zavq olishi yoki o‘rganilayotgan narsalarni o‘zi uchun kerakli, muhim, ahamiyatli deb hisoblaganidan kelib chiqadi. Amerikalik taniqli psixolog, motivatsiya hodisasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olima Syuzan Harter (Susan Harter, 1939) tadqiqotlariga ko‘ra, 3-9 sinflarda o‘quvchilarda intrinzik motivatsiya susayadi. Ekstrinzik (tashqi) motivatsiya o‘quvchining tashqi rag_batlar (yaxshi baho olish, o‘qituvchisi yoki ota-onasidan maqtovga sazovor bo‘lish, mukofotga erishish) ta‘siridagi xohishidir. Ekstrinzik motivatsiya qisqa muddatlarda

samarali bo‘lib ko‘rinsa ham, uzoq muddatli maqsadlarga erishish va o‘qish-o‘rganish jarayononing o‘quvchilarga foydali bo‘lishini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri ularda intrinzik motivatsiyani shakllantirishdir. Darsga qiziqmagan o‘quvchi dars oldiga qo‘yilmagan vazifalarga erishmaydi va erishishga harakat qilmaydi, shu bilan birga, dars jarayoniga xalaqit berishi mumkin. O‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otish uchun o‘qituvchi:

– o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishi (nafaqat baho bilan, balki so‘zlar, dalda berish orqali);

– o‘quvchilarni darsning passiv kuzatuvchisi emas, faol ishtirokchisiga aylantirishi;

– dars jarayonida bir xillikdan qochishi;

– darsni o‘quvchi hayoti bilan bog’ashi lozim.

Intrinzik motivatsiyani kuchaytirish quyidagi strategiyalarga tayanadi:

1. O‘quvchida o‘rganiladigan materialga nisbatan qiziqish uyg‘otish, o‘rganiladigan material yoki shakllantiriladigan ko‘nikmani o„quvchi hayoti bilan bog‘lash (hayotda qanday kerak bo‘lishini ko‘rsatish). 2. Materialni taqdim qilishning turli shakllaridan (ma‘ruza, savol-javob, o‘yin, multimediya vositalari) o‘z o‘rnida foydalanish. 3. O‘quvchilarning o‘z oldilariga konkret va realistik maqsadlar qo‘yishlariga yordam berish [Mirzayeva, Jalilov, 2020]. Bu metod o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi bilan birga unumliroq ham bo‘ladi. “Motivatsiya” metodi o‘quvchilarga yangi mavzuni batafsil o‘rganishga yordam beradi, o‘quvchilar o‘zlarini ijodkorning o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali, o‘zlari ham o‘sha davrni, o‘sha shukhni boshdan kechiradilar. Shuningdek, dars jarayonida “Motivatsiya” bilan birgalikda turli xil plakatlardan, prezentatsiyalardan va ijodkorlarimiz haqida vedeorolik, qisqa kinolardan foydalanish o‘quvchilar uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyoz metova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T., 2018. –B. 352.

2. Mirzayeva Z. , Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka). - T., 2020.

3. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

ONA TILI DARSLARIDA “SHAXSIY HIKOYA” YARATISH USULI

Xumora Erkinova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi
erkinovaxumora48.gmail.com
Ilmiy rahbar: ToshDO‘TAU dotsenti,
ped.f.d (PhD) K.Mavlonova

Annotatsiya

Maqolada ona tili darslarida yangi yo‘nalish hisoblangan shaxsiy hikoya yaratish usuli yordamida o‘quvchilarda yozish ko‘nikmasini shakllantirish masalasi muhokama qilinadi hamda ushbu usuldan o‘quv jarayonida samarali foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

***Kalit so‘zlar**: shaxsiy hikoya, mavzu tanlash va saralash, detallar, hikoya yozish.*

Bugungi kompetensiyaga asoslangan ona tili ta’limida yozma nutq savodxonligi to‘rt asosiy tayanch kompetensiyaning biri hisoblanadi. O‘quvchilar ona tili darslari davomida yozma nutq orqali o‘z fikrlarini erkin ifodalab bera olishi, mantiqan va mazmunan bog‘langan, uslubiy va imloviy jihatdan xatosiz matn yarata olishi kerak bo‘ladi. Quyida so‘z yuritiladigan shaxsiy hikoya yaratish usuli yozma nutq savodxonligining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Men bu voqeani/kunni doim yodda saqlayman!” Ushbu jumlani kundalik hayotda tez-tez ishlatib turamiz. O‘zimiz, oilamiz yoki do‘stlarimiz aks etgan eski suratlar yoki video tasmalarga nazar tashlar ekanmiz, ular inson uchun muhim hisoblangan ayrim tajribalar va keyslarni esga tushiradi.

Shaxsiy hikoya (personal narrative) – insonga ma’lum dars yoki xulosa bera oladigan hayotiy tajriba hikoyasi hisoblanadi. Maqolada mana shunday ahamiyatga ega bo‘lgan tajriba – shaxsiy hikoya yozish xronologiyasi, ichki detallari, texnik qurilishi va ularning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritamiz.

1-bosqich. Yozishdan oldingi tayyorgarlik: hikoya uchun ahamiyatli voqealarni tanlash va saralash.

Dastlab hikoya uchun voqea yoki holatlar tanlab olinadi. Buning uchun eski suratlar, jurnal va gazetalar, kundalik, xatlar yoki turli esdalik buyumlar ham manba sifatida foydalanilishi mumkin. Namuna sifatida quyidagi taxminiy asos mavzular olinishi mumkin:

– birinchi ishlab topgan pulim;

– xalqaro tanlovda ishtirokim;

– universitetga o‘qishga qabul qilingan kunim;

– qonunni buzganim uchun olgan jarimam.

Shuni yodda tutishimiz kerakki, tanlanayotgan mavzu boshqalar bilan bo‘lishish uchun o‘ta shaxsiy yoki ahamiyatsiz bo‘lmasligi lozim.

Tanlash jarayonidan so‘ng saralash bosqichi amalga oshiriladi. Bunda tanlanmoqchi bo‘lgan hikoyaning quyidagi to‘rt shartlarga mutanosib ekanligi tekshiriladi:

1-qadam: qanday voqealar sodir bo‘lganini umumlashtirish;

2-qadam: voqealar xronologiyasini tuzish;

3-qadam: ushbu hikoyadan qanday dars yoki tajriba olinganligini qayd etish;

4-qadam: ushbu hikoyani boshqalarga ulashish qay darajada foydali ekanligini aniqlash.

Yuqoridagi tanlash va saralash bosqichlaridan so‘ng mutanosib shaxsiy hikoya tanlab olinadi.

Bunday shaxsiy hikoyalarda yozuvchi ikki maqsadni oldiga qo‘yadi: yozma nutq orqali o‘zini ta’sirli ifodalab berishi va bu orqali o‘qirmanlarga ma’lumot berish, madaniy hordiq ulashish va ta’sir etish.

2-bosqich. Yodga olish va voqea-hodisa detallarini tartiblash.

Yozuvchi o‘qirmanni hikoyaga jalb qila olishi uchun voqea-hodisani aslidek ko‘rsatib berishi lozim. Shuni qayd etish joizki, kichik detallar hikoyaning asosi. Kichik detallar qo‘shish orqali oddiy tasvirning estetik ta’siri yuksalib boraveradi. Masalan:

Oddiy jumla: Yomg‘ir yog‘ishni boshladi.

Ta’sirli jumla: Osmonda kulrang bulutlar birdan qalinlashdi va yomg‘ir tomchilari yog‘ishni boshladi.

Shaxsiy hikoyalardagi voqea va hodisalar xronologik ketma-ketlikda tasvirlanib boriladi. Ushbu mantiqiy va mazmuniy izchillikni ta'minlash uchun turli jadvallar va sxemalar yordam berishi mumkin.

Namuna:

1. *Vaqt: 8:00*
2. *Voqea: Ishxonaga erta bordim.*
3. *Detallar: Sovuq va yomg'irli aprelning ilk kunlari. Ulkan va qandaydir bo'sh binoga kirib bordim. Bino ichida ovoz aks-sado bilan kelardi.*

Shaxsiy hikoyadagi detallar an'anaviy hisoblangan kim? nima? qayerda? qachon? qanday? kabi so'roqlarga javob berish orqali ifodalanishi maqsadga muvofiq. Shuni ham ta'kidlash kerakki, berilayotgan detallar shaxsiy hikoyaga mazmunan va mantiqan mos bo'lishi lozim. Quyidagi tasvirga e'tibor beraylik:

Mening maktabdagi ilk kunim. Ozgina hayajon va asabiy holatda edim. Bizning maktab tor va qiyshiq ko'chaning oxirida joylashgan edi. Avval ro'yxatdan o'tish uchun asosiy binoga kirdim. Bino ichkarisi qo'llarida ruxsat yorlig'i ko'tarib olgan bolalar bilan to'la. Xuddi bir oqimga tushib qolgandek his qilardim o'zimni.

Yuqoridagi detallarni tahlil qiladigan bo'lsak, yozuvchining asosiy ma'no tashuvchi fikri – uning psixologik holati. Shu boisdan o'quv binosining tasvirini bevosita uning kayfiyatiga ta'sir qilayotgani uchun to'g'ri tanlangan detal deb hisoblay olamiz. Tor va qiyshiq ko'chaning esa o'z-o'zidan yozuvchining ichki holatini ochib berishga hech qanday aloqasi yo'q. Agar hikoya davomida bunday aloqasi bo'lmagan detallar ko'p uchraydigan bo'lsa, hikoya mazmun va mantig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin. Demak, berilayotgan detallar o'rnida qo'llanilgan yoki qo'llanmaganligini tahlil qilish uchun:

– shaxsiy hikoyaning asosiy fikr-g'oyasini aniqlash;

– unga mazmunan va mantiqan mos bo'lgan detallarni topish;

– detallar o'quvchiga xayoliy tasvirni chizib olish uchun xizmat qilishi lozim.

3-bosqich. Shaxsiy hikoya yozish.

Namunadagi hikoya, asosan, 3 qismdan iborat bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Kirish – o‘quvchini jalb qila oladigan boshlanma va uni tasvirlab beruvchi detallar:
2. Asosiy qism – voqealar ketma-ketligi;
3. Xulosa – yozuvchi tomonidan egallangan dars yoki tajriba.

Namuna hikoya

Qo‘rquvimni yengdim

Men endigina sakkiz yoshlar chamasi edim, biroq bu voqeani kechagidek eslayman. Men va ota-onam shifokorning xonasida o‘tirganimizda birdan xonaga bizni shoshirib qo‘ygan xabar bilan doktor kirib keldi: “Buni sizlarga aytishdan afsusdaman, ammo qizingizning ahvoli og‘irlashib borayapti, zudlik bilan qizingizni operatsiya qilishimiz kerak, yagona chorasi shu”. (Kirish)

Operatsiya vaqti yetib keldi. Shifokorlar jarrohlik krovati bilan meni olib ketish uchun hamshirani yuborishdi. Endigina sakkiz yoshli qizcha bo‘lganimni hisobga olsak, o‘sha vaziyatda ichim to‘la qo‘rquv, ular menga ozor berishadigandek his qilardim. Shunday bo‘lsa-da, men va o‘yinchog‘im operatsiya xonasiga xohlamasdan ota-onam hamrohligida ketayotgan edik. Negadir mening bu holatimni ko‘rib atrofimdagi shifokorlar asta kulib qo‘yishardi. Men esa buning sababini bilolmasdim, chunki buning kulgili jihati yo‘q edi. Biz yurishni davom ettiraverdik.

Hamshira meni operatsiya jarayoniga tayyorladi, jarrohlik stoliga yotishimga yordamlashdi. Shu payt shifokor mendan qanday hidli narkoz yuborishini so‘radi. Men ozgina o‘yladim va “Qulupnay” deb javob berdim. So‘ng shifokor mendan yuzdan birgacha teskari sanashimni so‘radi va yuzimga niqobimni yopib qo‘ydi… Bir necha soatlardan so‘ng uyg‘ondim. O‘zimni bo‘shashgan va og‘riqli his qilardim. Atrofimda ota-onamni ko‘rdim-u, yana uyquga ketdim. (Asosiy qism)

Hayotimdagi ushbu voqea menga ko‘p narsani o‘rgatgan edi. Shunga amin bo‘ldimki, agar inson qo‘rquvini yengmoqchi bo‘lsa, avvalo, unga yuzlanishi kerak ekan. Shuning uchun menga qo‘rquvimni yengishda yordam bergan o‘sha jarrohlik amaliyotidan minnatdorman. (Xulosa)

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bunday ko‘rinishdagi shaxsiy hikoyalar nafaqat o‘quvchiga o‘zini yozma nutqi orqali namoyon qilishiga yordam beradi, balki unda mazmunan va mantiqan

to‘g‘ri matn tuza olish va uning asosida o‘zining yaratgan ijod namunasini tahlil qila olishiga ham yordam beradi. Yangi ona tili ta’limida bu usuldagi matn yaratish yozma savodxonlikning tayanch asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Yo‘ldosheva. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2021.
2. Holt, Rinehart and Winston.Elements of language.
3. Mahmudov N., Ziyadova T. va b. Ona tili darslarida matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish. Metodik qo‘llanma, – Toshkent, 2015.
4. https://uz.eferrit.com/matnni-qanday-yaratish-kerak/

RAVISH SO‘Z TURKUMINING MAKTAB DARSLIKLARIDA IFODALANISHI

Madina Xamidova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ravish so‘z turkumi darajalarini maktab o‘quvchilariga turli qiziqarli topshiriqlar orqali tushuntirish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: *ravish so‘z turkumi, ravish darajalari, didaktik loyihalash, ma’no turlari.*

Bugungi rivojlanayotgan zamonda o‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga ravish so‘z turkumini turli topshiriqlar orqali o‘rgatish samarali usullardan biridir. Sifatlarda darajalar bo‘lgani kabi ravishlarda ham bu hodisa mavjud. 6-sinf darsligida ravish so‘z turkumining ma’noviy guruhlariga oid topshiriqlar berilgan bo‘lsa-da, lekin ravishning darajalanish hodisasiga ma’lumot va topshiriqlar berilmagan. O‘quvchilarning ravish darajalaridan og‘zaki va yozma nutqida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida darslikka kiritish mumkin.

Harakat va holatning bajarilish tarzi, o‘rni payti, daraja-miqdori yoki maqsad- sababini ko‘rsatuvchi so‘zlar ravish deyiladi.

Ravishlar “qanday?” (astoydil, tez), “qachon?” (yaqinda, hozir), “qayerda?/qayerga?/qayerdan?” (u yoqqa, shu yerda, uzoqlardan), “qancha?” (ko‘p ozgina)”, “qay darajada?” (juda, sal), “nima sababdan?” (noiloj, bekordan bekor), “nima maqsadda?” (ataylab, jo‘rttaga) kabi so‘roqlarga javob bo`ladi.

Sifat so‘z turkumida darajalanish bo‘lgani kabi ravishlarda ham bunday jarayon mavjud.

Ravishlar ham uch xil darajalanishga ega:



O‘rta ta’lim bo‘g‘inida ravish darajalari haqidagi ko‘nikma va malakani shakllantirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish o‘rinli deb bilamiz.

1-mashq. Quyidagi keltirilgan ravishlarni daraxt shoxlaridagi katakchalarga darajalab joylang.

Atayin, sal, ko‘p, ichkarida, sekin, arang, uzoq, qasddan, picha, hozircha, bir mahal, nari, noilojlikdan, oldin, hamisha, piyoda, yaqinda, behad, xiyol, so‘ng, biroz, oz, juda, hozir.



Ushbu lingvistik mashq o‘rganilgan bilimlarni esga tushirish vositasida amalga oshiriladi. O‘quvchilar yuqorida keltirilgan qoidaga asoslanib ravishlarni darajalab so‘zlarni katakchalarga joylaydilar. Tanlash murakkab psixik hodisa bo‘lib, bu bolalarda xotira, tasavvur va fikrlashni uyg‘otadi. Mashqni bajarish uchun olingan bilimlar yodga olinadi.

2-mashq. Ravishlar ketma-ketligini o‘zgartirmagan holda ular ishtirokida qisqa hikoya tuzing. Ravishlarning darajalanishiga e’tibor qarating.



Didaktik loyihalash jarayoniga asoslangan ushbu mashq o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida ravish darajalarini qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yuqorida keltirib o‘tilgan mashq va topshiriqlar orqali o‘quvchilarda grammatik bilim berish, o‘tilgan nazariy bilimlarni esga tushirish va ularni og‘zaki hamda yozma nutqda qo‘llay olish malakalarini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабаева Д. Нутқ ўстириш назарияси ва методикаси. (Дарслик). – Т.: Баркамол файз медиа, 2018. – 432 б.

2. Салишева З. Ўзбек тили машғулотларида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Дисс. PhD. – Тошкент, 2019. – 179 б.

3. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 85-б.

ONA TILI O‘QITISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK VA NAZARIY ASOSLARI

Fotima To‘xtayeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kun ta’lim jarayonining dolzarb mavzusi, ya’ni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarga an’anaviy usulda emas, balki zamonaviy, innovatsion metodlar yordamida mavzularni yoritib berish haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, ona tili darslarining didaktik va nazariy asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kompyuter savodxonligi, elektron manba, globallashuv, nutq o‘stirish, innovatsiya, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetentlik.*

O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ta’lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shunga binoan ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashlashtirish bo‘yicha hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning umumiy qoidalaridan biri bo‘lgan “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida, qolaversa, o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish orqali o‘quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda”.

Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani,

pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Inson tarbiyasida maktab ta’limining ahamiyati kattadir. Prezidentimizning “mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz”, – degan mulohazalaridan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu sababli maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini ham hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi.

Ma’lumki, har bir shaxsning ma’naviy kamoloti unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni shakl va metodlariga bog‘liqdir. Shu boisdan ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik talqin qilish, uning samarali kechishini ta’minlash zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz tomonidan milliy, o‘ziga xos yondashuv tarzi belgilab berildi. “Ta’lim – O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik, faollikni baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi”. Buning uchun kichik maktab yoshidagi (1–4-sinflar) o‘quvchilarini tarbiyalashda ta’limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, internet bo‘yicha ilk elementar tushunchalar berish lozim bo‘ladi. Ana shunday texnologiyalaridan biri texnika vositalaridir. Texnika vositasini ta’lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Bunday ta’lim manbalariga elektron darsliklar, qo‘llanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, internet materiallari, axborot-resurs markazlari kiradi.

Texnika vositasining bir qancha ta’riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, multimedia (inglizcha-yunoncha “multimedia” – “ko‘p vositalilik”) bu – axborot informatsiya

uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo‘lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo‘ladi. Multimediaga ega kompyuterlar, odatda kuchli videotizimga, videomagnitafon va videokameralarni ko‘rish imkoniyatiga, tasvirni ushlash va axborotlarni rangli grafika, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar kabi turli ko‘rinishlari bilan ishlash imkoniyatidir.

Globallashuv – insoniyatning ongi, shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin olishi, birinchi navbatda davlatning intellektual salohiyati, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va umuman zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog‘liqdir.

Respublikamiz ta’lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o‘z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi chuqur bilimlar talab etuvchi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitlarida mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, kasbiy mahorat cho‘qqilarini egallashga qodir va kasbiy moslashuvchanlik xislatlariga ega bo‘lgan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini ilm-fanning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tashkil etishni, zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqoralik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz ekan, zero jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatning barpo etilishiga xizmat qilish asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir. Shuningdek, “Barkamol avlod yili” davlat

dasturida mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarda “… ta’lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarni keng joriy etish va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash, samarali tizimni yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd qilindi”.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. O‘qish va nutq o‘stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o‘quvchilarga muayyan bilim beriladi. O‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirib borish bilan bir qatorda o‘quvchilarni ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish va nutq o‘stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘qish darslari orqali o‘quvchilar to‘g‘ri, ongli, ravon, tez va ifodali o‘qishga o‘rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘la boradilar va ularda kitobga muhabbat tuyg‘usi uyg‘otiladi. Mazkur jarayonning sifatli va samarali amalga oshirilishi bevosita o‘qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bog‘liqdir.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o‘rganish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish hamda pedagogik mahoratini shakllantirish, ta’lim samaradorligini oshirish, modulli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash muammolarini o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari – bu butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘z oldiga ta’lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli

metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda innovatsion ta’lim texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki innovatsion ta’lim texnologiyalari birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta’lim jarayonida qo‘llash – Pedagogik ta’lim. 2001-yil 2-son. 67-73-betlar.
2. Begmatova H. Bog‘cha bolalarida multimedia texnologiyasi tushunchalarini shakllantirish – Xalq ta’limi 2010-yil 2-son. 50-55-betlar.
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.:Fan va texnologiya, 2009-b.348
4. Tayloqov N.I. Olimov A.F. Elektron darsliklar o‘qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida xalq ta’limi, 2009-yil 1-son. 49-50-bet.

O‘ZBEK TILINING QONUNIY MUSTAHKAMLANISHI, O‘ZBEK TILINING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLARI

Anvar Eshnazarov
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan boshlab bugungi kunga qadar qonun doirasida bosib o‘tgan yo‘li muhokama qilingan. Shuningdek, O‘zbek tilining davlat tizimidagi o‘rni, undagi muammo va kamchiliklar bo‘yicha mushohada yuritilgan. Davlat tili haqidagi qarashlarga to‘xtalgan va o‘zbek tilining nufuzini yanada oshirgan muhim jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *davlat tili, o‘zbek tili, muammo, qonun, mushtahkamlanish.*

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda davlat tilidagi hujjatlarni kirill alifbosidan lotin alifbosiga asoslangan hujjatlarga o‘tkazish bo‘yicha 1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g’risida»gi Qonuni kuchga kirdi. Dastlab 2005-yilgacha lotin alifbosiga to‘liq o‘tish bo‘yicha choralar ko‘rish ko‘zda tutilgan edi. 90-yillarning boshlarida lotin grafikasiga o‘tish O‘zbekiston tarixida yangi davrning boshlanganidan dalolat beruvchi jarayon sifatida ramziy tus oldi; bu o‘ziga xoslikni, identifikasiyani shakllantirish yo‘lidagi asosiy siyosiy o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. Bundan tashqari, mazkur vaziyatga o‘zbekcha talaffuzni yozuvda ifodalashda kirill alifbosi bilan bog’liq bo‘lgan noaniqliklarni tuzatish imkoniyati deb qaraldi. Shu bilan birga, ushbu o‘tish lotin alifbosidan foydalangan holda chet tillarni tezroq o‘rganishga yordam beradi deb ham hisoblandi.

1926-yildagi Boku Turkologik kongresi lotinlashtirish masalasini ko‘tardi va 1928-yilga kelib ushbu jarayonning birinchi bosqichlari kuchga kirdi. Gazeta va jurnal maqolalari yangi lotin alifbosidan foydalanishni boshladi; o‘sha yili o‘rta maktablarda ushbu alifbodan foydalangan holda darslar o‘tkazila boshladi. XX asrning 20-yillari oxiriga qadar hukumat tomonidan lotin alifbosidan

foydalanishga katta ishtiyoq ham, xalq tomonidan katta talab ham bo‘lmagan. 30-yillarning oxiriga kelib o‘zbek tilini lotinlashtirish jarayoni sustlashib kirillitsani joriy qilish bo‘yicha harakatlar boshlandi va bu jarayon 1940-yilda tugallandi. 1993-yildan yana lotin alifbosi joriy etila boshladi va bu jarayon 2005-yilga qadar tugatilishi rejalashtirilgan edi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida keyingi yildan boshlab o‘zbek tilining lotin alifbosi asosida o‘qitilishi ko‘zda tutildi. 1995-yilda qonunning ikkita moddasiga ba’zi harflarning imlosi va alifbodagi harflar soniga oid o‘zgartirishlar kiritildi. Biroq muddat 2005-yildan keyin ham yana bir necha bor uzaytirildi va 2021-yilga kelib hali ham yozuvni lotinlashtirish ishlari to‘liq amalga oshirilmadi [6].

Aslida tilni qonuniylashtirish hukumat 1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1989-yil, № 26-28, 453-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritib, uning yangi tahriri tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonunini qabul qildi. Va uning huquqiy asosini mustahkamlab qo‘ydi [1]. Ammo qonunning 4-moddasiga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi”, – deb belgilab qo‘yilgan. Bu boshqa tillarning ham O‘zbekiston hududida keng qo‘llanilish imkonini yaratdi. 6-moddaga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi”, – deb qonuniy norma belgilandi va bu holat O‘zbekiston hududida boshqa tilning ham o‘qitilishiga alohida sharoit yaratib berdi. Bu qolgan qonunlarda ham o‘z aksini topdi va O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tilidan boshqa tillarda ha bemalol foydalanish imkoni yaratildi.

Bu borada demokratik tushunchalar va globallashgan davlatning ilmiy tamoyillari asosida tilshunoslar Qonunning ba’zi moddalariga o‘zgartirish kiritishni taklif qilishdi. Xususan, reklamalarda, davlat tashkilotlarida o‘zbek tilida so‘zlashish o‘zbek tilinig ijtimoiy

nufuziga ijobiy ta’sir o‘tkazishini bot-bot ta’kidlashlariga qaramay, bu hol ijobiy natija ko‘rsatmadi. Bu esa o‘zbek tilidan foydalanish bo‘yicha qarashlarga salbiy ta’sir qilib kelmoqda. Quyida esa aholini qiynayotgan muammolarni bir qismini keltirib o‘tamiz.

- O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borilayotgan tashkilotlarida O‘zbek tili o‘rniga Rus tilida (rus tilini kamsitmagan holda aytaman) muloqot qilinishi;
- O‘zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida Rus tilini bilmaslik (rus tilini kamsitmagan holda aytaman) hozirgi kunda ish topish uchun rus tilidan foydalanishning qat’iy ta’lab sifatida qo‘yilishi;
- Peshlavhalarda, reklama bannerlarida so‘zlarning xato qo‘llanilishi va boshqa tillarda yozilishi;
- Ikki xil yozuvdan foydalanishning noqulayliklari;
- Oliy talim muassasalarining Magistratura bosqichiga kirish jarayonlarida qo‘shimcha til bilish sertifikatlarining talab etilishi.

Bu e’tirozlarning ba’zilari, ayniqsa, tilshunoslar tomonidan ham keng muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Jumladan, ikki alifbodagi yozuv muammosi va uni isloh qilish bo‘yicha hukumatning qarorlari amalga oshirilmayotganligi bugungi kundagi tilshunoslik kamchiliklarining eng asosiysi hisoblanadi.

Kechmishi olis tarixga borib taqaladigan, o‘zining betakror yozma manbalariga ega bo‘lgan nufuzli tillardan biri bu – o‘zbek tilidir. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni yer yuzida (2010-yilgi ma’lumotga ko‘ra) 35 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Darhaqiqat, o‘zbek tili shu kungacha ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyot yo‘lini mardonavor bosib kelmoqda. Eng qadimiy manbalardan tortib, hozirgi davrgacha yaratib kelinayotgan adabiy ifodasi, ma’no qatlamlari, lug‘at tarkibi to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar bera oladi.

O‘zbekning buyuk ma’rifatparvari A.Avloniy: “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, – deganlarida nechog‘li haq edi. U o‘sha paytda ham

tilimiz haqida qayg‘urib, “milliy tilimizni saqlamoq bir tarafda tursin, uni unutib, yo‘qotmoqdamiz” deya jon kuydirga edi [2].

Shuningdek, o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri bo‘lib, dunyo bo‘yicha 50 millionga yaqin kishi shu tilda so‘zlashadi. Filologiya fanlari doktori S.Karimovning fikriga ko‘ra, keyingi yillarda davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, boshqa tillar bilan aloqalari istiqbolini belgilash, o‘zbek tilining milliy korpusini yaratish, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari, elektron dasturlarni ishlab chiqish va o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy ishlar qilinmoqda [3].

Yer yuzida hozirgacha yashagan xalqlarning 7 mingga yaqin tili bo‘lib, ularning 96 tasiga davlat tili maqomi berilgan. Xalqlarning tarixi va bugunini o‘zida mujassam etuvchi, asos bo‘lib xizmat qiladigan so‘zlashuv vositasi bo‘lmish tillarning 2000 dan ortig‘ini 20 ta til oilasi (hind-yevropa, fin-ugor, turkiy, mo‘g‘ul, somxom, tungus-manjur, xitoy-tibet, dravid, papuas, indeys, nigerkongo, sudan va boshqa tillar oilasiga) birlashtiradi. Ushbu tillar oilasidagi hind-yevropani misol qilib oladigan bo‘lsak, bu oila 400 dan ortiq tillarni o‘z ichiga oladi. Bular ichida Ingliz, Shotland, Golland, Nemis, Island, Daniya, Norveg, Shved, Yunon va Rus tillari ham mavjud. Shu o‘rinda, dunyo miqyosida eng keng tarqalgan yetakchi tillarni ham keltirib o‘tish lozim. Bu tillarga xitoy tili (1 212 milliondan ziyod kishi), arab tili (422 milliondan ziyod kishi), hindiy tili (366 milliondan ziyod kishi), ingliz (341 milliondan ziyod kishi) va ispan (322 milliondan ziyod kishi) tillari bo‘lsa, lug‘aviy jihatdan dunyoda eng ko‘p so‘zlardan tashkil topgan til arab va ingliz tillaridir [4].

Davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan tildir. Odatda, ko‘p millatli mamlakatlarda, masalan, O‘zbekiston, Hindiston, Kanada, Shveysariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitusiyalarida belgilab qo‘yilgan. Davlatlarning ko‘pchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi. Masalan, Shveysariyada konstitusiyaga binoan nemis, fransuz, italyan tillari – rasmiy til; nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari davlat tili sanaladi [5].

Tilimizning yanada rivojlanishi uchun qonun chiqaruvchi organlar quyidagi kabi, milliy gumanizmga asoslangan qonunlar qabul qilishini kutamiz. Qonunning 16-moddasida O‘zbek tilining tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan qismida tilimiz rivojlanishi uchun ayni kerak bo‘lgan qaror qabul qilingan. 16-moddada: “Arab alifbosiga asoslangan qadimiy o‘zbek yozuvini o‘zbek umumiy maktablarida, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarining darslar o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘limlarida o‘quv plani fanlaridan biri sifatida o‘qitish ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu yozuvni o‘rganishni istaydiganlarga har tomonlama imkoniyat yaratiladi. Buning uchun tegishli ilmiy-pedagogik kadrlar va darslik hamda metodik o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi, qadimiy o‘zbek yozuvida adabiy-tarixiy yodgorliklar, kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etiladi”.

Bu kabi tilimiz nufuzini qonuniy va keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani quvonarli hol. Birgina BMTning 75-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqi o‘zbek tilida, o‘z ona tilimizda olamga taraldi. Bu har bir millatimiz vakilida faxr va iftixor tuyg‘usini uyg‘otishi shubhasiz. Ona tili shunchaki so‘zlashuv vositasi emas, balki vatanga muhabbat, milliy iftixor, ajdodlarga hurmat va kelgusi avlodlarimizga izzat ramzi hamdir. Shunday ekan, o‘z tilini asrab-avaylagan xalq millatini, o‘zligini ham asrab avaylagan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/-121051
2. http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/211
3. http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/209
4. http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/208
5. http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/205
6. https://oxussociety.org/kirill-yozuvi-va-lotin-yozuvi-mavjud-muammolar-va-yechimlar/?lang=uz

RUS TILINING O‘ZBEKISTON VA BOSHQA DAVLATLARDAGI MAVQEYI

Maftuna Toshpulatova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ped.f.d (PhD) Rafiqjon Zaripov

Annotatsiya

Maqolada XIX asrdan keyingi davrda rus tilining qay tarzda takomillashuvi va rus tilining O‘zbekiston va boshqa davlatlardagi mavqeyi xususida so‘z yuritiladi.Unda Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan so‘ng, rus aholisining ko‘p qismi boshqa mamlakatlarda qolishi va ularning tarqalib ketgan davlatlardagi tili bilan interferensiyaga uchrashi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Islohotlar, tillarni o‘zlashtirish, korenizatsiya, bilingvizim, til suvereniteti.*

Til barcha bilimlar va tabiatning kalitidir. Til deganda insoniyat jamiyatining barcha davrida mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisalar tushuniladi. Tilning asosiy vazifasi esa aloqa vositasi hisoblanadi. Tilni nutqimizda chiroyli va ravon qo‘llay olishimiz bu har bitta shaxsning so‘z boyligiga bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanib borayotgan O‘zbekistonda ham kun sayin chet tillarini o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sitatida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish vazifasi qo‘yilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Qolaversa, bunday jarayon natijasi o‘laroq, xorijiy tillar hisoblanmish: rus, xitoy, turk, ingliz, koreys, nemis va boshqa tillarning muloqot jarayoniga yuqori tezlikda kirib kelishiga olib keladi. Xo‘sh, rus tilining rivojlanib kelayotgan O‘zbekiston va boshqa davlatlardagi mavqeyi qanday va aholining necha foizi rus tilida muloqot qilar ekan. Maqola ham ayni shu xususda boradi. Dunyoda 7000 mingdan ortiq til mavjud bo‘lib, ular orasida rus tili muloqot jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan tillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda ham rus tilida

so‘zlashuvchilar soni sobiq Sovet Ittifoqi hukmronligi davridan beri katta ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda. 1990-yildan sobiq Sovet Ittifoqida rus tili rasmiy til sifatida kiritildi. Shundan so‘ng esa rus tiliga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan so‘ng esa, ularning 25mlnga yaqin fuqarosi boshqa mamlakat fuqarosiga aylanadi [1.1:2]. Buning natijasida esa rus tili tez sur’atlarda yuksaldi. Hozirgi kunda esa qo‘shni mamlakatlar bo‘yicha rus tilini taqsimlasak: Qozog‘istonda 3793800 – 21,2 foizni (2017-yil), Qirg‘izistonda 482 200 – 8,9 foizni (2009-yil), Turkmanistonda 305 802 – 5,4 foizni (2016-yil), Tojikistonda 40,598 – 0,5 foizni (2012yil), Ozarbayjonda 122 449 – 1,4 foizni (2009-yil), O‘zbekistonda 650 000 – 2,1 foizni (2017-yil), Rossiya 137 494 893 – 96 foizni (2010-yil), Turkmaniston 700 500 – 12,8 foizni (2017-yil) da tashkil etmoqda [1.1:3]. Rus tili rusiyzabon aholining milliy tiligina hisoblanmasdan, boshqa mamlakatlarda ham ikkinchi til sifatida kirib borgan hisoblanadi. Rus tili oltita tillardan tan olingan rasmiy tillar sirasiga kirib, BMTda ingliz, arab, fransuz tillari bilan birgalikda, shu tilda jurnallar chop etiladi [4.1:2]. Hozirgi kunga kelib, rus tili tarqalish darajasi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadi. Birinchi o‘rinda ingliz tili (taxminan 5mln kishi uni ona tilidek va 1milliardan ziyod kishi chet tili sifatida gapiradi), ikkinchi til xitoy tili (faqat 1,350mlndan ortiq kishi ona tili), uchinchi til esa ispan tili hisoblanib (360mlnga yaqini ona tili, 335mlni chet tili sifatida gapiadi) [4.1:2]. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonning markaz joylarida rus tilida so‘zlashuvchilar soni yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda. Shaharlardan uzoqda joylashgan hududlar esa, afsuski, bundan mustasno. Ularning aksariyati tojik tilida muloqot qilishadi. Masalan, Buxoroning shahar joylarida ham rus tiliga nisbatan tojik tilida muloqot qiluvchilar soni yuqori, shuningdek, Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlarida tojik tili shevalari saqlanib kelinmoqda. O‘zbekistonning poytaxti Toshkentda esa, rus tilida muloqot qiluvchilar soni yuqori darajani ko‘rsatmoqda. Ularning ayrimlari esa, rus tilini ikkinchi til sifatida o‘rganmoqda. O‘zbekistonda chet eldan kelgan immigrantlar va shu yerda yashovchi ruslar ham mavjud bo‘lib, bu o‘z o‘rnida rus tilining ijtimoiylashuviga olib keladi. Shahardagi ayrim maktablar rus tiliga ixtisoslashgan bo‘lib, ularda yangicha ta’lim sifati ham yaxshi

darajada hisoblanadi. Ota-onalar ham bolalarini rus tiliga ixtisoslashgan bog‘chalarga beradi. 2013–2014-yil o‘quv yilida esa 886 ta maktab rus tilida faoliyat yuritgan. Bu maktablarda esa mamlakat maktab o‘quvchilarining 8,95%i tahsil olgan. 2017–2018-yil o‘quv yilida esa 903 ta maktab rus tilida faoliyat yuritmoqda. Ularda maktab o‘quvchilarining 10%i tahsil olmoqda [5.7:8]. Kuzatishlarimiz davomida biz shuni ko‘rdikki, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi filologiya maktabi misolida shahar maktablarini kuzatganimizda, rus tili muloqot ko‘rsatkichi bo‘yicha, qishloqlardagi maktablarga nisbatan ancha yuqori darajada ekanligi isbotlandi. Shahar maktablaridagi rus tili fanida ham o‘quvchilar bilan rus tilida muloqot qilinar ekan. Eng achinarlisi esa qishloqlardagi o‘qituvchilar ham xorijiy tillarni yaxshi bilishmaydi, o‘quvchilar esa nazorat savollarini oson va yengillashtirilgan variantlaridan foydalanishadi. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning til bilmasligiga olib keladi. Hozirgi kunga kelib esa, shaharlardagi turli xil do‘kon, istirohat bog‘lari, dorixona va shunga o‘xshash ommabop joylar nomlari ham, afsuski, rus va boshqa tillardan foydalanilgan holda keltirilmoqda. Nega aynan sof o‘zbek tilida emas, ularning nomlarini o‘zbeklashtirishgan bo‘lishsa ham nima uchun xorijiy tillardagi so‘zlardan foydalanishmoqda? Misol tariqasida shuni aytishimiz mumkunki, svetofor so‘zi o‘zbek tilida yo‘l chiroq deyiladi, apteka so‘zi esa dorixona tarzida o‘zbek tili izohli lug‘atiga kiritilgan. Shu kabi so‘zlarimiz talaygina. Ammo jamiyatimiz a’zolar bu so‘zlarni to‘liq muloqot jarayoniga kiritmagan. Yana shuni ham aytish joizki, biz lotin alifbosiga o‘tgan bo‘lsak-da hali-hanuz ish hujjatlari va turli xildagi davlat hujjatlari kirill alifbosida yozilmoqda. Londonda nashr etilgan Financial Times ro‘znomasida yozilishicha, sobiq sho‘ro respublikalari o‘zlarining til suverenitetini mustahkamlashga harakat qilar ekanlar, rus tilining dunyodagi mavqeyi keskin pasayib borayotganligini qayd etadilar. Natijada, rus tilining dunyodagi o‘rni 20 yil davomida ancha tushadi [3.2:3]. Bu esa juda yomon. Xulosa qilib aytganda, har bir inson o‘z tilini bilmay turib, boshqa tillarni o‘rganmasligi, o‘z tilida leksik ma’no hosil qilmay turib boshqa tilning grammatik ma’no kategoriyalari haqida so‘z yuritmasligi lozim, aks holda interferensiya hamda bilingvizim hodisalari yuz berishi turgan gap.

Shuningdek, ta’lim jarayonida mo‘tadillikni saqlash zarur. Avval o‘zbek tilida dars o‘tilayotgan maktablarning ta’lim jarajoniga katta e’tibor berish lozim. Til ijtimoiy hodisadir. Tildan foydalanishi mumkin. Inson, o‘z fikrini, avvalo, sof ona tilida berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’murova X. Rus tilining dunyo miqyosidagi o‘rni va ahamiyati. 3 b.

2. Rafiqjon Zaripov “O‘zbekistonda davlat tili maqomi va menejmenti” O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2022[1/8/1/] 105 b.

3. Wayback Machine (talaffuzi: Ueybak mashin) onlayn-arxivdir. Unga 1996-yili Massachusetts texnologiya instituti talabalari — Brewster Kahle va Bruce Gilliat asos solishgan. 209 b.

4. https://www.bbc.com/uzbek.

ILMIY INSHOLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muqaddas Abdug‘afforova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarga mustaqil ishlash jarayonida amaliy ko‘mak berish maqsadida insho yozish tartibi haqida ma’lumotlar berildi. Maqolada insho turlari, 8-sinf ona tili darsligida ilmiy va ilmiy-adabiy insholarning farqlari, mashqlardan namunalar keltirilgan. Maqolada kuzatish metodi, ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi, bolalar ijodini o‘rganish usullaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *insho, insho tuzulishi, mazmun, adabiy mavzudagi insholar, ilmiy mavzudagi insholar.*

Insho muallifning ma’lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir. Insho muallif tomonidan ijod

etiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini faktik material asosida mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi. Bugungi kun adabiyot o'qitish metodikasi ilmida insho quyidagicha tasnif qilinadi: [T.Karbayeva, 2021]

I.Shakliga ko'ra:

a) og'zaki insho; b) yozma insho.

II.Pedagogik maqsadiga ko'ra:

a) ta'limiy insho; b) nazorat insho.

III. Yo'nalishiga ko'ra:

a) adabiy insho; b) erkin insho; c) adabiy-ilmiy insho

Umumta'lim muassasalarida olib borilayotgan nazorat ishlarining holatini o'rganish maqsadida maktabga borib ,o'quvchilarni savolga tutdik. Ularning aksariyati nazorat ishlarida olinadigan insholarni internetdan ko'chirib yozishayotganliklarini aytishdi. Sababini so'rasak, insho yozishni bilmasligi yoki qiziqmasligini bahona qilishdi. Ta'lim tizimida yozma ishlarning eng muhim va murakkab turlaridan biri insho hisoblanadi. Inshoda o'quvchining aynan ana shu tafakkur bilan bog'liq mustaqil fikrlash, nazariy bilimlarini egallash va hayotni kuzatishda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, xulosa chiqarish, ijodkorlik qobilyatlari ro'yobga chiqadi. O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish uchun ularga matn ustida ishlash, ilmiy uslubdagi matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish kabi bir qancha ko'rinishdagi topshiriqlarni berish mumkin. Bu topshiriqlar nutq o'stirishga qaratilgan yozma ijodiy ishlarning eng murakkab va o'ta zarur turlaridandir. O'quvchi ilmiy tasvirni badiiy tasvirga aylantirar ekan, ilmiy nutqqa xos bo'lgan ifodalar bilan almashtiradi.

"Insho" arabcha so'z bo'lib, "paydo qilish", "yaratmoq", "ijod" singari ma'nolarni bildiradi. Insho bu – o'quvchilarning tabiiy monologik nutqining yanada mukammal bo'lishiga, yozma nutq tajribasi boyishiga qaratilgan mashq turi hisoblanadi. Insholar belgilangan maqsadga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va nazorat insholari. Ta'limiy insholar sinfda yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Bunday insholarda biror yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchida fikrlash

ko‘nikmalarini, narsa-hodisaga baho berish malakasini shakllantirish maqsadi qo‘yiladi. Nazorat insholari o‘rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko‘nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so‘ng choraklar yoki o‘quv yili oxirida nazorat ishi sifatida o‘tkaziladi [Z.Xolmonova,2017].

Toshkent shahar 167-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-9-10-11-sinflaridan so‘rovnoma o‘tkazganimizda, ularga ilmiy insho yozish qiyinchilik tug’dirayotganligi ma’lum bo‘ldi. Bunga sabab o‘qituvchi tomonidan yetarlicha ma’lumot berilmaganligi, o‘quvchi ilmiy jurnallardan maqolalar o‘qimaganligi va darsliklarda mustaqil bajarish uchun mashqlarning kamligi bo‘lishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlashini kengaytirish o‘qituvchilar oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni insho yozishga o‘rgatish davomida insho nazariyasi haqida, yozma nutqning qonun-qoidalari haqida ma’lumot berib borish zarur. Og’zaki nutq va yozma nutq o‘rtasidagi farq haqida har bir o‘quvchi tasavvur qilishi kerak. Og’zaki nutqning mazmuniga ko‘ra ohang tanlay olish imkoniga ega. Og’zaki nutqda so‘zlash davomida intonatsiyani o‘zgartirishi, ayrim noto‘g’ri o‘rinlarni yo‘l-yo‘lakay tuzatib borishi mumkin. Ammo yozma nutqda bayon etilayotgan fikr orfografik, punktuatsion, uslubiy qoidalarga to‘la amal qilgan holda yozilmog’i lozim. O‘quvchilarga ilmiy insho yozdirishdan oldin ularga namuna sifatida birorta ilmiy inshoni o‘qib berish kerak. Masalan, O‘rik mevasiga ilmiy reja tuzamiz.

Reja:

1. O‘rik – foydali meva.
2. O‘rik tarkibidagi moddalar.
3. Serxislat o‘rik navlari.

O‘quvchilarga mana shunday sodda ilmiy insho mavzusini berib ularga qanday ma’lumotlar yozish mumkinligi haqida o‘qituvchi batafsil tushuntirishi kerak. Yozma ishlar maktab o‘quvchilarini ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. Ilmiy insholarning o‘ziga xos xususuyatlaridan biri unda ilm-fanga oid tushunchalardan keng foydalanishdir. Masalan, tilga oid ilmiy insholarda so‘z,so‘z birikmasi,tasviriy ifoda, turg’un birikma, ega, kesim, hol, uyushiq bo‘lak kabi tushunchalardan keng foydalanilsa, matematikaga oid

yozma ishlarda qoldiq, ko‘paytma, kasr, maxraj, ildiz chiqarish kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchun eng asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug’atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzudagi teleko‘rsatuvlar bo‘lishi mumkin. Odatda, o‘quvchilar yozgan ijodiy insholarida darslik mualliflari yoki o‘qituvchining fikrlariga yopishib olishadi. Toshkent shahar Shayxontohur tumanida joylashgan 167-sonli maktabning yuqori sinf o‘quvchilarining insholarida izchillik, aniqlikning yetishmasligi, xulosa chiqarishni va reja bandlarining me’yorini bilmasligiga guvoh bo‘ldik. Yozma nutqning rivojlanishi og’zaki nutqqa bog’liqdir. Og’zaki va yozma nutqning rivojlanishi uchun badiiy asarlarni ko‘proq mutolaa qilish kerak.O‘quvchi qanchalik ko‘p o‘qisa, imlo qoidalaridan shunchalik xabardor bo‘ladi, chunki so‘zlarning qay tartibda yozilishi xotirada saqlanib qoladi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy inshodan o‘quvchilarning ilmiy fikrlash darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Bunday inshoda ilmiy tushuncha va terminlar,dalillar ko‘p ishlatiladi. Ilmiy insho tili bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlikdan xoli bo‘ladi. Ilmiy insho mantiqiy fikrlash, dalillarning mohiyatini tushunish, narsalarning xususiyatlarini yaxshi bilish asosida yoziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmonova, SH.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: Insho, bayon, diktant. “Turon zamin ziyo”, 2017.

2. Nurmuhammadov J. Yozma savodxonlikni o‘stirishning 7 usuli // Til va adabiyot ta’limi, 2016-yil, 8-son.19–20-betlar.

3. Qosimova K., Matchanov S., G’ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. – T. Noshir, 2009. 248-bet.

4. Yo‘ldoshev R, Rixsiyeva A.Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent:Fan va texnologiyalar, 2019.

5. Mavlonova K., Yo‘ldoshev R., Xakimova N. Matn tuzulishiga oid qoidalar. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

IQTISODIYOTGA OID TERMINLAR O‘QUV IZOHLI LUG‘ATI

Aziza Abduvaliyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ped.f.d (PhD) Sabirova E’zoza

Annotatsiya

Ushbu maqolada terminlarning bugungi globallashgan hayotimizdagi o‘rni va amaliy ahamiyatiga to‘xtab o‘tilgan. Iqtisodiyotga oid terminlar o‘quv izohli lug‘atini shakllantirish bosqichlari (tavsiflangan) keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologik sistema, terminlashish, determinlashish, transterminlash, iqtisodiyot.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr yuritishi, intellekti yuqori darajada bo‘lishi, muloqot va munosabatning barcha turida erkin fikr bildira olishi jamiyat tomonidan ham, davlatimiz rahbari tomonidan ham ilgari surilayotgan mafkurafiy g‘oyalardan biridir. Xususan, ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida o‘zining tadqiqini kutayotgan, yillar davomida unutilib qolayotgan o‘quv lug‘atchiligining o‘rni beqiyos. Ma’lumki, dunyoning rivojlangan davlatlarida o‘quv lug‘atlariga bo‘lgan e’tibor va talab juda yuqori. Sababi, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz, umumiste’moldan tashqari bo‘lgan qanchadan qancha birliklarga duch kelamiz, natijada, o‘z-o‘zidan o‘quv lug‘atlariga bo‘lgan talab vujudga keladi. Ko‘rinadiki, juda ko‘plab sohalar uchun o‘quv izohli lug‘atlarni yaratish nafaqat o‘zbek leksikografiyasi, balki o‘zbek lingvodidaktikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada hayotning muhim tarmog‘i bo‘lgan iqtisodiyotga doir bilimlarning poydevori – umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘qitiladigan “Tadbirkorlik asoslari” fani hamda ushbu fan uchun tayanch bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiyotga oid terminlar o‘quv izohli lug‘atini shakllantirish jarayoni masalasi tadqiq qilindi.

Sohalar leksikasini shakllantirish va uni tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirish bugungi kun lingvistlaridan talab qilinayotgan asosiy va dolzarb vazifalardan biridir. Boisi, axborot texnologiyalari taraqqiy topayotgan, jamiyat a’zolari o‘rtasida terminologik leksika asosida kommunikatsiya qilish rivojlanayotgan bir paytda muayyan sohalarga tegishli bo‘lgan terminlarni o‘rganish va shakllantirish har qachongidan-da muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, “Tilshunoslikning zamonaviy paradigmasi terminologik tadqiqotlarni inson omilini inobatga olgan holda antroposentrik tamoyil asosida olib borishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Nutq qaratilgan shaxs mazkur nutqni tushuna olsagina, sohaviy muloqot yuz beradi va shu tariqa axborot almashinuvi takomillashib boradi. Mazkur holatda terminologik va izohli lug‘atlarning ahamiyati juda kattadir” (Shirinova, 26).

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasiga qaratilayotgan e’tibor aynan shu sohaga tegishli bo‘lgan terminlarga qiziqishlarni orttirmoqda. Xususan, maktab o‘quvchilari o‘rtasida ham ushbu soha targ‘iboti uchun ko‘maklashuvchi darsliklar yaratilmoqda. Mazkur tadqiqot orqali aynan iqtisodiyot, tadbirkorlik sohasiga tegishli bo‘lgan terminlar izohli lug‘atini tayyorlash masalasi tavsiflandi. Sababi, kun talablaridan hisoblangan sohaviy leksika nafaqat, muayyan soha vakillari uchun, umumjamiyat uchun ham e’tiborga molik va ahamiyatlidir. Tadqiqot natijasi o‘laroq tavsiya qilinayotgan iqtisodiyotga doir terminlar o‘quv izohli lug‘ati uchun tayyorlangan material ham 11-sinf “Tadbirkorlik asoslari” darsligi asosida tayyorlandi. Avvalambor, muayyan soha terminlari sistemani tashkil etishi uchun ba’zi bir talablarga javob bera olishi kerak. Shunga ko‘ra biz tanlagan leksik birliklarning terminologik sistema bo‘la olish yoki bo‘la olmasligi o‘rganib chiqildi. Va bu quyidagi 6 bosqich asosida amalga oshirildi:

1) salmoqli miqdorda bo‘lishi;

2) umumiste’mol so‘zlari va boshqa sath terminlaridan farq qiluvchi xususiy ma’nolarga ega bo‘lishi va o‘z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi;

3) ma’lum bir mavzuviy guruhlarga birikishi;

4) mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan paradigmatik munosabatlarga kirishishi;

5) umumiy til sistemasi va boshqa terminologik sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi;

6) soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy qildiruvchi usul va manbalarga ega bo‘lishi lozim.

Iqtisodiyotga oid o‘quv izohli lug‘atini shakllantirishda ham aynan shu 6 bosqichga qat’iy amal qilindi. Quyida ularning mukammal tasnifi berib o‘tiladi.

1. Salmoqli miqdorda bo‘lishi. 170 ta terminologik birlik o‘quv izohli lug‘ati uchun tanlab olindi. Ularning salmoqli miqdorda bo‘lishini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lmish terminlash, transterminlash va determinlashga alohida e’tibor qaratildi. Terminlash – umumiste’moldagi leksik birliklarni termin sifatida shakllantirish, transterminlash – muayyan terminologik sistema birliklarining boshqa terminologik sistemada ham amal qilishi, determinlash – terminologik birlikning umumiste’mol qatlam so‘zlari qatoriga o‘tishi. Bulardan terminlash va determinlash tushunchalari o‘zaro oppozitsiyani tashkil etsa-da, soha leksikasini shakllantirishda alohida ahamiyatga kasb etadi.

Umumiste’moldagi inkubator, kapital, xarajat, loyiha, fermer xo‘jaligi, eksport, import kabi tushunchalar bugun kunda yakka o‘zi yoki ko‘p komponenetli birikma sifatida iqtisodiyotning salmoqli qismini tashkil etgan maxsus sohaviy birliklar hisoblanadi.

Bir soha terminlarining boshqa soha terminlari sifatida ishlatilishi transterminlashish hisoblanib, o‘quv izohli lug‘atida ham aks etgan: foiz, foiz stavkasi, innovatsiya, innovatsion menejment, kalkulatsiya.

Muayyan soha uchun terminologik birlik hisoblanuvchi birliklarning metafora asosida umumiste’molga ko‘chishiga misol sifatida *aksiya*ni keltirishimiz mumkin:

(Aksiya – I. Biror maqsadga erishish uchun qilinadigan ish-harakat.

II. (fr. action – qimmatbaho qog‘oz) aksiyadorlik kompaniyasi chiqargan qimmatbaho qog‘oz). (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-jild. 2006, 65-bet)

Aksiya, bank, kredit, biznes, tannarx kabi tushunchalar, asosan, iqtisodiyotga oid terminlar sistemasini tashkil etadi.

2. Iqtisodiy soha terminlari ham o‘z ichida *agrar iqtisodiyot terminlari, industrial iqtisodiyot terminlari, raqamli iqtisodiyot terminlari* kabi ichki guruhlarga birlashadi.

3. Sinonimlar (aksiyador – hissador, dividend – ulush, litsenziya – ruxsatnoma); antonimlar (eksport – import, an’anaviy murojaat – online murojaat, asosiy mablag‘ – aylanma mablag‘, biznes loyiha – biznes reja, jismoniy shaxs – yuridik shaxs); giper-giponimiya (asosiy mablag‘ – giperonim, asosiy mablag‘ amortizatsiyasi, asosiy mablag‘ eskirishi, asosiy mablag‘ sig‘imi; korxona – giperonim, korxonaning asosiy faoliyat turi, korxonani boshqarish usullari, korxona mablag‘lari, korxona mablag‘larining aylanishi, korxona mablag‘larining doiraviy aylanishi, korxona raqobatdoshligi, korxona ustavi, korxonaning innovatsion faoliyati, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati – giponim).

4. Iqtisodiyotga oid terminlar sistemasi boshqa sohaga oid terminlar bilan munosabatga kirisha oladi, ya’ni ularda terminlashish, determinlashish, transterminlashish hodisalarini kuzatish mumkin.

5. Iqtisodiyotga oid terminlar xuddi boshqa soha terminlari singari affiksatsiya, semantik, sintaktik, kompozitsiya kabi usullar hamda terminlashish, transterminlashish singari hodisalar bilan o‘z va o‘zlashgan birliklar hisobiga ko‘payib boradi.

Iqtisodiyotga oid terminlar izohli o‘quv lug‘atini shakllantirishda, asosan, mavjud terminlarning xalq tilida eng faollari va aynan mazkur sohada eng ko‘p qo‘llaniladiganlari tanlab olindi. Sababi, maktab yoshidagi o‘quvchilar jamiyatdan uzilmagan, ma’lum bir qatlam vakili sifatida shakllanib ulgurmagan, tabiiyki, ularning lisonidagi so‘zlar ham aynan shu darajada bo‘ladi. Shu sababli, o‘quv izohli lug‘ati uchun termin tanlash va saralashda ham aynan shu omilga alohida e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotga oid terminlar innovatsion, bank-moliya, shuningdek, tadbirkorlik bilan uzviy aloqada. Natijada, ushbu terminlar sistemasida transtermin birliklari ham uchraydi. Ularning semasidagi ma’nolar ham, tabiiyki, turlicha bo‘ladi, va albatta, alohida izoh talab etadi. Terminlar izohida aynan shu jihat alohida e’tiborga olingan. “O‘quv lug‘ati – ta’lim oluvchining yoshi, alohida qobiliyati, millati, ruhiy psixologik xususiyatlariga mos holda atrofdagi olamning lisoniy manzarasi bilan tanishtirish, tilni shunchaki tushunish emas, balki undan professional

darajada foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish uchun mo‘ljallangan antroposentrik o‘quv vositasidir” (Baxriddinova, 13).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quv lug‘atlari bugungi kunning asosiy talabi ekan, ularni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Biz ham o‘z o‘quv lug‘atimizda iqtisodiyotga oid bo‘lgan lug‘atlar doimiy o‘zgarishda va yangilanishda bo‘lishini, dunyo miqyosidagi kommunikatsiya tizimida muhim o‘rin tutishini, bir qator sohalar bilan uzviy aloqada bo‘lishini hisobga olgan holda terminlarning izohli lug‘atini shakllantirdik. Bir so‘z bilan aytganda, leksik minimumlar hisoblanuvchi o‘quv lug‘atlarining antroposentrik nuqtayi nazarni shakllanishtirishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, har bir darslik va o‘quv qo‘llanmalari uchun maxsus o‘quv lug‘atlarini tayyorlash tilshunosligimiz oldidagi muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shirinova Y. (2020). O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi. (26-bet). Fil.fan.dok.diss. Toshkent.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006), 65-bet. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Xashimov A.A., & Madjidov Sh.A., & Muminova N.M. (2014) “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” o‘quv qo‘llanma. (187-bet). Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
4. Baxriddinova B. (2021). O‘zbek o‘quv lug‘atchiligi: kecha, bugun. Ertaga. (12-13-14-betlar). “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 10-son.
5. Normamatov S. (2018). O‘quv lug‘atlari tarixidan. (47-48-betlar). “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 7-son.
6. To‘raxo‘jayeva A., & Muxtoriy M. (2018). Transterminlashuv asosida yuzaga kelgan axborot-kommunikatsiya terminlari. (35-36-betlar). “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 10-son.

ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINING MAKTAB DARSLIKLARIDA BERILISHI

Dildora O‘rinova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: O‘tkir Yo‘ldoshev,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy asarlarining maktab darsliklarida qay darajada o‘qitilishi, o‘rgatilishi haqida fikr yuritilgan. Darslikda Navoiy asarlarining berilishi, ularda uchraydigan xato va kamchiliklar tuzatilgan. Bundan tashqari, yangi darsliklar chiqarilayotganda Navoiy ijodini o‘qitishga oid bir qator talab va takliflar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *aruz ilmi, ruboiy, fard, Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami, vaznlar o‘lchovi, hazaj, axram va axrab shajaralari, baxshoyish, osoyish, oroyish, xoliq.*

Bugungi kunda g‘azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodining qay darajada o‘rganilayotgani, o‘quvchi yoshlar uchun qay darajada ta’lim-tarbiya jihatlariga ega ekanligi muhim sanaladi. Zero, Alisher Navoiy asarlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan yosh avlod uchun axloqiy-ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Navoiyga e’tibor millatga e’tibor sanaladi. Shunday ekan, Navoiy ijodiga befarq bo‘lish millatimizga, tariximizga, tilimizga bo‘lgan hurmatsizlikdir. “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, – deydi navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul, – ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch qudratini idrok etadi. Navoiy saboqlarga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq dard tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi. Fikrni-fikrsizlikka ilm-ma’rifatni-nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish – adolat, diyonat,

imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demakdir. Ko‘nglida shu ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi. Eng muhimi, diniy hayotdagi mahdudlik va chalg‘ishlar yosh avlod ongidan tezroq barham topadi. Bunga sira shubhalanmaslik lozim” [5, 10]. Darhaqiqat, Navoiy ijodini aslicha, turli xil o‘zgarishlardan xoli tarzda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda maktab darsliklarida Navoiy ijodi bilan bog‘liq ayrim xatoliklar uchraydi. Mazkur kamchiliklar Navoiy aytmoqchi bo‘lgan fikrning o‘zgarishiga, vazn jihatdan esa ohangdorlikning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, 2022-yil yangi nashr etilgan 6-sinf “Adabiyot” darsligida Navoiy ruboiylari bilan bog‘liq xatoliklar kuzatiladi. Jumladan:

Ko‘nglungni orit barcha yomon xislatdin
Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.
Badxo‘yliq ul vahshat erur shiddatdin
Kim, elga xaloslik yo‘q vahshatdin [7, 70].

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ruboiy haqida to‘xtalib, uning 24 vaznda yozilishini ta’kidlaydi (3, 552). Boburning “Risolai aruz” va boshqa aruzga oid asarlarda bu qoida aynan bir xil ko‘rinishda. Mazkur ruboiyning dastlabki 3 misrasi qoidaga muvofiq tarzda belgilanadi. Ammo to‘rtinchi misradagi vazn (– – V / V – V – /– – – –) 24 vaznlar orasida yo‘q. 2013-yilda nashr etilgan Alisher Navoiy “To‘la asarlar to‘plami”ning o‘ninchi jildi “Nazm ul-javohir”da ushbu ruboiy quyidagicha berilgan:

Ko‘nglungni arit borcha yamon xislatdin,
Kim yaxshi qilig‘ dalil erur rahmatdin,
Badxo‘yliq ul vahshat erur shiddatdin,
Kim elga xalosliq yo‘q ***ul*** *vahshatdin* (3, 552).

Mazkur ruboiyning to‘rtinchi misrasi hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar (– – V / V – V – / V – – – / –) vaznida yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, darslikda “ul” so‘zi tushib qolgan. Bu esa vazn buzilishiga sabab bo‘lgan. Bu xatolik ruboiyning nafaqat vazniga, balki mazmuniga ham putur yetkazgan. Jumladan, misrada “ul” olmoshi “badxo‘yliq” so‘zini izohlash uchun ishlatilgan bo‘lib, agar qo‘llanilmasa, noaniqlik vujudga keladi, mazmun to‘liq anglashilmaydi.

Darslikda ruboiy bilan bog‘liq yana bir xatolik mavjud:

Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat **birla** kasbi saodat qilg‘ay.
Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidin **bu ish anga** siroyat qilg‘ay. [7, 71]

Ushbu ruboiy 6-sinf uchun darslik-majmuada keltirilgan bo’lib, “Nazm ul-javohir” asarining 89-ruboiysi hisoblanadi. Ruboiyda so‘zning variantdosh shaklidan foydalanish, so‘zlar o‘rnining almashinishi kuzatiladi. Bu esa ruboiyga xos bo‘lgan vaznning yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Ruboiyning asl matni “Nazm ul-javohir”da quyidagicha yozilgan:

Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay,
*Ul odat **ila** kasbi saodat qilg‘ay,*
Har kimki, atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
*O‘g‘lidin **anga bu ish** siroyat qilg‘ay.* [3, 56]

Aruz ilmida ruboiy misralarining 24 xil vaznda yozilishi ma’lum. Ruboiyda g‘azal, tuyuq, qit’alardagidek birinchi misra qaysi vaznda bo‘lsa, qolgan misralar ham shu vaznda bo‘lishi talab etilmaydi. Mazkur ruboiy ham hazaj bahrining ikki xil, ya’ni hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar *(1,3,4-misra)* va hazaji axrabi makfufi solimi abtar *(2-misra)* vaznida yozilgan. Ko‘rinib turganidek, ruboiyning asl matnini bemalol vaznga solsa bo‘ladi. Ikkinchi misradagi “birla” so‘zining asl manbada “ila” tarzida ekanligi yuqoridagi vaznning hosil bo‘lishiga qulaylik yaratgan. To‘rtinchi misrada esa so‘z o‘rinlarining almashinuvi, ya’ni “anga” so‘zining misra boshida emas, misra o‘rtasida berilishi yuqoridagi ruboiy vaznining yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qilgan. Darslikdagi misralar asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, ruboiy vazniga xos bo‘lmagan vazn hosil bo‘ladi. Natijada ruboiy vazniga va ohangiga putur yetadi. Darsliklarni yozayotganda asl manbaga tayanib, hech qanday o‘zgarishlarsiz berilsa, bunday xatoliklarning oldi olingan bo‘lardi.

7-sinf “Adabiyot” darsligida ham Navoiy fardlari bilan bog‘liq xatoliklarni ko‘rish mumkin. Bulardan biri darslikda quyidagicha berilgan:

Xaliq o‘lg‘an saxiydin elga bo‘ldi **yakki** baxshoyish,
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish. [7, 129]

Mumtoz adabiyotda fard *(arabcha “yakka”, “yolg‘iz”)* bir baytdangina iborat bo‘lib, axloqiy-ta’limiy, falsafiy masalalarga

bag‘ishlanishi ma’lum. Avvalambor, ushbu baytning, ya’ni fardning ma’nosini aniqlab olish lozim. “Navoiy asarlari lug‘ati” da “baxshoyish”– kechirish, bag‘ishlash, marhamat, “oroyish”– bezak, ziynat, pardoz, “osoyish” – tinchlik, rohat kabi ma’nolarda kelganligini ko‘rish mumkin [6, 59]. Ushbu fardda “Saxiy insondan xalqqa ikki muruvvat bo‘ladi: qilgan ehsonidan, xayriyasidan ziynatlanadi, axloqidan rohatlanadi” tarzidagi axloqiy, falsafiy mavzu yetakchilik qiladi.

Mazkur bayt “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining to‘rtinchi devoni “Favoyid ul-kibar”da quyidagicha berilgan:

Xoliq o‘lg‘on saxiydin elga bo‘ldi ***ikki*** *baxshoyish,*
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish. [2, 743]

Ko‘rinib turganidek, darslikda birinchi misrada “Xaliq” va “yakki” so‘zlarining noto‘g‘ri qo‘llanilishiga doir xatolik mavjud. Asl manbada “Xoliq” va “ikki” tarzida berilgan. Shunda baytdan anglashilgan ma’no o‘z qiymatini yo‘qotmaydi. Darslikda lug‘atlar berilishi bilan bog‘liq xatoliklarni ham ko‘rish mumkin. “Xaliq” so‘zi darslikda “chiroyli” deb ta’riflangan, asl manbada esa u “xaliq” emas “Xoliq” (xalq qiluvchi, yaratuvchi) tarzida yozilgan. Tilimizda “yakki” degan so‘z mavjud emas, “yakka” deb o‘ylaydigan bo‘lsak, farddan anglashilgan ma’no o‘z mazmunini yo‘qotadi. Ushbu fard 8-sinf “Adabiyot” darsligida ham berilgan bo’lib, unda 7-sinfdagidan-da boshqacha tarzda berilgan:

Xoliq o‘lg‘on saxiydin elga bo‘ldi baxshoyish,
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish. [9, 87]

Darslikda fardning birinchi misrasida “ikki” so‘zining tushirilib qoldirilishi bevosita fardning mazmuniga ham, vazn o‘lchovlariga mos kelmasligiga ham sabab bo‘lgan. Mazkur fard hazaji musammani solim vaznida yozilgan *(taqte’si va afoyili V – – – /V – – – /V – – – /V – – – / ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/).* Darslikda berilgan fardning birinchi misrasida “ikki” so‘zining tushirilib qoldirilishi esa bu vaznning yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Shunday ekan, har qanday janrdagi asarlarni yozishda ularning shakl (baytlarning qaysi vaznda ekanligi, qaysi lirik janrga xosligi) va mazmun (baytdan ifodalangan ma’no-mazmun) uyg‘unligiga, vazn o‘lchovlariga mos ravishda berilishiga e’tibor qaratish lozim, aks holda, asar badiiy qiymatini yo‘qotadi. Shu jumladan, darslikda yana

Navoiy fardlariga doir ham mazmunga, ham vaznga ta’sir qiladigan xatolikni uchratish mumkin:

Tama etma, ko‘p bo‘lsa el moli,
Ko‘rmayin Haq xazinasin **xoli.** [9, 87]

Mazkur fard “Favoyid ul-kibar” devonining 3-fardi hisoblanadi.

Tama etma ko‘p o‘lsa el moli,
Ko‘rmayin Haq xazinasin ***holi.*** [4, 470]

Ushbu fardda “Haq, ya’ni Alloh taoloning karamini, xazinasining holatini bilmay turib xalqning mol-u davlati ko‘pligidan maqtanma” *(tahlil bizniki)* degan falsafiy g‘oya ilgari surilgan. Bundan anglashiladiki, darslikda bayt oxirida yozilgan “xoli” so‘zi o‘zaro omonim (shakldosh) bo‘lib, “inson tanasidagi xol, dog‘” hamda “ichida hech narsa yo‘q, bo‘sh” kabi ma’nolarni anglatadi [6, 659]. Ammo fardda bu ma’nolarga ehtiyoj yo‘q. Unda Haq xazinasining holi, ahvoli, holatiga bog‘liq ma’no ifodalangan.

Ushbu fard xafifi musaddasi maxbuni maqtu’ *(ya’ni foilotun/ mafoilun / fa’al (– V– – / V – V – /– –)* vaznida yozilgan. Bu baytning shu vaznga muvofiq kelishi uchun darslikda yozilgan *“bo‘lsa”* so‘zining o‘rniga asl manbada yozilgan *“o‘lsa”* variantini olish lozim. Chunonchi, Navoiy asarlari tilida “bo‘lsa” so‘zi ko‘p holatlarda shu ma’noni beruvchi “o‘lsa” tarzida qo‘llaniladi. Navoiy har bir yozgan lirik asarida baytlarning shakl va mazmun uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratgan, ya’ni ma’lum bir lirik janrdagi asarlarni yozar ekan, baytlardagi ma’noning qay darajada bir-biriga bog‘langanligi, vazn o‘lchovlariga qay darajada mos kelishiga ahamiyat bergan.

9-sinf “Adabiyot” darsligining “Kirish” qismida Navoiyning “Ne sun’ungdin ajab yuz ming jahon…” deb boshlanuvchi g‘azalidan bayt olingan:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,
Anda yo‘q ibtido paydo, **munda** yo‘q intiho paydo. [10, 5]

Ushbu bayt “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining uchinchi devoni “Badoye’ ul-vasat”ning ikkinchi g‘azalining 3-bayti hisoblanadi. G‘azal boshdan oyoq hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Darslikda berilgan ushbu baytning ikkinchi misrasida “anda” va “munda” so‘zlari baytning bu vazn bilan nomutanosibligiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur baytda grammatik qo‘shimchalarni qo‘shish

bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilgan. “Badoye’ ul-vasat”da esa bu baytning ikkinchi misrasi *“**Anga** yo‘q ibtido paydo, **munga** yo‘q intiho paydo”* [1, 7] tarzida yozilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, misraning bu holda yozilishi bemalol vazn o‘lchovlariga mos keladi. Darslikda shu kabi xatolikka yo‘l qo‘ymaslik darkor. Aks holda, o‘quvchilar tushunishi uchun noqulayliklar tug‘ilishi mumkin.

6-sinf darsligida nafaqat o‘quvchilar, balki soha vakillari ham bir qarashda ajrata olmaydigan yana bir xatolik mavjud:

Yaxshi kishilar birla tutar bo‘l suhbat,
To bergay amon sharirdin ul suhbat. [7, 71]

Bu baytni, shak-shubhasiz, g‘azaldan yoki biror dostondan olingan parcha deb o‘ylash mumkin. Biroq ushbu bayt “Nazm ul-javohir”ning 130-ruboiysi (“Sohib ul-axyori ya’manu ul-ashrora” *(“Yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo‘lish – yomonlikdan asraydi”)* sarlavhali ruboiy) sanaladi. Ruboiyning to‘liq varianti quyidagicha:

Asli maqsud soridur yo‘l suhbat,
Farxunda kishiki topqay o‘shul suhbat.
Yaxshi kishilar birla tutar bo‘l suhbat,
To bergay amon sharirdin ul suhbat. [3, 63]

Demak, bu bayt g‘azal, qit’a, qasida, masnaviy, dostondan olingan bayt emas, balki ruboiydan olingan baytdir. Mumtoz adabiyotda ruboiy, tuyuqlar to‘rtlik shaklida, ya’ni to‘rt misradan iborat bo‘ladi. Ularning ma’lum bir baytini yoki misrasini bu tarzda berish xato hisoblanadi. Aks holda, uning qaysi janrda, qaysi asardan olinganligini bilinmaydi, mazmun anglashilmaydi. Mazkur baytni vazn jihatdan tahlil qilsak, birinchi misra hazaji axrabi makfufi solimi abtar, ikkinchi misra hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida yozilganligini ko‘rish mumkin. Darhaqiqat, aruz ilmida ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yozilishi hamda faqatgina ruboiyda oxirgi, ya’ni to‘rtinchi ruknlar bir hijodan iborat bo‘lishi ma’lum. O‘quvchi darslikda berilgan bu baytning ruboiy ekanligini anglay olmaydi. Shuning uchun darsliklarda hikmatli so‘zlar yoki shunga o‘xshash baytlarni berayotganda o‘sha bayt yoki misrani to‘liq holda berish darkor. Shunda o‘quvchida o‘sha baytdan anglashilgan ma’no natijasida asarning qaysi yo‘nalishda (ishqiy, axloqiy-ta’limiy, falsafiy va hokazo) yozilganligi haqida tasavvur uyg‘onadi. Har qanday holatda ham ruboiy va tuyuqni darslikda

berayotganda ularni to‘liq va asl manbada qanday bo‘lsa, shundayligicha berish maqsadga muvofiqdir. Baytda ma’lum bir so‘z yoki qo‘shimchalarning o‘zgartirilishi, ya’ni Navoiy tilida emas, hozirgi tilimizga moslab qo‘llash nafaqat asarning ma’nosi, vazni, balki shoir davri muhitining ham nomuvofiqlashuviga olib kelishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, hozirgi kunda Navoiy asarlari tilining murakkabligi natijasida o‘quvchi yoshlar o‘rtasida Navoiy asarlarini o‘rganishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun darsliklarda berilgan har qanday lirik janrdagi asar yoki “Xamsa” dostonlarini o‘qitishda, o‘rgatishda tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni lug‘atlar bilan birga berish kerak. Yangi darsliklar chiqarilayotganda imlo xatolarsiz, baytlarni asl matnidan farqli ravishda o‘zgartirmay berish, kimning qaysi asaridan bayt olinganligini ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Natijada o‘quvchilar baytning qaysi asardan olinganligi, qaysi janrda yozganligi, kimning qalamiga mansubligini, asarning til xususiyatlarini, shoir aytmoqchi bo‘lgan ma’nolarni bemalol tushuna olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami / 10 jildlik. 3-jild. Nashrga tayyorlovchi: Sulaymon H. va b. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 764 bet.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami / 10 jildlik. 4-jild. Nashrga tayyorlovchi: Sulaymon H. va b. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 840 bet.

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami / 10 jildlik. 10-jild. Nashrga tayyorlovchi G‘aniyeva S. va b. –T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 bet.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami / 20 tomlik. 6-tom. – T.: “FAN”, 1990. – 568 bet.

5. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. –T.: “Fan” nashriyoti, 2007. – 33bet.

6. Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 784 bet.

7. Mirzayeva Z., Jalilov K.Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua.– Toshkent, 2022. – 224 bet.

8. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent, 2022.– 224 bet.
9. Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 bet.
10. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V.,Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. –368 bet.

RAUF PARFI SHE’RIYATIDA VATAN OHANGLARI

Pokiza Nurmamatova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
III bosqich talabasi,

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatiga yangicha ohang va ruh olib kira olgan, o‘z ovoziga ega bo‘lgan shoir Rauf Parfi ijodida vatanparvarlik tuyg‘usining badiiy talqiniga e’tibor qaratildi. Shuningdek, ijodkorning ruhiyati va teran falsafiy fikrlari majmuyi haqiqiy turkiy ohanglar orqali ifodalangan she’rlari tadqiq etildi. Mavzuni o‘rganishda ijtimoiy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, tahlil, badiiy obraz, ramz, milliy ruh, timsol, pafos, metod, sujet.*

Har bir millatning o‘zligini ko‘rsatadigan, millat quvonchi va dardlarini o‘z asarlarida aks ettiradigan, haqqa va erkka tashna ijodkorlari bo‘ladi. O‘zbek lirikasida ham Vatan ishqi, hurriyat mavzusini yonib kuylagan ijodkorlar anchagina. Vatanga bo‘lgan, ona Turkistonga bo‘lgan muhabbatini poetik mazmun va chuqur tasviriy bo‘yoqlar orqali ochib bergan ana shunday xalqparvar ijodkorlardan biri Rauf Parfi edi. Ijodkorning nazmiy asarlariga nazar solar ekanmiz hech kimnikiga o‘xshamaydigan, hech kimnikini takrorlamaydigan teran mazmun va chuqur badiiyatni o‘ziga singdirib yuborgan she’rlari beixtiyor o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Shoirning uslubi o‘ziga xos, ohoriy bo‘yoqlarga ega, ayniqsa,

Vatanga, ona Turkistonga muhabbatini aks ettirgan she'rlariga ona xalqqa bo'lgan mehr, haqiqiy muhabbat tuyg'usi singdirib yuborilgan. Xususan:

Ey mening zahmatkash, ey qutlug' xalqim,
Bergil, faqat kuyib kuylamak haqqin
Ortiq mas'ul etar topilgan bu Baxt.
"Ishq so'zidan kuydi bulbul maskani",
Til bilan kuylanmas ona Vatanim
Men seni kuylamak istayman yonib. [Parfi, 2003:125].

She'rida ham aynan yurtga bo'lgan, ona xalqqa bo'lgan sevgi til bilan emas, balki chin ko'ngildan "ishq so'z"larini qo'shmay, tama qilmay tasvirlangani ijodkorning keskir fikrlaridan, sobit shaxsiyatidan darak berib turibdi. "Haqiqiy lirik asarda ko'z ham, quloq ham ilg'ay olmaydigan, faqat ruhning torlarigina seza oladigan titratmalar mavjud bo'ladi", degan edi, Abdulla Oripov. Darhaqiqat, R.Parfining yuqoridagi she'ri ham mana shunday "ruhning torlarini chertadigan titratmalar"ni o'zida aks ettirgan teran ma'noli ijod namunasi deyishimiz mumkin. Ijodkor she'riyatni targ'ibot quroli yoki tashviqot vositasi deb bilmadi, ayniqsa, o'sha davrda parchalangan O'rta Osiyo xalqlarini umumiy Vatan - Turkiston sifatida madh etadi, uni yonib kuylashdan g'urur tuyg'usini tuyadi. Xususan, uning "Ona Turkiston" she'rida:

Oh, ona Turkiston kuylayman yonib,
Dunyo jur'atini berding qo'limga.
Men endi angladim turkiy dunyoni

Mana men, tayyorman endi o'limga [Parfi,2003:125] deya Vatan tuyg'usi uning yuragiga "dunyo jur'ati"ni berganini, haqiqiy turkiy dunyo, Turon diyori qayer ekanligini anglab yetganini, endi o'limga ham tayyor ekanini soddagina tasvir vositalari va kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ushbu she'r yozilgan yil (1967) ga e'tibor bersak, maddohlik avj olgan, "Turon, Turkiston" nomlarini eshitsa labiga uchuq toshadigan sho'ro yalovbardorlari tomonidan har bir ijod namunasi sinchiklab tekshiriladigan bir paytda "ona Turkiston" deya o'limini bo'yniga olib chiqa olgan Rauf Parfining jasoratiga tahsinlar o'qiymiz. "Biz turkiylarmiz, yerimiz esa Turkiston. Bu kun bu millat qayta uyg'onishiga ishonaman", degan edi Rauf Parfi bir suhbatlaridan birida. Darhaqiqat, ulug' shoir ona Vatan deganda,

yaxlit bir chegaralangan hududni emas, ota-bobolarimiz xoki-poyi qo‘nim topgan, o‘tmishdan barcha turkiy xalqlar yashab kelayotgan umumiy makonni tushunish kerakligini nafaqat she’rlarida, balki adabiy suhbatlarida ham keltirib o’tishi uni Vatanga muhabbati har nafasida sezilib turishidan dalolat beradi. “Bilmoqchi bo‘lsangiz shoirlik agar, Jasorat so‘zining tarjimasidir” [Rahmon, 1997:133]. Haqiqatan ham, davr tazyiqlariga “yem” bo‘lib qolmay jasoratni ko‘ksiga tang‘ib, erkka tashna ruhini har bir satrlariga singdira olish haqiqiy o‘zbek Rauf Parfisiga xos xislat, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Milliy g‘ururni boy berish millatning tanazzuli ekanligini anglagan ijodkorning “Eski turkiylar” she’rida ham uning naqadar turkiy birlikka tashna ekanligi, dushmanlarga nafrati qay darajada kuchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

Turkistonni bo‘ldilar,
Parchalandi bemajol.
Ustimizdan kuldilar
Ul yovuzlar bemalol [Parfi, 2003:124]. Sohir ijodkorning taxayyul kengliklari, uning original ifodalari va noodatiy uslubning uyg‘unlashuvida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Uslub deganda, biz ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishini, voqea-hodisalarni o‘ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishini anglashimiz zarur. Uslub shoir-yozuvchi asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanib ajralib turuvchi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar yig‘indisini tashkil etadi” [N. Shukurov, 1973:7]. Nuriddin Shukurovning ushbu fikrlaridan kelib chiqqan holda R.Parfining ham uslubi o‘ziga xos va takrorlanmas ekanligini, original obrazlar va ifoda tasvir vositalarini erkka, haqqa tashna ruhi orqali yangilay olganligining guvohi bo‘lamiz. Uning:

“Malomat, tutqunlik mangu o‘lmasmi?
Bir sovuq mozorlarmi yo‘llarinda,
Erkinlikning porloq nuri inmasmi?” [Parfi, 2003:177]. sonetining oxirgi uchligida ana shunday ozodlikka chanqoq yurakning in’ikosini ko‘rishimiz mumkin. “Uslub zamon bilan o‘zgargani kabi shaxs bilan ham o‘zgaradi” [Fitrat, 1995:28].

R.Parfi XX asrda o‘zbek adabiyotiga yangicha ruh olib kirgan modern uslubini ham qalb qorishmalari bilan, ham zamona ruhiga, ham o‘z ruhiyati va dunyoqarashiga uyg‘un ravishda yangilay olganini guvohi bo‘lamiz. Nafaqat Vatan, erk mazmunidagi, balki

boshqa mazmundagi she’rlarida ham ijodkorning o‘ziga xos betakror uslubini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Oddiy gap” she’rida:

Hayot juda oddiy,

Go‘yo bir bosh uzumni yeb bitirmak kabi. [Parfi,1978:22] deya boshqalar bir necha sahifaga sig‘dira olmagan haqiqatni bir baytda aks ettira olishi ham shoirning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Har bir voqeaga go‘zal ifodalar va o‘zgacha tashbehlar qo‘shib tasvirlashi o‘quvchiga estetik zavq beradi.

Qalam - qalam emas, bongga zarb ila uriluvchi cho‘qmor, undan taraluvchi sado va aks –sado edi she’riyat, deya qalamini jasorat bo‘yoqlariga botirib, she’riyatni rangin va otashin tuyg‘ularga hamohang ravishda boyitgan ijodkor haqiqiy Vatan kuychisi edi. Har bir she’ridan millat ruhi, Vatan ishqi ufurib turgan Rauf Parfining ijodi she’riyatda ulkan to‘ntarilish yasab, vatanparvarlik tuyg‘usini yanada yuksak pafosda e’tirof etganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parfi R. Turkiston ruhi. Saylanma: She’rlar, tarjimalar. – Toshkent: Sharq, 2003. –B.125.
2. Rahmon Sh. Saylanma. To’plam. –Toshkent: Sharq, 1997. – B.133.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: 1995. – B.28.
4. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – Toshkent: 1973. – B.254.

INTENSIVLIK VA KVANTIFIKATSIYA KATEGORIYALARI

Ozodaxon Gulyamova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Ushbu maqolada obyektiv voqelikning universal kategoriyalari qatoriga kiruvchi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiruvchi intensivlik va kvantifikatsiya kategoriyalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *intensivlik kategoriyasi, kvantifikatsiya kategoriyasi, intensivlik, miqdor, sifat xarakteristikalar, miqdoriy xarakteristikalar.*

Narsa va hodisalarning, obyektiv voqelikning xossalarini aks ettiruvchi kvantifikatsiya kategoriyasi umuminsoniy kategoriyalardan biridir. Zamonaviy mantiqda so‘zning keng ma’nosida miqdorlashtirish deganda, so‘zning tor ma’nosida sifat xususiyatlarini miqdoriyga kamaytirish, aniqlash, mavzu hajmini va hukmning predikatini aniqlash tushuniladi. Bunga turli miqdorlovchi so‘zlarni kiritish orqali erishiladi. Miqdor ko‘rsatkichlari miqdoriy belgilovchi yordamida miqdoriy ifodalanadigan obyektlar maydonining miqdoriy tavsifini beradi [4, B 22].

Miqdorni aniqlash eng oson kuzatiladigan shakllardan birida – ob'ektlar yoki hodisalar sonini aniqlash shaklida – inson bilishi rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq amalga oshirilgan. Bizning fikrimizcha, miqdoriy aniqlash – bu nom obyektining har qanday o‘lchovi bo‘lib, uning maqsadi uning miqdoriy aniqligini aks ettirishdir. Miqdoriy aniqlik, Efimovning fikriga ko‘ra, “taqqoslash (shu jumladan sanash, o‘lchash va hisoblash) natijasida taxminan yoki deyarli aniq ifodalanishi mumkin bo‘lgan narsaning mavjudligi qiymati” [4, B. 45].

Naqd pul miqdorini belgilash har xil parametrlarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, miqdor bo‘yicha miqdorni aniqlash “qanchalik” parametriga ko‘ra xarakteristikani anglatadi – bir, ikki, yuz, ko‘p, juda ko‘p, oz va hokazo. Fazoviy o‘lchov bo‘yicha miqdorni aniqlash nom obyektining hajmini kichik katta parametrlar va boshqalar bo‘yicha tavsiflaydi.

Nomlash obyektini belgilash jarayonida nomlovchi ushbu obyektning turli xil xususiyatlarini, shu jumladan uning miqdoriy xususiyatlarini hisobga oladi. Ushbu yondashuvning asosi shundaki, “har bir narsaning aniqligi nafaqat uning xarakteriga (tabiat turiga), ya’ni nafaqat uning nima ekanligiga, balki bu narsaning qanchalik ko‘pligiga ham bog‘liq: qancha obyektlar o‘z jamiligida, bir butunning nechta tarkibiy qismi borligi, narsaning qancha xususiyatlari borligi, hodisalar o‘rtasidagi u yoki bu bog‘liqlikning qancha kuchli tomonlari va hokazo. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektlarning har qanday to‘plami, butunning har qanday tarkibi, har qanday xususiyat; bog‘lanish, munosabat va hokazolar nafaqat sifat tomoni, balki kattaligi, darajasi bilan ham xarakterlanadi. Demak, bu gapning nima ekanligini, nimani ifodalashini ifodalovchi sifatdan

farqli o‘laroq, har qanday o‘ziga xos miqdor qanchaligini xarakterlaydi. shunday hodisadir. biror narsaning ifodaliligi” [4, B 46-47]. Shunday ekan, bilish kuzatish obyektining sifat tomonlarini ko‘rsatishdan boshlab, uning miqdoriy aniqligini oydinlashtirishga boradi, deb taxmin qilishimiz mumkin. “Faqat sifatli yoki faqat miqdoriy xususiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar yo‘q, har qanday xususiyat sifat va miqdoriy tomonlarning birligidir. Yana bir narsa, – deydi Efimov, – endi hamma xususiyatlarni miqdoriy tomondan bilish mumkin emas, lekin vaqt o‘tishi bilan, bu xususiyat sifat va miqdoriy tomonlarning birligidir. insoniyat ularning miqdoriy belgilarini topish yo‘lini topadi. Demak, miqdor, kattalik, shiddat, daraja kabi tushunchalar, ya’ni nom obyektining miqdoriy aniqligini tashkil etuvchi barcha belgilar hamda uning sifat belgilaridir. Tilning vazifalari voqelikni aks ettirish bo‘lgani uchun narsa va hodisalarning miqdoriy aniqligi ham unda o‘z ifodasini topadi, deb taxmin qilish tabiiydir.

Tildagi miqdoriy xususiyatlarni ifodalash usullarini o‘rganish muhimligini Boduen de Kurtene o‘zining “Lingvistik tafakkurda miqdoriylik” asarida allaqachon ta’kidlab o‘tgan. Endi vaziyat shundayki, deb yozgan Boduen, lingvistik tafakkurdan butun o‘ziga xos lisoniy bilimlarni, borliq va yo‘qlikning barcha sohalari, dunyoning barcha ko‘rinishlari, ham moddiy, ham individual-psixologik bilimlarni olish mumkin. va ijtimoiy-ijtimoiy. Hayotning barcha jabhalari aqliy ekvivalentlarga, lingvistik tasvirlar bilan bog‘liq bo‘lgan tasavvurlarga aylanadi. Umumjahon borliqning tomonlaridan biri bu matematik tafakkur bilan qoplangan, ya’ni ajratilgan va birlashtirilgan (integrallashgan) miqdoriy tasvirlarning butun majmuasidir”. Boduen matematik miqdoriylikning turlarini tavsiflab, fazoviy, vaqtinchalik, sonli miqdorni, miqdoriy intensivlikni ajratib ko‘rsatadi [2, B 311].

Matematik tafakkur qamrab olgan miqdoriy tasvirlar tilda turli xil ifoda usullarini topishi mumkinligini ta’kidlab, Boduen asosiy e’tiborni tilning turli darajalaridagi miqdoriylikning har xil turlarining mazmun xususiyatlariga qaratadi: bu tilshunoslikning barcha sohalarida miqdoriy fikrlashdir.

Bizni birinchi navbatda kvantifikatsiya va intensivlik kategoriyalarini ifodalashning so‘z yasalish shakllari qiziqtirganligi

sababli, Boduen bu yerda lingvistik miqdorning qaysi turlarini ajratib ko‘rsatganligini ko‘rib chiqaylik.

Boduen miqdor ifodalariga otlardagi kollektivlik tushunchasini, initsiatsiyani, kurs davomiyligi ko‘rsatkichini, fe’lda takrorlanishni, sifatlarda xususiyatning turli intensivlik darajalarini belgilashni bog‘lagan. Hozirgi vaqtda ushbu jihatlarning ko‘pchiligiga maxsus ishlar bag‘ishlangan, ammo Boduenning ishi til hodisalarini tahlil qilishda birinchilardan bo‘lib, “ma’nodan shaklga” yondashuv sifatida ta’riflanishi mumkin bo‘lgan yangi yondashuvni boshladi.

An’anaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasi ko‘pincha son kategoriyasi bilan bog‘lanadi va u bilan chegaralanadi. Biroq, bunday cheklovning qonuniy deb tan olinishi dargumon. Bundan tashqari, hatto son kategoriyasi ham tilda ancha murakkab hodisadir. O.Jespersen ta'kidlaganidek, son kategoriyasi faqat “bir qarashda juda oddiy, “ikki-to‘rt ikki barobar” kabi sodda va tushunarli ko‘rinadi. Biroq, chuqurroq o‘rganib chiqsak, biz ham mantiqiy, ham lingvistik tartibning ko‘plab qiyinchiliklariga duch kelamiz”[8, B 216].

Ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqotlar “lingvistik tafakkurning miqdoriy tomoni” g‘oyasini shunchalik kengaytirdiki, kengroq “miqdor” tushunchasi tobora ko‘proq miqdor tushunchasini almashtirmoqda.

Miqdor miqdor tushunchasiga eng muhimi sifatida kiritilgan, ammo uning tarkibiy qismlaridan biri emas. Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan, miqdoriy aniqlash vaqt va makondagi har qanday o‘lchov, obyektning hajmini belgilovchi, soni, miqdori, ko‘lami, ketma-ketligi, mavjudlik darajasi va boshqalar bilan chegaralanadigan, o‘z lingvistik ifodasini topishi mumkin bo‘lgan har qanday o‘lchovdir. deyarli har qanday lingvistik darajadagi tilning mazmunli birliklari yordami [9, B 31].

Kvantifikatsiya kognitiv kategoriya sifatidagi ahamiyati shundan dalolat beradiki, har bir tilda uni ifodalash uchun mo‘ljallangan so‘zlarning maxsus grammatik sinfi – raqamlar mavjud bo‘lib, ularning bevosita nominativ ma’nosi obyekt sonini o‘lchashdir.

Raqamlar miqdoriy og‘zaki belgilarning asosini tashkil qiladi va “ular belgilagan tushunchaning mohiyatiga ko‘ra har qanday tilga xos bo‘lgan universal belgilarga tegishli bo‘lishi mumkin” [Ufimtsev].

Miqdoriy xususiyatlarni etkazish vositalari juda xilma-xildir, garchi ular turli tillarda farq qiladi. Ehtimol, u yoki bu turdagi miqdoriy qiymatlarni topib bo‘lmaydigan tilning biron bir darajasi yo‘q. Miqdorni ifodalashning leksik vositalarini aniqlash eng oson va buning natijasida turli tillarda eng yaxshi o‘rganiladi. Leksik kvantlar miqdoriy ma’nolarni bo‘linmasdan, barchasi so‘zning semantikasi bilan ifodalaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, intensivlashtirishning o‘zini belgilashda ham, uni ifodalash uchun vositalarni ajratishda ham sezilarli kelishmovchilik mavjud. S.Grinbaum fe’l bilan ifodalangan ish-harakatning kuchayishini bildiruvchi ba'zi qo‘shimchalarni kuchaytirgichlar deb ataydi. Jumladan, u qo‘shimchalarni albatta, haqiqatdan, yomon, butunlay, (juda) juda, juda, butunlay, to‘liq o‘rganadi [6, 34-bet].

Yana bir nuqtai nazar D.Bollinjer tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, u “intensifikator” (intensifikator) atamasini yuqoriga yoki pastga shkalada yoki yuqori va pastki darajalar orasidagi o‘qda (har qanday qurilma) biron bir sifatni tugatadigan har qanday birlik uchun ishlatadi. bu sifatni yuqoriga yoki pastga yoki ikkalasi orasida bir joyda o‘lchaydi) [6, B 35-36]. Lingvistik kuchaytirish vositalarining xilma-xilligini qayd etib, D.Bolinger misol tariqasida ayrim sintaktik vositalarni keltiradi, masalan: He talked back to her and was she mad!

Uning o‘rganish sohasi bir so‘zli leksik birliklar (olmoshlar, qo‘shimchalar, sifatlar) va bir so‘zdan iborat bo‘lmagan miqdoriy iboralar, masalan, very mich, a great deal, sort of va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Bollinjer nutqning turli qismlarida identifikatsiya qilish vositalarini hisobga olgan holda, sifatlar sohasida kuchayish faqat leksik intensivlar birlashganda ifodalanishi mumkinligini ta’kidlaydi, masalan: juda issiq, haddan tashqari ehtiyotkor, dahshatli tashvishli, qiyosiy va ustunlik bilan juda yashil oxiri, shuningdek, -ish qo‘shimchasi.

Bollinjer va Ubindan so‘ng u intensivlik toifasining lingvistik vositalari “u yoki bu belgining namoyon bo‘lishidagi o‘zgarishlarning eng keskin zaiflashuvidan eng katta o‘sishgacha bo‘lgan o‘zgarishlarning butun ko‘lamini qamrab oladi”, deb hisoblaydi va bu vositalarni ingliz va rus tillarida ko‘rib chiqadi.

“Ushbu masshtabning qutb uchlarida joylashganlar, ya’ni matndagi so‘zni kuchaytirish yoki zaiflashtirishga xizmat qiladi”, masalan: butunlay? Ajoyibmi? Tilda to‘g‘ri kuchayish va kuchsizlanish o‘rtasida oraliq o‘rinni egallagan to‘g‘rirog‘i, to‘g‘ri, deyarli, juda kabi so‘zlarni tashlab qo‘ymasdan, ulkan, kuchli va hokazo, zaif, zaif, zaif va hokazo.

Bizningcha, kuchaytirgichlarga “keng ma'noli so‘z va iboralardan tortib, aniqlovchi format va affikslargacha bo‘lgan barcha til kuchaytirgichlarini birlashtiruvchi keng guruh” deb ta’rif berish to‘g‘riroq. belgi, lekin normaga nisbatan faqat yuqori darajadagi belgilar.

Umuman olganda, ingliz tilida miqdorni ifodalashning lingvistik vositalariga oid mavjud asarlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotchilar diqqat markazida miqdor kategoriyasi va uning pastki kategoriyasi-intensifikasiyasini leksik va qisman morfologik va sintaktik darajada ifodalash muammolariga qaratilgan. Raqamlar, ergash gaplar, parametrik sifatlar, miqdor ko‘rsatkichlari asosan tadqiqotga tortildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balli Sh.Fransuzcha uslub. – M., 1961. 202- bet
2. Boduen de Kurtene Til tafakkuridagi miqdori. – Moskva 1963, 311-324-betlar.
3. Bennevist E. Umumiy tilshunoslik. – M., Taraqqiyot 1974. 447-bet.
4. Galeeva I.F. Intensivlik va ekspressivlik reklama matnining asosiy belgilari sifatida. Ularni farqlash mezonlari // TISBI byulleteni [Elektron resurs]. Kirish rejimi: http://www. tisbi.ru/science/vestnik/2002/issue4/Fil6_1. html.
5. Kubryakova E.S. va boshqalar Kognitiv atamalarning qisqacha lug‘ati. – M., 1996. 21–25- betlar.
6. Radionova S.E. Intensivlik va uning boshqa semantik toifalar orasidagi o‘rni // Slavyan xabarnomasi. Nashr. 2. M.: MAKS Press, 2004. 303–308 - betlar.
7. Sergeeva L.A. Baholovchi semantika muammolari. – M., 2003. 122-betlar.
8. Turanskiy I. Ingliz tilida intensivlikning mazmuni va ifodasi. Dis ... dok. filologiya fanlari. – M., 1991. 6-7- betlar.
9. Shaygal E.I. Zamonaviy ingliz tilidagi so‘z semantikasining tarkibiy qismi sifatida intensivlik. Diss... filol. fanlar. – M., 1981. 13–22- betlar.

BOLALAR NUTQIDA MAKON DEYKSISINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Maftuna Saidaxmatova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU
magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar nutqida makon deyksisiga ishora qilib keladigan leksik birliklar haqida ilmiy va tahliliy fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Makon deyksisi, nutq, bolalar nutqi, nutq ontogenezisi, leksik birliklar, leksika, obdasta, deyksis.*

Makon deyksisi kattalar nutqida mavjud bo‘lgan kabi bolalar nutqida ham mavjud bo‘ladi. Ammo, bolalarda biroz o‘ziga xoslik mavjud bo‘ladi. Bunga bolalarning nutqiy imkoniyati asosiy sabab bo‘ladi. Kattalar o‘zining nutqiy imkoniyatidan, ijtimoiy dunyo qarashidan kelib chiqqan holda nutqida makonni bildiradigan deyktik birliklardan foydalanadilar. Bolalarda esa nutqiy imkoniyat biologik va nazariy jihatdan rivojlanish bosqichida bo‘lganligi sababli biroz torroq doirada foydalanadi.

Bolalar nutqida mavjud bo‘lgan makon deyksisini nimalar orqali ifodalash mumkin degan munozarali savol ham mavjud. Chunki, bolalar va kattalar makon deyksisini ifodalash uchun, makonga ishora qiladigan tilda mavjud bo‘lgan qandaydir birliklardan foydalanish kerak bo‘ladi. Bu birliklar fonetik, leksik va grammatik sathlar doirasida bo‘ladi. Aynan biz yoritmoqchi bo‘lgan birlik bu – leksik birliklar hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, leksik birliklar nafaqat makon deyksisi balki deyksisning boshqa turlariga ishora qilishda ham faol ishtirok etadigan birliklar hisoblanadi. Leksik birliklar tilshunoslikda leksika deb ataluvchi bo‘lim tarkibida o‘rganiladi. Leksik birliklar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishimiz va bundan keyingi o‘rinlarda keladigan leksik birliklar haqidagi ma’lumotlarni yanada atroflicha tushunishimiz uchun bu bo‘limga biroz to‘xtashni joiz deb bildik.

Leksika (yunoncha lexis — so‘zga oid, lug‘aviy) — tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi. Leksika ma’lum qonun-qoidaga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Bu narsa lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini uzgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda Leksika boyib boradi. XX asrda barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o‘sib, taraqqiy etdi. O‘zbek tili leksikasiga baynalmilal so‘zlar keng ko‘lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. O‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam, shuningdek, o‘z qatlam tarkibida umumturkiy so‘zlar va ulardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlar mavjud. O‘zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so‘zlar bor. [https://uztext.com/45714-text.html:6]

Bu ma’lumotlardan bilishimiz mumkinki, bolalar va kattalar o‘z nutqida ma’lum bir makonni bildiruvchi so‘zdan foydalanishi leksik birlikdan ayro hodisa hisoblanmaydi. Barcha so‘zlarni, u o‘z qatlammi yoki o‘zlashma qatlamga tegishli so‘z bo‘lmasin leksik birliklardan tashqaridagi jarayon emas. Shu sababli ham leksik birliklardan makon deyksisini ifodalashda deyektik birlik sifatida keng miqyosda foydalanish holatlari mavjudligini aytish mumkin.

Bolalar nutqida leksik birliklardan deyektik birlik sifatida foydalanish holatlarini ham Munavvara Qurbonova o‘z dissertatsiyasida quydagicha tushuntirishga harakat qilgan.

Bola 8-9 oylik davridan boshlab talaffuzi qulay bo‘lgan leksik birliklarni o‘zlashtiradi. 10-11 oylik ba’zi bolalar muayyan birlikka ikki va undan ortiq deyktik vazifa yuklashi ham mumkin. Masalan, Toshkent shevasida so‘zlashuvchi Muxlisaxon Muhiddinova (10 oy) va Saidolim Bahodirov (11 oy)ning ada so‘zi orqali nafaqat otasi, balki onasi, bobosi va buvisini ham ko‘rsatishi aniqlandi.

Shaxs deyksisining bolalarga xos ifodasi ularning uch-to‘rt yoshida birmuncha murakkablashadi. Bu yoshdagi aksariyat bolalar o‘yin jarayonida kattalarning ijtimoiy roliga taqlid qiladilar yoki uni ijodiy takrorlaydilar. Ularning tushunishicha, hayot davomida

shaxslarning ijtimoiy rollari ortmaydi, balki o‘zaro almashadi. Masalan, Toshkent shevasida so‘zlashuvchi (Sarvarbek Umarov, 3 yosh)ning otasi bilan muloqotida shunday holat kuzatildi: Sarvarbek: – Ada! Kotta bo‘ganimda ada bo‘laman-a? Otasi: – Ha. Sarvarbek: – O‘shanda siz mani o‘g’lim bo‘lasizmi?

Bola o‘z nutqida makonni ifodalaydigan birorta so‘zdan foydalandimi uni hech ikkilanmasdan makon deyksisini ifodalovchi leksik birlik sifatida olishimiz mumkin. Biz ma’lum bir harflar konbinatsiyasidan vujudga kelgan va undan ma’no anglashsa bo‘ladigan leksik butunlikni leksik birlikka olishimiz mumkin. Shunday ekan eng faol makonni ifodalaydigan deyektik birlik bu leksik birlik hisoblanadi.

Bola besh yoshga yetganda kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan deyktik birliklarni to‘liq o‘zlashtiradi. Biroq bu yoshdagi bolalar nutqida shaxs deyksisini shakllantiruvchi ba’zi verbal vositalar noo‘rin qo‘llanishi ham mumkin. Masalan: Yulduzxon besh-olti yoshga kirguncha ham oyisini “kennoyi” deb chaqirib yurdi. [Курбонова, 2018: 19]

Xuddi shuningdek, bollar va kattalar nutqida mavjud bo‘lgan *bu yer, shu yer, qayer, bog‘da, tog‘da, shaharda, oshxonada, masjidda, moshinada* kabi ma’lum bir makonni bildiradigan so‘zlar gapda makon deyksisi vazifasini bajarib keladi. O‘zi umuman makonga aloqador barcha birlik nutqda makon deyksisi bo‘lib keladi. Ba’zan esa ularni boshqa birliklar orqali ham ifodalash holatlari ko‘zga tashlanadi.

Misol uchun, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Mehnatobod qishlog‘ida istiqomat qiluchi 2 yosh-u 5 oylik Nazarov Umidjon ismli respondetimiz bilan bo‘lgan voqeani, Umidjonni onasi aytib berdi. Bir kuni Umidjon mashinaning kalitini o‘ynash uchun olgan va uni obdasta ichidagi suvga behosdan tushurib qo‘ygan. Kattalarning bundan xabari yo‘q va uyni boshdan oyoq izlab topolmagan. Umidjondan mashina kalitlari qayerda ekanligini takror va takror so‘raganda *“uvva(suv), uvva”* deb javob berayvergan. Keyinchalik uy egalari qo‘lini yuvayotganda obdasta ichidagi suvdan topilgan.

Bu voqeadan anglashimiz mumkinki, suv so‘zini yosh bola nutqida *“uvva”* shaklida talafuz qilinishi aynan bu so‘z bola nutqiga tegishli ekanligini anglatadi. Shu o‘rinda biz tushunishimiz kerak

bo‘lgan bir jihat ham mavjud. Bu yerda *suv* so‘zining o‘zi makon ma’nosini berolayotganidir. Yosh bola uchun *obdasta* so‘zini talafuz qilish anchagina murakkablik tug‘diradi. Shu bois unga yondosh, u bilan har doim birga ishlatiladigan, u bilan foydalaniladigan *suv* so‘zini qo‘llagan. E’tibor beradigan bo‘lsak, suv so‘ziga kech qanday garammatik qo‘shimcha qo‘shmagan holda javob bergan. Grammatik qo‘shimchalar ham yosh bola uchun turli xil qiyinchiliklarni tug‘diradi. Shuning uchun ham bola aynan o‘zi uchun murakkablik qilgan obyekt nomini chetlab o‘tib, unga aloqador bo‘lgan, talaffuz uchun qulay bo‘lgan so‘zlarni tanlab nutqida ishlatadi. Bu so‘zlarni ham o‘zining nutqiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda talaffuz qiladi. Umidjonning *suv* leksik birligini *“uvva”* shaklida aytishi ham shundandir.

Biz bolalar nutqida makon deyksisini ifodalab kelayotgan leksik birliklarni yoritar ekanmiz, *suv* so‘zini hech ikkilanmasdan leksik birlikka kiritishimiz mumkin. Kalitlarning obdasta ichidagi suvda turganligini aytadigan bo‘lsak, buni makon deyksisiga olishimiz mumkin. Suvning *“uvva”*deb talafuz qilinishi esa bola nutqiga tegishli ekanligini anglatadi. Shunda ularning barchasini jamlaganimizda biz izohlayotgan bolalar nutqida makon deyksisini leksik birlik ifodalab kelayotganiga misol qilsak bo‘ladi.

Xuddi shuningdek bolalar nutqida mavjud bo‘lgan makon deyksisini ifodalab kelgan lisoniy birliklar deyarli kattalarnikidan farq qilmaydi. Farqi shundaki, ular nutqiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda so‘zlarni talafuz qiladi. Shuningdek, makonni ifodalab kelayotgan so‘z bola uchun murakkablik tug‘dirsa, unga shakl yoki mazmun jihatidan aloqador bo‘lgan so‘zni tanlab o‘ziga xos tarizda talafuz qiladi. Bolalarning nutidagi leksik birliklar shu jihatlari bilan kattalar nutqidagi holatlardan farqlanib turadi.

Bolalar nutqida laqab sifatida qo‘llangan disfemizm (**Disfemizm** – efemizmning aksi bo‘lib, ayrim tushunchalarni qo‘pol va dag‘al usulda ifodalash. Disfemizm kakofemizm deb ham ataladi. Masalan, Uyda xat yozib o‘lturgan Ra’no onasining kim bilandir havli yuzida ko‘rishib, so‘zlashqanini eshitdi va birozdan so‘ng yumaloqqina, to‘la-to‘kis bir bo‘g‘oz xotinni ayvon muyushida ko‘rib, yozuvini to‘xtatishqa majbur bo‘ldi [https://fayllar.org/fargona-davlat-unversiteti-filologiya-va-tillarni-

oqitish-ingi.html?page:5]. Ular ham deyktik vazifa bajaradi. Tashqi belgiga ko‘ra o‘xshashlik asosida metaforik shaxs deyksisini hosil qiluvchi disfemizmlar maktab yoshidagi bolalar nutqida ko‘p uchraydi. Masalan: Maktabda bolalar Anvarni “Laylak” deb chaqirishadi. (Nodir Ahmedov, 13 yosh) [Қурбонова, 2018: 20].

Bu fikrlardan anglashimiz mumkinki, bolalar nutqida ishlatiladigan disfemizmlar ham leksik birlik sifatida deyektik vazifa bajarib keladi. Bu leksik birliklar makon deyksisiga ishora qilib ham keladi. Laqab sifatida keladigan disfemizmlar makon deyksisiga ishora qilib keladigan deyektik birlik sifatida faol ishtirok etadi. Qishloqlarda bolalar hojatxona o‘rnida “odob” so‘zini ishlatadi. Qayerga chiqmoqchisan? qabilida savol berilsa, “odob”ga deb javob beradilar. Hojatxona o‘rnida bu so‘zni ishlatishadi. “Odob” konteksdan tashqari joyga umuman aloqasi yo‘q so‘z hisoblanadi. Ammo bolalar nutqida makonga ishora qilib keluvchi leksik birlik hisoblanadi. Kattalar nutqida makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar qanday holatda kelsa, bolalar nutqida ham shu shaklda keladi. Talaffuzda, nutqiy imkoniyat bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalar nutqida makon deyksisiga ishora qilib keluvchi leksik birliklar yuqorida takidlaganimizdagi kabi kattalarda mavjud holatlar bolalar nutqida ham takrorlanadi. Chunki bolalar kattalarga nutqiy va hatti harat nuqtai nazaridan taqlid qiladi. Taqlid qilgan holatlarning barchasiga bolalar o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda yondashadi. Bu holat esa kattalar va bolalarning nutqida makon deyksisini ifodalashdagi farqlanishni ta’minlab turadi. Bolalar odatda taqlitdan ijodkorona foydalanadi. Bu jihat ham kattalar nutqidan farqlanib turishiga asos bo‘ladi. Leksik birliklar bolalar nutqida ham kattalar nutqida ham nutqda ishtirok etishi nuqtai nazaridan eng faol deyektik birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uztext.com/45714-text.html
2. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари, филология фанлари доктори (dsc) диссертацияси. – Тошкент, 2018, 19-bet.

3. https://fayllar.org/fargona-davlat-unversiteti-filologiya-va-tillarni-oqitish-ingi.html?page=5
4. Лутфуллаева Д., Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқига хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013.
5. Моисеенко Е.Ю. Дискурсно-прагматические особенности детской речи (на материале современного английского языка).

MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTINING TA'LIM JARAYONIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nodira Mamajonova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish, xato qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol birovga o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o'ziga xos iste'dodlarning ko'payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o'quvchilar paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, mustaqillik, ta'lim, ma'naviyat, iste'dod, badiiy asarlar, tajriba, ijodkor, kitob.*

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda shu jumladan qissa janrida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangi mafkura, yangi nuqtayi nazardan baholash zarurati yuzaga keldi.

Istiqlol yillari ijodkorlar mafkuraviy tazyiqlardan batamom ozod bo‘lishdi, “buyurtma asarlar” yozdirish, badiiy asarni faqat g‘oyaviy jihatlaridan kelib chiqib baholashdek soxta mezonlardan qutilishdi. Ko‘rilajak masalalar sirasida XX asrning so‘nggi choragida yaratilgan qissalarni yangi mafkura nuqtayi nazaridan baholash, kengroq va teranroq tahlil etish, nazariy prinsiplarini belgilash kabi masalalar bosh mezon vazifasini o‘tadi.

Istiqlol davri nasri ham bugungi adabiy jarayonning salmoqli va og‘irkarvon turidir. Hozirgi adabiy jarayonda Sh. Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Tohir Malik, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Asad Dilmurod, Normurod Norqobilov, Xurshid Do‘stmuhammad, Ahmad A’zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Luqmon Bo‘rixon, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘sinda yaratgan asarlari milliy nasr taraqqiyotini ta’minlamoqda.

Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo‘sinlarini qo‘llash, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi tamoyillaridan foydalanish o‘zbek nasrining bu bosqichi uchun yetakchi xususiyatlardir. O.Muxtorning tamomila yangicha ifoda usullarida yaratilgan “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ffu”, “Ayollar saltanati va mamlakati”, “Maydon”, “Alisher Navoiy va rassom Abulxayr” romanlari, Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg‘or tajribalariga tayanib sof milliy obrazlar yarata olgan “Qora kitob” qissasi, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Tobut shahar”, “Quyun”, “Qultoy”, “Bahoviddinning iti” hikoyalari, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, Salomat Vafoning “Tilsim saltanati”, “Ovoraning ko‘rgan kechirganlari”, Abdurashid Nurmurodning “Qon hidi”, Normurod Norqobilning “Dashtu dalala’rda”, T.Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” romanlari insonga yondashuvning yangichaligi, tasvirning quyuqligi, odam ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo‘ldi. N.Eshonqul – milliy istiqlol davri o‘zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan tasviridan tashqari, ohangning o‘zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu

taxlit ko‘p qatlamli, zalvorli, hikoya maromining o‘zi bilan badiiy kayfiyat hosil qila biladigan nasr namunasi milliy adabiyotimizda yo‘q edi. N. Eshonqul nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov istiqlol davri adabiyotining xarakterli jihatlarini quyidagicha izohlagan edi: “Istiqlol adabiyotining muhim fazilatlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator yetakchi tendensiyalar ko‘zga tashlanadur. Chunonchi, millatning o‘z o‘zini anglashida, o‘zlikni qadrlashi va ulug‘lashida, milliy iftixor tuyg‘ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o‘zgarishlari namoyon bo‘layotir. Yana bir yetakchi tamoyil – bu adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g‘oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishadimi, mohiyat ham millat birligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy – falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi” [Rahimjonov, 2012: 11].

Ifodadagi zalvor, serqatlam estetik bosim, ruhiy holat manzaralari tasvirining ayni shu tarzda uzluksiz zanjirsimon qilib berilishining o‘ziyoq hikoyaga alohida ohang baxsh etgan. Bu ohang momoning yolg‘izligi va baxtsizligi miqyoslarini nechog‘lik ulkan, fojiasi qanchalar teran ekanini tuyish va tushunish imkonini bergan.

Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasi, “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish ko‘lami va yo‘sinlari jihatidan adabiyotimizda yangilik bo‘ldi. Ayniqsa, yozuvchining “Yolg‘izlik” qissasida bayon ham, ko‘rsatish ham, tasvirlash ham bir narsaga – tadqiqqa o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan. Yozuvchi uchun qahramonlarining xatti-harakatlarini ko‘rsatish emas, balki ularning sezimlaridagi, o‘ylaridagi tovlanishlarni aks ettirish muhim. Mustaqillik yillarida adabiyot bilan islom dini o‘rtasidagi munosabatlarda ham keskin burilish yuz berdi. O‘zbek adabiyotining islom falsafasidan va islom ta’minotidan o‘zi ham unga muayyan ta’sir ko‘rsatib rivojlanishi endi tan olingan fakt bo‘lib qoldi [Sharafiddinov, 2004: 181].

Ma’lumki, inson xayolotida izchillik, muntazamlik bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda, odam xayolini boshqarolmaydi, balki xayol odamni yetaklab ketadi. Shu tariqa, milliy adabiyotimizda, sirtdan qaraganda, badiiy maqsadga bo‘ysunmaganday taassurot qoldiruvchi, aslida esa,

o‘ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini namoyon etuvchi betakror asar dunyoga kelgan. Hayotdagi har qanday odam singari qissa qahramonining o‘ylarida ham tizgin yo‘q, muallif bu xayollarni saralab o‘tirmaydi. O‘ydan o‘yga, xayoldan xayolga ko‘chish jarayoni tasvirining o‘zi qahramon tabiatiga xos xususiyatlarni saralangan badiiy muntazamlikdan ko‘ra yorqinroq namoyon etadi. Hayotda odamning ichi bilan sirti, tili bilan dili bir bo‘lgan holatlar nihoyatda kam uchraydi. Har qanday odam faqat o‘ylaridagina o‘zi bo‘la oladi. U tizginsiz o‘y oqimlari bilan yolg‘iz qolgandagina o‘ziga qaytadi. Shunday holatda aks ettirilgan odamnigina bir qadar to‘laroq ilg‘ash mumkin bo‘ladi. Ulug‘bek Hamdamning asarlari milliy nasrning personajlar psixologiyasini chuqur taftish etishga qaratilgan yaxshi namunalardir.

Adabiyotshunos H.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya’ni odamning qalb iztiroblari, quvonchlarning betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko‘rinishlari inkishofi hamda voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo‘naltirilganligi, qahramonlarning o‘ta milliy va individuallashganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi ila o‘ziga xoslikka ega… voqea hodisadan ko‘ra, insonning uning qalbi tahlili birinchi o‘ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi” [Karimov, 2010: 4].

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti tafakkur yo‘nalishlari o‘zgacha bo‘lgan ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o‘laroq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo‘lgan adabiyotdir. Bu davrda olamning mavjudlik yo‘sinini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol adabiyotning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ikkinchidan, mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti endilikda davlat adabiyoti bo‘lmay qoldi. Mustaqil o‘zbek davlati badiiy adabiyotni sho‘ro zamonida bo‘lgani kabi o‘z monopoliyasiga aylantirishga urinmay qo‘ydi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Badiiy ijod qilish yoki qilmaslikka siyosiy baho berilmaydigan,

rag‘batlantirilmaydigan yoki jazolanmaydigan bo‘ldi. Adabiyot ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi.

Shu bilan birgalikda, mustaqillik davri nasrida ma’naviy dunyosi quruqshagan, risoladagi odamlarday fikrlash va o‘zgalarni tuyish saodatidan mahrum bo‘lgan ma’naviyatsiz kimsalarni tasvirlash mahorati ham shakllanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T., 1983.
2. Jo‘rayev T. Ong oqimi modern. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2009. – B. 204.
3. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –Toshkent: Yangi nashr, 2010. B. 4.
4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

DIDAKTIK ASARLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA MAZMUN UYG‘UNLIGI

Aziza Rashidova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Kengroq aytilganda, didaktik asarlar tarkibiga xalq hajvlari, latifa, hikoyat va rivoyatlar ham kiradi. Didaktik asarlar tarkibida keltirilgan bu kabi janr namunalari hikmat va nasihat, o‘rnak, namuna sifatida keltirib, turmushga yaroqli ma’nodor gaplar, inson ijobiy xislatlarini namoyon qiladigan va uni yomon yo‘llardan qaytarishga da’vat etishga, yaxshi fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada didaktik asarlarning o‘ziga xos jihatlari va boshqa janrlar bilan uyg‘unligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *didaktika, xalq xajvlari, latifa, hikoya, rivoyat, inson, “Qur’oni Karim”, oyat, nasihat, o‘git*

Didaktik asarlar tarkibi, tuzilishi mazmuni bilan bir-biridan farq qilsa ham, mohiyati bir-biriga yaqin bo‘lib, inson kamoloti va barkamolligi masalalariga qaratilgan. Didaktik asar ildizi, birinchidan, xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ikkinchidan, “Qur’on”ning sharhlovchilari tomonidan shariat qonun-qoidalari, axloq talablarining targ‘ib etilishi musulmon dunyosi ta’lim-tarbiya tizimida didaktik (ta’limiy-axloqiy) mazmundagi asarlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Didaktik asarlarda ma’lum mazmunni yoritishda Qur’on oyatlariga va yanada ravshanroq bo‘lishi uchun hadislarga ishora qilingan. Bundan tashqari asarlarda oyatlar va hadislarning sharhi keltirilib, fikrni dalillashda, xulosa qilishda ulardan unumli foydalanilgan. Oyat arabcha “ilohiy belgi”, “mo‘jiza” degan ma’noni anglatib, Qur’on suralarining bandini tashkil qiladi. Islomga ko‘ra, oyat Allohning o‘z elchisi Muhammadga vahiy qilib, bandalarga qo‘llanma sifatida yuborgan farmoyishi, mo‘jizasi.

Bundan tashqari, didaktik asarlar tarkibiga xalq hajvlari, latifa, hikoyat va rivoyatlar ham mavjud. Didaktik asarlar tarkibida keltirilgan bu kabi janr namunalari hikmat va nasihat, o‘rnak, namuna sifatida keltirib, turmushga yaroqli ma’nodor gaplar, inson ijobiy xislatlarini namoyon qiladigan va uni yomon yo‘llardan qaytarishga da’vat etishga, yaxshi fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Xususan, hajviya muayyan davrdagi va jamiyatdagi odamlarning kurashidan umumbashariy, buyuk va teran ma’no, xulosalar chiqargani uchun unga ko‘p murojaat etiladi. Xalq hajviyasidagi yana bir muhim xususiyat uning yo‘qolib ketmasligi, asrdan asrda o‘tib borishidir. Xalq hajviyoti paydo bo‘lgan davrga, makonga, zamon va joy sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Hajviya jamiyatda yuz berayotgan hodisalar bag‘rida paydo bo‘ladi. Shu hodisani aks ettirib, o‘zi ham takomillashib boradi. Hukmron sinflarning faqat kuldirish uchun kulish hajvida esa davrni, jamiyat hayotini aks ettirish xususiyati yo sira yo‘q, yoxud nihoyatda oz miqdordadir.

Didaktik asarlarda bir qator latifa va hikoya qahramonlari hamda an’anaviy obrazlar bor. Bulardan latifa qahramonlari, Juho, Bahlul – arab zaminida, Hajli, Talhaq, Tufayli – forsiy, Mushfiqiy – tojiklarda, Mirali – turkmanlarda, Xo‘ja Nasriddin Afandi – turkiy zaminida va boshqalar shular jumlasidandir.

Hikoya qahramonlari: Hotami Toy, Luqmon, Ayoz va boshqalar. Bu qahramonlar ma'lum bir xalqning, uning badiiy ijodiyotining qahramoni sifatida vujudga keldi. Ammo bu qahramonlar o'z zamini bilan chegaralanib qolmay, boshqa o'lka va xalqlarga ham manzur bo'lib, ularning o'z qahramonlari qatoridan o'rin olgan, yangi-yangi hikoyatlarning paydo bo'lishiga xizmat qilgan.

Aksariyat didaktik asarlarning nomlanishida noma so'zining qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Chunki O'rta asrlarda didaktik asarlarda "noma" so'zini qo'shib nomlash urf bo'lgan. Noma forschadan xat, maktub ma'nosini bildirib, adabiy janrlardan biri hisoblanadi. O'zbek va fors mumtoz asarlarida yaratilgan, real yoki xayoliy to'qima shaxsga asosan she'riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi hisoblanadi va ko'pgina didaktik asarlar noma janrida bitilgan. Jumladan, XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda mutafakkirlar tomonidan yaratilgan "noma"lar "Xusravnoma", "Asrornoma", "Muhabbatnoma", "Ilohiynoma", "Bulbulnoma", "Pandnoma", "Me'rojnoma", "Gumgumnoma", "Vuslatnoma", "Ushturnoma", "Hallojnoma", "Basirnoma", "Orifnoma", "To'tinoma" kabilar shular jumlasidandir.

Didaktika so'zining o'zi "yunoncha" "didakticos", ya'ni "o'qitish" degan so'zdan olingan. "Dars beruvchi, o'qitib biluvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Didaktika "ibrat", "ibratli" so'zlari bilan ham ma'nodosh. Didaktika so'zi pedagogikada ta'lim nazariyasidan tashqari ta'lim va tarbiya mazmunini tashkil qiluvchi asarlar mazmunida ham ishlatiladi. Ya'ni didaktik adabiyot, didaktik she'riyat, didaktik asar shaklida. Didaktik adabiyot – deganda esa badiiy shakl ilmiy, axloqiy, falsafiy va boshqa g'oyalarni ifodalash uchun foydalaniladigan ibratli mazmundagi adabiyot tushuniladi.

Didaktik asarlar yunonchada "falsafiy asarlar" deb ham yuritiladi. Didaktik asarlar - o'quvchiga ta'lim berish yoki unga foydali ma'lumot berish uchun nazmiy va nasriy shaklga murojaat qilish hamda har qanday fan yoki san'atning boshlanishini ko'rsatadigan mavzuga ega asar. Didaktik asar deganda, pand-u hikmat, nasihat, o'git, ibrat ruhidagi asarlar tushuniladi. Bunday asarlar Sharq va G'arb adabiyotida ko`plab yaratilgan. Sharqda so'z san'atida pand-nasihat ruhi ustuvorligi bilan G'arb adabiyotidan farq qilgan. Sharqda didaktik asarlar nasihat yo'li bilan tuzilgan bo'lsa,

G‘arbda hayotni real ko‘rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o‘tilgan. Og‘zaki va yozma adabiyoti, axloqiy-diniy merosi pand-hikmatga boyligi uchun ham Sharqni jahonda donishmand deb bilishadi.

Didaktik asar – mazmunida pand-nasihatni mujassamlashtirgan adabiyot. Bu turdagi asarlarda xalqning adolat, ma’rifat, axloq, odob haqidagi qarashlari, pand-nasihatlari nazmiy va nasriy shaklda bayon etilgan. Didaktik adabiyotlarni, adabiy shakliga ko‘ra, quyidagicha tasnif qilish mumkin: nasriy didaktik asarlar; nasriy-she’riv didaktik asarlar; she’riy didaktik asarlar.

Nasriy didaktik asarlar. Milodiy IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur «Pantachantra», ya’ni keyinchalik “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan buyuk didaktik asar dunyoga keladi. Uning butun Sharq, qolaversa, jahon adabiyotiga katta ta’siri bor. Asar o‘tgan davrlar mobaynida bir necha tillarga tarjima qilingan. Arab ertaklari asosida shakllangan “Ming bir kecha”da ham mohiyatan pandona ruh ustun turadi. Keyinchalik forsiyda Kaykovusning “Qobusnoma”si yozildi. Garchi XVI asr o‘zbek adibi Xojaning (Podshoxoja binni Abdulvahhobxojaning) “Gulzor” hamda “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”) asarlari ham Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i ta’sirida dunyoga kelgan bo‘lsa-da, ular sof nasriy yo‘lda bitilgan.

Nasriy-she’riy didaktik asarlar. Sa’diy Sheroziyning bag‘oyat mashhur “Guliston” asari aynan shu guruhga mansub. U ham nasriy, ham she’riy, ya’ni aralash yo‘lda bitilgan. Alisher Navoiy ana shu “Guliston”dagi eng yaxshi an’analarni davom ettirib, “Mahbub ul-qulub” asarini nasriy-she’riy shaklni omuxta qilib yozdi. Garchi majoziy timsollar, hayvonlar, asosan, qushlar misolida bitilgan bo‘lsa ham, Gulxaniyning “Zarbulmasal”i ham pandona adabiyotning ana shunday nasriy-she’riy, ya’ni aralash turiga kiradi.

She’riy didaktik asarlar. Sharqda faqat nazmiy usulda yaratilgan maxsus didaktik she’riyat ham shakllangan. Aytaylik, o‘zbek mumtoz she’riyatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy “Maxzan ul-asror”i asosida bitgan “Gulshan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi birinchi asar “Hayrat ul-abror” dostonlari aynan o‘zbek pandona (didaktik) she’riyatining yorqin namunalari hisoblanadi.

Didaktik asarlar ta’lim-tarbiya, odob-axloq va hikmat darslik bo‘lib, ijtimoiy, falsafiy, ilmiy qarashlarni ommalashtirish vositasi hamdir. Chunki ushbu tipdagi asarlar o‘rta asrlarda Movarounnahr hamda Xurosonda maktab, madrasa ta’limini yaxshilashda, ta’limning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda hamda ta’lim mazmunini tashkil qilib, dastur vazifasini o‘tagan. Didaktik asrlarni quyidagi tiplarga ajratib ko‘rsatish mumkin: axloqiy-didaktik asarlar; ma’rifiy-didaktik asarlar; falsafiy-didaktik asarlar; badiiy-didaktik asarlar.

Axloqiy-didaktik asarlar – ta’limiy-axloqiy uslubda yozilgan asar. Axloqiy-didaktik asarlarda insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi o‘rinni egallagan. Insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o‘zagi sanalgan va go‘zal axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu g‘oyani, ya’ni insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham o‘rta asr Sharq falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдусатторов А. Мовароуннаҳрлик ҳанафий фақиҳлар меросининг амалий аҳамияти // Истиқлол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши. –Т.: 2001.

2. Авфий Муҳаммад. Рашкчи эрни жазолаган хотин. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. 2012 – 252 б.

3. Авфий Муҳаммад.. Нодир ҳикоялар. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси. –Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977 – 204 б.

4. Зуннунов Асқар. Педагогика тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 332 б.

5. Зununнов А., Ўзбек педагогикаси тарихи: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / А.Зununовнинг умуммий таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. - 272 б.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA SEMANTIK OKKAZIONALIZMLAR

Masharipov Mansurbek Masharipovich,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada ma’rifatparvar jadid adibi Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasida qo‘llangan lug‘aviy okkazonalizmlarning semantik voqelanishi o‘rganilgan. Bunda publitsistik maqolalar matnida o‘zbek tilida avvaldan mavjud so‘zlarning favqulodda, yangi ma’nolarda qo‘llanganligi va, natijada, ma’noviy okkazional qo‘llash yuzaga kelganligi, nutq sharoitida ma’lum leksemalar qurshovidagi so‘zda voqelanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: leksik-semantik voqelanish, usual ma’no, okkazional ma’no, semantik okkazionalizmlar, morfologik okkazionalizmlar, kognitiv vazifa, nominativ vazifa, maromlilik.

Lisoniy sathda til birliklarining nutqiy qo‘llanish tizimi ularning umumiy, barqaror tizimiga aynan mos kelmasligi ham mumkin. Bu, o‘z-o‘zidan, til birliklarining leksik-semantik voqelanishi, morfologik tuzilishining nutqda qo‘llanishidagi o‘zgachalikni keltirib chiqaradi. Nutqiy so‘z yasalishida umumiy qoida va andozalardan chekinish holatlari ham kuzatiladi va buning natijasida g‘ayriodatiy yasalmalar Yuzaga keladi. Okkazionalizmlar mazkur lisoniy hodisaning mahsuli bo‘lib, ular aynan to‘g‘rilik, maromlilik mezonlari asosida tekshiriladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *okkazionalizm* termini “umumiste’molga muvofiq kelmaydigan, individual tarzdagi ma’noga ega bo‘lgan til birligi” deb izohlangan [1;103]. So‘zning semantik tabiatidagi leksik ma’no uzual va okkazional semasi bilan o‘zaro farqlanadi. Uzual ma’no so‘zning tarkibiga kirib, nutqdan tashqarida ham tushuncha ifodalaydi, lekin uni ifodalagan so‘z boshqa so‘z bilan munosabatga kirishganda

voqelanishi, turli nutq talabiga ko‘ra tanlanish imkoniyatiga ega bo‘lishi, faqat bir so‘zning semantik tarkibiga oidligi bilan xarakterlanadi. Okkazional ma’no esa nutq sharoitida ma’lum leksemalar qurshovidagi so‘zda voqelanib, kontekstdan tashqarida ifoda bermaydi. O‘zbek tilshunosligida okkazional leksikaning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, lug‘aviy va morfologik okkazional so‘zlar, ularning uslubiy vazifalari qoniqarli yoritilgan [2;27].

Biroq badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar matnidagi okkazional yasalishlarni o‘rganish, til va nutq hodisalarini farqlash asosida ularning badiiy-estetik vazifalarini ko‘rsatish hamda muallifning so‘z yasalishidagi Shaxsiy ijodiy yondashuvlarini tekshirish doimo ahamiyatli sanaladi. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan okkazional so‘zlarning xarakterli materiallari hali yetarli darajada to‘plangan va tadqiq qilingan deb bo‘lmaydi. Bunday material turli adiblarning badiiy asarlari, publitsistik, satirik-yumoristik asarlari matnida mavjud. Mana shunday manbalar qatoriga Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik asarlarini ham qo‘shish mumkin. Adibning publitsistik asarlari matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazional yasalmalar mavjudligini ko‘rsatdi.

Semantik okkazionalizmlar bir so‘zning ma’no o‘zgarishi sifatida yuzaga keladi. Bunda nutq jarayonida okkazional ma’no biror so‘zga yuklanadi va shu so‘z okkazional ma’noni namoyon etuvchi so‘zlar qurshovida beriladi. U ifodalagan okkazional ma’no yuzaga kelgan matndagina voqe bo‘ladi. Uni kurshab turgan, ya’ni u bilan bir birikma tarkibida joylashgan so‘zlar shu okkazional ma’noga asoslangan so‘zning namoyon etuvchilari hisoblanadi. Okkazional ma’no bilan voqelangan so‘z boshqa so‘z bilan birikmaga kirishmaydi, faqat o‘z o‘rnida va o‘z nutqiy mavqeidagina okkazional sifatida voqelanadi.

Adib o‘zbek tilida avvaldan mavjud ba’zi so‘zlarni favqulodda, yangi ma’nolarda qo‘llaydi va, natijada, ma’noviy okkazional qo‘llash yuzaga keladi:

Xafaqon. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da XAFAQON BO‘LMOQ fe’li “1) diqqat bo‘lmoq, siqilmoq, xunob bo‘lmoq; 2) qon bosimi ortish kasaliga yo‘liqmoq” tarzida izohlangan [1;392].

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Farg‘ona xotiralari” nomli maqolasida bu so‘zni maishat sohasiga ko‘chiradi va unga favqulodda yangi ma’no yuklaydi: *“Buxoro va Samarqand darsxonalarini tartibi hamon mantiq, hamon chirib mansux bo‘lganki, nahv va fiqh darslarini eshitsak, anqorib* ***xafaqonmiz****”* [3;298].

Tesha. Ma’lumki, “*tesha”* so‘zi oddiy uy-ro‘zg‘or buyumi, mehnat qurolini anglatadi. Bu so‘zni Mahmudxo‘ja Behbudiy maktab, maorif sohasida yozilgan “Ilmning foydasi” nomli maqolasida ilmning, ilm egallash quroli sifatida so‘zning semantikasiga qo‘shimcha ma’no yuklaydi: *“Har bir birodarimiz ilm taomul etsun, ilm har bir zamon kasbu maishat* ***teshasidur****”* [3;190]. Demak, bu o‘rinda “*ilm” “teshaga”* qiyos qilinmoqda va *“ilm ma’rifatning qurolidir (teshasi)”* degan fikr yuzaga kelmoqda.

Unvon. Odatda *“biror ish faoliyat sohasida vazifa darajasini ko‘rsatuvchi faxriy nom”* ma’nosida ishlatiluvchi bu so‘zni Mahmudxo‘ja Behbudiy *“noyob asar”* ma’nosida qo‘llaydi: *“Qo‘lumni tokchaya uzottim, tizilmish kitoblardan biri keldi. Ko‘rdimki, “Tuhfat ul-ahror”dir. Ochdim. Surxi (qizil siyohi) ila forscha shu mazmunli bir* ***unvon*** *yozilubdur”* [4;3].

Saqlamoq. Adabiy tilda *“ehtiyot qilmoq, asramoq, muhofaza qilmoq, omon qoldirmoq”* ma’nolarida qo‘llanuvchi mazkur fe’lning *“tiyilmoq”* semasi adib maqolalari matnida ifodalagan. Bu sema so‘z uchun favqulodda ma’nodir: *“Vasliy janoblari bilmayin na fikr ila tanazzul etibdurlarki, unday nimarsag‘a javob yozmoq balosig‘a giriftor o‘lmoqdan qalamni* ***saqlaymiz****”* [4;23].

Ishlamoq. Ushbu fe’lning ma’nolaridan biri *“harakatda bo‘lmoq”, “Yurmoq, yurib turmoq”; “amal qilmoq”*dir [1;256]. Hozirda tilimizda *“qonun ishlamayapti”* degan ibora ham bor.

M.Behbudiy ushbu ma’noni “Bizga isloh kerak” nomli maqolasida *“haqiqat ishlamayapti”, “aksincha bid’at ishlayapti”* iboralariga singdirgan va so‘zning favqulodda ma’nosi, ya’ni *“adolat yuzaga chiqmayapti”* ma’nosi yuzaga kelgan. Aksincha, bid’atning avj olayotgani qarama-qarshi qo‘yish usuli orqali ko‘zda tutilayotgan holatning ochilishiga xizmat qilgan: *“Ulamo ozaydi. Axloq buzildi, ulamoi musulmoniyag‘a johil va xoin, sarf-savodsiz kishilar qozi bo‘ldi.* ***Haqiqat ishlamadi, bid’at ishladi****... Oh, zolim hukumat va missionerlar bizga nalar qildilar!”* [3;492].

Hosil. Bu ot leksema o‘z ma’nosida *“natija, oqibat; yakun, samara; mazmun, mohiyat”* [1;552] ma’nosida qo‘llanadi. Mahmudjo‘ja Behbudiy bir o‘rinda bu so‘zni *“pul”, “mablag‘”* ma’nosida qo‘llagan va unga favqulodda ma’no yuklagan: *“Muhtaram samarqandiy ko‘ngulli mushaxxislar g‘ayrat qilib, yana “Padarkush”ni Samarqandda yetiinchi mayda sahnag‘a qo‘yub,* ***hosilini*** *maktablarg‘a sarf uchun berdilar”* [4;16].

Maosh. Ushbu so‘z *“turmush, tirikchilik uchun zarur narsalar va ish haqi”* ma’nosini anglatadi. [1;541]. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ochlik balosi” nomli maqolasida *maosh* so‘zini *“ne’mat”, “nasiba”* ma’nosida qo‘llagan hamda *“maosh oshasun”* birikmasida u favqulodda ishlatish holatini yuzaga keltirgan: *“Ey musulmon birodarlar, lozimki, har kim o‘z kasbidan* ***maosh*** *oshasun, o‘zgadin foydalanmog‘ni tashasun”* [3;490].

Yuqoridagi misollarda semantik okkazionalizmlar u yoki bu nutq vaziyatining asosini ifodalamoqda va matnda shu asosga urg‘u berilmoqda. Matn tarkibidagi okkazional ma’no lug‘atdagi mavjud so‘zlar orqali ifodalansa, publitsistning ko‘zda tutgan maqsadi aniq ifodalanmay qolishi ham mumkin. Shuning uchun tasvir ob’yekti asosini aniq ko‘rsatish uchun muallif favqulodda boshqa so‘z tanlash yo‘lidan borgan va qo‘llangan so‘zlarning denotativ ma’nosiga muallif fikrini ifodalashga xizmat qiladigan yangi ma’no yuklangan. Bu leksemalarning okkazional ma’noda qo‘llanishining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning muayyan matn bilan mustahkam bog‘liqligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. I-V жилдлар. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020.

2. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. –27 б;

3. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар 2 жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). –Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 б.

4. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар 2 жилдлик. 2-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). –Тошкент: Akademnashr, 2018. – 312 б.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Sh. So‘zboshi	**3**
GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA	
To‘xliyev B. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning dolzarb masalalari	**5**
Niyozmetova R. Milliylikning badiiy asalarni o‘rganishdagi o‘rni	**11**
Mirqosimova M. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	**15**
Yusupova Sh. Ona tili o‘qitishda tasavvurning o‘rni	**20**
Abdullayeva M. Adabiy ta’limda ilmiy yondashuv usullari	**29**
Mirzayeva Z. Badiiy asar tahlili: lokaldan globalga	**35**
Yuldasheva D., Yusupova T. O‘rta maxsus bo‘g‘inda ona tili ta’limi	**45**
Kambarova S. Matnni tushunish texnikasini o‘rgatish – o‘qish takstikasini shakllantirish vositasi	**52**
Kadirova N. Konstruktivistik ta’lim xususiyatlari	**57**
ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR	
Matchonov S. Dilshod Rajab she’riyatida ruhiyat talqini	**65**
Jurayeva G., Gurel Z. Bolalar adabiyotini o‘qitishda hajviy she’riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida)	**71**
Abdurahmonova B. Yusuf Xos Hojibning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari	**78**
Ismoilov I. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini o‘qitish masalalari	**82**
To‘xtayeva N. Mustaqillik davri o‘zbek bolalar she’riyati	**87**
Tuychiyeva M. Matn orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish	**91**
Tuxliyeva D. Avaz O‘tar g‘azalining yangicha o‘quv tahlili	**95**
Ishonxanova I. Alisher Navoiy hikmatlarining ta’limdagi o‘rni	**102**
Aliqulova H. O‘zbek va qozoq yor-yor qo‘shiqlarining janr tabiati	**107**

Nabijanov Y. Grafik organayzer – infografikalar va ulardan foydalanish	**112**
Jazilova M. Matn ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	**117**
Nazarova D. Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g‘oyalari talqini	**127**
Inomjonova S. O‘zbek bolalar adabiyotida fantastik asarlar o‘rganilishining ahamiyati	**134**
Nurmuhammadov J. Adabiy laboratoriya: podkast yaratish mashg‘ulot turi sifatida	**144**
Norqulova M. Xalq og‘zaki ijodini o‘qitishdagi muammolar tahlili (5-sinf darsligi misolida)	**150**
Elboyeva M. Uzluksiz adabiy ta’lim dastur va darsliklarida bolalar adabiyotini o‘rganish masalasi	**155**
Yuldasheva M. Adabiyot darslarini tashkil etishda ijodiy individuallik	**160**
Shukurboyeva O. Kompetentli shaxsni shakllantirishda adabiyot darslarining o‘rni	**164**
Karimova Y. Poetik tafakkur masalasining o‘rganilishi	**169**
Ulug‘murodova K. Temuriylar davri she’riyatida Layli timsoli (Atoyi va Sakkokiy ijodi misolida)	**175**
Jumaniyozova I. Ijod maktablarida mumtoz namunalarning o‘qitilishi	**182**
Musaeva O. O‘zbek tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarni ijodkorlikka chorlash	**187**
Qayimova Sh. Adib estetikasining shakllanishida ijtimoiy omillarning o‘rni	**195**
Abdullayeva M. Bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslari	**201**
Abdurashidova Sh. Ta’sir va tipologiya	**206**
To‘g‘onova D. Adabiyotni o‘rgatish yo‘llarini o‘rganish (dramatik asarlar misolida)	**212**
Narziyeva M. Dramatik asarlarni sahnalashtirib o‘qitish usullari	**216**
Anvarova Z. Mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o‘rgatish	**221**

Ergasheva N. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlardan foydalanish usullari	**227**
Maxsumov M. Yusuf Saryomiy devoni manbalari tadqiqi	**236**
Vohidova M. Muhammad Namangoniy – Foyiq she’riyati tahlili	**244**
Meyliyeva N. Alisher Navoiyning “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” ruboiysi vazni metodikasi	**252**
Rayimqulova D. Jamshid obrazining “Avesto” va mumtoz adabiyotdagi talqini	**255**
Qoryog‘diyeva S. Adabiy lug‘atlar haqida	**260**
Qulsaxatov F. Uzluksiz ta’lim tizimida integrativ yondashuv (Bobur ijodi talqinida)	**267**
Djalilova M. Odil Yoqubov dramaturgiyasida amir temur obrazi tasviri	**277**
Kuchkarova K. Oybekning qahramon xarakterini tasvirlash mahorati	**281**
ONA TILI TA’LIMIDA O‘QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI	
Ahmedov H. O‘zbek tilidan rivojlantiruvchi topshiriqlar bo‘yicha mulohazalar	**285**
Mavlonova K. Matn tuzishni o‘rgatishda darsliklardagi o‘quv materiallaridan foydalanish mazmuni	**290**
Xudoybergenova Z. Kuldasheva S. Nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda multimediali ta’limning o‘rni	**296**
Berdiyeva N. Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari	**300**
To‘rayeva Sh. Imlo savodxonligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish	**304**
Mahkamova D. “Til texnologiyasi” terminining metodik talqini	**308**
Ergasheva N. Ona tili ta’limida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi	**313**
Sharopova F. O‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash usullari	**317**
Turg‘unova N. O‘quv loyihalari bilan ishlashning pedagogik asoslari	**323**
Mirzaraxmedova F. Yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda og‘zaki nutqning ahamiyati	**326**

Mirvaliyeva D. Fikrni tushunish va yozma bayon qilish darajasini aniqlash usullari.	**332**
Qo‘yliyeva Sh. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari	**338**
Badriddinova U. Maktab darsliklarini takomillashtirish – zamon talabi	**345**
Abdurahimova G. O‘zbek bolalar antroponimlarining konnotativ xususiyatlari	**351**
Muratova F. Test – bilim, ko‘nikma va malakalarni baholovchi topshiriq	**356**
Bobonazarova S. Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar ustida ishlash.	**366**
Saidaxmatova M. Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar	**370**
Usmonova Y. Hamkorlikda o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari	**375**
Eshboyev Q. Umumiy o‘rta ta’lim uchun so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atining zarurati	**378**
G‘aybulloyeva F. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini baholash zarurati	**382**
TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	
Xidirova H. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning o‘rni va ahamiyati	**388**
Xolmurotova G. Eshqobil Shukur she’riyatida badiiy san’atlar ifodasi	**393**
Jo‘raqulov S. “Yulduzlar mangu yonadi” va “Azroil o‘tgan yo‘llarda” asarlaridagi mushtarak va ayricha jihatlar	**401**
Saydazimov A., Muhammadiyeva B. Bolalar adabiyotida milliy mentalitet	**405**
Mitanova Sh. “Oydinda yurgan odamlar” va “Bepoyon osmon” asarlarining qiyosiy tahlili	**410**
Rajapova X. Adabiyotda uchraydigan chumoli obrazi talqini	**415**
Xushvaqova O‘. Epik asarlarni tahlil qilish usullari (Qissa va hikoya misolida)	**419**

Boymurodova S. Alisher Navoiy ijodi Aziz Qayumov talqinida	**423**
Abdirashidova D. Umumta'lim maktablarida ayol ijodkorlarning asarlarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish imkoniyatlari	**427**
Erkinova X. Ona tili darslarida "shaxsiy hikoya" yaratish usuli	**432**
Xamidova M. Ravish so'z turkumining maktab darsliklarida ifodalanishi	**436**
To'xtayeva F. Ona tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning didaktik va nazariy asoslari	**439**
Eshnazarov A. O'zbek tilining qonuniy mustahkamlanishi, o'zbek tilining bugungi kundagi muammo va kamchiliklari	**444**
Toshpulatova M. Rus tilining O'zbekiston va boshqa davlatlardagi mavqeyi	**449**
Abdug'afforova M. Ilmiy insholarning o'ziga xos xususiyatlari	**452**
Abduvaliyeva A. Iqtisodiyotga oid terminlar o'quv izohli lug'ati	**456**
O'rinova D. Alisher Navoiy lirik merosining maktab darsliklarid berilishi	**461**
Nurmamatova P. Rauf Parfi she'riyatida vatan ohanglari	**468**
Gulyamova O. Intensivlik va kvantifikatsiya kategoriyalari	**471**
Saidaxmatova M. Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar	**477**
Mamajonova N. Mustaqillik davri adabiyotining ta'lim jarayonida o'ziga xos xususiyatlari	**482**
Rashidova A. Didaktik asarlarning o'ziga xos jihatlari va mazmun uyg'unligi	**486**
Masharipov M.M. Mahmud xo'ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlar	**491**

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 31,2 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. ofset usulida bosildi.
OOO “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10